

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklor instituti

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Namangan davlat universiteti

Anqara Hoji Bayram Veli universiteti

Karabuk universiteti

Ch.Aytmatov nomidagi Turk dunyosini o‘rganish va amaliyot markazi

M. O. Auezov nomidagi Janubiy Qozog'iston davlat universiteti

Oriental universiteti

O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTINI O‘RGANISHNING NAZARIY VA MANBAVIY ASOSLARI

mavzusidagi xalqaro II ilmiy-amaliy konferensiyasi

materiallari

(30-oktabr, 2024-yil)

Toshkent-2024

O‘zbek mumtoz adabiyotini o‘rganishning nazariy va manbaviy asoslari mavzuidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. B.Abdullayev, L.Axmadaliyev, M.Djurayev –Toshkent: , 2024. – 304 b.

Tahrir hay’ati:

J.Eshonqulov, O.Jo‘raboyev, Y.Tursunov, Sh.Nazarova, Sh.Hasanova

Mas’ul muharrir:

Jabbor Eshonqulov, filologiya fanlari doktori, professor.

To‘plovchilar:

Bilolxon Abdullayev, Qutfiddin Dehqonov, Lochinbek Axmadaliyev, Mabruk Djurayev, Alisher Xalimjanov

Konferensiya O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-iyundagi PQ-200-son qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida”gi 16-son buyrug‘ining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “2024-yilda xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy texnik tadbirlar rejasi”ga muvofiq o‘tkazilgan.

Anjuman arxivshunos olimi, “Shuhrat” medali sohibasi Rahima Sharafuddinovaning 80-yillik yubiley sanasiga bag‘ishlanadi.

To‘plam O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi ilmiy kengashining Qaroriga ko‘ra nashrga tavsiya etilgan (majlis bayoni №18, 10.10.2024)

© Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi, 2024

TURKIY YOZMA YODGORLIKLARNI O‘RGANISH MASALALARI

NAVOIY KONSEPTUAL TIZIMIDA MA’RIFAT TUSHUNCHASINING O‘RNI

Rashid ZOHID

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori, f.f.d.

Annotatsiya. Mazkur maqolada Navoiy konseptual tizimida ma’rifat tushunchasining o‘rni borasida so‘z yuritilib, ma’rifat istilohining hozirgi kun va klassik adabiyotdagi ma’no-mazmunlari va ularning qo‘llanimi borasida atroflicha qarashlar bayon etiladi. Shu bilan bir qatorda “ma’rifat”, “maorif”, “orif”, “irfon” kabi birliklarining asl ma’nolari mumtoz adabiyot namunalrida, xususan Alisher Navoiy ijodida go‘zal tarzda ifoda etilganligi ijodkorning ijod namunalri asosida o‘ziga xos tarzda yoritilib beriladi.

Kalit so‘zlar: Ma’rifat, orif, zohid, ilm, bilish, sema, maorif, irfon, mumtoz adabiyot.

Abstract. This article talks about the role of the concept of enlightenment in Navoi's conceptual system, and gives detailed views on the meanings of the revolution of enlightenment in modern and classical literature and their application. At the same time, the original meanings of units such as "enlightenment", "maarif", "arif", "irfan" are beautifully expressed in the works of classical literature, especially in the work of Alisher Navoi, in a unique way based on the works of the artist. will be highlighted.

Key words: Enlightenment, scholar, ascetic, knowledge, knowledge, knowledge, education, gnosis, classical literature.

Sharq mumtoz adabiyotini, xususan, Alisher Navoiy adabiy merosini “ma’rifat” tushunchasidan xoli tasavvur qilib bo‘lmaydi. Mumtoz adiblarning ijodiy kredosi – maslagini belgilagan, millatimiz ma’naviyatining ajralmas qismi bo‘lgan ming yillik adabiy merosimizning asrlar davomida qiymatini yo‘qotmasdan, aksincha, zamonlar osha qadrini yuksaltirayotgan bosh omil ma’rifatdir.

Arabcha “ma’rifat” so‘zining lug‘aviy ma’nosi – *tanimoq, bilmoq*. Ammo *ilm* so‘zi anglatgan *bilish* bilan *ma’rifat* so‘zi anglatgan *bilish*¹ o‘rtasida farq bor. *Ma’rifat* deganda – narsaning belgilarini (sifatlarni) idrok qilish tushunilsa, ilm orqali *bilish*da narsaning o‘zini (zotni) idrok qilish tushuniladi. Boshqacharoq aytilsa, ilgari xabardor bo‘lmagan narsani keyin bilish ma’rifatdir. Shuning uchun *ma’rifat* so‘ziga o‘zakdosh *orif* sifatini Ollohga nisbatan qo‘llab bo‘lmaydi. Chunki bexabarlikdan so‘ng bilim hosil bo‘lishi Yaratuvchiga emas, yaratilganlarga xos sifat. Navoiy “Hayratul abror”ning avvalgi munajatida bu

¹ Har ikki – عَلِمَ (عَلِمَ) va عَرَفَ (مَعْرِفَةٌ) so‘zi lug‘atda “bilmoq” ma’nosini anglatadi.

haqda deydi: “*Ma’rifating kim qila olmon sifat / Qilding ani orifi ul ma’rifat*”.² Ya’ni, ma’rifatingni sifatlab tushuntira olmayman, lekin Sen insonni o’sha ma’rifatni hosil qiluvchi – orif etib yaratding.

Alisher Navoiy “Mahbubul qulub” asarining 16-faslida shoirlarni tabaqaga ajratar ekan, ularning eng yuqori darajadagilarini ma’rifatga sohiblik tushunchasi bilan izohlaydi: “Avvalg’i jamoat nuqudi kunuzi ma’rifati ilohiydin g’aniylar va xalq ta’rifidin mustag’niylardur. Ishlari maoniy xazoinidin ma’rifat javharin termak va el fayzi uchun vazn silkida nazm termak. Nazm adosi bag’oyat arjumand va benihoyat sharif va dilpisand o’ldug’i uchun oyoti kalomda nozil bor”.³ Ya’ni, shoirlarning eng baland darajadagilari shunday zotlarki, ular ilohiy ma’rifat (Haqni tanish) xazinasini qo’lga kiritgan, xalqqa o’zini tanitishdan behojat kishilardir. Ularning ishlari ma’rifat xazinasidan ma’nolar gavharlarini termog’ va elga fayz yetkazish uchun bu gavharlarni vazn ipiga nazm qilib tizmoqdir. She’r yozish bag’oyat mo’tabar, nihoyatda sharaflari va ko’ngilga yoqimli mashg’ulot bo’lgani uchun Qur’oni karimda bu haqda oyat nozil bo’lgan.

Qadim manbalarda, xususan mumtoz adabiyotimizda *ma’rifat* lafzi orqali *Yaratuvchini tanish* tushunilgan. “Nasoyimul muhabbat” tazkirasida Abu Sulaymon Doroniyning (vafoti hijriy 215, milodiy 830-y.) shunday so’zlari keltiriladi: “Andin so’rdilarkim, ma’rifati haqiqiy nedur? Dedi uldurki, ikki dunyoda murod birdin o’zga bo’lmag’ay”.⁴ Ya’ni, Abu Sulaymon Doroniydan: “Haqiqiy ma’rifat nima?” – so’rashdi. Haqiqiy ma’rifat – dunyo va Oxiratda yolg’iz Ollodan o’zga maqsadning bo’lmasligidir, javob berdi Doroniy. Demak bor murod-maqsadi bir Ollod bo’lgan banda haqiqiy ma’rifatni topgan, Yaratuvchisini tom ma’noda tanigan insondir.

Bugun *ma’rifat* so’zining ma’no doirasi eniga (gorizontal) biroz kengaygandek bo’ldi. Asldan kelib chiqadigan sifatlar aslning o’rnida iste’mol qilina boshladi. Masalan, “ma’rifatli kishi” degan so’zdan endi bevosita “Ollodni ongli ravishda anglash” sifati tushunilmaydi. Balki, zamonamiz kishisining ma’rifati – ko’p ma’lumotlardan xabardorlik, rasmiy odob etiketlarini o’zlashtirganlik, ya’ni bilimli, madaniyatli, ziyoli bo’lishdan iborat, degan qarash bugun me’yorga aylangan. Albatta, mumtoz adabiy matnlarda kelgan “ma’rifat” so’ziga nisbatan bu me’yor o’lchov bo’lolmaydi. Negaki, mumtoz matnlarda kelgan “ma’rifat”, “maorif”, “orif”, “irfon” so’zlarini bugun urfga aylangan ma’nolar bilan qanchalik ko’p va xo’b tushuntirishga urinmaylik, bu izohlarimiz Haq taoloni tanish ma’nosiga qaratilmas ekan, sharh va izohlarimiz chala, balki asl maqsaddan chalg’ituvchi bo’lib qolaveradi. Sababi, nafaqat “ma’rifat” so’zi anglatgan semantik ma’noning zamonlararo farqli talqinida, balki ayni Navoiy zamonida, bundan besh asr ilgari ham bu so’zning sema⁵sida nozik darajalanish bo’lgan. Masalan, “Nasoyimul muhabbat”da Abu Sa’id Xarrozning shunday

نوائى. حيرت الابرار. علمى تنقيدى متن/ تuzochi pارسا شمس. تاشكينت، ۱۹۷۰، "فن" نشرىياتى، اولغى ، بيت - ۳۸ ، مناجات، صحيفه-۸.

³ Алишер Навоий. Махбубул қулуб. МАТ. 14-т. Т.: “Фан”, 1998, 24-бет.

⁴ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Т.17. Т.: “Фан”, 2001, 37-бет.

⁵ Sema (yun. “sema” – belgi) – mazmun, ma’no jihatining eng kichik birligi.

soʻzlari keltirilgan: [رياء العارفين خير من اخلاص المريدين]. Yaʼni: “Oriflarning riyosi muridlarning ixlosidan yaxshiroqdir”.⁶ Orif – Oллоhni tanuvchi; murid – Oллоhni tanishni iroda qilgan, shu yoʻlga qadam qoʻygan inson. Umumiy maʼnoda har ikkisida ham Haqni tanishga intilish sifati mavjud. Riyo – ixlos, xolislikning tamoman ziddi boʻlgan salbiy xislat. Orifning mana shu salbiy xislati muridning ijobiy xislatidan afzalligi aytilyapti. Zohiran qaralsa, hukm mantiqqa zid. Lekin bu oʻrinda bahs mavzusi riyo va ixlos emas. Aksincha, murid va orif maqomi qiyoslanyapti. Maqomning ulugʻligini koʻrsatish uchun esa eng quyi nuqta bilan oliy nuqta misol sifatidagina keltirilgan. Ulugʻlik oldida “quyi” va “oliy” degan oʻlchovlar oʻz maʼnosini yoʻqotishiga ham bu oʻrinda ishora bor.

Abdulloh ibn Muhammad Xarroz deydi: [الجوع طعام الزاهدين و الذكر طعام العارفين]. Yaʼni: “Ochlik – zohidlar taomi, zikr – oriflar taomi”.⁷ Zohid ham, orif ham Haqni tanigan, Oллоh yoʻlidagi insonlar. Lekin negadir zohidning taomi moddiy dunyoga, orifning taomi maʼnaviy olamga taalluq topyapti. Islom eʼtiqodiga koʻra maʼnaviy olam moddiy borliqni belgilaydi. Maʼnaviy olam hukmlar qarorgohi boʻlsa, moddiy borliq ijro maydonidir. Bundan kelib chiqadiki, ochlik – zohidlar taomi, zikr – oriflar taomi, degan tashbehda ham oriflik maqomi ulugʻlanyapti. Demak tarkibida “maʼrifat” semama⁸si ifodalanishi mumkin boʻlgan (murid, obid, zohid, oqil va hokazo) soʻzlar mumtoz adabiyot kontekstida “orif” soʻziga nisbatan ikkilamchi ahamiyat kasb etadi.

Alisher Navoiy bir qitʼasida aytadi:

Erur orifqa ganji fayz yetsa,

Ishi dam urmayin ani yoshurmoq,

Quyosh aksi tushub daryo ichinda,

*Ne mumkindur aning suyin toshurmoq.*⁹

Eʼtibor berilsa, Navoiy bu qitʼasida orif insonni gʻoyaviy-estetik ideal darajasiga olib chiqqan. Uning oddiy bandadan farqi, yaxshi bilan yomonning, kichik bilan ulugʻning, tuban bilan yuksakning oʻrtasidagi farq qadar. Qitʼaning butunligi oriflik tushunchasida yaxlitlashgan. Endi bu butunlikdan qism ajratib olinadi – *ganji fayz*. Oriflikning birinchi sifati – qalbi Haqning toshqin xazinasiga makon boʻlishi. Ikkinchi sifati – oʻziga berilgan bu ulugʻ martabani – agar nafas olayotgan boʻlsa, qayta nafas chiqaradigan, nafas chiqarayotgan boʻlsa, qayta nafas oladigan muddat oʻtmasdan bекitishi. Odatda, inson zoti boshqalardan zigʻircha afzalligini payqab qolsa, koʻz-koʻz qilishga shoshadi. Agar u afzallik osmon bilan yer oraligʻi miqdorida boʻlsa-chi? Buni qanday oshkor qilmaslik, yashirin saqlab yurish mumkin?! Haqdan indirilgan muhabbat bir tomchi boʻlsa, banda qay ahvolga tushadi? Endi u bitta bebaho dur boʻlib emas, xazina boʻlib yogʻilsa, bir

⁶ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами.Т.17. Т.: “Фан”, 2001, 58-бет.

⁷ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами.Т.17. Т.: “Фан”, 2001, 110-бет.

⁸ Semema – leksik maʼnoning tarkibiy qismi. Masalan, “atrof” leksemasining maʼnosi (sememasi) “hamma” va “tomon” semalaridan iborat yoki “daraxt” leksemasining sememasi “predmet”, “oʻsimlik”, “erda oʻsuvchi”, “tanali”, “ildizli”, shoxli”, “bargli” va boshqa semalardan tashkil topadi.

⁹ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами.Т.4. Т.: “Фан”, 1989, 512-бет.

tomchi emas, buloqdek toshib quyulsa-chi?! Buni yashirish uchun qancha kuch kerak?! Mana, ma'rifatning qiymati! Mana, bashariyatning yaqin tarixida nima uchun oriflar yetishmayotganining va buning oqibatida, bugungi insoniyat ruhidagi olamshumul tanazzulning sababi!

Ma'naviy olamda lahza bilan abadiyat oralig'ida kechadigan bu murakkab holni Navoiy keyingi baytda tasavvurni yanada oydinlashtirish, zavqni yana oshirish uchun dunyo olamidagi oddiy manzaraga ko'chiradi: yerdan bir necha ming bor ulkan quyoshning nuri daryoga tushgani bilan daryoning suvi toshadimi?

Oqil, obid, zohid bo'lganingiz holda yaxshiligingiz ovoza bo'lishini xohladigizmi, siz orif emassiz. Haq taolo ato etgan afzalligingizni o'zgalardan yashira olsangiz, bu fazilat Olloh bilan o'rtangizda sir bo'lib qolsagina, siz orifsiz!

Dunyo va Oxiratda insoniyatni najotga eltadigan bu yuksak maqom tasavvuf ilmida “xumul” (خمول – noma'lumlik, mashhur bo'lmaslik) tushunchasi orqali ta'riflanadi. Hijriy 658/1260-yil Misrning Iskandariya shahrida tug'ilgan, Al-Azhar jome'sida va “Mansuriya” madrasasida fiqh, hadis, tasavvuf kabi fanlardan dars bergan, shoziliya tariqatining yirik olimlaridan Shayx Atoullah Iskandariyning “Hikamul Atoiyya” kitobida bu haqda go'zal bir hikmat keltirilgan: “Vujudingni xumul – noma'lumlik yeriga ko'm, ko'milmagan urug'dan unib chiqqan narsaning hosili bo'lmas”. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlari bu hikmatni shunday sharhlaydi: “Ushbu hikmatda shon-shuhratga berilmaslikning, o'zini panaga olishning, kamtar bo'lishning, qisqa qilib aytganda, “xumul” – noma'lumlik – nafsni unga loyiq bo'lgan nuqson va pastlikka tashlashning fazli haqida so'z ketmoqda. Ibn Atoullah Sakandariy rahmatullohi alayh buni urug'ni tuproq ostiga ko'mishga o'xshatmoqda. Tuproqqa ko'milmagan urug'dan unib chiqqan o'simlikdan hosil chiqmaydi, u sarg'aygan va nimjon o'simlik holida qolib ketadi. Shuningdek, hali hayot dalasining xumul tuprog'iga ko'milmagan nafs ham samara bermaydigan, nimjon bo'lib, biror hosil bera olmaydi”.¹⁰

“Nasoyimul muhabbat” tazkirasida “avvalgi tabaqadan” deb zikr qilingan¹¹ Bishr ibn Horis (vaf. hij.220/835-y.)ning siyratiga nazar soling. Ahmad ibn Nasr deydi: “*Bishr ibn Horisning oldida ikki kishi o'tirgan edik, uchinchi kishi kelib bizga qo'shilishi bilan u o'rnidan turib ketdi*”.¹² Nega? Sababi, Bishr kabi oriflar yaratilganlarning emas, Yaratuvchining e'tiboriga xaridor. Avvaliga haqli ravishda odamlar nazariga tushgan va dastlab bu holni biroz uyalinqirab qabul qilgan nafs bora-bora mashhurlikka o'rganadi, hatto so'ngida zarracha hayo qilmasdan, xotirjamlik bilan izzat-e'tiborni talab qilishgacha boradi. Yo'q, oriflar ixlosning bahosini bilganlari uchun ham “tilloni misga” alishtirmaganlar. Atrofiga odam to'plab, bundan lazzat oladigan darajada laqma bo'lib qolishdan o'zlarini doimiy ehtiyot qilishgan. Ha, Bishr ibn Horis orif insonlardan edi! Uning ushbu duosi ham bu fikrimizni tasdiqlaydi: “Ey Ollohim, bekitgil! Bekitganlaring orasida O'zing

¹⁰ Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Хислатли ҳикматлар шарҳи. Т.: “HILOL-NASHR”, 2014, 114-бет.

¹¹ Қаранг: Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами.Т.17. Т.: “Фан”, 2001, 43-бет.

¹² الدكتور سيد بن حسين العفاني. صلاح الامة في علو الهمة. الجزء الاول. دمشق. مؤسسة الرسالة ناشرون، ١٩٩٧، ص:١٣١

yaxshi ko‘rgan amallar bo‘lsin, ko‘pincha O‘zing yomon ko‘rgan amallarimizni yashirasan”.¹³ Haqiqatan ham inson zotining yuzini shuvit, o‘zini sharmandayi sharmisor qiladigan qanchadan-qancha amallari bor, agar Olloh ularni ko‘zlardan yashirib qo‘ymaganida, shu dunyoning o‘zida oshkor etganida insonning holiga maymunlar yig‘lardi...

“Nasoyimul muhabbat” tazkirasida kelgan deyarli barcha oriflarning siyratida “xumul” holatiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Tazkirada “avvalgi tabaqadan” deb zikr qilingan¹⁴ yana bir shayx Fuzayl ibn Iyoz (vaf. hij.187/802 y.)ning ushbu so‘zlariga quloq tuting: “Agar atrofida odamlarni to‘plangan kishini ko‘rsam, bu jinnimikan, deb o‘ylayman. Atrofiga odam jamlab, ularga chiroyli gapirishni xohlamaydigan kishi bormikan?!”¹⁵ Ya’ni, bunday vaziyatda nafs o‘zini asl holatidan boshqacharoq, odamlarga yoqadiganroq qilib ko‘rsatishga majbur, garchi asl holati hozir odamlarga ko‘rinayotganining g‘irt aksi bo‘lsa ham. Tafakkur ne‘mati tufayli barcha maxluqotdan mumtoz va yer yuzida Ollohning o‘rinbosari qilib yaratilgan inson uchun bundan-da ayanchliroq, ya’ni avvalo o‘zini, qolaversa, o‘ziga ishonganlarni ham aldashdan tubanroq xorlik bo‘lishi mumkinmi?!

Yuqorida mumtoz adabiyot kontekstida “orif” so‘zining o‘ziga yondosh boshqa ijobiy sifatlarga nisbatan birlamchi ahamiyat kasb etishi haqida aytgan edik. Navoiydan qariyb bir asr oldin yashagan Haydar Xorazmiyning “Gulshanul asror” masnaviysida kelgan ushbu baytga bir e’tibor qarataylik:

Oqil agar so‘z bila so‘zni yopar,
Orif o‘shul so‘zda o‘zini topar.¹⁶

“So‘z bilan so‘zni yopish”, ya’ni aytilgan so‘zni dalolati undan kuchliroq boshqa so‘z bilan inkor yoki tasdiq qilish aqlga xos xususiyat. Shu mantiqqa ko‘ra, oqil inson har qanday holatda aqlini ishlatib qo‘li baland kelaveradi, hech qachon yengilmaydi, hamisha haq bo‘lib chiqaveradi. Oxir-oqibat, u o‘ziga o‘xshagan barchadan ustunligini namoyish qilishga erishadi va shu yo‘l bilan shuhratga chanqoqligini qondiradi.

Orif bunday vaziyatda nima qiladi? Garchi aytilgan so‘zda sha’nini yerga uradigan ma’no bo‘lsa ham g‘azabga berilib, yuzini teskari o‘girib olmaydi, uni qabul qiladi. Nafaqat qabul qiladi, balki bu ma’noni yanada kuchliroq tasdiqlash uchun o‘sha so‘z zamiridan o‘ziga qarshi dalillarni izlab topadi. Hech qanday holda o‘ziga nisbatan yog‘ilgan maqtozni oqlamaydi. Chunki o‘zining maqtovgasi emasligini, maqtovgaga arzimastligini biladi. Kamsitilsa, zarracha e’tiroz bildirmaydi, aksincha, o‘zining bundan ham badtarroq ekanini tan oladi. Orif inson mana shu siyrati bilan bandaligini, Haqqa qulligini izhor qiladi. Uning uchun

¹³ الدكتور سيد بن حسين العفاني. صلاح الامة في علو الهمة. الجزء الاول. دمشق. مؤسسة الرسالة ناشرون، ١٩٩٧، ص:١٣١

¹⁴ Қаранг: Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами.Т.17. Т.: “Фан”, 2001, 35-36-бетлар.

¹⁵ الدكتور سيد بن حسين العفاني. صلاح الامة في علو الهمة. الجزء الاول. دمشق. مؤسسة الرسالة ناشرون، ١٩٩٧، ص:١٣٤

¹⁶ Хоразмий. Гулшанул асрор. /Навоийнинг нигоҳи тушган... Т.: Ғафур Ғуллом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986, 187-бет.

Oллоhga qul bo‘lishdan ulug‘roq unvon yo‘q. Balki shu sabab tasavvuf ta’limotida oriflik maqomi aql mantig‘idan yuksakroqda tasavvur qilinadi. Bamisoli, Shayxul Islom Abdulloh Ansoriy Хайдар аytganidek: “Ja’far Xuldiyidin (vaf.hij.348/959-y.) so‘rdilarki, oriflar kimlardur? Dedikim, alar emasdurlar alar va agar alar alardurlar, emasdurlar alar.”¹⁷

Ma’rifat taraqqiyotning nazariy asosidir. Insoniyat tamadduni tarixiga nazar tashlansa, Odam farzandining foniylik va abadiylik aro o‘z-o‘ziga bergan: “men kimman..”, “qaerdan keldim..”, “qaerga ketaman...” kabi mangu savollarga yechim topish yo‘lidagi tinimsiz izlanishlari, turli davrlardagi turlicha adashish, xatolarga qaramay, kimdir uzoq, yana kimdir yaqin yo‘ldan yagona haqiqatda to‘xtashi barcha rivojlanishlar zamiridagi so‘ng natija ekanini kuzatish mumkin. Haqni tanitadigan ma’rifat ilmi o‘sha natijaning nazariy asosidir.

Adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами.Т.17. Т.: “Фан”, 2001.
2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами.Т.4. Т.: “Фан”, 1989.
3. Алишер Навоий. Махбубул қулуб. МАТ. 14-т. Т.: “Фан”, 1998.
4. Хайдар Хоразмий. Гулшанул асрор. /Навоийнинг нигоҳи тушган... Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986.
5. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Хислатли ҳикматлар шарҳи. Т.: “HILOL-NASHR”, 2014.
6. الدكتور سيد بن حسين العفانى. صلاح الامة فى علو الهمة. الجزء الاول. دمشق. مؤسسة الرسالة ناشرون، ١٩٩٧، ص: ١٣١
7. نوائى. حيرت الابرار. علمى تنقيدى متن/ توزوچى پارسا شمس. تاشکينت، ١٩٧٠، "فن" نشریاتی، اولغى مناجات، صحیفة-٨

“MUBAYYIN” ASARINING BADIY VA MA'RIFIY AHAMIYATI

Otabek JO‘RABOYEV

filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Annotatsiya. Maqola Boburning fiqhiy asari – “Mubayyin”ning badiiyati va ma'rifiy ahamiyatini yoritib berishga bag‘ishlangan. Unda mumtoz adabiyotda mavjud bir necha she’riy san’atlarni Bobur mahoratli adib sifatida o‘z asarida ishlatgani va ular asar mazmunini teranroq ochib berishga xizmat etgani ta’kidlanadi. Asarning o‘z turida original ekanligi va yuksak badiiyati borasida to‘xtanilgan.

Kalit so‘zlar: Zahiriddin Muhammad Bobur, Mubayyin, asar, matn, badiiyat.

Abstract. The article is dedicated to clarifying the artistic and educational significance of Babur's jurisprudential work – "Mubayyin". In it, it is emphasized that Babur, as a skilled writer, used several poetic arts in his work and that they served to reveal the content of the work more deeply. It was emphasized that the work is original in its kind and highly artistic.

Keywords: Zahiriddin Muhammad Babur, Mubayyin, work, text, art.

Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari jahonshumulligining asosiy sababi ularda diniy, ijtimoiy, axloqiy va hatto siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan yuksak g‘oyalarni badiiy shaklda berganligidadir. Uning quyidagi bayti asrlar davomida

¹⁷Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами.Т.17. Т.: “Фан”, 2001, 158-бет.

og'izdan-og'izga ko'chib, maqomga solinib kuylanib kelinayotganligi ham shu boisdandir:

*Bori elga yaxshilik qilg'ilki ondin yaxshi yo'q,
Kim degaylar dahr aro goldi falondin yaxshilig'.*

Baytda shoirning xalqparvarlik g'oyasi "yaxshilig'" so'zining takrori, ya'ni iltizom san'atini qo'llash orqali o'z ifodasini topganligini guvohi bo'lamiz.

Xuddi shuningdek, adibning muhim asarlaridan biri "Mubayyin"ning badiiyligini to'liq anglash uchun dastlab shoirning estetik prinsiplarini aniqlash zarurati tug'iladi. Bu masalaga aniqlik kiritadigan manba Islom dinining asosiy ruknlaridan biri hisoblanmish "E'tiqodiya kitobi" – ya'ni "Mubayyin"ning ilk qismidir. Shu o'rinda, Bobur falsafiy aqidalarining ayrimlari tahliliga, so'ngra uning borliq va inson haqidagi talqiniga to'xtab o'tish maqsadga muvofiq.

Boburning "Mubayyin" asarini yozishdan asosiy maqsadi o'g'illari Humoyun va Komron mirzolarga, shuningdek turkigo'y o'quvchilarning diniy tarbiyasi uchun zarur bo'lgan Hanafiya mazhabining fihiy masalalarini yorituvchi qo'llanma yaratishdan iborat bo'lgan.

"Mubayyin"dagi har bir kitobga (ular beshta) kirgan bobchalarning sarlavhalari shu asar mundariyasi bilan mazmunangina emas, balki shaklan ham uyg'unlashtirilib tuzilgan. Asardagi boblarning deyarli hammasida sarlavha, boshlanish, asosiy va xotima qismlar mavjud bo'lib, boshlanish qism bilan xotima qismlar o'rtasidagi matn bobning asosiy qismi hisoblanadi. Asarning boshlanish va xotima qismlarining yana bir vazifasi avvalgi bobni kelgusi bob bilan bog'lashdan iboratdir. Masalan, "E'tiqodiya" kitobining xotimasida navbatdagi "Salot" ya'ni namoz kitobi bayoniga o'tishdan oldin bu bobni xotima bilan uyg'unlashtirilib bog'langa

Xotima:

*Qolg'an u to'rt farz-i shar'iya,
Amaliyya deyildi far'iyya.*

*Tengri tavfiqi bo'lsa dey berini,
Ko'rsatay anda har amal yerini.*

Boshlanish:

*Bobur emdi degil ikkinchi farz,
Deyilur so'zni anda qilg'il arz.*

*Bu ikkinchini bil namoz-durur,
Bandadin Tengriga niyoz-durur.*

Ko'rinib turganidek "Mubayyin"dagi beshta kitob boblarining qismlari bir-biriga uyg'un tarzda tuzilgan. Bobur badiiy mahorat bilan boblarning sarlavhalari, kirish va xotima qismlarini ularning asosiy qismlariga muvofiq shakl berish yo'li bilan uyg'unlashtirganligini ko'ramiz.

"E'tiqodiya" kitobining kirish qismida, xususan, hamd, na't va iymon farzlari bayonidagi Haq ta'oloning ismlari va subutiy sifatleri ta'rifida falsafiy qarashlar bilan chambarchas bog'langan aqidalarga batafsil to'xtanilgan. Shular qatoriga

“Zot”, “Javhar”, “Araz”, “Sifot” singari falsafiy ma'noga ega bo'lgan atamalar “Avvalg'i mu'man bihning sharhi” qismida qo'llanilgan:

*Zoti aning ne javharu ne araz,
Ishlarida ne illatu ne g'araz.*

*Tengrining zoti, oti eldek emas,
Fe'li birla sifoti eldek emas.*

*O'z boshingcha Xudog'a ot demagil,
Ham ta'aqqul qilib sifot demagil.*

*Bor mavsuf ul sifot birla,
Ham musammo-durur ul ot birla.*

*Kim o'zi ani yod qilg'an-dur,
Ahl-i din e'tiqod qilg'an-dur.*

Bu o'rinda Zot – borliqning ichki o'zgarmas tomoni, mohiyat ma'nosida, Javharu arz – Mavjudning borlig'i o'zida bo'lgan, o'zgaga bog'liq bo'lmagan jihati ma'nosida (masalan, olmaning o'z moddasi javhar, shakli, rangi arz). Sifat (ko'pligi sifot) – borliqning tashqi belgisi va o'zgaruvchan tomoni ma'nosida qo'llangan. Tangri taoloning oti uning sifatini bildiradi, “Xoliq” va “Xalloq” uning xalq qilish, ya'ni yaratish sifatini, “Razzoq” “rizq” berish sifatini, “G'afur” mag'firat qilish sifatini bildiradi.

Boburning “Mubayyin” asaridagi diniy ahkom shoirona ifoda vositalari orqali badiiy tus olgan. Ma'lumki, she'r zavq hayajonining natijasi sifatida o'quvchining ruhiy olami shavqiga uning zavqi orqali ta'sir qiladi. Zavqni uyg'otuvchi asosiy omil badiiyat bo'lganligi uchun ham Bobur tildagi yetuklik va go'zallikni hosil qiluvchi turli tuman vositalardan unumli foydalanib badiiy ifodaning o'ziga xos namunalarini yaratgan.

Bobur mavzu talqinini rang-barang ifoda qilishda so'z shakllaridan ham unumli foydalangan. Masalan, quyida “azob” so'zi va uning ko'pligi “uqob” qo'llanilgan

*Tez o'tar kim-ki bersa yaxshi javob,
Yo'qsa yillar chekar azob-u uqob.*

Quyidagi baytning birinchi misrasida esa “tavof” so'zining bir grammatik shakli qo'llanilgan bo'lsa, ikkinchisida shoir shakl takrorligidan qochib uning ma'nodosh boshqa shaklini (“tavf”) ishlatgan:

*Makkaga kirgach-o'q tavof qiling,
Bu dag'i yetti tavf bo'ldi biling.*

San'atkorning asarda shakl jihatidan uyg'unlashtirishda til imkoniyatlaridan lafzdoshlik san'ati orqali uyg'unlikka erishganligini ham kuzatish mumkin. Lafzdosh so'zlarga asoslangan san'atlardan biri tavze'dir. Bobur asar mazmunini yorqin ifodalash maqsadida bir xil yangroq tovushdan iborat bo'lgan so'zlardan ustalik bilan foydalanilganligini quyidagi baytda yaqqol ko'rish mumkin:

*Birduru yo 'q sherik aning ishiga,
O'xshamas hyech ishta hyech kishiga.*

Bu baytda "sh" tovushi mavjud bo'lgan so'zlar uyushtirilgan bo'lsa, lafzdoshlikka asoslangan san'atlardan biri bo'lgan tajnis ikki va undan ortiq lafzdosh so'zlar ishtirokida tajnisi tom turi qo'llanilgan.

"Mubayyin" risolasidagi badiiy mahoratga nazar tashlaydigan bo'lsak, unda ijodkor o'zining tasavvufiy qarashlarini o'quvchiga tushunarli qilib ochib berishda qator she'riy san'atlardan mohirona foydalanganki natijada diniy-axloqiy mavzudagi g'oyalarning mohiyati o'quvchi tomonidan osonlik bilan o'zlashtirib olinishiga xizmat qilganligining shohidi bo'lamiz:

*Yer-u ko'k har-ne hodis-dur,
Tengri taqdiri bil-ki bo'is-dur.*

*Kufr-u din, zuhd-u fisq-u yaxshi-yamon,
Tengri taqdiri birla-dur yakson.*

*Fe'lingiz har ne-dur biling andin,
Yamon-u yaxshi barcha Rahmondin.*

*Yamon-u yaxshi-dur qazosi aning,
Yaxshig'a-dur vale rizosi aning.*

*Zohidig'a tegar tuban ta'abe,
Yorliqar fosiqini besababe.*

*Zulm emas-tur erur bori ishi xo'b,
Adl ila fazl erur anga mansub.*

Shoir she'ning matlaidayoq qarama-qarshi ma'noga ega bo'lgan so'zlardan ustalik bilan foydalanib, o'quvchi diqqat-e'tiborini ko'tarilayotgan mavzuning asl mohiyati, ya'ni insonning bu dunyodagi hayot mazmunini tashkil etishi lozim bo'lgan muammoga qaratish bilan so'zni boshlaydi. Shu ma'noda shoir inson e'tiqod pokligiga erishmoqni xohlar ekan dastlabki qadam sifatida dilini obod qilishi, poklanishi tan uyini esa xarob qilishi, ya'ni nafsini jilovlashi lozimligini yorqin ifodalash uchun "Kufr" va unga qarama-qarshi "din", "zuhd", "yaxshi-yamon" so'zini ishlatib tazod san'atini hosil qilgan va o'quvchini yomonni yaxshidan ajratib olishga undaydi. She'ning keyingi ikkinchi misralarida ham shu g'oya kuchaytirilib "Yaxshi" va "Yamon" so'zlarini ishlatish orqali ya'ni tazod san'atini qo'llash orqali insonning oxirati obod bo'lishi uchun diniy ahkomlarni qat'iy bajarib borish muhimligiga ishora qiladi. Bulardan tashqari she'rda ko'tarilgan mavzuning mohiyatini alohida ta'kidlash maqsadida iltizom san'ati, ya'ni "Tangri" so'zini kayta-qayta takrori, she'rdagi g'oyani yoritishda alohida o'rin tutuvchi "yaxshi", "xo'b", "adl", "fazl", sinonim so'zlarning qo'llanishi mavzu asosiy g'oyasini yorqinroq ochib berishga qaratilgan bo'lib, san'atkorning badiiy mahoratidan dalolat beradi.

Bobur asaridagi muayyan qismida xususan, munojot, hamd va na'tga bag'ishlangan she'rlarda Quroniy iqtibos va hadislardan unumli va keng foydalangan. Ularni mavzu bo'yicha uch guruhga bo'lsa bo'ladi:

- 1) Haq ta'oloning ismlari va subutiy sifatlarini ta'riflovchi iqtiboslar;
- 2) Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning na'ti va vasfiga bag'ishlangan she'rlarda keltirilgan iqtiboslar;
- 3) Shoirning hasbi holi va tasavvufiy mavzularga bag'ishlangan qismida qo'llanilgan iqtiboslar.

Bobur asarida Alloh ta'oloning subutiy sifatlarini alohida ta'kidlash maqsadida *hayot, ilm, irodat, qudrat, sam'u basar, kalom* sifatleri bilan bog'liq iqtiboslarni qo'llanilishi bilan bir qatorda shoirning deyarli aksar she'rlarida Alloh ta'oloning asmoi husna ismlari ham keng ishlatilgan. Allohning qudrat sifatiga ishora qilinib yo'qlikdan borliqni vujudga keltirgan, insonni esa, maxluqlarning eng afzali etib yaratgan Zotga hamdu sanolar o'qiladi va insonning ungagina ibodat qilishi vojib ekanligi o'ziga xos istilohlar va iqtiboslar orqali ifoda etiladi.

*Vojib o'ldi borig'a shukr-i Xudoy,
Mustafo bo'ldi bizga rahnamoy,*

*Yo'lchisiz yo'lni kim bora olg'ay,
Borsa avval qadamda o'q qolg'ay.*

*Kim-ki Ahmad kibi-ki badraqa-dur,
Yo'lda yuz xavf bo'lsa ne boqa-dur.*

*Bo'yig'a chust xil'at-i lavlok,
Lot og'zig'a ilgidin tun chok.*

*Ul-durur anbiyo sarafrozi,
Qoba qavsayn mahram-i rozi.*

*Menga qilg'il shaf'o'ating hamroh,
Ne dey o'zga alayka salla-l-loh.*

Bu mazkur na'tda Parvardigori olamning "*Lavloka ma xalaqtul aflok*" ya'ni "Sen bo'lmasang falaklarni yaratmas edim" mazmunidagi hadisga ishora qilinib Rasululohni baxt –saodatning yo'lchi yulduzi, bashariyatni hidoyat yo'liga chorlovchi porloq yulduz, inson kamolotining oliy maqomiga erishgan buyuk zot sifatida kuylaydi. Shoir inson sifatida Payg'ambarimizning go'zal qiyofasini badiiy bo'yoqlar orqali ta'riflar ekan, uning siyomosida ilohiy nur tajallisini kuzatadi. Uning insoniy qiyofasida tajassum topgan oy misol muborak chehralari, sunbuli anbarni xijl qiluvchi jiloli sochlari, muloyim fe'l-atvorlari bilan toshbag'ir insonlarni yumshatuvchi va qiyomat kuni osiy ummatlarni shafloatxohi ekanligini alohida qayd qilib o'tadi.

"Mubayyin"da keltirilgan iqtiboslar shoirning ma'lum falsafiy-estetik qarashlari asosiga qurilgan. Ular diniy ahkomlar ijrosidan boshlab tasavvufiy

qarashlar bayonining tafsilotigacha, ya'ni oddiylkdan murakkablikka qarab yo'naltirilgan. Asardagi dastlabki qur'oniy iqtibos kalimai shahodatni (La ilaha illa-l-loh) tashkil etib u "Avvalg'i mu'man bihning sharhi" bobida keltirilgan Shu bobning o'zida "Ixlos" surasining mazmuni o'zining quyidagicha o'zbek tilida she'riy ifodasini topgan:

*Har ne-kim bor-dur, ul yaratqan-dur,
Hastlik jirgasiga qotqan-dur.*

*Bir-dur-u yo'q sherik aning ishiga,
O'xshamas hyech ishta hyech kishiga.*

*Ehtiyoji kishiga yo'q-tur aning,
Yor-u yovar ishiga yo'q-tur aning.*

*Bor edi-yu hamesha bo'lg'usi-dur,
Ne kam o'lg'usi-dur, ne to'lg'usi-dur.*

Ko'rinib turganidek, diniy aqidalarni bayon qilayotgan bosh qahramon Boburning o'zidir. Bu bilan shoir o'quvchi bilan bevosita so'zlashayotganday tuyuladi. Shu bois ham bosh qahramon shoir o'quvchi bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqaga kirganday, uning bilan sirlashayotganday, unga hayot mohiyatini o'gitlar orqali tushuntirib uni hidoyat yo'liga boshlayotgan ma'naviy rahbarday gavdalanadi.

Bobur diniy arkonlar bayonida til qoidalari va uning grammatik xususiyatlariga asoslangan san'atlardan biri ishtiyoqqa ham alohida o'rin bergan. Bu san'atda tizma yoki sochma parchada o'zakdosh so'zlar uyushtirilib unda gap bo'laklari orasida sintaktik aloqalardan tashqari o'zaklarda o'zaro bog'liqlik shoir fikrini kuchaytirishga xizmat qiladi. Quyidagi baytlardagi o'zakdosh "su'ado" va "sa'odat" (bir o'zak sa'ada fe'lidan) so'zlar fikr o'tkirligi shu o'zakdosh so'zlar vositasida shu maqsadni amalga oshirishga xizmat qilganligini kuzatishimiz mumkin:

*Su'adoning o'ng ilgidin kelgay
Anda ul el sa'odatin bilgay.*

Bobur "Mubayyin"da so'z tartibiga asoslangan san'atlardan biri, ya'ni birikma yoki gap ma'nolari teskari tartibda qaytariladigan tardi aks san'ati orqali asar mazmuni mohiyatini o'quvchi ongiga tushunarli qilib yetkazish vositalaridan biri sifatida qo'llagan.

*Kufru din, zuhd-u fisq-u yaxshi-yamon,
Tengri taqdiri bila-dur yakson.*

Bu baytdagi birinchi misradagi barcha bir-birlariga teskari bo'lgan so'zlar bir tizimga solinib Allohu ta'oloning taqdir sifatiga ishora qilingan. Yana bir misol:

*Gar qorong'u-vu, gar yorug' bo'lsun,
Gar yiroq bo'lsun, gar yovuq bo'lsun*

*Ko‘rar-u eshitur tafovutsiz
Ajz yo‘q-tur janobida hargiz.*

Bu iqtibosning birinchi baytidagi “Qorong‘u” bilan “yorug‘”, “yiroq” bilan “yovuq” so‘zlari aks hosil qilgan va bu san‘at Alloh ta‘oloning sam‘ va basar, ya‘ni eshitish va ko‘rish sifatlarini yorqinroq ifoda qilish uchun xizmat qilgan.

San‘atkor so‘z qaytarig‘iga asoslangan takror yoki mukarrar ham deb nomlanuvchi san‘atidan ham o‘z o‘rinda foydalangan. Bu san‘at ma‘noga alohida urg‘u berish va o‘quvchi hayajonini uyg‘otish maqsadida bir so‘z yoki iborani takrorlash yo‘li bilan ifoda qilinadi. Quyidagi misolda bu “imom” so‘zlarining takrori takrir san‘atini hosil qilgan.

*Qaysi-dur bu imom eshitgin roz,
Bu imom o‘ldi elga besh namoz.*

“Mubayyin”da qo‘llanilgan til grammatikasiga asoslangan san‘atlardan yana biri “tasbig‘” yoki tashobihu-l-atrofdir. Quyidagi Alloh ta‘oloning hayot sifati haqidagi misralarda “hayot” so‘zi qaytarilib fikriy izchillikni ta‘minlab, mazmunni yorqinroq ifodalashga qaratilgan. Bu o‘rinda “hayot” so‘zining qaytarig‘i tasbig‘ san‘atini tashkil qilgan. Keyingi misralarda ham shu so‘zning takror qo‘llanilganligi “iltizom” san‘atini hosil qilgan.

Bu san‘at orqali shoir o‘quvchiga shu so‘z orqali ifodalanayotgan ma‘noning muhimligini yetkazish maqsadida uni bir necha o‘rinda takrorlanmoqda:

*Biri bu yettidin hayot-durur,
Ul hayot-ye-ki bemamotdurur.*

*Bu hayot el hayotidek ermas,
Vasf-i haq el sifotidek ermas.*

*Tan-u jondan emas hayoti aning,
O‘xshamas xalq‘a sifoti aning.*

“Mubayyin”da ma‘nodoshlikka asoslangan irsolul masal, taajjub, tanosub, ruju‘, husni ta‘lil, talmeh va boshqa qator san‘atlar ham qo‘llanilganki, ularni qo‘llash orqali san‘atkor asosiy mazmunni turli-tuman san‘at vositalarining go‘zal va betakror ko‘rinishlari ta‘sirida o‘quvchida ko‘tarinki ruh va hayajon his-tuyg‘ularni uyg‘otish orqali asar mohiyatini yengil o‘zlashtirishga xizmat qildirganligining guvohi bo‘lamiz.

Boburning “Mubayyin” asarini yaratishdagi badiiy tajribalarini o‘rganish, tahlil qilish va umumlashtirish natijasida asosan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Bobur olim va san‘atkor sifatida islomiy aqidalarning ilmiy talqinlarini badiiy ifodalar ekan chuqur mazmunni go‘zal shakllar bilan turlab ular o‘rtasidagi bevosita bog‘liqlikni vujudga keltirgan. U tasvirlarni turlashda sifat va miqdor, zamon va makon e‘tibori bilan muvofiqlashtirib asarning rango-rangligini ta‘minlagan va talqinlarning ajoyib ta‘rifini bayon etish orqali asarning o‘ziga xosligini ta‘minlagan. San‘atkor islom dini farzlari talqinidagina bu usuldan foydalanib qolmasdan o‘zbek, arab, fors tillarini mukammal bilgan shoir undan

ma'lum fikrning turli ko'rinishlarini tilning rang-barang imkoniyatlar orqali yorqin ifodalaganligini kuzatamiz. Bu o'z navbatida shoirning o'zbek adabiyoti maydonidagi ulkan badiiy yutuqlarga erishishi uchun asos bo'lib xizmat qilgan.

2. Bobur buyuk iste'dod egasi, uning ijodidagi bu sifat, boshqa asarlaridagi singari "Mubayyin" asarida ham o'zining yorqin ifodasini topgan. Islom dini asoslarining badiiy talqiniga bag'ishlangan ushbu risolaning yaratilishida badiiylikning asosiy omillaridan birini ham uning yuksak iste'dod darajasi belgilab bergan. Boburning ijtimoiy-siyosiy mavqeyi, hayot tarzi uning shaxsiyatining shakllanishida, iste'dodining ro'yobga chiqishida va asarlari badiylikning bosh mezonini bo'lib xizmat qilgan. Bobur o'zining bu iste'dodini an'anaviy masnaviy janrida o'zining ijodiylik va yangilik yaratish qobiliyati bilan ro'yobga chiqargan.

3. Boburning "Mubayyin" asari islom dini aqidalarini tanlash, unga yondoshish xarakteri, tahlil va badiiy ifoda jihatlariga ko'ra masnaviy janridagi diniy mavzuni yoritishga qaratilgan asarlarga yaqin turadi, xususan Alisher Navoiyning "Siroj ul-mu'minin" asariga ergashish, unda ko'tarilgan mavzuni kengroq yoritishda davomiylik xususiyatlari ko'zga tashlanib turadi. Lekin Bobur Navoiydan farqli o'laroq mavzuni tafsilotlari bilan mukammal ifoda qilish uslubini qo'llagan. Biroq Bobur oldida turgan vazifalarni ifoda etishda masnaviy janri imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o'ziga xos ijodiy uslubni qo'llashga muvaffaq bo'lgan. Bunday asarlar ko'lamini an'anaviylik nuqtai nazaridan tadqiq qilish esa alohida bir mavzu doirasini tashkil etadi.

4. Ma'lumki, badiiy uslub-san'atkor ijodiy qobiliyatining samarasi, o'ziga xosligini ko'rsatuvchi vositalardan biridir. Shu bois Boburning "Mubayyin" asarida islom dini aqidalari o'ziga xos badiiylik bilan talqin qilinganki, bu talqinda muallif fikrlashining o'ziga xosligi yaqqol ko'zga tashlanib turadi. O'z navbatida bular ijodkorning individual uslubi, bilim doirasi, badiiy to'qimasi va mahorati bilan chambarchas bog'langan. Shu ma'noda muallif har bir manbani idrok etib sinchkovlik bilan tahlil etish jarayonida uning Abu Hanifa mazhabi qarashlariga monandligi nuqtai nazaridan yondoshganligi va natijada bu qarashlarning mukammal va haqqoniy talqinini mahorat mezonlari asosida ifoda etadiganligini kuzatish mumkin.

5. Boburning besh kitobdan iborat bo'lgan bu asari bayonining bosh qahramoni muallifning o'zi va uning tili puxta ishlangan. Ijodkor mavzu mazmunini to'la-to'kis ochib berish uchun adabiy til imkoniyatlaridan samarali foydalanganligini ko'rish mumkin. Asar tili Bobur yashab ijod qilgan davr sharoiti, tarixiy diniy muhit leksikasidan keng va unumli foydalanilganligi bilan ham alohida ahamiyat kasb qiladi. Bu o'z navbatida ijodkorning asarda oldiga qo'ygan vazifasini bajarganligi, uning diniy ma'rifiy badiiy-estetik maqsadi ushlanganligidan dalolat beradi. Bunda adabiy til diniy iboralar, Qur'oni karimdan keltirilgan oyatlar, hadislardan keltirilgan namunalar bir-biri bilan chambarchas bog'langan holda berilgan. Natijada o'quvchi islom dini aqidalaridan diniy-ma'rifiy va ma'naviy oziq oladi.

Xulosa qilganda, "Mubayyin" asarlarining o'z ichki ohangi, alohida o'ziga xos ritmi borki, ular fikr va tuyg'ular silsilasini aks ettirishga yo'g'rilgan ijodkor

badiiy tilining o‘ziga xosligini ko‘rsatib turuvchi va tom ma'nodagi diniy-ahloqiy va ma'rifiy ruhdagi asarning yuzaga kelishiga xizmat qilganligini va Bobur badiiy olamini belgilashda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. –Toshkent: Sharq, 2017.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Mubayyin. Nashrga tayyolovchi: H.Hasanov. –Toshkent: Movarounnahr, 2014.

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI DAVLAT ADABIYOT
MUZEYIDA SAQANAYOTGAN TURKIY QO‘LYOZMA
MANBALAR XUSUSIDA**

Dr. Çetin YILDIZ

Aksaray Üniversitesi Fen Edebiyat Fakültesi Türk Dili ve Edebiyatı Bölümü,
cetinyildiz@aksaray.edu.tr

Annotatsiya. Turk dunyosi qo‘lyozma kutubxonalarida eski alifbo namunasi asosida yaratilgan juda ko‘p asarlar mavjud. Bu asarlar hozirgi kun va kelajakda turkiy xalqlar o‘rtasida madaniy birlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Qolaversa, turkologiyaga oid akademik tadqiqotlarda aniqroq natijalarga erishishda mazkur kutubxonalardagi asarlar muhim o‘rin tutadi.

Alishe Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyining 2022-yilda nashr etilgan qo‘lyozma asarlar katalogini o‘rganuvchi ushbu tadqiqot ikki asosiy qismdan iborat. Birinchi bo‘limda Ali-Shir-Nevaiy nomidagi O‘zbekiston davlat adabiyoti muzeyi haqida ma’lumot beriladi. Ikkinchi bo‘limda ushbu muzeydagi asarlar haqida ma’lumot berilib, qo‘lyozmalar katalogi bilan tanishtiriladi. Qo‘lyozmalar bilan tanishish jarayonida katalogdagi ayrim asarlarga baho beriladi

Kalit so‘zlar: qo‘lyozma manba, katalog, toshbosma, shoir, yozuvchi, til, an’ana.

Özet. Türk dünyası el yazma kütüphaneleri önemli sayıda eski harfli eser içermektedir. Bu eserler modern zamanlarda ve gelecekte Türk toplulukları arasında kültür birliğini sağlamak adına önemli bir role sahiptirler. Ayrıca Türkoloji’ye dair yapılan akademik çalışmalarda daha sağlıklı sonuçların ortaya çıkması için bu kütüphanelerde bulunan eserlerin önemli bir yeri vardır.

2022 yılında yayımlanmış olan Ali Şir Nevai Devlet Edebiyat Müzesi el yazmalar kataloğunun ele alındığı bu çalışma temelde iki kısımdan oluşmaktadır. Birinci kısımda Özbekistan Ali Şir Nevai Devlet Edebiyat Müzesi hakkında bilgi verilmiştir. İkinci kısımda ise bu müzede bulunan eserler hakkında bilgi verilerek yazma eserler kataloğu tanıtılmıştır. Yazma eserler tanıtılırken katalogda bulunan bazı eserler üzerine değerlendirmelerde bulunulmuştur.

Anahtar kelimeler: el yazması kaynak, katalog, taşbaskı, şair, yazar, dil, gelenek.

Abstract. The manuscript libraries of the Turkish world contain a significant number of works in the old alphabet. These works have an important role in ensuring cultural unity among Turkish communities in modern times and in the future. In addition, the works in these libraries have an important place in order to obtain more accurate results in academic studies on Turkology.

This study, which examines the catalog of manuscripts of the Ali-Shir-Nevai State Literature Museum published in 2022, consists of two main parts. In the first part, information is given about the Ali-Shir-Nevai State Literature Museum of Uzbekistan. In the second part, information is given about the works in this museum and the catalog of manuscripts is introduced. While introducing the manuscripts, evaluations are made on some of the works in the catalog.

Key words: manuscript source, catalog, lithograph, poet, writer, language, tradition.

Giriş. Kütüphaneler toplumların geçmişleri ile bağlarını sağlayan en önemli kaynakları içeren mekanlardır. Bu mekanlardaki eserler her sahada toplumun hafızası niteliğindedir. Bu hafızanın yok edilmesi bir ağacın köklerinden koparılması gibidir. Nitekim bunun bilincinde olan Batı toplumlarının kütüphanelerinde Doğu medeniyetinin en kıymetli eserleri bulunmaktadır. İsveç Kraliyet Kütüphanesi, Uppsala Üniversitesi Kütüphanesi, Kopenhag Üniversitesi Kütüphanesi, Berlin Kütüphanesi, Münih Kütüphanesi gibi pek çok Avrupa, Amerika ve Rusya kütüphanelerinde Doğu medeniyetine ait binlerce eser bulunmaktadır. Bir kısmı satın alınan, bir kısmı ise çalınan bu eserler aracılığıyla hem Doğu medeniyetleri yakından tanınmak istenmiş hem de bu medeniyetlerin kendi kökleri ile olan bağları kopartılmak istenmiştir. Bu bağlamda Doğu toplumlarının kendi medeniyetlerini muhafaza etmek, ondan ilham alarak geleceğe daha emin adımlarla yürümek için yapması gereken işlerden biri de topluma ait her türlü yazılı eseri kütüphanelerde muhafaza ederek halkın hizmetine sunmaktır.

Türk dünyası edebiyatları şekil ve muhteva yönünden geçmişten günümüze birbirini beslemiş ve etkilemiştir. Bu bağlamda Osmanlı sahası ve Çağatay sahası edebiyatları da karşılıklı bir etkileşim içerisinde olmuştur. Bu etkileşim eski dönemlerde klasik ve halk edebiyatlarında görülürken günümüzde ise modern edebiyatta görülmektedir. Bu durumun en önemli göstergesi modern Türk edebiyatından pek çok şairin ve yazarın eserlerinin Özbek Türkçesine aktarılmış olmasıdır. Benzer şekilde modern Özbek edebiyatından da pek çok şair ve yazarın eserleri Türkiye Türkçesine aktarılmakta ve bunlara dair akademik çalışmalar yapılmaktadır. Ötkir Haşimov (Öztürk, 2001), İsacan Sultan (Aydoğan Solgun, 2023), Toğay Murat (Shoripova, 2022), Uçkun Nazarov (Gültekin, 2022) gibi pek çok Özbek edibi bunlardan sadece bazılarıdır. Dolayısıyla Özbek ve Türk edebiyatlarını birbirinden bağımsız değerlendirmek eksik olacaktır. Gerek geçmiş dönemlere dair yapılan çalışmalarda gerekse modern zamanlardaki edebiyata dair yapılan değerlendirmelerde her iki toplumun ürettiği edebi eserler, etkilendiği akımlar, üslup, şekil gibi hususiyetler dikkate alınmalıdır.

Aynı dine ve dile sahip olan Özbek ve Türk toplulukları birbirine oldukça benzer kültürel dokuya sahiptir. Bu yüzden son iki yüzyılda çeşitli siyasal sebeplerle yaşanan kopuşlar bu ortak kültürel dokuya zarar verememiştir. Günümüzde dahi her iki toplum halk kültürü ve edebiyatı açısından pek çok benzerliği devam ettirmektedir. Klasik edebiyat açısından baktığımızda ise günümüzdeki akademik çalışmaların daha doğru neticeler verebilmesi için kütüphaneler oldukça önemli bir yere sahiptir. Kütüphanelerde saklanan pek çok yazma eser her iki toplumun edebi açıdan birbiri ile yakınlığını göstermesi bakımından önemli birer delil niteliğindedir.

1. Ali Şir Nevai Özbek Dili ve Edebiyatı Müzesi¹⁸

Müze, Sovyetler döneminde 1967 yılında Fenler Akademisi'ne bağlı olarak kurulmuştur. Özbekistan'ın bağımsızlığını elde ettiği tarihe kadar bu durum devam etmiştir. Bağımsızlıktan sonra müze müstakil bir hal almıştır. Müzedeki eserlerin önemli bir kısmı müzenin ilk müdürü Prof. Dr. H. S. Süleymanov tarafından bağış yahut satın alınma yoluyla temin edilmiştir. Bu dönemde yaklaşık 10.000 eser toplanılarak pek çok müstesna eser kayıt altına alınmıştır.

1998 yılında el yazmalar bölümünün faaliyetleri durdurularak buradaki eserlerin önemli bir kısmı Ebu Reyhan El Biruni Yazma Eserler Kütüphanesi'ne aktarılmıştır. Böylece daha çok müzeciliğin ön plana çıkarılması amaçlanmıştır. Ebu Reyhan El Biruni Yazma Eserler Kütüphanesi'ne aktarılmamış yahut sonradan toplanmış yaklaşık 3000 eser halen müzenin kütüphanesinde bulunmakta olup bu eserler Özbek edebiyatı, folkloru hakkında önemli bilgiler içermektedir. Buradaki eserlere bakıldığında Özbek Türkçesinin yanında Arapça, Farsça-Tacikçe ile yazılmış eserler de bulunmaktadır.

Bu çalışmaya konu olan Katalog iki cilt halinde hazırlanmıştır. İlk cildinde taşbasma eserler hakkında bilgiler verilmekte olup müze fondundaki 1500 taşbasma eserden 500 tanesi tanıtılmıştır. El yazma eserlerin bulunduğu ikinci ciltte toplamda 1618 el yazma bulunmaktadır. Bu yazmalardan 543 tanesi Özbek Türkçesi ile yazılmışken 609 tanesi Farsça-Tacikçe, 464 tanesi ise Arapça yazılmıştır (Hasanov, 2022).

2. Ali Şir Nevai Özbek Dili ve Edebiyatı Müzesi'nde Bulunan Türkçe Eserler Üzerine

Özbekistan'da Taşkent, Semerkand, Buhara, Fergana, Hive, Nukus gibi pek çok şehirde yazma eser kütüphanesi bulunmaktadır (Bkz. Demir, 2022). Bu kütüphanelerdeki yazmalar Türk-Özbek edebiyatı için olduğu kadar Arap, Fars, Tacik edebiyatı için de önem arz etmektedir. Bu yazmalar aracılığıyla adı geçen toplumlar dini, sosyal ve kültürel geçmişleri ile ilgili pek çok kıymetli bilgi elde edebilmektedir. Özbekistan'daki kütüphanelerde Çağatay Türkçesinin yanında

¹⁸ Ali Şir Nevai Devlet Edebiyat Müzesi'nin Türkçe el yazmalar kataloğunun 2017 yılında yapılmış yayını Dr. Çetin YILDIZ tarafından Türkiye Türkçesine aktarılmış ve "Kahramanın Mitik Yolculuğu" Fuzuli Bayat Armağanı isimli çalışmada yayımlanmıştır. (Bkz. Yıldız, 2023). Katalogun 2017 yılındaki yayınında Türkçe el yazma sayısı 808 iken 2022 yılında yapılan yayında bu sayı 1618'dir.

Farsça-Tacikçe pek çok eser bulunmaktadır. Bu durumla ilgili olarak Üşenmez buradaki eserlerin önemli bir kısmının Semerkand ve Buhara'da yazıldığını ifade etmektedir (2009:685).

3000'e yakın eserin bulunduğu Ali Şir Nevai Devlet Edebiyat Müzesi'ndeki eserlerin 1618 tanesi el yazmadır. Müze kütüphanesindeki el yazmalar Özbekçe, Farsça-Tacikçe ve Arapça olacak şekilde yazıldığı dil bakımından üç grupta sınıflandırılmıştır.

Özbek Türkçesi ile yazılmış olan eserler ise dört döneme ayrılmıştır. Bunlardan ilki 17 adet yazmanın bulunduğu XII-XIII. yüzyıllar arasındaki Özbek edebiyatı dönemidir. Bu dönemdeki eserlerin çoğunluğu 10 varaktan daha az hacme sahip Hoca Ahmet Yesevi'ye ait olduğu belirtilen hikmetler ve bazı menkıbelerden oluşmaktadır. Hoca Ahmet Yesevi bu yazmalarda Sultânü'l-Ârifîn, Hoca Kul Ahmed, Kul Hoca Ahmed, Hazret-i Sultân Hoca Ahmed Yesevî, Şeyhü'l-Meşâyih Ahmed, Ahmed Yesevî gibi isimlerle anılmaktadır. Yazmalardaki hikmetlerin dışında Hoca Ahmet Yesevi'ye ait olduğu ifade edilen mensur eserlerden Hz. Muhammed'in Hoca Ahmed Yesevi'nin rüyasına girmesiyle ilgili olan ve Hz. Muhammed'in vasiyetnamesi olarak ifade edilen eserler dikkate değerdir. Bu yazmalar hem Hoca Ahmet Yesevi'nin menkıbevi hayatına hem de ona ait tespit edilmiş şiirlere yeni katkılar sağlayacaktır.

82 adet yazmanın bulunduğu XIV-XV. asırlar arasındaki Özbek edebiyatı döneminde en çok Ali Şir Nevai'nin eserleri bulunmaktadır. Burada Nevai'nin Divan, Hazâyinü'l-Meânî, Bedâyü'l-Bidâye, Garâibü's-Sıgar, Hamse, Mîzânü'l-Evzân, Mahbûbü'l-Kulûb, Erba'în gibi eserlerinin pek çok nüshası bulunmaktadır. Bu durum Ali Şir Nevai'nin eserlerinin geçmişte halk tarafından çok sevildiğinden dolayı defalarca çoğaltıldığını göstermektedir. Bu kısımdaki Münâcât başlıklı el yazma ise Âgah Sırrı Levend'in Ali Şir Nevai'nin eserlerine dair yapılmış çalışmasından çoğaltılmıştır.

15 adet yazmanın bulunduğu XVI-XVII. asırlar arasındaki Özbek edebiyatı dönemindeki eserler genellikle müstakil eserlerdir. Babür'ün Divanı ve Mübeyyin isimli eseri, Fuzûlî Divanı, Baba Figânî Divanı bu bölümde yer alan eserlerdir. Bunlardan Fuzûlî Divanı'nın pek çok nüshasının bulunması Azerbaycan sahasından bir şairin Çağatay sahasında çok okunduğunu göstermesi bakımından dikkat çekicidir.

331 yazmanın bulunduğu XVIII-XIX. asırlar arasındaki Özbek edebiyatı dönemi en çok eserin bulunduğu kısımdır. Bu dönemde Özbek tasavvuf edebiyatı ile ilgili eserler öne çıkmaktadır. Baba Rehim Meşreb, Kul Süleyman, Andelib, Sûfî Allahyâr, Saykalî, Şemsî Uzgendî, Mahzûn, Hâlis gibi pek çok mutasavvıf şairin eserleri bulunmaktadır. Bu şairlerin eserlerinde dini-tasavvufî şiirler ve hikayeler ele alınmıştır. Osmanlı sahasında çok sık rastlanılan cenknameler ve hamzanameler Çağatay sahasında çokça okunan eserler arasındadır. Bunların yanında Hz. İsa'nın annesi Hz. Meryem, Hz. Muhammed, onun kızı Hz. Fatima, torunları Hz. Hasan ve Hz. Hüseyin için yazılmış olan hikayeler ve mersiyele göze çarpmaktadır.

Bu yüzyıllar klasik Özbek edebiyatı açısından pek çok şairin eser verdiği bir dönemdir. Bu dönemden kalan ve müzenin kataloglarında yer alan Meşreb Divanı, Neşâtî Divanı, Hüveydâ Divanı, Saykalî Divanı, Mahmûr Divanı, Amîrî Divanı, Kânî' Divanı, Muhayyir Divanı, Tabîbî Divanı, Nâkıs Divanı, Azîm Divanı, Cezbî Divanı, Mahdumkulı Divanı, Gıyâsi Divanı gibi eserler bu durumun en açık göstergesidir.

Müzedeki yazmalar Özbek halk şiiri açısından da oldukça zengindir. Çoğunlukla şiir mecmualarında Özbek halk şairlerinin şiirleri bir araya getirilerek eserler oluşturulmuştur. Mutrib, Divâne, Eyyûbî, Mahzûn, Kemâlî, 'Âzmî, Ahmed, Muzdarîb Şems, Muhmil, Molla Garîb, Ganîmet, 'Âcizî, Şah-ı Merdân, Cezbî, Mecrûhî, Mukîmî, Tâlîb, Şûrîde, İntizârî, Molla Gülşen bunlardan bazılarıdır.

Nameler başlığı altında verilen, Türk-İslam kültürü dairesinde sıklıkla görülen Vasiyet-nâme, Fal-nâme, Ervâh-nâme, Güdek-nâme, Vefât-nâme-i Hazret-i Bibi Fâtıma, Mi'râc-nâme, Maktel-nâme, İftâr-nâme, Musibet-nâme, Geyik-name, Kıyâmet-nâme gibi eserlerin çoğunluğu manzum ve dinidir. Köroğlu, Avazhan, Totamış Han ve İdeka Batır gibi dini olmayan hikayelerin anlatıldığı eserlerin de bulunduğu bu bölümde çayın özelliklerinin ve faydalarının anlatıldığı Çay-nâme, gelin ile kaynana arasındaki problemlerin anlatıldığı Hasret-nâme gibi günlük hayatla ilgili örneği az metinler de bulunmaktadır.

Katalogda namelere benzer yapısı bulunan ancak daha çok kısya ve hikayelerin bir araya getirildiği eserler akademik çalışmalar açısından dikkate değerdir. Özbekistan'da yar yar olarak da bilinen düğün şarkıları, çocuklara isim konulması, erkeklerin kadınlar üzerindeki hakları gibi günlük hayata dair anlatılar bunlardan bazılarıdır. Dolayısıyla Ali Şir Nevai Devlet Edebiyat Müzesi'nde XII. yüzyıldan XIX. yüzyıla kadar Özbek kültürü, edebiyatı, tarihi, dini inançları gibi pek çok konuda eser bulunmaktadır. Bu eserler özelde Özbek toplumunun genelde ise bütün Türk topluluklarının kültür ve medeniyet birliğinin oluşturulmasına, bu birliğin güçlendirilmesine önemli katkılar sunacaktır (Hasanov, 2022).

Sonuç ve Öneriler

Özbekistan Cumhuriyeti bağımsızlıktan sonra müzecilik ve kütüphanecilik alanlarında önemli ilerlemeler kaydetti. Taşkent başta olmak üzere pek çok şehirde kütüphaneler kuruldu. Sovyet döneminde kurulmuş ancak bağımsızlıkla birlikte yapısı değişmiş olan Ali Şir Nevai Devlet Edebiyat Müzesi bünyesindeki binlerce eser Ebu Reyhan el-Biruni kütüphanesine aktarılmış ancak bazı eserler yeniden bir araya getirilerek 3000'e yakın eser müzenin kütüphanesine konulmuştur. Bu eserler Özbek, Fars, Tacik, Arap edebiyatları ve kültürleri için önemli bilgiler içermektedir.

Türk dünyasında kültürel birliğin sağlanması açısından kütüphanelerdeki eserlerin paylaşılması, akademik çalışmalarda kullanılması oldukça önemlidir. Bu bağlamda Özbekistan'daki kütüphanelerde bulunan eserlerin Türk dünyasından araştırmacıların kullanımına açılmasında, eserlerin kopyalarının verilmesinde kolaylıklar sağlanmalıdır. Benzer durum Türk dünyasındaki diğer devletler için de geçerlidir.

Günümüzde Özbekistan’da seyyar kitap satıcılarında yahut Özbek vatandaşlarının ellerinde pek çok yazma eser bulunmaktadır. Bu yazma eserlerin kütüphanelere bağışlanması yahut satın alınması noktasında kampanyalar başlatılmalı, böylece bu eserlerin tamamı akademik çalışmalara kazandırılmalıdır.

Kaynaklar:

1. Aydoğan Solğun, L. (2023), Özbek yazar İsaçan Sultan'ın Bilge Hakan Romanı Üzerine Bir İnceleme, Yayınlanmamış Yüksek Lisans Tezi: Ege Üniversitesi.
2. Demirbilek, M. (2022), “Özbekistan’da Bulunan Yazma Eser Kütüphaneleri Üzerine Bazı Notlar”. Ankara Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi, 63/2, 1075-1089.
3. Erdoğan Öztürk, A. (2001), Özbek yazar Otkir Haşimov'un 'Nur Barki Saya Bar' romanı, transkripsiyonlu metin, sözlük, gramer incelemesi (Özbek Türkçesindeki partisipler), Yayınlanmamış Doktora Tezi: Marmara Üniversitesi.
4. Güntekin, N. (2022), Özbek Yazar Uchqun Nazarov'un Paymona ve Chayon Yili Romanlarında İsim, Yayınlanmamış Yüksek Lisans Tezi: Nevşehir Hacı Bayram Veli Üniversitesi.
5. Hasanov, S., Hasanova, Ş., Raşidova M., Gulamova, H. Dehkanov, K. (Hazırlayan) (2022), Ali Şir Nevai Nomidagi Devlet Edebiyat Muzayining Kolyazmalar Katalogi, Taşken: Firdavs-Shoh Neşriyatı.
6. Hasanova, Ş. Curayev, C. Alimov, O., Hasanova S. Mansurov, S. (Hazırlayan) (2017), Özbekistan Respublikası Aliy ve Orta Mahsus Talim Vezirligi Ali Şir Nevai Nomidagi Özbek Tili ve Adabiyatı Universiteti Özbek Tili ve Adabiyatı Muzeyi Muzey Kolyazmaları Katalogi II-Tom, Taşkent: Meriyus.
7. Sharipova, F. (2022), Özbek Yazarı Toğay Murat’ın Eserlerinde Halkbilimi Unsurları, Yayınlanmamış Yüksek Lisans Tezi: Ankara Hacı Bayram Veli Üniversitesi.
8. Üşenmez, E. (2009), “Özbekistan Yazma Eserler Kütüphanesi”, Uluslararası Sosyal Araştırmalar Dergisi, 2/6, 682-689.

TURKIY TAFSIRDA QORISHIQ TIL MASALASI

Saidbek BOLTABAYEV

*filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Karabuk universiteti Chingiz Aytmatov nomidagi
turkiy dunyo amaliyot va tadqiqot markazi*

Annotatsiya. Fanda “Turkiy tafsir”, “O’rta Osiyo tafsiri”, “Anonim tafsir” kabi nomlar bilan yuritilib keladigan asar O’zbekistonning Qarshi shahrida topilgan bo’lib, turkologiyaga birinchi ma’lum bo’lgan Qur’on tarjiması va tafsiri hisoblanadi. Biroq ushbu tafsirdan oldin turkiy tilga Qur’on tarjiması amalga oshirilgan bo’lib, tafsirda ana shu manbaga tez-tez murojaat qilingan bo’lishi

kerak. Zero asarning so'zma-so'z oyat tarjimalari bo'lgan qismdagi tili bilan tafsir qismlaridagi til orasida bir necha tafovutlar mavjud. Ushbu tadqiqotda dastlabki davrlardan kelgan turkiy Qur'on tafsirlari haqida ma'lumot berilgan bo'lib, undan keyin tafsir tilida qorishiq til masalasi, buning qanday sharoit doirasida yuzaga kelgan bo'lishini tortishuvga qo'yilgan.

Kalit so'zlar: Turkiy Qur'on tarjimalari, tafsir, til xususiyatlari, matn, fonetika, morfologiya.

Abstract. The work known in science as "Turkish Tafsir", "Central Asian Tafsir", "Anonymous Tafsir" was found in the city of Karshi, Uzbekistan, and is the first translation and interpretation of the Qur'an known to Turkology. However, before this tafsir, the translation of the Qur'an into Turkic was carried out, and this source must have been often referred to in the tafsir. Because there are several differences between the language of the part with literal *ayat* translations of the work and the language of the tafsir parts. In this research, information is given about the Turkic Qur'an interpretations from the early periods, and then the issue of mixed language in the interpretation language and the circumstances under which it arose are discussed.

Keywords: Turkic translations of the Qur'an, tafsir, language features, text, phonetics, morphology.

Turkiy xalqlar har doim o'zi e'tiqod qilgan dinning muqaddas kitoblariga alohida ahamiyat bergan va bunday manbalarni o'z tillariga tarjima qilish an'anasi yuzaga keltirgan. Volgabo'yi bulg'orlari orasida islom dini IX asrda tarqala boshlagan bo'lsa-da, turkiy xalqlarning salmoqli qismi qoraxoniylar bilan birga X asrdan keyin musulmon bo'ldi. Shunga ko'ra Qur'oni Karimning turkiy tarjimalariga ehtiyoj yuzaga keldi. Mana shu davrda Somoniylar hukmdori Mansur ibn Nuh (961-976) buyrug'i bilan Qur'onning birinchi rasmiy tarjimasiga urinishlar qilingan edi. Markaziy Osiyo va Xuroson ulamolarining Qur'onni tarjima qilinishi mumkinligi haqidagi mushtarak fatvosidan so'ng Tabariy tafsiri asosida Qur'onning forscha muxtasar tarjimasini tayyorlandi.¹⁹

Zakiy Validi To'g'an va Shinasi Tekin kabi olimlarning yozishicha, Qur'onning birinchi turkiy tarjimasini forsiy tarjima bilan bir davrda yoki hatto ayni paytda qilingan. Mansur ibn Nuh amri bilan to'plangan olimlar va tarjimonlar hay'ati orasida Isfijob va Farg'ona kabi turkiy xalqlar yashovchi joylardan kelgan olimlar bunga dalil sifatida ko'rsatilgan.

Ilk Qur'on tarjimalari satr-osti uslubi asosida tayyorlangan va "Tafsiri Tabariy" namuna olingan holda amalga oshirilgan. Shunday ekan ilk turkiy tafsirlarda ham "Tafsiri Tabariy"ning alohida o'rnini bor. Kunimizgacha yetib kelgan turkiy tafsirlar orasida ikkitasi qolganlariga nisbatan eskiroq til xususiyatlariga ega:

¹⁹ Saidbek Boltabayev. (2019). "Tafsiri-i Tabariy'nin Harezmiy Turkçesi ile Yapılan Tercümesi: "Tafsirli Meşhed Nüshası". Yeni Türkiye 106, İlk Dönem Türkçe İslâmî Eserler Özel Sayısı-II. 436.

1) Mashhad tafsiri. Erondagi Ostoni Qudsi Razaviy kutubxonasida 293-raqam ostida qayd etilgan ushbu asar “Tafsiri Tabariy”ning tarjimasidir. Asar to’g’ridan-to’g’ri arabcha “Tafsiri Tabariy” bilan emas, forsiy muxtasar tarjima bilan mos tushadi. Asar tili qoraxoniylar davri oxiri, xorazmshohlar davri turkiy tiliga to’g’ri keladi. Jami 361 varaqdan iborat tafsirda Sod surasidan Qur’oni Karimning oxirigacha saqlanib qolgan. Bu holda asarning bir yoki bir necha jildi yetib kelmaganini taxmin qilish mumkin. Shayx Yusuf Yignachi o’g’li Muhammad tomonidan 737- yilning 10- shabonida (1337- yil 14- mart) yakunlangan. Xattot haqida manbalarda ma’lumot uchramaydi, biroq asarning oxiridan o’rin olgan kalofonda uning “sayyidul-xattot” unvoniga ega ekani qayd etiladi. Tafsiirning tilshunoslik nuqtai nazaridan eng e’tiborli tomoni shundaki, unda arabiy so’zlarning birgina muqobili emas, bir necha muqobili berilgan. Lekin bu turkiy muqobillari, ma’nolari odatda bitta so’zning turkiy tillardagi variantlaridan iborat. Demak ushbu davrda ham turkiy tillarda turkiy fonetik, leksik farqlar mavjud bo’lib, o’ziga xos jihatlariga ega bo’lgan. Bu o’z navbatida Mahmud Koshg’ariy bergan ma’lumotlarga mos tushadi. Ushbu tafsiirning transkripsiyali matni turk olimi Yashar Shimshek tomonidan nashr etilgan.²⁰

2) Turkiy tafsiir. (O’rta Osiyo tafsiiri). Zaki Validi To’g’an Turkistonga ilmiy izlanishlar olib borish uchun qilgan ekspeditsiyalaridan birida 1914- yilda O’zbekistonning Qarsi shahrida bo’ladi va ushbu tafsiirni uchratadi. Keyinchalik uni Sankt-Peterburgga olib boradi. O’sha paytda Sankt-Peterburgdagi Osiyo xalqlari muzeyiga berilgan va hozirda shu yerdagi Rossiya Fanlar akademiyasi Sharq qo’lyozmalari institutida CA197 raqami bilan ro’yxatdan o’tgan Qur’oni Karimning turkiy tafsiiri fanda “Anonim tafsiir” yoki “O’rta Osiyo tafsiiri” nomi bilan tanilgan. Ilk topilgan turkiy tafsiir bo’lgani uchun qisqacha “Turkiy tafsiir” ham deyiladi. U jami 147 varoqdan iborat bo’lib, “Kahf” surasining 4- oyati bilan boshlanadi. Orada ayrim suralar tushib qolgan, qolaversa sahifalarda ham uzilishlar bor.

Har ikki tafsiirning umumiy xususiyati shundaki, ularda ham satr-orasi ma’nolar tarjimasida bor, ham izoh va rivoyatlar o’rin olgan tafsiir qismi bor. Har ikkisida ham tafsiir qismlari tegishli suradan keyin beriladi. Biroq O’rta Osiyo tafsiirida 49- suradan keyin har bir oyat so’ngida berila boshlaydi. Shuningdek O’rta Osiyo tafsiiri turkiy tilda yozilgan ilk tafsiir deb qabul qilinadi.

Turkiy Qur’on tarjimalari orasida birinchi bo’lib fanga ma’lum bo’lgan va 1920- yillardan beri ilmiy tadqiqotlarga jalb qilingan ushbu asar ko’plab olimlarning e’tiborini tortdi. Dastlab Bartold va Samoylovich, so’ngra Inan, To’gan va Ekmann kabi olimlar tomonidan o’rganilgan tafsiir Aleksandr Konstantinovich Borovkovning ko’p sonli tadqiqotlariga asos bo’ldi. O’ziga xos lug’at sifatida muhim so’z boyligiga ega ekanligini ta’kidlagan tadqiqotchi o’zining mashhur, asosan, satr-orasi tarjimalardan tanlab olgan so’zlardan iborat bo’lgan lug’atini

²⁰ Yaşar Şimşek. (2019), *Harezm Türkçesi Kur’ân Tercümesi (Meşhed Nüshası [293 No.], Giriş-Metin-Dizin)*. Ankara: Akçağ Yayınları.

1963- yilda nashr ettirdi.²¹ Keyinchalik asar bo'yicha katta va kichik tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, yetarlicha o'rganilmadi. Tafsir matni Halil Ibrahim Usta tomonidan magistrlik dissertatsiyasi sifatida tayyorlandi²² va shu tariqa sohadagi katta bo'shliq to'ldirildi. Asar haqida O'zbekistonda bir qancha maqolalar e'lon qilgan Qozoqboy Mahmudov asarning fonetik va morfologik xususiyatlariga e'tibor qaratgan tadqiqoti bilan asarning faksimilesini 2000- yilda e'lon qilgan.²³ Halil Ibrahim Usta tomonidan tayyorlangan matn tadqiqoti 2011- yilda faksimile bilan birga nashr etildi va bu sohadagi tadqiqotlarga katta hissa qo'shildi. Ushbu tadqiqotda Usta, tafsir bo'yicha tadqiqotlarni xronologik sanab o'tishdan tashqari, tegishli tadqiqotlarda Bartold, Fuad Ko'pruluzoda, Samoylovich, Inan, To'gan, Ekmann, Borovkov, Zulfikar, Sertkaya, To'palo'g'luning tadqiqotlaridan iqtiboslar keltiradi.²⁴

“Turkiy tafsir” tilidagi qorishqlik

OAT kim tomonidan, qayerda va qachon yozilgani noma'lum. Asarning qayerda va qachon yaratilganligi haqida uning fonetik va morfologik xususiyatlaridan kelib chiqib bir qancha taxminlar berilgan. Bundan tashqari, nihoyatda e'tibor tortuvchi lug'at boyligi tufayli matndagi so'zlar asosida tafsirning yaratilgan sanasi, qaysi yozma adabiy tilga mansubligi, geografiyasi haqida ham ba'zi fikrlar bildirilgan. Matndagi *mīrzāda*, *çälābī*, *çoq*, *başlayur-men*, *oram*, *ermās*, *degül* kabi so'zlar bunday qarashlarga asos bo'lgan. Bartold asarning oxiriga yaqinlashgan sari muallif o'z ona tili bo'lmish fors tiliga tez-tez murojaat qilganligini va qissadagi “mirzoda” so'ziga asoslanib, bu til temuriylar davriga tegishli bo'lsa kerak, deydi.²⁵ Inan va Zulfikar esa Bartoldning ona tili haqidagi fikrga e'tiroz bildirgan va Borovkov bu holat ko'chiruvchining ikki tilliligi yoki sharhning asl nusxasi bilan bog'liq bo'lishi mumkinligini ta'kidlagan.²⁶ Inan va To'gan turkiy tafsir matnining ba'zi qismlarini boshqa Qur'on tarjimalari bilan solishtirgan. Asarni o'rgangan barcha olimlar satr-orasi tarjima qismi bilan tafsir qismining tili o'rtasida jiddiy farq borligini ta'kidlaganlar. Satr-orasi Qur'on tarjimasi berilgan qismlarning tili qoraxoniylar davri tili ekanligini ta'kidlagan Ekmann, sharh va hikoyalar o'rin olgan tafsir qismining tili esa xorazmshohlar davri, qipchoq, o'g'uz va hatto chig'atoy turkiysiga xos xususiyatlarni ko'rsatishini ta'kidlagan.²⁷ Sertkaya esa qo'lyozmada chig'atoy turkiysi xususiyatlari mavjud

²¹ Александр Константинович Боровков. (1963). *Лексика среднеазиатского тюркского XII-XIII вв.* Москва.

²² Halil Ibrahim Usta. (1989). *XIII. Yüzyıl Doğu Türkçesiyle Yazılmış Anonim Kur'an Tefsirinin Söz ve Şekil Varlığı*. Yayımlanmamış Yüksek Lisans Tezi, Ankara: Ankara Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü.

²³ Qozoqboy Mahmudov. (2000). *Turkiy tafsir (XII-XIII asr)*. Toshkent davlat sharqshunoslik instituti.

²⁴ Halil Ibrahim Usta. (2011). *Orta Asya Kur'an Tefsiri (Metin- Tıpkıbasım)*. Ankara: Poyraz Ofset

²⁵ Barthold, W. (1928). “Orta Asya'da İslamiyetin İntişar Ettiği Zamana Ait Bir Abide”. *Türkiyat Mecmuası*, 2,70-71.

²⁶ Halil Ibrahim Usta. (2011). *Orta Asya Kur'an Tefsiri (Metin- Tıpkıbasım)*. 16, 19.

²⁷ Janos Eckmann. (1968). “Doğu Türkçesinde Bir Kur'an Çevirisi (Rylands Nüshası)”. *Türk Dili Araştırmaları Yıllığı - Belleten*, 15, 53.


bo'lgani uchun uning XV asrdan oldin emas, keyinroq ko'chirilgan bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi (1977: 282).²⁸


Fonetika va morfologiyaga oid qorishiq holatlar

Turkiy xalqlarning yozma adabiy tili qoraxoniylarning so'nggi davrigacha mushtarak edi. Uyg'ur harfli matnlar mintaqa va diniy muhit jihatidan qoraxoniylar davri matnidan boshqa bo'lsa-da, ular umumiy til xususiyatlari jihatidan bir-biriga uzoq emas. Chunki har ikkalasi ko'kturk adabiy tilining davomi, uning uzviy parchasi edi. Biroq keyinchalik turli mintaqalarda yashovchi turkiy xalqlar yangi yangi markazlashgan davlatlar, shahar-davlatlar qura boshlagach yozma adabiy tilda o'zgachaliklar yuzuga keldi. Keyingi asrlarda yashagan shoir va yozuvchilar tiliga bu o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Shu bois XIII-XV asrlarda yaratilgan yozma manbalarda turkiy tillarning o'zaro bir-biriga ta'sir o'tkazganini, adabiy tildagi bir xillik, barqarorlik buzilganini ko'rish mumkin. Bir morfologik shaklning, qo'shimchanning bir necha ko'rinishi, turli shevalardagi ko'rinishi adabiy tilga kirib kela boshlagan. Natijada bir asarning o'zida ham o'g'uz, ham qipchoq, ham qarluq xususiyatlarini uchratish mumkin. Bu holatning Alisher Navoiy tomonidan yak-qalam holatga olib kelingunga qadar davom etganini qayd etsa bo'ladi. Turkiy tafsir tili asosan qoraxoniylar va xorazmshohlar davri umumiy adabiy tilini aks ettirsa-da, ba'zi o'rinlarda qorishiq xususiyatlarni uchratish mumkin. Quyida ularning ba'zilar haqida to'xtalamiz:

• **d - z - y**

Qadimgi turkiy tildagi so'z ichi va so'z oxiridagi *d* tovushi qoraxoniylar davrida *d* tovushiga aylangani, keyinchalik Navoiy davri adabiy tilida bu tovush "y"ga o'zgargani qayd etiladi. Ba'zi tadqiqotlarda esa bunga qarshi chiqilib, tarixan turkiy tillarda/shevalarda bu holatlar tildagi fonetik farq sifatida bor ekani, keyinchalik adabiy tilga kirib kelgani ilgari suriladi. Nima bo'lgan taqdirda ham Xorazmshohlar va Oltin O'rda davri manbalarida ham *d* ham *y* tovushi aralash holatda ishlatiladi (*qod-* ~ *qoy-*, *qadğu* ~ *qayğu* kabi). Turkiy tafsir tilida ham shu holat ko'riladi. Hatto ayni so'zning *d*, *z* va *y* bilan ifodalanganini ko'rish mumkin. Misol uchun "jo'natmoq, yubormoq" ma'nosidagi fe'lning *id-*, *iz-* va *iy-* shakli matnda o'tadi:

Biz quđi idmazmiz  (14b/10)

Biz quzi izdimiz  (32a/11)

Salmānī ilārū manzil yerinā iyđilar  (47a/7)

Yoki yana bir misol ayni fe'lning *qadğur-* va *qayğur-* shaklida ko'riladi:


‘İsā kim qadğurmağil meni  (12b/6)

Bularniñ üçün qayğurmağil  (71b/13)


²⁸ Osman Fikri Sertkaya. (1977). "Janos Eckmann, Middle Turkic Glosses of the Rylands Interlinear Koran Translation". *Türk Dili ve Edebiyatı Dergisi*, 22, 282.

• Morfologik shakllar


Yuqorida *Salmānni ilärü manzil yerinä iydilar* jumlasida ko'rilganidek jo'nalish kelishigi uchun qo'shimchani o'g'uzcha shakli ishlatilgan. Bu holatni nafaqat 3- shaxs egalik qo'shimchasidan keyin, balki boshqa o'rinlarda ham asarda uchratish mumkin:

Ortaq qatmas-men izimä birägüni  (3b/8)

Qadimgi turkiy tilda fe'llarga o'tgan zamon qo'shimchasi qo'shilgach 1- shaxs ko'plikda shaxs-son qo'shimchasi *-miz/biz* sifatida kelar edi. Masalan "oldik" ma'nosida *aldimiz*, "berdik" ma'nosida *birdimiz* v.h.k. XIII asrdan keyingi manbalarda esa asta-sekin *-diq, -duq, -dik, -dük* ishlatila boshlaydi. Tafsir tilida har ikkala shakl ham bor. Qiziq tomoni bir gapning o'zida har ikkovi ham qo'llanilishi mumkin:

Javāb berdimiz anar, bağışladuq anar  (36b/3)

Shunga o'xshash holatni fe'l shart mayli qo'shimchalarini olib tustlanganda ko'ramiz. Ma'lumki, qadimgi turkiy tilda shart mayli qo'shimchasi *-sAr* shaxs-son qo'shimchasini qabul qilmaydi. Shu bois grammatika kitoblarida uning ravishdosh qo'shimchasi ekani ham qayd etiladi. Keyingi davrlarda esa qo'shimcha *-sA* bo'ladi va kishilik olmoshlaridan qo'shimchalashgan shaxs-son qo'shimchalari bilan tuslanadi: *kelsä-men, kelsä-sen, kelsä-siz* v.h.k. Biroq XIII asr manbalaridan e'tiboran *kelsäm, kelsän, kelsäk* kabi egalik qo'shimchasi asosli shaxs-son qo'shimchalari bilan qo'llanilishini ko'ramiz. "Qutadg'u bilig"da har ikki shakl ishlatilsa-da, egalik asosli qo'shimcha bilan ishlatilishi qo'lyozmalarning keyingi davrga tegishli ekani bilan izohlanadi. Turkiy tafsir tilida ham har ikkala shaklni uchratish mumkin:

Ägär tiläsän alğay erdiñ  (11a/26)

Aydi: ägär tiläsä-sen alğay erdiñ  (6b/5)

XIII asrgacha bo'lgan matnlarda 1- shaxs birlik kishilik olmoshi qaratqich qo'shimchasini olganda *beniñ* yoki *meniñ* shakli ko'rilar ekan, XIII asrdan e'tiboran *menim* ham yozma tilga kirib keladi. Turkiy tafsir tilida ham *menim* shaklini uchratish mumkin.

Leksikasiga oid qorishiq holatlar

Asar tilida bir qator arxaizmlarni uchratish mumkin. Bu so'zlar qoraxoniylar davri matnlari uchun ham arxaizm hisoblana oladi. Masalan *kärtü* "haqiqiy, rost", *tälim* "ko'p", *urağut* "ayol" kabi so'zlar nisbatan eski davrga tegishli. Shu bilan bir qatorda ayni ma'noda turli xil so'zlar ishlatilganini, bularning ba'zilar arxaizm, ba'zilar esa shevaga oid ekanini taxmin qilish mumkin. Misol uchun "ayol" ma'nosida *urağut – xatun – awrat – ayal – kişi – tişi* kabi bir necha so'z qo'llanilgan. Yoki 3- shaxs ko'plik kishilik olmoshi sifatida *anlar, alar va ular* so'zi, "quyi" ma'nosida *asra, altina, aşaqi, quzi (quyi)* so'zlari ishlatilaveradi.

Yana bir tomondan o'g'uzlar tilida "emas" ma'nosida mavjud bo'lgan *degül* so'zi matnda bir necha o'rinda uchraydi. O'g'uz bo'lmaganlar tomonidan ishlatilgan *ermäs* va *ermöz* so'zlarini esa matnda ko'proq ko'ramiz:

Ol qurayş dägül turur (100a/3); *Andağ dägül turur kim...* (107b/9)

Ba'zilar aymışlar kim yalawač ermäs tep... (10a/24)

Ewmäklik häkimlär işi ermäz (52a/8)

Ermäzdi seniñ anañ yawuz işlig 'avrat (85a/5)

Boshqa bir qorishiqlik “unday, shunday” ma’nosida ishlatiluvchi *äylä* va *andağ* so’zlari matnda birdek ishlatilaveradi:

Bas bir safarda äylä qildi (47a/7).

Ummatlar işin andağ qildi (145b/15).

Asar tili umuman olib qaraganda mushtarak adabiy til bo’lsa-da, fonetik, morfologik va leksik jihatdan o’g’uzcha, qipchoqcha xususiyatlar ham asar tiliga aks etgan. Bu qorishiqlik asosan matnning so’zma-so’z tarjima bo’lgan qismlarida emas, tafsir qismlarida ko’riladi. Natijada tildagi qorishiqlikning aslida muallifning tilini yoki xattotning tilini aks ettiradimi, aniq bir to’xtamga kelish qiyin. Bu holatlar asar tayyorlangan/ko’chirilgan mintaqani ham aniq chegaralab olishda qiyinchilik tug’diradi. Ehtimol xattot satr-orasi tarjima qismlarni eskiroq Qur’on tarjimasidan foydalangan holda ko’chirgan, biroq tafsir qismlarini bir necha manbadan asoslangan holda o’zi yaratgan bo’lishi mumkin. Shu bois tafsir qismlarining tili va satr-orasi tarjima qismlarining tili orasida davr, grammatik xususiyatlar va ifoda jihatidan tafovutlar ko’zga tashlanadi.

Ilk davrlar turkiy Qur’on tarjimalari va tafsirlari orasida eng ko’p ilmiy tadqiqotga jalb qilingan asar bo’lsa-da, turkiy tafsir matnida tushunib bo’lmaydigan va izohlanishi kerak bo’lgan so’z va morfologik xususiyatlar talaygina. Asar o’zining tili va lug’at boyligi jihatidan tarixiy turkiy manbalar orasida alohida o’rin tutadi. Shu boisdan ham asar yaratilgan geografiya, tarixiy davr, adabiy tili haqida turli fikrlar bildirilgan. Asarning lug’at boyligi uni turkologiya fani nuqtai nazaridan yana-da qimmatli qiladi. Chunki Qur’on tarjimasini va tafsirida diniy matn bo’lgani uchun muallif/tarjimon so’zlarni diqqat bilan tanlagan, diqqat bilan ko’chirgan va hamma oson tushunadigan so’zlarni ishlatishni afzal ko’rgan. Bu holat dastlab ilmiy olamda asar lug’atini o’rganishga ta’sir ko’rsatdi. Ham turkiy tafsir, ham boshqa turkiy Qur’on tarjima va tafsirlarida lug’at tarkibidagi so’zlarning qiyosiy tadqiqi turkologiya faniga katta hissa qo’shadi. Qolaversa, bu kabi tadqiqotlar ilk turkiy Qur’on tarjimalari o’rtasidagi aloqani ochib berish uchun zarurdir. Misol uchun, agar turkiy tafsir matnining so’zma-so’z tarjima qismlari TIEM 73 nusxasi bilan asosan bir xil ekanligi aytilgan bo’lsa ham, ikkalasi o’rtasidagi mavjud farqlarni e’tiborsiz qoldirib bo’lmaydi.

Adabiyotlar:

1. Александр Константинович Боровков. (1963). *Лексика среднеазиатского тefsура XII-XIII вв.* Москва
2. Barthold, W. (1928). “Orta Asya’da Islamiyeting Intişar Ettiğı Zamana Ait Bir Abide”. *Türkiyat Mecmuası*, 2, 70-71.
3. Janos Eckmann. (1968). “Doğı Türkçesinde Bir Kur’an Çevirisi (Rylands Nüşası)”. *Türk Dili Araştırmaları Yıllığı - Belleten*, 15, 51-69.

4. Halil İbrahim Usta. (1989). *XIII. Yüzyıl Doğu Türkçesiyle Yazılmış Anonim Kur'an Tefsirinin Söz ve Şekil Varlığı*. Yayımlanmamış Yüksek Lisans Tezi, Ankara: Ankara Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü.
5. Halil İbrahim Usta. (2011). *Orta Asya Kur'an Tefsiri (Metin-Tıpkıbasım)*. Ankara: Poyraz Ofset
6. Osman Fikri Sertkaya. (1977). "Janos Eckmann, Middle Turkic Glosses of the Rylands Interlinear Koran Translation". *Türk Dili ve Edebiyatı Dergisi*, 22, 280-285
7. Qozoqboy Mahmudov. (2000). *Turkiy tafsir (XII-XIII asr)*. Toshkent davlat sharqshunoslik instituti.
8. Saidbek Boltabayev. (2019). "Tefsir-i Taberî'nin Harezmi Türkçesi ile Yapılan Tercümesi: "Tefsirli Meşhed Nüshası". *Yeni Türkiye* 106, İlk Dönem Türkçe İslâmî Eserler Özel Sayısı-II. 435-443.
9. Yaşar Şimşek. (2019), *Harezmi Türkçesi Kur'an Tercümesi (Meşhed Nüshası [293 No.], Giriş-Metin-Dizin)*. Ankara: Akçağ Yayınları.

OLTIN O'RDA YOZMA MEROSLARI: "MUG'IN AL-MURID" ASARINING XX ASR BOSHLARI QOZOQ YOZMA ADABIYOTIGA TA'SIRI

АЛТЫН ОРДА ЖАЗБА МҰРАЛАРЫ: «МУҒИН ӘЛ-МУРИД» ШЫҒАРМАСЫНЫҢ 20-ҒАСЫР БАСЫНДАҒЫ ҚАЗАҚ ЖАЗБА ӘДЕБИЕТІНЕ ӘСЕРІ

Hamidulla TADJIYEV

*Filologiya bo'yicha falsafa doktori (PhD),
M. Avezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universiteti
Chimkent, Qozog'iston*

Annotatsiya. Maqolada qozoq adabiyoti tarixidagi ikki muhim davr – Oltin O'rda va XX asr boshlaridagi qozoq diniy-ma'rifiy adabiy merosi qiyoslanadi. Ma'lumki, "Mu'in al-murid" asari Oltin O'rda davrida din va ma'rifat g'oyasini targ'ib etgan asarlardan biridir. Asar o'z navbatida keyingi asrlarda ham ko'plab asarlarning yozilishiga sabab bo'ldi. Ulardan biri qozoq yozma adabiyotining shakllanishiga sabab bo'lgan XX asr boshlaridagi davr va shu davrda yashab ijod qilgan shoirlar ijodidir. Tahlil davomida asarlar o'rtasidagi ma'naviy uyg'unlik va an'analar davomiyligiga asosiy e'tibor qaratildi. Masalan, Sho'rtanboy Qanayo'g'li, Abay (Ibrohim) Qunonboyo'g'li, Shohkarim Xudoyberdio'g'li, Mirjaqip Dulato'g'li kabi shoirlar ijodi o'rtasidagi an'ana davomiyligi qiyosiy tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: Oltin O'rda, Mu'in al-murid, qozoq adabiyoti, ma'naviy uyg'unlik, an'analar davomiyligi.

Abstract. The article compares two important periods in the history of Kazakh literature: the Golden Horde and the religious-enlightenment literary heritage of the beginning of the 20th century. The work of Mu'in al-murid, which aimed to propagate the idea of religion and enlightenment during the period of the Golden Horde, caused many works to be written in the centuries after it. One of them is the creativity of poets who lived at the beginning of the 20th century, which caused the formation of Kazakh written literature. During the analysis, the main attention was paid to the spiritual harmony between the works and the continuity of tradition. For example, the continuity of tradition between the works of poets such as Shortanbai Kanaiuly, Abai (Ibrahim) Kunanbayuly, Shahkarim Kudaiberdiuly, Myrzhakip Dulat was comparatively analyzed.

Key words: Golden Horde, Mu'in al-murid, kazakh literature, spiritual harmony, continuity of traditions.

Кіріспе

Жошы ұлысының тарихи қалыптасуында (XIII ғасыр екінші жартысы) Алтын Орданың құрылуы Орта Азиядағы түркі тілдес тайпалар мәдениеті мен әдебиетінің қайта өркендеуіне себеп болды. Әсіресе, Ислам дінінің мемлекеттік деңгейге көтерілуі халық арасында ислами шығармалардың дамуына жол салды. Бұл кезеңде «Қиссас әл-әғнбия», «Жұм-жұма», «Нәһж әл-фәрадис» («Жұмақтардың ашық жолы»), «Кесікбаш кітабы», «Гүлистан бит-түрки» сынды әдеби шығармалар жазылғанын ескерсек, бұл кезеңде түркі халықтарының мұсылмандық әдебиетін жедел өсу үдерісінде болғаны көрінеді.

Бұл туралы кезінде түркітанушы ғалым В.В.Радловтың өзі жазып қалдырған болатын:

«Үлкен жиындарда айтылған осы жырды маған бірнеше рет тыңдауға тура келді. Жыршы сөзін бар ынтасымен тыңдаған жұртшылық тірі күнінде дін шарттарын орындамаған мұсылманның өлгеннен кейінгі азабын сипаттаған кезде қорқынышты үрей пайда болады. Тыңдаушылардың үнсіз тыныштығын тек қана «О құдіретті Тәңірім», «Қайырымы көп Құдайым» деген тәрізді лебіздер ғана бұзып отырды. Маған қазақтар арасында исламды орнықтыруға бір «Жұмжұманың» әсері даланы кезіп жүрген жүздеген молдадан артық тәрізді» [1, 19 б.] дейді ғалым.

Ғалым мұнда өзі қатысып, бірнеше рет тыңдаған бір ғана Жұмжұма шығармасының әсері туралы айтып отыр. Бүгін әдебиет тарихында жаңадан анықталып, зерттеле бастаған қаншама Алтын Орда тұсында жазылған шығармалар бар екенін ескерсек мақала тақырыбының өзектілігі айқындала түсетіні анық.

Міне, сондай шығармалардың бірі «Муғин әл-мурид» («Мүридке көмекші») шығармасы. Ислам дінінің 5 тірегі саналатын иман келтіру, намаз оқу, зекет беру, Рамазан оразасын ұстау, қажылыққа бару секілді негізгі шарттармен қатар, қоғамның әр мүшесі үшін маңызды болып саналатын сауда-саттық, аң аулау сынды шарғи мәселелермен қатар толық адам болу

жайындағы ілімдердің әдептерін жеткізуді мақсат еткен бұл шығарма түркі халықтары тарихында ерекше маңызды.

Үш ғасырға жуық Евразия кеңістігінде хандық құрып, кең даланы Қазақ еліне мұраға қалдырған бұл мемлекеттің Орта Азиялық тіпті әлемдік өркениетке қосқан үлесі мен тарихи мұраларын, әдеби жәдігерлерін зерделеп, ғылыми айналымға салудың маңызы зор. Әсіресе, бұл дәуірде жазылған рухани жәдігерлердің қазақтың ұлттық болмысына жасаған ықпалын зерттеп, ғылыми ортаға насихаттаудың маңызы артып отыр.

Қазақ әдебиеті тарихының Алтын Орда кезеңіндегі әдеби мұралар кеңестік кезеңде Б.Кенжебаев (2018), Х.Сүйіншәлиев (1967), Н.Келімбетов (2014), Ө.Күмісбаев (2009), А.Қыраубаева (2010), Р.Бердібай (2005) сынды отандық ғалымдарымыз тарапынан зерттеуге алынғанымен («Рабғұзи қиссалары», «Махаббат-нама», «Құсрау-Шырын») бұл мұралар жалпы ортағасырлық әдеби мұралар немесе ежелгі әдебиет үлгілері ретінде ғана зерделенді.

Мысалы, ортағасырлық әдеби шығармалардың терең қарастырылмаған себептерін профессор Р.Бердібай былай түсіндірген болатын:

«Өткендегі әдеби мұраны игеру – ғылыми ізденістердің күн тәртібінен түспейтін күрделі мәселе. Бұл бағытта атқарылған істер қомақты көрінгенімен, әлі де алмаған асулар, көтерілмеген тыңдар аз емес. Жүздеген, мыңдаған жылдарда дүниеге келген мұраны тексеріп, тауыстық деу тым ұшқарылық болар еді. Кеңес өкіметі кезінде «мұраны зерттейік» деген шақыру қанша көп айтылғанымен көне заманнан келіп жеткен әдеби қазынаны «таптық» тұрғыдан ғана қарап бағалау бір қырсық болса, қазақ мәдениетінің ислам әлемімен байланысын көрсетуге мүлде дерлік жол жабық болды» [2, 244 б.].

Зерттеу объектісі ретінде алынып отырған бұл шығарманың поэтикасы мен жазылу тарихы және жанрлық ерекшеліктеріне қатысты зерттеулер ертеректе басталған. Әдеби жәдігердің ғылымда танылған жалғыз нұсқасы Түркия Республикасының Бурса қаласындағы көне қолжазбалар кітапханасында және «Түрік Тіл Қоғамы» (Türk Dil kurumu) кітапханасында сақталған. Түркі халықтарына ортақ бұл әдеби шығарманы ғылым әлеміне танытқан алғашқы ғалым – Заки Уәлиди Тоған еді. Ғалым «Хорезмде жазылған көне түркі шығармалары» (ТМ II 1926: 315-330) атты мақаласында шығарманы жан-жақты қарастырған [3, 331-345 б.б]. Содан бастап әр жылдары Ф.Көпрүлү, А.Бодроглети, Ж.Екман, Н.Халимов, А.Караманоглы, Р.Топарлы, Ч.Гөкленов, М.Аргуншаһ секілді ғалымдар жан-жақты зерттеген. Р.Топарлының деректеріне сүйенсек, шығарма хашиесінде «Cevahirü'l-Esrar» атты шығармадан төрттаған үзінділері берілген [4, 12 б.]. Алайда, автор туралы ешқандай мәлімет кездеспейді. Ал, қазақ әдебиеттану ғылымында бұл шығарманы ғылыми айналымға салу жұмыстары кешеуілдеп келеді.

Шығарма – әуелі, Аллаға мадақпен, пайғамбарға салауатпен басталады. Кейін иман ұстындары сөз болып, уағыз-насихат айтылады. Содан соң, шариғаттағы мәселелер бабына кіріседі. Ақын оны «Бәбун фи мәсәл», яғни

«Мәселелер туралы бап» деп атайды. Амалдың түрлері мен ондағы парыз, уәжіп, сүннеттерін «фәсл», яғни бөлімдер аясында қарастырады. Осында ақын, ең әуелі, намаздың он екі парызын жырға қосады:

*Он екі парыз алың(дар) бұ(л) сабақ,
Біліп мұны мүмін керек тұрмақ сақ,
Намаздың сырты алты тағы алты іші,
Намаздың ішінде болар білмек Хақ [5, 26 б.].*

Автор мұнда намаздың ішіндегі алты парызы (әурет жерлерін жабу, дене тазалығы, киімнің таза болуы, қыблаға қарау, намаз уақытының кіруі, ниет ету) мен сыртындағы алты парызын (тәкбір, қиям, қырағат, рукуғ, сужуд және тәшәһһуд) атайды. Себебі, автор ақидада Имам Ағзам мәзһабын негізге алғандықтан, бұл мәзһаб бойынша намаздың дұрыс болуы аталған он екі шартқа байланысты. Бұл мәселе шамамен 1 ғасырдан астам уақыттан соң жазылған «Раунақ әл-Исламның» «Намаздың парыздары баяны туралы» деген бөлімінде де кездеседі:

*Бұ(л) намаз он екі парыз деді/лер/
Алтауы іш, алтауы сырт деді/лер/
Әуелі – таза дәрет қылмақ ол,
Және таза жер жүзінде тұрмақ ол [5, 248 б.].*

Осында ақын намаздың сыртындағы алты парыз (таза дәрет қылмақ, таза жер жүзінде тұрмақ, таза тон кимек, уақыт сақтамақ, ниет етпек, қыбла жаққа жүз қоймақ) бен ішіндегі алты парызды (тәкбір, қиям, қырағат, рукуғ, сужуд, ақырғы қуғуд) санамалай келіп, «алтауы іш, алтауы сырт, уәс-сәлам» деп аяқтаған. Ғасырлар бойы рухани үндестік пен дәстүрлер жалғастығы нәтижесінде қазақ даласында түрлі әдеби шығармаларда бұл мәселелер жалғасын тапқанын көруге болады. Мысалы, ақын әрі ағартушы Ыбырай Алтынсариннің «Шараит әл-Исләм» (Мұсылманшылықтың тұтқасы) еңбегінде егжей-тегжейлі түсіндірілген: «Намаз ішінде он екі парыз бар, алтауы – тысқары, алтауы – ішкері. Тысқары болған алтауы: әуелі, намаз оқуға кірісерден бұрын денесін тазалау, яғни ғұсыл керек, орнында ғұсыл етіп дәрет алу; екінші, киімін һәм намаз оқитын орнын нәжістен пәк ету, үшінші, ұят жерлерді ашық қоймай, жауып оқымақ, еркек болса, тізесі мен кіндігінің екі арасын, әйел болса беті мен екі қолы, екі аяғынан басқасының бәрін жабу керек. Осы ғаурат деп, яғни жасырылатын жер деп, аталған денелердің төрттен бірі жабылмаса да намаз дұрыс болмайды. Төртінші, намазды уақытымен оқымақ. Бесінші, бетін құбылаға қойып оқымақ. Алтыншы, намазға ниет ету.

Ішкері болған алты парыздың бірі – такбир тахрима, яғни «Аллаһу акбар» деп намазға кірісу; екіншісі – қиям, яғни намаздың әрбір ракағатында бір рет аяқ үстіне тұру; үшіншісі – қираатун, яғни намаз ішінде Құран сүрелерін оқу; төртінші – рукуғ, яғни басын, денесін иіп, екі қолымен тізеге сүйену; бесінші – сажда, яғни басын жайнамаз үстіне жүзін төмен салмақ, алтыншы – ақырғы отыру, ат-тахият оқитын шамаға шейін. Бұл он екі парыздың бірі орнына келмесе де намаз дұрыс болмайды» [6, 26-27 б.].

Абай Құнанбайұлы да «Китәбун тәсдиқ» (Иман кітабы) туындысында намаздың маңызды құлшылықтардың бірі екенін ескертіп, ойын былай таратады: «Намаздан әууәл құлақ қақтыңыз, кәрчі Аллаһ Тә`аләһні йоқарыда деп, мәкән исбат етпесең де, бегірек созу әдепсіз болыб, гунаһ дәрийасына ғәрқ болдым, яғни дунийа һәуәсіне ғәрқ қылмай қолымнан тарт, яғни құтыларлық йардәм берің ишарәті. Онан соң қийамда тұрып қол бағламақ – құл кожа алдында тұрмақ – бұқара патша алдында тұрғаннан артық. Аллаһ Тә`аләһнің қадирлігіне өзінің `ажизлығына иқрарының беріклігін көрсеткен ишарәті. Қибләға қарамақ, кәрчі Худай Тә`аләһға һечбір орын мүмкин емәс болса да, зийарәтін фәрз еткән орынға йүзін қаратыб, шундағы ду`адай қабұллыққа йақын болар ма экән дегән ишарәті. Онан соң қира`әт, яғни «сурәтун-фәтихә» оқисың, мұнда бірақ сөз ұзарады. Ол «Фәтихә» сурәсінің мә`ниларында көп сирр бар. Руку` – баш ұрмақ алдында Худа хазирге ұқшаш, ол да ишарәт. Сәждәләр – әууәл йерден йаралғанына иқрары, екіншісі – йәнә йерге қайтмағына иқрары, баш көтәрмәгі йәнә тіріліб, сұрау бермегіне иқрарының ишарәті. Қә`дә ул-ахир – ду`аның ахирында Аллаһға тәхийәт, ондан тәшәһһуд, ондан сәлауәт пәйғәмбәріміз саллаллаһу `әләйһи уә сәлләмге айтмақ үчүн ең ахиры сәләм менен тауысасыз, йә`ни Аллаһ Тә`аләһдан не тілеп ду`а қылдыңыз. Ол ду`а хәзинәсі кулли мусәлманларны ортақластырып, оларға да сәләмәтчилик тіләб һәм рәхмәт тіләб бітірәсіз» [7, 278-279 б.].

Қорытынды

Қорыта айтқанда, «Муғин әл-мурид» еңбегі Ислам ғылымхалын немесе шарифат шарттарын оғыз, қыпшақ тілді тайпалар арасында насихатталуына үлкен септігін тигізді деген түйінді ойға келдік. Сонымен қатар, елдің тарихи білімдерінің кеңеюіне, қоғамда шарифат шарттары мен көркем ахлақ ережелерін жүйеге келтіруді мақсат еткен бұл еңбек өз дәуірінде ғана емес, келер ұрпақтың да тәрбиесінде маңызды болды десек қателеспейміз. Әсіресе, біз салыстыра зерттеп отырған Абай Құнанбайұлы, Шәді Жәңгірұлы шығармалары арасындағы үйлесім немесе көтерілген тақырыптардың қайта жаңғыруы, ғасырлар бойы халықтың жадында сақталып, ұлттық құндылыққа айналуына негіз болған.

Қаржыландыру:

Мақала Ғылым және жоғары білім министрлігінің Ғылым комитеті тарапынан қаржыландырылған АР 14972895 «Алтын Орда және ХХ ғасыр басындағы қазақ әдебиеті: рухани үндестік және дәстүр жалғастығы» жобасы аясында жинақталған материалдар негізінде баспаға ұсынылды.

Әдебиеттер

1. Радлов В.В. Алтын сандық. Құрастыр.: Қасқабасов С., Ісләмжанұлы К. Алматы: Ана тілі, 1993. – 256 б.
2. Бердібай Р. Бес томдық шығармалар жинағы. – Алматы: Қазығұрт, 2005. Т.1 – 448 б.

3. Togan, Z. V. "Harezmi'de Yazılmış Eski Türkçe Eserler", *Türkiyat Mecmuası* II, 1926, s. 331-345
4. Toparlı, Recep. *Harezmi Türkçesi*, Seyran Yayınevi, Sivas. – 1995.
5. Қыдыр Т. Алтын Орда дәуіріндегі діни-дидактикалық шығармалар. Әдеби жәдігерлер сериясы. Алматы: Таймас баспа үйі, 2011. Т.15. – 480 б.
6. Алтынсарин Ы. Мұсылманшылықтың тұтқасы. Алматы: Қазақстан, 1991. – 79 б.
7. Абай. Шығармаларының академиялық толық жинағы. Алматы: Жазушы, 2020. Т. 2. – 528 б.

DAVLAT ADABIYOT MUZEYI XAZINASIDA SAQLANAYOTGAN AYRIM TOSHBOSMA NUSXALAR HAQIDA

Shafolat HASANOVA

O'zR FA Davlat adabiyot muzeyi ilmiy xodimi f.f.d., dots.

Annotatsiya. O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi qo'lyozmalar fondida ko'pgina arab tilidagi manbalar saqlanadi. Maqolada ana shu fondda saqlanayotgan arab tilidagi ayrim toshbosma asarlarning ilmiy tavsifi berilgan. Ular arab tili lug'atshunosligi, nahv va sarfiga oid asarlar va ularning sharhlaridan iborat.

Kalit so'zlar: Asar, toshbosma, arab tili, nahv, sarf, ilmiy tavsif, Ibn Hojib, "Kofiya".

Аннотация. Многие источники на арабском языке хранятся в рукописном фонде Государственного музея литературы имени Алишера Навои АН РУз. В статье дано научное описание некоторых арабских литографий, хранящихся в этом фонде. Они состоят из работ по арабской лексикографии, грамматике, а также комментариев к ним.

Ключевые слова: Произведение, литография, арабский язык, грамматика, научное описание, Ибн Хаджиб, «Кофия».

Annotation. Many sources in Arabic are stored in the manuscript collection of the State Museum of Literature named after Alisher Navoi of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan. The article provides a scientific description of some Arabic lithographs stored in this collection. They consist of works on Arabic lexicography, grammar, as well as commentaries on them.

Key words: Work, lithography, Arabic, grammar, scientific description, Ibn Hajib, "Kofia".

Dunyo xazinalarini to'ldirib turgan ming-minglab qadimgi yozma yodgorliklar har bir xalqning o'tmish madaniyatini o'zida aks ettiradi. Ularda xalqning boy ma'naviy va madaniy merosi, qadim urf-odat, e'tiqodi bilan bog'liq ko'plab ma'lumotlar jamlangan. Ota-bobolarimiz qoldirgan boy madaniy merosni

o‘rganish, uni kelajak avlodlarga etkazish nafaqat yurtimizda, balki dunyo olimlari oldidagi muhim masala bo‘lib qolmoqda.

O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi qo‘lyozmalar fondida ham ko‘plab qadimiy manbalar va toshbosma (litografik) asarlar saqlanadi. Muzey fondida umumiy hisobda 1500 ga yaqin toshbosma asarlar saqlanadi. Ular turkey tildagi, fors tilidagi hamda arab tilidagi asarlardir.

Arab tilidagi litografik asarlardan tafsir va hadis ilmi, mantiq va kalom ilmi, aqoid, fiqh, nahv va sarf ilmlariga oid asarlar nusxalari ko‘p. Quyida ulardan ayrimlarining ilmiy tavsifini keltiramiz:

1. Muxtor us-sihoh (مختار الصحاح)

Arab lug‘atshunosligiga oid asar. Muallifi – محمد ابن أبى بكر بن عبد القادر – الرازى Muhammad ibn Abu Bakr ibn Abdulqodir ar-Roziy.

Mashhur lug‘atnavis olim Ismoil al-Javhariy (X asr)ning shu nomli asarining muxtasari.

Matn fasl nomi bilan 20 qatorni, matn oxiri 6 qator tashkil qiladi. Har bir sahifa raqamlangan.

Boshlanishi (basmaladan so‘ng):

الحمد لله بجميع الحمد على جميع النعم و الصلاة و السلام على خير خلقه محمد المبعوث الى خير الامم و على آله و صحبه مفاتيح الحكم و مصابيح الظلم (قال) العبد المقتدر الى رحمة ربه و مغفرته محمد بن ابى بكر بن عبد القادر الرازى رحمة الله تعالى ...

Oxiri:

ألا يا اسلمى يا دارمى على البلا * و لا زال منهلا بحر عاتك القطر

Titul va oxirgi varaqda “Qo‘lyozmalar instituti – Bosma kitoblar 60”, “Navoiy adabiyot muzeyi qo‘lyozma fondi inv. № 60” va “Biblioteka Yubileyn. Komiteta Navoi № 156” yozuvli muhrlar mavjud.

Kolofonda yozilishicha, عبد الله محمد Abdulloh Muhammad matbaasida 1329 hijriy yilda Qohira shahrida bosilgan. Kolofon ostida noshir muhrining shakli berilgan. Kitob oxirida bosmaxona haqida ma‘lumot beruvchi ilova keltirilgan.

Qizil rangli sun‘iy charm qoplangan oddiy karton muqova. Nuqsoni: Muqovaning orqa qismi kitobdan ajragan. 657-658 bet (1 varaq) kitobdan ajralgan. 1-12 sahifalar (6 varaq) uringan holda. 662 sahifa. O‘lchami: 13x16 sm.

2. Tuhfat ul-aziziyya (تحفة العزيزية)

Muallifi: [ابن القاضى عبد الرحيم البخارى الجويبارى] – Ibn al-Qozi Abdurrahim al-Buxoriy al-Jo‘yboriy tomonidan Abo Muhammad ابن محمد ابن السعد ابن حماد المغربى Abo Muhammad ibn as-Sa‘d ibn Hammod al-Mag‘ribiyning “Qasidai burda”siga yozilgan sharh. “Qasidai burda”ning muallifi Misrda hijriy 608 yil shavvol oyining avvalida tug‘ilib, 690 yilda vafot etgan.

Kitob asarning yozilish sabablarini ko‘rsatuvchi debocha bilan boshlangan. Kitobda qasidaning asl arabcha matni tagidan forsiy va turkiy tillardagi she‘riy tarjimai berilgan. Asl arab tilidagi matn orasida shorih tomonidan turkiy tilda izohlar berilgan.

Kitobning boshlanishi (basmaladan keyin 2 b.):

اللهم باسمك الاعلا ابتدئ و بحمدك الاسنى اهتدى

Oxiri (103b):

1310 hijriy yili Ramazon oyining o‘ninchisida Laxtin tipolitografiyasida bosilgan. Birinchi va oxirgi sahifalarida Adabiyot muzeyi muhri bor. 170 sahifa. O‘lchovi 24x18sm.

5. **Al-kofiya ma’a-t-tarokib** (الكافية مع التراكيب)

Muallifi: Ibn Hojib, Zanjoniy, Abdurahmon Jomiy.

Arab tili fonetikasi, grammatika va sintaksisiga bag‘ishlangan turkum risolalar hoshiyasi.

Boshlanishi (basmaladan so‘ng):

الكلمة لفظ و ضع لمعنى مفرد و هى اسم و فعل و حرف

Oxiri:

زنان زنشده ترصيغه جمع مؤنث اسم اسم تفضيل تمت تم ١٣١٢

Asar sarg‘ish rang qog‘ozga yozilgan. Har bir sahifaga uch ustun qilib matn joylashtirilgan. Matn nasta’liq xatida.

Kitob muqovadan ajralgan. Muqova charmdan, jigarrang unga 480 raqami yozilgan qog‘oz yopishtirilgan. Kitob tituli va asar oxirida Adabiyot muzeyining muhrlari bosilgan. Kitob ta’mir talab.

Kitob Toshkentdagi Kamenskiy bosmaxonasida 1893 yili bosilgan. 158 sahifa. O‘lchami: 19x28 sm.

6. **Sharhi Shofiyayi Raziyyuddin Astrobodiy** (شرح شافية رضى الدين)
(استرآبادى)

Arab tili grammatikasi va uning sharhiga bag‘ishlangan asar.

Muallifi: Rafiyuddin Astrobodiy.

Asar mazmuni: Arab tili fonetikasi, morfologiya va sintaksisiga bag‘ishlangan. Harflarning harakatlanishi, masdar (ot), fe’l va ularning birlik va ko‘plik holatlari, hamza va ziyoda harflar, illatli so‘zlar haqida so‘z yuritilgan.

436 sahifa.. O‘lchami: 18x27 sm. Noshiri: “Siddiqiy” matbaasi, Lohur, 1315 hijriy yil.

7. **Ba tafsili Akmaliiy** (به تفصيل اكملئ)

Arab tili grammatikasi va uning sharhiga bag‘ishlangan asar.

Muallifi: Shayx ibn ul-Hojib, Mulla Akmalxon ibn Mulla Yusufxon domla (tuzuvchi).

Asar mazmuni: Kofiya, ya’ni ibn Hojibning arab tili nahv va sarfiga bag‘ishlangan asarini Akmaliiy ixchamlashtirib, nashr qilgan va o‘z davri o‘quvchilariga darslik sifatida xizmat qilgan.

192 sahifa. O‘lchami: 17x27 sm. Noshiri: “V.M.Ilin” matbaasi, Toshkent, 1328 hijriy yil.

8. **Sharhi mi’a omil** (شرح مائة عامل)

Abdulqohir bin Abdurrahmon al-Jurjoniyyning arab tili grammatikasiga oid asarining sharhi.

Boshlanishi (basmaladan so‘ng):

الحمد لله على نعمائه الشاملة و آلائه الكلمة و الصلوة على سيدنا محمد المصطفى

Oxiri:

تجرده عن العامل الناصب و الجازم و هو مختار ابن بك تمت

Kitob muqovasi kartondan, ajralib ketgan. Jimjimador rangda muqovaning ostki qismida 469 raqami yozilgan qog‘oz yopishtirilgan. 1860 yilda Lakxnavda “Munshiy” bosmaxonasida chop etilgan. 50 sahifa (1-50). O‘lchami: 17x 26 sm.

9. **Daririy (ضريرى)**

Arab tili grammatikasiga oid asar. Uning muallifi Abdulhasanali bin Muhammad bin Ibrohim ad-Daririydir. Bu kitobning tuzuvchisi Abdulhasanali Hamiduddin Qahandaziyydir. Asar fasllarga bo‘linib bayon qilingan. Uning sharhlari va forsiy tarjimalari ham hoshiyalarda yozib borilgan.

Boshlanishi (basmaladan so‘ng):

الحمد لله رب العالمين و العالمين و الصلوة على رسوله محمد و آله اجمعين

Oxiri:

ساقطة عنه لانها ههنا بمنزلة لام

Bu asar ham sarg‘ish rangli qog‘ozga yozilgan. Kitob Lahurda 1318 hijriy yilda chop etilgan. Oxirgi sahifasi yirtilgan. 32 sahifa. O‘lchami: 17x25 sm.

Yuqorida keltirilgan arab tilidagi toshbosma asarlarning ilmiy tavsiflaridan shu narsa ma‘lum bo‘ladiki, ularning aksariyati arab tili nahv va sarfiga bag‘ishlangan asarlar va ularning sharhlaridir. Arab tili grammatikasiga oid kitoblarning keng tarqalganligi ularning madrasalarda darslik sifatida o‘qitilgani bilan izohlanadi.

So‘nggi yillarda bir guruh olimlarimiz tomonidan muzey fondida saqlanayotgan qo‘lyozma va toshbosma asarlarning kataloglari o‘zbek, rus va ingliz tillarida nashrga tayyorlandi va ilmiy jamoatchilikka taqdim etildi.

Adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida saqlanayotgan qo‘lyozmalar katalogi / Tuzuvchilar: S.Hasanov, J. Jo‘raev, Sh. Hasanova, M. Rashidova, – T.: Firdavs-Shoh, 2022. -564 b.

2. Каталог рукописей государственного музея литературы им. Алишера Навои / подготовка к изд: А.Каюмова, Б.Хасанова, Б.Касимхонова, М.Рашидова, Ж.Жураев, С.Кадирова, Ф.Икрамова, О.Алимова, Ш.Хасанова. - Т.: 2006. -256 с.

3. Sh. Khasanova. About the manuscript fund of the museum of literature / Innovative Development of modern science: theory, methodology, practice. International Scientific and Current Research Conferences. March 25, 2022. Pages: 66-69.

QADIMGI YOZMA YODGORLIKLARNI O'RGANISH MASALALARI

Muqaddas Allamberganova

*Qoraqalpoq davlat universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrasida
f.f.f.d. (Phd), dots.*

Annotatsiya: Mazkur maqolada qadimgi yozma yodgorliklarni o'rganish usullari haqida so'z boradi. Turkiy bitiklar ustida oliy ta'lim muassasasi talabalari bilan mashg'ulotlar davomida qay tarzda amaliy ishlar olib borish bo'yicha tavsiyalar ko'rsatiladi. Ma'ruza mashg'ulotlaridan keyin mustaqil konspekt qilish yo'llari ko'rsatiladi va muhim tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: qadimgi yozma yodgorliklar, ma'ruza mashg'uloti, matn bilan ishlash, konspekt, toshbitik, matnli konspekt.

Abstract: This article talks about the methods of studying ancient written monuments. Recommendations on how to carry out practical work on Turkish writings with students of higher educational institutions will be shown. After the lecture sessions, the ways of independent synopsis will be shown and important recommendations will be given.

Key words: ancient written monuments, lecture training, working with text, synopsis, epitaph, text synopsis.

Eng qadimgi turkiy tilda yaratilgan va turk-runiy yozuvida bitilgan O'rxun-Yenisey bitiklarini "toshlarga bitilgan kitoblar", toshbitiklari deb ham ataydilar. Buning sababi ko'pgina yodgorliklarning qabr toshlariga o'yib yozilganidadir. Ularning eng yiriklari "To'nyuquq" hamda "Kul Tegin" yodgorliklaridir. O'rxun-Yenisey yodgorliklari dastlab Yenisey havzasida, so'ngra Mo'g'ilistonning O'rxun daryosi bo'yida topilgan. O'rxun-Enisey yodgorliklarining topilishi va o'rganilishi XVIII asrdan boshlanadi. Rus xizmatchisi Remezov bu haqda dastlabki xabarni beradi. Shvet zobidi Iogann Stellanberg, olim Messershmidt yodgorliklarni Yevropa ilmi ahliga ilk marta taqdim qilganlar. O'rxun-Enisey yodgorliklari S.E.Malov hamda I.V.Steblevalar tomonidan rus tiliga tarjima qilindi. O'zbekistonda Oybek, O.SHarafuddinov, N.Mallaev, Aziz Qayumov va N.Rahmonovlar O'rxun-Enisey bitiklari ustida tadqiqot ishlarini olib bordilar va ushbu manbaning ta'lim va tarbiya ishlarini yo'lga qo'yishdagi ahamiyatini yoritib berdilar.

Oliy ta'lim muassasalarida qadimgi yozma yodgorliklarni o'rganish dastlabki bosqichlardan-oq boshlanadi. Mavzuni chuqurlashtirib o'rganish esa 3-bosqichda "O'zbek tili tarixi" fani orqali o'rganiladi. Ma'ruza mashg'ulotlari asosan nazariy bilimlarni o'rgatishga yo'naltirilgan bo'lsa-da, talabalar mashg'ulotdan keyin o'rgangan yangi bilimlarini konspekt qilib yana qayta mavzu ustida ishlaydilar. Shu jihatni hisobga olib, mustaqil ta'lim mavzulari ham asosiy o'rganiladigan bilimlardan chetlashilmagan holda olib boriladi.

Jumladan, O'zbek tili tarixi fani manbalari, O'zbek tilining tarixiy fonetikasi, O'zbek tilining tarixiy morfologiyasi singari ma'ruza mashg'ulotlariga oid mavzularni qayta konspekt qilishi va berilgan nazariy bilimlarini mustahkamlashi kerak.

Konspekt yozishning ham ma'lum qonun qoidalari mavjud. Talabalarga dastlabki mashg'ulotlarda bu haqida tushintirishlar va namunalar beriladi. Shunday bo'lsa-da, uning nazariy asoslari haqida yana bir bor bahs yuritishga qaror qildik.

Konspekt

- Reja qilib olingan matn va tezislarni birlashtirish tushuniladi;
- Ifodaning ichki mantiq'ini ko'rsatadi;
- Asosiy xulosa, faktlar, isbotlar, uslublarni o'zida mujassam etadi;
- Materialga bo'lgan uning tuzuvchisi munosabatini aks ettiradi;
- Faqatgina tuzuvchi emas, balki boshqa kitobxon tomonidan ham foydalanish mumkin.

Konspektda muhim:

- Nima haqida gap ketishi;
- Nima tasdiqlanganligi;
- Qanday isbotlanishi;

Ko'p so'zlardan, ortiqcha iqtibos keltirishdan, mantiqqa zarar keltiruvchi matn statistik xususiyatlarini saqlashga xarakat qilishdan ehtiyot bo'ling.

Konspekt qilish usullari

Konspekt turlari²⁹:

Rejali: Dastlabki reja yordamida tuziladi: uning har bir qismiga konspektning ma'lum bir qismi mos keladi.

Matnli: Mantiqiy o'sishlarga bog'langan iqtiboslardan tuziladi.

Erkin matn: Ko'chirmalar, iqtiboslar, ayrim hollarda tezislar birlashtirilishini o'zida mujassam etadi.

Mavzuviy: Matnning barcha mazmunini qamrab olmaydi, aniq muayyan mavzuni qayta ishlaydi, quyilgan savolga javob beradi: Bu ikki xil:

Xronologik: Xodisalar o'zini ko'rsatish bilan ularning xronologik ketmag'ketligini aks ettiradi.

Shartli: Bir qancha manbalardan foydalangan holda aniq mavzu mohiyati ochib beriladi.

Konspektning o'ziga xos xususiyatidan biri. Konspektlashtirish maqsadlarini e'tiborga olib o'qiganlarni qayta bayon qiladigan, reja shaklida qisqa bo'lgan konspekt o'rganish jarayonida materialni yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi. Mavzuning mazmuni konspekt yozish jarayonida esda qoladi. Talaba bu orqali o'z fikrini ketma-ket va aniq ifodalay olish, reja tuzishda uning mazmunini umumlashtirib kitob ustida ishlashga o'rgatadi.

O'qish jarayonida quyidagi ko'rinishda konspektlash mumkin:

- Berilgan matn yuzasidan tayanch so'zlarni aniqlash;
- Matnda berilgan moddiy asosiy fikr;
- Matnda berilgan asosiy fikrni ochish;

²⁹ X.S. Muhiddinova, N. A. Abdullayeva. Rasmiy uslubning diplomatik turlari. T; 1997 y.

- Xulosa, savollar, shaxsiy munosabat;
- Asosiy savollar tanlash va ularga javob yozish.

Masalan, “O‘zbek tili tarixi fani manbalari.Grafika” mavzusini quyidagi ko‘rinishda konspekt ishini amalga oshirish mumkin. Dastlab tayanch tushunchalarni aniqlab ularga javob yozish talabning mavzuni yanada mustahkamlashiga yordam beradi:

Tayanch tushunchalar: adabiy til, yozuv, turkiy-run bitiklari, uyg‘ur yozuvi yodnomalari, umuxalq tili, turkiy tillarning davrlashtirilishi, oltoy nazariyasi, xun davri, g‘arbiy xun tarmog‘i, sharqiy xun tarmog‘i, qadimgi turkiy til, turkiy tamg‘alar, sug‘d yozuvi, moniy yozuvi.

Undan so‘ng reja asosidagi savollarga ketma-ketlikda javob yozish:

Reja:

1. O‘zbek tili tarixi fani, uning obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari.
2. O‘zbek tili tarixi fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.
3. Qadimgi turkiy tilning davrlari.
4. Qadimgi turkiy yozuvlar.
5. Turkiy-run bitiklar hamda uyg‘ur yozuvi yodnomalari.

Shuningdek, mavzuning adabiyotlar qismini ham konspektlashtirish muhim ahamiyatga ega. Chunki talaba, konspektlashtirish jarayonida adabiyotlar bilan ishlash ko‘nikmasini ham shakllantiradi.

Konspektlashtirish usullari

Kombinatsiyalangan konspekt - to‘g‘ri konspektlashtirishning yuqori cho‘qqisi. Bunda bir konspektida barcha usullar mohirona qo‘llaniladi. (konspekt matni, konspekt yozuvchining hoxishiga ko‘ra bir turdagi konspekt boshqa turiga erkin o‘tadi). Aynan kombinatsiyalangan konspektida talabning tayyorgarligi va o‘ziga xosligi namoyon bo‘ladi.

Xotira xaritasi. Xotira xaritasi shaklida konspektlashtirish mashhur bo‘lmoqda. Axborotni qayd qilish usulning muallifi – taniqli psixolog Toni Byuzen. Jarayon shunday tarzda o‘tadi: chuqur emotsional taassurot hosil qiluvchi timsollar xaritasi tuziladi, bu materialni eslab qolish imkoniyatini oshiradi³⁰. Bu metod an’anaviy konspektlashtirishga nisbatan kamroq harakat talab qiladi, chunki yozuvlar ijodiy va erkin tarzda olib boriladi. Xotira xaritalarini tuzishda olingan ma’lumotlarning asosiy g‘oyalari qisqa, aniq, tushunarli bo‘lib, ular orasida mantiqiy bog‘liqlik seziladi. Xaritalar xohishingizga qarab o‘zgarishi mumkin, masalan, qaytarish orqali kengayishi mumkin. To‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan qaytarishlar xotirada o‘rganilganlarni oson va mustahkam saqlab qolish imkonini beradi.

Xotira xaritasini tuzish jarayoni. Turli grafik vositalardan foydalaniladi (rasmlar, simvollar, strelkalar, turli shriftlar). Ular rang-barang bo‘ladi. Varaq gorizontal qo‘yiladi, shunda rasmga (konspekt) ko‘proq joy qoladi. Varroqning markazida asosiy g‘oyani belgilaydi. Rangli ruchkalar bilan asosiy g‘oyadan chiziqlar tortiladi, ularning har biri asosiy mavzuning bir qismi bo‘ladi. Har bir

³⁰ М. Аминов, А. Мадвалиев, Н.Махкамов, Н Махмудов. Иш юритиш (амалий қўлланма). Тошкент, 2017 й . - 440 б.

chiziqga kalit soʻz yoziladi. Konspektga chiziqlar qoʻshish mumkin. Kalit soʻzlarni bosma harflar bilan yozib, shrift kattaligini kalit soʻzning ahamiyatiga qarab tanlanadi. Xaritada rasm va simvollar koʻp boʻlishi kerak. Strelkalar gʻoyalar oʻrtasidagi aloqani koʻrsatadi.

Yaxshi konspekt mezonlari

- Qisqalik;
- Materialning ochiq, aniq tuzilishi, bu tez oʻqilishini taʼminlaydi;
- Mazmunidagi aniqlik;
- Obrazli yoki simvolli tayanch komponentlarining mavjudligi;
- Materialni individuall qayta ishlashda originallik;
- Savollar, shaxsiy fikrlar, oʻz
- Simvollar va belgilarining mavjudligi;
- Adreslilik (chiqish maʼlumotlari aniq berish, iqtibos keltirilgan betlar, foydalanuvchi vazifalari va xususiyatlariga mosligi).

Adabiyotlar:

1. M. Axmedova. Нутқ маданияти ва профессионал нотиклик. ТАТУ, 2017, 114б.
2. М. Аминов, А. Мадвалиев, Н.Махкамов, Н Махмудов. Иш юритиш (амалий кўлланма). Тошкент, 2017 й . - 440 б.
3. X.S. Muhiddinova, N. A. Abdullayeva. Rasmiy uslubning diplomatik turlari.T; 1997 y.
4. M.Abdurahmanova. Oʻzbek tili fanidan uslubiy qoʻllanma. Ish yuritish tili va uslubi. T., 2018.

“AR-RASAIL” ASARINING GERMANIYA FONDLARIDA SAQLANAYOTGAN QOʻLYOZMALARI XUSUSIDA

(About manuscripts of “Ar-rasail” which are kept in germany funds)

Hulkar SULAYMONOVA

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
tahririy-nashriyot boʻlimi muharriri, PhD*

Annotatsiya. *IX-XII asrlarda Movarounnahr, xususan Xorazmda arab tilida yozilgan adabiy asarlar mumtoz arab adabiyoti xazinasining ajralmas va nihoyat darajada salmoqli qismidir. Jumladan, mashhur filolog olim, arab mumtoz adabiyotining koʻplab janrlarida ijod qilgan, adib va shoir Abu Bakr Muhammad ibn Abbos Xorazmiy (935-993)ning ilmiy-adabiy merosi oʻzining serqirra va sermahsulligi bilan ajralib turadi. Uning “Devon ash-shiʼr” (“Sheʼrlar devoni”), “Ar-rasail” (“Maktublar”), “Al-amsal al-muvallad” (“Aforizmlar”) hamda “Kitab mufid al-ulum va mubid al-humum” (“Imlarga foydali va tashvishlarni ketkazuvchi kitob”) kabi asarlari bizgacha etib kelgan. Mazkur asarlarning har biri oʻziga xos adabiy, tarixiy qiymatga egadir.*

Mazkur maqolada Abu Bakr Xorazmiyning turli adresatlarga har xil voqeahodisalar munosabati bilan yozgan maktublaridan tuzilgan “Ar-rasail” asarining Germaniya fondlarida saqlanayotgan qo‘lyozmalari haqida ma‘lumot berilib, ular ilmiy tavsiflanadi.

Kalit so‘zlar: *Abu Bakr Muhammad ibn Abbas Xorazmiy, “Ar-rasail” (“Maktublar”), Germaniya qo‘lyozma fondlari, tavsif.*

Annotation. *Literary works written in Arabic in Movarounnahr, especially in Khorezm in the 9th-12th centuries are an integral and extremely important part of the treasury of classical Arabic literature. In particular, the scientific-literary legacy of the famous philologist, scientist, writer and poet Abu Bakr Muhammad ibn Abbas Khorezmi (935-993), who created many genres of classical Arabic literature, is distinguished by its richness and productivity. His “Devon ash-shi'r” (“Book of Poems”), “Ar-rasail” (“Letters”), “Al-amsal al-muwallad” (“Aphorisms”) and “Kitab mufid al-ulum wa mubid al-humum” (“Book useful for science and removing worries”) have come down to us. Each of these works has its own literary and historical value.*

This article provides information about the manuscripts of the work “Ar-Rasail” composed of letters written by Abu Bakr Khorezmi to various addressees in connection with various events, kept in German funds, and they are scientifically described.

Key words: *Abu Bakr Muhammad ibn Abbas Khorezmi, “Ar-rasail” (“Letters”), German manuscript funds, description.*

Abu Bakr Muhammad ibn Abbas Xorazmiy (935-993) arab mumtoz adabiyotining bir necha yo‘nalishlarida ilg‘or bo‘lgan siymolaridan biridir. U nafaqat adib, balki iste‘dodli shoir, filolog olim sifatida ham dong taratgan. Xorazmda tug‘ilib, dastlabki ta‘limni shu erda olgan adib, keyinchalik Iroq, Shom, Xalab, so‘ngra Buxoro va Nishopur kabi o‘z davrining ilm-fan markazlarida ilmiy va ijodiy faoliyat olib borgan. Bu safarlarda adib o‘ziga ko‘plab hammaslak do‘stlar orttirdi, amiru hokimlarning nazariga tushish bilan birga ba‘zan ulardan aziyat chekkan paytlari ham bo‘ldi. Hayoti ana shunday murosayu ziddiyatlar, qarama qarshiliklar ichida o‘tganiga qaramay Abu Bakr ulkan adib, ma‘rifat va hikmat sohibi bo‘lib etishdi. Zamondoshlari tomonidan “Zamonasining eng donosi, adab dengizi, nasr va nazmning tug‘i, fazl va idrok olami”³¹ deya yuksak e‘tirof etilgan Abu Bakr Xorazmiyning “Devon ash-shi‘r” (“She‘rlar devoni”), “Ar-rasail” (“Maktublar”), “Al-amsal al-muvallad” (“Aforizmlar”) va “Kitab mufid al-ulum va mubid al-humum” (“Ilmlarga foydali va tashvishlarni ketkazuvchi kitob”) kabi asarlari bizgacha etib kelgan. Mazkur asarlarning har biri o‘ziga xos adabiy, tarixiy qiymatga egadir³².

³¹ Абу Мансур ас-Саолибий. Йатимат ад-дах р. Тадқиқ қилувчи, таржимон, изоҳ ва кўрсаткичларни тузувчи И.Абдуллаев. Тошкент. “Фан”, 1976. 227-бет.

³² Сулаймонова Ҳ. Абу Бакр Хоразмий ижодий меросининг жанрий хусусиятлари. «Захириддин Муҳаммад Бобур ижоди ва жаҳон маданияти» мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция тўплами. – Шымкент: Жўмабек Тәшенев атындағы университеті,

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Abu Bakr Xorazmiy etuk adib, iste'dodli shoir va nazariyotchi olim edi. U adib sifatida arab mumtoz adabiyotida nihoyatda sermahsul ikki janrning rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Bular rasail hamda masal janrlari bo'lib, ularning har biri nafaqat adabiy balki, tarixiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Rasail (tarassul) arab epistolyar adabiyotining yirik janri bo'lib Abu Bakr Xorazmiy mazkur janrning sultaniyyat (rasmiy yozishmalar) hamda ixvaniyyat (birodarlik yozishmalari, ya'ni xususiy yozishmalar) turlarida barakali ijod qilgan. Uning ana shunday maktublardan tuzilgan "Ar-rasail" asari turli tarixiy shaxslar (amir, noib, vazir, olim yoki shoir do'stlari)ga atalgan xatlaridan tuzilgani hamda maktublar biror tarixiy voqea (g'alaba, mansabga ko'tarilish, musibat, mag'lubiyat)ga munosabat sifatida bitilganini hisobga olsak, asar nafaqat filologik jihatdan balki, tarixiylik nuqtai nazaridan ham tadqiq etishga loyiqligi ko'rinadi. Xorazmiy o'z maktublarida ayniqsa, hukmdorlarga an'anaviy madh (maqto'v, olqishlash) lar yozgan, balki, rahbarga pand-nasihahat qilgan, ba'zan tanqid ostiga olib dakki berishdan ham cho'chimagan³³. Masalan, Afrig'iylar sulolasi (hukm.yillari 305-995 y.y.)dan bo'lgan xorazmshoh *Abu Abdulloh Muhammad* ibn Ahmad ibn Iroqqa javoban yozgan maktubida shunday jummalarni keltiradi: "Xorazmliklar odamlar ichida eng yaxshi savdogarlar. Ammo qalamni qo'lga olsalar—yozishadi, agar qilichni ko'tarsalar —urishadilar"³⁴. Uning fikricha xalqni boshqaruvchi hokim — bu "jamo'a sardori, o'ziga mas'uliyat oluvchi, tugunlarni echuvchi, hukmdorlikning (uyg'oq) qalbi, taxtda birinchi"³⁵. Asarda bu kabi tarixiy shaxslar va muayyan voqea-hodisalarga munosabat tariqasida yozilgan xatlar juda ko'p. Ya'ni, Abu Bakr Xorazmiy tarix voqealarini badiiy so'z bilan "tilga kiritgan", deyishimiz mumkin. Shu kabi xususiyatlari bilan "Ar-rasail" adabiy va tarixiy manbashunoslik nuqtai nazaridan kompleks tadqiqotlarga loyiq va hatto, muhtoj ekanligi oydinlashmoqda. Ayni shu yo'nalishdagi ishlardan eng muhimi asarning bizgacha etib kelgan qo'lyozma nusxalari, ularning matniy va manbaviy xususiyatlarini o'rganish hisoblanadi. O'rganishlarimiz natijasida asarning Germaniya fondlarida saqlanayotgan 4 ta qo'lyozmasi va keyingi uch asr davomida dunyoning turli mintaqalarida chop etilgan 7 ta nashrini topishga muvaffaq bo'ldik. Topilmalardan Germaniya fondida saqlanayotgan qo'lyozmalar tavsifiga alohida to'xtalishni lozim topdik. Tavsif quyidagi ikki mezon asosida olib borildi: 1) ilmiy xususiyatlari tavsifi; 2) kitobat xususiyatlari tavsifi. Bunda asar nomi, muallifi, boshlanishi va oxiri, tarkibiy tuzilishi, matnning to'liqligi, nusxani ko'chirgan kotib, ko'chirilgan yili va o'rni, shuningdek, boshqa kataloglardagi

2023. Б. 407-408.

³³ Сулаймонова Х. Расаил жанри ривожиди Абу Бакр Хоразмий ижодининг ўрни. "Академик Воҳид Абдуллаев ва Самарқанд адабиётшунослик мактаби тараққиёти" мавзусидаги илмий-амалий анжуман материаллари. — Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2022. Б.76.

³⁴ Абу Бакр ал-Хоразмий. Расаил ли Аби Бакр ал-Хваризми. Матбуату Ал-Жаваиб, Қўстантинийа, 1297 х.й. 144-бет.

³⁵ Абу Бакр ал-Хоразмий. Расаил ли Аби Бакр ал-Хваризми. Матбуату Ал-Жаваиб, Қўстантинийа, 1297 х.й. 144-бет.

tavsiflari qo‘lyozmaning ilmiy xususiyatlari sifatida qayd etildi. Kitobat xususiyatlarining tavsifida esa qo‘lyozma nusxaning o‘lchami, varaqlar soni, muqovasi, qog‘ozi, siyohi, yozuv turi, muhr yoki bezaklari, satrlar soni, poygirlarning qo‘yilishi, saqlanish holati kabi tashqi belgilari bayon etildi.

**Berlin davlat kutubxonasidagi [DE-SBB] Wetzstein I 26 raqamli
qo‘lyozma tavsifi.**

Ilmiy xususiyatlarining tavsifi

Qo‘lyozma nomi: رسائل الخوارزمي

Muallifi: ابو بكر الخوارزمي، محمد بن العبا

Asar matnining bo‘shlanishi:

الحمد لله رب العالمين وصلى الله على سيدنا محمد وعلى اله وصحبه اجمعين، اما بعد هذه رسائل الاستاذ ابي بكر الخوارزمي رحه كتب بها الى الحاجب ابي اسحاق لما نكبه الوزير ابن عباد رحه، وفقك الله في مراجعة الحق لما تستحق به انتهاء محبتك، والهكم في استيفاء شرائط التوبة ما يطرق لك النهوض من صرعتك، ولا خلصك مما كنت فيه من اساءة نفسك اليك، الخ.

Matnning oxiri:

فأما اعداؤه مرجومون بألم الحسد، ومقتولون بسيف الغم والكد، سكوته افصح من كلامهم، ومنعه اندى من نوالهم، وحجابه احلى من لقائهم، وعبوسه احسن من ابتسامهم، وغضبه انفع من رضاهم، ويسراه اشد من يمناهم، وبخله افضل من عطاهم، تمت رسائل الاستاذ الخ.

Tili: arab

Yozuvi: arab, nash xati.

Asar tarkibi: Abu Bakr Xorazmiyning o‘z zamondoshlariga saj’ usulida yozgan maktublari .

Mansub fan tarmog‘i: adabiyot, epistolyar janrlar.

Nusxani ko‘chirgan kotib: noma’lum

Dastlabki tahrirlovchi: Ahmad/Lindermen

Ko‘chirilgan yili va joyi: kolofonda hijriy 1048-yil (milodiy 1638-yil), rajab oyi deb ko‘rsatilgan.

Kataloglardagi tavsiflari: mashhur nemis olimi V.Alvard katologi³⁶ da 8626 tavsif raqami bilan keltirilgan.

Kitobat xususiyatlarining tavsifi

Qo‘lyozmaning o‘lchami: 20,5X14,5sm. Matn 14,5X8,5 sm sathda joylashgan.

Muqovasi: muqova pishiq charmdan sharqona uslubda ishlangan, rangi jigarrang.

Varaqlar soni: 112 varaqdan iborat.

Qog‘ozi: silliq, sarg‘ish rangli qog‘oz.

Siyohi: qora.

Satrlar soni: bir betda 23 qator matn matn joylashtirilgan.

Saqlanish holati: talofatsiz , juda yaxshi holatda saqlangan.

³⁶ Die Handschriften-Verzeichnisse der Königlichen Bibliothek zu Berlin. Verzeichnisse der arabischen Handschriften von Ahlwardt, Wilhelm: XIX. Buch (Fortsetzung) , 1895. P. 570.

**Berlin davlat kutubxonasiidagi [DE-SBB] Petermann II 648
raqamli qo'lyozma tavsifi.**

Ilmiy xususiyatlarining tavsifi

Qo'lyozma nomi: رسائل الخوارزمي

Muallif: ابو بكر الخوارزمي، محمد بن العباس

Tili: arab

Yozuvi: arab, nash xati.

Asar tarkibi: Muallif bilan aloqada bo'lgan turli zamondoshlargia qofiyalangan nasr(saj')da yozgan maktublari. 128 b-133 b varaqlarda Umar ibn Abu Robia' tomonidan yozilgan ishq qissasi shuningdek, "Kitab al-ag'aniy"dan hikoya parchalari keltirilgan.

Mansub fan tarmog'i: [badiiy] adabiyot, [nasr]epistoliar janrlar.

Nusxani ko'chirgan kotib: ismi keltirilmagan

Dastlabki tahrirlovchi: Lindermen

Ko'chirilgan yili va joyi: kolofonda hijriy 1243 yil (milodiy 1828 yil), sha'bon oyi deb ko'rsatilgan.

Kataloglardagi tavsiflari: mashhur nemis olimi V.Alvard katologi³⁷da 8627 tavsif raqami bilan keltirilgan.

Kitobat xususiyatlarining tavsifi

Qo'lyozmaning o'lchami: 21X12,5sm. Matn 14X7sm sathda joylashgan.

Muqovasi: muqova qora rangli teridan pishiq qilib ishlangan.

Varaqlar soni: 334 varaqdan iborat.

Qog'oz: silliq, sarg'ish rangli qog'oz.

Siyohi: qora, qizil, sarlavhalar qizil rangli siyohda yozilgan.

Satrlar soni: bir betda 21 qator matn matn joylashtirilgan.

Saqlanish holati: talofatsiz, yaxshi holatda saqlangan, faqat qo'lyozmaning pastki yarmida yog'dan qolgan dog' izlari mavjud.

**Berlin davlat kutubxonasiidagi [DE-SBB] Petermann I 350-8
raqamli qo'lyozma tavsifi.**

Ilmiy xususiyatlarining tavsifi

Qo'lyozma nomi: الرسالة الخوارزمية، كتب ابو بكر الخوارزمي الى ابي الحسن المعروف بالبديهي الشاعر يزعم العبث به

Muallifi: ابو بكر الخوارزمي، محمد بن العباس

Asar matnining boshlanishi: لست اعاتبك، عافاك الله، لأن العتاب يصلح منك او يعمل فيك

Matnning oxiri: فخذها مباركا فيها، فبنت العروس وزوجها شر منها، تمت

Tili: arab

Yozuvi: arab, nash xati.

Asar mazmuni: Muallifning shoir Abu-l-Hasan al-Badihiyga yozgan maktubi. Qo'lyozmada yana boshqa asarlar ham mavjud bo'lib, bu turli mualliflar asarlaridan tuzilgan to'plamdir.

Mansub fan tarmog'i: badiiy nasr, maktub.

³⁷ Die Handschriften-Verzeichnisse der Königlichen Bibliothek zu Berlin. Verzeichnisse der arabischen Handschriften von Ahlwardt, Wilhelm: XIX. Buch (Fortsetzung), 1895. P. 570.

Nusxani ko'chirgan kotib: محمد بن السيد تقي الدين الحسيني الحلبي

Dastlabki tahrirlovchi: Lindermen.

Ko'chirilgan yili va joyi: kolofonda hijriy 1004 yil (milodiy 1596 yil), jumad oyi deb ko'rsatilgan.

Kataloglardagi tavsiflari: mashhur nemis olimi V.Alvard katologi³⁸da 8627* tavsif raqami bilan keltirilgan.

Kitobat xususiyatlarining tavsifi

Qo'lyozmaning o'lchami: 17,3X12,25sm. Matn 15X10sm sathda joylashgan.

Muqovasi: teri bilan qoplangan qattiq karton.

Varaqlar soni: 18 a varaqdan 23 b varaqqacha.

Qog'oz: silliq, sarg'ish rangli qog'oz.

Siyohi: qora, qizil, sarlavhalar qizil rangli siyohda yozilgan.

Satrlar soni: bir betda 26 qator matn matn joylashtirilgan.

Saqlanish holati: talofatsiz , yaxshi saqlangan, lekin qog'oz biroz xira tortgan.

Germaniyaning Tyubingen shahrida joylashgan Eberxard Karl universiteti kutubxonasida saqlanayotgan [DE-TUEB] Ma VI 72 - 1 raqamli qo'lyozma tavsifi.

Qo'lyozma nomi: رسائل الاستاذ ابي بكر الخوارزمي

Muallifi: ابو بكر الخوارزمي، محمد بن العباس

Asar matnining boshlanishi:

هذه رسايل الاستاذ ابي بكر الخوارزمي رحمه الله تعالى كتب بها الى الحاجب ابي اسحاق لما نكبه الوزير بن عبّاد رحمه الله تعالى

Matnning oxiri:

فاما اعداؤه مرجومون بالم الحسد ومقتولون بسيف الغم والكمد ... ويسراه اشد من يمانهم وبخله... افضل من عطاياهم تمت

Tili: arab

Yozuvi: arab, nasta'liq xati.

Asar mazmuni: Ustoz Abu Bakr Xorazmiyning vazir ibn Abbodning vafoti munosabati bilan Hojib ibn Ishoqqa yozgan maktubi.

Mansub fan tarmog'i: badiiy nasr, maktub.

Nusxani ko'chirgan kotib: ko'rsatilmagan

Dastlabki tahrirlovchi: Uollin

Ko'chirilgan yili va joyi: kolofonda hijriy 1048 yil (milodiy 1638 yil) deb ko'rsatilgan.

Kataloglardagi tavsiflari: Tyubingen Qirollik universiteti kutubxonasining arabcha qo'lyozmalar ro'yxati³⁹da 71 (Ma VI 72) raqam bilan keltirilgan.

Kitobat xususiyatlarining tavsifi

³⁸ Die Handschriften-Verzeichnisse der Königlichen Bibliothek zu Berlin. Verzeichnisse der arabischen Handschriften von Ahlwardt, Wilhelm: XIX. Buch (Fortsetzung) , 1895. P. 570.

³⁹ Verzeichnis der arabischen Handschriften der Königlichen Universitätsbibliothek Tübingen (Nr. 47 - 247)Volume MaVI,2. Weisweiler Max. Tübingen. 1930. P. 21.

Qo'lyozmaning o'lchami: 20,2X13,8sm. Matn 14X8 sm sathda joylashgan.

Muqovasi: zarhal naqshinkor qizil teridan ishlangan muqova.

Varaqlar soni: 3b varaqdan 110 a varaqqacha.

Qog'ozi: o'rtacha qalinlikdagi biroz dag'alroq qag'oz, rangi sarg'imtir.

Siyohi: qora, qizil.

Satrlar soni: bir betda 21 qator matn matn joylashtirilgan.

Saqlanish holati: talofatsiz saqlangan, ayrim varaqlarda suv dog'lari bor, biroq ba'zi varaqlar judayam yorqin rangda.

Yuqorida tavsifini ko'rib chiqqan to'rt qo'lyozma nusxa muallif yashagan davr (X asr)dan ancha olis. Chunonchi, I 350-8 raqamli qo'lyozma XVI (1596y.) asrda, I 26 raqamli qo'lyozma hamda Ma VI 72-1 raqamli qo'lyozmalar bir paytda XVII(1638y.) asrda, II 648 qo'lyozma esa XIX (1828y.) asrda ko'chirilgan. Afsuski, asarning muallif dastxati yoki u yashagan davrga yaqinroq bo'lgan nusxalarini topishga hozircha muvaffaq bo'lmadik. Ammo, umid qilamizki, besh asrdan buyon qayta-qayta ko'chirilib va turli mintaqalarda bir necha marta nashr etilib kelinayotgan asarning yana ko'plab qo'lyozmalari mavjud va albatta, navbatdagi izlanishlarimiz bu borada yangiliklarni yuzaga chiqaradi.

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, Abu Bakr Xorazmiyning adabiy, ilmiy merosi o'zida o'rta asr Xorazm madaniyati, tarixi haqidagi qimmatli ma'lumotlarga egaligiga qaramay, o'zbek sharqshunosligida hali monografik tadqiqotlar ob'ekti bo'lmagan. Shu sababli, adib asarlarining qo'lyozma va nashrlarini topish, tadqiq etish va o'zbek tiliga tarjima qilib, xalqimizga etkazish vazifasi dolzarblik kasb etmoqda.

Adabiyotlar:

1. Абу Бакр ал-Хоразмий. Расайл ли Аби Бакр ал-Хваризми. Матбуату Ал-Жаваиб, Қустантинийа, 1297 х.й. 144-бет.

2. Абу Мансур ас-Саолибий. Йатимат ад-дах р. Тадқиқ қилувчи, таржимон, изоҳ ва ко'рсаткичларни тузувчи И.Абдуллаев. Тошкент. "Фан", 1976. 227-бет.

3. Сулаймонова Н. Расайл жанри ривожда Абу Бакр Хоразмий ижодининг о'рни. "Академик Воҳид Абдуллаев ва Самарқанд адабиётшунослик мактаби тараққиёти" мавзусидаги илмий-амалий анжуман материаллари. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2022. Б.74-77 б.

4. Сулаймонова Н. Абу Бакр Хоразмий ижодий меросининг жанрий хусусиатлари. «Заҳириддин Муҳаммад Бобур ижоди ва жаҳон маданияти» мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция то'плами. – Шымкент: Жумабек Тәшенев атындагы университеті, 2023. Б. 407-410.

5. Die Handschriften-Verzeichnisse der Königlichen Bibliothek zu Berlin. Verzeichnisse der arabischen Handschriften von Ahlwardt, Wilhelm: XIX. Buch (Fortsetzung) , 1895. 570.

6. Verzeichnis der arabischen Handschriften der Königlichen Universitätsbibliothek Tübingen (Nr. 47 - 247)Volume MaVI,2. Weisweiler Max. Tübingen. 1930. 21.

Internet resurslari:

1. https://opendigi.ub.uni-tuebingen.de/opendigi/LXV48_qt-MaVI-2#p=34
2. https://digital.staatsbibliothekberlin.de/werkansicht/?PPN=PPN1726534480&PHYSID=PHYS_0582
- 3.

“BOBURNOMA”NING ILMIY-TANQIDIY MATNI YARATILISHI

Sadokat YUSUPOVA

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti,
filologiya fakulteti tayanch doktoranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada taniqli shaxs, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” memuar asari asosida xorijda yaratilgan asarlar, ilmiy-tanqidiy matn yaratilishi, tanqidiy matn yaratilish muammolari o‘rganiladi. Yaponiyalik sharqshunos olim Eyji Manoning “Boburnoma” ilmiy-tanqidiy matni ham maqolada yoritiladi. Bundan tashqari maqolada olim Osiyo xalqlari tarixi va madaniy merosiga ulkan qiziqish bildirganligi, Temuriylar tarixi bo‘yicha ilk tadqiqotlarni Yaponiyada boshlab berganligi haqida ma‘lumot beriladi. E.Mano “Boburnoma” asarini sinchkovlik bilan o‘rganib, asar bo‘yicha ilk tanqidiy matn 1995-yil e‘lon qilganligi, 1996-yilda shu nashrning uzviy davomi sifatida mukammal “Ko‘rsatkichlar” alohida jild holda chop ettirilganligi o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: Zahiriddin Muhammad Bobur, “Boburnoma” memuar asar, tarjima, xorijiy asarlar, Eyji Mano, ilmiy-tanqidiy matn, “Ko‘rsatkichlar”.

Аннотация. В данной статье рассматриваются произведения, созданные за рубежом, создание научно-критического текста, а также проблемы создания критического текста на основе мемуаров «Бабурнома» известного человека, царя и поэта Захириддина Мухаммада Бабур. В статье также освещен научно-критический текст «Бобурнома» японского востоковеда Эйджи Мано. Кроме того, в статье приводятся сведения о большом интересе ученого к истории и культурному наследию народов Азии, а также о том, что первые исследования по истории Тимуридов он начал в Японии. Известно, что Э. Мано внимательно изучил произведение «Бобурнома» и опубликовал первый критический текст по произведению в 1995 году, а в 1996 году, как продолжение этой публикации, отдельным томом были изданы совершенные «Индикаторы».

Ключевые слова: Захириддин Мухаммад Бабур, мемуары «Бобурнома», перевод, зарубежные произведения, Эйджи Мано, научно-критический текст, «Индикаторы».

Abstract. This article examines the works created abroad, the creation of a scientific and critical text, and the problems of creating a critical text based on the

memoir "Baburnoma" by the well-known person, king and poet Zahiriddin Muhammad Babur. The scientific and critical text "Boburnoma" by the Japanese oriental scholar Eiji Mano is also covered in the article. In addition, the article provides information about the scientist's great interest in the history and cultural heritage of Asian peoples, and the fact that he started the first research on the history of the Timurids in Japan. It is learned that E. Mano carefully studied the work "Boburnoma" and published the first critical text on the work in 1995, and in 1996, as a continuation of this publication, the perfect "Indicators" was published as a separate volume.

Key words: Zahiriddin Muhammad Babur, "Boburnoma" memoir, translation, foreign works, Eiji Mano, scientific and critical text, "Indicators".

Ulugʻ shoh va shoir, davlat arbobi, buyuk sarkarda, faylasuf, olim Zahiriddin Muhammad Bobur hayot va ijod yoʻli nafaqat Sharq dunyosi, balki xorijlik olimlar eʼtirofiga bugungi kunga qadar sazovor boʻlib kelmoqda. Bobur Mirzo xalqimizning buyuk farzandi. "Adabiyot, ilm, maʼrifat nuqtai nazaridan u hamon yashayapti. Oʻzligimizni anglab, buyuk tariximizni yoshlarga tushuntirsak, ilmaʼrifatni rivojlantirsak, hech qachon kam boʻlmaymiz."⁴⁰

Zahiriddin Muhammad Bobur XVI asrning birinchi yarmida Hindistonda buyuk imperiyaga asos solgan Zahiriddin Muhammad Bobur dunyo tarixida insonparvarligi bilan nom qozongan shaxslardan biridir. U yashagan davr, siyosiy hayot, ijtimoiy muhitda fan va adabiyotni rivojlantirganligi barcha xorijlik olimlar tomonidan yuksak baholanib kelinmoqda.

Natijada mustaqillikning keying yillaridan boshlab Zahiriddin Muhammad Bobur haqida kinofilmlar, asarlar, monografiyalar, ilmiy ekspeditsiyalar, adabiy kechalar yaratila boshlandi. Bundan tashqari bir qancha risolalar, jumladan, Gʻaybulloh Assalom, Neʼmatulla Otajonning "Jahongashta "Boburnoma" (1996); R.Vohidovning "Biz bilgan va bilmagan Bobur" (1999); A.Ibrohimovning "Boburnoma"- buyuk asar" (2000); Sayfiddin Jalilovning "Bobur va Yuliy Sezar" (2001); Saidbek Hasanovning "Bobur ijodiyoti" (2007), I.Adizova "Soʻzumni oʻqub anglagʻaysen oʻzumni" (2008) monografiya va risolalari chop qilindi. Boburning "Boburnoma" memuar asari, yanada aniqrogʻi "Vaqoe" yoki "Voqealar bayoni" nomli ajoyib xotirnomasi asosida koʻplab ilmiy ishlar olib borilmoqda.⁴¹ Bugungi kunga qadar boburiylar tarixiga boʻlgan qiziqish butun dunyo sharqshunos olimlari eʼtiborini oʻziga tortib kelmoqda. Xususan, kun chiqar mamlakat Yaponiyada birinchilardan boʻlib Eyji Mano boshlab berdi. "Boburnoma"ning ilmiy-tanqidiy matnini ilk bora boburshunos olim Eyji Mano amalga oshirdi.⁴²

⁴⁰ Ўзбекистон Руспубликаси Президенти Ш. М. Мирзиёевнинг Андижон вилояти «Боғи Бобур» истироҳат масканида сўзлаган нуткидан. 05.06.2017.

⁴¹ Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. –Т.: Фан, 2019. – 5 б.

⁴² Вюртле Ф. Андижон шахзодаси. — Т.: Ўқитувчи, 2012. – 12 б.

E. Mano Osiyo xalqlari tarixi va madaniy merosiga talabalik yillaridanoq ulkan qiziqish bildirib, Temuriylar tarixi bo'yicha ilk tadqiqotlarni Yaponiyada boshlab bergan.

Eyji Mano "Boburnoma"ning U. Erskin tomonidan qilingan tarjimasiga dastlab Kioto universitetida o'qib yurgan kezarida qiziqib qolgan. Shu tariqa unda "Boburnoma" matnini o'rganish va tarjima qilishga ishtiyoq baland bo'lgan. Olim "Boburnoma"ning asliyatida to'liq o'rganish uchun arab, fors va turk tillarini chuqur o'rgangan. Binobarin, busiz asarni tadqiq qilish imkonsiz edi. Talabalik yillarida Eyji Mano uchun asarning Haydarobod qo'lyozma nusxasini, A.S. Beverij xonim tomonidan qilingan mukammal inglizcha tarjimani, "Boburnoma"ning boshqa olimlar tomonidan amalga oshirilgan inglizcha, nemischa, fransuzcha tarjimalarini o'rganish uchun eng qulay va samarali davr bo'lgan edi", – deydi o'z tadqiqot ishida Hoshimova D.⁴³

Kioto Universiteti tarix kafedrasida ishlagan chog'larida, Temuriyzodalar avlodidan bo'lgan Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiga qiziqib qoladi. "Boburnoma" asarini sinchkovlik bilan o'rganib, ilmiy-tarixiy faktlar yig'a boshlaydi. Asar bo'yicha ilk tanqidiy matnni yaratadi. U bu ilmiy-tanqidiy matnni 1995-yil e'lon qilib, 1996-yilda shu nashrning uzviy davomi sifatida mukammal "Ko'rsatkichlar" asarini alohida jild holida chop ettirdi.⁴⁴ "Boburnoma"ning bu ilmiy-tanqidiy matni dunyo olimlari tomonidan yuksak baholandi. 1995-yilda tayyorlangan mazkur tanqidiy matn "Boburnoma"ning asl nusxa tilidagi 4 nusxasi va shu bilan birga fors tilidagi bir qo'lyozma nusxa asosida tayyorlandi. Olim asarning 4 asl nusxasi – Elfinston, Haydarobod, Britaniya, Qozon bosma nusxalaridan tashqari, 2 ta forscha qo'lyozma – Yangi Dehli Milliy muzeyidagi "Voqeoti Boburiy" deb nomlangan qo'lyozma, Parij Milliy kutubxonasida saqlanayotgan nusxalardan foydalangan. Nashrga Haydaroboddagi nusxa asos qilib olingan bo'lib, olim ilmiy-tanqidiy matnni tiklashda jami bo'lib 7 ta:

4 ta o'zbekcha;

3 ta forscha nusxadan foydalangan;

Olim asarni yaxlit holda yaratish uchun ilmiy maqolalar yozishga kirishdi. 1981-yildan boshlab boburiylar saltanati tarixi haqida maqolalar nashr ettira boshladi. Olimning ilk ilmiy maqolasi "Bobur va Hirota" nomi ostida chop etilib, ushbu maqolada Boburning Hirotda yashagan kunlari, ijtimoiy-siyosiy muhit, ilmiy-adabiy merosga qo'shgan hissasi, Hirotdagi adabiy merosni rivojlantirish uchun qilgan harakatlari tasvirlangan. Boburiylar tarixini tubdan sinchkovlik bilan o'rganib, 1983-1984-yillarda "Boburnoma"ning Farg'ona hamda Kobul bo'limlarini yaponcha tarjimalarini tayyorladi. Eyji Mano bu yaratilgan maqolalardan ko'ngli to'lmay XVI asr Markaziy Osiyo adabiy muhiti, Zahiriddin

⁴³ Хошимова Д. М. «Бобурнома» асарининг танқидий матнини яратиш муаммолари ҳамда «Бобурнома» танқидий матнининг япон нашрлари мисолида. Филол. фан. номзоди...дисс. // ЎзР.Олий ва Ўрта махсус таълим вазирлиги. Мирзо Улуғбек номидаги ЎЗМУ. Тошкент, 2006. – 159 б

⁴⁴ Abilova X. Yapon olimining Mirzo Boburga maktubi. — T.: Ma'naviy hayot, 2014, 2-son, 12-13 b.

Muhammad Bobur hayot va ijod yo‘li haqida ma’lumot beruvchi tarixiy asarlarni qidirib topish maqsadida Rossiya, Hindiston, Eron, Angliya, Shotlandiya, Fransiya kabi mamlakatlarga safarlar uyushtiradi. Olim ekspeditsiyalar chog‘ida, Bobur haqidagi qimmatbaho tarixiy ma’lumotlarni yig‘ib, “Boburnoma” asarining chig‘atoy va fors tillardagi qo‘lyozmalarining asl nusxalaridam ma’lumotlar olish uchun o‘z mablag‘larini ham ayamaydi. Ekspeditsiya jarayonida, ko‘plab tarixiy-ilmiiy faktlar yig‘ishga urundi.

Eyji Mano “Boburnoma”ning qo‘lyozma nusxalarini o‘rganib, 1995-yilda asarning arab yozuvidagi nusxasiga tahliliy xulosa yozgan. Natijada olimning muntazam izlanishlarining bu xulosasi ilk kitob holdagi nashri bo‘lib qoldi. Ushbu kitob Xalqaro Bobur fondi mukofoti bilan taqdirlanib, asar o‘zbek olimlari tomonidan ham yuksak baholandi. “Bu ishinni 1960-yilga kelib P.Shamsiyev va S.Mirzayev chop ettirgan o‘zbek tilidagi nashrga so‘zma-so‘z taqoslab chiqishdi” deya ta’kidlaydi Eyji Mano. 1996-yilda olim “Boburnoma” bo‘yicha izlanishlarining ikkinchi jildini chop qildirib, ushbu jildning boshqa jildlardan farqi shundaki, izohlar alfavit tarzida joylashtirilgan edi. 1998-yilga kelib “Boburnoma”ning keng qamrovli annotatsiyasi va qo‘lyozma nusxalar ro‘yxatini o‘z ichiga olgan 3-jildni nashr qildirdi. Bu jild o‘ta ilmiy tilda yozilgan bo‘lib, ilmiy termin va sharhlardan ham namunalar keltirilgan bo‘lib, har qanday oddiy yaponiyalik asarni osonlikcha o‘qiy olmaydi deydi E.Mano.⁴⁵

Yaponiyalik boburshunos katta ilmiy jasorat ko‘rsatib, bevosita amaliy ahamiyatga ham ega bo‘lgan jiddiy tadqiqotni yaratdi. Nashrning yana bir o‘ziga xos jihati shundaki, u sidirg‘a matn va bayondan iborat emas, balki matn o‘ziga xos bir tarzda yoritilgan, jonlantirilgan. Natijada, salmoqdor jilddan iborat yorqin manzarador, nihoyatda maroqli “Boburnoma” asari tarjimasi vujudga kelgan. Shuningdek, tarjima asarda yil voqealarini kichik-kichik qismlarga bo‘lib, ularga alohida nom va sarlavhalar qo‘yilgan. Sarlavhalar 180 tadan ziyod. Ular asarda qalamga olingan voqea, hodisalar mazmuni va mundarijasiga mos bo‘lib kitobxon e’tiborini o‘ziga tortadi. Ayni chog‘da, tarjimon sahifalar hoshiyasida sharqona uslubga mos ravishda, G‘arb o‘quvchisi uchun tushunarli bo‘lmagan atamalar, so‘z va iboralar, kishi va joy nomlari, har xil udumlarni voqealar aks etayotgan joyda izohlaydi, muhim tushuntirishlar beradi. Kitobning sharhida yosh yapon olimi Junichi Nishimura “Ushbu asar professor Manoning Boburga yozgan maktubiga o‘xshaydi” degan o‘z fikr va mulohazalarini bildirib o‘tgan. Eyji Mano ham “Men bu fikrga qo‘shilaman va mazkur kitobda Boburni ko‘klarga ko‘targanman”, - Mano Eiji. Babur-Nama. (Vaqai), Concordance and classified Indexes, Kyoto. 1996. –P.407.degan fikrlarini uchratamiz. Umid qilamanki, “Bobur” nomli bu kitobim va yangi tarjimam (“Boburnoma”) yapon xalqiga Boburning ajoyib shaxsiyatini ochib beradi va nafaqat Boburga, balki O‘zbekistonga b‘lgan qiziqishini yanada oshiradi. Agar yaponiyaliklar Boburni yaxshiroq va yaqindan bilishsa, uning ajoyib va jozibali shaxsiyatiga maftun bo‘lishlari aniq”.⁴⁶

⁴⁵ Mano Eiji. Babur-Nama. (Vaqai), Concordance and classified Indexes, Kyoto. 1996. –P.407

⁴⁶ Mano Eiji. Babur-Nama. (Vaqai), Critical Edition Based on Four Chaghatay Text with Introduction and Notes. Kyoto, Shokado. 1995. –P.429.

Chunonchi, mo'g'ul, o'zbek, turk, tojik, qipchoq kabi el-uluslar, ularning avlod, ajdodlarigacha ta'rif berib, kitobxonning qo'shimcha ma'lumot qidirib, fikri chalg'imasligiga, voqea, hodisalardan to'liq bahra olishga harakat qilgan.

Tanqidiy matnning asosiy tamoyillari:

1. Haydarobod nusxasi asosiy matn sifatida olingan.
2. Haydarobod nusxasining matnidagi kamchiliklar boshqa uch (Qozon, Edinburg, London)

turkiy matnga solishtirilib to'g'irlangan. Shuningdek, qiyoslash jarayonida forscha tarjimadan ham imkoniyat darajasida foydalanilgan. Agar Haydarobod nusxasida etishmagan so'z, birikma, parchalar turkey qo'lyozmalarda mavjud bo'lsa, ushbu so'zlarni asosiy matnga kiritish yoki kiritmaslik masalasida forsiy tarjimaga ham murojaat qilingan. Shu bilan birga, matn iloji boricha aniq va to'g'ri bo'lishi uchun, P.Shamsiyevning 1960-yilgi nashridan hamda U.Tekston tarjimasidan istifoda etilgan.

3. Asosiy matnda amalga oshirilgan tuzatishlar "qisqartma va ramzlar" sarlavhasi ostidagi bo'limda aniq ko'rsatib o'tilgan.
4. Asosiy matnga tuzatishlar kiritilganda, bu kuzatishlarga asos bo'lib xizmat

qilgan manba, shuningdek matnlardagi o'xshashliklar izohda ko'rsatmalar orqali ifodalangan.

5. Asosiy matndagi imlo boshqa qo'lyozmalarga asoslanib to'g'irlangan hollarda "jimlo" bo'limida aniqroq tushuntirib o'tilgan.
6. Haydarobod qo'lyozmasida imlo tuzatishlari orasidagi farqlar ko'rsatilganida, izoh uchun maxsus ko'rsatkichlardan foydalanilmagan. Eyji Manoning tanqidiy nashri asosan Haydarobod qo'lyozmasi matniga muvofiq keladi. E.Mano "Bobur va u yaxshab ijod etgan davr" deb nomlangan 4-jildni 2001-yilda nashr qilib, ushbu jildga olim XIV va XVI asrlardagi Markaziy Osiyo madaniy muhiti haqida yozilgan maqolalarni kiritdi. Bu jild sababli Eyji Mano "Yaponiya akademigi" mukofotiga sazovor bo'ldi.

Olim tanqidiy matn nashrining qo'shimcha o'zgartirishlar kiritilgan ikkinchi nashrini ommaga havola qilib, kitob bugungi kunga qadar sevib o'qib kelinmoqda. Eyji Mano izlanishlar qilishdan to'xtamay, "Boburnoma"ning asl nusxasini o'rganib, yapon tilida maqola chop ettirdi hamda Xo'ja Ahror Valiyning "Volidiya" asari haqida ham o'z fikr va mulohazalarini bildirib, bu asar haqida ham ilmiy maqola yozadi. Yana shuni ta'kidlab o'tish joizki, olim Bobur shaxsiyatiga ulkan ehtirom ko'rsatib, "Bobur-buyuk saltanat asoschisi" nomli mo'jaz kitobini 2013-yilda nashr ettiradi. Asarning boshqa asarlardan farqli jihati shundaki, bu kitob muxtasar shaklda bo'lsa ham, Yaponiyaning oddiy aholisi uchun Bobur haqida yozilga yozilgan birinchi tarixiy-badiiy kitob hisoblanadi. Zahiriddin Muhammad Bobur, boburiylar saltanati tarixi hanuzgacha qiziqarliligi va ulkan adabiy merosligicha qolmoqda. Biz bu merosni kelgusida yoshlarga tushunarli bo'lishi uchun butun dunyo sharqshunos olimlari bilan birgalikda xorijiy tillarda ham turli xil adabiyotlarni yaratishimiz lozim.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoevning Andijon viloyati “Bog‘i Bobur” istirohat maskanida so‘zlagan nutqidan. 05.06.2017.
2. Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. –Т.: Фан, 2019.– 5 б.
3. Вюртле Ф. Андижон шахзодаси. — Т.: Ўқитувчи, 2012. – 12 б.
4. Ҳошимова Д. М. «Бобурнома» асарининг танқидий матнини яратиш муаммолари ҳамда «Бобурнома» танқидий матнининг япон нашрлари мисолида. Филол. фан. номзоди...дисс. // ЎЗР.Олий ва Ўрта махсус таълим вазирлиги. Мирзо Улуғбек номидаги ЎЗМУ. Тошкент, 2006. – 159 б
5. Abilova X. Yapon olimining Mirzo Boburga maktubi. — Т.: Ma’naviy hayot, 2014, 2-son, 12-13 b.
6. Mano Eiji. Babur-Nama. (Vaqai), Concordance and classified Indexes, Kyoto. 1996. –P.407.
7. Mano Eiji. Babur-Nama. (Vaqai), Critical Edition Based on Four Chaghatay Text with Introduction and Notes. Kyoto, Shokado. 1995. –P.429.

BAHROMBEK DAVLATSHOYEVNING “MILLIY ASH’ORI TARJIMON” MAJMUASI HAQIDA

Xilola GIYOSOVA

O‘zR FA Davlat adabiyot muzeyi tayanch doktoranti

Annotatsiya. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o‘zbek adabiyotida sezilarli mazmuniy o‘zgarishlar kuzatildi. Aynan shu davr adabiyotida tazkirachilikning boyishi, bayoz-u majmualarning yaratilishi, ayni paytda ularning yangilanishi natijasida yangi shakl hamda mazmunga ega she’riy to‘plamlar paydo bo‘ldi. Ushbu maqolaning maqsadi Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyining Nodir qo‘lyozma, toshbosma va bosma asarlar xazinasida 766-inventar raqam ostida saqlanayotgan “Milliy ash’ori Tarjimon” majmuasi haqida ma’lumot berishdir.

Kalit so‘zlar: jadidchilik davri, she’riy majmua, milliy she’rlar, aruz, basmala, hamd, na’t,

Аннотация. Начиная с второй половины XX века в узбекской литературе наблюдались значительные содержательные изменения. В этот период расширилось наследие тазкиры, создавались баёзы и сборники, которые благодаря обновлению приобрели новые формы и содержание. Цель данной статьи – предоставить информацию о сборнике “Милли ашъори Таржимон”, хранящемся под инвентарным номером 766 в Фонде редких рукописей, литографий и печатных изданий Государственного литературного музея имени Алишера Навои.

Ключевые слова: эпоха джадидизма, поэтический сборник, национальные стихи, аруз, басмала, хамд, наът.

Annotation. Significant changes in content have been observed in Uzbek literature since the second half of the 20th century. During this period, the tradition of tazkira writing expanded, bayoz and collections were created, and as a result of their renewal, poetic collections with new forms and content emerged. The purpose of this article is to provide information about the collection “Milliy ash’ori Tarjimon”, which is stored under inventory number 766 in the Treasury of Rare Manuscripts, Lithographs, and Printed Works at the State Literary Museum named after Alisher Navoi.

Keywords: period of Jadidism, poetic collection, national poems, aruz, basmala, hamd, na’t

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o‘zbek adabiyotida mazmun jihatdan o‘zgarishlar kuzatildi. Mazmundagi bu o‘zgarishlar adabiyotshunosligimizda ma’rifatparvar shoirlar deb nom olgan Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Avaz O‘tar, Anbar otin singari shoirlarning ijodiy faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlarning badiiy adabiyotdagi aksi sifatida zamondan shikoyat, ma’rifatga targ‘ib qilishning kuchayishi, adabiyotning kundalik hayotga, xalq tiliga xalq ijodiga yaqinlashishi kabilar bilan xarakterlanadi.

“Aynan shu davrda jadid adabiyoti ma’rifatparvarlik adabiyotidan keyingi bosqich sifatida maydonga chiqdi. Jadidlar aniq maqsad bilan g‘oyalarini adabiyot yordamida yoyish, targ‘ib qilish va shu orqali xalqni ma’rifatli qilib, jamiyatda yangilanishlarga erishish, Vatan va millatni taraqqiyotga olib chiqish vositasi deb qaradilar”.⁴⁷ 1917-yilga qadar jadid shoirlari she’rlarining asosiy mavzusini millat turmush tarzidagi, ongidagi illatlarni, qusurlarni, Vatanning xarob ahvolini, ichdan emirilib borayotgan feodal jamiyat qusurlarini tanqid qilish va xalqni ma’rifatga, birlikka, jahonning taraqqiy etgan mamlakatlaridan ibrat olishga chaqirish g‘oyalari tashkil etdi. An’anaviy ishqiyy, tasavvufiy mavzu ikkinchi planga o‘tdi.

“... ularning o‘y-fikrlarini gul-bulbul tashbehi emas, mahbubasini ag‘yor yo‘ldan urgan oshiq kechinmalari ham emas, kundan kunga ajdodlar xotirasini o‘zligini unutib, tarixdan uzilib borayotgan avlod band qildi. Ular huquqsiz xalq baxtli bo‘la olmasligini angladilar”⁴⁸. Bu paytda millat kayfiyati o‘zgargan, ma’rifatparvarlik g‘oyalari matbuot va adabiyotda aks eta boshlagan, har bir shoir millat uchun, uning taraqqiy etishi uchun qo‘ldan kelganini qilishga hozir edi.

Adabiyotshunos olimi Sh.Nazarova “XX asr boshlari o‘zbek she’riyatining yangilanish tamoyillari” nomli monografiyasida XX asr boshlari o‘zbek adabiyotida tazkirachilikning boyishi, bayoz-u majmualarning yaratilishi, ayni paytda ularning yangilanishi natijasida yangi shakl hamda mazmunga ega she’riy to‘plamlar paydo bo‘lganini ta’kidlaydi.⁴⁹ Mazkur monografiyada ilk marta shunday majmualardan biri “Milliy ash’ori Tarjimon” haqida ma’lumot beriladi.

⁴⁷ Afoqova N. O‘zbek jadid adabiyotida she’riy shakllar taraqqiyoti tamoyillari: Filolog.fanlari doktori... Diss. — B., — 2006. — 62 B.

⁴⁸ Avloniy. A Tanlangan asarlar. Ikki jildlik. 1-jild. — T.: Ma’naviyat, 1998. — 5 b.

⁴⁹ Nazarova Sh. “XX asr boshlari o‘zbek she’riyatining yangilanish tamoyillari”. Monografiya. — Toshkent, “Akadernashr”, 2022

Mazkur majmua Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyining Nodir qo‘lyozma, toshbosma va bosma asarlar xazinasida 766-inventar raqam ostida saqlanadi. O‘lchami 14,5x22. Muqovasi jigarrang tusli qalin kartondan qilingan. 1910-yilda Orenburgdagi “Vaqf” matbaasi tomonidan nashr etilgan ushbu toshbosma kitobga shoir, tarjimon Bahrombek Davlatshoyev noshirlik va muharrirlik qilgan. Majmuaga “Milliy ash’ori Tarjimondir bu, Millat o‘g‘lina armug‘ondur bu” so‘zlari epigraf qilib olingan. Majmua basmala, hamd, na’t, Me’roj ta’rifi bilan boshlanib, muallifning xalqni ma’rifatli bo‘lishga, Turkistonni taraqqiy ettirishga undovchi g‘azallari bilan davom etadi. She’riy qismlar avvalida, an’anaviy dostonchilikda bo‘lgani kabi, ikki-uch jumla nasriy izoh beriladi. Masalan, “Biz turkistonli musulmonlarni na darajada ekanligimizni oyna ko‘rsatur uchun yozilmish nazm” yoki “Bu nazmni o‘tmish muhtaram shoirlar kabi falakdan shikoyat edub yozmish esamda aslida ushbu shikoyat falakdan o‘lmay, balki falak pardasining ostinda ko‘runmay turub meni falokat chuqurina itarg‘uchilar jaholat g‘aflat va nodonlikdin shikoyatdur” kabi. Muallif yangi shakl, yangi maqsad izlashga harakat qiladi, ammo nazmiy qismlarga nasriy parchalar bilan izoh berish tartibiga amal qiladi.

Tarjimon “Hurmatli o‘quvchilar!” deb boshlanuvchi sarlavhali so‘zboshida “Emdi hamdlar o‘lsunki 1905-milodiy sanasindin buyon musulmonlar o‘rtasina bir his-u intuboh asri ko‘runub, bul sababli matbuot ishi ilgari bordig‘i ko‘runmoqda va adabiyot millatimiz doira tariqig‘a kirmoqdadir. Bul o‘rtada menida milliyat tomurim harakatg‘a kelib, milliy she’rlar yozmoqg‘a va Vatani azizim o‘lg‘on turkistonlik o‘z dindoshlarimni g‘aflatindin va ibratsizliklarindin va bir necha kamchilik va kelishsiz ishlarindin bahs etmoqg‘a majbur etdi” deya majmuaning yaratilish sababini bayon etadi.⁵⁰

Shu o‘rinda majmua muallifi — Bahrombek Davlatshoyev kim va jadidchilik harakatida qanday o‘rin tutgan, degan haqli savol tug‘iladi. Umrini jadidlar hayoti va ijodiy merosini tadqiq etishga bag‘ishlagan olim Sirojiddin Ahmad “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasining 19 (4678)-sonida nashr etilgan “Tanishing: Bahrombek – tarjimon” maqolasida shoirning tarjimayi holi haqida batafsil ma’lumot beradi.⁵¹

Bahrombek Davlatshoh o‘g‘li (1873–1930) XX asr o‘zbek ziyolilari orasida o‘ziga xos bilim va shoirlik iste’dodi bilan ajralib turuvchi ijodkorlardan biri bo‘lgan. Shoir va tazkiranavis Ne’matullo Muhtaram “Tazkirat ush-shuaro” asarida “Tarjimon – til shevasining andalibi va so‘z bo‘stonining hazordostoni (bulbuli) kattaqo‘rg‘onlik Bahromning taxallusidir” deydi va u “o‘zbek jamoasida dunyoga kelgan”ini uqtiradi. Bahrombekning otasi Davlatshoh Karimov no‘g‘oy turklaridan bo‘lib, chor Rossiya O‘rta Osiyoni bosib olishidan avval e’tiqodi tufayli

⁵⁰ Milliy ash’ori Tarjimon. Majmua / Noshir va muharrir: Bahrombek Davlatshoyev. — Toshkent: Vaqf tipografiyasi, 1910. — 40 b. Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi. Nodir qo‘lyozma va toshbosma va bosma asarlar. Inv. №766/IV

⁵¹ Sirojiddin Ahmad. “Tanishing: Bahrombek – tarjimon” maqolasi. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida, 2022-yil 3-iyun, 19 (4678)-son.

Kattaqo'rg'onga ko'chib kelgan. Manbalarning xabar berishicha, otasi Kattaqo'rg'on hokimi Yoqubbek inoq tomonidan ishga olingan va asosan tikuvchilik kasbi bilan shug'ullangan. O'zbek qizi bilan turmush qurib bir necha farzand ko'rgan. Kattaqo'rg'on chor hokimiyati tomonidan zabt etilgan davrlarda rus tilini bilgani bois tarjimonlik qilgan va shaharning o'zbeklar yashaydigan qismida oqsoqol mansabiga tayinlangan.

Bahrombek Davlatshoyev otasi surgunga uchragach, onasining xatti-harakati bilan ibtidoiy rus maktabida o'qigan. O'qishni bitirgach, turli kishilarning qo'lida mirzolik, tarjimonlik vazifalarida ishlagan. Oilada bosh farzand bo'lgani uchun ro'zg'orni tebratish uning zimmasiga tushgan. Shu asnoda mehnatkashligi, ilmga chanqoqligi tufayli rus o'rta maktablaridan biriga tezkor imtihon topshirib, o'rta ma'lumotli degan shahodatnoma olgan. Shoir Ne'matullo Muhtaramning so'zi va keltirgan misoliga ko'ra, Bahrombek forschan yaxshi bilgan va fors tilida she'rlar yozgan. Astronomiyaga qiziqqan, er va yulduzlar harakatini o'rgangan. Amir Abdulahadxonga rus tilidan va forscha tarjimonlik qilgan.

Bahrombek Davlatshoyev 1906-yildan boshlab ma'rifatparvarlik harakatiga qo'shiladi. "Vaqt" gazetasini mahalliy aholi orasida tarqatadi. O'z asarlarini "Taraqqiy", Tataristonning "Sho'ro" va "Vaqt" kabi nashrlarida e'lon qiladi. Uning madrasa va maktabda o'qitish masalasiga bag'ishlangan "Tush" maqolasi "Taraqqiy" gazetasining 1906 yil 20- va 23-iyul kunlari chop etiladi. Bahrombek Davlatshoyev o'z davri ijtimoiy-siyosiy voqealarining guvohi sifatida sodir bo'layotgan adolatsizlik va ma'rifatsizlikka sukut saqlay olmaydi. Shu bois o'z she'r va maqolalarida yurtdoshlarini ilm-u ma'rifatga, ittifoqlikka chaqiradi.

Tarjimonning ma'rifatga chorlovchi ana shunday asarlaridan biri "Milliy ash'ori Tarjimon" majmuasiga kiritilgan "Tezlik ila ilmu funun tahsilina cholishmak hayotimizi ta'min etmak va dinimizi istiqboli uchun buyuk xizmatdur" nasriy izohi bilan boshlanadigan "Edamiz" radifli muxammasida muallif ma'rifatparvarlik adabiyotidan uzilmagan holda jadidchilik g'oyalarini ifodalaydi. Quyida ushbu muxammas joriy yozuvda ilm marta e'lon qilingani uchun matnni to'liq holda keltiramiz.

***Tezlik ila ilmu funun tahsilina cholishmak hayotimizi ta'min etmak va
dinimizi istiqboli uchun buyuk xizmatdur***

Bu kun jahonda agar ilma e'tibor edamiz?

Hayot ta'min edub o'zni baxtiyor edamiz?

Agar bu jahl ila nodonlig'a qaror edamiz?

Keyin qolib hamma millatdin o'zni xor edamiz?

Bul ikki yo'l bizadur honasin ixtiyor edamiz?

Qorong'ulik ichina qoldi millati islom

Aduvlari qilur har zamon boshina qiyom

Kesur nufuzini ko'b ajnabiy qilichi mudom

Yetubmu millata vaqti inqiroz o'lurg'a tamom?

Qachon biz ilma o'z otimizni var edamiz?

*Hujum aylabon ag'yor qildi g'oratlar
Yiqildi asl musulmon quran imoratlar
Uzildi Hindi Xitoyg'a yuran tijoratlar
Zamon zamon ko'ramiz g'ayrdin haqoratlar
Qachon huquq olib olingla iftixor edamiz?*


*Jaholat ila biz o'z na'fimizni bilmazmiz
Safohat ila yurub xayr ishni qilmazmiz
Nechun bu turfa balolarni ko'zg'a ilmazmiz?
Bu tarz ila yursak mahv o'lub tirilmazmiz
Na vaqt millati g'aflatdin hushyor edamiz?*

*Ulum istamakni farz edub shariatimiz
Nechun dushurdi ko'zdin bu amri millatimiz
Fasoda sarf o'luyur na sababdur himmatimiz
Bizida bor edi avval zamona g'ayratimiz
Bu kun na bo'ldi geru turmog'i shior edamiz?*

*Na shaharlarda cho'x atfolimizg'a maktab vor
Faqir holina bizlarda na nuruvvat vor
Biz na ilm maishat na fan na sarvat vor
Jahon bozorina bizda na qadr qimmat vor
Bu yo'q hunarlari biz honasin oshkor edamiz?*

*Taraqqiyg'a erushur millat ilm g'ayratdin
Tudunidin qutulur barcha kasbi sarvatdin
Hayot ta'min o'lur itthodi ulfatidin
Saodat hosil o'lur din yo'lina xidmatdin
Bu dam turub isha boshlang intizor edamiz?*

*Zalil xor biz ilmda cho'x nodonliqdin
Qutulmoduq bu buzuq xalq ila yomonliqdin
Ko'ngulda zarra asar bormu musulmonliqdin?
Haq aytmoq manga maqsad bu tarjimonliqdan?
Nechun bu ayblari bilmakidin or edamiz?*



Tarjimonning ko‘plab nazmlari kabi mazkur muxammasi ham millatni ilm va fan tahsili yo‘liga chorlash, o‘zlikni anglatuvchi va diniy hamda milliy qadriyatlarni himoya qilish maqsadida yozilgan. Muxammasning “*Tezlik ila ilmu funun tahsilina cholishmak hayotimizi ta‘min etmak va dinimizi istiqboli uchun buyuk xizmatdur*” deb boshlanuvchi nasriy sharhida muallif ilm va fan tahsiliga shoshilish zarurligini ta’kidlaydi.

Tarjimon birinchi baytda ilm olishni hayotning ta‘minoti va dini himoya qilishning eng muhim vositasi sifatida ko‘rsatadi. Bu yondashuv milliy uyg‘onish harakatida katta ahamiyatga ega bo‘lgan, chunki ilm nafaqat moddiy farovonlik, balki diniy va ma‘naviy qadriyatlarni saqlab qolish vositasi sifatida ham ko‘rilgan.

Bu kun jahonda agar ilmu e‘tibor edamiz,

Hayot ta‘min edub o‘zni baxtiyor edamiz

Muallif ikkinchi baytda millatni jaholatga qarshi kurashishga, ilm orqali o‘zini himoya qilishga chaqiradi. Nodonlikning oqibatlarini millatning umumiy inqiroziga olib kelishi mumkinligini jon kuydirib ta’kidlaydi.

Agar bu johil ila nodonlig‘a qaror edamiz,

Keyin qolib hamma millatdin o‘zni xor edamiz.

Muxammasda diniy qadriyatlarni himoya qilish uchun ham ilm zarurligi, ilm olish shariatda ham farz qilinganligini eslatib, musulmon millatining bu farzni ado etmayotganini tanqid qiladi:

Ilm istamakni farz edub shariatimiz,

Nechun dushurdi ko‘zdin bu umri millatimiz?

Bu misralar millatning ma‘naviy inqirozi va diniy e‘tiqodlarini yo‘qotish xavfi haqida ogohlantiradi. Ilmni tark etish faqat moddiy emas, balki ma‘naviy halokatga ham olib keladi, deya uqtiriladi.

Tarjimonning har bir she‘rida, yozgan satrlarida ilm va fan yo‘lidagi harakatni millatning yuksalishi va saodati uchun zarur shart deb biladi. Uning fikricha, ilm millatning nafaqat iqtisodiy jihatdan rivojlanishi, balki dinda mustahkam turishiga ham sabab bo‘ladi. Millatning iqtisodiy va ma‘naviy farovonligi esa ilm va mehnatga bog‘liq.

Taraqqiyg‘a erushur millat ilm g‘ayratdin,

Tudunidin qutulur barcha kasbi sarvatdin

Muxammas soʻngida Tarjimon millatni uygʻonishga chaqiradi. U xalqni jaholat va nodonlikdan chiqarish uchun ilm yoʻliga kirishga undaydi, haqiqatni etkazish va aytish Tarjimonning maqsadi, lekin koʻp odamlar haqiqatni tan olishdan qoʻrqishadi yoki bundan or qilishadi.

Haq aytmoq manga maqsad bu tarjimonliqdin

Nechun bu ayblari bilmakidin or edamiz

Bahrombek Davlatshoyevning ijodida millatning ilmsizlik va johillikdan qutulishi, taʼlim va maʼrifatning ahamiyati hamda islom ummatining uygʻonishi uchun ilm-fan va taraqqiyotga erishish zarurligi mavzulari yoritilgan. U majmua va maqolalarida milliy oʻzlik, diniy va dunyoviy bilimlarni uygʻunlashtirish, milliy qadriyatlarni saqlagan holda zamonaviy dunyoda taraqqiyotga erishish gʻoyalarini ilgari surgan. Shuningdek, jamiyatni johillikdan qutqarish va milliy birdamlik orqali millatni yuksaltirish zarurligini taʼkidlagan.

Adabiyotlar:

1. Milliy ashʻori Tarjimon. Majmua / Noshir va muharrir: Bahrombek Davlatshoyev. — Toshkent: Vaqf tipografiyasi, 1910. — 40 b. Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi. Nodir qoʻlyozma va toshbosma va bosma asarlar. Inv. №766/IV
2. Avloniy. A Tanlangan asarlar. Ikki jildlik. 1-jild. — T.: Maʼnaviyat, 1998. — 5 b.
3. Afoqova N. Oʻzbek jadid adabiyotida sheʼriy shakllar taraqqiyoti tamoyillari: Filolog.fanlari doktori.... Diss. — B., — 2006. — 62 B.
4. Nazarova Sh. “XX asr boshlari oʻzbek sheʼriyatining yangilanish tamoyillari”. Monografiya. – Toshkent, “Akademnashr”, 2022
5. Sirojiddin Ahmad. “Tanishing: Bahrombek – tarjimon” maqolasi. Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati” gazetasi, 2022-yil 3-iyun, 19 (4678)-son.

ALISHER NAVOIY HIKMATLARINING NASHRLARI HAQIDA

Eʼtiborxon GʻOYIBBOYEVA

Namangan davlat pedagogika instituti erkin tadqiqotchisi

Annotatsiya. Jahon ilm-fanida yorqin iz qoldirgan buyuk ijodkorlarning asarlaridan olingan hikmatli soʻzlar oʻquvchilarda har doim qiziqish uygʻotib kelgan. Ayniqsa, buyuk sharq mutafakkirlarining hikmatga aylangan soʻzlari turli tillarga tarjima qilinib, qayta-qayta nashr qilingan. Ana shunday daholardan biri Hazrat Alisher Navoiydir. Mazkur maqolada Navoiy hikmatli soʻzlarini saralash, oʻrganish, turli tillarga tarjima qilib nashr etish boʻyicha amalga oshirilgan ishlar xususida soʻz yuritilgan. Hikmatlarning istiqlolgacha va undan keyingi davrdagi nashrlari haqida maʼlumot berilgan.

Kalit soʻzlar: Alisher Navoiy, adabiy meros, hikmatlar, nashr, turli tillarga tarjima qilish, kitob.

Abstract. Abstract: Aphorisms(hikmat) from the works of great creators who left a bright mark in world science have always aroused the interest of students. In particular, the wise words of great Eastern thinkers have been translated into different languages and published again and again. One of such genius poets is Hazrat Alisher Navoi. This article talks about the work carried out to sort, study, translate and publish Navoi's aphorisms into different languages. Information about the publications of Hikmat before and after independence is given.

Key words: Alisher Navoi, literary heritage, aphorisms- hikmat, publication, translation into different languages, book.

“Barcha zamonlarning buyugi” bo’lgan Alisher Navoiy badiiy va ilmiy asarlarida juda ko’plab hikmatli so’zlar, bashariyatning hayot va axloqiga oid purma’no fikrlarini bayon qilgan. Uning asarlarida inson va jamiyat uchun muhim hayotiy masalalar yoritilgan bo’lib, ular aql-zakovat, axloq va ma’naviyatni yuksaltirishga xizmat qiladi. Navoiyning turli asarlaridan saralab olingan hikmatli so’zlari xalq orasida shuhrat qozonib, doimo odamlarni yaxshilik, adolat, haqiqat va ma’rifatga chaqirib kelgan. Navoiy qoldirgan hikmatlar axloqiy tarbiya, keng dunyoqarash, shaxsiy kamolot va hayot haqidagi chuqur mulohazalar bilan sug’orilgani uchun o’zining zamonasidan to hozirga qadar dolzarbligini yo’qotmay kelmoqda. “Oz-oz o’rganib dono bo’lur, qatra-qatra yig’ilib daryo bo’lur”, “Tilga ixtiyorsiz – elga e’tiborsiz”, “Bilmaganni so’rab o’rgangan olim, orlanib so’ramagan o’ziga zolim” kabi hikmatlar xalqimiz ongiga shu darajada singib ketgan-ki, ayrimlar bularni Navoiy hikmatidan ko’ra xalq ichida ming yillardan beri “yashab kelayotgan” maqol deb hisoblaydi. Ya’ni xalq Navoiy hikmatlarini alloqachon o’ziniki, o’lmas madaniyatining ajralmas qismi deya qabul qilgan. Shu sababli Navoiyning nazmiy va nasriy asarlaridan saralab olingan hikmatlar turli yillarda va hatto turli tillarda qayta-qayta nashr qilingan. Bizningcha, bu hikmatlarni bir necha mezonlarga ko’ra turlarga ajratish mumkin:

1- mavzuiy jihatdan(masalan: odob-axloq haqida, ota-onani e’zozlash haqida, rostgo’y va to’g’riso’zlik haqida, tilga e’tibor haqida, bola tarbiyasi haqidagi hikmatlar va h.k.);

2- o’quvchilarning yoshiga nisbatan (masalan bolalar uchun hikmatlar, kattalar uchun hikmatlar);

3- turli fan tarmoqlari va sohalarga oid hikmatlar (Navoiyning pedagogikaga oid hikmatlari, tibbiyot va sog’liqni saqlashga oid hikmatlar, falsafiy hikmatlar, siyosat va davlat boshqaruviga oid hikmatlar va h.k.);

4- adabiy shakliga ko’ra (nazmiy yoki nasriy usulda yozilgan hikmatlar). Ta’kidlash kerakki, bu tasnifimiz shartli, sababi Navoiy hikmatlari hali hanuz o’rganilish jarayonida va bu yo’nalishdagi tadqiqotlar davomida yana yangi mezonlar asosidagi turlar ajratilishi mumkin.

Shunday qilib, Navoiy hikmatlari yoshi, kasbi, hayotdagi maqsad va matlabidan qat’iy nazar barcha hikmatsevarlar auditoriyasi uchun mos va qadrli bo’lib kelmoqda. Zamon va makon tanlamas bu hikmatlarga bo’lgan katta

ma'naviy ehtiyoj sababli ular bir necha marta nashr qilindi. Ular yuzasidan kichik tadqiqotlar olib borildi, hikmatlar turli tillarga o'girildi va bu jarayonlar hozir ham davom etmoqda.

Navoiy hikmatlari nashrlarini davriy jihatdan ikkiga ajratgan ma'qul, deb o'ylaymiz. Bular: Navoiy hikmatlarining sovet davridagi nashrlari va Navoiy hikmatlarining istiqlol yillaridagi nashrlari. Bunday tasniflashning o'ziga xos siyosiy, mafkuraviy sabablari borligi hech kimga sir emas, albatta. Ammo shuni alohida ta'kidlash kerakki, Navoiy asarlariga, xususan hikmatli so'zlariga munosabat har qaysi davrda dolzarbligini yo'qotmagan. Chunki, bir tomondan Navoiy ijodini kengroq ommalashtirish, xalqqa yanada yaqinlashtirish, ikkinchi tomondan aynan shu xalqning ma'naviy ehtiyojini qondirish uchun shaklan qisqa, lo'nda bo'lgan hikmat janri ayni muddao edi. Izlanishlarimiz natijasida bugunga qadar Navoiy hikmatlari 13 marta nashr qilinganini aniqladik. Demak, hikmatlarning istiqlolgacha bo'lgan nashrlari quyidagilar:

1. Алишер Навоий. Афоризмлар⁵². SSSR Fanlar akademiyasi – O'zbekiston filiali Til, Adabiyot va Tarix Institutining bir guruh zahmatkash olimlari tomonidan tayyorlangan mazkur to'planning ayni urush avjiga chiqqan palla(1941 y.)da nashr etilishida katta ma'no bor edi. "Olam ahli bilingizkim, ish emas dushmanlig', Yor o'lung bir-biringizgaki, erur yorlig' ish" – deya butun bashariyatni do'stlik, hamjihatlik bilan tinch va osuda yashashga da'vat qilgan buyuk gumanist shoir ijodi urush yillarida o'ziga xos ma'naviy madad, ruhiy dastak vazifasini o'tagan bo'lishi shubhasiz.

2. Алишер Навоий. Ҳикматли сўзлар⁵³. Ulug' shoir tavalludining 525 yilligi munosabati bilan hikmatli so'zlar to'qqiz (o'zbek, arab, rus, fors, ingliz, nemis, fransuz, ispan, yapon) tilda nashr qilingan. Professor Hamid Sulaymon rahbarligida tuzilgan kitobdan 100 ta hikmatli so'z joy olgan. Hikmatli so'zlar alifbo tartibida emas, turli mavzularda berilgan.

3. Алишер Навоий. Ҳикматли сўзлар⁵⁴. Mazkur nashrga tuzuvchilar tomonidan yozilgan so'zboshida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan: "Navoiyning hikmatli so'zlari Sovet O'zbekistonida turli adib va olimlar g'ayratu himmati tufayli "Aforizmlar", "Hikmatlar" va "Hikmatli so'zlar" degan nomlar bilan bosilib, o'quvchilarga taqdim etildi. Mazkur kitobchalarni 1941, 1947, 1961 va 1968 yillarda Hodi Zarif, Solih Mutallibov va Hamid Sulaymon nashr etdilar. Hamid Sulaymon nashrida Navoiyning hikmatli so'zlari originalda, ruscha, nemischa, inglizcha, fransuzcha, forsha va yaponcha tarjimalari bilan, S. Mutallibov nashri hozirgi tildagi bayoni bilan berildi. Navoiyning aforizmlari 1970 va 1973 yillarda Polsha Demokratik Respublikasida ham nashr etildi. Qo'lingizdagi kitobcha mazkur nashrlarning mazmunan va shaklan bir oz

⁵²Алишер Навоий АФОРИЗМЛАР. – Тошкент: ЎзФАН нашриёти, 1941. – Б.98. Нашрга тайёрловчи: С. МУТАЛЛИБОВ. Тўпловчилар коллективи: А. Азизов, А. Муталлибов, З.Холматов, М. Исҳоқов, С. Иброҳимов, С. Мирзаев ва А.Муталлибов.

⁵³ Ўзбекистон СССР Фанлар Академияси. Алишер Навоий. Ҳикматли сўзлар. – Тошкент – 1968. Б.151.

⁵⁴ Алишер Навоий. Ҳикматли сўзлар.- Тошкент,1985. Тузувчилар: Рустамов А., Раҳматиллаева М.

o'zgartirilgan variantidir. Bunda hikmatli so'zlarni mavzuiga ko'ra guruhlashtirib berdik va har guruhga navoiyona iborayu uslub bilan o'zimizdan sarlavha qo'yib chiqdik⁵⁵”.

4. Алишер Навоий ҳикматларидан⁵⁶. Ushbu nashrdan 101 ta hikmatli so'zlar joy olgan. Hikmatli so'zlar mavzulashtirilgan holda berilgan.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, Navoiy hikmatlari istiqlolgacha bo'lgan davrda olti marta (1941, 1947, 1961, 1968, 1985 va 1988 yillarda) nashr qilingan. Demak, Navoiy dahosiga murojaat hamma davr uchun ham dolzarb bo'lgan, chunki buyuk shoir ijodi umuminsoniy g'oyalar bilan sug'orilgan, butun insoniyatni kamolot sari yetaklashda dasturulamaldir.

Yurtimiz mustaqillikka erishganidan so'ng barcha sohalar qatori boy ma'naviy, adabiy merosimizni chuqur o'rganish va haqqoniy talqin qilish borasida ham muhim qadamlar qo'yildi. Jumladan Hazrat Navoiy ijodini o'rganish, targ'ib qilish ishlari yangi pog'onaga ko'tarildi. Bulardan birgina shoir ijodidagi tassavvufiy g'oyalar haqiqati oshkora o'rganilayotganini keltirish o'rinli. Navoiy hikmatlarini o'rganish, nashr etish borasida ham bir qator natijalarga erishildi. Istiqlol yillarida shoir hikmatlari yetti marta nashr qilindi. Shuningdek, hikmatlarni turli xorijiy tillarga tarjima qilish ishlari ham ancha jonlanganini ko'rish mumkin. Solih Mutallibov, Ergash Ochilov, Abdumurod Tilavov kabi zahmatkash olimlarimiz shoir hikmatlarini saralash, nashr etish yo'lida jonbozlik ko'rsatmoqdalar. Shunday qilib, quyidagilar Navoiy hikmatlarining mustaqillik yillaridagi nashrlaridir:

1. Алишер Навоий. Уммондан дурлар⁵⁷. Mazkur to'plamda 21 ta g'azal, 98 ta hikmatli so'zlar, 6 ta ruboiy mujassam. Hikmatli so'zlar 98 tani tashkil qilib, 32-betdan boshlanadi, turli mavzularga ajratilgan hikmatlar o'zbek, nemis, ingliz tillarida berilgan.

2. Тафаккур дурдоналари⁵⁸. То'плам 224 - betdan iborat bo'lib, unda hikmatlar alfavit tartibida joylashtirilgan va mavzular ko'lami rang – barangdir.

3. Тафаккур дурдоналари⁵⁹. Mazkur kitob bundan avvalgi to'plamning to'ldirib, qayta ishlangan nashridir.

⁵⁵ Алишер Навоий. Ҳикматли сўзлар.- Тошкент,1985. Тузувчилар: Рустамов А., Раҳматиллаева М. Б.5-6.

⁵⁶ Алишер Навоий ҳикматларидан. – Тошкент: Ғафур Ғулум номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. –Б. 109. Чет эллардаги ватандошлар билан маданий алоқа боғлаш Ўзбекистон “ВАТАН” жамияти. Ўзбек, arab, turk ва инглиз тилларида. Мухаррир Абдуллажонов Ҳ.

⁵⁷ Alisher Navoiy. Уммондан дурлар. –Тошкент: “Шарқ” нашриёти – матбаа концерни бош тахририяси, 2000. Ғазаллар, ҳикматлар ва рубойилардан намуналар. (Ўзбек, немис ва инглиз тилларида) Тузувчи ва таржимон: Йўлдош Парда.

⁵⁸ Тафаккур дурдоналари. Алишер Навоий. Ҳикматлар. – Тошкент: “Шарқ” нашриёт – матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяси, 2006. – Б. 224. Нашрга тайёрловчилар: Солиҳ Муталлибов, Эргаш Очилов.

⁵⁹ Тафаккур дурдоналари. Алишер Навоий. Ҳикматлар. – Тошкент: “Шарқ” нашриёт – матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяси, 2010. – Б. 223. Нашрга тайёрловчилар: Солиҳ Муталлибов, Эргаш Очилов.

4. Алишер Навоий. Ҳикматли сўзлар⁶⁰. Kitobda 100 ta hikmat bo'lib, mavzular ko'lami rang – barang, lekin alifbo tartibida emas. Ushbu kitob rus, o'zbek, ingliz, nemis, fransuz tillarida berilgan.

5. Алишер Навоий. Ҳикматлар⁶¹. Kitobdagi hikmatlar turli asarlardan olingan, alifbo tartibida emas. Ayrim so'zlar uchun lug'at berilgan. “Devoni Foniyy” (375-bet) asaridan olingan forsiy tildagi hikmatlarni Ergash Ochilov tarjima qilgan. Hikmatlar tushunarli bo'lishi uchun tabdili ham berilgan.

6. Алишер Навоий. Ибратли ҳикоятлар ва хислатли ҳикматлар⁶². 520 betli mazkur nashrni Navoiy hayoti va ijodi bo'yicha kichik ensiklopediya deyish mumkin. Undan Navoiy dahosining eng buyuk, eng daqiq xislatlari tasvirlangan hiyokatlar va hikmatlar joy olgan.

7. Навоий ҳикматлари⁶³. Navoiy tavalludining 580 yilligi munosabati bilan tayyorlangan ushbu kitobdagi hikmatlar shoirning “Mahbub ul-qulub” asaridan tanlab olingan bo'lib, arab, fors, turk, uyg'ur, dariy, pushtu, hind, urdu, malay, indonez, vetnam, xitoy, koreys, yapon, rus, ingliz, nemis, fransuz kabi 18 ta Sharq va G'arb tillariga tarjima qilingan. Mazkur to'plam hozircha Navoiy hikmatlarining so'nggi nashri hisoblanadi.

Shuningdek, istiqlol davri navoiyshunosligida erishilgan eng ahamiyatli yutuqlardan bu shoir ijodidan to'liq asarlar to'plamlarining kirill va lotin alifbolarida bir necha marotaba nashr qilinganidir.

Xulosa qilib aytganda, turkiy millatlarning oydini bo'lgan Hazrat Navoiy asarlarini, xususan hikmatli so'zlarini o'rganish, nashr qilish, tabdillari va ma'no tarjimalarini amalga oshirish millat ma'naviyatini yuksaltirishda har doim dolzarbligicha qoladi. Ayniqsa, yosh avlod tarbiyasida Navoiy hikmatlarining o'rni beqiyosdir. Shu sababli hikmatlar targ'ibotini aynan erta yoshlardan, ya'ni, boshlang'ich sinflardan boshlash maqsadga muvofiq va bunda turli zamonaviy, interfaol usullardan foydalanish ijobiy samaralarni beradi.

Adabiyotlar:

1. Алишер Навоий АФОРИЗМЛАР. – Тошкент: ЎзФАН, 1941. – Б.98.
2. Алишер Навоий. Ҳикматли сўзлар. – Тошкент – 1968. Б.151.
3. Алишер Навоий. Ҳикматли сўзлар.- Тошкент,1985.
4. Алишер Навоий ҳикматларидан. – Тошкент: Гафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. –Б. 109.
5. Alisher Navoiy. Уммондан дурлар. –Тошкент: “Шарқ” нашриёти – матбаа концерни бош таҳририяти, 2000.

⁶⁰ Алишер Навоий. Ҳикматли сўзлар. – Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2011. – Б.109. Рус, ўзбек, инглиз, немис, француз тилларида.

⁶¹ Алишер Навоий. Ҳикматлар. – Тошкент: “O'zbekiston”, 2011.–Б.408. Тўпловчи,сўз боши ва изоҳлар муаллифи: филология фанлари номзоди Эргаш ОЧИЛОВ.

⁶² Алишер Навоий. Ибратли ҳикоятлар ва хислатли ҳикматлар. –Тошкент, “Sano-standart”, 2016. – Б.520. Нашрга тайёрловчилар: Абдумурод Тилавов, Иброҳимжон Сайдуллаев.

⁶³ Навоий ҳикматлари. –Тошкент: Тошкент давлат шарқшунослик университети нашриёти, 2021. –Б.93.

6. Тафаккур дурдоналари. Алишер Навоий. Ҳикматлар. – Тошкент: “Шарқ” нашриёт – матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2006. – Б. 224.
7. Алишер Навоий. Ҳикматли сўзлар. – Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2011. – Б.109.
8. Алишер Навоий. Ҳикматлар. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2011.– Б.408.
9. Алишер Навоий. Ибратли ҳикоятлар ва хислатли ҳикматлар. – Тошкент, “Sano-standart”, 2016. – Б.520.
10. Навоий ҳикматлари. –Тошкент: Тошкент давлат шарқшунослик университети нашриёти, 2021. –Б.93.

MUMTOZ ADABIYOTGA OID QO‘LYOZMA MANBALARNING TURLARI VA TASNIFLARI

“DEVONI ASAD”NING MANBALARI VA MATNIY TADQIQI

Sohiba UMAROVA

*Toshkent davla to‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sayyid Asad to‘ra Otajon to‘ra o‘g‘li hayoti, hamda “Devoni Asad”ning qo‘lyozma va toshbosma manbalari haqida so‘z yuritiladi, Sayyid Asad to‘ra ijodi bilan bog‘liq asarlardagi ma‘lumotlar tahlilga tortiladi, Sayyid Asad to‘ra she‘rlaridan namunalar keltiriladi. XIX asrning oxiri – XX asrning boshlari Xorazm adabiy muhitida faoliyat olib borgan, devon tartib bergan ushbu shahzoda shoir ijodi hanuzgacha to‘liq o‘rganilmagan.

Kalitso‘zlar: Xorazm, adabiy muhit, Sayyid Asad to‘ra, devon, “Devoni Asad”, manba, qo‘lyozma, toshbosma, nusxa, she‘rlar.

Abstract. This article talks about the poet Sayyid Asad Torason Otajan Tora and manuscript “Devoni Asad”. An integral part of Uzbek literature, the late 19th – early 20th centuries were active in the Khorezm literary environment, the work of this poet, which devon gave order, is still not fully studied.

Key words: Khwarazm, literary, Sayyid Asad Tora, devan, “Devoni Asad”, source, manuscript, stonework, copy, poems.

Xorazm adabiy muhiti tazkiranavislik, tarjimachilik kabi ishlari hamda lirik asarlari bilan alohida ajralib turadi. Xivada Muhammad Rahimxon O‘zbek adabiyoti tarixida XIX asroxiri XX asr boshlari II – Feruz zamonida ko‘plab shoirlar ijod etishgan bo‘lib, ularning deyarli barcha lirik she‘rlarini jamlab, devon tartib berishgan. Muhammad Rahimxon II–Feruz ijod kishilarini saroyga jalb etish bilan birga o‘z yaqinlari, ya‘ni og‘a-inlari va ularning farzandlarini ham san‘atga da‘vat etgan, ularni she‘rlar yozishga undagan. Xususan, Feruzning inisi Otajon to‘raning o‘g‘illari Sayyid G‘oziy to‘ra hamda Sayyid Asad to‘ralar tomonidan maxsus she‘riy devonlar tuzilgani ma‘lum. Otajon to‘raning o‘zi ham adabiyotga qiziqqan, she‘rlar yozgan.

Sayyid Asad to‘ra Xiva shahri tashqari qal‘asida podshohlikning O‘r nomli hovlisida tug‘ulgan. Inisi Sayyid G‘ozi to‘ra kabi Sayyid Asad to‘raga ham xon katta e‘tibor qaratgan, uning ta‘lim-tarbiya olishi, ijod bilan shug‘ullanishi uchun sharoit yaratib bergan.

Tabibiyning “Majmuai si shuaroi payravi Feruzshohiy” tazkirasining O‘zR Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan inv.1152 raqamli nusxasida Asad g‘azallari ham berilgan. Tabibiy har bir shoirning g‘azalini keltirishdan oldin masnaviylar berarekan, iloji boricha

qisqa, aniq va xolis fikrlarini bildiradi. Jumladan, Tabibiy G‘oziy va Asadlar haqida ta’rifini shunday keltiradi:

*Biridur Sayyid G‘oziy donishasar,
Ki ko‘ngli erur koni fazlu hunar.
Birisi dog‘I keldi Sayyid Asad,
Jahonda erur olim neku bad...*

Bobojon Tarroh – Xodim Sayyid Asad to‘ra haqida shunday yozadi: “Sayyid Asad to‘ra eski maktabni to‘liq bitkargan. Lokin madrasa ta’limotini o‘zini bobosi Xo‘ja qozidan o‘qug‘on bo‘lsa ham to‘luq o‘qumag‘on. Forsiydan ham o‘rtacha, shoirliqi ham o‘rtachabo‘lg‘on”⁶⁴.

Laffasiyning “Xiva shoir va adabiyotchilarining tarjimai hollari” estalik asarida esa Asad to‘ra haqida kengroq ma’limotlar beriladi: “Asad – Sayyid Asad to‘ra mushta‘mal bo‘lib, Muhammad Rahimxonning to‘g‘ishg‘on birodari Sayyid Ahmad to‘raning o‘g‘lidur. Asad – ko‘sa, qoqchakka, olaqaroq chechak tobli, uzun qomatli, suxandon, shirin so‘zli kishi bo‘lib, otasi Sayyid Ahmad to‘ra Asadga marhamat nazari bilan qaramay, kam iltifot qilg‘on sababli, Asad amakisi Muhammadrahimxong‘a o‘z ahvolotlaridin ishkva qilib, “Asad” taxallusi bilan ash‘orlar yozib, arz etadur. Xong‘a uning yozg‘on ash‘orlari maq‘uli tab‘b o‘lg‘onlig‘idin Asadga she‘rlar mashq qilishni farmon qiladur. Asad dog‘I amakisi Feruzg‘a payravona har xils he‘rlar yozib, turadur. “Devoni Asad” ismida bir devonham yozadur. Shuning bilan Asad mahoratlig‘ shoirlardan bo‘lib, juda ham tez fahm va xushxotir bo‘ladur. Asad Feruzdan keyin Isfandiyorxon zamonida xonning amaldor va fuzalolardin shikoyatlar qilib, necha turli hajviyotlar yozib, oxiri 1916 yilda o‘lib, dunyo muammolaridin xalos bo‘ladur”⁶⁵.

Keltirilgan manbalardan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, Sayyid Asad to‘ra ham boshqa shahzoda shoirlar qatori xonning talabi va tashabbusi bilan she‘rlar yozgan va “Devoni Asad”ga tartib bergan. Biz ushbu shazoda hayoti, faoliyatiga oid manbalarni o‘rganish davomida shu narsani bildiki, Sayyid Asad to‘ra o‘sha davr ijtimoiy-madaniy hayotida faol, ma’rifatparvar insonlar qatorida bo‘lishga intilgan, an‘anaviy mumtoz she‘riyatni sevgan va Navoiy, Ogahiy, Feruz habi shoirlarga ergashib she‘rlar yozgan. Boshqa shahzoda shoirlardan ajralgan holda Sayyid Asad to‘raning dastxat devoni mavjudligi haqida Feruz fehrisida ma’lumot beriladi. Sayyid Asadt o‘raning she‘rlari jamlanib, “Devoni Asad” holida ko‘chirilgan va toshbosma nusxalari bosilgan.

O‘zR Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Qo‘lyozmalar fondida ديوان اسد (“Devoni Asad”)ning 1121 raqamli qo‘lyozmasi saqlanadi. Biz ushbu adabiy manba bilan tanishganimizda, qo‘lyozma o‘zbekcha (devon matni ichida forsha g‘azallar ham uchraydi), to‘q binafsha rangdagi karton qog‘oz bilan muqovalangan, muqovasi mustahkam bo‘lishi uchun to‘q ko‘k rangdagi mato bilan

⁶⁴ Bobojon Tarroh - Ходим. Хоразм шоир ва навозандалари. – Т.: “Tafakkur qanoti”, 2011. – В. 59.

⁶⁵Раҳим Д., Матрасул Ш., Жумахўжа Н. Феруз. Шоҳ ва шоир қисмати. Иккинчи китоб. – Т.: “ЎЗБЕКИСТОН”, 1995. – В. 27.

o'rtasidan elimlangan, muqovaning chetki qismlari bir oz uringan, rus fabrika qog'ozida yozilgan, varaqlar soni 72, sahifalar arab sonida 139 gacha raqamlangan, kitobning birinchi va ikkinchi varog'i bo'sh qolgan, o'lchovi 29×18,5, matn ustunlar soni ikkita, satriklar soni 16, 18, 19 tartibida yozilgan, matn hech qanday ramkaga olinmagan, asosiy matndan tashqari hoshiyada ham she'rlar berilgan, yozuvi nastaliq, sarlavhalar qizil, asosiy matn qora siyohda yozilgan, poygir qo'yilgan, kotib tomonidan muhr, bezaklar qo'yilmaganligi aniqlandi.

Qo'lyozma muqovasida asar nomi "ديوان اسد" deb ko'rsatilgan. 1-sahifada basmala "Bismillohi rohmoni rahim". Keyin ta'lifi kitob shunday beriladi:

"ديوان سيّد اسد تورہ ابن آتہ جان تورہ فردوس آشيان سيّد محمد خان مرحومي"

Kolofoni: "زل سبحان خليفۃ الرحمن يعنى ابو مظفر بن منصور ابول الغازى سيّد محمد رحيم بهادرخان ثانی دام دولده نینگ فرمان عالی لاری بیلان اوشبو دیوان اسدنی بیر مینگ و اوچ یوز داغی بیگیرمه آلتیلانجی بیل باباجان مخدوم دیوان طراه به متخلص خادم ابن عبد العزیز مخدوم یازیب اتمام سرحدیغه یتکوردی"

"Devoni Asad"dagi she'rlar soni va janrlari quyidagicha ekanligi ma'lum bo'ladi: 292 ta g'azal (asosiy matnda), 87 ta g'azal (hoshiyada), 14 ta muxammas, 6 ta musaddas, 2 ta qasida, 1 ta ruboiy (asosiy matnda), 2ta ruboiy (hoshiyada).

Sayyid Asad to'ra boshqa shahzoda shoirlar kabi asosan an'anaviy mavzuda she'rlar yozgan. Jumladan, g'azallaridan:

*Majlis tuzub naylay bu kun dildori jonon bo'lmasa,
Ahhoblar tokim hamul jismim aro jon bo'lmasa.
Holim parishon o'lg'usi man zorni har lahza to,
Ko'nglumni jam'etmakka ul zulfi parishon bo'lmasa.
Vah naylayin ey do'stlar, ko'nglumda toqat yo'qdurur,
Bazmim aro har kecha ul yori suxandon bo'lmasa.
Ko'b va'dalar aylab manga ko'nglumni shod etmish edi,
Kelgusi erdi bu kecha gar ahdi yolg'on o'lmasa.
Ko'zga barobar ro'zu shab bo'lmishdur ul hijronaro,
Hech imtiyozi yo'qtur ul sham'i shabiston o'lmasa.
Rahm aylagil bu holima hajring aro dilxastaman,
Lutfing agar holim zabun ul shohi xo'bon o'lmasa.
Desa Asad arzin agar solg'il quloq ey nozanin,
Mundoq nazor o'lmasedi javring farovon o'lmasa.*

Asad devonidagi g'azallar ko'proq ramal, hajaz, rajaz bahrlarida yozilgani ma'lum bo'ladi. "Devoni Asad" matnida g'azaldan keyin shoirning muxammaslari nisbatan katta qismni egallaydi.

"Devoni Asad"ning toshbosma manbalari bir nechtasi O'zbekiston Respublikasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Qo'lyozmalar fondida saqlanadi va ularning deyarli matni bir xil tarzda bosilgan. "Devoni Asad" toshbosma nusxalarida devon ushbu ruboiy bilan yakunlanadi:

*Shoho karam aylading chu markab qulluq,
Farzdur manga qilmoq har kunu shab qulluq,
Dargohing tuprog'in ko'zimga surtib,
Qilmoq manga meros, "an ab" qulluq.*

“Devoni Asad”dagi she’rlar Xorazm devonchiligiga xos bo’lgan devonlar majmualar, bayozlar, muxammasotlarda ham beriladi.

Xulosa qiladigan bo’lsak, Sayyid Asad to’ra XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xorazm adabiy muhitining Feruz, Munis, Ogahiy, Bayoniy, Avaz O’tar, Rojiiy, Komyob, Sultoniy, Sa’diy Xorazmiy kabi namoyandalari bilan hamnafas yashadi. Ulardan sharq mumtoz an’analarini o’rgandi va o’zi ham devon tartib berdi. O’zbek adabiyoti tarixida Sayyid Asad to’ra tomonidan yaratilgan she’rlar an’anaviy tasvir vositalarini davom ettirgan ijod mahsuli bo’ladi. Muhammad Rahim Bahodirxoni Soniy Feruz davri adabiy maktabida tartib berilgan devonlar manbalarining o’rganilishi Xiva adabiy muhiti darajasi va talabini tahlil etilishida aniqlik kiritadi, deb o’ylaymiz.

“HADOYIQ U-S-SEHR FI DAQOYIQ U-SH-SHE’R” ASARI QO’LYOZMALARI MATNINING QIYOSIY TAHLILI

Zuhra QODIROVA

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti kichik ilmiy xodimi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Rashididdin Vatvotning “Hadoyiq us-sehr fi daqoyiq ush-she’r” asari qo’lyozmalari matnining qiyosiy tahlili amalga oshirilgan. Asar badiiy san’atlarga bag’ishlangan bo’lib, ellik besh bobdan iborat. Risolada ellik beshta san’atga izoh berilib, har biriga arab va fors tillarida misollar keltirilgan.

Kalit so’zlar: ilmi bade’, badiiy san’atlar, qo’lyozma nusxalar, misollar, kitobat, qiyosiy tahlil, kotib.

Аннотатсиуа. В данной статье проводится сравнительный анализ текста рукописи произведения Рашидиддина Ватвота «Хадайик ус-сехр фи дакайк ус-шеер». Работа посвящена изобразительному искусству и состоит из пятидесяти пяти глав. В трактате описываются пятьдесят пять искусств и приводятся примеры каждого на арабском и персидском языках.

Ключевые слова: наука, изобразительное искусство, рукописи, примеры, библиографиуа, сравнительный анализ, секретар.

Abstract. In this article, a comparative analysis of the text of the manuscripts of Rashididdin Vatvot's work "Hadayiq us-sehr fi daqayiq us-she'er" is carried out. The work is devoted to fine arts and consists of fifty-five chapters. The treatise describes fifty-five arts and provides examples of each in Arabic and Persian.

Key words: science, fine arts, manuscripts, examples, bibliography, comparative analysis, secretary.

Rashididdin Vatvotning “Hadoyiq u-s-sehr fi daqoyiq u-sh-she’r” asari XII asrning eng ahamiyatga molik fors adabiyotshunosligi haqidagi fikrlari jamlangan asarlaridan biri edi. Ilmi bade’ning forsiyzabon an’analarini boshlanishini

Roduyoniy va Vatvotlarning asarlari boshlab berdi va bu ilm kelajakda yanada rivojlanib bordi. Keyingi asrlarda she'riyat haqidagi barcha ilm majmualarni o'zida mujassam etgan asarlar paydo bo'ldi.

“Hadoyiq u-s-sehr” asari qo'lyozmalari va toshbosmalari hozirgi kunda bir qancha dunyo fondlarida saqlanib kelinmoqda. Bu qo'lyozmalarning ba'zilari o'rganilib ilmiy-tanqidiy matnlari tuzilgan. Masalan Eronlik olim Abbos Iqbol Ashtiyoniy (1929) Parij Milliy kutubxonasida (inv. №1405) saqlanayotgan qo'lyozma nusxasini tanqidiy matnini amalga oshirgan⁶⁶. Ushbu nashrga tayanib rus olimasi N.Chaliso va forscha matn (faksimile)ni ruscha tarjimai bilan birga nashr ettirgan⁶⁷. Ushbu nashr asosida fors tilidan (ruscha tarjimini solishtirgan holda) H.Boltaboev ayrim boblarni tarjima qilgan⁶⁸.

Afsuski, “Hadoyiq u-s-sehr” asari qo'lyozmalari to'liq o'rganilmagan bo'lib, asarining to'liq ilmiy-tanqidiy matni yaratilmagan. Eronlik olim Abbos Iqbol Ashtiyoniy birgina Parij nusxasidan foydalanib, ushbu yodgorlikning tanqidiy-matnini amalga oshirgan. Bu sababdan “Hadoyiq u-s-sehr” asarining yangi topilgan qo'lyozma nusxalari ushbu asarni yangidan nashr qilish va asliyatga yanada yaqinroq bo'lgan matnini tuzish zaruriyatini tug'diradi.

Mazkur tadqiqotga quyidagi qo'lyozmalar jalb etilgan:

1. Sulaymoniya kutubxonasi Lala Ismail fondida saqlanayotgan №718/10 raqamli qo'lyozma. Bu qo'lyozmaning ko'chirilgan sanasi ma'lum bo'lmasa-da, tarkib jihatidan mukammaldir. Mazkur nusxa boshqa nusxalarga qaraganda matndagi xatolari kamroqligi bilan e'tiborlidir.

2. Biz ko'rib chiqqan nusxalar ichida eng qadimgisi. Mazkur nusxa haqida Abbos Iqbol Ashtiyoniy o'z ishida quyidagi ma'lumotlarni berib o'tadi: “Muallif “Hadoyiq u-s-sehr”ni nashr qilish uchun asos qilib olgan nusxa Parij Milliy kutubxonasiga tegishli nusxa bo'lib, bayozga o'xshagan kichik bir to'plam ichida № 1405 raqam bilan Supplement persan deb belgilangan. Ushbu nusxa 668 yil Sha'bon oyining 7 kuni taxminan muallif vafotidan 95 yil o'tib ko'chirilgan. Bu “Hadoyiq u-s-sehr” asarining eng qadimgi nusxasi. Asar to'plamning 28b betidan boshlanib, 72b betida tugagan”⁶⁹.

3. Turkiyaning Ko'prulu kutubxonasi, Fazil Ahmed kolleksiyasida saqlanayotgan № 1392 raqamli qo'lyozmadir. Bu qo'lyozma asar yozilgan davrga eng yaqin nusxadan deyarli 25 yil keyin yozilgan bo'lsa ham nisbatan xato va kamchiliklar yuqoridagi qo'lyozmalardan ko'ra ko'proq uchraydi. Bu qo'lyozma hijriy 692 yilda ko'chirilgan.

⁶⁶ Рашид ад-Дин Ватват. Хадаик ас-сихр фи дакаиқ аш-шиир. Изд. текста, предисл. и коммент. Аббаса Икбала. Тегеран, (б. г.).

⁶⁷ Чалисова Н.Ю. Рашид ад-Дин Ватват. Сады Волшебства в тонкастях поэзии // Перевод с персидского, исследование и комментарий Главная редакция восточной литературы издательства «Наука», 1985.

⁶⁸ Болтабоев Х. Шарқ мумтоз поэтикаси манбалари. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 390-391.

⁶⁹ Рашид ад-Дин Ватват. Хадаик ас-сихр фи дакаиқ аш-шиир. Изд. текста, предисл. и коммент. Аббаса Икбала. Тегеран, (б. г.).

4. Turkiyaning Ko‘prulu kutubxonasi, Fazil Ahmed kolleksiyasida saqlanayotgan №1613 raqami qo‘lyozma. Bu nusxa hijriy 686 yilda asar yozilgan davrga eng yaqin nusxadan 18 yil o‘tib ko‘chirilgan.

5. Turkiyaning Lolo Ismoil kutubxonasida saqlanayotgan № 407 raqamli qo‘lyozma hisoblanadi. Ushbu nusxa hijriy 844 yilda ko‘chirilgan.

6. Istanbul universiteti kutubxonasida saqlanayotgan № 414 raqamli qo‘lyozma bo‘lib, VIII/XIV asrlarda ko‘chirilgan deb taxmin qilinadi⁷⁰.

7. Istanbul universiteti kutubxonasida saqlanayotgan № 819 raqamli qo‘lyozma tanlab olindi. Bu qo‘lyozma hijriy 967 yilda ko‘chirilgan.

Asarni matniy tadqiq qilishda o‘zbek matnshunoslari qo‘llab kelayotgan usullardan matniy tafovutlarni va ko‘chirishdagi xatoliklarni tahlil qilish, qo‘shimchalar va tushirib qoldirishlarni aniqlash, tekstologik belgilarni aniqlash⁷¹ kabilarlardan foydalanildi.

Nusxalarda Qur‘oni Karim oyatlaridan keltirilgan misollarning tushib qolishi.

الحَذْفُ (*al-hazaf*) san‘atiga keltirilgan Qur‘oni Karimdan olingan oyatlar HC1392⁷² va HC1613⁷³ (58a) nusxalarda mavjud, lekin HC407⁷⁴, HC819⁷⁵, HC414⁷⁶, HC718⁷⁷ va HC1405⁷⁸ nusxalarda uchramadi:

مثال از قرآن کریم کی در و الف نیست: إِنَّهُ فَكَّرَ وَقَدَّرَ (۱۸)

Mudassir surasi 18 oyat.

Qur‘oni Karimdan shunday misolki, unda alif (ʼ) yo‘q:

Chunki u Qur‘on to‘g‘risida dilida (yomon fikrlarni) o‘yladi va (uni amalga oshirishni) muqarrar qildi?!⁷⁹.

فَقْتَلْ كَيْفَ قَدَّرَ (۱۹)

Mudassir surasi 19 oyat.

⁷⁰ Ahmed Ateş. “Raşid al-Din Vaṭvāṭ eserlerinin bāzı yazma nüshaları”. Tarih Mecmuası. Sayı X (1950) S. I-24.

⁷¹ Қаранг: Сирожиддинов Ш., Умарова С. Ўзбек матншунослиги қирралари. – Т.: Akademnashr, 2015.– Б. 9-15.

⁷² الحَذْفُ فِي دَقَائِقِ الشَّعْرِ كؤپرۇلۇ كۇتۇبخوناسى، فазил Ахмед коллекциясида сақланаётган №1392 рақамли қўлёзма. Ҳижрий 692 йил.

⁷³ الحَذْفُ فِي دَقَائِقِ الشَّعْرِ كؤپرۇلۇ كۇتۇبخوناسى، فазил Ахмед коллекциясида сақланаётган №1613 рақамли қўлёзма. Ҳижрий 686 йил.

⁷⁴ الحَذْفُ فِي دَقَائِقِ الشَّعْرِ Лоло Исмаил Кутубхонасида сақланаётган №407 рақамли қўлёзма. Ҳижрий 844 йил.

⁷⁵ الحَذْفُ فِي دَقَائِقِ الشَّعْرِ Истанбул университети кутубхонасида сақланаётган №819 рақамли қўлёзма. Ҳижрий 967 йил.

⁷⁶ الحَذْفُ فِي دَقَائِقِ الشَّعْرِ Истанбул университети кутубхонасида сақланаётган №414 рақамли қўлёзма. Милодий VIII/XIV асрлар.

⁷⁷ الحَذْفُ فِي دَقَائِقِ الشَّعْرِ Лоло Исмаил Кутубхонасида сақланаётган №718/10 рақамли қўлёзма.

⁷⁸ الحَذْفُ فِي دَقَائِقِ الشَّعْرِ Париж Миллий кутубхонасида сақланаётган №1405 рақамли қўлёзма. Ҳижрий 668 йил.

⁷⁹ Қуръони карим: оятлари маъноларининг изоҳли таржимаси/Таржима ва тафсир муаллифи: Шайх Муҳаммаджаон мулло Рустам ўғли (Мавлавий хожи Ҳиндстони). – Т.: “Имом Бухорий номидаги Тошкент ислом институти”, Мовароуннахр – 2006. – Б. 891.

Xudoning la'natiga giriftor bo'lsin, yana qanday o'ylar (yomon rejalar) muqarrar qildi?!⁸⁰

ثُمَّ قَتِلَ كَيْفَ تَرَّ (۲۰)

Mudassir surasi 20 oyat.

So'ngra yana Xudoning la'natiga giriftor bo'lsin, yana qanday o'ylar muqarrar qildi?!⁸¹

ثُمَّ نَظَرَ (۲۱)

Mudassir surasi 21 oyat.

Keyin Qur'on to'g'risida nazar qildi⁸².

ثُمَّ عَبَسَ وَبَسَرَ (۲۲)

Mudassir surasi 22 oyat.

Keyin achchaqlanib yuzini burishtirdi va peshonasini tirishtirdi⁸³.

دیگر کی در وی واو نیست: فَأَنْتَ عَنْهُ تَلَهَّى (۱۰)

'Abasa surasi 10 oyat.

Boshqa misol, bunda vov (و) bilan yoy (ی) yo'q:

Bas, sen undan yuz o'girib, kofirlarga mashg'ul bo'lasan⁸⁴.

تا آنجا کی نی: فِي صُحُفٍ مُّكْرَمَةٍ (۱۳)

'Abasa surasi 13 oyat.

Rarvardigorning nazdida aziz sahifalarda yozilgandir va martabasi yuksakdir⁸⁵.

و بعد از این جند آیتت کردی ست مرتب که در جمله واو نیست: بِأَيْدِي سَفَرَةٍ (۱۵)

'Abasa surasi 15 oyat.

Behuda narsalardan pokdir⁸⁶.

كِرَامٍ بَرَرَةٍ (۱۶)

'Abasa surasi 16 oyat.

Lavhul Mahfuzdan olib yozuvchi mukarram farishtalarning qo'lidadir⁸⁷.

دیگر که در و هیچ حرف منقوط نیست: وَاللَّهُمَّ إِلَهَ وَاحِدٌ لَا إِلَهَ إِلَّا هُوَ الرَّحْمَنُ الرَّحِيمُ (۱۶۳)

Baqara surasi 163 oyat.

Ey bandalar, sizlarning Xudoyingiz tanhohdir, sherigi yo'qdir. Hech ma'bud ibodatga loyiq emasdir, magar bir Zot (Parvardigorgina ibodatga loyiqdir). Parvardigor bandalarga mehribon va kechiruvchidir. Ibodatga sazovordir⁸⁸.

Xuddi shunday الرَّاقِطَا (ar-raqto) san'atiga keltirilgan mazkur Qur'oni Karimdan berilgan oyatlar HC1392, HC1613 va HC407 nusxalarda bor, HC1405, HC819, HC718, HC414 nusxalarda esa uchramadi:

⁸⁰ Ўша китоб. – Б. 891.

⁸¹ Ўша китоб. – Б. 891.

⁸² Ўша китоб. – Б. 891.

⁸³ Ўша китоб. – Б. 891.

⁸⁴ Ўша китоб. – Б. 911.

⁸⁵ Куръони карим: оятлари маъноларининг изоҳли таржимаси/Таржима ва тафсир муаллифи: Шайх Муҳаммаджаон мулло Рустам ўғли (Мавлавий ҳожи Ҳиндстони). – Т.: “Имом Бухорий номидаги Тошкент ислом институти”, Мовароуннаҳр – 2006. – Б. 912.

⁸⁶ Ўша китоб – Б. 912.

⁸⁷ Ўша китоб. – Б. 912.

⁸⁸ Ўша китоб. – Б. 99.

Zalzala surasi 1 oyat.

Qur'oni Karimdan:

*Vaqtiki er qattiq qimirlatilsa*⁸⁹,

Bu erda ko'rishimiz mumkinki, Qur'oni Karimdan olingan oyatlar HC1392 va HC1613 (59a) nusxalarda mavjud qolgan nusxalarda esa keltirilmagan. Bunga sabab kotib ko'chirgan nusxada o'sha misol keltirilmagan bo'lishi mumkin, yoki kotib o'sha san'atni ochib berishda qolgan misollar etarli deb hisoblagan bo'lishi ham mumkin.

Nusxalarda boblarning tushib qolishi.

HC414 raqamli nushada سِيَاقَةُ الْأَعْدَادِ (siyoqat ul-'adad) va تَنْسِيْقُ الصِّفَاتِ (tansiq us-sifat), اِلِسْتِدْرَاكُ (istidrok), اَلْكَالَامُ الْجَامِعُ (al-kalamul jamiu') san'atlariga bag'ishlangan boblar tushib qolgan.

سِيَاقَةُ الْأَعْدَادِ (siyoqat ul-'adad) va تَنْسِيْقُ الصِّفَاتِ (tansiq us-sifat) san'atlari asarda ketma-ket kelgan. Ushbu qo'lyozmada yuqorida keltirilgan san'atlar ko'chirilgan betlar tushib qolgan bo'lishi mumkin. Sababi undan oldin kelgan san'atning oxirgi misoli ham keltirilmagan va tushirib qoldirilgan san'atlardan keyin kelgan boshqa san'at xat boshida berilgan. Qolgan ikki san'at esa ko'chirilmagan.

HC407 raqamli nushada esa نَوَعٌ جِهَارِمٌ اَز رَدَّالْعَجْزِ عَلَي الصِّدْرِ (nave chahoro 'm az rad al-a'juz 'ala as-sodr) san'atiga bag'ishlangan qismi tushib qolgan. Yuqorida ko'rsatilgan san'at qo'lyozmaga ko'chirilmagan.

Xulosa. Xulosa qilib aytish kerakki, Rashididdin Vatvot qoldirgan ilmiy va adabiy merosni har tomonlama chuqur o'rganish, ilm ahli uchun ham foydali, ham kerakli hisoblanadi. Chunki bu meros O'rta Osiyo xalqlari tarixi va madaniyatini to'la yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Чалисова Н.Ю.О новаторстве Рашида Ватвата в разработке теории бадий на персидском языке. – Тезисы докладов и сообщений аспирантов и молодых научных сотрудников. Языкознание. Литературоведение. Текстология. – Москва: Наука, 1979. – 410 с.
2. Чалисовой Н.Ю. Рашид ад-Дин Ватват. Сады Волшебства в тонкастуах поэзии // Перевод с персидского, исследование и комментарий. – Москва: Наука, 1985. – 325 с.
3. Уватов У. Рашидиддин Ватвот мактублари // Гулистон. – Тошкент, 1991. – № 11. – Б. 13 б.
4. Boltaboyev H. Sharq mumtoz poetikasi manbalari. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
5. Abbos I. Rashididdin Vatvot. Hadoyiq us-sehr fi daqoyiq ush-she'r. – T.: Universitet Tegrana, 1973.

⁸⁹ Ўша китоб. – Б. 948.

OGAHIYNING “GULSHANI DAVLA” ASARI HAMD QISMINING QO‘LYOZMA VA NASHRIDAGI TAFOVUTLARI

Muslimabonu TURSUNALIYEVA

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqola Ogahiyning “Gulshani davla” asarining hamd qismiga bag‘ishlangan bo‘lib, uning qo‘lyozma va nashrlari solishtirib o‘rganilgan. Qo‘lyozma va nashrdagi tafovutlar berib o‘tilgan va sharhlangan.

Kalit so‘zlar: “Gulshani davla”, qo‘lyozma, hamd, nashr, matn, tavhid.

Abstract. This article is dedicated to the praise section of Ogahi's work "Gulshani Davla", and its manuscripts and editions are compared. Differences between the manuscript and the publication were presented and commented.

Key words: "Gulshani davla", manuscript, praise, edition, text, monotheism.

Ogahiy ta'rixiy asaridan briri bo‘lgan “Gulshani davla” asarining yagona nusxasi⁹⁰ gina diyorimizda mavjud bo‘lib, ushbu nusxa asosida 2023-yilda⁹¹ boshqa asarlari qatorida nashr qilingan. Biz ushbu asarning hamd qismi qo‘lyozma va nashr solishtirib, so‘ngra matndagi holatlarni o‘rganib chiqamiz.

Asarda asosan tavhid hamdi berilgan bo‘lib, unda Ollohning barcha podshohlarni podshohi sifati ulug‘langan.

سیاسی به انطماس و ستایش به اندراس تحافی کیم دوایر اقلاک سایرلاریغ اذلدین تا ابدور زبان
رطب اللسان دور⁹².

Siposi beintimos va siyoyishi beindiros tahoyifekim, davoyri aflok siyirlarig‘a azaldin to abaddur va zaboni ratbu-l-lisondur⁹³.

“Basmala”dan so‘ng berilgan ushbu mantni qo‘lyozma va nashr qismida quyidagi farqli tomonlar aniqlandi سایرلاریغ (soyirlarig‘a) so‘zi nashrda "siyirlarg'a" deya berilgan; so‘z qo‘shimchalari qo‘lyozmalarda so‘zdan ajratib yozilgan bo‘lsa, nashrda qo‘shib yozilgan;

Ogahiy falaklar orasida aylanishlar azaldan to abadgacha tilda bog‘langan til ila yagona bo‘lgan zotga tugalmas shukr va g‘oyib bo‘lsa ham hamd bo‘lsin deya barcha hamd yagona zotga Allohga xosdur. Allohning “Al-mubdiu” - avvaldan bor bo‘lgan ismini e’tirof etgan.

اول پادشاه ذو الجلال نینگ معلا حضرتیغ نئادورکیم گردون توان سلطانلار نینگ درگاهی
توفراقغ عبودیت باشین قویماق بیله تاجدار و صاحب اعتبار دورلار⁹⁴

⁹⁰ O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti hazinasida. inv. 7572. 2A-b.

⁹¹ Гулшани давлат. Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий/асарлар/6-жилд (Давлат гулшани).-Т.: “Sharq”, 2020.b.3

⁹² O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti hazinasida. inv. 7572. 2A-b.

⁹³ Гулшани давлат. Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий/асарлар/6-жилд (Давлат гулшани).-Т.: “Sharq”, 2020.b.3

*Ul podshohi zuljalolning muallo hazratig'a nisodurkim, garduntavon sultonlarning dargohi tufroqig'a ubudiyat boshin quymoq bila tojdor va sohibe'tibordurlar*⁹⁵.

Qo'lyozmdagi گردون تون (gardun tavon), ذو الجلال نینگ (zu-l-jalol ning), صاحب اعتبار دورلار (sohib i'tibor durlar) so'zlari nashrda qo'shilib ketilgan.

Ushbu matn ham Allohning "Zul jalol val ikrom - sharaf va kamol, karam va ikrom egasi" ismiga ta'rif ila bitilgan bo'lib, barcha podshohlar Allohga ibodat qilganligi uchun ham tojdor va e'tibor qozongandur deya ta'rif etiladi. Alloh podshohlarningda podshohi "Al-Malik" dur.

و شانی به منتها و شکر لایحص و ظایفی کیم سرایر خاک دایرلاری آنینگ بڑتیدین اولدین تا آخر شیرین کام و عدب البیان دور⁹⁶

*Va shani bemuntaho va shukri loyuhso vazoyifekim, saroyiri xokiy doyirlari aning lazzatidin avvaldin to oxir shirinkom va vaziu-l-bayondur*⁹⁷.

Matnda ba'zida biror bir harfdan keyin alif kelsa, u o'zidan oldingi harfni "o"lashtirib o'qishga hizmat qilgann, ammo nahrsda esa bu tabdilchining ixtiyori ila o'zgartirilgan, masalan و شانی (va shoni) so'zi nashrda "shani" tarzda, fors tilidagi yoyi nakra ba'zan "i" tarzda دایرلاری (doyirlari), ba'zan esa "e" shaklida (vazoyifekim) so'zi kabi berilib ketilgan.

اول سلطان عدیم المثل نینگ معظم درگا هیغ سزاوردور کیم عالیمکان خاقانلار آنینگ آستانی تاشیغ عجزو انکسار مانگلابین اورماق بیله کامکار و گردون اقتدار دورلار⁹⁸

*Ul sultoni adimu-l-misolning muazzam dargohig'a sazovordurlik, Oliymakon xoqonlar aning ostoni toshig'a ajzu inkisor manglayin urmoq bila komkor va garduniqtidorurlar*⁹⁹

Matnning qo'lyozma qismidagi و گردون اقتدار دورلار (va gardun iqtidorurlar) so'zlari nashrda qo'shilib yozilgan holda orfografik xatoga yo'q qo'yilgan.

عالم ملکوت هر فضای مختصر دور قدرته کلستانیدین و جهان ناسوت بیر صحن مقصر دور عظمتی آیوانیدین خورشید درخشان حکمتی بیضا سدیدن بیر لمعی ناپدید دور محیط بکیران مکرمتی دریاسیدین بیر قطرہ نامقید دور¹⁰⁰

Olami malakut har fazoyi muxtasardur qudrati gulistonidin va jahoni nosut bir sahni muqassardur azamati ayvonidin. Xurshidi duraxshon hikmati bayzosidin

⁹⁴ O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida. inv. 7572. 2A-b.

⁹⁵ Гулшани давлат. Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий/асарлар/6-жилд (Давлат гулшани).-Т.: "Sharq", 2020.b.3

⁹⁶ O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida. inv. 7572. 2A-b.

⁹⁷ Гулшани давлат. Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий/асарлар/6-жилд (Давлат гулшани).-Т.: "Sharq", 2020.b.3

⁹⁸ O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida. inv. 7572. 2A-b.

⁹⁹ Гулшани давлат. Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий/асарлар/6-жилд (Давлат гулшани).-Т.: "Sharq", 2020.b.3

¹⁰⁰ O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida. inv. 7572. 2A-b.

*bir lam'ayi nopudiddur, muhiti bekaron makrumat daryosidin bir qatrayi nomuqayyaddur*¹⁰¹

Matnshunoslik nuqtayi nazardan ushbu matnning qo'lyozma va nashrda farqlari bo'lib, uni biz makrumati daryosidan) so'zi nashrda "y" nakrasiz berilib ketilgan; nashrda talaffuzdosh harflar deyarli farqlanmay berilib ketilmagan ayniqsa "x" va "h" harflarida buni uchratish mumkin.

نظم
شاهی کیم ایرور منفرد ذات آنگا
باری ماسوا کیلدی مرات آنگا
حسن درکهی دور حدوث قدم
غباری رهی دور وجود عدم¹⁰²

*Shohekim, erur munfarid zot anga,
Bari mosivo keldi mir'ot anga.
Husni dargahidur hudusu qidam,
G'ubori taxidur vujudu adam*¹⁰³

آنگا (ongo) so'zi qo'lyozmada berilgan bo'lsa, nashrda "anga" tarzda berilib ketilgan. Allohning yagonaligiga uning "al-Malik", "al-Boqiy" kabi sifatleri ochib bergan. Alloh shunday shohki, u yagona, abadiydir. Tazod san'atlaridan foydalanilgan. "Hudusu qidam" so'zlari tazoddur ya'ni yangi va eski kabi.

کرمی کیم کرم عام مقتضاسی بیلہ افراد انساندین هرکسی کیم صاحب دولت قلماق استاس
سلطنت تختغ میندوروب جهان ممالکی نینگ عنان اختیارین انینگ قبضی اقتدارینغ تاپشورور¹⁰⁴

*Karimekim, karami omm muqtazosi bila afrodi insonidin har kishinikim,
sohib davlat qilmoq istasa, saltanat taxtig'a mindurub, jahon mamolikinining inoni
ixtiyorin aning qabzayi iqtidorig'a topshirur*¹⁰⁵

Matn qo'lyozma ikki bir so'zlar nashrda ikki hil tarzda o'qilgan, ya'ni kermi so'zlari, aslida ikkisi ham "karam" so'zlari.

Alloh xohlagan insoniga boyli, faqirlik bersa, xohlagan insoni shoh, xohlagan kimsasini esa gado qiladi. Alloh "Al-g'oniy" zotdur, uning karami keng. "Al-Karim" sifati ila bir bandasiga jahon shohlarining ham podshohi qilur.

آنداقکیم توتی الملک من تشاء محواسی اندین خبر برور¹⁰⁶

*Andoqkim, "Tu'ti-l-mulka man tasha'u" mahvosi andin xabar berur*¹⁰⁷.

¹⁰¹ Гулшани давлат. Муҳаммад Ризо Эрниёзбек ўғли Огахий/асарлар/6-жилд (Давлат гулшани).-Т.: "Sharq", 2020.b.3

¹⁰² O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti hazinasida. inv. 7572. 2A-b.

¹⁰³ Гулшани давлат. Муҳаммад Ризо Эрниёзбек ўғли Огахий/асарлар/6-жилд (Давлат гулшани).-Т.: "Sharq", 2020.b.3

¹⁰⁴ O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti hazinasida. inv. 7572. 2A-b.

¹⁰⁵ Гулшани давлат. Муҳаммад Ризо Эрниёзбек ўғли Огахий/асарлар/6-жилд (Давлат гулшани).-Т.: "Sharq", 2020.b.4

¹⁰⁶ O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti hazinasida. inv. 7572. 2A-b.

¹⁰⁷ Гулшани давлат. Муҳаммад Ризо Эрниёзбек ўғли Огахий/асарлар/6-жилд (Давлат гулшани).-Т.: "Sharq", 2020.b.4

Matnda *andoqkim* (ondoqkim) so‘zi nashrda andoqkim shaklida yozilgan; Qur‘on oyatidan berilgan parcha asliyat holatda transkripsiyada berib ketilgan, oyatni tarjimasini “Xohlagan kishingga mulk berursan¹⁰⁸” shaklida berilsa barchaga tushunirliroq bo‘lardi.

وقاديركيم قدرت تمام اجراس بيله سلاطين جهائدين هر كمر سه نه كيم اوج عزتدين حضيض ذلتغ يتكورماك تيبلاس دولت سريردين توشوروب عالم مملكتى نينگ ذمام اختيارين پنچى اعتباريدين آلور¹⁰⁹

Va qodirkim, qudrati tamom ijrosi bila salotini jahondin har kimarsanikim, avji izzatdin xazizi zillatg‘a etkurmak tilasa davlat sariridin tushurub olam mamlakatining zimomi ihtiyorin panjayi e‘tiboridin olur¹¹⁰.

Al-Qohhar - qahr qiluvchi, qudratli zot, insonga boylik berib, uni ixtiyor etsa olib qo‘yishga ham qodir zotdir.

آنداق كيم *تنزع الملك ممن تشاء* مؤداسى أنه اعلام قيلور¹¹¹

Andoqkim, “tanzi‘u-l-mulka minman tasha‘u” muvaddosi ani e‘lom qilur¹¹².

Matnda *andoqkim* (ondoqkim) so‘zi nashrda andoqkim shaklida yozilgan; Ol-Imron surasining 26-oyat bir qismi nashrda ham izohsiz transkripsiyada berilib ketilgan, *تنزع الملك ممن تشاء* “Xohlagan kishining mulkini tortib olursan¹¹³” shaklida berilishi joizdur.

Allohning al-Malik, al-Qahhor, al-G‘oniy sifatleri berib, quyidagi masnaviyini berib ketiladi:

مثنوى

خدایى كى يوق مثل ماننده سى

خداوندلار دور كمين بنده سى

كرم دين بيراوگا بيروور شاه ليق

جهان اهلى اجرا قلک جاه ليق

بيراودين آلور سلطنت دولتین

مسلم آنگا ملك غيب شهور

ايروور خالق جمل بود نبود

غلبت شانه و عمت احسانه¹¹⁴

Xudoyoki, yo‘q mislu monandasi,

Xudovandlardur kamin bandasi.

Karamdin birovg‘a berur shohlik,

Jahon ahli ichra falakjohlik.

Birovdin olur saltanat davlatin,

¹⁰⁸ Ol-imron surasi 26 oyat

¹⁰⁹ O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida. inv. 7572. 2A-b.

¹¹⁰ Гулшани давлат. Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий/асарлар/6-жилд (Давлат гулшани).-Т.: “Sharq”, 2020.b.4

¹¹¹ O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida. inv. 7572. 2A-b.

¹¹² Гулшани давлат. Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий/асарлар/6-жилд (Давлат гулшани).-Т.: “Sharq”, 2020.b.4

¹¹³ Ol-imron surasi 26 oyat

¹¹⁴ O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida. inv. 7572. 2A-b.

*Boshig‘a solur maskanat zillatin.
Masallam anga Mulki g‘aybu shuhud,
Erur Xoliqi jumla budu nobud.
G‘alabat shonahu va ammat ehsonahu¹¹⁵.*

Masnaviy matni qo‘lyozma yoki nashrdagi holatlarida ayrim so‘zlarning tafovutlari mavjudligi bor masalan, *بيروغا* (birovga) so‘zi nashrda “birovg‘a” deb berilgan. *قلک جاه ليق* (falak joh liq) so‘zi nashrda qo‘shib yozilgan.

Xulosa qilib aytsak, Ogahiy “Gulshani davla” asarida munojoat hamdlari yozmagan, mavzu doirasida Allohning podshohlarning shohi ekanligi tavsif etishga qaratgan. Hamd qismi faqat tavhid hamdlari bo‘lib, unda asosan “Al-Malik” sifati ochishga hizmat qilgan, sababi asar mazmuniga monand; Qo‘lyozmada asosan matnda uchragan so‘z qo‘shimchalar asosiy qo‘shilayotgan so‘zlardan ajratib yozilgan, nashrda esa qo‘shib, ba‘zi holatda esa chiziqcha bilan ajratilib yozilgan. Nashrda so‘zlar qo‘shilib ketish holatlari mavjud, qo‘lyozmada esa bular ajratilib berilgan bo‘lsa ham; Nashr qismning hamd qismida nashrga tayyorlovchilar tomonida qo‘shib yuborilgan so‘zlar mavjud. Qur‘on oyatlari nashrda ham, qo‘lyozmada ham tarjimasiz arabcha holatda berib ketilgan.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida. inv. 7572.
2. Гулшани давлат. Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огахий/асарлар/6-жилд (Давлат гулшани).–Т.: “Шарқ”, 2020.

“ZARBULMASALI SIDQIY” ASARI QO‘LYOZMALARI

Gulshan MUSULMONOVA

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sirojiddin Sidqiyning “Zarbulmasali Sidqiy” didaktik asari qo‘lyozmalari matnshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq qilingan. Tadqiqotimizda A.Nosirov, B.Qosimov, A.Asilov, R.Javharova kabi matnshunoslarning nazariy fikrlariga tayanildi.

Kalit so‘zlar: qo‘lyozma, ilmiy tavsif, dastxat nusxa, savol-javob

Abstract. In this article, the manuscripts of Sirojiddin Sidqi's didactic work "Zarbulmasali Sidqi" are studied from the point of view of textual studies. In our research, we relied on the theoretical opinions of textualists such as A. Nosirov, B. Kasimov, A. Asilov, R. Javharova.

Key words: manuscript, scientific description, autograph copy, question and answer

¹¹⁵ Гулшани давлат. Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огахий/асарлар/6-жилд (Давлат гулшани).-Т.: “Sharq”, 2020.b.4

Ma'lumki, Sirojiddin Sidqiy 1919-yildan boshlab turli tazyiqlar tufayli o'z tugilgan qishlogiga qaytib, o'sha erda ijod qila boshlaydi. Bu davrda o'zbek adabiyotiga qiziqish bildirgan, o'zbek xalq maqollarini jamlay boshlagan¹¹⁶. Shu munosabat bilan Sidqiy o'z kuzatuv va hayotiy falsafiy mushohadalari asosida savol-javobli masallar "Zarbulmasali Sidqiy" asarini yoza boshlagan. Asardagi savol-javoblar o'zbek xalq maqollari, matallari asosiga qurilgan bo'lib, an'anaviy nasriy yo'lda yozilgan. Adib qo'lyozmada asarning yozilish sanasini 1932-yil 1-oktyabr (hijriy 1351-yil) deya, yozib qoldirgan. Ammo qo'lyozmada asarning tugallangan yoki tugallanmaganligi, qancha savol-javobli masallar jamlanganligi haqida boshqa ma'lumotlarni uchratmaymiz. Asar 1998-yilgacha hech qayerda nashr etilmagan, u haqda ma'lumot ham berilmagan. 1934-yilda Sidqiy to'satdan vafot etganda uning ko'pgina asarlari qo'lyozmasi yo'qolgan. Shoirning o'ziga eng yaqin ko'rgan, suyangan shogirdi Abdulla Nosirov 1946-yil Sidqiyning xonadonidan 40 dan ziyod bosma va qo'lyozma nusxalarni olib Sharqshunoslik institutiga topshirgan. Tabiiyki, bu vaqtga kelib adibning juda ko'p asarlari qo'lma-qo'l bo'lib ketgan, faqat toshbosma nusxalar va chala-yarim qo'lyozmalargina saqlanib qolgan¹¹⁷. Darhaqiqat, Sidqiyning 1911-1917-yillarda chop etilgan toshbosma asarlaridan tashqari inqilobdan umrining oxirigacha bo'lgan davrda bosilib chiqqan birorta asarini uchratmadikki, bu shoirning kuyunch bilan aytgan gaplarini to'la tasdiqlaydi. Ammo, O'zFASHI qo'lyozmalar fondida Abdulla ota Nosirov turli nomlar ostida jamlagan to'plam (papka)lar borki, ularda parokanda ash'or va maktublar, "Til ochqusi" nomli izohli lug'at, notamom asarlar, "Futuh ush-Shom" asarining ba'zi sahifalari, isloh qilingan arab-o'zbek yozuvida bitilgan hikmatlar kabi qator ishlari qo'lyozma holida qolib ketganidan dalolat beradi. Inqilobdan keying adabiy merosini bu taxlitda qolib ketishi jamiyatdagi o'zgarishlarning Sirojiddin Sidqiy ijodining keyingi ravnaqiga naqadar noqulay vaziyat yuzaga keltirganini anglab olish uchun kifoya qilsa kerak¹¹⁸. Abdullo Nosirov Sidqiyning tugallanmagan, chala qolgan barcha asarlarini №7631-inventar raqami bilan "Sidqiyning notamom qolgan asarlari" nomi ostida rasmiylashtirib qo'yadi. Shoirning "Zarbulmasali Sidqiy" didaktik asarining qo'lyozmasi ham ushbu inventar raqamda saqlanadi. Sidqiy hayoti va ijodi bo'yicha ilmiy ish qilgan olim R. Javharova shunday yozadi: "*O'zRFA ShI dagi adibning arxivida bu asardan 172 ta o'git saqlanib qolgan ekan. Keyingi izlanishlar natijasida Sidqiyning hozirgi paytda Pargez qishlog'ida yashayotgan kuyovlari Obid otadan 96 ta savol-javob qayd etilgan daftarni topib qo'shishga muvaffaq bo'ldik. Natijada maqol va matallar asosiga qurilgan 268 ta savol-javob bir joyga jamlandi. Oraliq raqamlardagi uzviylikning buzilishi yana 253 ta*

¹¹⁶ Abdullo Nosirov xotiralari.-1984.

¹¹⁷ Asilov A. Sirojiddin Maxdum- Sidqiy Xandaqliqiy.(Roman, g'zallar) – T.: "G'afur G'ulom", 2019. 173- bet.

¹¹⁸ Javharova R. Sirojiddin Sidqiy Xondaqliqiyning adabiy merosi. Filol. fan. nom. diss... – T.: 1996

*o'gitning hozircha bizga noma'lumligini ko'rsatib turibdi*¹¹⁹". Bu fikrlardan ma'lumki, asar bizga to'lig'icha etib kelmagan. Muallif bu asari haqida hech qanday ma'lumot yozib qoldirmagan. 1984-yilda asar haqidagi ba'zi ma'lumotlarni Sidqiyning shogirdi A.Nosirov o'z xotiralarida yozib qoldirgan: "*Sidqiy yuzga yaqin zarbulmasalllar yaratgan. Qo'lyozma nusxasi institutda saqlanadi*¹²⁰" 1998-yilda adabiyotshunos olim Begali Qosimov so'zboshisi bilan nashr etilgan "Sidqiy Xondayliqiy. Tanlangan asarlar " to'plamida ilk bor "Zarbulmasali Sidqiy" asaridan ham namunalar berilgan. Adabiyotshunos olim prof. B. Qosimov ushbu asar haqida shunday fikrlarni keltiradi: "*Asar dastlab "Savol-javobli yuz so'z" nomi bilan yozila boshlagan. Muallif birinchi qismning musavvasidayoq savol-javobni yuztaga etkazib qo'yadi. Biroq boshqa bir daftarda ayni shu savol-javoblarning ko'pini she'riy parchalar bilan xulosalab, ularning miqdorini besh yuzdan oshirgan*¹²¹". 1998-yilda nashr etilgan "Sidqiy Xondayliqiy. Tanlangan asarlar" to'plamida jami 120 ta savol-javobli zarbulmasal berilgan bo'lib, shulardan 99 tasi O'zRFA ShI qo'lyozmalar fondidagi nusxadan, qolgan 21 ta savol-javob Sirojiddin Sidqiyning kuyovi Obid ota Qo'rg'onov qo'lida saqlanayotgan dastxat nusxadan olingan. Asarning bizga etib kelgan to'liq matni bugungi kungacha hech qayerda nashr etilmagan, qo'lyozma holida saqlanadi.

O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondidagi №7631-inventar raqamli qo'lyozmani ko'zdan kechirganimizda, "Zarbulmasali Sidqiy" asarining A. Nosirov fondga topshirgan 2 ta daftardan iborat qo'lyozmalari borligini aniqladik. Ammo olim R. Javharova ta'kidlab o'tgan, Sidqiyning kuyovi Obid Ota qo'lidan olingan qo'lyozmani topa olmadik. Afsuski, ushbu qo'lyozmaning keyingi taqdiri va qayerda saqlanayotganligi hozircha bizga ma'lum emas.

"Zarbulmasali Sidqiy" asarining ikkita daftardan iborat qo'lyozmasi saqlanib qolgan. Ikkala daftar ham Sidqiyning tugallanmagan asarlari orasidagi konvert-papkada saqlanadi. Daftarlari muqovalanmagan. Umumiy hajmi 28 varaq. Matn oddiy maktab daftari varaqlariga, asosan, qizil va ba'zi erlari qora siyoh bilan isloh qilingan eski o'zbek yozuvida ko'chirilgan¹²². Ikkala qo'lyozmaga ham Sirojiddin Sidqiyning o'zi kotiblik qilgan. Ushbu manbalar bevosita Sidqiyning o'z dastxati bilan ko'chirilgani jihatidan ham qimmatlidir.

1-qo'lyozma daftar. Qo'lyozmaning hajmi 20 varaq, 40-betdan iborat. Ammo asar matni 1-22 sahifalarda joylashgan. Daftarning keyingi sahifalari bo'sh turibdi. Matn o'lchami: 20x35. Qo'lyozmaning birinchi beti yuqori chap burchagida O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining muhri bosilgan. Asarda poyg'irlar berilmagan. Ammo qo'lyozma tepasida 1-3

¹¹⁹Sidqiy Xondayliqiy. Tanlangan asarlar.-T. "Ma'naviyat", 1998. - 304 b.

¹²⁰Asilov A. Sirojiddin Maxdum- Sidqiy Xondaqliqiy.(Roman, g'zallar) – T.: "G'afur G'ulom", 2019. 173- bet.

¹²¹ Sidqiy Xondayliqiy. Tanlangan asarlar.-T. "Ma'naviyat", 1998.

¹²² Javharova R. Sirojiddin Sidqiy Xondaqliqiyning adabiy merosi. Filol. fan. nom. diss... – T.: 1996. 103-bet.

sahifalar ۱,۲,۳ tarzida raqamlangan, qolgan 4-22 betlarga odatiy raqamlar qo'yilgan. Birinchi qo'lyozma varag'iga quyidagi so'zlar bitilgan:

۱- قيسم. سوال- جاوابلى يوز سوز. مواليفى اسالچى.
صدقى. ۱۹۳۲. ۰۱۳۵۱ ئوكتابر.

(*Birinchi qism. Savol-javobli yuz so'z. Muallifi: Asalchi.*
Sidqiy. 1932 (1351) 1-oktyabr.)

Ushbu qo'lyozmada jami 100 ta savol-javobli o'git berilgan. Sidqiy asarni keyinchalik yana davom ettirishni niyat qilgan. Shu sababli qo'lyozma bosh sahifasiga qisim ۱ - قيسم (*"Birinchi qism"*) deb yozib qo'yadi. Savol-javoblar ikki ustunda, har bir sahifada ba'zi betlari 10, asosan, 11 qatordan joylashtirilgan. Birinchi ustunda savol matni, ikkinchi ustunda shu savolning javoblari berilgan. Savol matni oldidan (س), javoblardan oldin (ج) harflari qo'yilgan. Har bir sahifa jadvalga olingan, ammo bezak berilmagan. Savol-javoblar qora siyohda chiroyli nasta'liq xatida ko'chirilgan. Muallif keyinchalik ba'zi o'gitlarga qizil va pushti siyohda tuzatishlar kiritgan, she'riy baytlar, maqollar qo'shgan, ayrim savol-javoblarga izoh berib o'tgan. Qo'lyozmaning 6, 8, 16, 19, 20-betlarida bo'yalgan, o'chirilgan joylari bor.

Asar matni qo'lyozmaning 2-betida quyidagi savol- javob bilan boshlanadi:

جمشيدنينگ بزمىنى قاىو یردا تاپیلور؟

چين معنا سی بیلان ایتکاندا هار بیر کیچاسی را دیودا.

Savol: - Jamshidning bazmi(ni) qayu erda topilur? (1)

Javob: - Chin ma'nosi bilan aytganda har bir kechasi radyuda (radioda).

Asar 22-sahifada 100- savol-javob bilan tugaydi:

ره سمى ئاو ماعلومدور، تونغوز ئاوى نيمادور؟

سودخور نینگ یجارا یغقان کونی.

Savol: - Rasmiy ov ma'lumdur, to'ng'iz ovi nimadur? (100)

Javob: - Sudxo'r¹²³ning ijara yig'qon kuni.

"Zarbulmasali Sidqiy" asarining ushbu 1-qo'lyozmasidagi 100 ta savol-javobdan jami 36 tasi Sirojiddin Sidqiyning 1998-yilda nashr etilgan "Tanlangan asarlar" to'plamiga kiritilgan. Qo'lyozmaning 7, 9, 16, 18, 19, 26, 33, 34, 36, 37, 38, 40, 43, 45, 48, 54, 55, 57, 61, 62, 63, 64, 66, 70, 75, 76, 80, 81, 82, 84, 85, 87, 92, 94, 95, 96-raqamli savol-javoblari hozirgi yozuvimizga tabdil qilinib, chop etilgan. Aslida ushbu qo'lyozmadan 38-ta zarbulmasalli o'git kitobga kiritilgan. Ammo ulardan 2 ta si 43 va 45- nasihatlar nashriyot xatosi tufayli ikki martadan nashr etilgan.

2-daftar. Qo'lyozma bosh sahifasida "ضرب المثلى صدقى" ("Zarbulmasali Sidqiy") degan yozuvlar bitilgan. Asar aralash, qizil, pushti va qora siyohda nasta'liq yozuvida bitilgan. Matn o'lchami: 20x35. Qo'lyozma 16 varaq, 32-betdan iborat. Qo'lyozmaning 1-5, 13-16 sahifalaridagi savol-javoblar 2 ta ustundan, 6-12 varaqlarida esa bir ustundan ko'chirilgan. Matn har bir sahifaga 12-13 qatordan joylashtirilgan. Birinchi ustunda savol matni, ikkinchi ustunda javoblari berilgan. Qo'lyozmada poygir qo'yilmagan, sahifalar raqamlanmagan. Qo'lyozmaning 5,

¹²³ G'oyat og'ir shartlar bilan qarz berib, foyda oladigan shaxs.

13, 20, 21, 28- betlarida asar matni bilan bog‘liq tuzatishlar uchraydi. Manbaning 6, 11, 28, 29- varaqlar hoshiyasida izohlar, qo‘shimcha ma‘lumotlar keltirilgan. Qo‘lyozmadagi ba‘zi savollarga javob yozilmagan. 19- sahifadagi كيساك نا تيب ؟ نارسلاننى قولاب بولورمو؟ (Kesak otib arslonni quvlab bo‘lurmu?), 27-sahifadagi ئول مال تاپار خاتون كيمدور؟ (Ul mol topar xotun kimdur?) kabi savollar ko‘chirib yozilgan, ammo ularga javob yozilmagan bo‘lib, qatorlar bo‘sh qolgan.

2-daftarda jami 90 ta savol-javoblar berilgan. Shulardan 68 tasi yangi, qolgan 22 ta o‘git 1-qo‘lyozmadan olingan. Bu qo‘lyozmaning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ikki daftar varaqlari birlashtirib elimlangan. Shu sababli qo‘lyozmadagi savol-javoblar orasidagi uzviylik yo‘qolgan. 1-9 sahifalarda 501-521-raqamli savol-javoblar ko‘chirilgan bo‘lsa, 10-25-betlardagi berilgan savol-javoblar raqamlanmagan. Qo‘lyozmaning 26-31- varaqlarida joylashgan 79-100-raqam savol-javoblar “Zarbulmasali Sidqiy” asari 1- qo‘lyozmasidagi xuddi shu raqamdagilar bilan aynan bir xil. Faqatgina muallif ularni tahrir qilgan, she‘riy parchalar bilan izohlab, qayta ko‘chirgan.

Ushbu 2-qo‘lyozmadagi 68 ta yangi savol-javobdan 38 tasi 1998-yilda bosilgan “Sidqiy.Tanlangan asarlar”ida transliteratsiya qilinib chop etilgan. Qolgan 30 ta nasihat hozircha qo‘lyozmaligicha saqlanmoqda.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, “Zarbulmasali Sidqiy” asaridan namunalar Sidqiy 1998-yildagi to‘plamida nashr etilgan. Bu toplam adabiyotshunos olim Begali Qosimov va olim R. Javharovalar tomonidan nashrga tayyorlangan. Shu sababli, nashriy matnlarda biz qo‘lyozmadagi so‘zlarning xato o‘qilishi va noto‘gri talqin etilishi kabi holatlarni uchratmadik. Qo‘lyozma va nashrlardagi asosiy matniy tafovut tushirib qoldirilgan va qisqartirilgan baytlar, jumlar ekanligi aniqlandi. Bu qisqartirishlar savol-javoblarning matndagi ma’nosiga putur etkazmaydi.

Sidqiyning “Tanlangan asarlar”ida nashr etilgan oxirgi 21 ta savol-javob Sidqiyning yakka-yu yagona qizi Toshxon aya va kuyovi Obid otalar saqlab yurgan dastxat qo‘lyozmadan olingan, bu haqida to‘plam oxiridagi “Izohlar” bo‘limidagi 78-izohda shunday ma‘lumot berilgan: “Bu va keyingi savol-javoblar Sidqiyning kuyovi Obid ota qo‘lida saqlanayotgan nusxadan olindi¹²⁴” Bu manbani o‘rgangan olim R Javharovanning yozishicha, bu qo‘lyozmada jami 96 ta savol-javob qayd etilgan va “Zarbulmasali Sidqiy” asarining boshqa qo‘lyozmalari qatoriga qo‘shilgan. Lekin O‘zFA Sharqshunoslik instituti fondidan ushbu qo‘lyozma nusxani topa olmadik. Bu nusxadan bizga hozircha 21 ta savol-javob ma‘lum.

Shoir “Tanlangan asarlar” to‘plamida 1 va 2- qo‘lyozma daftarlarda uchramaydigan yana 26 ta savol-javoblar borki, ularning qaysi manbadan olinganligi noma‘lum. Bu o‘gitlarning manbasi haqida Sidqiy asarlarini nashrga tayyorlagan B. Qosimov va R. Javharovalar hech qanday ma‘lumot berishmagan. O‘zFA Qo‘lyozmalar fondidagi Sidqiy asarlari orasida ham bu manbani uchratmadik. Bizning fikrimizcha, bu savol-javoblar ham Sidqiyning kuyovi qo‘lida saqlanayotgan dastxat nusxadan olingan bo‘lishi mumkin, chunki B.

¹²⁴ Sidqiy Xondayliqiy. Tanlangan asarlar.-T. “Ma’naviyat”, 1998. 293-bet.

Qosimov va R.Javharovalar faqat 3 ta daftardan iborat qo‘lyozma topilganligini ta’kidlab o‘tishgan.

Zarbulmasali Sidqiy” asari qo‘lyozma va nashriy matnlarini o‘rganish mobaynida bizgacha jami 215 ta savol-javoblar etib kelganligi aniqlandi. Buni qo‘lyozmalar kesimida quyidagicha tasniflash mumkin:

Qo‘lyozmalar	Jami savol-javoblar soni	Nashr etilgan savol-javoblar soni
1-daftar	100 ta	36 ta
2-daftar	68 ta	38 ta
Obid ota qo‘lyozmasi	21 ta + 26 ta	21+26
	Jami: 215 ta	Jami: 121 ta

Shuni ta’kidlash lozimki, shoir adabiy merosi haligacha to‘laligicha matnshunoslik va adabiy manbashunoslik aspektida tadqiq etilmagani, shoirning butun boshli devoni, dostonlari, nasriy asarlari, tarjimalari matniy tadqiqi amalga oshirilmagani bois, ilmiy jamoatchilik Sidqiy Xondayliqiy adabiy merosi haqida aniq tasavvurga ega emas. Shuningdek, “Zarbulmasali Sidqiy” didaktik asari haqida ham shu fikrni ayta olamiz

Adabiyotlar:

1. Sidqiy Xondayliqiy. Tanlangan asarlar.-T.: “Ma’naviyat”, 1998. - 304 b.
2. Asilov A. Sirojiddin Maxdum- Sidqiy Xondaqliqiy.(Roman, g‘zallar) – T.: “G‘afur G‘ulom”, 2019. 173- bet.
3. Javharova R. Sirojiddin Sidqiy Xondaqliqiyning adabiy merosi. Filol. fan. nom. diss. – T.: 1996.
4. “Zarbulmasali Sidqiy”. Sidqiy Xondayliqiy. O‘zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondi №7631.

“ROHATI DIL” DOSTONINING QO‘LYOZMA VA TOSHBOSMA NUSXALARI TAVSIFI VA QIYOSIY TAHLILI

Komilxon BOKIEV

O‘zR FA Davlat adabiyot muzeyi tayanch doktoranti

Annotatsiya. Huvaydoning “Rohati dil” asari qo‘lyozma va toshbosma nusxalari haqidagi ilmiy maqola an’anaviy sharq adabiyoti hamda qo‘lyozma madaniyatini o‘rganish borasida muhim ahamiyatga ega. Quyida keltirilgan ilmiy maqola ana shu asarning turli nusxalari va ularning o‘rganilishiga bag‘ishlangan. Ushbu maqolada nusxalarning tavsifiga oid ba’zi ma’lumotlar keltiriladi. Shu bilan birga, nusxalar o‘rtasidagi farqlar, o‘xshashliklar va ularning adabiy hamda madaniy ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *manba, manbashunoslik, matn, matnshunoslik, adabiyotshunoslik, nashr, noshirlik, nashryot, tadqiqot, tahlil.*

Annotation. The scientific article about the manuscript and lithograph copies of Huvaydo's work «Rohati dil» holds significant importance in the study of traditional Eastern literature and manuscript culture. The following article is dedicated to various copies of this work and their examination. It provides some details on the descriptions of the copies. Additionally, the differences and similarities between the copies, as well as their literary and cultural significance, are analyzed.

Keywords: source, source studies, text, textology, literary studies, publication, publishing, publishing house, research, analysis.

Аннотация. Научная статья о рукописных и литографированных копиях произведения Хувайдо «Рохати дил» имеет большое значение для изучения традиционной восточной литературы и рукописной культуры. Данная статья посвящена различным копиям этого произведения и их изучению. В статье приведены некоторые сведения, касающиеся описания копий. Также раскрыты различия и сходства между копиями, а также их литературное и культурное значение.

Ключевые слова: источник, источниковедение, текст, текстология, литературоведение, публикация, издательское дело, издательство, исследование, анализ.

Sharq madaniyati va adabiyoti tarixida qo‘lyozma kitoblar katta o‘rin tutadi. Ular o‘z zamonasida nafaqat bilimlarni saqlash va uzatish vositasi, balki ijodiy izlanishlar, tarixiy hujjatlar va ijtimoiy hayotning guvohi sifatida ham xizmat qilgan. Xorazmlik shoir Huvaydoning “Rohati dil” asari ana shunday nodir qo‘lyozmalardan biri bo‘lib, uning toshbosma nusxalari ham mavjuddir. Ushbu maqolada Huvaydoning “Rohati dil” asarining qo‘lyozma va toshbosma nusxalari tahlil qilinadi, ular o‘rtasidagi farqlar va o‘xshashliklar, shuningdek, bu nusxalarning ilmiy ahamiyati yoritiladi.

Huvaydo XVII asrda yashagan mashhur shoirlardan bo‘lib, u o‘zining doston va g‘azallari bilan Sharq adabiyotida muhim o‘rin tutadi. Uning «Rohati dil» asari esa, ruhiy ozuqa va ma‘naviy madad beruvchi dostonlardan biri hisoblanadi. Asar zamonaviy va an‘anaviy o‘quvchilar orasida qiziqish uyg‘otib, turli davrlarda ko‘plab nusxalari yaratildi.

“Rohati dil” asarining bir nechta qo‘lyozma nusxalari mavjud bo‘lib, ularning aksariyati davlat kutubxonalari va muzeylar fondlarida saqlanadi. Har bir qo‘lyozma o‘ziga xos dizayn va bezaklarga ega, matnning ayrim joylarida muallifning o‘zi yoki nusxa ko‘chirish jarayonida amalga oshirilgan qo‘shimcha tuzatishlar uchrab turadi. Qo‘lyozmalarni tadqiq etish asarda davrning uslubiy xususiyatlarini o‘rganish imkonini beradi.

XIX asrning o‘rtalariga kelib, qo‘lyozma madaniyatini toshbosma kitoblar almashtira boshladi. Huvaydoning “Rohati dil” asari ham toshbosma usulida chop etilgan. Toshbosma nusxalarining asosiy afzalligi ularning kengroq tarqalishi va narxining arzon bo‘lishidir. Ammo toshbosma jarayonida ba‘zi joylarda matnning to‘g‘ri yozilishi, qo‘lyozmadagi bezaklar va nafosat yo‘qolishi mumkin edi.

Huvaydoning “Rohati dil” asarining qo‘lyozma va toshbosma nusxalarini o‘rganish asarda sodir bo‘lgan matn o‘zgarishlarini tahlil qilish imkonini beradi. Qo‘lyozma nusxalarida asarning original uslubi va muallifning o‘z g‘oyalari ko‘proq saqlanib qolgan bo‘lsa, toshbosma nusxalari keng ommaga etkazishda katta ahamiyat kasb etadi.

Huvaydoning “Rohati dil” asarining qo‘lyozma va toshbosma nusxalarini o‘rganish nafaqat o‘zbek adabiyoti, balki umumiy madaniy merosni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bu asar nafaqat badiiy, balki tarixiy va ma‘naviy ahamiyatga ham ega bo‘lib, uni o‘rganish kelajak avlodlar uchun katta ilmiy qiziqish uyg‘otishi aniq.

Qo‘lyozma nusxalar o‘rta asrlar madaniyati va adabiyoti bilan tanishishning noyob imkoniyatini beradi. “Rohati dil” asarining mavjud qo‘lyozma nusxalari bir nechta asosiy xususiyatlari bilan ajralib turadi:

1. Materiallar va bezaklar:

Qo‘lyozma nusxalari asosan qo‘l bilan yozilgan bo‘lib, o‘sha davrning yuqori sifatli qog‘ozi va bo‘yoqlaridan foydalangan. Sahifalar ko‘pincha tilla va kumush naqshlar bilan bezatilgan, bu esa asarga alohida badiiy qiymat qo‘shgan. Matnlar orasida oltin suvi yuritilgan ramkalar, gulli naqshlar va geometrik bezaklar qo‘llanilgan. Ayrim qo‘lyozmalarda boshlang‘ich sahifalar an‘anaviy miniatyura san‘ati bilan bezatilgan bo‘lib, bular o‘sha davr sharqiy badiiyati yuksak darajasini aks ettiradi.

2. Matnning joylashuvi va shriftlari:

Qo‘lyozmalarda matn odatda muayyan tuzilishga ega bo‘lgan. Odatda sahifalarda matn markazga yaqin joylashgan va atrofida bezaklar o‘rin olgan. Harflar estetik jihatdan chiroyli yozilgan bo‘lib, har bir nusxa ko‘chirgichning mahoratiga bog‘liq ravishda turlicha uslublarda yozilgan. Ba‘zi nusxalarda harflarning shriftlari o‘zgacha tarzda ishlangan bo‘lib, ular asarning ilohiy va ruhiy mazmunini yanada boyitgan.

3. Nusxalarning geografik tarqalishi:

“Rohati dil” asarining qo‘lyozma nusxalari ko‘proq Markaziy Osiyo va Hindiston kutubxonalarida uchraydi. Ular ko‘pincha davlat yoki shaxsiy to‘plamlarda saqlangan va o‘sha davrda keng tarqalgan madaniy va diniy axborotni o‘zida mujassam etgan.

XIX asrning o‘rtalaridan boshlab toshbosma usuli qo‘llanila boshlagach, qo‘lyozma asarlarning tarqalishi yanada ommaviylashdi. Huvaydoning “Rohati dil” asari ham bu jarayondan chetda qolmadi va toshbosma nusxalari keng tarqaldi. Toshbosma nusxalari quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi:

1. Matbaa usuli va qog‘oz sifati:

Toshbosma nusxalari oddiy qog‘ozga bosilgan va qo‘lyozmalarga qaraganda kamroq bezaklar bilan ta‘minlangan. Odatda, matbaa texnologiyasi sababli sahifalar sodda, faqat matnli bo‘lib, bezaklar deyarli uchramaydi. Bu kitoblarning narxini pasaytirgan va keng ommaga etib borishini ta‘minlagan.

2. Matnning shakli va tartibi:

Toshbosma nusxalarida matn bosma harflarda, odatda oddiy shriftlarda joylashtirilgan. Matnlar to‘g‘ri va aniq tartibda bo‘lib, ular o‘quvchiga oson va tez o‘qiladigan qilib chop etilgan. Ayrim nashrlar ortiqcha badiiy bezaklarsiz, sof matn sifatida berilgan bo‘lsa, boshqa ba‘zi nashrlarda esa minimal dekorativ elementlar qo‘llangan.

3. Toshbosma nusxalarning tarqalishi va ahamiyati:

Toshbosma nusxalarining tarqalishi keng bo‘lib, ular O‘rta Osiyo, Eron, Hindiston va boshqa musulmon mamlakatlarida keng tarqalgan. Bu nusxalar qo‘lyozmalarga qaraganda ommaviyroq bo‘lib, madaniyat va diniy kengroq jamoatchilikka etkazish imkonini bergan. Toshbosma kitoblarning mavjudligi asarning saqlanishida muhim rol o‘ynagan.

Qo‘lyozma va toshbosma nusxalar o‘rtasidagi asosiy farqlar texnik jihatlarga borib taqaladi. Qo‘lyozmalar san‘at asari sifatida qaralgan bo‘lsa, toshbosma nusxalar ko‘proq axborotni ko‘proq kishiga etkazish vositasi sifatida foydalangan. Qo‘lyozmalarda matnning original shakli va uslubi saqlangan, toshbosma nusxalar esa zamonaviylik va amaliylik nuqtai nazaridan qayta ishlangan. Bu tavsif Huvaydoning “Rohati dil” asarining qo‘lyozma va toshbosma nusxalarining xususiyatlari haqida umumiy tushuncha beradi.

Sharq adabiyotining yirik vakili Huvaydoning “Rohati dil” asari diniy va falsafiy mavzularni o‘zida mujassam etgan, zamonlar osha madaniy va ilmiy meros sifatida saqlanib kelayotgan asardir. Bu asarning qo‘lyozma va toshbosma nusxalari davr va madaniyat o‘zgarishlarining ko‘zgusi sifatida alohida ilmiy ahamiyatga ega. Ushbu maqolada Huvaydoning “Rohati dil” asarining qo‘lyozma va toshbosma nusxalari qiyosiy tahlil qilinadi, ularning farqlari, o‘xshashliklari va tarqalish jarayonidagi rolini yoritib berish maqsad qilingan.

Qo‘lyozma nusxalari madaniy va badiiy jihatdan boy merosga ega. Ushbu nusxalarda san‘atning nafosati va matnning ilohiy mazmuni o‘zaro uyg‘unlashgan. Quyida ushbu nusxalarning asosiy xususiyatlariga to‘xtalib o‘tamiz:

1. Matnning original shakli va badiiy uslubi:

Qo‘lyozmalarda asarning original matni saqlanib qolgan bo‘lib, uni yaratish jarayonida nusxa ko‘chiruvchilar o‘ziga xos badiiy uslublardan foydalangan. Har bir qo‘lyozmada asarning ayrim xatolarini tuzatish yoki bezaklar bilan boyitish jarayonlari mavjud bo‘lib, ular muayyan davr va joydagi ijodiy an‘analarni aks ettirgan.

2. Estetik jihatlar va san‘atning roli:

Qo‘lyozmalar san‘at asarlari sifatida qaralgan. Sahifalarning badiiy bezaklari, naqshlar va ranglar asarning ilohiy ma‘nosini yanada chuqurlashtirgan. Ayniqsa, qo‘lyozmalarda qo‘llanilgan ranglar va naqshlar Sharq madaniyatiga xos nozik va nafis san‘atni namoyish etgan.

3. Qo‘lyozmalarning ijtimoiy va diniy ahamiyati:

Qo‘lyozma nusxalari ko‘pincha muhim diniy va ilmiy to‘plamlar tarkibida saqlangan. Ular asarni o‘qish bilan birga, uni ko‘chiruvchilar va foydalanuvchilar uchun diniy va ruhiy madad manbai bo‘lib xizmat qilgan.

XIX asrning o‘rtalariga kelib, toshbosma usuli matnlarni kengroq ommaga etkazish vositasi sifatida qo‘llanila boshladi. Toshbosma nusxalar “Rohati dil” asarining tarqalishida katta rol o‘ynagan, biroq bu nusxalar qo‘lyozmalardagi ayrim badiiy elementlarning yo‘qolishiga ham olib kelgan.

1. Oddiylashgan matn va oson o‘qilishi:

Toshbosma nusxalari qo‘lyozmalardan farqli o‘laroq, sodda va keng ommaga tushunarli bo‘lishi uchun maxsus formatda chop etilgan. Matn aniq shriftlarda joylashtirilgan va qo‘lyozmalardagi bezaklar kamroq ishlatilgan.

2. Narx va qulaylik jihatidan ustunlik:

Toshbosma nusxalari qo‘lyozmalarga qaraganda arzonroq va ko‘proq sonlarda nashr etilgan. Bu esa ularning keng tarqalishiga va diniy bilimlarning ko‘proq odamlar orasida yoyilishiga imkon yaratgan. Toshbosma nusxalar asarning ommaviy o‘qilishi uchun xizmat qilgan va ulamolar va oddiy o‘quvchilar orasida keng tarqalgan.

3. Toshbosma nusxalarning ommaviy madaniyatdagi o‘rni:

Toshbosma nusxalar ilmiy va diniy merosni saqlab qolishda muhim rol o‘ynagan. Ular muallifning original maqsadini saqlagan bo‘lsa-da, ko‘plab estetik va individual elementlarni yo‘qotgan.

Qo‘lyozma va toshbosma nusxalarning qiyosiy tahlili ularning o‘z davrlaridagi ilmiy va ijtimoiy ahamiyatini aniqlash imkonini beradi.

1. Matnning badiiyliigi:

Qo‘lyozmalarda matnning badiiy bezaklari va estetik sifati yuqori bo‘lib, asarning ilohiy va ruhiy mazmunini yanada chuqurroq anglashga yordam bergan. Toshbosma nusxalar esa bu jihatni deyarli yo‘qotgan, faqatgina matnning oddiy va ommaviy shaklini taqdim etgan.

2. Tarqalish va ommalashish:

Qo‘lyozmalar asosan zodagonlar va bilimdonlar orasida keng tarqalgan bo‘lsa, toshbosma nusxalar oddiy xalq orasida keng tarqalgan. Bu toshbosma kitoblarning narxining arzonligi va ko‘p miqdorda chop etilishi bilan izohlanadi.

3. Matn o‘zgarishlari va saqlanishi:

Qo‘lyozmalarda ko‘plab nusxa ko‘chirish jarayonida xatolar yoki muallifga tegishli bo‘lmagan o‘zgartirishlar uchrashi mumkin edi. Toshbosma nusxalarda esa matnning bir xil va to‘g‘ri saqlanishi ta‘minlangan, bu esa ilmiy tadqiqotlarda ularni qo‘lyozmalarga nisbatan ishonchliroq manba sifatida foydalanishga yordam beradi.

Huvaydoning “Rohati dil” asarining qo‘lyozma va toshbosma nusxalari o‘rtasidagi qiyosiy tahlil bizga ularning har biri o‘z davrida qanday ilmiy, diniy va madaniy ahamiyatga ega bo‘lganini anglashga yordam beradi. Qo‘lyozmalar asar yaratish jarayonidagi individual ijodiylik va estetik go‘zallikni aks ettirsa, toshbosma nusxalar matnning keng tarqalishi va saqlanishida muhim rol o‘ynagan. Ushbu tahlil orqali har ikki turdagi nusxalar ham Sharq madaniy merosini saqlashda o‘ziga xos va tengsiz hissa qo‘shganini ko‘rishimiz mumkin.

Ushbu maqola asarni qo‘lyozma va toshbosma shakllarda o‘rganishni istaganlar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Хувайдо. “Роҳати дил”. Тошкент, “ Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994 (кириш сўзи муаллифи: Саидбек Ҳасанов).

2. Хувайдо. “Роҳати дил”. Тошкент, Илин. 1907.

3. Хувайдо. “Роҳати дил”. Тошкент, “Наврўз”, 2011. (Табдил қилувчи нашрга тайёрловчи ва сўз боши муаллифи Қодиркул Рўзमतзода)

4. Хувайдо Хўжаназар Г‘оибназар ўғли. “Роҳати дил”. “Абдулла Қодирий номидаги халқ нашриёти”. Т.: 1994.- 124 бет. (Нашрга тайёрловчи ва сўз боши муаллифи Саидбек Ҳасанов, Нилуфар Жуванмардийева).

5. Қосимов Б. “Хувайдо”. “ Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти”, Тошкент: 14-том.

SALOHİY QALAMIGA MANSUB “GUL VA BULBUL” DOSTONI BIR QO‘LYOZMA NUSXASINING MANBAVIY TADQIQI

Bilolxon ABDULLAYEV

O‘zR FA Davlat adabiyot muzeyi tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada XVIII asr Qashg‘ar (Qoshg‘ar)da yashab ijod etgan Salohiy nomli ijodkor qalamiga mansub bo‘lgan “Gul va bulbul” dostonining manbaviy tadqiqi borasida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Manba, nusxa, qo‘lyozma, toshbosma, gul, bulbul, muqova, sahifa, kotib, muallif.

Abstract. This article deals with the source research of the epic "Flower and Nightingale" written by an artist named Salahi who lived in Kashgar (Kashgar) in the 18th century.

Key words: Source, copy, manuscript, lithograph, flower, nightingale, cover, page, scribe, author.

Salohiy Koshg'ariy qalamiga mansub bo'lgan "Gul va Bulbul" asari o'zbek epik she'riyatida muhim o'rin tutadi. Asar XVIII asrda yaratilgan bo'lsada keyingi davrlarda uning bir necha qo'lyozma nusxalari turli kotiblar tomonidan ko'chirilgan. Asarning nusxalarining ko'pligi va bu nusxalar o'rtasida ko'plab tafovutlar mavjudligi shu kabi xulosalarga kelishga sabab bo'ladi. Salohiyning ushbu asari keyingi davrlarda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. XIX–XX asrlar mobaynida asarning qo'lyozma nusxalari bilan bir qatorda uning toshbosma nusxalari ham bosildi. Birgina Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida bu asarning 20 dan ziyod toshbosma nusxalarining borligi ham asarning ijod ahli va omma orasida ham nechog'lik yuksak qiymatga ega ekanligining tasdiqidir. O'z navbatida nusxalarning ko'pligi va ular o'rtasida keskin farqlarning yuzaga kelishi asar qo'lyozma va toshbosma nusxalarini manbashunoslik va matnshunoslik aspektida o'rganilishi kerakligini anglatadi.

Salohiy "Gul va bulbul" dostonlari nusxalarining eng to'liq va mukammal nusxalaridan biri sifatida baholanayotgan mazkur nusxa O'zR FA ShI asosiy qo'lyozma fondida 3402 inventar raqami ostida saqlanmoqda. Manbaning umumiy holati haqida so'z borar ekan, uning nisbatan yaxshi saqlanganligini alohida ta'kidlash joiz. Nusxaning o'lchami 15x25,5 sm o'lib, nastaliq xatida qora siyoh bilan bitilgan, umumiy hajmi 89 varaqni tashkil etadi. Manba muqovasi odatdagidan ko'ra qalinroq karton qog'ozdan ishlangan. Muqovaning old va orqa qismlari rangli naqshlar bilan bezatilgan. Muqovalar teri bilan o'zaro mahkamlangan. Muqovaning old qsmning yuqori chap burchak qismida shikastlanish mavjud, shu sababdan ushbu o'rinni ta'mirlash maqsadida qizil qog'oz bilan qoplangan. Muqovada manbaning inventar raqamini aks ettirgan ikkita qog'oz bo'lakchasi yopishtirilgan. Muqovadan keyingi ilk varaq qolgan varaqlardan tubdan farq qiladi. Chunki mazkur varaq XX asrning ikkinchi yarmida ishlab chiqarilgan bo'lib, keyinchalik manbaga birlamchi ishlov berish jarayonida yopishtirilgan degan xulosaga kelish mumkin. Ushbu varaqning old sahifasi bo'sh, ammo orqa sahifasida asar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan:

"Mazkur kitob Salohiy Koshg'ariyning Gul va Bulbul degan asari bo'lib, 89 varaq yozilmish va ko'chirish tarixi yili ko'rsatilmagan. Ammo yozilgan yilni muallif tubandagi bayt bilan ko'rsatgan:

*Bo'lib fayzi bahor Koshg'ardin,
Oling tarix dard ishqiyotdin.*

Bu baytda "tarixi dard ishqiyot" bo'lib abjad hisobi bilan hisoblab chiqq'onda hijriy yilning 1026-yili milodiy 1617-yilidur. Demak, muallif asarni 1089-yilda (1678) yozg'onlig'i ma'lum". Mazkur ma'lumotlar arab alifbosi namunasidagi eski o'zbek tilida yozilgan. Ushbu ma'lumotlarning so'ngida "O'zbekiston sharqshunoslik instituti ilmiy hodimi Somon Karif. 3/III. 75.z." degan jumla yozilgan.

Ushbu jumladan anglash mumkinki, asar haqidagi yuqoridagi ma'lumotlar 1975-yil 3-mart sanasida institutning ilmiy hodimi tomonidan taqdim etilgan. Berilgan ma'lumotlarga tayaniladigan bo'lsa, asar 1678-yili Qashg'arda yaratilganligi ma'lum bo'ladi.

Kartateka ma'lumotlariga qaraganda manbada ikki asar jamlangan. Dastlabki asar "*Hikmatli so'zlar*" nomi bilan atalgan. Kartateka ma'lumotlari va yana manbaning dastlabki varag'ining old qismida ham ayni nom arab alifbosi namunasidagi eski o'zbek yozuvida keltirilgan. Manbadan o'rin olgan dastlabki asar birinchi sahifadan to o'ninchi sahifaga qadar davom etgan. "*Hikmatli so'zlar*" 1a sahifadan basmala bilan boshlanadi. Asar matnlari har to'liq sahifaga 13 qaror ko'rinishida ifodalangan. Shuni aytib o'tish joizki, hikmatlar matnlari nazmda emas, balki nasrda bitilgan. Asarning har varaqning "b" sahifasiga poygilar qo'yib borilgan. Poygirlarning qo'yilishi o'ziga xos. Aniqroq aytiladigan bo'lsa, odatda poygirlarning askari "b" sahifaga yuqoridan pastga qarab gorizontol harakat bilan qo'yiladi. Ammo mzkur manbada poygir pastdan yuqoriga gorizontol holatda qo'yilgan.

10a sahifadan "Gul va Bulbul" dostoni basmala bilan boshlanadi. Ayni shu sahifada manbaning inventar raqamini aks ettirga muhr mavjud. basmaladan so'ng na't qismi keladi va u 19 baytni tashkil etadi. N'atning 18-baytining dastlabki misrasida xato yozilgan so'z ustidan chizilib, uning to'g'ri variantini yon xoshiyaga yozib qo'yilgan. Na'tdan so'ng "*Alqab chahoriyor ridvanullohi a'layhim ajmai'n*" boshlanmasi ostida to'rt halifa madhi keltiriladi va bu bo'lim 22 baytdan iborat. Asarning qolgan nusxalaridan yana bir ustun jihati uning tarkibida keluvchi hamd va na't qismlari ham Salohiy, ya'ni asar muallifiga tegishliligidir. Qolgan nusxalardagi barcha hamd va na'tlar asar muallifiga tegishli bo'lmay, balki kotiblar tomonidan yozilgan. To'rt halifa madhidan so'ng "*Munojot badargohi qoziyul hojat*" sarlavhasi bilan Salohiyning yaratganga munojoti ifoda etiladi (31 bayt). Munojot matnlari joylashgan o'n ikkinchi varaqning "b" sahifasi bo'sh. Ammo bo'sh sahifaning quyi chap burchagiga poygir qo'yilgan. 13b sahifa "*Mulla G'urbatiyning aytqon Guli Bulbul kitobini Muhammad Abu Salohiy aytibdur deb nazmhoyi shirin va hikoyat baqosi rangin bila to'la qilib, toza qilg'oni*" boshlanmasi bilan boshlanadi. Ushbu sarlavha mazmunini idrok qilinsa, asar Mulla G'urbatiyning "Gul va Bulbul"iga nazira sifatida bitilganligi anglashiladi. Yuqoridagi sarlavha ostida ifodalangan baytlar zamirida G'urbatiga nazira bitish sabablari ochiqilanadi. Shundan so'ng odamning yaratilishi, Odam alayhissalom va Momo Havoning jannatdan quvilishi va ularning afv etilishi va shu kabi voqealar bayon etiladi. Mazkur voqealar 15a sahifadan to 34-sahifaga qadar "*Hudoyi Taolo hazrati Odam alayhissalom afariyda qilurg'a iroda qilg'oni. Farishtalar hazrati Odam alayhissalomni xalq qilinishini man qilg'oni. Hudoyi Taolo "Ana a'lamu ma la ta'lamun" deb Odam alayhissalomni afariyda qilg'oni*"(15a,b sahifa); *Xudoyi Taolo hazrat Odam alayhissalomning jismig'a ruhn kurguzub, jon berub tirguzgoni, rahmatini hazrat Odam alayhissalomg'a a'to qilg'oni, farishtalar rashk qilg'oni*" (18b, 19a sahifalar); *Xudoyi Taolo hazrati Odam alayhissalomg'a farishtalarni sajda qil deb amr qilg'oni, Azozil sajda qilmag'oni, gardaniga tavqi la'nat tushgoni, Xudoyi Taolo Azozilni shayton qilib, dargohidan qug'lag'oni*" (21a,b sahifalar); *hazrati Odam alayhissalom bug'doyni egonlari, behishtning toji hullasi ketib, birahna qolg'onilari. Behishtning daraxtlaridan barg tilagonlari, anjir bargni berib pushish qilg'onlari, Xudoyi Taolo hazrat Odam alayhissalomni*

bu dunyog'a chiqarg'oni" (26a,b sahifalar); hazrati Odam alayhissalomning bu dunyoda yig'lab yurgonlaari, har kun osmong'a boqib, arshni ko'rgonlari, arshda hazrat Muhammad rasulullohning otlarining kurub, hayratda qolg'onlari, Muhammad rosulullohni shafe' kelturub, Xudoyi Taolo gunohlaridan o'tg'oni" (29a sahifa) kabi 9 ta boshlanmalar bilan beriladi. Odam alayhissalom va u zot bilan bog'liq voqealar 34a sahifada yakuniga etadi. Mazkur sahifada "*Bu dunyo g'addor-u ajuz makkorning bebaqoliqining bayoni*" nomli boshlanmasi ostida dunyoning o'tkinchiligi borasida muallif qarashlari bayon etilsa, keyingi faslda hazrati Mustafoga alqov, ya'ni na'tga o'rin ajratiladi va yana insonning Alloh Subhanahu va Taolo uchun suyukligi borasida berilgan fikrlar bilan hamd, na't va odamning yaratilishi va bu bilan bog'liq ma'lumotlari yakuniga etadi (43b sahifa).

Yuqoridagi ba'zi o'rinlarda ta'kidlab o'tilishi kerak bo'lgan ayrim tuzatishlar mavjud. Bunday o'rinlar 22b hamda 17b sahifalarda ko'zga tashlanadi. So'z yuritilayotgan Hamd va na't qismlari o'rin olgan 36, 43-varaqlarining o'ng yon xoshiyalari qirqilgan bo'lib, bu ham aytilib o'tilishi kerak bo'lgan jihatlardan biri sanaladi. Alohida ta'kidlanishi kerak bo'lgan o'rinlardan yana biri hamd, na't va odamni yaratilishi xususidagi ma'lumotlarning barchasi asarni istifoda etgan shaxs bo'lmish Salohiy qalamiga mansubdir. Chunki yuqorida zikr etilgan har bir qism so'ngida o'ziga murojat etish o'laroq asar muallifi o'z ismini keltiradi. Doston asosiy voqealari 43b sahifadan boshlanadi. Dastlab "*Sababi nazmi kitob*" sarlavhasi bilan asarning yaratilish sababi izohlanadi. Qisqagina ifodalangan "*Sababi nazm*"dan so'ng "*Og'ozu doston gul bulbul*" boshlanmasi bilan gul va bulbul o'rtasidagi ishq-muhabbat mojarolari boshlanadi. Aytish joizki, har bir fasl sarlavhasi turlicha ifodalangan. Ayrim fasllrdagi boshlanmalar qalinroq xat bilan ifodalangan bo'lsa, ba'zilar esa nisbatan anchayin ingichka xat bilan insho qilingan. Jumladan, "*Sababi nazmi kitob*", "*Og'ozu doston gul bulbul*" kabi boshlanmalar juda ham ingichka xat bilan ifodalangan, go'yoki dastavval unitib tashlab ketilgan-u keyinchalik yozib qo'yilgandek taassurot uyg'otadi kishida. Dostonning asosiy voqealari boshlangan qism bo'lmish "*Og'ozu doston*"ni ajralib turishini hisobga olgani holida u joylashgan sahifa xoshiyasining o'ng qismiga gorizontol qizil chiziq tortilgan. Gul va bulbul o'rtasida bo'lib o'tadigan mojarolar "*og'ozu doston*", "*hotimat-ul kitob*" fasllari bilan jami 32 fasl va 7 g'azalni o'z ichiga oladi. Asarda g'azallar gul va askari bulbul tilidan keltiriladi. Manbada keltirilgan g'azallarning tavsifi quyidagi jadvalda keltirilgan:

G'azal nomi	hajmi	sahifasi	ijrochisi	O'qilgan holati
1. "Kel ey.."	5 bayt	44b sahifa	Bulbul	Bulbulning chamanda qushlar qoshida o'qug'on g'azali
2. "Eshitdim ersa bo'ldim zor, ey gul"	5 bayt	45b sahifa	Bulbul	Bulbulning sabodan aytib yuborgon g'azali

3. “Bihamdullah, agarchi zor bo‘ldum”.	5 bayt	47a sahifa	Bulbul	Bulbulning gul qoshig‘a borurda yo‘lda o‘qug‘on g‘azali
4. “Na o‘t solding jonimga, mehribonim”	5 bayt	49b sahifa	Bulbul	Bulbulning chamanzorda guli qahqahga o‘qug‘on g‘azali
5. “Ayo bulbul, bu ko‘nglum mehriboni”	6 bayt	51a, b sahifalar	Gul	Gulning sabodin bulbulning firoqida aytib yuborgon g‘azali
6. “Firoqingda, ayo gul, kuydi ey jon”	6 bayt	57a sahifa	Bulbul	Bulbul chamanzorda qizil gulning firoqida o‘qig‘on g‘azali
7. Sanga, ey gul, emdi qilay izhor”	5 bayt	85a sahifa	Bulbul	Bulbulni gulistong‘a kelib o‘qig‘on g‘azali

Ilgari zikr etilganidek manbada sarlavhalar turlicha berilgan. Asosiy voqealar bayon etuvchi fasllar ham bundan mustasno emas. Dostonda keltirilgan har bir obraz bilan kechadigan voqealar alohida fasllarda tasvirlangan. Asarda bulbul, gul sabo va guli qahqahdan tashqari humoyun, tovus, to‘ti, kabki, qumri, fohtak, so‘fiyo, hudhud, bog‘bon kabi obrazlar keltiriladi. Ayni obrazlar bilan kechadigan voqealarning har biri alohida sarlavha bilan ketma-ketlikda keltiriladi. Asosiy voqealar ifoda etilgan fasllarning xat uslubiga e‘tibor berilsa, ularning turli ko‘rinishda ekanligiga guvoh bo‘linadi. Mazkur manbaning hattoti asar matnlarini ko‘chirishda ma’lum tartibga amal qilmagan. Ya’ni ayrim sahifalarda baytlar soni 13 tani tashkil etsa, ba’z o‘rinlarda 15 tani va yana boshqa bir o‘rinda 11 tani tashkil etgan. Misol uchun, 65a sahifada misralar orasidagi bo‘shliqlar katta tashlanishi hamda harflarni odatdagiga nisbatan kattaroq o‘lchamda imlo qilinishi evaziga sahifadagi baytlar miqdori odatdagi kabi 13 ta emas, balki 11tani tashkil etgan. Asli mazkur manbaning boshlanishdan katta qismi sahifadagi baytlarni 13 talik ko‘rinishda ma’lum izchillikka ifodalanayotgan edi. Biroq bu izchillik asosiy voqealar aks etgan sahifa matnlarida inobatga olinmagan. Manbaning boshlanish qsmidan 64b sahifaga qadar sahifalarda voqealar 13 bayt ko‘rinishida ifodalab kelingan bo‘lsa, 65a sahifadan boshlab 11 bayt ko‘rinishida berib borilgan. Baxsi kechayotgan bo‘limlarda bir necha xatolarga yo‘l qo‘yilganligi barobarida ularni o‘ziga xos tarzda tuzatilgan ham. Masalan, 51a sahifada “*Judoliqdin yuragim ishtiyogi*” misrasidagi “*yuragim*” so‘zi ustiga chisiz uning ustiga “*dog‘i dard*” birikmasi yozib qo‘yilgan. Shu asnodda xato to‘g‘irlangan. Shu kabi holat 58a sahifada ham ko‘zga tashlanadi. Bu o‘rinda xato yozilgan so‘z ustiga chizilgan, lekin so‘zning to‘g‘ri varianti chizilgan so‘z ustiga emas, balki sahifa xoshiyasiga to‘g‘irlab ketilgan. Bunday o‘rinlar 60a,b; 61a; 80b; 85b sahifalarda ham uchraydi.

Manbada asosiy voqealar o‘rin olgan sahifalarda ham zararlangan o‘rinlar ko‘zga tashlanadi. Chunonchi, 62-varaqning o‘ng yon xoshiyasi vertikal shaklda

qirqib olingan. Natijada sahifadan o‘rin olgan baytlar matnlarining so‘nggi harflarining oz qismi ham qirqilib ketgan. Bunday zararlngan o‘rinlar boshqa ko‘zga tashlanmaydi. Manba boshqa nusxalardan manbaning holati bo‘yicha ham, asar voqealarining to‘liq holda ifodalanishi kabi bir necha jihatlardan ustun hisoblanadi. Manbaning eng e‘tiborli jihatlaridan biri undagi hamd va natlarning ham asar muallifiga tegishli ekanligidir.

Asarni nihoyalovchi qismi “Tummat ul kitob” qismi 89a sahifada joylashgan va shu bilan asar nihoyalangan. Biroq 89b sahifada bir necha baytlar bitilgan. 89-varqdan so‘ng raqamlanmagan varaqning old va orqa tomonida ham bir necha baytlar yozilgan. Bu baytlarni asarga aloqasi yo‘q. Ammo mazkur baytlarni manba kotibiga tegishli degan gumon ham qilinishi mumkin. 89b sahifada bir necha baytlar bitilgan mazkur baytlar ostiga Mulla Ali Muhammad Hamdam ismi yozib qo‘yilgan. Ehtimolki, yuqorida nomi zikr etilgan shaxs mazkur baytlar muallifi bo‘lgani holda “Gul va bulbul” dostonining kotibi bo‘lishi ham haqiqatdan yiroq emas.

Adabiyotlar:

1. كل و بلبل O‘zR FA ShI qo‘lyozmalar Asosiy fondi. Inv: №3402
2. Навоий асарлари луғати. Тузувчилар: П. Шамсийев, С.Муталлибов. Ғафур Ғулум номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. – Тошкент, 1972.

MUMTOZ ADABIYOTNI O'RGANISHDA NAZARIY YONDASHUV VA METODLAR

QO'QON ADABIY MUHITI NAMOYONDALARI IJODIDA MUMTOZ AN'ANALAR (XIX asr oxiri – XX asr boshlari)

Qo'ldosh PARDAYEV

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori, f.f.d.

Annotatsiya. Milliy uyg'onish davri Qo'qon adabiy muhiti namoyandalari ijodida mumtoz an'analar, xususan devon tuzish, nazirago'ylik, qasidago'ylik, dostonnavislik, ikki tillilik (zullisonayn) an'analar munosib davom ettirilganligi, shoirlar adabiy davrasi, ularda mushoaralar uyushtirilganligi va xos xususiyatlari, ijodkorlarning salaflari va zamondoshlari g'azallariga taxmis bog'lashi haqida muhim ilmiy-nazariy xulosalar chiqarilgan.

Kalit so'zlar: Nashr, shoir, misra, bayt, taxmis, adabiy muhit, obraz, talqin, tahrir, qo'lyozma, g'azal, she'r, Turkiston.

Abstract. In the work of representatives of the Kokan literary environment of the period of national renaissance, the classic traditions, in particular the creation of a devan, Naziragoism, qasidagoy, epic writing, bilingualism (zullisayn) traditions, the literary circle of poets, and the organization of musharas in them and important scientific-theoretical conclusions were made about their characteristics, the authors' attributions to the ghazals of their predecessors and contemporaries.

Key words: Publication, poet, verse, verse, takhmis, literary environment, image, interpretation, editing, manuscript, ghazal, poem, Turkestan.

Milliy adabiyotimiz tarixida Qo'qon adabiy muhitidan etishib chiqqan ijodkorlar adabiy merosi alohida o'rin tutadi. Bu adabiy muhitda devon tuzish, nazirago'ylik, qasidago'ylik, dostonnavislik, ikki tillilik (zullisonayn) kabi ko'plab mumtoz an'analar munosib davom ettirildi. Shoirlar ijodida mumtoz janrlarning barchasi saqlanib qolindi. Bu davrda ham aruz asosiy vazn bo'ldi. Madrasa ko'rganlarning deyarli hammasi arab, fors tillaridan xabardor edilar. Bu muhit namoyandalari Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Shayx Sa'diy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Muhammad Fuzuliy, Lutfiy, Navoiy, Mashrab, G'oziy, Azimiy, Amiriy singari ko'plab mumtoz shoirlar badiiy tafakkur xazinasidan ozuqa oldi. Keng ma'noni qamrab oluvchi ishq mavzui bu davrda ham she'riyatning markaziy mavzusi bo'lib qoldi. Lekin ilohiy ishq, tasavvuf g'oyalari kuchaydi. Ulardagi janrlar ko'lami va obrazlar olami ham an'anaviy bo'lsa-da, tasvir va ifoda usuli shoirlarning novatorlikka intilganidan dalolat beradi.

Qo'qonda Muqimiy, Muhyi, Furqat, Zavqiy, Nisbatiy, Muxayyir, kabilar adabiy davra tashkil etdilar. Keyinchalik, Hamza, Mirzo Ho'qandiy, So'fizodalar

qatnashdilar. Shuningdek, bu davraga Zoriy, Yoriy, Qoriy, Pisandiy, G'urbat, Rojiy, Muntazir, Shavqiy, Nodim kabilar uyushdilar. Vodiyning mashhur shoirlaridan biri, "toji shoiron" deb e'zozlangan Muhyi bo'lsa, ikkinchisi, shubhasiz, Haziniy to'ra deb ardoqlangan Ziyovuddin Haziniy edi. Xo'janddan Toshxo'ja Asiriy, Sayramdan Yusuf Saryomiy, Toshkentdan Karimbek Kamiy kabilar Qo'qondagi adabiy suhbatlarda tez-tez ishtirok etib turdilar¹²⁵.

Furqat "Ahvolot" asarida quyidagicha yozadi: "Chun yoshim soati umr shabro'zida yigirma to'rt shumorig'a etti, ul vaqt Ho'qand viloyatidagi fozilu va rasota'b kishilar birla ittihad aylab alarning suhbatidin ko'b bahralar topdim va asr shuarolarikim, chunonchi mavlono Muhyi va mavlono Muqimiy va mavlono Zavqiy va mavlono Nisbatdurlar, hamisha majlis bunyod aylab zodai ta'blarimizdin mushoira qilur erdik va bir g'azalda tatabbu' ko'rguzub, bir mazmun har nav' ifoda topar erdi. Goho hamd gulshanidin gul uzub, gohi na't naxlistonidin samarchin bo'lur erduk. Va ba'zi vaqt ishq tavsifi va husn ta'rifida g'azal mashq aylab va gohi qadimiy shuarolar devonlaridin bir sho'x g'azalni tofib, anga har qaysimiz alohida muxammas bog'lar erduk... Digar she'r arboblari bizlar suhbatimizni orzu qilib kelur edilar. Agar biror marg'ub g'azal zodai tab' o'lsa, tabiatlik kishilar nusxa so'rab olur edilar"¹²⁶. Bunday adabiy hamkorlik natijasida yaratilgan ijod namunalarni mazkur zamondosh shoirlar ijodiy merosida ko'plab uchratish mumkin. Chunonchi, Muqimiy, Nusrat, Furqat, Muhyi, Nisbat, Zavqiy birgalikda G'oziy g'azaliga bog'langan bir muxammas oxiridagi bir band fikrimizga misol bo'la oladi:

*Umid ila Muqimiy kuyida ko'p nola qildurdi,
Topib Nusrat o'zini tig'i Furqat birla tildurdi,
O'shal Muhyi qushiga Nisbatiy Zavqiyini ildurdi,
Nihon dardingni ko'z yosh tukub olamg'a bildurdi,
Giriftor o'lmasun G'oziy kabi g'ammoz yo'ldosha¹²⁷.*

Adabiyotshunos O.Jo'raboyev ham Qo'qon adabiy muhiti namoyandalari ijodida Alisher Navoiy g'azaliga taxmis qilingan muxammaslar haqida fikr yuritib, Navoiyning an'anaviy devonlariga kirmagan "Ey, jamoling lolazoru ko'zlarining ohu bara" misrasi bilan boshlanuvchi bir g'azaliga Zavqiy, Muqimiy taxmisleri xususida bunday yozadi: "O'sha davrda bir g'azalga nazira yozish yoki taxmis qilish Muqimiy boshchilik qilgan adabiy davraga xos an'ana bo'lganligi ma'lum. Fikrimizcha, mazkur taxmislar ana shunday an'ana mahsulidir"¹²⁸.

Taassufki, bu davr adabiyoti sho'rolar davrida "feodal-klerikal adabiyot (saroy adabiyoti)", "reaksion adabiyot (diniy-mistik adabiyot)", "progressiv adabiyot (demokratik adabiyot)" kabi turli nomlar bilan talqin etildi. Bu kabi

¹²⁵ Қаранг: Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У., Жабборов Н., ва бошқалар. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти дарслиги. – Т.: Маънавият, 2004, 31-бет.

¹²⁶ Фурқат. Аҳволот. //Туркистон вилоятининг газети, 1891, 16-сон.

¹²⁷ Завқий. Танланган асарлар. (Нашрга тайёрловчи Ҳ.Розоқов.) Т.: 1958, 105-бет; Завқий. "Ажаб замона. (Нашрга тайёрловчилар А.Мадаминов, А.Турдиалиев). – Т.: Шарқ, 2003, 4-бет.

¹²⁸ Жўрабоев О. Қўқон шоирларининг Алишер Навоий ғазалларига мухаммаслари (ва унга нисбат берилган айрим ғазаллар борасида). // Ўзбек тили ва адабиёти, 2009, 1-сон, 57-бет.

talqinlar sho‘ro davrida yaratilgan barcha tadqiqotlarga xos edi. Jumladan, davr taqqozasiga ko‘ra professor G‘.Karimov: “Feodal, xonlar saroyida maydonga kelgan adabiyotlarning hammasi uchun mushtarak bo‘lgan asosiy xususiyat shundan iboratki, ular badiiy ijodiyotning asosiy masalasida – turmushga adabiyotning munosabati masalasida hukmron sinflarning reaksiyon manfaatlarini himoya qilib, tarixiy haqoniyatdan ko‘z yumdi, uni bo‘yab, buzib, qing‘ir oynada ko‘rsatishga harakat qildi. Feodal-saroy adabiyotining mana shu reaksiyon ijodiy-estetik pozitsiyasidan uning formalizmga asoslangan badiiy uslubi kelib chiqadi.¹²⁹” – deya Amir Umarxon saroyidagi mushoaralar xususida to‘xtalib, Muqimiy ijodini ularga qarshi qo‘yadi.

Aslida bunday talqinlar asossiz ekanligini keyingi tadqiqotlar ko‘rsatmoqda. “Ma‘lumki, o‘zbek adabiyoti tarixini “saroy adabiyoti”dan ajratib olib tasavvur qilish mumkin emas. Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Munis, Ogahiy, Uvaysiy, Nodira kabi o‘zbek so‘z san‘atining zabardast namoyandalari ijodi bevosita saroy muhiti bilan bog‘liq bo‘lgan edi¹³⁰.”

Qo‘qon adabiy muhitida mushoara, asosan, Amir Umarxon adabiy davrasida shakllandi, rivojlandi va yaxshi samaralar berdi. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida bu ijodiy an’anani Furqat, Muqimiy, Zavqiy, Nisbatiy kabi shoirlar davom ettirdi. Bu haqda mazkur adabiy muhit tadqiqotchilaridan akademik A.Qayumov, professorlar Sh.Yusupov, N.Jabborov va adabiyotshunoslar U.Otajon, O.Jo‘raboevlarning muhim ilmiy kuzatishlari bor¹³¹.

Mushoaraning bu adabiy muhitga xos turi haqida Nodira devoni debochasida mana bunday fikrlarni o‘qiyimiz: “... goha ul hazrat ba'zi toza mazmunlardin bir misra bilan savol tariqasida so‘rar erdilar, filfavr oxiri misra bilan javob aytur erdim. Biri buldurkim, bir kun savol qildilarkim, misra:

– *Nega arbobi xirad ahli junundin ori bor?*

Javob aytdimki, misra:

– *Kim bular uryon, alarning jubbau dastori bor.*

Bu tariqa mazmunlar birla ko‘ngillarg‘a farah etkurar erdim, mundo latoyif va nazokatlar birla ro‘zgor, davlat va saltanat xush kechar erdi...¹³²”

Muqimiyning 7521-raqamli dastxat bayozida:

Va'da yolg‘onlar tilismi intizor eti meni,

Bosh ayog‘ guyo dili ummidvor etdi meni, -

deb boshlanuvchi g‘azalning to‘liq matni keltirilgan. Bu g‘azalning Furqat va Muqimiy hamkorligida yozilganligi xususida professorlar G‘.Karimov,

¹²⁹ Каримов Г. Муқимий. Асарлар тўплами. – Т.: Фафу Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974., 16-бет.

¹³⁰ Қобилова З. Амирий ва унинг адабий фаолияти. Фил.фан.номз...дисс... – Т., 2007, 14-бет.

¹³¹ Бу ҳақда қаранг: Қаяумов А. Қўқон адабий муҳити (XVIII –XIX асрлар). – Т.: Фан, 1961; Қаяумов А. Асарлар. 7-том. – Т.:Mumtoz so‘z, 2011; Юсупов Ш. Худоёрхон ва Фурқат. – Т.: Шарқ, 1995; Жабборов Н. Фурқат асарларининг қўлёзма манбалари. Фил.фан.номз. дисс.. – Т.: 1994; Отажон У. Мушоара ёхуд шеър баҳси. Т.: Мерос, 2009; Жўрабоев О. Ҳазиний тўра. – Т.: Фан, 2007.

¹³² Амирий. Девон. – Т.: Фан, 1972, 78-бет. (Нашрга тайёрловчи, М. Қодирова).

N.Jabborovlarning ilmiy kuzatuvlari diqqatga sazovordir[8; 348, 44]. Jumladan, professor N.Jabborov: "...Umuman, ikki, ba'zan uch shoirning hamkorlikda g'azal bitish hodisasi Qo'qon adabiy muhitigagina xos bo'lgan xususiyatdir"¹³³. -deya asosli fikrlarni bildiradi.

Shu munosabat bilan Muqimiy va Amiriy ijodiga to'xtalish zarurati seziladi. Muqimiy ijodida Amiriy g'azallaridan ta'sirlanib, ko'plab nazira qilingan she'rlarni uchratish mumkin.

Amiriy:

*Arzimni aytay bodi sabog'a,
Bizdan duo deng ul bevafog'a.*

Muqimiy:

*Arzimni aytay bodi sabog'a,
Shoyad gapurgay ul gulqabog'a*¹³⁴.

Ko'rinadiki, Muqimiy Amiriy g'azalidagi birinchi misrani aynan takrorlab, "tazmin" san'atini hosil qilgan. Muqimiy g'azali ham mazmun, ham badiiy tasviri bilan Amiriy g'azaliga to'la uyg'undir. Bu kabi nazira qilingan g'azallardan ma'lumki, Muqimiy ijodining ilk davridanoq salaflari ijodiga imkon boricha yaqin bo'lishga, ulardagi ravonlikni egallashga intilganini ta'kidlash kerak.

Sho'ro davridagi Muqimiy asarlar nashrida Amiriyning "mujgoning", "xo'b bo'ldi", "muborak", "shirin", "qo'zg'olmasun" radifli g'azallariga Muqimiy taxmis qilgan besh muxammas uchraydi. Taassufki, keyingi tadqiqotlar natijasi o'laroq, manbalarda qolib ketgan Muqimiyning Amiriy g'azaliga taxmis qilgan 4 ta muxammasi aniqlandi. Shundan:

*Nogah, ey mastu tag'ofil netar az ruyi karam,
So'rg'ali xastalarining holini ko'rganda qadam –*

Deb boshlanuvchi 7 bandlik muxammas Po'lotjon Domulla Qayyumovning "Tazkirai Qayyumiy" asarida nashr etilgan. Shuningdek, mazkur she'r O'zRFASHI qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan 7688-raqamli qo'lyozma bayozda (67^{a-b}-sahifa) ham berilgan. Ikkinchi yangi aniqlangan "Ko'p kezdim Arab bila Ajamni" – deb boshlanuvchi 8 bandlik muxammas A.Madaminovning 1997 yilda chop etilgan "Yangi bayoz" to'plamiga kiritilgan. Shundan so'ng A.Turdialiyev xizmati bilan nashr etilgan "Bog' aro" to'plamida ham berilgan. Uchinchi muxammas (13 band) adabiyotshunoslar A.Turdialiyev va S.Eshonovlar tomonidan "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi 2011-yil 22- aprel sonida chop etilgan. Uning dastlabki bandi qo'yidagicha:

*Garchi taxti saltanatni oshiyon etdim, Amir,
Rangi ro'yimni misoli za'faron etdim, Amir,
Qomatimni g'am yuki birlan kamon etdim, Amir,
Har nechakim fathi iqlimi jahon etdim, Amir,
Andin o'tdim, yor ko'yida makon etdim Amir.*

¹³³ Ўша манба. 44-бет.

¹³⁴ Каримов Ф. Муқимий. Асарлар тўплами. – Т.: Фафу Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974, 43-бет.

Va nihoyat, to‘rtinchi:
*Jon qushig‘a panohdur kokil,
Vaslig‘a hazor rohdur kokil,
Manga shul ishtibohdur kokil,
Nega muncha siyohdur kokil,
Magaram dudi ohdur kokil,*

– deb boshlanuvchi 5 bandli muxammas biz tomonimizdan O‘zRFAShI qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan 7521-raqamli qo‘lyozma bayozdan (56^b-sahifa) aniqlandi.

Ma‘lumki, muxammas bog‘lash shoirdan juda katta mahorat talab qiladi. Birinchi navbatda, muallif taxmis bog‘layotgan she‘rning tub mohiyatini chuqur anglab etish, uni mazmunan yanada kengaytirish talab etiladi. Muqimiyning Amiriy g‘azaliga bog‘langan barcha muxammaslari shu jihatdan yuqoridagi talablarga to‘la javob bera oladi.

Amir Umarxon yaratgan adabiy muhitdagi an‘analari XIX asr ikkinchi yarmida ham shoirlar tomonidan munosib davom ettirilgani ayni haqiqatdir. Jumladan, Fazliy Namangoniy ijodidan ta‘sir lanib, nazira tarzida yozilgan Muqimiy, Muhayyir va Muhyi g‘azallari buning dalilidir.

Muqimiy:

*Xiradimni g‘oratin aylagan yuzi oy – u sochlari xoladur,
Bu chaman aro na sanovbaru, na suman bilan guli loladur¹³⁵.*

Muhyi:

*Yozib ersa xun qadaru qazo, netar ichmayin kishi, Muhyiyo,
Manga ham, Muqiyim, shul erur g‘izo, na o‘zungga yakka
havaladur¹³⁶.* Muhayyir:

*Meni dahr bog‘ida maqsadim ne gulu, ne sunbulu, loladur,
Nazarim o‘shal xatu xol ila qadu zulfu husni jamoladur¹³⁷.*

Bu g‘azallar komili musammani solim (mutafoilun mutafoilun mutafoilun mutafoilun) vaznida yozilgan. Bu vaznning kam iste‘molda bo‘lganini Alisher Navoiy “Mezonul ul – avzon”da quyidagicha ta‘kidlaydi: “Va komil bahri bila vofir bahrida chun nazm kam voqye’ bo‘lubdur, agar solim va matbu’ bahrlardur, ammo doirasig‘a oz ta‘arruz qilibdurlar...¹³⁸”

Yoki, Muhyining Fuzuliy ijodi ta‘sirida yozilgan “bahs” radifli g‘azaliga e‘tibor qaratsak, ikki shoir g‘azallarining nihoyatda uyg‘unlashib ketganligini ko‘rishimiz mumkin:

¹³⁵ Муқимий. Асарлар тўплами. Икки томлик. 1-том. – Т.: Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1960, 48-бет.

¹³⁶ Қаранг: Юсупов Ш. Тарих ва адаб бўстони. – Т.: Маънавият, 2003, 123-бет; Муҳаммадиев А. Муҳий ижодида давр адабий анъаналари. //Ўзбек тили ва адабиёти, 2007, 3-сон, 60-бет.

¹³⁷ Муҳаййир. Девони. – Т.: 2012, 53-бет. (Нашрга тайёрловчи А.Дехқонов).

¹³⁸ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 16-том. – Т.: Фан, 2000, 57-бет. (Қаранг: Дехқонов А. Муҳаййирнинг ҳаёти ва ижоди. Фил.ф.н... дисс.. – Т.: 2007, 91-бет).

Fuzuliy:

*Xatti ruxsoring edar lutfda rayhon ila bahs,
Husni suratda jamoling guli xandon ila bahs*¹³⁹.

Muhyi:

*Orazing qildi nigoro mohitobon ila bahs,
Chashmai la'li labing ham obi hayvon ila bahs.*

Bu ikki gʻazalni muqoyasa qilsak, nafaqat qofiyasi va vazni, balki mavzusi, gʻoyaviy-falsafiy xususiyatlari, hatto radiflari ham bir hil¹⁴⁰.

Umuman, Qoʻqon adabiy muhitida mumtoz adabiy anʼanalar munosib davom ettirildi. Ayniqsa, davr shoirlari Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Amiriy, Fazliy singari koʻplab mumtoz shoirlar ijodidan taʼsirlandi va ularga ergashib, goʻzal asarlar yaratdi. Bu esa, davr adabiy muhitining oʻziga xos xususiyatlaridan biri edi.

Adabiyotlar:

1. Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У., Жабборов Н., ва бошқалар. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти дарслиги. –Т.: Маънавият, 2004. – Б.31.
2. Фурқат. Аҳволот. //Туркистон вилоятининг газети, 1891, 16-сон.– Б.409.
3. Завқий. Танланган асарлар. (Нашрга тайёрловчи Ҳ.Розоқов). –Т.: 1958.– Б.105; Завқий. “Ажаб замона. (Нашрга тайёрловчилар А.Мадаминов, А.Турдиалиев). –Т.: Шарқ, 2003.– Б.4.
4. Жўрабоев О. Қўқон шоирларининг Алишер Навоий ғазалларига мухаммаслари (ва унга нисбат берилган айрим ғазаллар борасида). // Ўзбек тили ва адабиёти, 2009, 1-сон. – Б.57.
5. Каримов Ғ. Муқимий. Асарлар тўплами. –Т.: Гафу Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974.– Б.16.
6. Қобилова З. Амирий ва унинг адабий фаолияти. Фил.фан.номз...дисс... – Т., 2007.– Б.14.
7. Амирий. Девон. – Т.: Фан, 1972.– Б.78. (Нашрга тайёрловчи, М. Қодирова).
8. Каримов Ғ. Изоҳлар /Муқимий. Асарлар тўплами. Икки томлик, II том. –Т.: Ўздавадабийнашр, 1960.– Б.348; Жабборов Н. Фурқат асарларининг кўлөзма манбалари. Фил.фан.ном. дисс... – Т.: 1994.– Б.44.
9. Муқимий. Асарлар тўплами. Икки томлик. 1-том. – Т.: Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1960.– Б.48.
10. Юсупов Ш. Тарих ва адаб бўстони. – Т.: Маънавият, 2003.– Б.123; Муҳаммадиев А. Муҳйи ижодида давр адабий анъаналари. //Ўзбек тили ва адабиёти, 2007, 3-сон.– Б.60.
11. Муҳаййир. Девони. – Т.: 2012.– Б.53. (Нашрга тайёрловчи А.Дехқонов).

¹³⁹ Фузулий. Девон. –Т.: 1961, 105-бет.

¹⁴⁰ Қаранг: Муҳаммадиев А. Муҳйи ижодида давр адабий анъаналари. //Ўзбек тили ва адабиёти, 2007, 3-сон, 60-бет.

XUSRAV DEHLAVIYNING “TUHFAT US-SIG‘AR” ASARI DEBOCHASI XUSUSIDA

Farida KARIMOVA

NamDU dotsenti, filologiya fanlari doktori

Anotatsiya. Maqolada buyuk fors-tojik shoiri Xusrav Dehlaviyning lirik merosi haqida fikr yuritilgan. Shoirning “Tuhfat us-sig‘ar” devoniga yozilgan debocha tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: devon, debocha, hamd, na‘t, devonning yaratilish tarixi, adabiy-estetik qarashlar, biografik qaydlar.

Анотация. В статье представлены идеи о лирическом наследии великого персидско-таджикского поэта Хосрав Дехлави. Также проанализированы предисловии к дивану поэта “Тухфат ус-сигар”.

Ключевые слова: диван, предисловие, хамд, на‘т, историуа созданиуа дивана, литературно-эстетические взгляды, биографические записи.

Anotation. The article presents ideas about the lyrical heritage of the great Persian-Tajik poet Khosraw Dekhlavi. The preface to the poet’s divan “Tuhfat us-sigar” were also analyzed.

Key words and word expressions: divan, preface, hamd, nat, history of the emergence of divanism, literary and aesthetic views, biographical notes.

Fors-tojik adabiyotining yirik vakili Yaminiddin Abulhasan Xusrav Dehlaviy nafaqat shoir, balki xamsanavis, tarixnavis, adabiyotshunos, bastakor sifatida o‘z zamonasida va keyingi davrlarda katta shuhrat qozongan ijodkor edi. Amir Xusrav mumtoz Sharq she‘riyatining deyarli hamma janrlarida ijod qilib, ulkan adabiy meros qoldirgan. Davlatshoh Samarqandiyning yozishicha, “Fozillar Amir Xusrav devonini jam qila olgan emaslar... Sulton Boysunqur Bahodirxon Amir Xusrav she‘rlarini jamlashda ko‘p sa‘y-harakatlar qildi va o‘sha paytda 120 ming baytdan ziyod she‘ri to‘plandi. Keyinchalik Xusrav g‘azallaridan devoniga kirmagan yana ikki ming bayt topdilar. Tahqiq qilib ko‘rdilarki, Amir Xusravning barcha she‘rlarini to‘plash amrimaholdir”.¹⁴¹ U shoirning lirik merosi hajmi xususidagi fikrlarini davom etib, Amir Xusrav risolalarining birida she‘rlarining 500 ming baytdan kamroq, 400 ming baytdan ortiqroq ekanligini ta‘kidlaganligini aytadi. Umuman, ko‘pchilik manbalarda e‘tirof etilishicha, shoirlardan hech biri o‘zidan keyin Amir Xusravchalik she‘r yozib qoldirmagan.

Xusrav Dehlaviy sermahsul ijod qildi va umri davomida yozgan she‘rlarini umr fasllariga moslab, “Tuhfat us-sig‘ar” (“Yoshlik tuhfasi”), “Vasat ul-hayot” (“Hayot o‘rtasi”), “Vasat ul-hayot” (“Hayot o‘rtasi”), “G‘urrat ul-kamol” (“Kamolotning boshlanishi”), “G‘urrat ul-kamol” (“Kamolotning boshlanishi”),

¹⁴¹ Давлатшоҳ Самарқандий. Тазкират уш-шуаро. – Тошкент: Ф. Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – Б.88.

“Baqiya un-naqiya” (“Saralarning sarasi”), “Nihoyat ul-kamol” (“Kamolot cho‘qqisi”) nomli besh devon tartib bergan:

Amir Xusravning 32645 baytdan iborat she‘riy merosi, asosan, mana shu besh devonga jamlangan. Devonlar janr e‘tibori bilan rang-barangdir. Shoirning 2000 dan ortiq g‘azallari, 300 ga yaqin qasidalari, 20 ga yaqin masnaviylari, 1200 dan ortiq ruboiylari, 500 ga yaqin qit‘alari va boshqa janrdagi she‘rlari mazkur devonlardan o‘rin olgan. Shoir o‘z devonlari bilan Sharqda mutaaddid, ya‘ni ko‘p sonli devonlar tuzish an‘anasini boshlab bergan. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy keyinchalik bu an‘anani davom ettirib, devonlarini shu tartibda tuzganlar.

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida shoir devonlarining 50 dan ortiq qo‘lyozma nusxalari mavjud bo‘lib, ularning noyob nusxalaridan biri XIV asrda ko‘chirilgan bo‘lsa, ikkinchisi mashhur lirik shoir Hofiz Sheroziy tomonidan kitobat qilingan. Yana ba‘zilari yuksak san‘atkorlik bilan ko‘chirilgan va go‘zal pardozi bilan ziynatlangan. Mazkur fondida 9661-raqam ostida shoirning kulliyoti saqlanadi¹⁴². Bu kulliyotga Amir Xusravning "Tuhfat us-sig‘ar" (1b-4b), "Vasat ul-hayot" (40b-45b), "G‘ururat ul-kamol" (106b-147b) devonlariga yozilgan debochalari, g‘azal, qasida va ruboiylari(1b-640b) kiritilgan. Mazkur nusxa hoshiyasiga uning “Xamsa”si yozilgan. Mazkur qo‘lyozmaning 1b-4b-varaqlarida “Tuhfat us-sig‘ar” devoni debochasi joylashgan. Xusrav Dehlaviy debochani hamdu sano bilan boshlaydi. Avvali-yu oxiri, ibtidosi-yu intihosi bo‘lmagan Zotga hamdu sano aytish asnosida “maxluqot va masnu’otni chiroyli yaratish bilan adam (yo‘qlik) olamidan vujud (borliq) olamiga” olib kelganligini, ular orasida insonni ulug‘ va baland rutbada yaratganligini ta’kidlaydi, borliqning yaratilishidagi yuksak mutanosiblikni vafq etadi: “Xoliqero, ki maxluqot va masnu’otro ba badoe’ va sanoe’ az katmi adam ba vujud padid oyad va dar daftari osmon va jaridai zamin bayozi nur va zulm mundarij gardonad, ki dar mohiyat va kayfiyat on qalami avsov ojiz... Ruhi oqilon dar kashfi haqiqati on bar andoxta va xil’ati sa’f ... sarosar «arlo mavt» mavt soxta. Va mulku malakutro ba sifati g‘arib kibriyo va jabarut bar andoxta. Zihi Hakime ki munajjimi hukmash chandin hazor q.... harf amr bar taxtai xok ro‘znomai aflokro istixroj kard”¹⁴³. *(Tarjimasi: “Osmon daftari-yu va zamin jaridalarini (varaqlarini) nur va zulmat bayozlari (oqu qora ranglar) bilan mundarij (izma-iz) qildiki, uning mohiyati va sifatini vafq qilishda qalam tili ojizlik qiladi. So‘ngra oqil insonlar zimmasiga uning haqiqatini kashf qilishni yukladi va doimo abadiy (Lo mavt) sir-asrorlarini uning xil’ati (to‘ni) qildi, malak va malakut (farishtalar olami) uning (insonning) ulug‘vorligi oldida past darajada qilib qo‘ydi. Qanday go‘zal Hakim zotki, o‘z hukmi bilan necha minglab harflar (ismlar)ni loydan yaratilgan inson zotiga bildirib qo‘ydi va amri bilan falaklardagi barcha sirsinoatlarni unga oshkor qildi”.* Shoir Allohning borliqni yaratishdan maqsadi inson ekanligi, shu maqsadda, avvalo, dur-u gavhar kabi yorqin Payg‘ambarimiz nurini yaratganligini, undan barcha mahluqotlar, dunyo va oxirat vujudga kelganligini madh etadi: “Ahmadro ki nuqta nadorad banazdiktarin nuqot dar

¹⁴² Хусрав Дехлавий. Куллиёт. ЎЗР ФАШИ, қўлёзма, инв. № 9661.

¹⁴³ Хусрав Дехлавий. Куллиёт. ЎЗР ФАШИ, қўлёзма, инв. № 9661, 1б-варақ.

doirai nuqat u doirai sipehr “Lav laka lama xolaqtul aflok”ro (Agar sen bo‘lmaganingda falaklarni yaratmagan bo‘lardim – hadisi qudsiy) shakli pargordor ovarda nazdiki ba’zi hukamo nuqtai vujud nadorad va nuqtai vujudi Muhammadiy (s.a.v.) dar adam bud, ki doirai mavjudot bavoisat u dar markazi kavn mador yoft. Inke hanuz vus’ati adam dar day (oy) bud, va zarfiyatru bihamdullohi taolo”¹⁴⁴. (Tarjimasi: “Ahmad” ismining yozilishida hech bir nuqtasi bo‘lmasa-da, “Agar sen bo‘lmaganingda olamlarni yaratmas erdim” (Lav laka lama xolaqtul-aflok – Hadisi qudsiy) sharafidan sipehr doirasida (koinot olamida) bir nuqta durdek yorishgan. Ba’zi hukamolalar nazdida esa, dastlab garchi uning vujudi hali paydo bo‘lmasa-da, Muhammadiy (s.a.v.) vujudining nuqtasi (duri, gavhari,) yaratilmishdir. Yo‘qlik (adam) olamidan paydo bo‘lgan mazkur durni mavjudot olamini (butun yaratilmishlar) makoni bo‘lgan koinot – olamining markaziga mador – o‘q, asos, manba qilib qo‘ydi, bu bebaho durning amali to yo‘qlik olami (qiyomat) sari yuz tutguncha davom etajakdir”).

Hamd-u sano va na’tdan so‘ng shoir “o‘zimning nazm va nasrdagi so‘zlarim vasfini sof ta’bim xayolidan o‘tkazdim” va “ta’bim tufayli yuzaga kelgan namuna she’rlarimni hakimlar taxayyulotiga (hukmiga) havola qilsam, degan bir istak tuydim”¹⁴⁵, – deydi.

Debochada shoir tabiatdagi to‘rt unsur (tuproq, suv, havo, olov)ga mos ravishda inson ta’bi ham to‘rt xilligi xususida mushohada yuritadi. Ijod tabiatini to‘rt unsurga qiyoslagan shoir go‘zal tashbehlar orqali to‘rt devonidagi g‘azallari va ularning o‘ziga xos jihatlari haqida xabar beradi. Shoiring fikricha, g‘azaliyotning to‘rt martabasi bor: “...martabai avval g‘azaliyot bamasobihi (misli) xok sar.... kasifu nozuk ast. In g‘azalho niz ne’mati sanoe’ va badoe’ xushk va takallufoti sard kashfu bakasofat mayl kunad. Chun hangomi pardoxti in devoni avval “Tuhfat us-sig‘ar”ast in tifli xokro ki ayyomi xokbozist bo tifloni dahr safo rag‘bati tamom g‘azalhoyi in devon bar in misol o‘ftoda ast”¹⁴⁶. (Tarjimasi: “...avvalgi martabasi tuproqqa o‘xshab kasif(past) va nozikdir. Badiiylik va go‘zallikning ne’mati (timsoli) bo‘lmish g‘azallar bu davrda quruq va sovuq takallufotlarning kashfi sifatida past darajaga mayl qiladi. Ushbu avvalgi devonim – “Tuhfat us-sig‘ar”dagi dahr osmonining boshqa bolalari bilan tuproq o‘ynashga rag‘bati bo‘lgan bolalik davrim mahsullari bo‘lgan ayrim g‘azallarim bunga dalildir”). Ikkinchi martabadagi g‘azallarni shoir shunday e’tirof etadi: “Martabai do‘vvum – g‘azalho monandi ob buvad va chun ob bar xayol va latif xok bar tust. Va az kuduroti alfoz kasif musaffo “Vasat ul-hayot” ast garmu tar o‘ftoda ast. Go‘yo obast ki az otashi tab’i xeshast. Va az mahali mo‘yat ba martabai havoyat rasida va dar haddi moyat xesh monda”¹⁴⁷. (Tarjimasi: “Ikkinchi martabadagi g‘azallar suvga o‘xshab latifdir. “Vasat ul-hayot”ning o‘rtasi issiq va ho‘ldir, go‘yo ta’b otashidan o‘tgan suv kabidir. Uning holati xuddi suvning havo holatiga etishiga ... o‘xshaydi.” Shoir uchinchi martabadagi g‘azallari

¹⁴⁴ Хусрав Дехлавий. Куллиёт. ЎЗР ФАШИ, қўлёзма, инв. № 9661, 1б-2а-варақлар.

¹⁴⁵ О‘sha manba, 2а-варақ.

¹⁴⁶ О‘sha manba, 2а-варақ.

¹⁴⁷ Хусрав Дехлавий. Куллиёт. ЎЗР ФАШИ, қўлёзма, инв. № 9661, 2б-варақ.

“G‘urrat ul-kamol” devonidan o‘rin olganligini ta’kidlaydi: “Martabai sevvum – g‘azalhoyst bar shabihi bod, chun xosiyat obi garm va tar o‘ftoda ast. Va in g‘azalho latiftar ast va ravontar va bartar va az pas latofat xalal pazir nabuvad. Va in g‘azalho niz monandi bodi garmtar o‘ftoda ast va az g‘azalhoyi ki monandi obi latiftar ravontar ast. Va oliytar va az otashi tab’i xesh quvvati bisyor yofta ast. Va az maqomi havoyat bamartabai moyat rasida va in devon “G‘urratul kamol” ast, g‘azalhoyi u niz barin o‘ftoda ast”¹⁴⁸. (*Tarjimasi: “Uchinchi martaba – shamolga o‘xshash g‘azallar bo‘lib, ular issiq suv va ho‘llik xususiyatiga egadir. Va bu g‘azallar latifroq va ravonroqdir, hech qachon uning bu holatlariga xalal etmaydi. Shuningdek, ushbu g‘azallar issiq shamolga ham o‘xshaydiki, ular latif suvga o‘xshaydigan g‘azallardan ham ravonroqdir. Ular oliy darajada bo‘lib, o‘zining otashin ta‘bidan juda ko‘p quvvat topgandir. Bu devonim “G‘urratul - kamol”dirki, undagi g‘azallar ushbu martabaga mosdir”*). To‘rtinchi devon – “Baqiya va naqiya”dagi g‘azallar to‘rtinchi martabaga xos va xuddi otash kabidir: “...harorat – xossai otash ast; dar dilhoi narm chun otash dar panba girad va dili ohaninashro qadre narm sozad. Va gar delist ke dar vay ishqe joyi dorad nek basuzonad va xokistar gardonad. G‘azalhoyi baqiya va naqiya ba’d az in agar shu’lai hayot ravshan monad va otashi tab’ vafo va dar mash’al buvad, umidast ki az in g‘azalhoyi so‘zoni baland kard, asarro sar sarosar otash bovoy gardonam, bamasobihi ke shu’lai so‘zon az xirmani moh baguzarad va dar xo‘shai Atorud girad”¹⁴⁹. (*Tarjimasi: “...harorat otashning xosiyatidir. Xuddi otash yumshoq ko‘ngillar uchun paxtaga tushgan cho‘g‘ kabidir: yumshoq ko‘ngillar xuddi paxtaga olov tushganidek emiriladi, temir ko‘ngillarni esa bir oz yumshatadi. Va agar ishq o‘rnashib olgan ko‘ngil bo‘lsa, uni yaxshilab kuydiradi va uni kulga aylantiradi. “Baqiya un-naqiya”ning g‘azallari agarda hayotim shu’lasidan biror bir ravshanlik qolsa va tab‘im otashi vafo qilsa va mash’ala kabi yonib tursa, umidim shuki, ushbu kuydiruvchi g‘azallardan-da baland haroratga ega asarlarni yuzaga keltirajakmanki, xuddi uning yondiruvchi shu’lasi oyning xirmanidan ham o‘tib, Atorudning xo‘shachiniga etgay”*).

Xusrav juda yoshligidan she’r yozishni mashq qila boshlagan. Bu haqda uning o‘zi “G‘urrat ul-kamol” devonida “...tish tushadigan bolalik chog‘larimda she’r aytardim va og‘zimdan gavhar tomardi”¹⁵⁰, deb e’tirof etadi. “Tuhfat ussig‘ar” debochasida yoshlik chog‘larida maktabda qanday tahsil olganligini bayon qiladi: “Al-hosil, padaram batahsil ba maktab ferestod va man qofiyaro takror mekardam. Va ustod Sa’diddin Muhammad xattot urfi ba qoziyi alayhir-rohma kotibro ba ta’limi xat mexond. Va man dar xat bayt menaveshtam:

*Har chand davvoli zulfi pechon bar po‘shhti poy fo‘rud ovarad,
Az pechoki zulf va savdoiyi xol ro‘y bar nametoftam.*

To oqibat she’re va g‘azale, chunonki muvjibi ta’ajjub boshad, har dar in xurdagiy insho mekardam...”¹⁵¹ (*Tarjimasi: “Xullasi kalom, otam (meni) o‘qish*

¹⁴⁸ O‘sha manba, 26-варак.

¹⁴⁹ Хусрав Дехлавий. Куллиёт. ЎзР ФАШИ, қўлёзма, инв. № 9661, 26-варак.

¹⁵⁰ Хусрав Дехлавий. Ғуррат ул-камол. Девон. ЎзР ФАШИ, қўлёзма, инв. № 178, 3а-варак.

¹⁵¹ Хусрав Дехлавий. Куллиёт. ЎзР ФАШИ, қўлёзма, инв. № 9661, 3б-варак.

uchun maktabga yubordi va men qofiyani takrorlardim. Ustod Sa'diddin Muhammad xattot Qoziy a.r. urfi bo'yicha husnixatdan saboq berardi. Men husnixat bilan quyidagi baytni yozdim:

*Zulfing buramasi oyog'ing tubigacha sollanib turar ekan,
Zulfingning buramasiyu xoling savdosidan yuzimni burolmayman.*

Natijada bolalik chog'larimda kattalar taajjubda qoladigan she'r va g'azal ijod qilardim...").

Kunlardan bir kun shahar hokimining o'rinbosari Xoja Asil xattot Sa'diddin Muhammadni o'z uyiga chaqirtiradi. Sa'diddin bilan Xusrav ham birga boradi. Xoja Asilnikida mehmonlar orasida Xoja Izaddin ham o'tirar edi. Shoirning e'tirof etishicha, Xoja Izaddin bilan ustozining oshnoligi bor edi. Sa'diddin shogirdi Amir Xusravni Xojaga tanishtirib, she'riyatga oshiqlikini va yaxshi she'r o'qishligini aytadi: "Ustodamro subhgohi Xoja Asil qutvoli qal' banavishtani noma baxond. Man banda dar bandagii ishon muhabbira va qalamdone dar dast qadam zadam. Dar xonai on aziz Xoja Izaddin buda. Ustodam badon buzurg guft: - In xurdak shogirdi man, dar xurdai kor banazm jiddiy behad dorad va she'r xondanash nekist. Safina dar kafi u boyad nehod va negoh kard, to ba bahrho cheguna miguzarad. Xoja Izaddin safinai ravon ba man dod. Man ohang baxondan kardam."¹⁵². (Tarjimasi: "Gohida tong paytlari ustozimni qal'a boshlig'i Xoja Asil noma yozdirish uchun chaqirtirar edi. Men ham qo'limda qalamdon va siyoh bilan ularga ergashardim. Qutvolning xonasida Xoja Izaddin safina (qalamdon, siyoh va boshqa moslamalar turadigan idish, organayzer) yonida o'tirardi. Ustozim ul buzurgvor zotga dedi: – Bu kichkina yigitcha mening shogirdimdir. Kichiklikdan nazm-she'riyatga behad jiddu jahd bilan kirishgandir. Uning she'r o'qishi, xuddi eshkak eshishi bilan bir xil tezdir. Qayiqni uning qo'liga topshirish kerak, dengizlardan qanday kechib o'tishini kuzataylik").

Xoja uning qo'liga devon tutqazib, she'rlardan o'qishni buyuradi. Xusrav musiqaga moyil mayin va sehrli ohangda g'azallarni o'qirkan, majlis ahlining olqishiga sazovor bo'ladi. "Xondan tobist. Bayti imtihon boyat kard. To haddi hiddat tab'i man chun oyina ravshan gardad. Xoja Izaddin dar chahor chizi nomunosib chahorgoni imtihon farmud: bar "mo'y" va "bayzo" va "tir" va "xarbo'za". Ham dar huzuri hozironi majlis in bayt sibt o'ftad:

Har mo'yi ki dar zulfi xami on sanam ast.

Sad bayzai anbarin dar on mo'yi sanam ast.

Chun tir bar on rost dilash ro, zero,

Chun xarbo'za dandonash daruni shikam ast"¹⁵³.

(Tarjimasi: "Shunda ular kengashib, "toki mening tab'imni qaysi darajada ekanligini xuddi oynadek ravshan ochiq-oydin bilish uchun imtihon qilish kerak" degan xulosaga kelishdi. Xoja Izaddin bir-biriga nomunosib bo'lgan to'rtta so'zni aytdi: mo'y (soch), bayza (urug'), tir (o'q) va xarbo'za (qovun). Majlisga yig'ilganlar huzurida ushbu bayt o'qildi:

Ikki zulfin har mo'yida bu xush sanam

¹⁵² Хусрав Дехлавий. Куллиёт. ЎЗР ФАШИ, қўлёзма, инв. № 9661, 3б-варақ.

¹⁵³ Хусрав Дехлавий. Куллиёт. ЎЗР ФАШИ, қўлёзма, инв. № 9661, 3б-варақ.

*Yuzlab anbar urug'ini qilmishdir zam.
O'qday to'g'ri deya bilma dilin, chunki
Qovun kabi tishi uning ichida jam*¹⁵⁴

(*Sh.Shomuhamedov tarjimasi*).

Yosh Xusrav Xojaning savollariga javob berib, ismi Xusrav, otasining ismi Lochin turk xutbachi ekanligini aytadi. Xutba so'zining birlamchi ma'nosi lug'atda jum'a va hayit namozlarida xatib tomonidan minbarga chiqib, diniy pand-nasihat so'zlari aytish¹⁵⁵ degan ma'noni anglatadi. Ko'rinadiki, jum'a va hayit namozlaridagi xutbaga mamlakat podshohining nomi ham qo'shib o'qilgan va shoirning otasi bu vazifani ham bajargan. Odatda mamlakat podshohining nomi xutbaga qo'shib, uning hukmronligi e'lon qilingan. Majlis ahllaridan Sulton Shamsiy Xusravning shoirlik iste'dodi va quvvai hofizasidan qattiq ta'sirlanib shunday deydi: "...chun sikka (tanga) nest basultoni dorad xutbai xitob, tarannumi Sultoni boshad ki, she'r royi xatost, az xatoyi chora nabuvad. Va turo dar in surat yak ma'niy pesh nabuvad va on inast ki shoire ro agarchi sikka sobit karda ast... In sikka ro chun diram durust bar dil naqsh kun ki turo xutbai mulki suxan ba joe rasid ki shu'aroi digarro nest do' diram girand"¹⁵⁶. (*Tarjimasi: "Xitob xutbasi sultonni madh etish bilan bo'ladiki, she'r xitobni ifodalovchi san'atdir. Xutba o'qishdan boshqa chora yo'qdir, sen bu yo'lda bir xil suratda sobitqadam bo'l. ...shoirlikni mahkam ushla. Dirhamga unchalik ham ko'ngil qo'yma. Ushbu so'zlarimni xuddi dirham kabi ko'nglingga naqsh qilib olginki, shoyad bir kun kelib senga "so'z mulkining" sohibi sifatida xutba o'qishsin. Bu shuhrat boshqa shoirlarda bo'lmagay"*). Bu yosh Xusrav Dehlaviyning shoirlik iqtidori va iste'dodiga berilgan yuksak baho va kelajakdan bashorat edi. Badihatan aytilgan bu ruboiy orqali yosh shoir ustozlar e'tiboriga tushadi.

Shundan so'ng tildagi nozikliklarni xuddi soch tolalari kabi so'z zulfiga terganligi hamda behisob ma'nolarni yig'ishga va nozik iboralarni to'plashga muvaffaq bo'lganligi, ya'ni mazmun va shakl uyg'unligidagi go'zal she'rlar bitganligi haqida xabar beradi. Ammo balog'at yoshiga etmaganligi uchun mazkur she'rlarni yaxshilab sayqallash lozimligini ta'kidlaydi. Shoirning aytishicha, bu vazifani do'sti Tojiddin Zohid bajargan: "...birodaram zohid ki tabi'ati borik bayni u mashshotai turrai ash'or ast, Aslahallohu sha'nahu, on suvaydoyi parishonro mo'yi ba ma'naviy faroham ovarda va qalam taroshida jahd kard"¹⁵⁷. (*Tarjimasi: "...she'rlar turrasi (kokili)ga sayqal berishda tabiatan daqiqnazar Zohid birodarim mashshota misol ul parishon holatdagi soch turmaklarini bir joyga jamlab, sayqal qalami bilan oro berdi"*). Manbalarda Dehlaviyning birinchi devoni uning do'sti Tojiddin Zohid tomonidan tuzilganligi va devonga shoirning 16

¹⁵⁴ Шомухамедов Ш. Одамийлик иншоси. – Тошкент: Ф.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984.– Б.118.

¹⁵⁵ Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Ф.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б.669.

¹⁵⁶ Хусрав Деҳлавий. Куллиёт. ЎЗР ФАШИ, қўлёзма, инв. № 9661, 3б-варақ.

¹⁵⁷ Хусрав Деҳлавий. Куллиёт. ЎЗР ФАШИ, қўлёзма, инв. № 9661, 4а-варақ.

yoshdan 19 yoshgacha bo'lgan davrda yozgan she'rlari kiritilganligi haqida ma'lumot beriladi¹⁵⁸.

Debochada esa shoir 16 yoshdan 19 yoshgacha yozgan she'rlarini do'sti "birovning ko'zi tushmasin uchun" bir chekkaga olib qo'yganligini, lekin "bu safina (qayiq)ni uni suvga oqizish maqsadida tuzganman deya" ulardan o'zi bir majmua – devon tuzganligini ta'kidlaydi. Bundan birinchi devon Tojiddin Zohid emas, balki shoirning o'zi tomonidan tuzilgan, xulosa kelib chiqadi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, shoir "G'urrat ul-kamol" debochasida "kotibi ruq'atullohi birodari Alouddin Alishoh" she'rlarini to'plab devon tuzishni va "komil debocha" bilan bezashni taklif qilganligi, shundan so'ng "Tuhfat us-sig'ar" va "Vasat ul-hayot" devonlarini tartib berganligi haqida xabar beradi.

"Tuhfat us-sig'ar" debochasida shoir to'plamdagi she'rlarni tahrirdan o'tkazganligi, har bir g'azalining boshiga shoh baytlar bitganligi, bu devondagi g'azallarga xos bu xususiyat o'z uslubining xarakterli jihatlaridan ekanligini ta'kidlaydi: "Va bar sariri she'ri bayti dar sifati in she'r musalsal banavishtam. Chunonki az matla'i to maqta', agarchi dar jumlai abyot nazar o'ftad she'ri az on bahr dar on safina ast. Agarchi safinaro bazanjiri ob natavon bast, in naqshi xos qalami kotib ast ki pesh az in binamuda. Agar ba'd az in kase dar zanjir behad.

Shonai ki man kardamash to' saru sablat makun,
Nomi avroq "Tuhfat us-sig'ar" karda omad"¹⁵⁹.

(Tarjimasi: "Har bir she'rning boshiga xuddi bulbul sifat bosh bayt bitdimki, chunonchi devonning matla'sidan to maqta'sigacha shunday takrorlanadi. Agar jumlalarda shunday o'ziga xoslik ko'zga tashlanmasa, bilingki, mazkur she'r ushbu safina –to'plamdan emas. Agarda safinada ushbu holat suv zanjiri (irmog'i) kabi davom etmasa, bilingki, bu naqshu nigor kotibning qalamiga mansubdir.

Varaqlarim nomini "Tuhfat us-sig'ar" deb qo'yib, uni jamlashda bir nechta qog'ozni qoralama qildim").

Xusrav Dehlaviy adabiyot nazariyasiga bag'ishlangan "E'jozi Xusraviy" asarida so'z san'atidagi to'qqiz uslub haqida mulohaza yuritadi va o'z uslubini o'ninchi uslub, deb e'tirof etadi¹⁶⁰. Haqiqatan ham, Dehlaviy uslubi she'r va ilm ahlini hayratga solgan. Ya'ni g'azallaridagi obrazlarning murakkabligi va badiiy barkamolligi, badiiy ifodalarning serjiloligi, fikrlarni pardali ifodalashga intilishning kuchliligi, go'zal she'riy san'atlar bilan ziynatlanganligi shoir she'rlarining mo'jizaviy qudratini ta'min etgan.

Umuman, Xusrav Dehlaviy debochalari, xususan, "Tuhfat us-sig'ar" devoniga yozilgan debocha shoir hayoti va ijodi, adabiy-estetik qarashlarini yoritishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

¹⁵⁸ O'sha manba, 4a-varaқ.

¹⁵⁹ Xusrav Dehlaviy. Куллиёт. ЎзР ФАШИ, қўлёзма, инв. № 9661, 4a-varaқ.

¹⁶⁰ Низомова Ш. Хusrav Dehlaviy ижодида рубоий жанри. Филол. фан.номз.дисс. – Т., 2006. –Б. 14.

Adabiyotlar:

1. Давлатшоҳ Самарқандий. Тазкират уш-шуаро. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981.
2. Хусрав Дехлавий. Куллиёт. ЎзР ФАШИ, қўлёзма, инв. № 9661.
3. Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972.
4. Шомухамедов Ш. Одамийлик иншоиси. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984.

ALISHER NAVOIYNING “MAJOLIS UN-NAFOIS” TAZKIRASIDAGI AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR TO‘G‘RISIDAGI MA’LUMOTLAR

Abdumajid MADRAIMOV

*Temuriylar tarixi Davlat muzeyi katta ilmiy xodimi,
Tarix fanlari doktori, professor*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asaridagi Amir Temur va Temuriylarga oid ma’lumotlar tarixiy jihatdan tahlil qilingan. Ayrim “Xamsa”, xususan “Hayrat ul-abror”, “Farhod va Shirin” va “Saddi Iskandariy” dostonidagi ma’lumotlar zarurat yuzasidan foydalanildi. Bu qimmatli ma’lumotlar Temuriylar tarixi va san’ati rivojini o‘rganishda ham muhim o‘rin tutadi.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Sulton Husayn Mirzo, tazkira, podshoh, she‘r, shoir, tarix.

Abstract. In this article, the information about Amir Temur and the Timurids in Alisher Navoi's work "Majolis un-nafois" is analyzed historically. Information from some "Khamasa", especially "Hayrat ul-Abror", "Farhad and Shirin" and "Saddi Iskandari" epics, was used out of necessity. This valuable information plays an important role in studying the development of the history and art of the Timurids.

Key words: Amir Temur, Mirza Ulugbek, Sultan Husayn Mirza, tazkira, king, poem, poet, history.

Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” (Nafis majlislar) tazkirasini avvalgi va sakkiz majlisdan iborat bo‘lib, ularda jam‘i 459 ta ijodkorlar to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Shoir o‘z asarini 1490-1491-yillarda yaratib, keyincha 1497-1498 yillari qayta ishlangan¹⁶¹.

Ushbu maqolani yozishdan maqsad, tazkirada nomlari keltirilgan Amir Temur va Temuriyzodalarning xalqimiz madaniyati tarixida tutgan o‘rnini tadqiq etishdan iborat. Shuni ta’kidlash zarurki, Alisher Navoiyning so‘zlariga qaraganda

¹⁶¹ Алишер Навоий. Қомусий луғат, биринчи жилд, -Тошкент: “Sharq”, 2016, 310-312 бетлар.

uning “Vaqfiya” asarida yozishicha, “ota va abukim ul hazrat (Sulton Husayn Mirzo)ning obo va ajdodi xizmatlarida” bo‘lgan edi¹⁶². Shuning uchun shoirning tazkirasining 7 va 8-majlislarida mavjud Amir Temur va boshqa Temuriyzodalar, xususan Sulton Husayn Mirzo va o‘g‘illari to‘g‘risidagi ma’lumotlar o‘zining ishonchliligi va haqqoniyligi bilan ajralib turadi, deyish mumkin.

Tazkiraning yettinchi majlisi “Salotin izom va avlodi vojib ul ehtiromlari zikridakim, ba’zi yaxshi mahallarda xo‘b bayt o‘qubturlarkim, filhaqiqat o‘zlari aytqondek xo‘bdur va ba’zi nazm latofatida mashg‘ul bo‘lubturlarkim, ul dag‘i matlub v marg‘ubdur” deb nomlanib, Amir Temur va Temuriylardan podshoh bo‘lgan 20ta shaxslar va ular avlodining she’riyatga munosabati bayon qilingan¹⁶³.

Alisher Navoiy birinchi bo‘lib, Amir Temurning nomini “Muluk shajaralarining bo‘stoni va salotin gavharlarining ummoni, xoqoni jahongiri sohibqiron, ya’ni Temur Ko‘ragon – agarchi nazm aytmoqqa iltifot qilmaydurlar, ammo nazm va nasrni xo‘b mahal va mavqe’da o‘qubturlarkim, aningdek bir bayt o‘qug‘oni ming yaxshi bayt aytmoqcha bor”– deb eslatadi. Shoir yozadi: “Tabarruk haysiyatidinkim, ul-hazratning muborak ismi bu muxtasar (tazkira) da bo‘lg‘ay va ul latofatdin biri bila ihtisor qililur”¹⁶⁴.

Tazkirada ikkinchi bo‘lib, Shohrux Mirzo nomi quyidagicha zikr qilinadi: “Xoqoni sa’id Shohrux Mirzokim, avlodi va amjad orasida sohibqiron otasining qoyim maqom bo‘ldi. Ham nazmg‘a mashg‘ulluq qilmas erdi, ammo xub bayt va yaxshi so‘zlar ko‘p ul hazratdin ham voqe’ bo‘lur erdi. Muni ham bir naql bila ixtisor qilulur. Bu faqiri haqir Bobur Sulton muborak tilidin mundoq eshittimkim, bir majlisda akobir sari boqib Shohrux Mirzodin naql qildilarkim, ustod Quvomiddin me’morg‘a bir imorat jihatidin e’tiroz qilib, bir yil mulozimatin mahrum ekondur. Yil boshida taqvim istixroj qilib bu vasila bila shoyad Mirzoning muborak diydorin ko‘ra olg‘aymen deb eshikka kelib, sudurni vosita qilib, oni sudur ko‘rguzub taqvimin arz qilibturlar. Mirzo tabassum qilib bu baytni o‘qubdurlarkim:

*Tu kori zaminro naku soxti-
Ki, ba osmon niz pardoxti.*

(Tarjimasi: Sen yerni ishini yaxshi bajarib endi osmon ishiga kirishding).

Tazkirada nomi uchinchi bo‘lib, Amir Temurning nabirasi Abu Bakr Mirzo (ibn Mironshoh bo‘lsa kerak) zikr qilingan: “Abubakr Mirzo – nabira bo‘lur¹⁶⁵. Bahodirlik‘i va qilichi zarbi Chig‘atoy ulusida mashhurdir. Chun ta’bida nazm choshnisi bor yermish. Hamul bahodurlik‘ tavrada bu tuyuq andin mashhurdurkim:

*Er kerak o‘rtansa, yonsa yolina,
Yora yeb yutsa otining yolina.
It o‘lumi birla o‘lsa yaxshiroq*

¹⁶² Алишер Навоий. Вақфия/ Тўла асарлар тўплами, 9 жилд, Тошкент, 2012, 638 бет.

¹⁶³ Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис / Тўла асарлар тўплами, 9 жилд, Тошкент, 2012, 411 бет.

¹⁶⁴ Yuqoridagi asar. O‘sha joyda.

¹⁶⁵ So‘z Mironshoh Mirzoning o‘g‘li(1382-1417) to‘g‘risida yozilgan ko‘rinadi. Файзиев Т. Темурийлар шажараси, -Тошкент: “Ёзувчи”, 1995, 166 бет.

Er otonib dushmanig'a yolina.

Agarchi ba'zi alfozi turkonaroqdur, ammo tajnisini yaxshi topibdur"¹⁶⁶.

To'rtinchi nomi zikr etilgan shaxs bu "Sulton Iskandar Sheroziy (ibn Umarshayx Mirzo) ham nabiradur"¹⁶⁷. Saltanat tajammulini derlarkim, salotindin o'zi oncha qilmish bo'lg'ay. Yetti yo sakkiz yilliq saltanatida go'yoki uch ganj topibdur. Mavlono Haydar turkigo'y, aning maddohi ekandur. Bu aning masnaviysidindurkim:

Himmat elidur yadi bayzo degon,

Er nafasidur dami Iso degon.

Va Sulton Iskandarni derlarkim, tab'i nazm erdi. Va bu tuyuqni andin naql qilurlarkim:

To'lin oyga nisbat yettim yorimi,

Ul xijolatdin kam o'ldi yorimi.

Tori muyingning zakotin men beray,

Yo Misrni, yo Halabni yo Rumi.

Burung'i tuyuqdin bu turkonaroqdur"¹⁶⁸.

Ushbu majlisda nomi va ijodi yoritilgan beshinchi shaxs Xalil Sulton ibn Mironshoh (1384, hukmronligi 1405-1409, 1411) bo'lib, uning to'g'risida Alisher Navoiy quyidagilarni yozgan: "Hazrat sulton sohibqironning voqeasi (vafoti)din so'ngra Samarqand taxtida saltanat qildi. Zurafo va shuaro majlisida bo'lurlar erdi. Mashhurdurkim, o'zi she'r aytur erdi. Andoqkim, devoni ta'rifida Xoja Ismatulloh qasida aytibdur, ammo tilab topilmadi, ushbu matladin o'zgakim:

Ey turki pari paykarimiz, tarki jafu qil,

Komi dilimiz, la'li ravonbaxsh ravo qil"¹⁶⁹.

Zamonaviy tadqiqotchilarni aniqlashicha, Xoja Ismatulloh Buxoriy shahzoda Xalil Sultonning she'riyatdagi ustozini bo'lib, unga o'ttiz beshta qasida bag'ishlagan ekan¹⁷⁰.

Alisher Navoiy nomini zikr qilgan oltinchi Temuriyzoda Ulubek Mirzo ibn Shohrux Mirzo (1394-1449)dir. Uning to'g'risida: "donishmand podshoh erdi. Kamoloti bag'oyat ko'p erdi. Yetti qiroat bila Qur'oni majid yodida erdi. Hay'at va riyoziyini xo'b bilur erdi. Andoqkim, zij bitidi va rasad bog'ladi va holo aning ziji aroda shoe'dur. Bovujudi bu kamolot gohi nazmg'a mayl qilur. Bu matla' aningdurkim:

Harchand mulki husn ba zeri nigini tust,

Sho'xi makunki, chashmi badon dar kamini tust"¹⁷¹

(Tarjimasi: Go'zallik mulki qanchalik qo'l ostingda bo'lsa-da, sho'xlik qilmagilki, yomonlarning ko'zi seni kuzatmoqdalar.).

¹⁶⁶ Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис, 412 бет.

¹⁶⁷ Umarshayx Mirzoning katta o'g'li (1384-1415). Файзиев Т. Темурийлар шажараси, 82 бет.

¹⁶⁸ Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис, 412 бет.

¹⁶⁹ O'sha asar, 413.

¹⁷⁰ Bobokalonov S. R. Xoja Ismat va turkigo'y zamondoshlari she'riyatining janrlari, uslubi, badiyati. F.f.n. unvonini olish uchun yozilgan diss.-Buxoro, 2012, Ilova 3, 2-3-betlar.

¹⁷¹ Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис, 413 бет.

Xoja Ismatulloh Buxoriy Ulug‘bek Mirzoga 13ta qasida bag‘ishlagan ekan. Ulardan birini Zahiriddin Muhammad Bobur “Xoja Ismat Buxoriy Ulug‘bek Mirzo otig‘a ... bir purkor qasida tugatibtur,” deb, uning matla‘ini keltirgan:

*“Zihi du chashmat ba xuni mardum kushoda tiru kashida xanjar,
Ruxi chu mohat sabohi davlat, xati siyohat shabi muanbar.
Shibhi Sulaymon chashmi Ulug‘bek, imomi barhaq, valiyi mutlaq,
Ba tan tahamtan ba yad muayyad, ba dil mujohid, ba gir gazanfar.
Sipehr bog‘in nujumi vardi chu qildi ul nav‘kim Xovarnaq,
Nuridin ul sham‘ ichra soldi nur ming safou ravnaq”*¹⁷².

Tazkirada nomi oltinchi bo‘lib eslatilgan Temuriyzoda Boysung‘ur Mirzo ibn Shohrux bo‘lib, uni shunday zikri keltirilgan: “xushta‘b va sahiy va ayyosh va hunarparvar podshoh erdi. Xattot va naqqosh va sozanda va go‘yandadin muncha benazir kishikim, aning tarbiyatidin arog‘a kirdi, ma‘lum emaskim, hech podshoh zamonida bo‘lmish bo‘lg‘ay. Ulcha imkoni bor, olamni xushluq bila o‘tkardi. Derlarkim, bu matla‘ aningdurkim:

*Nadidam on du rux, aknun du moh ast,
Vale mehrash base bar joni mo hast.*

(Tarjimasi: U ikki go‘zal ko‘rmaganimga ikki oy bo‘ldi, biroq mehri jonimdadur.)

Taxallusi budurkim:

*G‘ulomi ro‘i u shud Boysung‘ur,
G‘ulomi xubro‘yon podshoh ast”*

(Tarjimasi: Boysung‘ur uning yuziga qul bo‘ldi. Go‘zal yuzlilarning quli - podshohdir)¹⁷³.

Yuqorida Alisher Navoiy ta‘kidlagandek, Boysung‘ur Mirzogacha u kabi homiy bo‘lmagan, Hirotda katta kutubxonaga asos solgan, unda qirqta xattot va yetmish beshta rassom ijod qilgan, u Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” asari matnini mukammal qilishga intilgan, Amir Xusrav Dehlaviy merosini yig‘ishga harakat qilgan, kutubxonada “Kalila va Dimna” va boshqa asarlar qo‘lyozmalariga rasmlar chizdirgan, birinchi muraqqa‘ni tuzgan shaxs sifatida nomi madaniyat, kitobat va rasm san‘ati tarixida qoldi¹⁷⁴.

Alisher Navoiy yettinchi nomini keltirgan podshoh Abulqosim Bobur Mirzo (1422-1457) ibn Boysung‘urdir: “Darveshvasht va foniy sifat va karim ul-axloq kishi erdi. Himmati ollida oltunning dag‘i kumushning tosh va tufroqcha hisobi yo‘q erdi. Tasavvuf risolalaridin “Lama‘ot”¹⁷⁵ bila “Gulshani roz”¹⁷⁶ga ko‘p mash‘uf erdi. Tab‘i dag‘i nazmg‘a muloyim erdi. Bu ruboiy aningdurkim:

*Chun bodavu jomro baham payvasti,
Medon ba yaqinki, rindi bolo dasti,*

¹⁷² Заһириддин Муҳаммад Бобур, Аруз рисоласи, 52 бет. Куллиётдан. Тошкент, 2021.

¹⁷³ Алишер Навоий. Мажолис..., 413 бет.

¹⁷⁴ Roxburgh D. The Persian Album. 1400-1600. –Yale University, 2005.

¹⁷⁵ “Lama‘ot” – arabcha: shu‘lalar (birligi lam‘a –yolqin, shu‘la, ravshanlik), Faxriddin Iroqiy asari.

¹⁷⁶ “Gulshani roz” – Sir gulshani. Mahmud Shabistariyning nazmda yozilgan tasavvufga oid asari.

*Jomast shariatu, haqiqat boda
Chun jom shikasti, ba yaqin badmasti.*

(Tarjimasi: May bilan qadahni birlashtirganing uchun, aniq bilgilki, qo‘li baland rindsan. Qadah - shariatdir, may – haqiqatdir. Qadahni sindirganingdan ayonki, badmastdirsan.).

Agarchi turkcha nazmlar ham aytur erdikim, barchaga qabul erdi. Ammo u bayt ham aningdurkim:

*Necha yuzung ko‘rub hayron o‘layin,
Ilohi, men sanga qurbon o‘layin*¹⁷⁷.

Abdullatif Mirzo (1428-1450) ibn Ulug‘bek Mirzo to‘qqizinchi bo‘lib zikr qilingan: “Savdoyi mizoj va vasvasiy tab’ va devonasor kishi erdi. Mundin o‘zga dag‘i g‘arib badfe‘lliqlari bor erdikim, zikrdin behijobliq lozim kelur. O‘tar dunyo maslahati uchun donishmand va podshoh otasini o‘ldurdi. Har oyinakim, saltanat Shiruyaga vafo qilmag‘oncha anga qildi. Ammo tab‘i nazmi bor erdi va she‘rni obodon aytur erdi. Bu matla’ aningdurkim:

*Bar dilu jon sad balo az yak nazar ovard chashm,
Chun biguyam shukri in, yo Rab, nabinad dard chashm”.*

(Tarjimasi: Ko‘z bir qarash bilan dil va jonga yuz balo kelturdi. Buning shukrini nechuk qilay? Yo Rab, ul ko‘z dard ko‘rmagay!)¹⁷⁸.

Tazkirada 10 va 11 bo‘lib, Ozarbayjonlik podshohzodalar Jahonshoh va Yoqub Mirzo zikri keltirilgan¹⁷⁹.

Temuriyzodalardan Sayyid Ahmad Mirzo ibn Umarshayx Mirzo nomi 12 bo‘lib zikr qilingan: “Salim tab’ va pok zehn kishi erdi. Xili mashhur nazmlari bor. Ham g‘azal, ham masnaviy, ham turkiy, ham forsiy g‘azal tavrida devoni bor. Va masnaviy tavrida “Latofatnoma” aningdur. Bu turkcha matlai yaxshi voqe’ bo‘lubturkim:

*Sayd etti qaroqing meni mipg‘i sahariydek,
Qil odamiyliq, qilma nihon yuzni paridek.
Bu forsiy matla’ ham aningdurkim:
Maham gar pesh az in pinhon bimonand,
Ajab, gar bedilonro jon bimonand”.*

(Tarjimasi: agar oy (yuzligim) bundan keyin (ham) pinhon qoladigan bo‘lsa, bedillarning omon qolishi ajablanarlidir)¹⁸⁰.

Yana bir 13 temuriyzoda “Sulton Ahmad Mirzo – darveshvasht, yaxshi axloqlik, odamiysheva kishidir. Ota jonibidin xushta‘bliq mavrusiydur. Yillar Xuroson taxtida hukumat qildikim, hech kishi andin shikoyat qilmadi va ta‘n etmadi. Va Sultoni sohibqirong‘a ota masobasidur va ikki devon ixtiyori va mulki mol mushoru ilayi va sipohi va cherik mutamaddin alayhi uldur va gohi nazm ham aytur. Bu bayt aningdurkim:

Sen kibi sho‘xi sitamgar dunyoda paydo qani,

¹⁷⁷ Алишер Навоий, Мажолис, 413-414 бетлар

¹⁷⁸ O‘sha asar, 414-bet.

¹⁷⁹ O‘sha asar, 414-bet.

¹⁸⁰ Алишер Навоий, Мажолис , 414 бет.

Sehr bobida ko 'zungdek kofiri yag 'mo qani''¹⁸¹

14 temuriyzoda Boyqaro Mirzo (1430-1502) zikri: “Bovujud ulkim, Sulton Sohibqironning tuqqon og‘asi erdi. Yillar Balx (qubbat ul-islom)da saltanat qildi. Va lekin shikasta nafsliq va kichik ko‘ngilluk, tavoze va ta‘zimliq kishi erdi va xaqshunoslig‘i a‘lo martabada erdi. Bu matla’ aningdurkim:

Zihi tajallii husni tu dar jahon paydo,

Va z-in tajallii u gashta joni mo paydo”.

(Tarjimasi: Na go‘zalki, husnning jilosi jahonga yoyildi,

Uning bu jilvasi tufayli bizning jonimiz shaydo bo‘ldi)¹⁸².

15 shahzoda Kichik Mirzo nomi bilan zikr qilingan, asli ismi Sulton Muhammad (Sulton Husayn Mirzo jiyani) bo‘lib, u shunday zikr qilingan: “Xub tab‘liq, tez idrokliq, sho‘x zehnlilik, qaviy hofizaliq yigit erdi. Oz fursatta yaxshi tolibi ilm bo‘ldi va ko‘proq ulum va funundin o‘z mutaolasi bilan vuquf hosil qildi. She‘r va muammoni xub anglar erdi, balki ko‘ngli tilasa ayta olur erdi. Bovujudi bu fazoyil darveshliqlarga moyil bo‘lub, Makka ziyorati sharafig‘a musharraf bo‘ldi. Ammo bag‘oyat mustag‘ni kishi erdi. Bo‘la olurkim, faqr istig‘nosi erkan bo‘lg‘ay. Bu ruboiy aningdurkim:

Umre basaloh mesutudam xudro,

Dar shevai zuhd menamudam xudro.

Chun ishq omad kadam zuhdu chi saloh,

Alminnatulloh, ozmudam xudro”

(Tarjimasi: O‘zimni umr bo‘yi yaxshilik bilan maqtardim, o‘zimni taqvodorlik yo‘liga solardim; Ishq kelgach, na taqvodorlik qoldi va na yaxshilik. Xudoga shukrki, o‘zimni sinadim).

Ba‘zi derlarkim, bu ruboiy Hazrat Maxdumiy Nuran (Abdurahmon Jomiy) bila tavorud bo‘lubtur. Andoq dag‘i bo‘lsa ulug‘ davlat turur¹⁸³.

Alisher Navoiy 16 navbatda shahzoda Sulton Badiuzzamon Mirzo zikrini keltirgan: “Ham husni surat va husni siyrat bila orasta va jamoli zohiriy va kamoli botiniy bila pirosta yigitdur. Razm atovridin otar-tutarda dilpisand va bazm asbobidin ichmak va bag‘ishlamoqda bemonand. Tab‘i ham nazm uslubida muloyimdur. Bu matla’ aningdurkim:

Mahi man, be guli ro‘yat dilam xun gashta chun lola,

Jigar ham az g‘ami hajrat shuda pargola-pargola

(Tarjimasi: Ey oy “yuzli go‘zalim”, gul yuzingsiz yuragim loladek qon bog‘ladi. Jigar ham hajring g‘amidin pora-pora bo‘ldi).

Bu turkiy matla’ dag‘i tarkibda xub va holatda marg‘ub voqe’ bo‘lubturkim:

Ey sabo, gar so‘rsa holim shammai ul-sarvinoz,

Yevrulub boshig‘a men sargashtadin yetkur niyoz”¹⁸⁴.

Sulton Badiuzzamon Mirzo otasi Sulton Husaynning katta farzandi bo‘lgani uchun valiahd sifatida Alisher Navoiy unga katta umid bog‘lagan edi. “Hayrat ul-

¹⁸¹ Shu asar, 414-415-betlar.

¹⁸² Shu asar, 415-bet.

¹⁸³ O‘sha joyda.

¹⁸⁴ O‘sha joyda.

abror” dostonining yigirmanchi maqolatida “Ul maqsud adosidakim, agarchi bu latoyif majmuasi safinae durur, zaroyif safinasi tuhafidin mashhur va va bu zaroyif safinasi junge durur favoidi laolisi anda gunogun. Va lekin chun tab’ daryosdin avval sohilg‘a kelgan nafoyis durur va zihi shabistonidin avval jilvai zuhur qilg‘on aroyis, bu jihatdin Sulton Badiuzzamon bahodir doma hayotuhu ayoqig‘akim, saltanat bog‘chasing avvalg‘i vardi va xilofat chamanining burun qad chekkan sarvi noz parvardi durur, nisor qilildi va aqd izdivojig‘a tortildikim, bu nasoyih ko‘nglida qolg‘ay va bu javohirni qulog‘ig‘a olg‘ay” degan umid bilan shahzodaga madh va nasihat yozgan edi¹⁸⁵. Ularga ilova sifatida Muhammad Porsoning Makkada ziyoratchilarga duo qilishni o‘z o‘g‘li Xoja Abu Nasrga topshirganini misol, ibrat sifatida keltirgan¹⁸⁶.

17 shahzoda sifatida Shoh G‘arib Mirzo nomi zikr qilingan: “Sho‘x tab’lig‘ va mutasarrif zehnik va nozuk taxayyulluq va daqiq taaqulluq yigitdur. Nazm va nasrda ma’dum va mutaxayyila va hofizada adili noma’lum. Ov va qush xotirig‘a marg‘ub va qurro va o‘qush ko‘ngliga mahbub. Bu matla’ aningdurkim:

*Qaysi bir gulchehra ul gulbargi xandonimcha bor,
Qaysi bir shamshod qad sarvi xiromonimcha bor?*

Bu matla’i ham bag‘oyat oshiqona va muxlisona voqe’ bo‘lubturkim:

*Do‘ston, har gah guzar so‘yi mazori man kuned,
Jon takbiram duoi joni yori man kuned.*

(Tarjimasi: Do‘stlar, goho mozorim tomon kelib turing, Menga fотиha o‘qish o‘rniga yorimni duoi jonini qiling).

Devon ham jam qilibdur. Yaxshi matla’lari bu muxtasarg‘a sig‘mas, magar yana bir kitob bitilgay¹⁸⁷.

Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostoni oxirida Shoh G‘arib Mirzog‘a alohida bob bag‘ishlab, unga nasixatlar qilgan edi¹⁸⁸.

Navbatdagi 18 Temuriy shahzoda Faridun Husayn Mirzo ibn Sulton Husayn Mirzo zikri o‘rin olgan: “Faridun nasabliq va Husayn nasabliq. Zoti ta’zim va viqorlig‘ va xulqi adab va hurmat shiorliq, yoy kuchida yagona va o‘q otarda zamona ahlig‘a nishona. Toat va taqqiyaga moyil. Zikr va tilovatqa mashg‘ul yigitdur. Xub tab’i va muloyim zehni bor. Bu matla’ aningdurkim:

*Garchi dar ko‘i tu pomoli jafо gardidam,
Ba xudo gar sari mo‘e zi vafо gardidam.*

(Tarjimasi: Garchi sening ko‘yingda meni jafо yezib yuborgan esa-da, azbaroyi xudo, vafо yo‘lidan qilcha chetga chiqqanim yo‘q).

Tazkirada nomi zikr qilingan 19 shahzoda Muhammad Husayn Mirzo ibn Sulton Husayn Mirzodir: “Xaloyiq ani adolat va shijoat va saltanatoyinida ko‘p ta’rif qilurlar, ammo ulcha zohir bo‘ldi –bag‘oyat sarkashlik va begonavashlik

¹⁸⁵ Алишер Навоий. Хамса, 135-139 бетлар.

¹⁸⁶ O‘sha asar, 139-140-betlar. Shahzoda Badiuzzamon madhi yana “Saddi Iskandariy” dostoni boshida (10-qism) ham mavjud. Xamsa, 644-645-betlar.

¹⁸⁷ Алишер Навоий, Мажолис, 416 бет.

¹⁸⁸ Алишер Навоий. Хамса, 330-331 бетлар.

go‘yo zotida bor. Har taqdir bila derlarkim, bu matla’ aningdurkim va yaxshi tushubdur:

*Oludai gardi zi pai saydki, gashti,
G‘arqi araqe bar dili garmki, guzashti.*

(Tarjimasi: Ov ketidan yurib, changga botding; haroratli dil ketiga tushib, terga g‘arq botding)¹⁸⁹.

Tadqiqotchilar uni Zahiriddin Muhammad Boburga qarshi fitnalarda, janglarda qatnashgani, lekin qo‘lga tushganda uni kechirib yuborishganini yozishadi. U Boburni g‘aybat qilib yurgan va Muhammad Shayboniyxon yoniga borganda uni qatl qilib yuborishgan ekan¹⁹⁰.

Alisher Navoiy nomini zikr qilgan shahzodalarning 20 Boysung‘ur Mirzo (1477-1499) ibn Sulton Mahmud Mirzodir: “tab‘i diqqatliq va zehni javdatliq. Saltanat taxtida faqrpeshlik va makrumat bisotida fanoandeshlik yigitdur. Fazoyil va hunarlarga rog‘ib va fazl ahli taqviyatig‘a murtakib. Nazm oyini dag‘i anga maqbul va gohi ul fikrga tab’ mashg‘ul. Bu matla’ aningdurkim:

*Kosh dar ishqı buton devonae boshad kase,
Tarki olam karda dar vayranae boshad kase”.*

(Tarjimasi: Koshki edi, sanamlar ishqida biror kim devona bo‘lsa. Olamni tark yetib, vayrona bolsa biror kishi)¹⁹¹.

O‘z og‘a-inilari orasida eng iste‘dodli bo‘lgan bu shahzoda o‘z tarbiyachisi amir Xusravshoh tomonidan qatl etilgan¹⁹².

Tazkirada nomi zikr qilingan shahzodalardan yana biri Sulton Mas‘ud Mirzo ibn Sulton Mahmud Mirzodir: “ravshan zehnlık va mustahsan tab‘liq va pokiza xisol va mahmud faol yigitdur. Vafo va diljo‘ylik aning shiori, saxo va darveshxo‘ylik aning atvori. Mulk ravnaq va intizomida axtari mas‘ud. Nazm zeb va ziynat itmomida abnoi maqsud. Bu turkcha matla’ aningdurkim:

*Yor borib jonga qo‘ydi bog‘i furqat, ey rafiq,
Ko‘ngluma kor yetmasunmi dardi g‘urbat, ey rafiq?”¹⁹³*

Tazkiraning yettinchi majlisi oxirida shahzoda Sulton ali Mirzo ibn Sulton Ahmad Mirzo nomi zikr qilingan: “holo Samarqand mulkida saltanat taxtida mutamakkindur. Derlarki, tab‘i nazmg‘a moyildur. Bu matla’ andin naql qilurlarkim:

*Vaslida mag‘rur bo‘ldung hajrida zor, ey ko‘ngul,
Ne aning birla, ne onsiz, toqating bor, ey ko‘ngul”¹⁹⁴.*

Ushbu majlisni Alisher Navoiy shunday yakunlaydi: “Bu olijanob podshohlar va anjumsipoh falak dastgohlardin avvalg‘i Jamshid va Faridun monand ota bila farzandga so‘nggi avlod va axfod va amjodda falak Jamshid va Faridung‘a ichirganek, ayog‘in ichichrdi va vujud bazmgohidin surdi va adam

¹⁸⁹ O‘sha asar, 417-bet.

¹⁹⁰ O‘sha asar, 721-bet.

¹⁹¹ Алишер Навоий. Мажолис, 417, 721 бетлар.

¹⁹² Захирддин Мухаммад Бобур энциклопедияси /Тахрир хайъати А. Қаюмов ва бошқалар, -Тошкент: “Шарк”, 2014, 182-183 бетлар.

¹⁹³ Алишер Навоий. Мажолис, 417 бет.

¹⁹⁴ O‘sha joyda.

faromushxonasig‘a kiyurdikim, dunyoda Haq taolo alarni shohi taxtgir qilg‘ondek oxiratda ham muqarrabi dargoh va arshi sarir qilg‘ay. Va alarning mulki taxt va saltanatin va toju sipoh va hashamatini alar vorisi barhaq va mulkka horisi mutlaq, ya‘ni Sulton Sohibqirong‘a musallam tutg‘ay va ruhlarining sham‘in ham o‘z o‘choqlari shu‘lasi bila yoritgay va soyir shahzodalar dag‘i bu davlatdin bahramand va shoh inoyatidin sarbaland bo‘lg‘aylar”¹⁹⁵.

Ushbu tadqiqotda asosan Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasidagi Amir Temur va Temuriyzodalar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilishga harakat qildik¹⁹⁶. Zarurat yuzasidan “Xamsa” dostonlaridagi ma‘lumotlarga e‘tibor qaratildi. Aytish kerakki, shoirning she‘riy asarlarida ham Temuriylar nomlari juda ko‘p o‘rinlarda zikr qilingan, lekin ularni o‘rganish yana bir boshqa tadqiqot mavzusi bo‘lishi mumkin.

Xulosa sifatida shuni ta‘kidlash kerakki, Alisher Navoiy Amir Temur va boshqa Temuriylar nomini shunchaki eslatmasdan, ularning olijanobliligi, kechirimliligi, adolatpeshaligi hamda o‘rni kelganda ikki Temuriyzoda Abdullatif va Sulton Abu Sa‘id Mirzo taqdiri misolida salbiy munosabatini bildirgan.

Adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Қомусий луғат, биринчи жилд, -Тошкент: “Sharq”, 2016.
2. Алишер Навоий. Вақфия/ Тўла асарлар тўплами, 9 жилд, Тошкент, 2012.
3. Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис / Тўла асарлар тўплами, 9 жилд, Тошкент, 2012
4. Т. Темурийлар шажараси, -Тошкент: “Ёзувчи”, 1995, 166 бет.
5. Bobokalonov S. R. Hoja Ismat va turkigo‘y zamondoshlari she‘riyatining janrlari, uslubi, badiiyati. F.f.n. unvonini olish uchun yozilgan diss.- Buxoro, 2012
6. Roxburgh D. The Persian Album. 1400-1600. –Yale University, 2005.
7. Заҳирдин Муҳаммад Бобур энциклопедияси /Таҳрир ҳайъати А. Қаюмов ва бошқалар, -Тошкент: “Шарқ”, 2014

¹⁹⁵ O‘sha asar, 417-418-betlar.

¹⁹⁶ Alisher Navoiy va tarix mavzusi O. Jo‘raboevning “Navoiy va tarix”, (Toshkent: “Tamaddun”, 2016) asarida yoritilgan.

MANBASHUNOS OLIM MUHAMMADJON HAKIMOVNING NAVOIY ASARLARI QO‘LYOZMA NUSXALARINI O‘RGANISHDA TADQIQ METODI VA TAMOYILLARI (“Majolisun-nafois” asari nusxalari asosida)

Feruza QARSHIYEVA

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Anotatsiya: Maqolada Manbashunos olim Muhammadjon Hakimovning Navoiy asarlari qo‘lyozma nusxalarini o‘rganishda foydalanadigan tadqiq metodilari va tamoyillari haqida, ustoz olimning tadqiqot usuli va monografik va poligrafik tadqiq usullari haqida “Majolisun-nafois” asarining 3 ta qo‘lyozma nusxalari ustida olib brogan izlanishlari asosida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: qo‘lyozma nusxa, katalog, qiyosiy-chog‘ishtirma metod, ko‘p nusxali asar, ilmiy-tanqidiy matn, asl matn, kotib, kitobat, zarrinqalam, poygir.

Abstract: The article discusses the research methods and principles used by the source scholar Muhammadjon Hakimov in the study of manuscript copies of Navoi's works, about the research method and monographic and polygraphic research methods of the master scientist based on his research on 3 manuscript copies of "Majolisun-nafois" is conducted.

Key words: manuscript copy, catalog, comparative and comparative method, multi-copy work, scientific-critical text, original text, scribe, book, gilded pen, poygir.

Muhammadjon Hakimovning asosiy ilmiy izlanishlari Alisher Navoiy asarlari nusxalarini tadqiq etishga bag‘ishlangan. Muhammadjon Hakimov tomonidan tayyorlangan va 1976-yilda nashr ettirilgan “Navoiy “Xamsa”si qo‘lyozmalari tavsifi” nomli katalogda O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik va Qo‘lyozmalar institutida saqlanadigan “Xamsa” asari qo‘lyozmalari ilmiy tavsiflanadi. Alisher Navoiy asarlari qo‘lyozmalarining Sharqshunoslik institutida 400 jilddan ortiq, Qo‘lyozmalar institutida 250 dan ortiq nusxalari mavjud. Bu noyob va nodir manbalarning dastlabkilari XV asrda – Navoiyning tiriklik chog‘ida ko‘chirilgan bo‘lsa, eng so‘nggilari XX asr boshlarida kitobat qilingan. Mazkur qo‘lyozmalar orasida Navoiyning shoh asari “Xamsa”ning nusxalari alohida o‘rin egallaydi. “Xamsa”ning Sharqshunoslik institutida 112 ta, Qo‘lyozmalar institutida 60 ta nusxasi bor. Ushbu katalog har ikkala instituti fondida saqlanadigan Navoiy “Xamsa”si qo‘lyozmalarining tavsifini o‘z ichiga oladi. Sharqshunoslik instituti fondidagi “Xamsa” nusxalari tavsifini filologiya fanlari kandidati M.Hakimov tuzgan”¹⁹⁷.

¹⁹⁷ Хакимов М. Навоий “Хамса”си қўлёзмаларининг тавсифи. – Тошкент. “Фан”, 1976 й. (Қ.Муниров билан ҳамкорликда) 57 б.

Ustozning 1983-yilda nashr etilgan “Navoiy asarlari qo‘lyozmalarining tavsifi” kitobi buyuk shoirning asarlarini qo‘lyozma nusxalari tavsifiga bag‘ishlanadi. Yuqoridagi katalogga nisbatan bu katalog bir muncha mukammalroq va ilmiy ma‘lumotlar anchayin to‘laroq berilganligi bilan ajralib turadi.

Kitob katalog shaklida yozilgan bo‘lib, unda shu davrdagi H.Sulaymonov nomidagi qo‘lyozmalar instituti fondidagi Alisher Navoiy qalamiga mansub 24 ta asarning 254 ta qo‘lyozma nusxasi tavsifini o‘z ichiga oladi. Katalog ko‘rinishidagi kitob matnshunoslik va manbashunoslik xarakterida tuzilgan va ayrim noyob nusxalarga monografik tavsif berilgan. Mazkur katalog 200 sahifadan iborat bo‘lib, unda so‘z boshi va qo‘lyozmalar tavsifidan so‘ng turli ko‘rsatkichlar keltiriladi.

Ushbu katalogda “Majolisun-nafois” asarining 3 ta nusxasi bo‘lib har uchala nusxa batafsil ilmiy tahlildan o‘tkaziladi va batafsil tavsif berib o‘tilgan. Ushbu nusxalar haqidagi dastlabki ma‘lumotlar Muhammadjon Hakimovning “Majolisun-nafois”ning yangi nusxalari” nomli maqolasida to‘la va batafsil holda keltiriladi. Maqola Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyining adabiy nashri bo‘lgan “Adabiy meros” jurnalining 1980-yilgi 14-sonida e‘lon qilingan.

Birinchi nusxa: № 429 tartib raqam bilan berilgan asarning bu nusxasi mo‘tabar nusxalardan biri bo‘lib Qo‘qondan topilgan vas hu boisdan ilm ahli “Majolisun-nafois” asarining Qo‘qon nusxasi deya nom olgan. Qo‘lyozmaning 85a varog‘ida kotib va kitobat tarixi xususida shunday ma‘lumot qayd etilgan:

از يد محمود انيرين زرین قلم اختتام پذیرفت و ر سنه ۹۹۶ بفرمایش ملیک اسکندر رومی¹⁹⁸

(Az yodi Mahmud anbarin zarrinqalam ixtotom paziruft, dar sana 996 ba farmoyish Malik Iskandar Ro‘miy)

Malik Iskandar Ro‘miy farmoyishi bilan 996-yilda Mahmud anbarin zarrinqalam qo‘li bilan ko‘chirildi.

Tazkiraning bu nusxasini boshqa mo‘tabar nusxalar va 1961-yilda Suyuma G‘aniyeva tomonidan tayyorlangan ilmiy-tanqidiy matniga qiyosiy-chog‘ishtirma tadqiq usuli bilan tekshirilganda quyidagi tafavutlar aniqlanadi:

– Tazkiraning Qo‘qon nusxasida 352 ta shoirlar haqida ma‘lumot keltiriladi, ilmiy tanqidiy matnda 459 ta shoir kiritilgan. Ustoz olim tomonidan ushbu nusxa asarning ikkinchi taxrir nusxasidan ko‘chirilgan degan xulosaga kelingan.

– Qo‘qon nusxasida boshqa mukammal nusxalar va hatto ilmiy tanqidiy matnga ham kirmay qolgan 2 ta shoir haqida ma‘lumot uchraydi. Ulardan biri ikkinchi majlisda Mavlono Huzuriy deb nomlangan. Uning maqolasi quyidagicha keltiriladi:

مولانا خضوری تورکوش کیشی ایردی و اصلی عراق مملکتی دین بولور طبعی غزدا صاف ایردی بو
انینک دور کی :

زسودای رح و زلفت مرانی دل نه دین مانده
تن و جان فکاری از غم عشقت هامین مانده¹⁹⁹

¹⁹⁸ Ҳақимов М. Навоий асарлари қўлёзмаларининг тавсифи. – Тошкент. “Фан”, 1983 й. 186б.

Mavlono Huzuriy turkvash kishi erdi va asli Iroq mamlakatidin bo' lur. Tab'i g'azalda sof erdi. Bu aningdurkim:

Zi savdoi ruhu zulfat maro ne dil na din monda,

Tanu jon figoriy azg'ami ishqat hami monda.

Ikkinchi shoir oltinchi majlisning oxiriga kiritilgan o'zbek tilida ijod qiluvchi Mavlono Jafoiy degan shoirdir. Mavlono Jafoiyning maqolasi:

مولانا جفایى حصاردين دور لقبىنى غولكى هم ديرلار شاه غازى ملازمتيدا بولور ايردى اندين
سونكرا خوش طبع لار مجلسيدا كيلور ايردى فهم دين سوز چقيب ايركاندور اهل مجلس تعريف قليب
دورلار كيم مولانا جفایى فهم ليک بيكت تورور مقابله دا ايتب دورور كيم ميرزا دولتى بولسون فهم نينک
سوزى بولدى هر تقدیربىلا بو بيت انينک دور كيم

هجر ارا اولدوم غمينک دين نتي بير سورسانک ميني
هر سوزونک بير لا باشيمنى کوککا يتکورسانک ميني

Mavlono Jafoiy – Hisordindur. Laqabini G'o'lakiy ham derlar. Shoh G'oziy mulozamatida bo' lur erdi. Fahimdin so'z chiqib erkandur, ahli majlis ta'rif qiladurlarkim, Mavlono Jafoiy fahimlik yigit turur. Muqobalada aytibdurlarkim Mirzo davlati bo'lsun. Fahimning so'zi bo'ldi. Har taqdir bila bu bayt aningdurkim:

Hajr aro o'ldum g'amingda netti bir so'rsong mani,

Har so'zing birla boshimni ko'kka etkursong mani.

Bu ikki shoirni qo'shsak, "Majolisun-nafois" dagi shoirlar sonini 461 taga etadi.

Qo'lyozmada varaqlarning izchilligini ko'rsatuvchi poygir alomatlari to'liq, asosiy matnda xato ketgan so'zlar kotibning o'zi tomonidan Qalam bilan xoshiyaga tuzatib qo'yilgan. Qo'lyozmadagi 8 ta shoirning maqolasidan so'ng "Bu matla' aningdur" iborasidan so'ng she'riy parcha yozilmay o'rni bo'sh qoldirilgan.

XVI asr o'zbek adabiyotining qomusi hisoblangan "Majolisun-nafois" ning mavjud qo'lyozmalari qatoriga yana bir mo'tabar nusxa qo'shildi. Ushbu nusxa ustida manbaviy, adabiy va poligrafik izlanishlar olib brogan ustoz olim quyidagicha xulosalarni keltiradi. "Bu qo'lyozma birinchidan, qadimiyligi – XVI asrning ikkinchi yarmida ko'chirilishi, ikkinchidan, "Majolisun-nafois" birinchi tahririning mukammal nusxasi bo'lishi, uchinchidan, boshqa nusxalarda bo'lmagan Mavlono Huzuriy va Mavlono Jafoiy haqidagi ma'lumotlarning mavjudligi, to'rtinchidan, XVI asrning ustoz kotiblaridan Mahmud binni Is'hoq Shahobiy anbarin zarrinqalam qo'li bilan yozilishi, ayni zamonda uning tabarruk dastxati, beshinchidan, XVI asr Buxoro husnixat va kitobat san'atining noyob yodgorligi, oltinchidan, Shayboniylar davrida Navoiy tazkirasiga zo'r qiziqish va ehtirom bilan qaralganligining guvohi bo'lishi bilan ahamiyatlidir".²⁰⁰ Keltirilgan xulosalardan kelib chiqib aytish mumkinki, ustoz olim ushbu qo'lyozmani qiyosiy-

¹⁹⁹ Хақимов М. "Мажолисун – нафоис"нинг янги нусхалари. – Адабий мерос. 14. Тошкент, 1980 й 44б.

²⁰⁰ Хақимов М. "Мажолисун – нафоис"нинг янги нусхалари. – Адабий мерос. 14. Тошкент, 1980 й. 40-49 б.

chog'ishtirma tadqiq usuli bilan ham badiiy, ham manbaviy, ham poligrafik tomondan chuqur tahlil etgan.

“Majolisun-nafois”ning yangi topilgan nusxasi 1968-yilda Toshkent shahrining Ko'kcha dahasida turuvchi Olim Boqiyevdan olingan Navoiy kulliyotining tarkibidagi nusxadir. Nusxa XIX asrda ko'chirilgan Alisher Navoiy kulliyotining mo'tabar nusxalaridan biridir. Uni besh yil mobaynida 1240-1245-yillar Sharqiy Turkistonning Koshg'ar shahrida uyg'ur adabiyotining klassik namoyondasi Abdurahim Nizoriy ko'chirgan. Asar kulliyot tarkibida ikkinchi o'ringa (debocha va “Xazoyinul-maoniy” dan so'ng) qo'yilgan. Kiritilgan shoirlar soni 345 ta va majlislardan 4 tasida xotima bor, qolganlarida yo'q. Muhammadjon Hakimov nusxaning ushbu monografik xususiyatlariga tayangan holda (ya'ni xotima faqat asarning ikkinchi tahriridagina bo'lgan) uni asarning uncha to'liq bo'lmagan ikkinchi tahriri qo'lyozmasidan ko'chirilgan deya xulosa beradi.

Asarning katalogga kiritilgan № 1435 – 11 tartib raqam bilan saqlanuvchi keying, uchinchi nusxasi XIX asrda ko'chirilgan oddiy nusxalardan biridir. Qo'lyozmaga 297 ta shoir kiritilgan va bu qo'lyozmani sinchkovlik bilan o'rganib chiqqan olim uni asar birinchi tahririning ancha qisqartirilgan nusxasi deya xulosa beradi. Qo'lyozmada nusxaning kotibi, kitobat o'rni va tarixi haqida hech qanday ma'lumot keltirilmagan. Asar so'ngidagi bo'sh varoqlarning biriga muvashshah yozilgan va uning ostidan 1289 [millodiy 1872] sana yozilgan. Muhammadjon Hakimov shu belgi va nusxaning muqova qog'ozi, xat belgilariga asoslangan holda qo'lyozmani XIX asrning o'rtalarida ko'chirilgan deya xulosa beradi.

Keltirilgan nusxalarning har biri o'ziga xos xususiyatlari bilan ilm ahli uchun juda katta boylikdir. Ustoz olim har uchala nusxaga ham o'zgacha yondashgan holda tadqiq etgan va ularning har biriga alohida yuksak baho bergan. Birinchi nusxaga asarning juda qimmatli bo'lgan mo'tabar nusxasi sifatida baho bergan. Ikkinchi nusxaga va Abdurahim Nizoriy ko'chirgan kulliyotga Navoiy merosining uyg'ur xalqi o'rtasida keng tarqalganligi, ulug' insonparvarlik fikrlari bilan uyg'ur xalqiga ma'naviy ozuqa baxsh etganligi, g'oyaviy yuksak, badiiy barkamol ijodi bilan uyg'ur adabiyotiga ta'sir ko'rsatganligining isboti bo'lib qoluvchi hujjat ekanligi bilan ahamiyatli bir nusxa deya ta'rif bergan. Uchinchi nusxa XIX asrda Qo'qon adabiy muhitida Navoiy tazkirasiga bo'lgan qiziqish, Navoiy asarlarini ko'plab nusxalarda ko'chirish va xalq orasida tarqatish borasidagi anananing jonli bir ifodasi sifatida qimmatlidir.

Yana shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, sharq manbashunosligi va matnshunosligida asl matnning puxta va ishonchli bo'lishini ta'minlaydigan asosiy omillardan biri tadqiq etilayotgan asar qo'lyozmalarining ko'p bo'lishligidir. Bu haqida Sharq adabiyotining katta bilimdoni Y.E.Bertels “Yaqin va O'rta Sharq xalqlari klassik adabiy yodgorliklarining tanqidiy nashri metodikasi masalalari” nomli maruzasida “O'qilgan qo'lyozmalarning soni qancha ko'p bo'lsa, tuman shunchalik tarqalib, masala oydinlashib boradi. Bu faqat mehnat bilan qo'lga kiritiladi. Tadqiqotchining qo'lidan yuzlab, minglab qo'lyozmalar o'tsa, ilgari amalga oshirib bo'lmaydigandek tuyulgan masala oddiylashadi ham

oydinlashadi”²⁰¹ degan edi. Shuning uchun ham topilgan har bir nusxa Alisher Navoiy ijodiy merosining qaysidir tomonlarini to‘ldirishi, mavhum o‘rinlariga aniqliklar kiritishi mumkin.

Muhammadjon Hakimov o‘z ilmiy faoliyatida juda ko‘plab qo‘lyozma va toshbosma nusxalar ustida ishlaydi. Nusxalarni tekshirish mobaynida qiyosiy-tipalogik, tekstalogik va shu bilan birga monografik, poligrafik tadqiq usullaridan keng foydalanadi. Ustoz olimning ilmiy izlanishlari va ilmiy merosi bugungi davr adabiyotshunoslik va matnshunoslik sohalari uchun juda katta ilmiy boylik bo‘lishi bilan bir qatorda, olimning tadqiqot usullari va yo‘nalishi o‘zidan keying olimlar va izlanuvchilar uchun o‘ziga xos ilmiy tadqiqot maktabi bo‘lib qoldi.

Adabiyotlar:

1. Накимов М.Навоий асарлари қо‘лёмаларининг тавсифи. – Тошкент. “Фан”, 1983 й.
2. Накимов М. Навоий “Хамса”си қо‘лёмаларининг тавсифи. – Тошкент. “Фан”, 1976 й. (Q.Муниров билан ҳамкорликда)
3. Накимов М. Алишер Навоий асарларини ко‘чирган хаттотлар. – Тошкент. “Фан”, 1991 й.
4. Накимов М. Шарқ манбашунослиги луг‘ати – Тошкент. “Даврпресс НМУ”, 2013 й.
5. Шамсийев П. О‘збек матншунослигига оид тадқиқотлар. – Тошкент. “Фан”, 1986-й.
6. Набибуллаев А. Адабий манбашунослик ва матншунослик. – Тошкент. Тошкент Давлат Шарқшунослик институти, 2000 й.
7. Сирожиддинов Ш, Умарова С. О‘збек матншунослиги қирралари – Тошкент Академнашр, 2015 й.
8. Сирожиддинов Ш. “Алишер Навоий манбаларининг қиёсий-типологик, текстологик таҳлили – Тошкент Академнашр, 2011 й.
9. Навоий А. Мукамал асарлар топлами. 20 жилдлик, 8-жилд. – Тошкент: Фан, 1991.-544б.
10. Навоий А.Мукамал асарлар топлами. 20 жилдлик, 13-жилд. – Тошкент: Фан, 1997.-284б
11. Накимов М. “Мажолисун – нафоис”нинг уанги нусхалари. – Адабий мерос. 14. Тошкент, 1980 й

²⁰¹ Бертельс Е. Э. Вопросы методики критических изданий классических памятников литературы народов Ближнего и Среднего Востока. Материалы Всесоюзной конференции востоковедов в Ташкенте. 1957.

HOFIZ XORAZMIYNING IJODIY MEROSINING MA'RIFIY-DIDAKTIK AHAMIYATI

Shukurjon KURBANOVA

Urganch Davlat Pedagogika Instituti mustaqil tadqiqotchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Hofiz Xorazmiyning ijodiy merosining ma'rifiy-didaktik ahamiyati va janr xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit soʻzlar: Hofiz Xorazmiy, devon, janr, sevinch, sogʻinish, sadoqat, vafo, visol, judolik, masʼuliyat, javobgarlik, ijodkor, oshiq va maʼshuqa obrazlari.


Abstract: This article discusses the educational and didactic significance of Hafiz Khorezmi's creative heritage and genre features.

Key words: Hafiz Khorezmi, divan, genre, longing, loyalty, loyalty, responsibility, separation, responsibility, joy, creator, lover and mistress images.

Badiiy adabiyot tabiat gultoji sanalmish hazrati inson bilan egizak dunyo yuzini koʻrgan sanʼat turlaridan biridir. Inson yaratilibdiki, oʻzi yashayotgan borliq sir-u sinoatlari bilan oshno boʻlgisi, ulardan maʼnaviy kuch, shavq-zavq olgisi, ichki kechinmalari, orzu-intilishlari, ruhiy holatlari oʻzigagina hadya etilgan oliy neʼmat - soʻzda badiiy, boʻyoqli tarzda ifodalagisi keladi. Badiiy ijod uning nodir namunalarini yaratuvchi maʼlum bir xalqning eʼtiqodiy qarashlari majmuasidan bahramand boʻladi. Shu maʼnoda, u oʻsha xalq dunyoqarashi, maʼrifiy olami va maʼnaviyatini badiiy aks ettiradi. Shunga koʻra, alohida xalqlar nomlari bilan ataluvchi adabiyotlar, didaktik qarashlari vujudga keladi. Xalqimiz maʼnaviy madaniyatining ajralmas qismi boʻlmish turkiy xalqlarning hayot yoʻli esa oʻzbek adabiyotida namoyon boʻlgan. Ana shunday betakror qalam ahllaridan biri Hofiz Xorazmiydir. Shoirning hayoti va ijodiy merosi haqida 1975-yilgacha, yaʼni devoni Hindistonning Haydarobod shahridagi Salorjang muzeyidan topilgunga qadar ilm ahli hech qanday maʼlumotga ega boʻlmagan. Faqat, shu devonni aniqlagan va yurtimizga fotonusxasini olib kelgan professor Hamid Sulaymon shoir haqida bir necha ommaviy nashrlarda maqolalar eʼlon qildi.²⁰² Hamid Sulaymonning tadqiqotlari asosida 1981-yilda nashr etilgan ikki jildli Hofiz Xorazmiyning oʻzbekcha va tojikcha sheʼrlar devoni, undagi oshiq va maʼshuqa obrazlari orqali ifodalangan Hofiz Xorazmiyning didaktik qarashlari muhim ahamiyat ega. Hozirgi kunga qadar aniqlangan Hofiz Xorazmiyning butun merosi 37 ming ta misradan ortiq yoki 18632 ta bayt desak xato boʻlmaydi. Jumladan, uning devon 9 ta qasida, 1 ta tarkibband, 3 ta tarjiʼband, 1 ta muxammas, 1 ta marsiya, 1052 ta gʻazallar, 2 ta mustazod, 31 ta qitʼa, 12 ta ruboiydan iborat (1.1.1-rasm). Ushbu ilmiy meros mamlakatimizning F.Sulaymonova, S.Hasanov, I.Haqqulov, A.Rustamov, Sh.Sharipov va M.Rahmatullayeva kabi olimlarining

²⁰²Сулаймон Х. Ўзбек шоири Хофиз Хоразмий ва унинг Ҳайдарободдан топилган девони. // Ж.: Адабий мерос. - Т.,1976. 6-сон., - 34-43 б.

tadqiqotlari natijasida ochib berilgan bo'lsa, yosh tadqiqotchilar tomonidan rivojlantirilmoqda.



1.1.1-rasm. Hofiz Xorazmiy devonidagi janrlarning soniga nisbatan foiz (%) shaklidagi qiyosiy ko'rinishi²⁰³

Hofiz ijodi, uning didaktik qarashlari o'zbek va boshqa turkiy xalq shoirlari ijodida bo'lgani kabi xalqning o'z mustaqilligi uchun olib borgan mardonavor kurashlarining bo'yoqdor tasvirlari bilan to'la, faqat syujet va g'oyaviy mazmuniga o'xshab ketuvchi "Ishq bobida ozodlik va erkinlik" mavjud. Shunisi diqqatga sazovorki, "Ishq" masalasi atrofida faqat oshiq orzu-havaslar emas, balki xalqning erkinlik va farovonlik, madaniy taraqqiyot, tenglik va hamjihatlik to'g'risidagi azaliy orzularini amalga oshirish kabi masalalar ham ilgari suriladi. Ushbu jihatlar Turkiyalik adabiyotshunos Ogah Sirri tadqiqotida ham o'z tasdig'ini topadi.

Hofiz poetik merosida aks etgan didaktik qarashlari asosan ishqiy-romantik jarayonlar silsilasida Xorazm lahjasida bayon etilgan, desak xato bo'lmaydi. Albatta, bunday yondashuvlar Xorazm folklori va yozma adabiyotida ayrim asarlarni, ba'zi syujet, motiv va obrazlarni davrga xos o'zlashtira borib, qalamkashlarga o'z davri ruhi, mahalliy va milliy an'alarini singdirib asarlar yaratish imkonini bergan va bu asrlar davomida Sharq poeziyasiga xos muhim xususiyatlardan biri bo'lib shakllangan. Zero, Hofiz Xorazmiy devonda obrazlar talqinidagi didaktik qarashlari Sharq mumtoz adabiyoti an'anasining yanada takomillashgan, mavjud obrazlarning ifoda miqyosini kengaytirgan hamda asosiy oshiq-ma'shuq hamda ikkinchi darajali obrazlar talqinidagi yondashuvini sof ishqning falsafiy-gumanizm darajasida ko'rsata olgan. Ushbu yondashuvga asoslanib, Hofiz didaktik qarashlarida oshiq va ma'shuq shaxsi hamda ularning ilohiy ishq borasida umumiy tadqiq qilinadigan xususiyatlari oddiy insonning oshiqlik borasida hukmdor singari ulug'lanishini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, turk adabiyotshunosi Ahat Ustunerning "Xorezmli Hâfiz Divanında Türk Adı"²⁰⁴ nomli maqolasida keltirgan fikrlari buni tasdiqlaydi.

²⁰³ Muallif tomonidan tuzilgan.

²⁰⁴ Üstüner A. Hârezmli Hâfiz Divanında Türk Adı. // Turkish Studies - International Periodical For The Languages, Literature and History of Turkish or Turkic Volume 9/6 Spring, 2014, Ankara-Turkey. - 1107-1116 p.

Umuman olganda, Hofiz hayoti va ijodi Turkiyada ham o'rganilgan va o'rganilmoqda. Turkiyalik professor Rejep Toparli tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar so'zimizni dalillaydi. Rejep Toparlining 1984-yildagi "Chag'atoy shoiri Hofiz Xorazmiy" risolasi²⁰⁵, 1986-yildagi "Hofiz Xorazmiy devonining grammatikasi va devondan tanlangan she'rlar" risolasi²⁰⁶, 1994-yildagi "Xorazm Hofiz devonidan saylanmalar" kitobi²⁰⁷ va 1998-yildagi "Xorazmli Hofiz devonining matn kabi bosma sharhi" nomli risolalari²⁰⁸ orqali Hofiz hayoti, ijodi haqidagi ma'lumotlar bilan turkiyalik va boshqa kitobxonlar batafsil tanishtirishi mumkin.

Yurtimiz mustaqillikka erishgandan so'ng ta'lim-tarbiya masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki ta'lim tarbiya - ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini xam belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Zero, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda "Ta'lim-tarbiya – bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi".²⁰⁹ Mamlakatda ta'lim sohasida olib borilgan islohotlarning bosh yo'nalishlaridan bir bu yoshlarning maktab, professional va oliy ta'lim sohasida bilim olishlari, zamonaviy kasb-hunar egalari bo'lib, jamiyatining turli jabhalarida o'z iqtidorini namoyon etishga qaratilmoqda. Kunimizda ta'lim sifatini oshirish, buning uchun kurashish ijtimoiy harakatga aylandi desak mubolag'a bo'lmaydi. Shiddat bilan o'zgaryapti dunyoda bu tabiiy hol, albatta. Ammo, shuni unimaslik kerak-ki, bunday o'zgarishlarni tez va ko'p his etuvchi yoshlar hisoblanadi. Bu o'zgarishlar ularni o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lishga undaydi. Bu jarayonga ular o'zligini unutmasligi uchun inkor etilmas jamiyatning muhim vazifalari shakllanadi. Biz kimmiz, qanday buyuk ajdodlarimiz bor, qaysi ulug' zotlarning avlodimiz, men bobolarimga munosib farzand, ezgu ishlariga davomchi bo'lishim kerak degan da'vat doimo ularning qalbida yangrab, vatanga sadoqatni sharaflab tutishi kerak. Bunday namuna bo'luvchi bobolarimizdan biri albatta Hofiz Xorazmiy. Shoirning asarlarida ifodalangan umumbashariy g'oyalar er yuzidagi barcha xalqlar uchun birdek qadri va ahamiyatlidir. Binobarin, uning serqirra ijodini o'rganish har jihatdan adabiyotshunoslarni o'ziga jalb etadi. Zotan, bular qadimiy o'zbek adabiyoti va turkiy tilining ajoyib, bebaho qo'lyozmasi bo'lmish Hofiz devonini har yoqlama o'rganish, shoirning adabiyotimiz va madaniyatimiz taraqqiyotiga qo'shgan hissasini aniqlashga asos bo'lib xizmat qilishi shubhasiz. Darhaqiqat, bu devon

²⁰⁵ Rejep T. Çağatay Şâiri Hâfiz Hârezmî., Türk Dünyası Araştırmaları (Şubat). - İstanbul: 1984. - 1-32 s.

²⁰⁶ Rejep T. Hafız Harezmi Divanı Üzerine Bir Gramer Denemesi ve Divandan Seçilmiş Şiirler. - Erzurum: 1986, Atatürk Üniversitesi.

²⁰⁷ Rejep T. Harezmi Hafız Divanı'ndan Seçmeler. - Ankara: 1994, Kültür Bakanlığı Yayınları

²⁰⁸ Rejep T. Hârezmli Hâfiz'in Divanı İnceleme-Metin-Tıpkıbasım. - Ankara: 1998, Türk Dil Kurumu Yayınları

²⁰⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning maktab ta'limini rivojlantirish masalalari yuzasidan o'tkazgan videoselektor yig'ilishi materiallari. Toshkent, 28-yanvar 2022-yil. Manba: <https://yuz.uz/uz/news/talim-tarbiya--bu-bizning-kelajagimiz-hayot-mamot-masalasi--shavkat-mirziyoev>

o‘zbek xalqining ma’naviy merosi bo‘lishi bilan bir qatorda, turkiy tilli millat vakillarining va butun dunyo xalqlarining intellektual boyligidir. Bu jihatdan fikr va mulohazalarimizni bayon qilar ekanmiz, avvalo Hofiz Xorazmiy ijodida oshiq va ma’shuq obrazlari ilmiy tadqiq qilish davr talabi ekanini e’tirof etish joiz. Chunki, Hofiz Xorazmiy lirikasining badiiy xususiyatlari, tili, timsollar, ramz va badiiy vositalar, xususan, oshiq va ma’shuq obrazlarini o‘rganish, Hofiz Xorazmiy ijodining o‘zbek adabiyoti rivojida tutgan o‘rni va rolga ilmiy baho berish zamonaviy yoshlarimiz uchun tarbiya maktabi bo‘la oladi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan 2023-2024-o‘quv yili uchun tasdiqlangan adabiyot fani darsliklarida 5-11-sinf o‘quvchilariga 80 nafarga yaqin o‘zbek va jahon adabiyoti namoyandalari hayoti va ijodi, shuningdek, turli adabiy janrlar, badiiy tasvir vositalari haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘ladilar. Hofiz Xorazmiy ijodida oshiq va ma’shuq obrazlari mavzusi dolzarbligining ahamiyatidan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi umumta’lim maktablarida o‘quvchilarga o‘zbek va jahon adabiyotining namunalari bilan tanishtiruvchi, buyuk siymolarning, iste’dodli ijodkorlarning tarjimai hollarini aks ettiruvchi adabiyot darsliklarning hech birida Hofiz Xorazmiy shaxsi, uning ijodi bilan bog‘liq ma’lumotlar berilmaganini inobatga olib, u bilan bog‘liq ma’lumotlarni Xo‘ja Hofiz, Komil Xorazmiy, Hofiz Sheroziy, Xorazmiy²¹⁰, Hofiz hojilar qatorida adabiyot darsliklariga alohida bir mavzu sifatida kiritishni taklif qilamiz. Zotan, Hofiz Xorazmiy shaxsi Alisher Navoiygacha bo‘lgan davrda turkiy tilda ijod etgan, turkiy she’riyatda g‘azal janrini yuksak darajasiga ko‘targan, falsafiy qarashlari bilan ezgulikni targ‘ib etuvchi zabardast ijodkordir.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Hofiz Xorazmiyning ijodiy merosi mumtoz adabiyotimiz nodir javohirlaridan. Hofiz Xorazmiy devonidan keltirilgan sharqona ta’lim-tarbiya mazmuni, soda tilda ifodalangan ma’rifiy-didaktik qarashlari dunyoda miqyosida nufuzi ortayotgan Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo davlatlar va xalqlar, turkiy tilli elatlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash hamda madaniy ildizlari mushtarak xalqlar adabiyoti va tarixini o‘rganish ishtiyoqini va iftixorini oshiradi.

Adabiyotlar:

1. Jumaxo‘ja N., Adizova I. O‘zbek adabiyoti tarixi. -T.: Innovatsiya-Ziyo, 2020. - 540 b.
2. Xalliyeva G. Qiyosiy adabiyotshunoslik. -T.: Akademnashr, 2020. - 158 b.
3. Нофиз Хоразмий шеъриюатидан. -Т.: О‘зКПМК, 1980. - 123 б.
4. Нофиз Хоразмий. Девон. 2 том. 1-китоб. -Т.: О‘зКПМК, 1981. - 304 б.
5. Нофиз Хоразмий. Девон. 2 том. 2-китоб. -Т.: О‘зКПМК, 1981. - 312 б.
6. Üstüner A. Hârezmli Hâfiz Divanında Türk Adı. // Turkish Studies - International Periodical For The Languages, Literature and History of Turkish or Turkic Volume 9/6 Spring, 2014, Ankara-Turkey. - 1107-1116 p.

²¹⁰ Bunda XIV asrda yashab, turkiy va forsiy tilda ijod etgan shoir, “Muhabbatnoma” asari muallifi nazarda tutilmoqda.

7. Recep T. Çağatay Şâiri Hâfız Hârezmî., Türk Dünyası Araştırmaları (Şubat). - İstanbul: 1984. - 1-32 s.

8. Recep T. Hafız Harezmi Divanı Üzerine Bir Gramer Denemesi ve Divandan Seçilmiş Şiirler. - Erzurum: 1986, Atatürk Üniversitesi.

9. Recep T. Harezmi Hafız Divanı'ndan Seçmeler. - Ankara: 1994, Kültür Bakanlığı Yayınları

10. Recep T. Hârezmi Hâfız'ın Divanı İnceleme-Metin-Tıpkıbasım. - Ankara: 1998, Türk Dil Kurumu Yayınları

11. Сулаймонов М.Ю. Нофиз Хоразмий ва о'збек лирик шеъриятининг ривожі: Филол. фанлари номзоди ... дисс. -Тошкент, 1996. - 160 б.

12. www.yuz.uz

13. www.teis.yesevi.edu.tr

14. www.wikipedia.org

ARAB TILIDAGI MUROJAAT YUKLAMALARI VA ULARNING O'ZBEK MUMTOZ SHE'RIYATIDA QO'LLANILISHI

Sultonbek BOLTABOYEV

Oriental Universiteti Sharq tillari kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Dunyodagi barcha insonlar kundalik turmushda har kuni va har doim bir birlariga murojaat qiladilar. Turli xil muammolarni hal kilishda, insonning xis – tuyg'usini, holatini ifodalovchi so'zlar hamisha ham mavjud bo'lgan. Barcha tillarda bo'lgani kabi arab va o'zbek tillarida ham ana shunday holatlarni ifodalovchi murojaat yuklamalari mavjud bo'lib, ularning o'rni va ahamiyati har ikki tilda ham, ayniqsa she'riyatda beqiyosdir. Bunday yuklamalar arab tili grammatikasida حرف نداء yoki حرف ندبة ataladi, o'zbek tilida esa undov yoki undalmalar deb yuritiladi. O'zbek tilining akademik grammatikasida undov to'g'risida quyidagi fikrlar bildiriladi: undovlar boshqa so'z turkumlaridan turlanmasligi, maxsus grammatik ko'rsatkichlarga va mustaqil so'zlar kabi atab ko'rsatish xususiyatiga ega emasligi bilan farqlanadi. Undovlar leksik ma'noga ega emas, shuning uchun ham ular gap bo'laklari bilan aloqaga kirishmaydi va gapning biror bo'lagi bo'lolmaydi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida a, ah, o, oh, e, ey, eh kabi undovlar uchraydi. Undovlarning aniq ma'nosi kontekstdagina belgilanadi va ular so'roq, taajjub, ajablanish, hayratlanish, sevinch, mamnunlik, hafalik, achinish, e'tiroz, norozilik, ogohlantirish, g'azab, nafrat kabi ma'nolardan biri yoki bir nechtasini anglatib keladi. Undovlar modal ma'noni anglatadi va unda xis-hayajon, buyruk, istak kabi ma'nolar ustun bo'ladi.¹

Kalit so'zlar: Yuklama, murojaat yuklamalari, nido yuklamalari, she'r, she'riyat, g'azal, ruboiy.

Аннотация. Все люди в мире обращаются друг к другу каждый день и все время в своей повседневной жизни. В решении различных задач всегда были слова, выражающие человеческие чувства и ситуации. Как и во всех языках, в арабском и узбекском языках также есть референции, выражающие

такие ситуации, и их место и значение несопоставимы в обоих языках. Такие нагрузки есть в арабской грамматике называется 'حرف نداء' или 'حرف ندبة', а по-узбекски – восклицание. В академической грамматике узбекского языка по поводу восклицательных слов выделяются следующие моменты: восклицательные слова отличаются от других групп слов тем, что не имеют специальных грамматических показателей и признаков, подобных самостоятельным словам. Восклицательные знаки не имеют лексического значения, поэтому не соприкасаются с частями речи и не могут входить в состав предложения. В современном узбекском литературном языке есть такие восклицания, о, е, эй, а. Точное значение восклицаний определяется только в контексте, и они означают одно или несколько из следующих значений: вопрошание, удивление, радость, удовлетворение, разочарование, жалость, протест, предупреждение, гнев, ненависть. Возгласы имеют модальное значение, и в нем преобладают такие значения, как эмоция, команда, желание.

Ключевые слова: Частицы, частицы обращения, звательные частицы, стихи, газели, рубаи.

Annotation. All people in the world refer to each other every day and all the time in their daily life. In solving various problems, there have always been words that express human feelings and situations. As in all languages, Arabic and Uzbek languages also have references that express such situations, and their place and importance are incomparable in both languages. Such loadings are in Arabic grammar *ḥrf ndbī* is called *ḥrf ndā'*, and in Uzbek it is called exclamation or exclamation. In the academic grammar of the Uzbek language, the following points are made about exclamation: exclamations differ from other word groups in that they do not have special grammatical indicators and features like independent words. Exclamations do not have a lexical meaning, therefore they do not come into contact with parts of speech and cannot be part of a sentence. In modern Uzbek literary language there are exclamations such as a, ah, o, oh, e, ey, eh. The exact meaning of exclamations is determined only in the context, and they mean one or more of the following meanings: questioning, surprise, surprise, surprise, joy, satisfaction, disappointment, pity, protest, protest, warning, anger, hatred. Exclamations have a modal meaning, and meanings such as emotion, command, desire prevail in it.

Key words: Download, reference downloads, poetry, poetry, ghazal, rubai.

Mazkur maqolada arab tilidagi murojaat yuklamalarining o'zbek hamda o'zbek tilida ijod qilgan turkiyzabon shoirlarning she'rlari, g'azallari va ruboiylarida qanday qo'llanilganligi haqida so'z boradi. Maqola davomida undovlarni murojaat yuklamalari yoki nido yuklamalari deb nomlashni lozim topdik. Buning uchun avvalo arab tilidagi grammatik manbalarda bular haqida nimalar yozilganligiga e'tibor beraylik.

Bu haqda livanlik mashxur va atoqli nahvshunos olim Antuan ad-Dahdah o‘zining *معجم اللغة العربي النحو* ya’ni : “Arab tili grammatikasining alifbo tartibi” nomli asarida shunday yozadi:

حرف معني يستعمل من اجل الدعاء و اظهار الحزن الشديد و حرف معني يستعمل لتوجيه دعوة و تنبيه المحاطب. حروف النداء ثمانية تنوب جميعها مناب فعل النداء : انادي.²

Ya’ni: ندبة so‘zi lug‘atda motam tutish, aza tutish, o‘lganga yig‘lash, mungli kuy yoki mungli she’r ma’nolarini anglatsa, istilohda duo qilishlik va kuchli xafagarchilik yoki hazinlikni izhor qilish ma’nolarini anglatadi.

نداء – so‘zi esa lug‘atda murojaat, xitob, chakiriy, undalma so‘z, hayqiriy, nido, undash, shior kabi ma’nolarni anglatadi, istilohda esa “ murojaat yuklamalari” deyiladi. Bunday yuklamalar biror kimsaning boshka bir kimsaga yoki narsaga (ko‘pincha ikkinchi shaxsga) gap bilan murojaat qilish va biror-bir kimni biror-bir narsadan ogohlantirish uchun murojaat yuklamalari vazifasida ishlatiladi. Arab tilida nido yuklamalarining ja’mi sakkizta bo‘lib ular quyidagilardir : ا ، آ ، أي ، أيا ، هيا ، وا ، يا ، اي : Bularning hammasi يا’ni “chaqiraman” mazmunidagi nido fe’lining o‘rnini ifodalaydi.

Maqolani yozish chog‘ida biz yuqorida keltirilgan arab tilidagi murojaat yuklamalari o‘zbek tiliga hech qanday so‘z orqali tarjima kilinmasdan shundayligicha qo‘llanilaverganligining guvohi bo‘ldik.

Arab tilining grammatik sistemasiga VII asrdayoq to‘la va mukammal ravishda asos solingan bo‘lsa, IX asrga kelib arablarning O‘rta Osiyo erlarini fath qilishlari bilan, arab tili erli xalqlarning butun hayotiga singib, u hukmron tilga aylangach turli jabhalarda, jumladan, badiiy adabiyot va she’riyatda ham o‘z aksini topdi. Arab tili va adabiyoti, islom dini va qur‘oniy mavzular keyingi adabiyotga katta ta’sir o‘tkazdi, undagi rivoyatlar va obrazlar, o‘xshatishlar, nasihatlar va masallar faqat diniygina emas balki badiiy adabiyotga ham singib ketdi. Jumladan o‘zbek va turkiyzabon shoirlarimiz arab tilidagi murojaat yuklamalarini yuqorida ta’kidlaganimizdek, arab tilida qanday bo‘lsa, o‘z she’rlarida shundayligicha qo‘llay boshladilar va o‘zbek she’riyatida : **a, o, oy, ayo, hayo, vo, yo** kabi murojaat yuklamalari paydo bo‘ldi. Arab tilining leksik boyligi, uning keng qamrovli imkoniyatlari orasida murojaat yuklamalari ham, ayniqsa she’riyatda muhim ahamiyat kasb etdi. Jumladan, ajam xalqlari orasida Ahmad Yassaviy, So‘fi Olloyor, Boborahim Mashrab, Maxtumquli Firog‘iy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Loxutiy, Firdavsiy va boshqa juda ko‘plab alloma shoirlarimiz arab tilining go‘zal imkoniyatlaridan unumli foydalanib, o‘zlarining shoh va she’riy asarlarini yaratdilar, chunki arab tilining leksik boyligi, uning keng qamrovli imkoniyatlari orasida murojaat yuklamalari ham, ayniqsa she’riyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Shunig uchun bo‘lsa kerak, arab tilidagi mazkur yuklamalardan nomlari yuqorida zikr etilgan va boshqa ko‘plab boshqa shoirlar ham o‘zlarining ijodlarida unumli foydalanganlar.

Misollarga murojaat qilaylik:

G‘azal mulkinig sultoni Mir Alisher Navoiy hazratlari o‘zlarining “Hazoinul-maoniy” asaridagi g‘azallarining birida shunday yozadilar:

Yo rab, bu ne guldurkim, boshiga chechak sanchar,

Gah egri qo‘yar bo‘rkin, gah belga etak sanchar.! ³

deb, Allohga murojaat qilsalar, yana bir g‘azalida:

Voiz-o ! Men osiy erman xuru jannat loyiqi,

Mug‘bacha – soqiy, maqomile kulbai xammor bas. ⁴

Navoiy hazratlari mazkur ikki g‘azalida arab tilidagi **يا** va **ايمurojaat** yuklamalarini ishlatgan bo‘lsalar, quyidagi g‘azalida:

Har nechakim kuyarman, aning zarra mehri yo‘q,

Oyo ki, toleim kuni koni zavol ekin. ⁵

deb **يا** yuklamasini qo‘llaganlar.

O‘zbek xalkining ajoyib farzandi, shox va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur hazratlari ham o‘zining go‘zal ruboiylaridan birida shunday yozadilar:

Tole‘ yo‘qi, jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi,

Har ishniki ayladim, xatolig‘ bo‘ldi.

O‘z erni qo‘yib, Hind sori yuzlandim,

Yo rab, netayin ne yuz qarolig‘ bo‘ldi. ⁶

Bobur hazratlari ushbu mashhur ruboiylarida Allohga murojaat etib, “Hind sori” yuzlangaliklaridan afsus nadomatda ekanliklarini izhor qilishda arab tilidagi **يا** murojaat yuklamasidan foydalanganlar.

يا va **يا** murojaat yuklamalarini atoqli shoir Bilol Nozimning ham quyidagi she‘rlarida uchratish mumkin:

Mening nolamni anglab sen simob yanglig‘ erir erding,

Ayo Hajjoji davron, rahm qilmag‘aysan fig‘onimg‘a. ⁷

Bunda, Bilol Nozim o‘zining zolimligi bilan mashhur bo‘lgan xalifa Hajjoj orqali podshoxlardan xasrat chekkan bo‘lsa;

Ayo yorim, qah-qah kulib oching ko‘nglumni,

Yomon bo‘lmas yo‘qlasangiz Nozimiy qulni. ⁸

deb, o‘z yoriga murojaat qiladi.

Nozimiy o‘zining yana bir she‘rida:

Yo rab, meni ayla ul oyga qarorsiz,

Bulbul menu qo‘yma lahza guluzorsiz. ⁹

deb Allohga murojaat qilganini ham ko‘rishimiz mumkin.

Bilol Nozim yana:

O, naylay bu falak qildi nigorimdin judo,

Andalib yanglig‘ bo‘libmen guluzorimdin judo. ¹⁰

degan she‘rida **ايمurojaat** yuklamasini qo‘llaganlar.

XIX asrda yashab ijod etgan va bir birlariga ustoz – shogird bo‘lgan o‘zbek shoiralarimizdan Anbar Otin va Dilshod Otinlarning ijod namunalarida ham arab tilidagi **يا** murojaat yuklamasini qo‘llaganliklarini quyidagi misralarida ko‘rishimiz mumkin :

Ayo davron man o‘lg‘an so‘ng, qilib yodimni xushnud et,

Maning keynimda qolgan barcha avlodimni xushnud et. ¹¹

(Anbar Otin)

Ayo odam, sanga quvvat erur farz,

Hayoting‘a yarar qudrat erur farz. ¹²

(Dilshod Otin)

XIV asrning oxiri XV asrning boshlarida yashab ijod etgan o‘bek shoiri Abdul Rahim Hofiz Xorazmiy ijodiyotida ham arab tilidagi مۇروجاات yuklamasi qo‘llanilganini uning quyidagi misralarida ko‘rishimiz mumkin:

*Ayo shohi zamon husnung haqqinda,
Ne bo‘lg‘ay shod bo‘lsa bir g‘ulome.
Birarda Hofiz-i miskinni xush ko‘r,
Kim ushbu umrga yo‘qdur davome.* ¹³

XIV asrda yashab ijod etgan alloma shoirlardan yana biri mavlono Lutfiydir. U o‘ziga zamondosh bo‘lgan shoirlar orasida o‘zining badiiy dahosi, yuksak mahorati, zukko iste‘dodi bilan muhim rol o‘ynadi. Jumladan uning she‘rlarida ham arab tilidagi يا va ايا murojaat yuklamalaridan foydalanganligiga nazar tashlasak :

*Yo rab, ne ajab yori jafokora yo‘luqtum,
Ko‘zi-yu qoshi joduyi makkora yo‘luqtum.* ¹⁴

Yoki:

*Qilur qon g‘amzangiz ko‘zlarni bog‘lab,
Halol o‘lsunki, sehr aylar bu fanda.*

Labing qandini so‘ray desam, aytur :

“Ayo ko‘rdungmu solmish ko‘zni qanda?” ¹⁵

Ajoyib so‘z ustasi, otashin lirik shoirlarimizdan yana biri Boborahim Mashrabdir. Uning jozibador va samimiy, o‘ynoqi va jo‘shqin, haëtbaxsh va ta‘sirchan g‘azal, murabba, mustazod va muxammaslari butun O‘rta Osiyoga nihoyatda keng tarqaldi. Mashrabning o‘zi chinakam xalq shoiri sifatida so‘nmas shuhrat qozondi. ¹⁶

Boborahim Mashrab ham o‘z ijodida arab tilidagi murojaat yuklamalaridan unumli istifoda etganliklarini uning quyidagi misralarida ham uchratish mumkin :

*Ayo olamni kuydirgan, jahonga o‘t yoqib yurgan,
Taraxxum aylabon ko‘rgil kamina benavo ermish.* ¹⁷

Boborahim Mashrab yuqoridagi misralarida arab tilidagi ايا murojaat yuklamasini qo‘llagan bo‘lsalar, quyidagi she‘rida وا hamda يا yuklamasini ishlatganliklarini ko‘rish mumkin :

*Har kecha kunduz tinmay yururman,
Vayronalarda itdek ulurman.*

Vo hasrato deb ko‘rmay keturman,

Ey bod, etkur yora salomim. ¹⁸

Yana:

Bu Mashrab dardini, yo rab, ki hech kim boshig‘a solma,

Duo aylang, ayo do‘stlar, ki muhtoji nido bo‘ldim. ¹⁹

O‘zbek tilida ijod etgan buyuk turkman mutafakkiri Maxtumquli Firog‘iy (1733- 1793) ning ijodiyotida ham diniy – axloqiy, falsafiy ruhdagi asarlar keng o‘rin egallaydi. Bu bejiz emas negaki, Maxtumquli tug‘ilib o‘sgan davr, yashagan muhit, tarbiya topgan oila sharoiti aynan shu ruhdagi ijodni taqozo qilar edi. ²⁰

Uning ijodida ham arab tilidagi murojaat yuklamalari qanday ishlatilganligini ko'rib chiqaylik:

Tortishim g'am – g'ussadir, o'xshayman u Farhodga, hay,

Soldi ishqing, dilrabo, jonu jigarni o'tga, hay.

Vo darig'o kechdi umrim, zol berdim bodga, hay,

Ohi ko'p, afg'oni ko'p barnoga oshiq bo'lmisham. ²¹

Yoki:

Ayo do'stlar, odam bari,

Har biri bir norga do'ndi.

Horun kabi yig'ib molni,

Barisi ayyorga do'ndi. ²²

Klassik shoirlar ichida arab tilidagi murojaat yuklamalaridan o'ta zukkolik, juda keng va o'rinli foydalangan xassos shoirlardan yana biri sharq madaniyati tarixiga katta ta'sir ko'rsatgan yirik mutasavvuf olim va shoir Hoja Ahmad Yassaviydir. Zero ul zot yaratgan hikmatlarning tarbiyaviy va ta'sir kuchi g'oyat baland ekanligi hammaga ma'lum va mashxurdir. Ahmad Yassaviy hikmatlarida ham arab tilidagi murojaat yuklamalaridan qanday foydalanganliklariga nazar solaylik:

*Ayo do'stlar, quloq soling aydug'umga,
Na sababdin oltmish uchta kirdim erga.* ²³

Yoki:

Qul Hoja Ahmad, g'aflat bilan umrung o'tdi,

Vo hasrato ko'zdin tizdin quvvat ketdi.

Vo vaylato, nadomatni vaqti etti,

Amal qilmay, karvon bo'lib ko'chtim mano. ²⁴

Yana:

Yoshim yetti oltmish uchga bir kuncha yo'q,

Vo darig'o haqni tobmay ko'nglum sinuq.

Yer ustida sulton men deb bo'ldum ulug',

Shokir bo'lib yer ostig'a kirdim mano. ²⁵

Yana:

Shibliytek oshig' bo'lub samo'ursam,

Boyazitdek tun-kun tinmay ka'ba borsam,

Ka'baga yuzum surtub, zor yig'lasam,

Bu ish birla, yo Rab, seni topg'aymu men? ²⁶

Demak, Hoja Ahmad Yassaviy hazratlari ham o'z ijodlarida arab tilidagi **أيا** va **يا** hamda **يا** kabi murojaat yuklamalaridan unumli foydalanganlar.

Nafaqat mumtoz shoirlar, balki zamonaviy shoirlarimiz ham o'z ijodlarida arab tilidagi murojaat yuklamalaridan foydalanganliklarini, ular yozgan she'rlarida ham ko'rishimiz mumkin. Jumladan, sevimli shoirimiz Abdulla Oripovning quyidagi misralarida arab tilidagi **يا** nido yuklamasi keng o'rin olgan. Masalan:

Ushoqqina odamman, jussam otamdan hadya,

Lekin mayda xislarni, yoqtirmas aslo jinim.

O, buyuk Sharq, buyuk Sharq, sening shavkating deya.

Ne buyuk farzandlaring zaxmat chekkan betinim. ²⁷

Yana:

*Bir zum go‘zallikning huzurida jim,
Samoviy hislarga bo‘lib qoldim band,
O, dono tabiat, o, buyuk hakim,
Hikmat ko‘rmadim hech men senga monand.* ²⁸

Yana:

*Bu gulshan vodiya men ham bir shamol,
Shamol kabi keldim, shunday keturman,
Lekin Abdullaning boqiy kamoli –
O, yurtim shamoli, yurtim shamoli.
Esgin Vatanimning taralsin boli.
O, yurtim shamoli, yurtim shamoli.* ²⁹

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, davr taqozosi va tarixiy shart – sharoitlarga ko‘ra arablar VIII- IX asrlarda O‘rta Osiyoni fath etgan vaqtlarda, millatlararo tillar chatishuvi hodisasi yuz bergan. Zero til taraqqiyotiga qo‘shni xalqlar orasidagi turli munosabatlar o‘z ta‘sirini o‘tkazgan. Hozirgi o‘zbek tilining izohli lug‘atiga kirgan 30-40 foiz so‘zlar arablar orqali o‘zbek tiliga o‘tib, uning boyishiga ijobiy ta‘sir etgan.

Birgina murojaat yuklamalari she‘riyatimizda qanchalar o‘rin egallaganini yuqorida ko‘rib o‘tdik. Bu yuklamalar orasida **هيا**؛ **أي**؛ **ء** yuklamalari kam ishlatilgan bo‘lsa, **يا**، **وا**، **أيا**، **أيا** yuklamalari ko‘proq ishlatilganligining guvohi bo‘ldik va qizig‘i ham shundaki bu yuklamalar arab tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilinmasdan, qandoq bo‘lsa shundoqligicha to‘g‘ridan to‘g‘ri holatida qo‘llanilgan va qo‘llaniladi.

Adabiyotlar:

1. Б. То‘йсҳибоев “ О‘збек тилининг тараққиёт босқисҳлари” Тосҳкент. “ О‘қитувсҳи” 1996 й.

Алисҳер Навоий “ Ҳазоинул маоний”. Биринсҳи том. О‘збекистон Давлат бадий адабиёт насҳриёти. Т. 1963 й.

2. Ғ. Абдурахмонов, Сҳ. Сҳукуров “ О‘збек тилининг тарихий грамматикаси” Морфология ва синтаксис. “ О‘қитувсҳи” насҳриёти. -Т. 1973

3. Сҳ. Сҳоабдурахмонов ва босҳқалар. “ Ҳозирги о‘збек адабий тили”. Тосҳкент. “ О‘қитувсҳи”. 1980 й. [1.] 440-441 бет.

4. Э. Мирзаев ва босҳқалар. “ О‘збек тили”. Т. “ О‘қитувсҳи”

5. Алисҳер Навоий “ Ҳазоинул маоний ”. Биринсҳи том. О‘збекистон давлат бадий адабиёт насҳриёти. Т. 1963 й. [3, 4, 5] 169- 332 бет.

6. П. Қодиров “Йулдузли тунлар” Тосҳкент, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат насҳриёти. 1981 й. [6] 424бет.

6. Билол Нозим сҳерийатидан. “ О‘збекистон”. Т. 1981й. [7, 8, 9, 10] 47- 74- 86-бет.

7. Зебинисо, Дилсход ва Анбар Отинлар схеърийатидан. Ўзбекистон., Т. 1981 й. [11, 12] 30-78-бет
8. Ҳофиз Хоразмий схеърийатидан. Ўзбекистон, Т. 1980 й. [13]. 82-бет.
9. Лутфий схеърийатидан, Ўзбекистон, Т. 1985 й [14, 15] 38-бет.
10. Масхраб схеърийатидан. Ўзбекистон. Т. 1979 й. [16, 17,18,19] 3-38-73-87-бет
11. Схарқ йулдузи журнали. Т. 1992 й. № 7. [20.] 10-бет.
12. Махтумкули схеърийатидан. Ўзбекистон, Т. 1976 й. [21, 22. 21] 133-бет.
13. Аҳмад Йассавий “ Девони ҳикмат ”, Т., Ф.Ғуллом номидаги насхриёт матбаа бирласҳмаси. 1992 й. [23, 24, 25, 26] 22-64-бет.
14. Абдулла Орипов “ Йуртим сҳамоли ” схеърлар. “ Йосҳ гвардийа ” насхриёти. Т. 1976 й. [27, 28, 29] 60-70-126-бет.
15. ص 138 – [2] انطوان الدحداح " معجم اللغة النحو العربي " مكتبة اللبنا الناشر 1993 م.

QIYOSIY TAHLIL: “BOBURIYNOMA”DAGI “BOBURNOMA” MATNLARI

Sitora TOJIDDINOVA

O‘zR FA Davlat adabiyot muzeyi tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” tarixiy-memuar asarining zamonaviy o‘zbek nasriga ta’siri matnshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Bunda taniqli yozuvchi Xayriddin Sultonning “Boburiynoma” ma’rifiy romani o‘rganilgan. “Boburiynoma”da “Boburnoma”dan keltirilgan matnlar qiyosan tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: “Boburnoma”, “Boburiynoma”, matn, matnshunoslik, ilmiy ekspeditsiya, safarnoma, taqlid, tahlil, ta’rif.

Annotation. This article analyzes the influence of the historical and memoir work of Zakhiriddin Muhammad Babur “Baburname” on modern uzbek prose from the point of view of textual criticism. This article examines the “Baburiynoma” by the famous writer Khayriddin Sultan. In “Baburiynoma” texts quoted from “Baburname” and their contribution to the work are researched. In general, the incomparable place and influence of “Vakoe” in our modern prose has been revealed.

Key words: “Baburname”, “Baburiynoma” text, textual criticism, scientific expedition, guidebook, imitation, analysis, description.

Аннотатсия. В данной статье анализируется влияние историко-мемуарного произведения Захириддина Мухаммада Бабура “Бабурнома” на современную узбекскую прозу с точки зрения текстологии. В данной статье исследуется “Бабурийнома” известного писателя Хайриддина Султана. Исследуется их вклад в произведение, в целом раскрывается роль и влияние “Вакое” в нашей современной прозе.

Ключевые слова: “Бобурнома”, “Бобурийнома” текст, текстологию, научная экспедиция, путеводитель, подражание, анализ, описание.

“Boburnoma” dan “Boburiynoma” ga aynan ko‘chirilgan matnlar ko‘p uchraydi. Ushbu ko‘chirma matnlarni mazmuniga ko‘ra, to‘rt guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1. Geografik hududlarga oid ma'lumotlar;
2. Tarixiy shaxslar ta'riflari;
3. She'riy satrlar;
4. Hazrat Bobur badiiy uslubiga xos so‘zlar, iboralar, so‘z birikmalari hamda jumlarlar.

Ma'lumki, Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi tomonidan ilk marta 1992 yilda ilmiy ekspeditsiya tashkil etilgan. Bobur nomidagi xalqaro ilmiy ekspeditsiya deb nomlangan safar “davomida avtomobilda 18ming kilometrdan ziyod yo‘l bosilgan” [Zahiriddin Muhammad Bobur entsiklopediyasi. Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi, 2014; 134]. Uning a'zolaridan biri sifatida yozuvchi Xayriddin Sulton o‘z hayratlari, taassurotlarini “Boburiynoma” ma'rifiy romanida ifoda etib borgan. Yo‘l mashaqqatlari, shaharlar madaniyati, tarixiy shaxslar, qadimiy qadamjolarini tasvirlash mobaynida ko‘p bora “Vaqoye”ga murojaat qilinadi.

Birinchi guruh, ya'ni geografik joylar haqidagi ko‘chirmalar “Boburnoma” dan aynan, deyarli o‘zgarishlarsiz keltirilgani asarning ma'rifiylik darajasini oshirishga xizmat qilgan. Misol uchun, “197-yil, 6-oktyabr. “Oqtosh” sihatgohi” nomli bo‘limda muallif o‘zi tug‘ilib o‘sgan joylar haqida “Boburnoma” dan o‘qib, hayratlanadi va ushbu matnni keltiradi: “Ajab yangilik: Bobur Mirzo Parkentda bo‘lgan ekan! “Boburnoma” ning 152-sahifasida: “Hazrati Xojago Xoja Samarqanddin chiqib kelib, Farkatga o‘lturib edilar. Farkatqa borib Xojani ko‘rdim” (Xayriddin Sulton, “Boburiynoma”, Toshkent “Ma’naviyat” 2019, 22-bet).

X.Sulton “Sharq yulduzi” jurnalida chop etilgan suhbatida shunday deydi: “Dastlab “Boburnoma” ning 1960 yili, O‘zSSR Fanlar akademiyasi tomonidan to‘q yashil rangdagi, qalin muqovada bosib chiqarilgan katta hajmli nashrini o‘qiganman. Asarni zahmatkash matnshunoslar – Porso Shamsiyev va Sodik Mirzayev nashrga tayyorlagan, o‘sha vaqtda Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi bo‘lgan faylasuf olim Vohid Zohidov So‘zboshi yozgan edi. Hozirgacha bu kitob doimo ish stolimda turadi, sovet davrida bilib-bilmay yo‘l qo‘yilgan xato-kamchiliklaridan qat'i nazar, yaxshi ko‘raman shu salobatli nashrni” (X.Sulton, S.Tojiddinova, “So‘zumni o‘qub, anglag‘aysen o‘zumni...”, “Sharq yulduzi”, 2024, 6-son). Demakki, “Boburiynoma” uchun ham ayni kitob manba bo‘lgan. Afsuski, bizning qo‘limizda o‘sha nashr yo‘q. Yozuvchi 152-sahifada ekanligini aytayotgan matn bizning qo‘limizdagi nashrning 87-sahifasida ekan: “Hazrati Xojago Xoja Samarqanddin chiqib kelib, Farkatga o‘lturib edilar. Farkatqa borib Xojani ko‘rdim” (Z.M.Bobur, “Boburnoma”, Toshkent, “Yulduzcha” 1989, 88-89 bet). Matn deyarli benuqson ko‘chirilgan. Faqatgina ikkita so‘zda kichik

o'zgarish bor: Farkatqa — Farkatga, ko'rdum — ko'rdim. Muallif ayni shu o'rinda "Boburnoma"dan ko'chirma berishda davom etadi: "172-sahifada: "Dedilarkim, oldimizda G'avo yo'li yaqindur. Ul yo'l bila Farkatqa osharlar. Ul yo'lg'a boshladilar" (Xayriddin Sulton, "Boburiynoma", Toshkent "Ma'naviyat" 2019, 22-bet). Ushbu matn bo'lagini esa "Boburnoma"ning 105-sahifasidan topdik: "Dedilarkim: — Oldimizda G'avo yo'li yaqindur. Ul yo'l bila Farkatqa osharlar. Ul yo'lg'a boshladilar" (Z.M.Bobur, "Boburnoma", Toshkent, "Yulduzcha" 1989, 105-bet). Matn beziyon ko'chirilgan.

"Boburnoma"dan olingan parchalar orasida biroz qisqartirilgan yoki matnning turli joylaridan jumlar olinib, fikr umumlashtirilgan o'rinlar ham uchraydi. Parkentga bog'liq ma'lumotlarni o'rganar ekan, yozuvchining e'tiborini quyidagi voqea jalb qiladi: "Somsiyrak degan kentga tushdik, — deb yozadi u, — tonglasi xabar keldikim, No'yon ko'kaltosh jardin mastliqta yiqilib o'lubtur... Tahqiqini kishi bilmadi. Manga g'arib ta'sir qildi, kam kishining favtig'a muncha mutaassir bo'lib edim. Bir hafta-o'n kungacha hamisha yig'lardim" (Xayriddin Sulton, "Boburiynoma", Toshkent "Ma'naviyat" 2019, 23-bet). Shu matnni "Boburnoma"dan qiyosan o'qiymiz: "Biz kelib Ohangaron kentlaridin Som-siyrak degan kentga tushtuk. Tonglasi xabar keldikim, Nuyon ko'kaltosh jardin mastliqta yiqilib o'libtur. Haqnazarnikim, Nuyonning tuqqan tag'oyisi edi, yana bir jam' bila yiborildi, borib Nuyonning yiqilgan eridin topib, ehtiyot qilib, Nuyonni Piskentga tufroqqa topshurub keldilar. Bular suhbat tutqon erdin bir o'q otimi bir baland jarning ostida Nuyonning o'lugini topibdurlar. Ba'zig'a gumon bo'ldikim, Samarqanddag'i kiynani saxlab, Mo'min Nuyong'a qasd qildi, tahqiqini kishi bilmadi. Manga g'arib ta'sir qildi, kam kishining favtig'a muncha mutaassir bo'lib edim. Bir hafta-o'n kungacha hamisha yig'lardim" (Z.M.Bobur, "Boburnoma", Toshkent, "Yulduzcha" 1989, 88-89-bet). Asl matnni to'lig'icha o'qigach, ayon bo'ladiki, "Boburiynoma" muallifi matndagi ayrim gaplarni qoldirib, qisqa shaklda ko'chirgan ekan. Ba'zi so'zlar esa ko'chiruvchi kotib beparvoligi sababidanmi, juz'iy o'zgarishga uchragan: Som-siyrak — Somsiyrak, tushtuk — tushdik, keldikim — keladikim, Nuyon — No'yon, o'libtur — o'lubtur, bo'lib edim — bo'lib edim.

Yozuvchini bu voqea nihoyatda ta'sirlantiradi, shekilli, keyinroq "Boburnoma"dan o'qigan va kundaligiga ko'chirib olgan ayni shu ma'lumotlar asosida hikoya yozadi. Ushbu "Oy botgan pallada" nomli hikoya ham asar tarkibida berilgan. Aynan yuqorida keltirilgan matn namunalarini hikoya ichida ham o'qish mumkin. Farqi unda ma'lumotlar o'zlashtirma gap tarzida yoki dialoglar orasida berib borilgan.

Qolaversa, ayrim o'rinlarda ma'lum bir gapni ko'chirish jarayonida ba'zi so'zlar tashlab ketilgan. Misol uchun: "Piskent bila Somsiyrakning orasida burong'or va juvong'orni yasol yasab edim, ko'rdilar"(Z.M.Bobur, "Boburnoma", Toshkent, "Yulduzcha" 1989, 90-bet). Ayni shu gap "Boburiynoma"ga quyidagicha ko'chirilgan: "Somsiyrakning orasida burong'or va juvong'orni yasol yasab edim, ko'rdilar" (Xayriddin Sulton, "Boburiynoma", Toshkent "Ma'naviyat"

2019, 22-bet). Ko‘rinib turganidek, bunda gap boshidagi ikki so‘z — “Piskent bila” qoldirib ketilgan.

E‘tibor berish kerak: yuqorida keltirilgan misollarning barchasi “Boburiynoma”dagi bittagina bo‘lim, ya‘ni “1975-yil, 6-oktyabr. “Oqtosh” sihatgohi” nomli bo‘limdan olindi. Shuning o‘zidanoq ushbu ikki asarni matniy-qiyosiy jihatdan o‘rganish zarurati borligi ayon bo‘ladi. Vaholanki, ushbu asarda yuzlab “Boburnoma”dan ko‘chirmalar bor. Ilmiy ekspeditsiya a‘zolari ma‘lum hududlardan o‘tishar ekan, yozuvchi o‘sha shahar yoki davlatga va yoki tarixiy obidalarga aloqador boburona qarashlarni ifodalab boradi. Asar boshidanoq ilmiy ekspeditsiya Toshkentni tark etayotib, muallif poytaxtimiz haqida “Vaqoe”dan o‘qiganlarini eslaydi: “...Bobur Mirzo Toshkentni mudom ehtirom bilan tilga olgan: “...ul fursatta Toshkent viloyati Umarshayx Mirzo tasarrufida edikim, kitoblarda Shosh bitirlar, ba‘zi Choch bitirlarkim, “kamoni chochiy” andin iborattur... O‘shal fursattin tarix to‘qqiz yuz sekkizgacha Toshkand va Shohruxiya viloyati chig‘atoy xonlarining tasarrufida edi” (Xayriddin Sulton, “Boburiynoma”, Toshkent “Ma‘naviyat” 2019, 57-bet). Endi shu matnni asl manbadan o‘qiymiz: “Oxir navbat kelaturgandakim, ul fursatta Toshkent viloyati Umarshayx Mirzo tasarrufida edikim, kitoblarda Shosh bitirlar, ba‘zi Choch bitirlarkim, “kamoni chochiy” andin iborattur, berdi. O‘shal fursattin tarix to‘qqiz yuz sekkizgacha Toshkand va Shohruxiya viloyati chig‘atoy xonlarining tasarrufida edi” (Z.M.Bobur, “Boburnoma”, Toshkent, “Yulduzcha” 1989, 9-bet). Ma‘lum bo‘ladiki, matn orasidan olingan ushbu parchada “Boburnoma”dagi fikrdan aynan Toshkentga taalluqli joyi kitobxonlar e‘tiboriga havola etilgan. Vaholanki, butun matnda gap Mirzo Boburning bobosi Yunusxon va unga otasi Umarshayx Mirzoning Toshkent viloyatini hadya qilgani haqida bormoqda. Bundan anglash mumkin: muallif “Vaqoe”ning matnini sinchiklab o‘rganib chiqqan va har bir ma‘lumotga chuqur diqqat qaratgan.

Ilmiy ekspeditsiyaning Toshkentdan keyingi manzili — Samarqand. Demakki, yozuvchi Hazrat Boburning eng sevimli shaharlaridan biri bo‘lgan Samarqand haqidagi “Boburnoma”dan iqtiboslarni havola etadi: “Rub‘i maskunda Samarqandcha latif shahr kamroqdur. Beshinchi iqlimdindur. Tuli (99) ramzi nujumiy (56) daraja va daqiqadur, arzi — (40) daraja va daqiqadur. Shahri Samarqanddur, viloyatini Movarounnahr derlar. Hech yog‘i qahr va g‘alaba ila munga dast topmog‘on uchun baldai mahfuza derlar. Samarqand hazrati amirulmo‘minin Usmon zamonida musulmon bo‘lg‘ondur. Sahobadin Qusam ibn Abbos anda borg‘ondur. Qabri Ohanin darvozasining tashidadur. Holo Mazori Shohg‘a mashhurdur. Samarqandni Iskandar bino qilg‘ondur. Mo‘g‘ul va turk ulusi Semirkand derlar. Temurbek poytaxt qilib edi. Temurbekdin burun Temurbekdek ulug‘ podshoh Samarqandni poytaxt qilg‘on emastur... Eli tamom sunniy va pokmazhab va mutasharri’ va mutadiyyin eldur...” (Xayriddin Sulton, “Boburiynoma”, Toshkent “Ma‘naviyat” 2019, 67-68 bet).

Shu o‘rinda izoh berish kerakki, ushbu matndagi qavs ichidagi raqamlar Porso Shamsievga tegishli. “Boburiynoma”da ayni shu gapni ko‘chirar ekan

muallif qavs ichidagi sonlar tepa qismiga 0, ya'ni daraja(ruscha gradus) belgisini qo'shib qo'ygan.

Demak, matnda kichik o'zgarish yuzaga kelgan.

Matnni qiyosiy o'qishda davom etamiz: "Shahri Samarqanddur, viloyatini Movarounnahr derlar. Hech yog'iy qahr va g'alaba bila munga dast topmag'on uchun baldai mahfuza derlar. Samarqand hazrati amirul mu'minin Usmon zamonida musulmon bo'lg'ondur.Sahobadin Qusam ibn Abbas anda borg'ondur. Qabri Ohanin darvozasining toshidadur" [Boburnoma. Z.M.Bobur,1989; 43]. Matnning shu joyida to'xtaymiz. Sababki, hozircha eng ishonchli manbalardan biri deya e'tirof etiladigan Porso Shamsiev tomonidan nashrga tayyorlangan "Boburnoma" kitobida yuqorida keltirilgan matnning eng oxirgi so'zi "toshidadur" deb berilgan. "Boburiynoma"da keltirilgan iqtibosda esa ushbu so'z "tashidadur" deya yozilgan. Savol tug'iladi: Xayriddin Sulton bu iqtibosni biz qiyosan o'rganishga harakat qilayotgan nashrdan farqli nusxadan olganmi yoki muallif asl qo'lyozmani o'qiganmi?! Ammo "Boburnoma"ning eng yangi nashrlaridan biri, ya'ni Zahiriddin Muhammad Bobur "Kulliyot" (Nashrga tayyorlovchi: Mirzo Kenjabek. — T.; "Zilol buloq", 2021)ida ham "Qabri Ohanin darvozasining toshidadur" deyilgan.

Bir qarashda bu texnik xatoga o'xshaydi. Ya'ni, "Qabri Ohanin darvozasining tashidadur". O harfi o'rniga a deb terilgandir, deb o'ylash mumkin. Ammo kitobning ikkinchi nashrida ham Xayriddin Sultonday ilmi yozuvchidan arzimas xatoliklar ham o'tishi dargumon. Shu nuqtai nazardan, chuqurroq tahlil qilamiz. Sirasini aytganda, hozirgi adabiy til fonetikasi nuqtai nazaridan qaralganda, matn mazmunini anglash uchun ushbu o'zgarish qilinganday. Ya'ni, bugun "toshidadur" so'zi, tosh, tabiatdagi qattiq jism ma'nosinigina anglatishini hisobga olsak, asl matn to'g'ridan to'g'ri ko'chirilsa, zamonaviy kitobxonga biroz tushunmovchilik tug'dirishi mumkin: "Qabr Ohanin(temirdan yasalgan) darvoza toshida bo'lishi mumkinmi?!" Aslida, "Boburnoma"da qabr darvozaning toshida, ya'ni tashqarisida ekani haqida ma'lumot berilgan. Bu mazmun kitobxonga bir o'qishda tushunarli bo'lishini istagan yozuvchi matnga ozgina fonetik o'zgartirish kiritgan ko'rinadi.

Ayni matnni to'lig'icha "Boburnoma"ning 43-sahifasidan o'qiymiz: "Rub'i maskunda Samarqandcha latif shahr kamroqdur. Beshinchi iqlimdindur. Tuli (arabchasi ham yozilganS.T)(99) ramzi nujumiy (56) daraja va daqiqadur, arzi — (40) daraja va daqiqadur. Shahri Samarqanddur, viloyatini Movarounnahr derlar. Hech yog'iy qahr va g'alaba bila munga dast topmog'on uchun baldai mahfuza derlar. Samarqand hazrati amirulmu'minin Usmon zamonida musulmon bo'lg'ondur. Sahobadin Qusam ibn Abbas anda borg'ondur. Qabri Ohanin darvozasining toshidadur. Holo mazori Shohg'a mashhurdur. Samarqandni Iskandar bino qilg'ondur. Mo'g'ul va turk ulusi Semirkand derlar. Temurbek poytaxt qilib edi. Temurbekdin burun Temurbekdek ulug' podshoh Samarqandni poytaxt qilg'on emastur, Qo'rg'onini faslning ustidin buyurdumkim, qadam urdilar. O'n ming olti yuz qadam chiqti.

Eli tamom sunniy va pokmazhab va mutasharri' va mutadiyyin eldur..." (Z.M.Bobur, "Boburnoma", Toshkent, "Yulduzcha" 1989, 43-bet). Ko'rinib turganidek, matn deyarli bexato keltirilgan. Ammo ayrim kichik o'zgarishlar yo'q emas. Inchunun, muallif uch nuqta qo'ygan o'rindagi ayrim ma'lumotlar olib tashlangan. Uch nuqtadan ham ma'no shu. Qolaversa, ba'zi so'zlarning ko'chirilishida xatolik bor: yog'iy — yog'i, bila — ila, toshidadur — tashidadur.

Shu bo'limda yana "Vaqoe"dan quyidagi kattagina matn aynan keltirilgan: "Ma'muraning kanorasida voqe' bo'lubtur. Sharqi Farg'ona va Qoshg'ar, g'arbi Buxoro va Xorazm, shimoli Toshkand va Shohruxiyakim, Shosh va Banokat bitirlar, janubi Balx va Tirmiz. Ko'hak suyi shimolidin oqar, Samarqanddin ikki kuruh bo'lg'ay. Bu suv bila Samarqand orasida bir pushta tushubtur. Ko'hak derlar. Bu rud muning tubidin oqar uchun Ko'hak suyi derlar. Bu suvdin bir ulug' rud ayiribturlar, balki daryochadir. Darg'am suyi derlar. Samarqandning janubidin oqar, Samarqanddin bir shar'iy bo'lg'oy. Samarqandning bog'ot va mahalloti va yana necha tumonot, bu suv bila ma'murdir. Buxoro va Qorako'lgachakim, o'ttuz-qirq yig'och yo'lg'a yovuqlashur, Ko'hak suyi bila ma'mur va mazru'dur. Mundoq ulug' daryo aslo ziroattin va imorattin ortmas, balki yozlar uch-to'rt oy Buxorog'a suv etmas. Uzumi va qovuni va olmasi va anori, balki jami' mevasi xo'b bo'lur. Vale ikki meva Samarqanddin mashhurdir: sebi Samarqand va sohibiyi Samarqand. Qishi mahkam sovuqtur, qori agarchi Kobul qoricha tushmas. Yozlar yaxshi havosi bor, agarchi Kobulcha yo'qtur..." (Xayriddin Sulton, "Boburiynoma", Toshkent "Ma'naviyat" 2019, 68-bet). "Vaqoe"dan ayni sahifani ochib, qiyoslaymiz va matn deyarli mukammal keltirilganiga amin bo'lamiz (Z.M.Bobur, "Boburnoma", Toshkent, "Yulduzcha" 1989, 44-bet). Deyarli deyishimizga sabab esa ushbu parchadagi ikki so'zning biroz xatolik bilan ko'chirilganidir: bag'ot — bog'ot, tumonoti — tumonot.

Ilmiy ekspeditsiya a'zolari Hindistonga borishganida bu yurt haqida Z.M.Boburning fikrlari eslanadi:

"Hinduston kam latofat er voqe bo'lubtur, — deb yozadi Bobur Mirzo. — Elida husn yuq va husni ixtilot va omizish va omadu raft yo'q va ta'b va idrok va adab yo'q va karam va muruvvat yo'q va hunarlarida va ishlarida siyoq va andom va raja va go'niya yo'q va yaxshi ot yo'q va yaxshi it yo'q va uzum va qovun va yaxshi msvalar yo'q va yax yo'q va sovuq suv yo'q va bozorlarida yaxshi osh va yaxshi non yo'q va hammom yo'q va madrasa yo'q va sha'm yo'q va mash'al yo'q, sha'mdon yo'q..." (Xayriddin Sulton, "Boburiynoma", Toshkent "Ma'naviyat" 2019, 329-bet)

Ushbu matnni qo'limizdagi "Boburnoma"ning 267 sahifasidan qiyosan o'qiyamiz va uning benuqson ko'chirilganiga amin bo'lamiz.

Turli manzillar ta'riflariga oid bunday ko'chirmalar "Boburiynoma"da ko'p. Eng muhimi, ushbu matnlarning asl manbadan hushyorlik bilan olingani asarning ilmiy-badiiy darajasini yanada ko'targan.

Endi esa ikkinchi guruh, ya'ni tarixiy shaxslar haqidagi matnlar qiyosiga e'tibor qaratamiz. "Boburiynoma" muallifi ushbu asari tarkibiga Zahiriddin Muhammad Bobur haqida yozgan barcha ijod namunalarini jamlashga harakat

qilgan. Qissa, hikoya, esse, badia va hatto gazeta uchun qilingan suhbatni ham keltirib o'tadi. Ularning ayrimlari "Boburnoma"dagi ma'lum mavzuni qamrab olgan. Misol uchun, ekspeditsiya davomida yozilgan "Ikki buyuk taqdir" nomli maqolada Hazrat Bobur va uning bobokaloni Amir Temur haqida so'z boradi. Unda ikki manba: "Temur tuzuklari" va "Vaqoye"dan ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, Bobur mirzoning o'z nasl-nasabini Amir Temurgacha sanab o'tganiga e'tibor qaratiladi va quyidagi matn bilan fikr dalillanadi: "Umarshayx Mirzo Sulton Abusaid Mirzoning to'rtunchi o'g'li edi. Sulton Ahmad Mirzo, Sulton Muhammad Mirzo, Sulton Mahmud Mirzodin kichik erdi. Sulton Abusaid Mirzo Sulton Muhammad Mirzoning o'g'li edi. Sulton Muhammad Mirzo Mironshoh Mirzoning o'g'li edi. Mironshoh Mirzo Temurbekning uchunchi o'g'li edi. Umarshayx Mirzo (Temurning ug'li — X. S.) bilan Jahongir Mirzodin kichik, Shohrux Mirzodin ulug' edi»(Xayriddin Sulton, "Boburiynoma", Toshkent "Ma'naviyat" 2019, 180-bet).

Matnni asl manba bilan qiyoslaganimizda o'zgarish deyarli kuzatmadik. Faqat ko'chirma matn avvalidagi "Umarshayx mirzo" qo'shtirnoqdan avval yozilishi maqsadga muvofiq bo'lardi. Boisi "Boburnoma"da Umarshayx mirzoning "Valodat va nasabi" deya ko'rsatilganidan so'ng to'g'ridan-to'g'ri avlodlari sanab ketilgan. Bu so'zni kitobxonlarga tushunarli bo'lishi uchun "Boburiynoma" muallifi qo'shgan. Shu sabab uni ko'chirma matn tarkibiga kiritib bo'lmaydi.

Qolaversa, asar tarkibidagi "Boburning tushlari" badiasida ham tarixiy shaxslarga oid ko'chirmalar mavjud. Bunda Xoja Ahror Valiy haqidagi ma'lumotlarni uchratish mumkin: "...derlarkim, hargiz Xoja majlisida tizi bir-bir tiziga yovutkagan emastur. Bir navbat hazrati Xoja suhbatida bar xilofi odat oyog'ini yovutkab o'lturubtur. Mirzo qo'pqondin so'ng hazrati Xoja buyuribdurlarkim, Mirzo o'lturg'on erni boqqaylar, bir so'ngak bor ekandur"(Xayriddin Sulton, "Boburiynoma", Toshkent "Ma'naviyat" 2019, 146-bet).

Mazkur matnni "Boburnoma"dan o'qiyotganimizda ba'zi juz'iy o'zgartirishlar qilinganiga amin bo'ldik: "...derlarkim, hargiz Xoja majlisida tizi bir-biri tiziga yovutkagan emastur. Bir navbat hazrati Xoja suhbatida bar xilofi odat oyog'ini yovutkab o'lturubtur. Mirzo qo'pqondin so'ng hazrati Xoja buyurubturarkim, Mirzo o'lturg'on erni boqqaylar: bir so'ngak bor ekandur"(Z.M.Bobur, "Boburnoma", Toshkent, "Yulduzcha" 1989, 20-bet).

Ko'rinib turganidek, quyidagi so'zlarda o'zgarishlar bor: bir-bir – bir-biri, buyuribdurlarkim- buyurubturarkim.

Vaqoye'dan olingan quyidagi matn ham asl manbadan aynan ko'chirilgani bilan ahamiyatli: "*O'shul fursatta ajab tush ko'rdum, — deb hikoya qiladi Bobur. — Tush ko'rarmenkim, hazrati Xoja Ubaydullo kelmishlar, men istiqbollarig'a chiqmishmen. Xoja kelib o'lturdilar. Xojaning o'llig'a g'olibo betakallufroq dastorxon solmishlar. Bu jihattin hazrat xotirig'a imo bilan dedimkim, mendin emastur. Dastorxon solg'uchi taqsir qilibtur. Xoja fahm qilib, bu uzr masmu' tushti. Qo'ptilar. Uzata chiqdim. Ushbu uyning dolonida o'ng qo'lumdin yo so'l qo'lumdin tutib andoq ko'tardilarkim, bir oyog'im erdin qo'pti. Turki dedilarkim,*

Shayx maslahat berdi. O'shul necha kunda-o'q Samarqandni oldim” (Xayriddin Sulton, “Boburiynoma”, Toshkent “Ma’naviyat” 2019, 147-bet).

Endi esa qiyos uchun ayni shu matni asl manbadan mutolaa qilamiz: *“O'shul fursatta ajab tush ko'rdum, Tush ko'rarmenkim, hazrati Xoja Ubaydullo kelmishlar, men istiqbollarig'a chiqmishmen. Xoja kelib o'lturdilar. Xojaning olig'a g'olibo betakallufroq dastorxon solmishlar. Bu jihattin hazrat xotirig'a nima kelmish. Mullo Bobo mening sari boqib ishorat qiladur. Men ham imo bilan dedimkim, mendin emastur. Dasturxon solg'uchi taqsir qilibtur. Xoja fahm qilib, bu uzr masmu' tushti. Qo'ptilar. Uzata chiqdim. Ushbu uyning dolonida o'ng qo'lumdin yo so'l qo'lumdin tutub andoq ko'tardilarkim, bir oyog'im erdin qo'pti. Turkiy dedilarkim: “Shayx maslahat berdi”. O'shul necha kunda-o'q Samarqandni oldim*” (Z.M.Bobur, “Boburnoma”, Toshkent, “Yulduzcha” 1989, 75-bet).

Bunda matnda bir necha e'tibortalab o'rinlar borligi aniqlandi. Misol uchun, asl manbadagi bitta gap va bir necha so'zlar qoldirilib ko'chirilgan: ”nima kelmish. Mullo Bobo mening sari boqib ishorat qiladur. Men ham imo”. Nazarimizda, bu texnik xatolikka o'xshaydi. Sababi matnning bir qatori umuman tashlab ketilgan.

Maqolaning hajmiga qo'ir qoidalarga ko'ra, shu ikki guruh, ya'ni geografik hududlarga oid ma'lumotlar va tarixiy shaxslar ta'riflariga oid ko'chirmalar tahlili bilan fikrimizni yakunlaymiz. Qolgan ikki guruh she'riy satrlar va hazrat Bobur badiiy uslubiga xos so'zlar, iboralar, so'z birikmalari hamda jummalarning qiyosiy tahlili galdagi maqolamiz mavzusi bo'lajak.

Xulosa shuki, taniqli yozuvchimiz Xayriddin Sulton “Boburiynoma” qatlariga “Boburnoma” matnlarini nozik fasohat ila joylaganki, bu bir tomondan asarning ilmiy-ma'rifiylik darajasini oshirsa, ikkinchi tomondan zamonaviy kitobxonni “Vaqoye” tomon chorlayotgan ohanraboga o'xshaydi.

Adabiyotlar:

1. Бобур.Бобурнома,— Т.:Юлдузча,1989
2. Шамсиев П. Матншуносликка оид тадқиқотлар. – Т.: Фан, 1986
3. Рейсер С.А. Основы текстологии. Ленинград, Просвещение, 1978.
4. Сирожиддинов Ш., Умарова С. О'збек матншунослиги қирралари. – Т.: Академнашр, 2015.
5. Султон Х. Бобурийнома, — Т.: Шарқ,1997
6. Султон Х. Бобурийнома, — Т.: Маънавиуат,2019

“ARMUG‘ONI XISLAT” ADABIY MANBA SIFATIDA

Shahnoza RASULOVA

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada Toshkent adabiy muhiti vakillaridan biri Sayid Haybatullohxo'ja Xislat(1880-1945)ning “Armug‘oni Xislat” bayozi o'rganildi. Bayozning yaratilish tarixi, o'ziga xos jihatlari, janr xususiyatlari tadqiq etildi.

Kalit soʻzlar: bayoz, adabiy meros, sheʼr, matn, toshbosma, maqom, gʻazal, muvashshah, ohang.

Abstract: The article “Armugoni Hislat” by one of the representatives of the literary environment of Tashkent, Syed Haibatullah Khoja Khyslat (1880-1945), was studied. The history of Bayoz's creation, its specific aspects, genre features were studied.

Key words: bayaz, literary heritage, poem, text, lithograph, makam, ghazal, muvashshah, tone.

Bayozlar oʻzbek mumtoz adabiyotimizning taraqqiyot bosqichlari, ijodkorlarning adabiy merosini oʻrganishda qimmatli manbalardan sanaladi. XX asrning boshlarida qoʻlyozma bilan bir qatorda toshbosma usulda bayozlar tuzish, chop ettirish keng rasm tusini oladi. Oʻz davrining tashabbuskor shoirlaridan biri Sayid Haybatullohoʻja Xislat (1880-1945) tomonidan tuzilib nashr ettirilgan “Armugʻoni Xislat”, “Hadyayi Xislat”, “Savgʻoti Xislat”, “Tuhfayi Xislat” bayozlari adabiyot muhiblarining yuksak eʼtiroflariga sazovor boʻlib kelmoqda.

Oʻzbek xalqining quvonchi-yu shodligi, iztirobu alamlari uning adabiyotida, kuy-qoʻshiqlarida aksini topgan. Ustoz Abdulla Qahhor taʼbiri bilan aytganda, “koʻngil ishi” boʻlgan adabiyot-sheʼriyat qadimdan hazrati insonning qalb malhami, sirdoshi, yupanchu tayanchi, dardkashi sanalgan. Maqomlar ana shunday sheʼriyatning kuyga solingan, qoʻshiqqa aylangan shaklidir. Oʻzbek musiqachiligi tarixida mashhur maqomchi-hofiz Toʻychi hofiz Toshmuhammedov (1868-1943)ning nomi Haybatulloh tomonidan tuzilgan “Armugʻoni Xislat” bayoziga muhrlangan.

“Armugʻoni Xislat” sheʼriy guldastasi 1912-yil Toshkent shahrida Gʻulom Hasan Orifjonov matbaasida nashrdan chiqqan. Bayozning yaratilishi, oʻziga xos xususiyatlari haqida unga yozilgan sarbayoz (muqaddima)da batafsil maʼlumot berilgan. Unda shoir Xislat tilidan shunday hikoya qilinadi: “Bir kun Mullo Toʻychi Toshkandiy birla musohibatim voqeʼ boʻldi. Chin musohibatimda iltimos yuzasidan ayddimki, agar ushbu avon-u zamonlarda gʻazallariki ahli muhabbat bazmlarida yuz ming tarona va zamzamar bilan oʻqugʻoysiz. Agar ushbu gʻazallar chop boʻlub, jahon safhasida oʻzingizdin yiroq va yovuqdagi ahboblar uchun bir yodgor boʻlib to roʻzi shumor qolgʻay erdi. Va yana onlarni xolisona duo va muhabbatlari haqqingizgʻa du chandon boʻlgʻoy erdi va yana der erdilar:

Aylamishlar Mullo Toʻychi bir ajib shirin bayoz,

Jumlayi boʻlgʻon bayoz ichra boʻlubtur chin bayoz.

Shoir tomonidan hofizning sheʼrlarni kitob holida nashr qilish taklifi bildirilgandan soʻng Toʻychi hofiz zarifona javob va hakimona xitob shunday javob beradi:

Qulogʻimgʻa yaxshi kelur bu soʻzing,

Issiqdur soʻzing oʻylakim yulduzing.

Bu ish bobida aylayin justujoʻ,

Ki man aylayin oni chop neku.

*Yoronlarga mandin bo'lar yodgor,
Jahon to esa bu kabi beqaror*²¹¹.

Muqaddimada bayozdagi she'rlarni tartibga solishda To'ychi hofizning talab va istaklari ham To'ychi hofiz va Xislat suhbatlari orqali izohlangan:

“(To'ychi hofiz – Sh. R.) Va yana xitobi oliy qilib (Xislatga – Sh.R.) aydilarki, sen ham g'ayrat samandig'a mahmiz berib, chob xususida justujo'lar ko'rg'uzg'oysen va har na qadar oltin va zarlariki sarf bo'lg'oy, mendin olg'oysen va har g'azalning to'fasig'a savt-u maqomining nomini tartib rishtasig'a terg'oysen”. Demak, bayozning tarkibiy tuzilishida To'ychi hofizning talabi va taklifi shunday bo'lgan: she'rlar to'plamga tartiblanadi, ularning tepasiga hofiz qaysi shashmaqom kuyida qo'shiq qilgan bo'lsa, o'sha maqom (kuy) nomi yozib qo'yiladi.

To'ychi hofizning rag'batlari, qo'llab-quvvatlanganidan ruhlangan shoir Xislat uning topshiriqlarini bajarishiga kirishadi: “Kamina bu javobi mushkin xitobdin xushnud bo'lib, bu bayozni tartib va tazminig'a ko'shish qilib, “Armug'oni Xislat” oti birla atab va har g'azalni savt-u maqom va ohangini to'fasig'a yozib elning ko'zig'a muhallo qilib jilvagar qildim”.

Xislat To'ychi hofizning ko'rsatmalariga ko'ra “Armug'oni Xislat” she'riy to'plamini tuzishda bayozchilikchilikdagi an'analarni davom ettirgani holda uni o'ziga xos yangiliklar bilan boyitdi. Jumladan, “Armug'oni Xislat”ga To'ychi hofizning repertuaridagi shashmaqom (o'zbek va tojik xalqlari musiqiy merosida markaziy o'rin tutgan maqomlar turkumi) kuyiga moslab yaratilgan she'rlarni jam etib va ularning tepasida qaysi kuyda ijro etilishi ham ko'rsatib o'tadi. Masalan:

Ushshoq

*Qaro ko'zum, kelu mardumlig' emdi fan qilg'il,
Ko'zum qarosida mardum kibi vatan qilg'il.*

(Navoiy g'azali, 16-bet)

Savti girya

*Ishqingda zor bo'ldimu, g'amgin dimog'man,
Bemoru furqatingmanu, zohirda sog'man,
Aqlu hushim saning bilan o'zdin yirog'man,
Ko'rsat yuzungni tolibi, nuri chirog'man,
Hajringda dardu g'am bila hasratda dog'man.*

(Noqis muxammasi, 65-bet)

Nolish

*Saharlar tinmayin aylar edim yuz ohu vo yalg'uz,
Der er dim uchrasun, yo Rab, o'shal qoshi qaro yalg'uz,
Bayon etmak edim rozi dil ila muddao yalg'uz,
Yo'luqti tun arosida manga ul dilrabo yalg'uz,*

Kulub boqib, qoshin qoqib, qilib o'tti imo yalg'uz. (Xislat muxammasi, 72-bet). “Ushshoq”, “Savti girya”, “Nolish”, “Dugohi husayniy”, “Chorgoh” kabilar shashmaqom tarkibidagi maqom nomlari sanaladi.

²¹¹Армуғони Хислат. Баёз. Тошбосма. ЎЗР ФА ШИ Асосий фонди. Инв. № 12555. – Тошкент: Ғулум Ҳасан Орифжонов матбааси, 1912 й. – Б. 3.

240 sahifadan iborat bayoz nashrdan chiqqach, adabiyot muxlislari tomonidan quvonch va samimiyat bilan kutib olinadi. “Armug‘oni Xislat” bayoziga shoirning zamondoshlari Vasliy Samarqandiy, Shavkat Iskandariy, Mulla Shohislom Toshkandiy, Husaynixon Maxdum Rizoyi Andijoniy, Miskin Toshkandiy, Asadulloh G‘azanfar Toshkandiy, Muhammad Yunus Toshkandiy hamda shoir Xislat tarafidan o‘zbek va fors-tojik tillarida o‘nta ta’rix bitilgan. Ularda Xislat va To‘ychi hofizning tashabbusi ehtirom bilan tilga olingan. 1913-yilda “Armug‘oni Xislat” bayozining chop etilishi munosabati bilan Mirmuhsin Shermuhammedov (Muhsiniy)ning “Turkiston viloyati gazetisi”da “Tavsifi Xislat eshon” nomli 10 bayt (20 misra)dan iborat she’ri e’lon qilingan:

Aylab tarahhum elg‘a qildi eshon Xislat,
Shod ayladi barimiz ul “Armug‘oni Xislat”.
Ahboblarini ogoh ayladi she’r birlan,
Oldi qalam qo‘lig‘a sohibqiron Xislat
Toshkanda garchi ko‘btur shoiru she’rxonlar,
*Onlarni barchasidin ham nuktadon Xislat...*²¹²

“Armug‘oni Xislat”ning so‘nggi sahifasida To‘ychi hofizning surati ham bosdiriladi. Bu haqda Mo‘minjon Toshqin shunday xotirlaydi: Xislat kitobini xalq orasida tarqatish uchun xurjunga solib, bir necha shaharlarda, ko‘pincha, Farg‘ona shaharlarida kezib yurdi. Kitobini Qo‘qon shahriga olib borganida: “Bunga To‘ychi hofizning suratini solib chiqaribdir, kitobga surat solish islom shariatiga xilof!..” deb, Qo‘qonning mutaassib mullalari ig‘vo ko‘tardilar va Xislatni toshbo‘ron (toshbaron) qilib o‘ldirishga fatvo berdilar. Qo‘qondagi ba’zi do‘stlari bu bo‘lishi mumkin bo‘lgan fojealik hodisadan unga xabar berib, kechalab Toshkentga qarab qochirtirdilar. Bo‘lmasa, ertasiga bu mullalarning toshbo‘roni bilan o‘lib ketishi aniq edi”²¹³.

“Armug‘oni Xislat” to‘plamida Navoiy, Jomiy, Bedil, Hofiz, Firdavsiy, Lutfiy, Sa‘diy, Saido, Qassob, Amiriy, Azim, Ahdiy, Komil Xorazmiy, Faqiriy, Akmalxonto‘ra, Zokiriy, Amirxo‘ja, Tajalliy, Yusuf Saryomiy, Shahidiy, Qoriy, Zamiriy, Pirimqori, Nozim, Xisrav, Muqimiy, Zavqiy, Furqat va boshqa 53 shoirning g‘azal, muxammas, qit‘a, masnaviy, qasida, marsiya, fard kabi lirik turga mansub 145 ta she‘rlari o‘rin olgan. Shulardan 2 ta to‘rtlik, 14 g‘azal, 8 muxammas, 1 marsiya Xislat qalamiga mansub.

Bayozdagi she‘rlarning 39 tasi fors-tojik tilida bitilgan. Navoiy, Saido, Shavkat Iskandariy, Muqimiy, Noqis, Pirimqori, Vasliy Samarqandiy kabi ijodkorlarning o‘zbek hamda fors-tojik tilida yozilgan she‘rlari ham o‘rin olgan.

“Armug‘oni Xislat” bayoziga kiritilgan she‘rlarning ayrimlari o‘z davrida tildan tilga ko‘chib yurgan mashhur she‘rlar bo‘lsa (“Qaro ko‘zum...”, “Ishqingda zor o‘ldim...”, “Lab uyur takallumg‘a...”), ko‘pchilik qismi “xalqg‘a eshitilmag‘on va ko‘rilmag‘on” (Xislat) g‘azal va muxammaslardan iborat.

²¹² Мухсиний. Тавсифи Хислат эшон. // Туркистон вилоятининг газети, 1913-йил, 7-апрел, №27.

²¹³ Мўминжон Тошқин. “Тошкент шоирларининг таржимаи ҳоллари” тазкираси. Қўлёзма. Алишер Навоий номидаги Давлат адабиёт музейи фонди. II дафтар – Б. 115.

Hazrat Navoiy qalamiga mansub “Qilg‘il” radifli g‘azalining ko‘plab bayozlar qatorida “Armug‘oni Xislat”dan o‘rin olganligi uning xalq ichida mashhur ekanligini anglatadi. “To‘ychi hofiz Toshmuhammedov XX asr boshida ushbu g‘azalni “ushshoq” kuyiga solib kuylaganidan keyin u “Qaro ko‘zim” nomi bilan mashhur bo‘lib ketadi. Aytishlaricha, hofizning yosh bir farzandi bevaqt olamdan o‘tganidan keyin ushbu g‘azalni qo‘shiq qilib kuylagan, o‘zining dardu hasratini kuyga solib nola qilgan ekan”²¹⁴. Demak, shoir she‘rlarni bayozga kiritayotganda uning xalq ichida ommalashganligini ham nazarda tutadi.

Mumtoz an‘analarga munosabat va adabiy ta‘sirning ko‘rinishlaridan biri muxammas bog‘lashdir. Ma‘lumki, muxammas besh misrali she‘rlardan tashkil topib, yaratilishiga ko‘ra 2 xil turga bo‘linadi: a) mustaqil (tab‘i xud) – bir shoirning o‘zi tomonidan yaratilgan; b) taxmis – muallif o‘zga shoir yoki ba‘zan o‘zining g‘azalini asos qilib, shu mavzuni davom ettirgan holda, vazn, qofiya va radifini saqlangan holda yaratilgan muxammaslar.

“Armug‘oni Xislat”da 38 ta muxammas janrida yozilgan she‘rlar mavjud bo‘lib, ulardan 14 tasi mustaqil, 24 tasi taxmislardan iborat. Bayozdagi muxammaslarning eng ko‘pi Xislatning hamfikir do‘sti, to‘plam kotibi Shavkat Iskandariy qalamiga mansub. Bayozdan uning Jomiy, Haziniy, Muqimiy, Xislat, Xayoliy Toyib, Ahmad kabi ijodkorlarning she‘rlariga bog‘lagan taxmislari o‘rin olgan.

Muvashshahchilik shoir yashagan davrida keng yoyilgan adabiy an‘analar mahsuli sanaladi. Maqsud Shayxzodaning bu haqdagi fikrlari e‘tiborga molik: “Lirikada muvashshah janri o‘zbek adabiyotida, ayniqsa, XIX asrning ikkinchi yarmida ko‘p avj olib ketib, adabiyot ahli o‘rtasida rasm bo‘lib qolgan edi. Hatto shu darajadagi, shoirlik va nazmchilik hunari muvashshahchilikdagi mahorati bilan o‘lchanadigan bo‘lib qolgan edi”²¹⁵.

“Armug‘oni Xislat” bayozida muvashshah san‘ati qo‘llangan 12 g‘azal mavjud. She‘rlarning 2 tasi fors-tojik, 10 tasi o‘zbek tilida yozilgan bo‘lib, ular Noqis, Vasliy, G‘ulomiy Toshkandiy, Muqimiy, Munis Toshkandiy, Shahidiy, Xislat, Shavkat Iskandariy qalamiga mansub. Xislat hozirda bizga ma‘lum nazmiy merosining 22 tasida muvashshah-tavshih san‘atini qo‘llagan va ularda Ahmadjon, Is‘hohxon, G‘ulomxon, Hamdamxon, Hoji Muhammadxon, Oxundjon, Sultonxon, Rahimxon, Alixon kabi ismlarini pinhon qilgan. Muvashshahlarni o‘rganish orqali ijodkorning hamfikir do‘stlari, adabiy muhiti haqidagi ma‘lumotlarni olish mumkin. Bu esa shoirning ilmiy biografiyasini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

“Akmug‘oni Xislat” bayozlaridan o‘rin olgan shoirlarni hududiy jihatdan quyidagicha tasnif etdik: Toshkent va unga yaqin joylardan Akmalxonto‘ra, Kamiy, Sidqiy Xodayliqiy, Munis Toshkandiy, Miskin, Xislat, G‘ulomiy, Soqiy, Mulla Abdulloh G‘azanfar, Mulla Shohislom; Samarqanddan Vasliy, Hilmiy, Noqis; Nasafdan Saido, Andijondan Pirimqori, Husayn Maxdum Rizoyi; Qo‘qondan Amiriy, Xisrav, Toyib, Muqimiy, Biymiy, Furqat, Zavqiy, Azimiy,

²¹⁴ Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Мовароуннахр, Ўзбекистон, 2009.– Б. 345.

²¹⁵ Шайхзода М. Фурқат хақида қайдлар. // Муқимий ва Фурқат хақида мақолалар. – Тошкент: Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1958 – Б. 70.

Qoriy, Zamiriy; Namangandan Mashrab; Xo‘janddan Asiriy, Shahidiy; Turkistondan Tajalliy, Yusuf Saryomiy; Xorazmdan G‘iyosiy, Komil Xorazmiy.

“Armug‘oni Xislat” bayozi mumtoz adabiyotimiz tarixi, musiqachilik san’atida tadqiqotlar yaratish uchun qimmatli manbalardandir. Mazkur bayozni adabiyotshunoslik, musiqashunoslik, matnshunoslikning so‘nggi imkoniyatlari asosida ilmiy tadqiq etish muhim vazifalardan sanaladi.

Adabiyotlar:

1. Армуғони Хислат. Баёз. Тошбосма. ЎзР ФА ШИ Асосий фонди. Инв. № 12555. – Тошкент: Ғулом Ҳасан Орифжонов матбааси, 1912-й.

2. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Мовароуннахр, Ўзбекистон, 2009.

3. Муҳсиний. Тавсифи Хислат эшон. // Туркистон вилоятининг газети, 1913-йил, 7-апрел, №27.

4. Мўминжон Тошқин. “Тошкент шоирларининг таржимайи ҳоллари” таъкираси. Қўлёзма. Алишер Навоий номидаги Давлат адабиёт музейи фонди. II дафтар.

5. Шайхзода М. Фурқат ҳақида қайдлар. // Муқимий ва Фурқат ҳақида мақолалар. – Тошкент: Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1958.

ALISHER FONIY – NAVOIYNING “DEVONI FONIY”SI MAHALLIY OLIMLAR TADQIQOTLARIDA

Mabruk DJURAYEV

O‘zR FA Davlat adabiyot muzeyi tayanch doktaranti

Annottatsiya: Ushbu maqolada Alisher Foniyy – Navoiyning fors tilidagi she’rlari to‘plami bo‘lmish “Devoni Foniyy”ning tadqiqoti tahlili bayon etilgan. Unda yurtimizning zabardast olimlari hamda Sadriddin Ayniy tomonidan amalga oshirilgan ishlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Alisher Foniyy, S.Ayniy, H.Sulaymon, Sh.Shomammedov, N.Bekova, E.Bertels, H.Xamidov, “Devoni Foniyy”, devon, g‘azal, tatabbu’.

Аннотация: В статье представлен исследовательский анализ сборника стихотворений Алишера Фания-Наваи на персидском языке «Дивани Фаний». Анализируются работы ведущих ученых нашей страны и Садриддина Айния.

Ключевые слова: Алишер Фоний, С.Айний, Ҳ.Сулейман, Ш.Шомухаммедов, Н.Бекова, Э.Бертельс, Ҳ.Хамидов, «Дивани Фаний», диван, газель, татаббуъ.

Alisher Navoiyning ijodiga qiziqish juda katta. Uning asarlarini har taraflama o‘rganish va tadqiq etish hamda ularni ommalashtirish ishlari ham jadal suratlarda davom etmoqda. Navoiy ijodiyoti hamda uning sarmahsul adabiy merosini tadqiq etilishi natijasida muallifning o‘zi yozgan yoki xattotlar tarafidan ko‘chirib ko‘paytirilgan va dunyoning turli burchaklariga tarqab ketgan hamda

jahonning turli muzey va qo‘lyozma fondlarida saqlanayotgan asarlarini o‘rganish va jamlash ishlari amalga oshirilmoqda. Bizning ushbu maqolamiz obyekti bo‘lgan Navoiyning “Devoni Foni”ni tadqiq etishga ham ko‘plab olimlarimiz tomonidan qo‘l urilgan. Xususan, Hamid Sulaymon, Shoislom Shomammedov, Alisher Shomammedov, Yoqubjon Ishoqov, Abdulg‘ani Mirzoyev, Rasul Hodizoda kabi olimlar tomonidan chuqur tadqiq etilgan. “Devoni Foni” asarini o‘rganish bo‘yicha dastlabki ilmiy qadam Sadriddiy Ayniy tomonidan tashlangan. Ayniqsa, O‘zbekistonda Navoiy lirikasining matnshunoslik nuqtayi nazardan o‘rganilishi XX asr 30 – 50-yillariga kelib alohida bosqichga ko‘tarildi²¹⁶. Bugungi kungacha o‘zbek matnshunosligida qo‘lyozma matnlarni joriy yozuvga tabdil qilish bilan bog‘liq matnshunosligimizdagi boy tajribalar S.Ayniy, Fitrat, P.Shamsiev, H.Sulaymon, I.Sulton, S.G‘anieva, A.Hayitmetov, L.Xalilov kabi matnshunoslarimiz tomonidan amalga oshirilgan qator amaliy tadqiqotlar va ular negizida shakllangan nazariy qarashlar hisobiga to‘plandi²¹⁷ va shu tariqa matnshunoslik maktabi shakllandi.

Sovet davrida Alisher Navoiyning forsiy ijodini o‘rganishga birinchilardan bo‘lib qo‘l urgan olim Sadriddin Ayniy bo‘ldi. U yigirmanchi yillardayoq bu ishga kirishib, Navoiyni fors-tojik klassiklari qatoriga qo‘ydi va 1926-yili Moskvada chop etilgan “Tojik adabiyoti namunasi” kitobiga uning “Tuhfatul afkor” qissasidan 18 bayt kiritdi. Bu bilan kifoyalanmagan olim Navoiyning forsiy ijodini qidirishga tushdi. U boshqa foniylarga mansub kitoblardan uslubiga qarab Alisher Foni asarlarini ajratib olishga harakat qildi. Bu ishlar natijasi o‘laroq Sadriddin Ayniyning “Alisher Navoiy” monografiyasi vujudga keldi²¹⁸. Garchi Ayniy tomonidan saralab olingan ko‘plab g‘azallar, ya’ni 97 g‘azaldan 6 tasigina Navoiy qalamiga mansub bo‘lsa-da, u amalga oshirgan ishlar alohida ahamiyat kasb etgan. Chunki, ko‘plab g‘azallar orasidan ularning vazni, mazmuni hamda uslubiga ko‘ra Navoiy g‘azallarini ajratib olish katta mashaqqatli mehnat talab etadi, albatta.

Yurtimiz kutubxonalarida “Devoni Foni”ning birorta ham asil nusxasi bo‘lmasligiga qaramay, professor Ayniy turli qo‘lyozma devon, tazkira, bayozlardan Navoiyning forsiy she’rlarini izlash va aniqlashga kirishadi. Sovet matbuotida “Devoni Foni” haqidagi birinchi ma’lumot professor Ayniyning 1926-yilda bosilgan “Namunayi adabiyoti tojik” kitobida berilgan, unda Alisher Navoiyning “Tuhfatul afkor” qasidasidan namuna sifatida 18 bayt e’lon qilingan edi²¹⁹. Navoiyshunoslikda bu mushkul ahvolni ma’lum darajada bartaraf qilish niyatida shoirning fors-tojik tilidagi asarlarini birinchi bo‘lib jiddiy o‘rganishga kirishgan shaxs davrimizning atoqli adibi va olimi, sharq adabiyotining mashhur

²¹⁶ Намозова Зилола Бозоровна. Навоий лирикаси матншunosлиги тадқиқи тадрижи (Ҳамид Сулаймон илмий фаолияти асосида). Дисс. Автореферати. Тошкент – 2020. Б. 14.

²¹⁷ Намозова Зилола Бозоровна. Навоий лирикаси матншunosлиги тадқиқи тадрижи (Ҳамид Сулаймон илмий фаолияти асосида). Дисс. Автореферати. Тошкент – 2020. Б. 20.

²¹⁸ Шоислом Шомухамедов. Хазиначар жилоси Т.: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. - Б.286.

²¹⁹ ص. عینی. نمونه ادبیات تاجک. چاپخانه نشریات مرکزی خلق اتحاد جماہر شوروی سوسیالیستی. مسکو. 1926.

bilimdoni ham tadqiqotchisi Sadridin Ayniy bo'lgan²²⁰, – deb ta'kidlagan Hamid Sulaymon o'z maqolasida.

O'ttizinchi yillar oxirida professor Ayniy Navoiyning forscha she'rlarini tadqiq qilish va o'rganishni davom ettiradi. U Toshkentdagi O'zSSR Fanlar akademiyasi qo'lyozma fondida №914, №916 hamda №3343 inventar raqami ostida saqlanayotgan Muhammad Muhsin Foni Kashmiriyning forsiy she'rlarining uchta devon qo'lyozmasini diqqat bilan kuzatdi. O'zining kuzatishlari natijasida Ayniy yuqorida qayd etilgan uchta devonning kichik bir qismi Alisher Navoiyga tegishli ekanligini va u xatolik tufayli Foni Kashmiriy devoni tarkibiga qo'shib qo'yilgan degan xulosaga keladi²²¹. Izlanishlar natijasida, Ayniy Foni Kashmiriyning uch qo'lyozma devoni ichidan Navoiyning forscha she'rlari uslubi va ma'nosi bilan bir xil deb hisoblab, 97 g'azal, 2 qit'a hamda 14 ruboiyni ajratib olgan. Ayniy bu ajratib olingan she'rlarga Navoiyning boshqa manbalardagi forscha she'rlarini qo'shib, kichik bir to'plam yaratadi hamda o'zining "Alisher Navoiy"²²² nomli monografiyasida e'lon qiladi²²³. Ayniy o'zining maqolasida shunday deydi: - "Ibn Sino nomli kutubxonada "Devoni Foni" nomli bir qo'lyozma bor. Lekin bularning hech birini butunligicha Alisherga nisbat berish mumkin emas, biroq bu devonlardagi she'rlarning bir qismi haqiqatan Alishernikidir"²²⁴.

Shunday qilib, Ayniy tomonidan tuzilgan Navoiyning forscha she'rlar to'plami 10 xil janrga oid 140 ta she'rni o'z ichiga olgan bo'lib, bu 140 she'r ja'mi 711 baytni tashkil etgan. Biz buni quyida jadval ko'rinishida to'liq berishga qaror qildik:

№	Janrlar	Soni
1	Qasida	1 ta
2	G'azal	97 ta
3	Musaddas	1 ta
4	Soqiynoma	1 ta
5	Tarkibband/marsiya	1 ta
6	Qit'a	2 ta
7	Ruboiy	14 ta
8	Alohida lirik fragmentlar	5 ta
9	Tarix	3 ta
10	Muammo	15 ta

²²⁰ X.Сулаймон. Алишер Навоийнинг форс тилидаги поетис мероси тадқиқотидан. Ўзбек тили ва адабиёти. "Фан" нашриёти. Т.: 1965. Б.33.

²²¹ Хамид Сулейман, Текстологическое исследование лирики Алишера Навои. Док. дисс. част первый, – Ташкент: изд. АН УзССР 1961. – С.256.

²²² С.Айни. "Алишер Навои". Сталинобод. Тожикистон давлат нашриёти. 1948. Б.185-241.

²²³ Хамид Сулейман, Текстологическое исследование лирики Алишера Навои. Док. дисс. част первый, – Ташкент: изд. АН УзССР 1961. – С.256.

²²⁴ С.Айний, Алишер Навои ва тожик адабиёти, сб. "Улуғ ўзбек шоири", Тошкент, УзФА нашриёти, 1948, стр. 198-211.

Navoiyning forscha asarlarini o'rgangan barcha olimlar orasida, ba'zi kamchiliklariga, yanglishliklariga qaramay, sharq adabiy qo'lyozmalari bo'yicha eng yirik mutaxassis professor S.Ayniy tadqiqotlari alohida e'tiborga loyiqdir. Aynan Ayniy qo'lida Navoiyning "Devoni Foni"ning qo'lyozma nusxasi bo'lmagan holda, bir necha yillar davomida Navoiyning forsiy she'rlarini ko'plab qo'lyozma manbalardan izlab topishda ibratli va mashaqqatli ishlarni amalga oshirgan²²⁵. U Navoiyga tegishli deb hisoblagan she'rlarning yozilish uslubi, mazmuni hamda vazniga ko'ra saralab olgan.

Bundan tashqari Ayniy tomonidan 1945-yilda yaratilgan Toshkentdagi uchta "Devoni Foni" qo'lyozmasining eslatmalaridan foydalangan holda Hakim Hamidov o'zining dissertatsiyasi²²⁶da "Devoni Foni" haqida 30 varaqdan iborat maxsus bob yozgan. Hakim Hamidov Ayniyning turli xil fikr va xulosalariga to'liq tayangan holda Navoiyning forsiy g'azallarining g'oyaviy asoslari va badiiy fazilatlarini haqida nazariy hukmlar yuritadi. Ayniy tomonidan avval tasdiqlangan Toshkent qo'lyozmalari institutidagi mavjud g'azallarni Navoiyga tegishli ekanligiga ikkilanmagan, aksincha Ayniyning fikrlarini tasdiqlash bilan kifoyalangan.

1959-1960-yillarda O'zFA nashriyoti tomonidan o'zbek adabiyoti tarixi bo'yicha 4 jildlik xrestomatiya²²⁷ chop etilgan. Ushbu nashring ikki tomi oxirida Alisher Navoiy forsiy she'rlaridan namunalar "Namunayi she'rhoi forsiy-tojikiy Alisher Navoiy – Foni" sarlavhasi ostida berilgan. Navoiyning forscha she'rlari matnini tanlab nashrga tayyorlagan P.Shamsiyev qo'lyozma manbalardan foydalanmagan. U hech qanday tanqidlarsiz Ayniy tomonidan nashr etilgan Navoiyning forscha she'rlaridan saralab olgan. P.Shamsiyev "O'zbek adabiyoti" kitobining ikkinchi tomida Navoiyning ijodiga hech qanday aloqasi bo'lmagan 19 ta g'azal, 1 ta soqiynoma, 2 ta qit'a, 5 ruboiyni nashr qiladi²²⁸ – deb qayd etgan Hamid Sulaymon o'z dissertatsiyasida.

Navoiyning forsiy devoni to'g'risida gap ketganda, Xondamir, Davlatshoh Samarqandiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abushqa lug'ati muallifi, Sadridin Ayniy, Semyonov, Y.E.Bertels kabi olim va muarrixlar Navoiy o'zi "Muhokamatul lug'atayn" asarida keltirgan "Devoni Foni" asarining olti ming baytdan ortiqligi haqidagi ma'lumot bilangina cheklanganlar, xolos. Sababi ularda devonning asil qo'lyozma nusxasi mavjud bo'lmagan. Xususan, Y.E.Bertels bu haqida shunday yozadi: - "Uning barcha forscha she'rlari devonga birlashtirilgan. Lekin afsuski, ushbu devonning nusxasi bizning kitob saqlanadigan joylarimizda yo'q"²²⁹.

"Devoni Foni"ni tadqiq etishda katta ilmiy natijalarga erishgan taniqli navoiyshunos, matnshunos olim, professor, Hamid Sulaymonning amalga oshirgan

²²⁵Хамид Сулейман, Текстологическое исследование лирики Алишера Навои. Док. дисс. част первый, – Ташкент: изд. АН УзССР 1961. – С.260.

²²⁶ Х.Хамидов, Навоийнинг форсий шеърларини текшириш тажрибаси, стр. 90.

²²⁷ Ўзбек адабиёти, Тошкент, изд. АН УзССР, 1959, т.П, стр. 631-646.

²²⁸ Хамид Сулейман, Текстологическое исследование лирики Алишера Навои. Док. дисс. част первый, – Ташкент: изд. АН УзССР 1961. – С.259.

²²⁹ Е. Э. Бертелс, Навои. М.-Л.: Изд. АН СССР, 1948г. стр. 108.

ishlari tahsinga sazovor. Devonning dunyo fondlarida saqlanayotgan bir nechta qo‘lyozma nusxalarini chet el kataloglaridan aniqlab, yurtimizga fotoplyonka nusxasini olib kelish, Navoiyning forsiy she‘rlari o‘rganish hamda ushbu forsiy devonni O‘zbekistonda birinchi marotaba nashr etish kabi salmoqli ishlar Hamid Sulaymon tarafidan amalga oshirilganini e‘tirof etib o‘tish joiz, albatta. Navoiyshunos olim Hamid Sulaymon xorijiy olimlar tuzgan kataloglardan foydalanib, Parij milliy kutubxonasida saqlanayotgan “Devoni Foniyy”ning eng to‘liq nusxasini aniqladi va uning mikrofilmni olishga muvaffaq bo‘ldi.

“Devoni Foniyy” – Navoiyning forsiy lirikasini o‘zida jamlagan bo‘lib, 1965-yilga qadar mazkur asar tuzilishi, qo‘lyozmalari to‘g‘risida to‘liq tasavvur mavjud emas edi. Chet el sharqshunoslari va adabiyotshunoslari garchi “Devoni Foniyy”ning haqiqiy nusxalariga ega bo‘lsalar-da shoirning forsiy merosini o‘rganish bilan shug‘ullanmaganlar. Navoiy forsiy she‘rlarini izlash, tekshirish va aniqlashda sovet olimlaridan Sadridin Ayniyning jiddiy urinishlari ham kutilgan natijalarga olib kelmadi²³⁰. Ushbu xulosaga kelishdan avval Hamid Sulaymon devonning Parijdagi №285, №1345, Tehrondagi №15002, Turkiyadagi №3850, №1952 raqamli 5 ta unikal nusxasini qiyosiy o‘rgandi. Shuningdek, bir nechta Foniylar she‘rlaridan tuzilgan Toshkent va Dushanbedagi 7 ta terma devonni “Devoni Foniyy”ning Parij nusxasi bilan solishtirib chiqilishi natijasida, Navoiy – Foniyy qalamiga mansub she‘rlar aniqladi²³¹ hamda bu orqali Hamid Sulaymon 60-yillargacha Navoiyga nisbat berilgan va juda ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda foydalanilgan Foniyy taxallusi bilan ijod etgan shoirlar she‘rlarini Navoiyga tegishli emasligini amalda isbotlab bergan.

Sadridin Ayniy shu to‘plamning asosiy qismini tashkil qilgan 97 g‘azalni o‘zining “Alisher Navoiy” monografiyasining o‘ninchi bobida keng tahlil qilib, Alisher Foniyyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari, san‘ati va badiiy mahorati to‘g‘risida nazariy xulosalar ham chiqargan edi. Keyinchalik, Ayniy to‘plagan mazkur she‘rlardan boshqa olimlar ham o‘z dissertatsiya va kitoblarida foydalanib, Navoiy forsiy she‘rlari haqida mulohazalar yuritib, o‘z konsepsiyalari bilan maydonga chiqa boshlaydilar²³². Faqat Alisher Navoiy “Devoni Foniyy”sining haqiqiy nusxalari qo‘limizga kirganidan so‘nggina professor S.Ayniy tadqiqotlaridan chiqarilgan xulosalarning qanchalik haqiqatga yaqin yoki yaqin emasligini uzil-kesil aniqlash mumkin bo‘ldi. Ya‘ni Ayniy e‘lon qilgan she‘rlarni “Devoni Foniyy”ning Parij nusxalari bilan birma bir muqoyisa qilinganda, Ayniy to‘plamidagi ko‘pgina she‘rlar, shu jumladan, 97 g‘azaldan 91 tasi Navoiyniki emasligi aniqlandi²³³. Sadridin Ayniy o‘z asarlarida sovet kutubxonalaridagi “Devoni Foniyy” qo‘lyozmalarining soni to‘rtta ekani haqida ma‘lumot bergan.

²³⁰ Хамид Сулаймон. Алишер Навоийнинг форс тилидаги поетик мероси тадқиқотидан. Ўзбек тили ва адабиёти. 1965. Б.32.

²³¹ Хамид Сулейман, Текстологическое исследование лирики Алишера Навои. Док. дисс. част первый, – Ташкент: изд. АН УзССР 1961. – С.76.

²³² Х.Сулаймон. Алишер Навоийнинг форс тилидаги поетик мероси тадқиқотидан. Ўзбек тили ва адабиёти. “Фан” нашриёти. Т.: 1965. Б.33.

²³³ Х.Сулаймон. Алишер Навоийнинг форс тилидаги поетик мероси тадқиқотидан. Ўзбек тили ва адабиёти. “Фан” нашриёти. Т.: 1965. Б.34.

Lekin Hamid Sulaymon olib borgan izlanishlar natijasida sovet fondlarida “Devoni Foniyy” qo‘lyozmalarining yana uchasi topilib, uning qo‘lyozma nusxalari soni jami yettitani tashkil etdi. Bular “Foniyy”lar she‘rlaridan tartib etilgan kompelyativ devonlardir. Bir devonning yetti nusxasi bo‘lgan bu qo‘lyozmalardagi 796 she‘rdan 6 g‘azalgina Navoiyga taalluqlidir²³⁴, deb ta’kidlaydi Hamid Sulaymon.

Shuningdek, Hamid Sulaymon 1961-yilda “Текстологическое исследование лирики Алишера Навои”²³⁵ nomli doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. Olim unda Navoiyning ko‘plab asarlari bilan bir qatorda “Devoniyy Foniyy” asarining o‘rganilishi hamda manbashunoslik tahliliga ham to‘xtalib o‘tgan. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, devonning qaysi chet el davlatning kutubxonalarida saqlanishi, necha sahifadan iborat ekanligini hamda uning tarkibini o‘zidagi mavjud ikki Parij nusxasi, shungdek, Ogah Serri Levand va ibn Yusuf Sheroziylar katalogida berilgan tavsifga asoslanib, ularni qiyosiy o‘rgangan holda devonning qo‘lyozma nusxalari ichidan uning eng mukammal variantini aniqladi. Shuningdek, Hamid Sulaymon yurtimizda saqlanayotgan Foniyy taxallusli boshqa shoirlar qalamiga mansub bo‘lgan ettita devonning qo‘lyozma nusxalariga ham ta’rif berib o‘tgan. Hamid Sulaymon ushbu dissertatsiyasining “Devoni Foniyy”ga oid qismini “Alisherning Foniyy taxallusidagi she‘rlari bilan boshqa Foniyy taxallusida ijod qilgan shoirlarning she‘rlari haqida ayrim tadqiqotchilarning noto‘g‘ri tushunchalari”, “Muhammad Muhsin Foniyy Kashmiriy va uning devonlarining 7 ta qo‘lyozma nusxalarini qiyosiy tahlil etish”, “Navoiyning “Devoni Foniyy” – forscha she‘rlar to‘plamining Parij milliy kutubxonasida saqlanayotgan ikki sahih nusxasi va uning xususiyatlari haqida” hamda “Alisher Navoiy “Devoni Foniyy” asarining mualliflik nashrlarini ta’ sis etish tajribasi” kabi to‘rt reja asosida yoritib bergan. Ushbu dissertatsiyadan tashqari “Devoni Foniyy” bilan bog‘liq “Adabiy me‘ros” jurnalida chop etilgan talaygina maqolalar ham Hamid Sulaymon nomi bilan bog‘liqdir. Xususan, “Алишер Навоийнинг форс тилида яратган поэтик мероси тадқиқотидан”²³⁶, “Алишер Навоий куллиёти қўлёзмалари тадқиқотидан”²³⁷, “Навоийнинг “Фоний девон”и”²³⁸, “Алишер Навоийнинг янги топилган “Ситтаи зарурия” асари ва унинг қўлёзма манбалари ҳақида”²³⁹ kabi maqolalarida “Devoni Foniyy”ga oid ko‘plab yangi va qimmatli ma’lumotlarni keltirilgan. *Shu bilan birgalikda, Hamid Sulaymon “Devoni Foniyy”ni yurtimizda ilk nashr etgan olim hisoblanadi. Ushbu nashr eng mukammal deb qaralayotgan Parij nusxasi asosida 1965-yili Alisher Navoiyning*

²³⁴ Ҳ.Сулаймон. Алишер Навоийнинг форс тилидаги поетис мероси тадқиқотидан. Ўзбек тили ва адабиёти. “Фан” нашриёти. Т.: 1965. Б.34.

²³⁵ Ҳамид Сулейман. Кўрсатилган диссертатсия. – С.76.

²³⁶ Ҳамид Сулаймон, Алишер Навоийнинг форс тилида яратган поетик мероси тадқиқотидан, “Ўзбек тили ва адабиёти” журнали, 1965, №5.

²³⁷ Ҳ. Сулаймон, Алишер Навоий куллиёти қўлёзмалари тадқиқотидан. “Адабий мерос”, 3-жилд, 83-92-бетлар.

²³⁸ Ҳ. Сулаймон, “Навоийнинг “Фоний” девони. “Шарқ юлдузи”, 1965, 9-сон, 157-бет.

²³⁹ Ҳамид Сулаймон. Алишер Навоийнинг янги топилган «Ситтаи зарурия» асари ва унинг қўлёзма манбалари ҳақида. «Адабий мерос», -Т.: 1968; № 1;

*o'n besh jildlik asarlari tarkibida ilk bor bosilib chiqqan*²⁴⁰. Hamid Sulaymon tomonidan tayyorlangan “Devoni Foniyy”ning O‘zbekistondagi dastlabki nashri 1965-yilda Navoiyning XV jildlik “Asarlar”i beshinchi jildiga kiritilgan bo‘lib, ikki kitobdan tarkib topgan.

Shuningdek, mustaqillik yillarida Bekova Nazora Jo‘rayevna “Alisher Navoiy forsiy merosining janriy xususiyatlari va badiiyati”²⁴¹ mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan. Olima ushbu dissertatsiyasida “Devoni Foniyy”ning Sharq mumtoz adabiyotida tutgan o‘rni va o‘rganilishi, devonning Navoiy ijodiyotidagi mavqeyi, Navoiyning forsiy merosida qo‘llanilgan taxalluslar, devonning kompozitsiyasi va poetikasi, uning badiiy qurilishi, janrlari tizimi va tarkibi, qit‘a va ruboiylarning poetic xususiyatlari, Navoiy qasidalarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari batafsil yoritib berilgan.

Shu bilan birgalikda, tarjima sohasida ham salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Bunga misol qilib Jamol kamolning “Foniyy gulshani”²⁴² nomli kitobini keltirishimiz mumkin. Ushbu kitobda “Devoni Foniyy”dan olingan hamda yuksak mahorat bilan o‘zbek tiliga she‘riy tarzda o‘girilgan 200 g‘azali hamda o‘n qasidasi o‘rin olgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Hamid Sulaymon tomonidan “Devoni Foniyy” ustida olib borilgan tadqiqotlar unga qadar amalga oshirilgan Sadridin Ayniy, Hakim Homidov, Porsoxon Shamsiyev kabi olimlar ishlaridan farqli o‘laroq, devonning besh qadimiy qo‘lyozma nusxasi aniqlanishi hamda unga asoslanib tadqiq etilishi, ularni o‘zaro qiyoslab, nashrga tayyorlanishi katta ilmiy hodisa hamda katta ilmiy yutuqlardan biri bo‘lgan. Hamid Sulaymon tarafidan “Devoni Foniyy”ning nusxalarini aniqlanishi Foniyyning forsiy tilidagi adabiy merosini o‘rganishdagi uzoq davrlardan beri davom etib kelgan turli xil qiyinchilik, turli tuman taxmin hamda chalkashliklarga uzil-kesil chek qo‘ydi. Va buning natijasida Sadridin Ayniy tomonidan Alisher Navoiy - Foniyyga tegishli deb hisoblangan g‘azallarning ko‘pi boshqa Foniyy taxallusida ijod qilgan shoirlarga tegishli ekanli aniqlandi.

Professor Sadridin Ayniy va Porsoxon Shamsiyev kabi yirik olimlarning ham “Devoni Foniyy”ga oid tadqiqotlari ilmiy yutuqlarga erishmagan bo‘lsa-da, o‘zidan keyingi tadqiqotlarga katta yo‘l ochib berdi. Xususan, Ayniy tomonidan Navoiyga mansub deb hisoblangan 97 g‘azaldan 6 tasigina Navoiyga tegishli ekanligi ayon bo‘ldi hamda Porso Shamsiyev “O‘zbek adabiyoti” nomli ikkinchi tomnda nashr qilgan 19 ta g‘azal, 1 ta soqiynoma, 2 ta qit‘a, 5 ruboiyning Navoiy qalamiga mansub emasligi ma‘lum bo‘ladi.

²⁴⁰ А.Навоий. Асарлар. 15 томлик. Т.5. 1,2-китоблар. – Тошкент: Бадий адабиёт, 1965.

²⁴¹ Bekova Nazora Jo‘rayevna. Alisher Navoiy forsiy merosining janriy xususiyatlari va badiiyati. (DSc) diss. Avtoreferati. Samarqand. 2021.

²⁴² Mir Alisher Navoiy. Foniyy gulshani. G‘azallar va qasidalar. Forsiydan o‘zbek xalq shoiri Jamol Kamol tarjimai. Toshkent. “Meriyus” nashriyoti. 2011. 364 b.

Adabiyotlar:

1. Ҳ.Сулаймон. Алишер Навоийнинг форс тилидаги поетис мероси тадқиқотидан. Ўзбек тили ва адабиёти. “Фан” нашриёти. Т.: 1965. Б.33.
 2. Х. Сулейман, Текстологическое исследование лирики Алишера Навои. Док. дисс. част первый, – Ташкент: изд. АН УзССР 1961. – С.256.
 3. Ҳ. Сулаймон, Алишер Навоий куллиёти кўлёмалари тадқиқотидан. “Адабий мерос”, 3-жилд, 83-92-бетлар.
 4. Ҳ. Сулаймон, “Навоийнинг “Фоний” девони. “Шарқ юлдузи”, 1965, 9-сон, 157-бет.
 5. Ҳ. Сулаймон. Алишер Навоийнинг янги топилган «Ситтаи зарурия» асари ва унинг кўлёмма манбалари ҳақида. «Адабий мерос», -Т.: 1968; № 1;
 6. Шоислом Шомухамедов. Хазиналар жилоси Т.: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. - Б.286.
 7. Х.Ҳамидов, Навоийнинг форсий шеърларини текшириш тажрибаси, стр. 90.
 8. Навоийга армуғон. Ўзбекистон ССР. “Фан” нашриёти. Т.: 1968. – Б.5.
 9. Ўзбек адабиёти, Тошкент, изд. АН УзССР, 1959, т.П, стр. 631-646.
- А.Навоий.Асарлар. 15 томлик. Т.5. 1,2-китоблар. – Тошкент: Бадиий адабиёт, 1965.
10. Е. Э. Бертелс, Навои. М.-Л.: Изд. АН СССР, 1948г
 11. С.Айни. “Алишер Навои”. Сталинобод. Тожикистон давлат нашриёти. 1948. Б.185-241.
 12. С.Айний, Алишер Навои ва тожик адабиёти, сб. “Улуғ ўзбек шоири”, Тошкент, УзФА нашриёти, 1948, стр. 198-211.
 13. Намозова Зилола Бозоровна. Навоий лирикаси матншунослиги тадқиқи тадрижи (Ҳамид Сулаймон илмий фаолияти асосида). Дисс. Автореферати. Тошкент – 2020. Б. 14.
 14. Bekova Nazora Jo‘rayevna. Alisher Navoiy forsiy merosining janriy xususiyatlari va badiiyati. (DSc) diss. Avtoreferati. Samarqand. 2021.

NAVOIY “XAMSA”SINING NASHRLARI

Hilola SHOKIROVA

O‘zR FA Davlat adabiyot muzeyi tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiy “Xamsa” dostonlarining dastlabki qo‘lyozma nusxalari hamda nashrlari xususida so‘z boradi. Bundan tashqari bugungi kuncha e‘lon qilingan hamda e‘lon qilinmagan nashrlar haqida ham ma‘lumotlar mavjud. Shuningdek ba‘zi bosma nashrlar to‘g‘risida ham so‘z yuritilgan.

Kalit so‘z: “xamsa”, nusxa, nasriy bayon, nashr, bosma nashr, ilmiy

tanqidiy matn.

Annotation. This article talks about the early manuscript copies and editions of Alisher Navoi's "Khamsa" epics. In addition, there is information about published and unpublished publications to date. Some printed publications are also mentioned.

Key words: "khamsa", copy, prose statement, edition, printed edition, scientific critical text.

Alisher Navoiy asarlari o'sha davrning o'zidayoq ko'plab nusxalarda ko'chirilib, yaqin va uzoq o'lkalarga keng tarqaldi. Shu o'rinda tarxichi Xondamirning shoir haqidagi fikrini keltirish o'rinlidir: "G'oyatda ochiq va engilligi, ajoyib ma'nolar bilan bezalishi, so'z boyligi va betakallufigi, zo'rakilining yo'qligi orqasida, oz muddatda bu badiiy baytlar va to'la ziynatli nazmlarning latiflik va noziklik shuxrati shunday darajaga etdiki, dunyo tevaragidagi, mamlakatlarning podsholari Hirot poytaxtiga suxandon elchilar yuborib, san'at nishonli kulliyotlarni talab qildilar"²⁴³.

Navoiy asarni yozib tugatmasdan, dastlab Hirotning atoqli xattot (kalligraf)laridan Abdujamil kotib nusxa ko'chirishga kirishib, shoir bilan ketma-ket bu ishni tugallab, XV asr xattotligining ajoyib namunasi bo'lgan va shoirning o'z avtografiga eng yaqin turgan mashhur qimmatbaho qo'lyozmani dunyoga keltirdi²⁴⁴. Shundan keyin Sultonali Mashhadiy²⁴⁵ kabi san'atkor kotiblar va boshqa qalam ahllari²⁴⁶ nusxalar ko'chirishni davom ettirib, "Xamsa"ni turli o'lkalarga tarqatish ishida zo'r xizmat ko'rsatdilar. Shunday qilib, Navoiyning bu ulug' asari XIX asrning ikkinchi yarmigacha faqatgina nusxa ko'chiruvchi kotiblarning zo'r chidam va sabotlari natijasida maydonga kelgan yakka-yakka qo'lyozma nusxalar orqaligina turli shahar va mamlakatlarga tarqalib, qo'ldan-qo'lga o'tib, o'qib kelindi.

XIX asr oxirlarida O'rta Osiyoda toshbosmaxonalar paydo bo'la boshlagach, bu asar birinchi marta Xiva shahrida²⁴⁷ toshbosmada nashr etildi. Shundan keyin Toshkent shahrida ketma-ket ikki bor bosilib chiqdi²⁴⁸.

O'zbekistonda ilmiy matnshunoslikning rivojlanishi buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy asarlarining chop etilishi bilan bog'liqdir. Navoiy asarlarining nashrga tayyorlanishi 1938-yildan boshlanib, shoir tug'ilgan kunning 500 yilligini nishonlashga tayyorgarlik bilan bog'liq holda hal etila boshlandi.

Ulug' vatan urushi yillarida etakchi rus olimlari bilan birgalikda o'zbek mutaxassislari Navoiy asarlarining ilmiy-tanqidiy matnini tuzishga kirishdilar,

²⁴³ Xondamir. Makorimul-axloq. Toshkent, 1967, 50-51-betlar.

²⁴⁴ ЎзР Фанлар академияси Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшunosлик институтининг кўлэзмалар фонди, инв. № 5018

²⁴⁵ Ленинградда Салтиков-Шчедрин номидаги халқ кутубхонаси, инв.№560

²⁴⁶ Shular jumlasidan O'zFA Sharqshunoslik institutidagi XVI asr qo'lyozmasi, inv. № 7554

²⁴⁷ Xorazm xonligi toshbosmaxonasi, Xiva, 1880, kotibi Muhammad Yusuf binni Berdimurod so'fi Xorazmiy.

²⁴⁸ Har ikkala nusxa Toshkentda 1904-yili O.Porsev toshbosmaxonasida bosilgan, kotibi Shohmurod va Manniof qori

natijada “Xamsa” dostonlari birinchi marta Til va adabiyot instituti ilmiy xodimlari tomonidan 1939—1940 yillarda birmuncha qisqartirilgan va sharhlangan holda lotin alfaviti nashrga tayyorlanib, nasriy bayon bilan yonma-yon holda e’lon qilindi. Bu ishga G’afur G’ulom, Solih Mutallibov, G’ulom Karimov, Amin Umariy, Husaynzoda, To’xtasin Jalolov kabi shoir va olimlar katta hissa qo’shdilar. “Xamsa” dostonlari, “Hayratul-abror”ni mustasno qilganda, 1948-yilda ulug’ shoir tavalludining 500 yilligini nishonlash bilan bog’liq ravishda, nasriy bayonlarsiz yangi — rus alfaviti ikkinchi marta chop etildi. Bu nashr ham ommaviy nashr bo’lib, ma’lum darajada qisqartirilgan va etarli darajada ilmiy sharhlanmagan edi.

Solih Mutallibov 1944-yilda “Hayrat ul-abror”ning tanqidiy matni” mavzuida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi va birinchi marta “Xamsa”ning ilk dostoni – “Hayrat ul-abror” dostoning ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlab eng dolzarb ishning boshlanishiga sababchi bo’lib, o’z vaqtida e’lon qila olmadi.

G’ulom Karimov 1945-yil 14-may kuni “Layli va Majnun” dostonining kritik tekstini aniqlash yuzasidan tadqiqot ishlari” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi va bu olim ham “Layli va Majnun” dostonining ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlab e’lon qilinmagan.

Porso Shamsiyev tomonidan ham Ulug’ Vatan urushidan keyin “Xamsa” tashkil etgan besh dostonning tanqidiy tekst (matn)larini tuzib, nashrga tayyorlashga kirishilgan edi. Olim 1956 yili “Sab’ai sayyor”ning, 1963-yili “Farhod va Shirin”ning, 1970-yili “Hayratul-abror”ning ilmiy-tanqidiy matnlarini e’lon qildi. U “Layli va Majnun”, “Saddi Iskandariy” dostonlarining ilmiy-tanqidiy matnlarini ham tayyorlagan holda ularni chop etishga ulguradi. U “Xamsa” tarkibidagi dostonlar yuzasidan olib borgan matnshunosik ishlari tufayli 1959-1960 yilda “Xamsa”ning to’liq matnini nashr etishga muvaffaq bo’ldi. 1960-yili yangi alifboda chiqarilgan yaxlit ommaviy nashri kitobxonni mamnun qildi. Bu tanqidiy tekstda ham ilgorigidek Abdujamil kotib (A) qo’lyozmasi, Sulton Ali Mashhadiy (C) qo’lyozmasi va XVI asr kolleksiyasi deb sanalgan, M belgasi qo’yilgan kolofonsiz qo’lyozma asosga olindi. ACM nusxalaridan tashqari asosga olingan 4 va 5-nusxalar “Farhod va Shirin” tanqidiy tekstini tuzishda Л1 va Л26 belgilari yordamchilik vazifasini o’tagan edi. Endi bu ikki qo’lyozma ham asosiy nusxa bilan solishtirildi va farqlar ilmiy apparatda qayd etildi. Bu matnda asosga olingan oltinchi qo’lyozma V.I.Lenin nomidagi Qozon Davlat universiteti ilmiy kutubxonasining sharq bo’limida saqlanayotgan “Xamsa” qo’lyozmasidir.

1958-yili Amin Umariy va Husaynzodalarning nasriy bayon bilan To’xtasin Jalolov Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonini nashrga tayyorladi. Ushbu nashrda “Navoiy matnlari uchun, 1949 yilda O’zbekiston Davlat nashriyoti tomonidan nashr etilgan II tom asos qilib olindi va unda tushurib qoldirilgan misralar to’ldirildi. Shuning bilan birga kitobning boshidan, syujetga aloqasi bo’lmagan boblar tushirib qoldirildi” deb yozilgan To’xtasin Jalolov tomonidan kitob so’zboshisida²⁴⁹.

²⁴⁹Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. Нашрга таёрловчи Тўхтасин Жалолов, Амин Умарий ва Ҳусайнзоданинг насрий ифодаси билан. – Тошкент -1958 йил. Б.13. (460 бет)

Navoiy merosini nashrga tayyorlashda matnshunos olimlarimizdan Abduqodir Hayitmetov o‘zining salmoqli hissasini qo‘shdi. U Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonini nasriy bayonini tayyorladi. 1974-1989- yillarda Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostoni nasriy bayoni ikki marta e‘lon qilgan.

Vahob Rahmonov Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonini hamkorlikda nasriy bayonini 1976-yilda nashrdan chiqardi. Yana shuni alohida ta’kidlash kerakki, u buyuk dahoning olti dostonini ilmiy-tanqidiy matnlari bilan nashrga tayyorlab, “Xamsa”ning besh dostoni va “Lison ut-tayr”ni ikki marotaba chop ettirdi (2006-2009).

Yuqorida keltirilgan nashrlardan tashqari Navoiyning “Xamsa” dostonlari Alisher Navoiy asarlarining ko‘p jildlik to‘plamlarida ham nashr etilgan. Jumladan 1965-yilda o‘n besh tomlik²⁵⁰, 1987-yilda yigirma tomlik²⁵¹ hamda 2011-yilda o‘n tomlik²⁵² Alisher Navoiy asarlari to‘plamlari nashrdan chiqdi.

1965-yil nashrdan chiqqan Alisher Navoiy “Asarlar” o‘n besh jildlik to‘plamidagi “Xamsa” dostonlarni Porso Shamsiyev nashrga tayyorlagan.

1987-yilda tayyorlangan Alisher Navoiyning “Mukammal asarlar to‘plami” yigirma jildlikda “Xamsa”dostonlari Porso Shamsiyev ilmiy-tanqidiy matni asosida izohlar bilan Abduqodir Hayitmetov va Ibrohim Haqqulov nashrga tayyorlaganlar.

2011-yildagi Alisher Navoiy “To‘la asarlar to‘plami” o‘n jildligi Hamid Sulaymon hamda Sayfiddin Rafiddinov tomonidan nashrga tayyorlangan.

Xulosa o‘rnida shuni ma’lum qilish mumkinki, Navoiy asarlari o‘z davridan nusxa ko‘chirish orqali tarqalgan. Keyinchalik XIX asrdan boshlab dastavval toshbosma shaklida, so‘ngra XIX asr o‘rtalariga kelganda nasriy, nazmiy shaklda nashrdan chiqqan boshladi. Hozirgi kunga qadar davom etib, Navoiy asarlari o‘zining dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Adabiyotlar:

1. Хондамир. Макоримул-ахлоқ. Тошкент, 1967
2. Алишер Навоий. Хамса. ЎзР Фанлар академияси Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институтининг қўлғезмалар фонди, инв. № 5018
3. Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. Нашрга таёрловчи Тўхтасин Жалолов, Амин Умарий ва Хусайнзоданинг насрий ифодаси билан. – Тошкент -1958 йил.
4. Алишер Навоий. Асарлар. 15 томлик. – Тошкент.-1965 й
5. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 20 томлик. – “Фан”. – Т.: 1987й
6. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик. – “Ғафур Ғулом”. – Т.: 2011й

²⁵⁰ Алишер Навоий. Асарлар. 15 томлик. – Тошкент.-1965 й

²⁵¹ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 20 томлик. – “Фан”. – Т.: 1987й

²⁵² Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик. – “Ғафур Ғулом”. – Т.: 2011й

NAVOIY ASLIYATI TABDILLARIDA FONETIK XUSUSIYATLAR TAHLILI

Sayyora OTANAZAROVA

NamDU filologiya fakulteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlarining asl nusxasi va tabdillari o‘zaro solishtirilgan. Asosan, fonetik xususiyatlaridagi farqlar tahlil ostiga olingan.

Tayanch so‘zlar: asliyat, mo‘tabar nusxa, matn tarixi, tabdil, imlo, fonetika, transliteratsiya, ommaviy tabdil, badiiy san’atlar, tajnis, ilmiy-tanqidiy matn.

Abstract. This article compares the originals and versions of Alisher Navoi works. Mainly, differences in phonetic features are analyzed.

Key words: originality, authentic copy, text history, translation, spelling, phonetics, transliteration, public translation, fine arts, tajnis, scientific-critical text

Bugun Navoiy asarlarini keng targ‘ib etish, uning ilmiy asoslangan matnlarini tiklash va hozirgi o‘zbek yozuvida chop etish tadqiqotchilardan o‘zbek matnshunosligi rivojidadagi umumiy va xususiy jarayonlarni sinchiklab, puxta o‘rganish va yozma yodgorliklari bo‘yicha filologik tadqiqotlar olib borish sohasidagi nazariy umumlashmalarni bilish hamda adabiy manbashunoslik va matnshunoslikning shakllanishi jarayonini, uning umuman matn tarixi muammosini yaxshi bilishini taqozo etadi. Bu borada, ayniqsa, matn tarixini o‘rganish sohasida o‘tgan davr ichida bir qator ilmiy tadqiqotlar yuzaga kelganligini ta’kidlash lozim. Shu jumladan, Navoiy asarlari fonetik xususiyatlari haqida ham tadqiqot ishlari olib borildi. Biroq bu sohada hozir ham ma’lum qiyinchiliklarga duch kelinmoqda. Chunki, asrlar davomida o‘zbek tilida yaratilgan mumtoz yozma yodgorliklarning aksariyati bizgacha turli davrlarda har xil kotib va xattotlar tomonidan ko‘chirilgan asliyat nusxalarda etib kelgan. Natijada, bir yozuv yodgorlikning matn jihatdan ma’lum farqlarga ega bo‘lgan turlicha variantlari vujudga kelgan. Bu manbalarning ko‘pchiligi bo‘yicha hozirgacha ilmiy-tanqidiy matnlar yaratilmagan, matniy xususiyatlar tavsif qilinmagan. Ba’zilarining esa ommaviy tabdili ham amalga oshirilmagan. Bu masalaning bir tomoni. Ikkinchi tomondan, nazarimizda, jiddiy muammolardan biri hozirgacha transliteratsiya qoidalarining yo‘qligi, unifikatsiya masalasining hal etilmaganidir. Matn tarixi sohasida ish olib boruvchi har bir tadqiqotchi ilmiy-tanqidiy matni yaratilgan asarning eng mo‘tabar va ishonarli nusxasini aniqlab olish kabi ishlar bilan birga uni qanday tabdil qilish, transkripsiya yoki transliteratsiya yo‘lidan borish bo‘yicha aniq tasavur va qarorga kelishi kerak. Hozirgi o‘zbek yozuviga o‘girilgan ko‘plab tabdillar esa, ko‘p holatlarda jiddiy e’tirozlarga sabab bo‘lib kelmoqda. Umuman, Navoiy asarlari tabdilidagi nuqsonlar o‘z vaqtida olimlar orasida katta bahsmunozaralarga sabab ham bo‘lgan edi. “O‘zbekiston adabiyoti san’ati” gazetasida 1983-yil bir necha oy davomida matnchilik va matnshunoslik masalalari bo‘yicha qizg‘in bahslar bo‘lib o‘tgan. Ularda o‘zbek klassiklari asarlarining

tabdili masalalariga bag'ishlangan foydali takliflar o'rtaga tashlangan. Chunonchi, A.Rustamov yozgan edi: "O'zbekiston qadimiy asliyat kitob va tarixiy-adabiy hujjatlarga eng boy respublika. Ularning matnlarini aniqlab, tabdilga tayyorlash, ya'ni tekstologiya ilm ahlining zaruriy vazifalaridandir. Asliyatlarning aniq matnini tabdilga tayyorlash uchun nazariy ma'lumot va amaliy malaka kerak. Bizda bu sohaning nazariyasi, ya'ni matnshunoslik ham, amaliyoti, ya'ni matnchilik ham qoniqarli emas... "Sab'ai sayyor"ning "ilmiy-kritik" deb berilgan tekstning boshidan ming baytini tayanch asliyat bilan solishtirib chiqqanimizda qirqdan ortiq turli xatolar topildi". Bahslarda ko'p olimlar qatnashdi. Lekin ayrim masalalarda yagona xulosaga kelinmadi. Ushbu bahs-munozaralar natijasi sifatida gazeta tahririyati o'z xulosalarini e'lon qildi. Ularda shunday deyilgan: "Nuqsonlarning ikki sababi ma'lum bo'ldi: Birinchi sabab eski yozuvlarning tildagi tovushlami to'liq va aniq aks ettirmasligi; o'zbek tilining mukammal tarixiy izohli va orfografik lug'atining yo'qligi. Ikkinchi sababi, matnga nisbatan beparvolik, mas'uliyatsizlik, mazmunga e'tibor bermaslik, fan yutuqlarini hisobga olmaslik; tekstologik o'jizlik, til va uslubni, xususan, poetikani bilmaslik va bilishga harakat qilmaslik, eski yozuvlarni yaxshi bilmaslik, grafik xususiyatlarni fonetik xususiyat deb tushunish, bir til xususiyatini ikkinchi tilga mexanik ravishda ko'chirish". Shundan keyin mumtoz adabiyot namunalarini tabdil etishda biroz mas'uliyat paydo bo'lgandek ko'rindi. Ammo sal o'tmay, bahsda ko'tarilgan muammolar muammoligicha qolib ketdi. Bugungi kungacha transliteratsiya, transkripsiya, izohlarni qay tartibda berish masalalari hal qilinmay kelmoqda. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini qabul qilganimizga ham 25 yildan oshganiga qaramay, Navoiy asarlarining fonetik xususiyatlarini o'zida aks ettirgan transliteratsiya yoki transkripsiya qoidalari ishlab chiqilmadi.

Tabiiyki, matnshunos yoki muharrir matn ustida ishlashi mobaynida nihoyatda faol, hushyor, butun diqqat-e'tiborini bir erga jamlagan bo'lishi kerak. U matnni qanday idrok etishligini nazorat qila olishi, muallif mulohazasidagi o'ziga xoslikni baholay bilishi kerak. Bu muharrirga o'zi tutadigan yo'l (strategiya)ni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi, ayniqsa, tuzatish jarayonida. Tajribali muharrirlar tahrir ishining eng qiyin joyi matnni o'zgartirishni amalga oshirish, deb hisoblaydilar. Chunki u matnda yot unsurdek bo'lib qolmasligi kerak. Kiritmalar begonaligi sezilmasligi, muallif matnning uzvlari bo'lib qolishi kerak. Muharrirning har bir qaydi asliyat kamchiligining ta'kidigina emas, balki aniq tavsiya vazifasini ham o'tashi lozim. Bu muharrir qaydlari muallifga taqdim etilishidagina emas, balki kelgusida ishlatiladigan amalga oshirish dasturi sifatida ham muhimdir. Matnni faol idroklash, fikrlar aniqligi muharrir faoliyati va xatti-harakatidagi zaruriy jihatlarni hisoblanadi. Ammo, mumtoz asarlar matni tabdilini tayyorlashda ham ahvol shu. Xususan, mumtoz asarlarning ommaviy tabdillari, akademik tabdillari imkon qadar ilmiytanqidiy matn asosida tayyorlansagina ishonchli matn hisoblanadi. Ilmiy-tanqidiy matn shunday har xillikning oldini olib, bir xil xulosaviy matn tarzida yaratilishi bilan muhimdir. Matnshunos olim V.Rahmonovning qayd etishicha, "Navoiy asarlarini tabdilga tayyorlovchilar turli-tuman matn nuqsonlariga yo'l qo'yadilar. Ularni yuz xil tasnif qilib, mingta misol

keltirishimiz mumkin. Biroq bularning hammasiga bitta bosh sabab bor. Bu - daho mas'ul kotibining goh-goh misra va bayt mazmunini tegishlicha to'g'ri idrok etolmasligidir. Masalan, "G'aroyib us-sig'ar" devonidan olingan ushbu baytning qanday ko'chirilganini tahlil etib ko'raylik:

Qaddi hajrinda g'amim sham'ini har devorg'a

Kim, tayabmen saru andomi bila bo'lmish qaro [G'S,53].

Baytning tabdilidagi holatiga ko'ra mazmuni: "Yor qaddi judoligida g'amim shamini qaysi bir devorga tayasam, boshi va yuzi bilan qorayib ketdi". Asliyatda esa "saru" so'zi o'rnida "sarv" so'zi bor edi. Eski yozuvda shu so'zning shaklini ikki xil o'qish mumkin, albatta. Navoiy asliyati tiklaylik:

Qaddi hajrinda g'amim sham'ini har devorg'a

Kim, tayabmen sarv andomi bila bo'lmish qaro.

Mazmuni: "Yor qaddi judoligida g'amim shamini qaysi bir devorga tayasam, devor sarv shaklida qorayib ketadi".

Gap shundaki, bayt o'zagida yor qaddining sham' va sarvga o'xshashligi haqidagi fikr bor. Savol tug'iladi: nega biz "saru" so'zidan shubhalanib, "sarv"ni taklif qildik? Buning ikki sababi bor: avvalo, vazn buzilgan. So'ngra birinchi misradagi qadga sarv o'xshatish keltirilgan edi. Buni poetika sohasidagi xato deb hisoblash joizdir" [Rahmonov 2015, 390-391]. Taassufki, bu holat matnshunoslik ahvolining g'aribligini ko'rsatib beradi va eng yomoni bunday xatoliklar tabdildan tabdilga ko'chib kelayotganligida.

Asrlar davomida o'zbek tilida shunchalik ko'p mumtoz asarlar yaratilganki, matn tarixining ma'lum sohasi bo'yicha bajariladigan tadqiqotda bu asarlarning hammasini qamrab olish qiyin. Buning uchun, eng avvalo, matnshunoslikning tarixiy-tadrijiy taraqqiyot jarayonlari va qonuniyatlarini izchil belgilash uchun tekshirilayotgan davr matnini o'zida aks ettira oladigan eng muhim ishonchli va zaruriy manbalarni tanlab olishga to'g'ri keladi. Shu ma'noda matn transliteratsiyasida Alisher Navoiy asarlaridagi so'z va iboralar imloviy xususiyatlarining tutgan o'rnini bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish ana shu ishlarning mantiqiy davomi hamdir. Mumtoz asarlarni joriy alifboga tabdil qilishdagi asosiy tamoyillardan biri tabdilda hozirgi davr adabiy tili me'yoriga asoslanilmay, balki an'anaviy matnshunosligimiz qonun-qoidalariga qat'iy rioya qilish zaruriyidir. Bu borada E.E.Bertels, A.N.Kononov, A. K.Borovkov, A.Rustamov, H.Sulaymonov, P.Shamsiyev, S.Ibrohimov, Sh.Eshonxo'jayev kabi etuk matnshunoslarning boy tajribalariga tayanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Shu nuqtai nazardan oldimizda shoir asarlaridagi so'z va iboralarning matn tabdilida tutgan o'rnini to'g'ri baholash vazifasi turibdi. Bu borada, birinchi navbatda, XV asming ikkinchi yarmidagi eski o'zbek tilining holatiga asoslanish; ikkinchidan, Navoiy asarlari bo'yicha nafaqat matnshunoslik, balki tilshunoslik nuqtai nazaridan amalga oshirilgan tadqiqotlarning boy tajribalariga tayanish lozim.

Adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. Mukammal asarlar to'plami. XVI jild. -T.: Fan, 2000. - 5-40-b.

2. Alisher Navoiy: qomusiy lug‘at”. Birinchi jild/Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. - T.: Sharq, 2016. - 536 b.

3. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. - T.: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1979. -B . 30-73.

4. Rustamov A. Matnchiligimizdagi nuqsonlar//O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. -T., 1982. № 37, 3 sentyabr.

3. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy. Manbalaming qiyosiytipologik, tekstologik tahlili. -T.: Akademnashr, 2011. - 326 b.

6. Sodiqov Q. “Muhokamat ul-lug‘atayn”ni anglash//Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug‘atayn. - T.: Akademnashr, 2017. -B . 9-10.

7. Shamsiyev P. O‘zbek matnshunosligiga oid tadqiqotlar. - T.: Fan, 1986. - 163 b.

8. Erkinov A. Navoiy “Xamsa”si talqini manbalari (XV-XX asr boshi).T.:Tamaddun, 2018.-304 b.

9. Abdulxayrov M. “Navoiy asarlarining izohli lug‘ati”. - T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2018.-560 b.

ALISHER NAVOIY DUNYO ADABIYOTI GAVHARI

Abdirosul TASHPULATOV

O‘zR FA Adabiyot muzeyi tayanch doktoranti

Annotatsiya. Kelajak avlod va millat oldidagi eng katta mas’uliyatimiz – bu buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ma’naviy merosni, kelajak nasllar uchun tushunilmas, sirli jumboq sifatida emas, balki barcha yosh avlod uning chuqur ma’nolarini anglab etadigan va undan o‘z hayotlarida istifoda qila oladigan ma’naviy manba sifatida qo‘llariga taqdim qilish – asosiy maqsadimizdir.

Falsafadan tortib to tibbiyotgacha, astronomiyadan tortib to matematikagacha va hatto adabiyot sohasida ham butun dunyo ulamolariga ustoz bo‘la oladigan ulamolar, ayni bizning ajdodlarimiz bo‘lganligi hech kimga sir emas. Ana shunday til va adabiyot sohasida fors va turkiy xalqlarning sevimli shoiri, Alisher Navoiy ijodi va boy merosi – dunyo adabiyotining noyob durdonasidir.

Kalit so‘zlar: Maslakdosh, tariqat, tazkira, irshod, kulliyot, dastur, mushohada.

Аннотация. Наша величайшая ответственность перед будущим поколением и насией – представит духовное наследие, оставленное нашими великими предками, не как непостижимую, загадочную головоломку для будущих поколений, а как духовный ресурс, который все молодое поколения смогут понять, его глубокий смысл и использовать в их жизни. Ни для кого не секрет, что именно наши предки могут быть учителями учёных всего мира во всех науках от философии до медицины, от астрономии до математики и даже в области литературы. Алишер Навои, любимый поэт

персидского и тюркского народов, его творчество и богатой литературной наследийе является уникальным шедевром мировой литературы .

Ключевые слова: Маслакдош (йединомышленник), тарикат, тазкира (напоминанийе), иршад, куллият, программа, наблюденийе.

Annotation. Our greatest responsibility to the future generation and the nation is to present the spiritual heritage left by our great ancestors not as an incomprehensible, mysterious puzzle for the future generations, but as a spiritual resource that all young generations can understand its deep meanings and use in their lives.

From philosophy to medicine, from astronomy to mathematics, and even in the field of literature, it is no secret that there were those who could be teachers of the scholars of the whole world, namely our ancestors. Alisher Navoi, the beloved poet of the Persian and Turkic peoples, is a unique masterpiece of world literature in the field of language and literature.

Key words: Disciple, sect, memoir, guide, school, program, in observation.

Alisher Navoiy nazm va nasriy asarlari bilan butun turkiy xalqlar adabiyotining yetakchi namoyondalaridan biri hisoblanadi. She'riyatdagi maslakdoshlaridan biri esa mashhur olim Abdurraxmon Jomiy hazratlari bo'lib, u zot Eronning buyuk so'fiylaridan bo'lgan. Ana shu zotning o'g'itlari Alisher Navoiyga yoshligidan she'riyatga ilhomlanishiga turtki bo'lgan.

Alisher Navoiyning Jomiyga bo'lgan hayrati va uning diniy, etiqodiy qarashlariga bo'lgan hurmati, Alisher Navoiyning "Naqshbandiya" tariqatiga kirishiga sabab bo'ldi. Abdurraxmon Jomiydan tashqari Attor, Hisraviy Dehlaviy va Nizomiy Ganjaviylar, yoshgina Alisher Navoiyga ijodiy ta'sir qilgan shoirlar hisoblanadilar.

Fors tilida she'r yozishni boshlaganda Alisher Navoiy hazratlari endigina 15 yoshida o'zini "shoir" deb tanitadigan she'rlar yoza boshladi. Keyinchalik o'zbek tilida ham she'r yoza boshlaganidan so'ng shoirlar orasida "Zul-lisonayn" (Ikki til sohibi) degan nom bilan mashhur bo'ldi.

Alisher Navoiy O'rta Osiyodagi turkiy xalqlarning tili va adabiyotining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan olimdir. Shu sababdan, turkiy tillarning barchasi "Navoiy tili" deb ham aytiladi. Chunki, Alisher Navoiyning asarlari nafaqat Markaziy Osiyoda, balki Azarbayjonda ham, hatto Turkiyaning Onado'li xalqlari orasida ham sevib o'qilgan va o'qitilgan, o'lmas asarlar hisoblangan.

Alisher Navoiy devon she'riyatiga ilk bor turkiy xalqlar hayotidan milliy va mahalliy terminlarni kiritgan shoir hisoblanadi.

Alisher Navoiyning asarlari va devonlari. 12 yoshidan boshlab, umrining oxiriga qadar she'rlar yozgan Alisher Navoiy ushbu she'rlarini turli vaqtlarda, har xil nomlar bilan nomlab, etti devon tuzgan. Alisher Navoiy o'zbek va fors tillarida she'rlar yozgan. Bular haqida batafsil ma'lumot bergan Alisher Navoiyning forsha devonlari ham bor.

Alisher Navoiyning ushbu devoni, tuzilish tarixi jihatidan eng qadimiy devonlar bo'lsada, ammo uning bolalik va o'smirlik davrida yozgan she'rlari, o'z

devonini tuzishdan oldin boshqalar tomonidan to'plangan va hijriy 870 (milodiy 1465-66-y) yillarda, mashhur xattot Sulton Aliy Mashhadiy tomonidan ko'chirilgan. Bu asarning yagona nusxasi Moskvaning Leningrad shahrida "Saltikov-Cheldrin" nomli davlat kutubxonasida inventar 546 raqami ostida saqlanmoqda²⁵³.

Alisher Navoiy ilk yozganlarini dastlab ikkita devonga kiritgan. Keyinchalik bu devonga yangi asarlarini qo'shib, bu ikki devonni to'rtta alohida devonga aylantirgan. Umrlarining oxirida esa barcha asarlarini to'plab, bir nom ostida birlashtirgan.

A) 1. "Badoiul Bidoya" (boshlanishning ajoyibotlari). Alisher Navoiy o'z she'rlarini ilk bor Sulton Husayn Bayqaro taxtga o'tirganidan so'ng, ya'ni 1470-1476 yillar orasida, Husayn Bayqaroning iltimosiga ko'ra jamlagan va shu sababli uning ilk devoni "Badoiul Bidoya" deb nomlangan. Alisher Navoiy bu devonining boshiga qo'ygan so'zboshini, keyinchalik "Xutbai davoviyn" (Devonlar xutbasi) nomi bilan, "G'aroibus Sig'or" (Yoshlikda sodir bo'lgan g'arib ishlar) devonining boshiga ham ushbu xutbasini so'zboshi sifatida qo'ygan.

Bugungi kunda bu devonning quyidagi to'rt nusxasi ma'lum.

1. Fransiyadagi, Parij Milliy kutubxonasida "Inventar 746 raqami".
2. Buyuk Britaniyadagi, London muzeyida "Inventar 401 raqami".
3. Bakudagi Ozarbayjon Fanlar akademiyasi Respublika qo'lyozmalar fondi kutubxonasida "Inventar 3010 raqami".
4. Toshkentdagi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi adabiyot muzeyida "Invetar 216 raqami"²⁵⁴.

A) 2. "Navodirun Nihoya" (Tugashdagi qiziq voqealar). Bu asar Alisher Navoiyning 1476-1486 yillar orasida yozgan she'rlarini o'z ichiga olgan bo'lib, Alisher Navoiyning ikkinchi devoni hisoblanadi. Bu asarning, Sulton Husayn Bayqaro xazinasi uchun Sulton Ali Mashhadiy xattotligida yozilgan yagona nusxasi Toshkent, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi kutubxonasida "Inventar 1995 raqami" ostida saqlanmoqda. Ammo bu devon uchun alohida tayyorlangan nusxa ekanligi to'g'risidagi ma'lumot hozircha bizning qo'limizda mavjud emas.

V) 1. G'aroyibus sig'or». Alisher Navoiy siyosatga bog'liq ba'zi masalalar bilan mashg'ul bo'lib, bir muddat she'r yozishdan uzilib qolganida, Sulton Husayn Bayqaro, undan yana ikkita devon tuzib, ularning sonini to'rttaga etkazishini so'radi. Shunda Alisher Navoiy avval tartibga solgan ikki devoni bilan keyingi yozgan she'rlarini jamlab, yoshligida yozganlarini alohida bir to'plam va o'smirlikida yozganlarini alohida bir to'plam qilib, devonlarining sonini to'rttaga etkazdi. Avval yozgan ushbu to'rt devonni Alisher Navoiyning o'z ta'biri bilan aytganda "Tufuliyatda voqe bo'lgan g'arib ma'nolar sababli bu devonni "G'aroibu sig'or" deb nomladim" deganlar.

²⁵³ Ali Şîr Nevâî. Günay Kut. TDV İslam Ansiklopedisi. <http://islamansiklopedisi.org.tr/ali-sir-nevai>

²⁵⁴ Муҳаммадҷон Ҳақимов. Навоий асарлари қўлёзмаларининг тавсифи. Тошкент: ФАН нашриёти. –Б. 7.

“Badoiul bidoya” uchun yozgan so‘zboshini bu devonning avvalida keltirib, bu devonga yigirma yoshiga qadar yozgan she’rlarini kiritgan.

Alisher Navoiy devonlarining adadi ko‘p bo‘lgan nusxalari orasida eng asosiylari, Turkiyaning Istanbul shahridagi “Topkapi saroyi muzeyi kutubxonasi”da “Revan inventar 808” raqami ostida va Parij milliy kutubxonasi, inventar 316-317 raqamlari ostidagi “Navoiy kulliyoti”dan joy olgan. Bu to‘rtlik devon turkimining qolgan uchtasi quyidagi tartibda joylashgan.

V) 2. “Navodirush Shabob”(Yigitlikda sodir bo‘lgan nodir ma’nolar). Alisher Navoiy yoshligida, ya’ni yigirma bilan o‘ttiz besh yoshlar orasida yozgan she’rlarini bir to‘plam qilib, devon yozgan. Shuning uchun uning nomini “Navodirush Shabob” (Yigitlikda sodir bo‘lgan nodir ma’nolar) deb nomlagan.

V) 3. “Badoiul Vasat” (O‘rta yoshdagi nodir voqealar). Bu devonga o‘rta yoshlarda yozgan asarlarini kiritgan. Ya’ni, o‘ttiz besh yoshdan qirq besh yoshgacha bo‘lgan vaqtlarida yozgan she’rlarini jamlab, bir devon qilgan va uning nomini «Badoiul Vasat» (O‘rta yoshdagi nodir voqealar) deb nomlagan.

V) 4. “Favoidul Kibor” (Kyeksalikda qo‘lga kiritilgan foydalar). Alisher Navoiy aytganlaridek, bu devon “Favoidul Kibor”, ya’ni (Kyeksalikda qo‘lga kiritilgan foydalar) deb nomlangan. Bu devondagi she’rlar Alisher Navoiyning qirq besh yoshdan oltmish yoshlari orasida yozgan she’rlarini o‘zida jamlagan devondir²⁵⁵.

Ammo bu to‘rt devonning ichidagi she’rlarning barchasi, aynan Alisher Navoiy aytgan davrlarda yozilgan deb bo‘lmaydi. Chunki, o‘zi aytganidek, avval yozilgan ikki devondagi she’rlar bilan keyin yozilgan she’rlar bir-biriga aralashtirilib, keyin mazkur davrlarga ajratilgan.

Alisher Navoiyning bu devonlari arab alifbosidagi 28 ta harfning o‘zidan emas balki, fors va turk yozuvida ishlatiladigan «پ» (p), «چ» (ch), «ج» (j) va «لا» (Lom alif)ga qofiyali g‘azallari bilan jami 32 harfni ishlatgan holda devon bitgan.

S). “Xazoinul Ma’oniy” (Ma’nolarning xazinalari). Alisher Navoiy dastlabki to‘rt devonga kiritgan she’rlari bilan hayotining oxirida yozgan she’rlarini birgalikda jamlab yozgan devonining nomini “Xazoinul Ma’oniy” deb atagan. Bu devon “Kulliyatu davoviyn” (Devonlar to‘plami) nomi bilan ham mashhur bo‘lib, uni buyuk olim, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, filologiya fanlari doktori, professor Hamid Sulaymon tomonidan 1959-yili, avval bir jild qilib, ilk bor krill alifbosida chop etilgan. Keyin qolgan uch devon ham 1960-yil oxiriga qadar krill alifbosida chop etildi²⁵⁶.

Alisher Navoiy bu oxirgi devoni uchun hijriy 905 (milodiy 1500 y) yilda, avvalgi devonlaridan o‘zgacha bir tarzda so‘zboshi yozdi. Bu so‘zboshi Turkiyadagi beshta nusxada yo‘q. Ammo Turkiyadagi “Nuri Usmoniya kutubxonasi”dagi inventar 3999 raqami ostida saqlanayotgan “Sharhul Hamasiy”

²⁵⁵ Ali Şîr Nevâî. Günay Kut. TDV İslam Ansiklopedisi. <http://islamansiklopedisi.org.tr/ali-sir-nevai>

²⁵⁶ Hamid Sulaymonning “Xazoyin – ul - Maoniy” asarining ilmiy-tanqidiy matnini yaratilishiga qo‘shgan hissasi. Maqola. Abdurahmonov Mahmudxon. Международный научный журнал «Научный Фокус». –В. 3.

nomli qo‘lyozmaning 21-29-betlari orasida saqlanmoqda. Bu devon 55 000 misradan iboratdir.

Alisher Navoiyning forscha devonlari. Uch nusxasi topilgan bu forscha devonda Alisher Navoiy o‘ziga “Foniy” (O‘tib ketuvchi) taxallusini ishlatgan. Bu nusxalar hozirda Turkiyaning “Nuri Usmoniya kutubxonasi”da, inventar 3850 raqami, TIEM, inventar 1952 raqami va “Sulaymoniya kutubxonasi”, inventar 632 raqamlari ostida saqlanmoqda²⁵⁷.

Alisher Navoiy hazratlari “Muhokamatul lug‘atayn” asarida bu devonning 6 000 baytdan iborat ekanligini ta’kidlagan. Yana mazkur asarda bahs qilingan “Tuhfatul afkor” (Fikrlar hadyasi), “Nasoimul xuld” (Abadiylik shabadasi), “Aynul hayot” (Hayot bulog‘i), “Minhajun najot” (Najot yo‘li) va “Qut‘ul qulub” (Qalbning to‘xtashi) nomli forscha qasidalar ham ushbu devonga kiritilgan.

Alisher Navoiyning masnaviylari. Alisher Navoiy bu sohada “Xamsa” asarini yozgandan so‘ng, oltita masnaviy yozdi. “Xamsa”dagi masnaviylari esa quyidagi tartibda yozilgan.

1. “Hayrotul Abror” (Yaxshilarning hayratlanishi). Bu doston hijriy 888 (milodiy 1483y) yili, Nizomiy Ganjaviyning “Mahzanul Asror” (Sirlar xazinasini) nomli forscha masnaviysiga va Amir Xisrovning “Matla‘ul Anvor” (Nurlarning jilosi) asari, hamda Abdurraxmon Jomiyning “Tuhfatul Ahror” (Hurlarning hadyasi) asariga nazira sifatida yozilgan. 4 000 baytdan iborat ushbu masnaviy ikki qismga bo‘linib, 64 bobdan iborat qilib tartiblangan. Ikkinchi qismi bo‘lgan ushbu masnaviy, yigirma maqoladan iborat bo‘lib, devonning asosini tashkil etadi. Bu masnaviy, aruzning “muftailun, muftailun, foilun” vaznida yozilgan. Ushbu asar 1958-1960 yillarda adabiyotshunos olim Porso Shamsiyev tomonidan Toshkentda nashr etilgan.

2. “Farhod va Shirin”. Nizomiy va Xisrov Dyehlaviyning shu nomdagi dostonidan ilhomlangan Alisher Navoiy, hijriy 889 (milodiy 1484-y) yilda “Mafoilun, mafoilun, foilun” qolipida ushbu dostonni yozdi. Bu dostonning boshqa “Xisrav va Shirin dostonidan ajralib turadigan xususiyatlaridan biri, asosiy rolda Xisrav o‘rnida Farhod obrazi keltirilishidir. Farhod obrazi Alisher Navoiyning nazdida oddiy odam emas, balki Xitoy podshosining o‘g‘li bo‘lgan. Bu doston 5780 baytdan iborat bo‘lib, 1963 yili, adabiyotshunos olimlarimiz Porso Shamsiyev va Hodi Zariflar tomonidan, arab alifbosida terilib nashr qilingan.

3. “Layli va Majnun”. Bu doston “Majnunu Layli” nomi bilan ham mashhur bo‘lib, Fors adabiyotida Jomiy tomonidan ilk bor qalamga olingan bu mavzu, keyinchalik Xisrav Dyehlaviy tomonidan ham muhokama qilingan edi. Alisher Navoiy bu dostonni yozishda har ikkala muallifdan bahra olgan holda yozgan asardir. Bu doston taxminan 3500 baytdan iborat bo‘lib, “Mafoilun, mafoilun, foilun” vaznida yozilgan.

4. “Sab‘aiy Sayyor” (Yetti sayyora). Bu doston hijriy 889 (milodiy 1484-y) yilda aruzi “Foilatun mafoilun foilun” vaznida yozilgan bo‘lib, 5000 ga yaqin bayt va 50 bobdan iboratdir. Bu qissani birinchi marta Firdavsiy o‘zining

²⁵⁷ Ali Şîr Nevâî. Günay Kut. TDV İslam Ansiklopedisi. <http://islamansiklopedisi.org.tr/ali-sir-nevai>

“Shohnoma” asarida yozgan. Kyeyinroq Nizomiy “Haft poykar” (Yetti go‘zal) nomi bilan va Amir Xisrov esa “Hasht behisht” (Sakkiz jannat) nomi bilan yozgan. Alisher Navoiyning bu dostoni 1956-yili, adabiyotshunos olimlar Porso Shamsiyev va Hodi Zarif tomonidan nashr qilingan. Bundan oldin esa, 1947-yili, Ozarbayjonlik adabiyotshunos olim Hamid Arasli tomonidan, Ozarbayjon tiliga tarjima qilinib, Bakuda nashr qilingan edi. Unda asarning nomi “Yedi seyyara” deb nomlangan. Bu asarda Bahromning go‘zal kanizak bilan bo‘lgan sarguzashtlari yoritilgan²⁵⁸.

5. “Saddi Iskandariy” (Iskandar devori). Bu doston 7000 baytdan ortiq bo‘lib, aruzi “Foilun foilun foilun foil” bo‘lgan bu so‘ngi doston hijriy 890 (milodiy 1485-y) yilda yozilgan. Bu erdagi mavzu Alisher Navoiydan oldin Firdavsiy, Nizomiy va Xisrov tomonidan ko‘rib chiqilgan va Jomiy “Hirotnomai Iskandariy” (Iskandarning Hirotnomasi) nomi bilan asar yozgan. Ammo Alisher Navoiy bu asarini yozib tugatganidan so‘ng, Jomiy ham dostonini tomomlagan edi. Alisher Navoiy bu asarida Iskandarni turk hukmdori sifatida tasvirlagan va uning timsolida Sulton Husayn Bayqaroni va uning o‘g‘li Badiuzzamonni tasvirlagan.

6. “Lison-ut tayr” (Qush tili). Bu doston Alisher Navoiyning “Xamsa”sidan tashqarida qolgan bir asari bo‘lib, 3553 baytdan iborat asardir. Alisher Navoiy bu asardagi forsiy she‘rlarida o‘zining “Foniy” taxallusini qo‘llagan. Bundagi mavzu, fors shoiri Farididdin Attorning “Mantiqut-tayr” (Qush tili) nomli asaridan olingan bo‘lsada, Alisher Navoiy bu asariga ko‘plab o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritgan. Alisher Navoiy, Farididdin Attorning “Mantiqut-tayr” asaridagi 10 qushdan 8 tasini o‘z asariga kiritgan bo‘lsada, ammo hikoyada bo‘lmagan yana 6 ta qushni qo‘shish bilan qushlar soni 14 taga etgan. Alisher Navoiy ushbu asarning avvalida, bolaligidanoq Farididdin Attorning “Mantiqut-tayr” asarini o‘zbekchaga tarjima qilishni orzu qilganligini eslatib o‘tgan.

Turkiyadagi Topkapi saroyi muzeyi kutubxonasidagi “Revan 803” nusxasida, Alisher Navoiy to‘rt devonni yozib, undan boshqa ko‘plab asarlar yozganda ham, “Mantiqut-tayr” asarini o‘zbekchaga tarjima qilishni bir zum aqlidan chiqarmaganini aytib o‘tgan va nihoyat oltmish yoshga kirganidan so‘ng ushbu asarning tarjimasini boshlaganligini, hamda har kecha 40-50 baytdan yozganligini aytib o‘tgan. Shunga ko‘ra Alisher Navoiyning yoshi bilan, asarning yozilish tarixi qiyoslansa, bu asar taxminan hijriy 904 (milodiy 1499-y) yilda yozilgan. Bu doston ham O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi olimlari tomonidan 1965-yili nashr qilingan.

Tazkiralar, hol tarjimalari va xotiralar.

1. “Nasoimul muhabbat min shamoimul futuvvat” (Yoshlikning xushbo‘yligidan bo‘lgan muhabbat shabadasi). Bu asar hijriy 883 (milodiy 1478-y) yilda Jomiy tomonidan yozilgan **“Nafahotul uns min hazarotul quds”** (Ulug‘lar huzuridagi dilkashlik nafasi) nomli, valiy va avliyo zotlarning hayotiy hikoyalari o‘z ichiga olgan fors tilidagi asarning o‘zbek tiliga tarjima qilingan varianti

²⁵⁸ Ali Şîr Nevâî. Günay Kut. TDV İslam Ansiklopedisi. <http://islamansiklopedisi.org.tr/ali-sir-nevai>

hisoblanadi. Aslida Jomiy bu asarni yozish uchun Alisher Navoiyning iltimosiga ko'ra qo'liga qalam olganligini bildirgan. Jomiyning ushbu asari qay darajada qiymatli ekanligini bilgan Alisher Navoiy, hijriy 901 (milodiy 1495-y) yili tarjima qilgan. Bu asar 770 ta valiy zotlarning hayotiy hikoyalarini o'z ichiga olgan bo'lib, ulardan 14 nafari ayollardir. Ushbu asarni qo'shimcha ma'lumotlar bilan kengaytirmoqchi bo'lgan Alisher Navoiy, Farididdin Attorning "Tazkiratul avliyo" (Avliyolarning o'gitlari) asarida kelgan har xil hol tarjimalarini asarga qo'shganidan tashqari, Jomiy va Attorning asarlarida kelmagan, lekin Ahmad Yassaviydan to o'zining davriga qadar yashab o'tgan Turkiy millatga mansub valiy zotlarning hikoyalarini ham asarga kiritdi.

2. "Majolisun Nafois" (Ruhlarning majlislari). Alisher Navoiyning bu asari hijriy 897 (milodiy 1491-92-yillar) yilda qalamga olingan bu asar, o'zbek tilida, "Shoirilar o'giti" sifatida yozilgan birinchi asar bo'lganligi bilan ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Alisher Navoiy, Jomiyning "Bahoriston" va Davlatshohning "Tazkirotush shuaro" (Shoirilar eslatmalari) nomli tazkiralardan ilhomlanib, o'zining ushbu tazkirasini yozdi va uni 8 qismga ajratib, har bir qismga "Majlis" nomini berganligi uchun bu asarning nomi "Majolisun nafois" (Ruhlarning majlislari) deb nomlangan. Ushbu asardagi majlislarning 8 chisi Sulton Husayn Bayqaroga bag'ishlangan. Tazikrada nomi zikr qilingan shoirlarning ba'zilar o'z she'rlarini fors tilida yozgan²⁵⁹.

Turkiya, Istanbul shahridagi Topkapi saroyi muzeyi kutubxonasida, "Revan 808" inventar raqami ostida saqlanayotgan nusxada majlisda 451 ta shoir nomi tilga olingan. Bu shoirlardan faqat 40 donasigina turkiy tilda she'r yozganlar. Qolganlari fors tilida yozgan. Ushbu asar 1961-yili O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining olimlari tomonidan nashr qilingan.

"Majolisun Nafois" asari, Hakim Shoh Qazviniiy hamda Faxriy Hirotiiy va Shoh Ali ibn Abdulaliy tarafidan ba'zi ilovalar yozilgan va 100 yilda 3 marta forschaga tarjima qilinib ko'chirilgan.

3. "Xamsatul mutaxayirin" (Tanlangan zotlarning beshligi). Alisher Navoiy bu asarini Jomiyning vafotidan so'ng, o'rnini hech kim bosa olmaydigan do'sti va ustozini uchun yozgan edi. bu asar bir muqaddima, uch muhovara va bir xotimadan iboratdir. Muqaddimada Abduraxmon Jomiyning nasl-nasabi, tug'ilgan yili, ilm tahsil qilgan madrasalari va Alisher Navoiy uning oldiga kelgan sanalar zikr qilingan. 1-muhovarada, Abduraxmon Jomiyning Alisher Navoiy bilan do'stlashishi, 2- muhovarada, Alisher Navoiy Marv shahrida bo'lganida, Abduraxmon Jomiy bilan maktub yozishganlari, 3-muhovarada esa Jomiyning yozgan asarlari muhokama qilinganligi va xotimada esa, Alisher Navoiyning Abduraxmon Jomiyga oid eng so'nggi xotiralarini qog'ozga tushirgan edi.

4. "Holati Sayyid Hasan Ardasher Bek". Bu asar, Alisher Navoiyning xuddi otasidek yaxshi ko'rgan kishisi, har bir so'zida uning o'gitlariga suyanib, gapiradigan murshidi, Shayx Sayyid Hasanning o'limidan so'ng, uning hayotini va fazilatlarini hamda o'zi bilan bog'liq bo'lgan xotiralarini yoritgan asardir.

²⁵⁹ Муҳаммаджон Ҳакимов. Навоий асарлари қўлёзмаларининг тавсифи. Тошкент: ФАН нашриёти. 1983. –Б. 21.

5. “Holati Pahlavon Mahmud”. Bu asar, Alisher Navoiyning eng yaqin do‘sti, tabib, shoir va bastakor bo‘lgan Pahlavon Mahmudning vafotidan so‘ng, uning hayoti, u bilan bog‘liq xotiralarini qalamga olgan asardir. Bunda Alisher Navoiy, Pahlavon Mahmudning so‘fiylik etiqodiga ham etibor qaratgan. Bu asarning aralash nazm va nasrda yozilgan 4 nusxasi mavjud bo‘lib, uning 3 nusxasi Istanbulda va bir nusxasi Parijda ekanligi ma‘lumdir²⁶⁰.

Alisher Navoiyning diniy asarlari. 1. “Arbain” (Qirq hadis). Abdurrahmon Jomiyning aynan shu nomdagi to‘rt misralik qit‘alar holida, hijriy 886 (milodiy 1481-y) yilda yozilgan asarining tajimasi bo‘lib, bu asar ham Alisher Navoiyning kulliyotidan joy olgan. Alisher Navoiy bu asarini ham Sulton Husayn Bayqaroga dasturul amal sifatida bag‘ishlagan.

2. “Sirojul muslimin” (Musulmonning chirog‘i). Alisher Navoiyning “Kulliyoti”dan joy olgan ushbu asar hijriy 905 (milodiy 1500-y) yilda yozilgan bo‘lib, bu islom aqidasiqiga tegishli muxtasar asar hisoblanadi. Bunda shariat hukmlari, aqida masalalari va Allohning 8 ta zotiy ismi sifatleri Qur‘on oyatlari bilan bayon qilingan.

3. “Munojaat” (Allohga iltijo). Alisher Navoiyning bu asari “Tazarru‘noma” kabi mo‘min kishining Allohga qilajak duosining misralari bilan to‘qilgan, qisqa jumladan iborat nasriy ko‘rinishidir. Bu asarning qo‘lyozma nusxasi Istanbuldagi Topkapi saroyi muzeyi kutubxonasi va Fotih kutubxonasidagi “Kulliyot” nusxalarining boshida keltirilgan. Xossatan, “Revan 808” nusxasining avvalida aynan mana shu asar “tazarru‘noma” sifatida yozilgan²⁶¹. Ammo bu asarning qachon yozilganligi haqida hech qanday ma‘lumot yo‘q.

Alisher Navoiyning boshqa asarlari.

1. “Muhokamatul lug‘atayn” (Ikki lug‘at muhokamasi). Bu asar hijriy 905 (milodiy 1500-y) yili yozilgan bo‘lib, Alisher Navoiyning milliy hissiyotini va o‘z ona tilisini naqadar sevishini ko‘rsatadigan asardir. Eronlik forsiy shoirlar bilan bir joyda yashab turib, hatto atrofidagi barcha o‘zbek shoirlari ham fors tilida ijod qilayotgan bir davrda, Alisher Navoiy o‘zbek tilida ijod qilish bilan, o‘zbek tilining ifoda quvvati va ta’sir doirasi naqadar kuchli ekanligini va hatto fors tilidan ustunlik jihatlari ushbu asarida isbotlab berdi. Shu bilan birga, Alisher Navoiy shunday boy va yuksak ona tiliga ega bo‘lishiga qaramay, o‘zining ona tili bo‘lgan o‘zbek tilini tark qilib, fors tilida ijod qilayotgan, o‘sha davrning yosh ijodkorlarini ham tanqid qilib o‘tgan.

2. “Mezonul avzon” (Vaznlarni o‘lchovchi). Alisher Navoiy aruz haqida umumiy ma‘lumot berish uchun yozgan 3 qismlik ushbu asari hijriy 898 (milodiy 1492-y) yilda yozilgan. Bu asarning eng etiborga molik jihati shundaki, asarda rubo‘iy vaznlardan keyin tuyuq, qoshuq, turki, changi, arazvari, muhabbatnoma kabi milliy shakllar haqida gap boradi. Bu asar ham O‘zbekiston respublikasi Fanlar Akademiyasi olimlari tomonidan 1949 yili nashr qilingan.

²⁶⁰ Ali Şîr Nevâî. Günay Kut. TDV İslam Ansiklopedisi. <http://islamansiklopedisi.org.tr/ali-sir-nevai>

²⁶¹ Alisher Navoiy kulliyoti. Istanbul, Topkapi saroyi kutubxonasi “Revan 808” nusxasi. –B. 2.

3. “Mahbubul Qulub” (Qalblar mahbubasi). Sa’diy Sheroziyning “Guliston” asari va Abdurraxmon Jomiyning “Bahoriston” asarini eslatuvchi bu asar shaxsiyatga haqida ma’lumot berish jihatidan barcha asarlardan ustun turadi. Bu asar 3 bob va 40 qismdan iborat bo‘lib, asarning birinchi qismida, o‘sha davr jamiyatidagi turli qatlamlar va turli toifadagi kishilar haqida so‘z yuritilgan bo‘lsa, 10-bobning ikkinchi qismida ezgu amallarni maqtash bilan birga, yomon amallarni tanqid qiladi. 3-qismida esa axloqqa oid mavzular haqida so‘z ketadi.

Ushbu asar, Alisher Navoiy umrining oxirgi yillarida, ya’ni 1500-yilda yozilgan bo‘lib, O‘zbek nasrining g‘oyat go‘zal namunasi. Navoiy badiiy tafakkurining, xulosasi, hayotiy mushohadalarining yakunidir. Asarda muallif o‘zigacha bo‘lgan forsiy nasrning eng ilg‘or an‘analarini rivojlantirgan, qator masalalarni o‘z davri ijtimoiy-siyosiy voqe‘likni, hokim mafkura bilan bog‘lab, yangicha talqin qilgan. Asarda insonni ulug‘lash, barkamol ko‘rish, uning isyonkorlik ruhi, axloqiy-estetik yo‘nalishi, bayondagi fikr teranligi, tilining go‘zalligi, puxtalik, muxtasarlik, uslubiy jilolar, she’riy parchalarning keltirilishi — shoirning yuksak badiiyatini belgilab bergan²⁶².

4. “Munshaot” (Yozilganlar). Ushbu asar Alisher Navoiyning “Maktubotlar”i to‘plangan asar bo‘lib, hijriy 897 (milodiy 1492-y) yildan so‘ng yozilgan. Ushbu maktublarning orasida Sulton Husayn Bayqaro va Badiuzzamonga yozgan maktublari ham bor. Bu maktublar Sulton Husayn Bayqaro va uning o‘g‘li shaxzoda Badiuzzamonga ma’naviy o‘git va ruhiy irshod tarzida yozilgan. Bundan tashqari bu maktublarda Alisher Navoiyning davri va hayoti haqida muhim ma’lumotlar ham mavjud.

5. “Vaqfiya” (Xayriya mulklar). Bu asar hijriy 886 (milodiy 1481-y) yilda yozilgan bo‘lib, nasr usulida yozilgan va she’rlar bilan aralashib ketgan. Bu asarda Alisher Navoiy Sulton Husayn Bayqaroni uzoq maqtagandan so‘ng, o‘zi amalga oshirmoqchi bo‘lgan vaqflar haqida so‘z yuritadi. Hijriy 881 (milodiy 1476-y) yili Sulton Husayn Bayqaro o‘ziga Hirotning shimoliy qismidan yer berganligi, bu yerda bir saroy, bir bog‘, bir madrasa, bir masjid va yana bir Qur‘on xofizlari maktabini qurganligini va u madrasaga “Ixlosiya” deb nom qo‘yganligini, bizga mana shu vaqfiya asari orqali xabar beradi. Yana, ayni mana shu erda bir masjid va “Xalosiya” nomli xonaqoh qurdirib, bularning barchasini Alloh yo‘lida vaqf qilganligini ushbu asarda zikr qilib o‘tgan.

Ushbu asar, Alisher Navoiyning vaqflari haqida aniq ma’lumotlarni olishga xizmat qiladigan eng yaxshi manba hisoblanadi.

6. “Nazmul Javohir” (Gavharlar tizimi). Bu asar hijriy 890 (milodiy 1485-y) yilda yozilgan bo‘lib, Hazrati Ali Karramallohu vajhahuning manoqiblariga atalgan. Ayniqsa Ali roziyollohu anhu rivoyat qilgan hadislariga alohida ahamiyat qaratilgan bo‘lib, “Nasrulloh Aliy” nomli asardagi har bir arabcha satrga bir rubo‘iy yozib, tarjima qilingan asardir.

7. “Tarixi anbiyo va hukamo” (Anbiyolar va hakimlar tarixi). Bu asar hijriy 890 (milodiy 1485-y) yilda yozilgan bo‘lib, unda hazrati Odam alayhis

²⁶² Алишер Навоий мукаммал асарлар тўплами, 14-том. Тошкент.: ФАН нашриёти. 2000. – Б202.

salomning tarixidan to Muhammad sallollohu alayhi vasallamning hayotlarigacha o'tgan Payg'ambarlar va har xil millatga mansub hukamolarning manoqiblari va hikmatlari keltirilgan. Ammo "Xotamul Anbiyo" bo'lgan Muhammad sallollohu alayhi vasallamning hayoti va tarixi keltirilmagan. Bundan ko'rinadiki, ehtimol, Alisher Navoiy hazratlari, Allohning habibi va oxirgi Payg'ambari bo'lgan Muhammad sallollohu alayhi vasallamning hayotlarini alohida bir kitob qilmoqchi bo'lgandir. Biroq bu asarda bu haqida hech qanday so'z aytilmagan.

8. "Tarixi muluku ajam" (Ajam podshohlari tarixi). Bu asar ham hijriy 890 (milodiy 1485-y) yilda yozilgan bo'lib, bu nasriy asar yarim masnaviy uslubda yozilgan, ikki kufitlik she'rlari ham bor. Alisher Navoiy ushbu asarida asosan Eron podshohlarining afsonaviy tarixini keltirgan bo'lib, Eron podshohlarini to'rt sulolaga ko'ra tasniflaydi. Asarda Pishdadiyon, Kiyaniyon, Eshkaniyon va Sosoniylar sulolalari haqida so'z yuritiladi. Bu asarning eng katta ahamiyati shulki, bunda diniy va tarixiy mifologiya haqida batafsil ma'lumot berilganligidir.

Alisher Navoiy ushbu asarini yozar ekan, islom olamidagi "Jome'ut tavorix" (Tarixlar jamlanmasi), imom Tabariyning "Tarixi Tabariy" (Tabariyning tarixi), "Nasihatul muluk" (Podshohlar nasihati) va ayniqsa Imom Bayzoviyning "Nizomut tavorixi" (Tarixlar tartibi) kabi eng muhim manbalardan foydalangan.

Alisher Navoiyning bugungi kunda bizning qo'limizda bo'lmagan, ammo mavjudligi boshqa manbalardan aniqlangan boshqa asarlari quyidagilardir: "Zubdatut tavorix" (Tarixlar qaymog'i) (o'zbek tilida), "Risolai muammo" (Muammolar maktubi) (forscha), "Vaqfiya" (forscha), "Munshaot" (forscha) kabi bir qancha asarlardir. Shu bilan birga ba'zi kutubxonalarda «Sab'atu Abhur» nomli arabcha lug'at kitobi ham "Muallifi Alisher Navoiy" deb ro'yxatdan o'tgan. Bundan tashqari Alisher Navoiy qalamiga mansub deb ko'rilayotgan "Nazmi aqoid" (Aqidalar tartibi) nomli asar ham mavjud ekan.

Ba'zi manbalarda "Zubdatut tavorix" asari, Alisher Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo" asari bilan "Tarixi muluku ajam" nomli ikki asari birlashtirilib, qo'shma shakldagi nomi bo'lishi mumkin degan ehtimol ham bor. Ammo Boshqirdistonlik tarixchi olim Zakiy Validiy bu asarning "Ilhoniy va temuriy sultonlari tarixi" ekanligini ta'kidlaydi. Turkiyaning Bursa shahrida istiqomat qiladigan adabiyotshunos olim Mehmet Tohir "Alisher Navoiyning forscha "Siyarul Muluk" asari va turkiy tilda "Qissai Yusuf" nomli asarlari ham bor" deb aytgan bo'lsada, ammo shu davrga qadar bunday asarlar topilgan emas. Ba'zi manbalarda Alisher Navoiyning 458 baytdan iborat "Soqiynoma" nomli asari ham borligi aytiladi²⁶³.

Alisher Navoiyning asarlari o'quvchilar tomonidan doim talab qilinadigan noyob manba ekanligini etiborga olgan holda, uning asarlarining barchasini to'liq qamrab oladigan "Alisher Navoiy asarlar to'plami" nashr qilindi. Xulosa qilib aytganda Alisher Navoiy hazratlari shunday mumtoz shaxski, nafaqat o'zbek, balki fors va turkiy xalqlar adabiyotining noyob gavhari desak ham mubolag'a bo'lmaydi.

²⁶³ Ali Şîr Nevâî. Günay Kut. TDV İslam Ansiklopedisi. <http://islamansiklopedisi.org.tr/ali-sir-nevai>

Adabiyotlar:

1. Navoiyshunoslik. Shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatov. T.: Akademiya nashriyoti, 2020.
2. Ali Şîr Nevâî. Günay Kut. TDV İslam Ansiklopedisi. <http://islamansiklopedisi.org.tr/ali-sir-nevai>
3. Муҳаммаджон Ҳакимов. Навоий асарлари қўлёзмаларининг тавсифи. Тошкент: ФАН нашриёти. 1983.
4. Hamid Sulaymonning “Xazoyin-ul-maoniy” asarining ilmiy-tanqidiy matnini yaratilishiga qo`shgan hissasi. Maqola. Abdurahmonov Mahmudxon. Международный научный журнал «Научный Фокус».
5. Alisher Navoiy kulliyoti. Istanbul, Topkapı saroyi kutubxonasi “Revan 808” nusxasi.
6. Алишер Навоий мукаммал асарлар тўплами, 14-том. Тошкент: ФАН нашриёти. 2000.

“GUL VA BULBUL” DOSTONINING SHARQ ADABIYOTIDAGI O‘RNI

Gulchexraxon TURAKULOVA

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqola Sharq adabiyotining ramziy asari bo‘lgan “Gul va Bulbul” dostonining matniy tadqiqiga bag‘ishlangan. Tadqiqotda dostonidagi asosiy motivlar – sevgi, hijron va sadoqat ramziy usulda tahlil qilinadi. Gul va Bulbul obrazlari orqali oshiq-ma’shuq munosabatlarining badiiy va falsafiy mazmuni o‘rganilib, ularning ilohiy sevgi va ma’naviy izlanish yo‘lidagi ramziy ifodasi talqin qilinadi. Dostonning Sharq madaniy merosidagi o‘rni va uning jahon adabiyotidagi ahamiyati ham muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: *Gul va Bulbul, Sharq adabiyoti, ramz, sevgi va hijron, allegoriya, ma’naviy izlanish, lirik she’riyat, badiiy obrazlar.*

Аннотация: Эта статья посвящена текстуальному исследованию символического произведения восточной литературы «Гуль и Бульбуль». В исследовании основные мотивы поэмы — любовь, разлука и верность — анализируются символическими методами. Через образы Гуля (Роза) и Бульбуля (Соловей) изучается художественное и философское содержание отношений влюбленных, интерпретируемых как символическое выражение божественной любви и духовных поисков. Также обсуждается место поэмы в восточном культурном наследии и её значимость в мировой литературе.

Ключевые слова: *Гуль и Бульбуль, восточная литература, символизм, любовь и разлука, аллегория, духовные поиски, лирическая поэзия, художественные образы.*

Abstract: This article is dedicated to the textual analysis of the symbolic work of Eastern literature, "Gul va Bulbul." The study examines the primary motifs in the poem—love, separation, and loyalty—through a symbolic approach. By exploring the characters of Gul (the Rose) and Bulbul (the Nightingale), it delves into the artistic and philosophical meaning of the lover-beloved relationship, interpreting them as symbolic expressions of divine love and spiritual quest. The poem's place in Eastern cultural heritage and its significance in world literature are also discussed.

Keywords: *Gul and Bulbul, Eastern literature, symbolism, love and separation, allegory, spiritual quest, lyrical poetry, artistic imagery.*

Sharq adabiyotining yorqin namunalaridan biri bo'lgan "Gul va Bulbul" dostoni sevgi va hijron motivini ramziy ko'rinishda aks ettirgan asarlardan sanaladi. Bu doston an'anaviy lirika janrida yozilgan bo'lib, unda Gul va Bulbul obrazlari orqali ma'shuq va oshiq orasidagi mehr-muhabbat, sadoqat va firoq ifoda etilgan. Dostonning ramziy mazmuni faqatgina sevgi-muhabbatni emas, balki yuksak ma'naviy qadriyatlar, ruhiy iztiroblar va inson qalbining nozik tomonlarini aks ettiradi.

"Gul va Bulbul" dostoni Sharq adabiyotida keng tarqalgan bo'lsa-da, uning eng mashhur talqinlari fors va turkiy adabiyotida uchraydi. Dostonning qahramonlari bo'lmish Gul va Bulbul qadim zamonlardan buyon go'zallik va muhabbatning timsoli sifatida sharqona adabiyotning turli asarlarida uchrab keladi. Ayniqsa, fors va turkiy lirik she'riyatda bu obrazlar keng ommaga tanilgan bo'lib, ularning sevgi hikoyalari o'quvchilarda hamisha katta qiziqish uyg'otgan.

"Gul va Bulbul" dostonining o'rganilishi tarixi, uning kelib chiqishi va an'analari o'zbek adabiyotining eng muhim jihatlaridan biridir. Ushbu doston nafaqat badiiy asar sifatida, balki xalqning tarixiy, madaniy va ma'naviy merosi sifatida ham qadrli. Dostonning yaratilish jarayoni va rivojlanishi ko'plab adabiy tadqiqotlar va olimlarning izlanishlari orqali o'rganilgan.

"Gul va Bulbul" dostonining kelib chiqishi og'zaki an'analarga borib taqaladi. Doston dastlab o'zbek xalqining madaniy hayotida muhim o'rin tutgan folklor janrlaridan biridir. Dostonning eng qadimgi variantlari Xorazm, Samarqand va Buxoro kabi hududlarda yaratilgan va vaqt o'tishi bilan yozma shaklga o'tgan. Dostonning motivlari va obrazlari, masalan, gul va bulbul, sevgi, go'zallik va insoniy his-tuyg'ularni ifodalaydi. Doston o'zbek adabiyoti tarixi davomida ko'plab mualliflar tomonidan o'zgarishga va rivojlanishga uchragan.

"Gul va Bulbul" dostonining o'rganilishi ko'plab olimlar va adabiyotshunoslar tomonidan olib borilgan. 20-asrning 30-yillaridan boshlab, o'zbek adabiyotida dostonning yangi shakllari va interpretatsiyalari paydo bo'la boshladi. Dostonning tahlili va izlanishlari 1940-yillardan boshlab ilmiy asarlarda, maqolalarda va dissertatsiyalarda keng ko'lamda o'rganila boshlandi.

"Gul va Bulbul" dostonining an'analari uning xalq og'zaki ijodidagi o'rni bilan belgilanadi. Doston ko'plab og'zaki variantlarda, she'rlar va qissa shaklida

xalq orasida keng tarqalgan. An'anaviy folklor va og'zaki ijodda dostonning ifoda etishi, motivlari va obrazlari o'zbek xalqi hayotida chuqur o'rin tutadi.

Dostonning asosiy motivlari, masalan, gul va bulbul o'rtasidagi munosabatlar, sevgi va go'zallik tasvirlari, ko'plab folklor asarlarida ko'rinadi. Doston, shuningdek, o'zbek adabiyotida romantik g'oyalar va estetik qadriyatlarni ham aks

“Gul va Bulbul” dostonining tarixi 15-asrgacha borib taqaladi. Dostonning dastlabki shakli og'zaki an'analar asosida yaratilgan va vaqt o'tishi bilan yozma shaklga o'tgan. Dostonning manbalari orasida og'zaki folklor va an'analarning muhim o'rni bor. U turli qabilalar va xalqlar orasida tarqalgan, har bir hududda o'ziga xos o'zgarishlarga uchragan.

“Gul va Bulbul” dostonining asosiy adabiy manbalari orasida o'zbek va fors tillaridagi ko'plab klassik asarlar kiritiladi. XVI asrda yozilgan “Rustam va Suhrab” dostoni va “Xamsa” kabi asarlar dostonning mavzusi va uslubiga ta'sir ko'rsatgan. Ular o'z navbatida, dostonning badiiy shakli va mazmunini rivojlantirgan.

"Gul va Bulbul" dostoni ramziy ma'noda sevgi va hijronni o'zida aks ettirgan bir asar sifatida ma'lum. Gul va Bulbul obrazlari orqali oshiq va ma'shuq o'rtasidagi sevgi-hasrat munosabatlari aks etadi. Bulbul Gulning go'zalligiga oshufta bo'lib, uni o'ziga yaqinlashtirishga intiladi. Gul esa ma'shuqning go'zallik va jozibasini o'zida mujassam etgan timsol bo'lib, Bulbulning muhabbatiga nisbatan beparvolik qiladi yoki unga javob bermaydi. Asarning asosiy motivlari sevgi, iztirob, firoq va sadoqatdir.

Dostonning badiiy mazmuni sevgining fojiali tomonlarini ifoda etishga qaratilgan. Bulbul Gulga etishishni orzu qilsa-da, doimiy ravishda undan uzoqda qoladi. Bu holat oshiqning abadiy iztirobini aks ettiradi va uning ma'naviy o'sishini ramziylashtiradi. Bulbulning Gulga bo'lgan muhabbati, aslida, faqatgina dunyoviy sevgi emas, balki yuksak ruhiy izlanishlar va ilohiy muhabbatning timsoli sifatida talqin qilinadi.

Dostonning markaziy qahramonlari bo'lgan Gul va Bulbul o'rtasidagi munosabatlar ramziy va falsafiy ma'noga ega. Gul – ma'shuq, go'zallik va mukammallikning timsoli. U osmoniy, ilohiy go'zallikka yaqinlashtirilgan, ammo sovuq va beparvo. Gulning bu xususiyati oshiqning (Bulbulning) iztirob va hijronini kuchaytiradi.

Bulbul – oshiq, sadoqat va fidoyilikning timsoli. Uning Gulga bo'lgan muhabbati unga ma'naviy izlanishlar va iztiroblar yo'lini ochadi. Bulbul Gulni doimiy ravishda qo'msaydi, unga yaqinlashishga intiladi, ammo hech qachon uni to'la qo'lga kiritmaydi. Bu oshiqning ma'naviy kamoloti, sabr va fidoyilik orqali yuksalishini ifodalaydi. Bulbulning Gulga bo'lgan muhabbati oshiqning insoniylik va ilohiylik o'rtasidagi izlanishlarini aks ettiradi.

"Gul va Bulbul" dostoni an'anaviy lirik shaklda yozilgan. Undagi she'rlar qofiya va ohanglar bilan boyitilgan bo'lib, adabiy tasviriy vositalar ko'plab ishlatilgan. Dostonning tilida ramziy va falsafiy iboralar ko'p uchraydi. She'riy

shaklda yozilishi oshiq-ma'shuqning ruhiy kechinmalari va iztiroblarini yanada teranroq aks ettirishga xizmat qiladi.

Dostonning tili sodda bo'lsa-da, undagi ramziy ma'no va obrazlar, qofiya va ritm orqali yanada chuqurroq mazmun berilgan. Ayniqsa, Gul va Bulbul o'rtasidagi dialoglar she'r orqali ifoda etilib, o'quvchida ichki iztirob va fidoyilik hissini uyg'otadi.

Dostonda ishlatilgan adabiy texnikalardan biri ramziy ifodalardir. Gul va Bulbulning obrazlari, ularning o'zaro munosabatlari orqali sevgi va ma'naviy o'sish yo'li ramziy ko'rinishda tasvirlangan. Allegoriya orqali oshiq va ma'shuqning sevgisi dunyoviy muhabbatdan ko'ra ilohiy izlanish va ruhiy kamolotni anglatadi.

Asardagi metaforalar oshiq va ma'shuqning sevgi bilan bog'liq kechinmalarini kuchaytiradi. Masalan, Bulbulning Gul atrofida aylanib, uni qo'msashi sevgi va intilishning ramzi sifatida xizmat qiladi. Bu erda Gul va Bulbul o'rtasidagi firoq ham insonning ilohiy maqsadga etishish yo'lidagi mashaqqatlarini ifodalaydi.

“Gul va Bulbul” dostoni nafaqat sevgi, balki ruhiy va ma'naviy yuksalish yo'lining ramzi sifatida ham talqin qilinadi. Bulbulning Gulga etisholmagan, doimiy iztirobda bo'lishi oshiqning dunyoviy sevgi bilan ilohiy sevgi o'rtasidagi kurashini ifodalaydi. Bulbulning iztirob orqali yuksalishi, sevgi uchun kurashi va sadoqati uni ma'naviy kamolot sari etaklaydi.

Dostonning ramziy mazmuni orqali sevgi qanchalik go'zal va kuchli bo'lmasin, uni ilohiy izlanish va ruhiy poklanish sifatida ham talqin qilish mumkin. Gul va Bulbul dostoni Sharq adabiyotidagi ramziy asarlardan biri bo'lib, u sevgi va ma'naviyatning bir-biri bilan uzviy bog'liq ekanini aks ettiradi.

“Gul va Bulbul” dostoni matniiy tahlili natijalariga ko'ra, ushbu asar Sharq adabiyotida sevgi, sadoqat va hijron motivlarini ramziy usulda ifoda etishning yorqin namunasi ekanligi aniqlangan. Tadqiqot davomida asarning mavzusi, qahramonlari, she'riy shakli va tili, shuningdek, adabiy uslublari va ramziy mazmuni batafsil tahlil qilindi.

Dostonning mavzusi va undagi asosiy motivlar – sevgi, hijron, iztirob va sadoqat, nafaqat adabiy, balki falsafiy mazmuni ham o'zida mujassam etadi. Gul va Bulbulning munosabatlari dunyoviy muhabbatdan ko'ra ko'proq ilohiy izlanish va ma'naviy kamolot ramzi sifatida talqin qilinishi, asarni ko'plab davrlarda dolzarb qilib kelgan. Bu motivlar hozirgi zamon madaniyatida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Tadqiqot davomida Gul va Bulbul obrazlari sevgi va go'zallikning tashqi tasviri emas, balki ma'naviy va falsafiy ramzlar sifatida ko'rib chiqildi. Gulning sovuq va beparvo tasviri oshiqning (Bulbulning) maqsadga etishish yo'lidagi iztiroblarini aks ettiradi. Bu iztiroblar orqali oshiq (Bulbul) ma'naviy poklanishga erishadi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, Bulbul Gulga etishishni faqatgina tashqi sevgi sifatida emas, balki ichki ruhiy izlanish deb qabul qiladi. Bu esa asarni ilohiy sevgi haqidagi chuqur falsafiy asar sifatida qarash imkonini beradi.

Asarda ishlatilgan she'riy shakl va til ifodalari matnning ramziy va falsafiy mazmunini kuchaytirishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida Gul va Bulbul o'rtasidagi dialog va iztiroblarning ritmik va qofiyali she'r shaklida ifodalanishi asarning hissiy ta'sirini kuchaytirishi aniqlangan. She'riy shakl oshiqning kechinmalarini o'quvchiga yaqinroq va chuqurroq etkazishga xizmat qilgan. Bu esa Sharq lirik she'riyatiga xos bo'lgan jihatlardan biri bo'lib, dostonidagi badiiy mahoratning yuqori darajasini namoyon etadi.

Dostonning tadqiqi jarayonida ramziy tasvirlarning o'ziga xosligi ajralib turadi. Gulning jozibadorligi va Bulbulning unga etisholmasligi orqali abadiy sevgi va ilohiylik orasidagi aloqa tasvirlangan. Ramziy obrazlar o'rtasidagi bu ziddiyat asar mazmunini yanada boyitadi va o'quvchini chuqur ruhiy mulohazalarga etaklaydi. Bulbulning Gulga bo'lgan fidoyiligi va abadiy hijroni ramziy nuqtai nazardan insonning ilohiy mukammallikka etishish yo'lidagi mashaqqatlarini aks ettiradi.

Tadqiqot davomida Gul va Bulbul dostonining Sharq adabiyotidagi madaniy va adabiy o'rni katta ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Doston fors va turkiy adabiyotlarda keng yoyilgan bo'lib, ko'plab shoirlar va yozuvchilar bu mavzuga murojaat qilgan. Gul va Bulbul obrazlari asrlar davomida lirik she'riyatning markaziy ramzlaridan biri bo'lib kelgan. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, asarning badiiy va falsafiy boyligi uni jahon adabiyoti durdonalaridan biri sifatida baholash imkonini beradi.

“Gul va Bulbul” dostoni Sharq adabiyotining eng yuksak ramziy asarlaridan biri sifatida sevgi, hijron va sadoqatning betakror ifodasidir. Ushbu ilmiy tadqiqot jarayonida asarning badiiy mazmuni, qahramonlari, she'riy shakli va ramziy talqini chuqur o'rganildi va natijalar shuni ko'rsatdiki, doston nafaqat dunyoviy muhabbat haqida, balki ilohiy sevgi, ruhiy izlanish va ma'naviy kamolotning badiiy tasviri sifatida ham ahamiyatga ega.

Gul – go'zallik va mukammallik timsoli, Bulbul esa sadoqatli oshiq obrazida tasvirlangan bo'lib, ularning munosabatlari insonning yuksak maqsad va ilohiylikka etishish yo'lidagi iztirob va fidoyilikni aks ettiradi. Tadqiqot jarayonida Gul va Bulbul obrazlari dunyoviy sevgi va ruhiy mukammallikning ramziy ifodasi sifatida talqin qilinishi aniqlandi. Bulbulning Gulga bo'lgan abadiy iztiroblari orqali inson qalbi va ruhiy olamining murakkabliklari aks ettiriladi.

She'riy shakl, qofiya va ritm asarning hissiy kuchini yanada oshirgan, ramziy va falsafiy ifodalarning boyligi esa dostonga o'quvchini chuqur mulohazalarga etaklaydigan badiiy kuch bergan. Bu ilmiy maqola Gul va Bulbul dostonini Sharq adabiyotidagi o'ziga xos asar sifatida yangi nuqtai nazardan o'rganishga zamin yaratdi.

Shunday qilib, “Gul va Bulbul” dostoni nafaqat Sharq adabiyoti, balki jahon madaniy merosida ham o'ziga xos o'rin egallaydi. Ushbu doston asrlar davomida sevgi va hijronni aks ettirishda ramziy vositalardan qanday unumli foydalanish mumkinligini namoyon etadi.

Adabiyotlar:

1. Aliev, O. (2015). Sharq adabiyotida Gul va Bulbul motivlari: Tarixiy va badiiy tahlil. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.

2. Rustamova, M. (2018). Fors-tajik adabiyotida lirik obrazlar: Gul va Bulbulning ramziy talqini. Adabiyot va San'at jurnali, 2(3), 45-57.
3. Bektosh, A. (2020). Sharq adabiyotining ramziy obrazlari. Buxoro Davlat Universiteti Nashriyoti.
4. Rahmonov, I. (2016). Gul va Bulbul dostoni: adabiy-estetik jihatlar. O'zbek adabiyoti va madaniyati jurnali, 3(5), 12-22.
5. Tursunov, S. (2019). O'rta asr Sharq poeziyasida sevgi va hijron mavzusi. Toshkent: Ma'naviyat.
6. Mirkhojaev, K. (2017). Sharq she'riyatining ramziylashgan obrazlari. Islom madaniyati ilmiy-tadqiqot markazi.
7. Садриддин Айний. (1972). Шарқ шеърятининг буюк анъаналари. Тошкент: Ўзбекистон Ёзувчилар Уюшмаси.
8. Azizov, H. (2021). Fors lirik she'riyatida Gul va Bulbul motivlari. O'zbekiston Davlat Madaniyat va San'at Instituti nashriyoti.

TURKIY XALQ DOSTONLARIDA MOTIVLAR O'XSHASHLIGI

Aziza ESKULOVA

*Nizomiy nomidagi TDPU magistratura bo'limi
Qozoq tili va adabiyoti ixtisosligi magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumturkiy xalqlarga taaluqli bo'lgan xalq og'zaki ijodining yuksak namunalari qiyosiy taxlil qilinib, o'larning o'rtasidagi umumiy mushtaraklik o'rganilgan.

Kalit so'zlar: genesis, qardosh, qiyosiy metodika, milliy versiya, umumiy uyg'unlik, usul.

Аннотация. В данной статье сравниваются выдающиеся образы народного устного творчества, характерные для общероссийских народов, и исследуется общая общность между ними.

Ключевые слова: genesis, родственная связь, сравнительная методология, национальный вариант, общая гармония, метод.

Abstract. In this article, the great examples of folklore belonged to Turkic peoples are comparatively analyzed and the mutual relations between them are learned.

Key words: genesis, general sympathy, national version, relative, comparative method, style.

Turkiy xalq og'zaki ijodining yuksak namunalari xisoblangan "Qo'rqit ota", "Alpomish", "Edigey" dostonlari turkiy Xalqlarning barchasiga taaluqli adabiy-badiiy merosdir.

Bugungi kunda ushbu eposlarning qozoq, no'g'oy, tatar, boshqird, qoraqalpoq, o'zbek va turkman tillaridagi variantlari mavjud. Jahon folklorining oltin xazinasidan joy olgan ushbu asarlarda turkiy xalqlar adabiyotiga xos

mushtarak xususiyatlar mavjud. Jumladan, “Qo‘rqit ota” eposi bilan “Edigey” tasvir uslubi jihatidan bir qator uyg‘unliklarga ega. V.M.Jirmunskiy “Tyurkskiy geroicheskiy epos” deb nomlangan yirik asarida “Qo‘rkit ota bilan “Alpomish” dostonlari o‘rtasidagi o‘zaro umumiy aloqani atroflicha ko‘rsatgan.

XV asrda Kavkaz zaminida qog‘ozga tushirilgan deya taxmin qilinadigan “Qo‘rqit ota” dostonidagi Aruzxo‘janing pari bilan oila qurishi “Edigey” dostonidagi Bobo Tukli Shoshli Azizning pariga uylanishiga o‘xshash. Shuningdek, Qo‘rqit o‘g‘uzlarning ulug‘ xo‘qoni Bayandur xonning maslahatchisi, ko‘pni ko‘rgan qariya sifatida namoyon bo‘lsa, “Edigey” dostonidagi Sipira jirov ham fe‘l-atvori bilan shunga yaqin turadi. Har ikkala asarda ham mamlakat hukmdorlari murakkab vaziyatlarda dono qariyalarni davlat masalalariga jalb etib turadi. Birgina misol: “Qo‘rqit ota” dostonida bir ko‘zli dev o‘vuz xalqini qirib tashlayotgan bir paytda hukmdor Dev bilan sulh tuzmoqlik uchun Qo‘rqit otani keltirishlarini buyuradi. Turkmon nusxasida: “ Oguz Depegøze kær qylmadý, ýrkdi gachdý. Depegøz olarýñ øñýnden chýkyl, ызына Gaytardý, hech yana Goyberlidí, ønki yurtlarýnda gondurdý” (1, 125). “Edigey” eposining milliy versiyalarida To‘xtamish bilan Edigeyning o‘zaro munosabatlari chigallashib, Edigey yurtni tark etgan vaziyatda, endi nima qilishni bilmay boshi qotganda Sipira jirovni chakirtiradi. Shu kabi “Ko‘rqit ota” dostonida Aruzning o‘g‘li Bisot bir ko‘zli devni o‘ldiradi. Har ikkisida ham Devlar o‘qk o‘tmas, qilich chopmas deya ta‘riflanadi. Har ikkisining ham zaif tomonlari mavjud. Juda uzoq vaqt uyquda yotadigan devlarni topib mahv etish mumkin. Bir ko‘zli dev ham Uzunbuloq degan ko‘lda uchib yurgan parining bolasi. Parining cho‘ponki tashlab ketayotganida aytgan gapi bilan Qoratiyin alpning onasining Edigey haqida aytgan gaplari o‘xshash. Masalan, “Bisot” dostonida Devning onasi cho‘ponga: “Endi bu bola o‘g‘uz xalqiga qiron keltiradi”, deydi. Bu gapni haqiqatga aylanib, o‘sgan sari odam eydigan ulkan Devga aylanadi: “Edigey” dostonida Qoratiyin alining onasi “Edigeyning otgan o‘qi tufayli vafot etasan”, deydi. Edigey va Qoratiyin alpning onalari bir paytda tug‘ishgan bo‘lishsa, Bisot va Bir ko‘zli dev bir insonning Aruzning farzandlari bo‘lib chiqishadi. “Bisot” dostonida dushman zulmi tufayli xalk sarosimiga tushgan bir paytda Bisot onasiing xurjunidan tushib kolib, o‘rmondagi sherning suti bilan oziqlanadi. Edigeyni esa onasi dashti biyobonga tashlab ketadi.

“Tulum biy” dostonida biy farzandsiz bo‘lgani bois jazoga giriftor bo‘ladi. “Ko‘rqit ota” dostonidagi “Dirse xon o‘g‘li Bukoltxon xakida” dostonida Dirse xon farzandsizligi tufayli ulug‘ hukmdor Bayandur xonning xo‘qonni jazoga tortadi. “Edigey” ning o‘zbek tilidagi versiyasi bilan taqqoslab ko‘raylik: “Ganjboy ko‘sa bosh ko‘tarib aytdi:

— Ey, xo‘jam bu borgoda o‘g‘illiga o‘rin, qizlig‘a kirin bor. Har kim o‘g‘ilsiz, qizsiz bo‘lsa, unga xorlik bilan zulm bor turur. Ey, xo‘jam, potshoning amri turur, Tulumbekning qo‘lidin muhrin olib aytdi: Turg‘il, borgodin chikg‘il, bu yurtdin o‘zga yurtga ketgil, bo‘lmasa xorlik bilan bu yurtni tark etasan”(2, 11-12).

“Ko‘rkit ota kitobida” “Agarda kimning farzandi bo‘lmasa kora o‘tovga kirgazib, kora kigizga o‘tkazing va kora qo‘yning go‘shini oldiga torting. Yesa esin, emasa chikib ketsin, debdi” (3, 48).

Turkmanlarning “Qo‘rqit ota” kitobida “Salir” hamda “Igdir” degan kichkina boblar bor. Salir shijoatli yigit bo‘lib, har kuni ovchilik kiladi. Bir kuni u ertalab ovga chiqsa, oldida kimdir parda yopinib o‘tiribdi ekan. “Kimsan?” deya so‘rsa, “Men pari kiziman” deb javob qaytaradi. Keyin yuzini ko‘rsatadi. Uning oldiga borgan yigit qizning go‘zal chehrasini ko‘rib unga shaydo bo‘lib koladi.

Pari: “Men sen izlagan qizman” deydi. Yigit unga qovushmok istagini bildirganida: “Senga qo‘yadigan uch shartim bor”, deydi. Salir undan shartlarini so‘rsa: “Men suvga tushgan paytimda nazaringni qaratmagil va nihoyat uchinchi shartim, etigimni echganimda va kiyganimda oyog‘imga karama”, deydi. Yigit va‘da beradi va ikkovi qovushadi. Kunlardan bir kun yigitning ayoliga bergan va‘dasi yodiga tushib, niyati bo‘ziladi. Yolg‘ondakam uyquga ketib, uni zimdan kuzatadi. Tongga yaqin xotini boshini qo‘liga olib soch taraydi. Kunlarning birida jaziramada ayol kudukdan suv olib cho‘miladi. Shunda yigit uning ko‘p siynali ekanligi guvohi bo‘ladi va oyog‘ining teskariligini ham fahmlab qoladi. So‘ngra bu ko‘rganlariga chiday olmay xotinidan: “Sen qanday odamsan?” deb so‘raydi. Shunda ayoli ranjib: “Pariligimni ilgari aytganman. Va‘dasida turmagan nomard ekansan. Va‘da buzilgach, sen bilan yashay olmayman”, deb qushga aylanib uchib ketadi. Yigitning yalinib yolvorishiga qaramaydi. Qayg‘ug‘a botgan Salir uni ko‘p qidiradi. Bir kuni pari xotini uchrashib, qo‘lidagi bolani “Sening zurriyoding”, deya yigitning qo‘liga tutqazib ketadi. Salir o‘g‘lini yurtiga olib kelib to‘y qiladi. To‘yga Qo‘rkit ota ham tashrif buyuradi, soz chaladi, fотиha berib, nutq so‘zlaydi. Bolakayga Igdir deya ism qo‘yishadi. Ushbu farzandning naslidan chovdirilarning Igdir qabilasi o‘sib ulg‘ayadi (4, 182-183).

“Qo‘rqit ota” hamda “Edigey” dostonlari nusxalari orasidagi mutanosibliklarni taqqoslagan sari ko‘paya boradi. Demakki, IX asrda dunyoga kelgan “Qo‘rqit ota kitobi” bilan XIV-XV asrlarda folklor dunyosiga kirib kelgan “Edigey” dostoni orasida keng miqyodagi o‘xshashliklar va adabiy-badiiy aloqalar mavjud deyishga haqlimiz.

Ushbu ta‘riflar “Edigey” dostonining genezisi qaerdan kelganini aniq ko‘rsatadi. Epik doston turkiy xalqlarning avvaldan kelayotgan ertaklari bilan dostonlarining tabiiy davomi ekanligini anglaymiz. Mazkur dostonlardan har birining o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lgani xolda umumiy uyg‘unligi saqlangan.

Adabiyotlar:

1. Ежелгі дәуір әдебиеті хрестоматиуа. Алматы: Ана тілі, 1991. 4. Горкут ата. Тадымы туркмен эпоси. Ашгабад: “Туркменистан” нашрияти, 1990.
2. Қорқут ата. 1990. Тадымы туркмен эпоси. Ашгабад: Туркменистан нашериати.
3. Tulumxo‘ja. 2006. Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.

MUMTOZ ADABIY MANBALAR TAHLILI VA TALQINIDAGI TURFALIKLAR

ABDURAHMON JOMIY IJODINING O'RGANILISHI MASALALARIGA DOIR

Dilorom SALOHIIY

filologiya fanlari doktori, professor Samarqand davlat Chet tillar instituti

Annotatsiya. Maqolada jahon adabiyotining yirik mutafakkir siymolaridan biri, shoir va ma'rifiy yo'l boshchi shaxsiyat – Mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy ijodining o'tgan asrda o'rganilishi haqida so'z boradi. Jomiyning ijodiy merosi, hayoti, faoliyati, shaxsiy fazilatlarini haqida eng aniq ma'lumot beruvchi manbalardan ma'lumotlar keltiriladi. Jomiy lirik va epik ijodiy merosining ilmiy-badiiy qimmatini, ahamiyatini haqida fikr yuritiladi. Muallif XX asr jomiyshunosligida munozarali bo'lgan masalalarga munosabat bildiradi, ilmiy adabiyotlardagi bahsli, noaniq fikrlarni tanqid qiladi. Shuningdek, buyuk mutafakkir ijodkorning dunyoviy va ilohiy ishq masalasi xususidagi qarashlari talqini tanqidiy o'rganiladi va tahlil etiladi. Mutafakkir tabiatidagi poklik, mukammal intizom, to'g'rilik va kamtarinlik kabi xususiyatlar haqida misollar vositasida fikr mulohaza yuritiladi. Muallif XU asr P yarmi Xuroson adabiy muhitining ikki yorqin siymosi Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy do'stliklari, hamfikrliklari, ijodiy hamkorliklari haqida qiziqarli ma'lumotlar keltiradi.

Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston" asarida inson qadr-qimmatini, sharafini haqida fikr yuritishi va naqshbandiya ta'limoti asosida o'zining xulosalarini bayon etishi ahamiyatli. U mulohazalarini asoslash uchun tazkiraning har bir mavzusiga biror qiziqarli hikoyani ilova qiladi. Eron shohi Anushervoni odilning bir fazilati shunday hikoyalardan birida vash etiladi. Muallif buyuk shoirning she'riyat sohasidagi badiiy mahorati va adabiy-estetik printsiplari haqida ham fikr-mulohazalar bayon etadi. Xususan, sharq poetikasida ancha mukammal shakllangan va rivojlangan fors-tojik she'riyati misolida vazn va radif tanlash, ularni lirik asarda mukammal qo'llash sohasida Abdurahmon Jomiy ijodi eng yorqin namuna bo'lgan edi. Buni muallif bir she'riy asar tahlili misolida ko'rsatgan.

Maqolada qiyosiy-tahliliy, biografik va lingvosemantik tahlil metodlaridan foydalanilgan. Xulosalarda keyingi davr o'zbek va fors-tojik adabiyotshunoslari oldida turgan vazifalar va takliflar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: turkiy she'r, ziddiyatli tabiat, mafkura, ish darajalari, ma'naviy rahnamo

Annotation. The article discusses the study of the work of Maulana Nuriddin Abdurrahman Jami, one of the great thinkers of world literature, poet and educator, in the last century. The information is provided from sources that provide

the most accurate information about Jami's creative heritage, life, activities and personal qualities. The scientific and artistic value and significance of Jami's lyrical and epic creative heritage are discussed. The author reacts to controversial issues in the sociology of the twentieth century, criticizes contradictory and ambiguous opinions in the scientific literature. The interpretation of the views of the great thinker and creator on the problem of worldly and divine love is also critically studied and analyzed. Examples are used to discuss such characteristics of the nature of a thinker as purity, perfect discipline, honesty and humility. The author provides interesting information about the friendship, mutual understanding and creative cooperation of Abdurrahman Jami and Alisher Navoi, two prominent figures in the literary environment of Khorasan in the second half of the 15th century.

It is important that Abdurrahman Jami in his work "Bakhoristan" thinks about human dignity and honor and expresses his conclusions based on the Naqshbandi doctrine. To each tazkira theme he adds an interesting story to support his reasoning. Anushervoni, the king of Iran, is described as a righteous man in one such story. The author also comments on the artistic skill of the great poet in the field of poetry and literary and aesthetic principles. In particular, the work of Abdurrahman Jami was the clearest example in the field of selection of scales and radifs and their ideal application in a lyrical work, using the example of Persian-Tajik poetry, which is very well formed and developed in eastern poetics. The author showed this by analyzing the example of a poetic work.

The article uses comparative analytical, biographical and linguistic-semantic methods of analysis. The conclusions describe the tasks and proposals facing Uzbek and Persian-Tajik literary scholars of the next period.

Key words: verse in the Turkic language, heterogeneity of character, ideology, degrees of love, spiritual mentor

KIRISH. Jomiyshunoslik tarixini boshlab bergan buyuk Alisher Navoiy benazir "Xamsa"sining "Farhod va Shirin" dostonida Shayx Nizomiy Ganjaviy va Amir Xusrav Dehlaviy filday qudratli shoirlar bo'lsalar, Hazrati Nuriddin Abdurahmon Jomiy yuz fil qudratiga ega mutafakkir edi, degan fikrlarni keltiradi:

*Iki pil o'lsa Xusrav yo Nizomiy,
Erur yuz pil chog'liq pil Jomiy.
Muhabbat jomi durdoshomi uldur,
Hamono Zinda pili Jomi uldur.
Ko'rub sarmast jomi vahdat oni,
Demishlar Zinda pili hazrat oni...*

Bu ta'riflar bilan Navoiy ustoz va piri bo'lmish Hazrati Jomiyning nafaqat qudratli qalam sohibi bo'lgan dilbar shoir, balki ilm-fanning ko'p sohalarida kamolotga erishgan nuktadon olim, o'z davrining yirik diniy rahnamosi, favqulodda yuksak odamiylik fazilatlariga ega bo'lgan fozil shaxs sifatida e'tirof etadi.

Jomiyning ijodiy merosi, hayoti, faoliyati, shaxsiy fazilatlarini haqida eng aniq ma'lumot beruvchi manbalar asosan uning shogirdi Abdulg'afur Loriy va shoir vafotidan keyin Navoiy buyurtmasi bilan Abulvose' Nizomiy tomonidan yozilgan manobalarda o'z ifodasini topgan.

“Kichik bir tom ostida butun jahon berkingan, uning oti – Jomiy”, - deya e'tirof etgan Navoiy “Xamsat ul-mutahayyirin” asarini yaratishi bilan o'zbek adabiyotshunosligida jomiyshunoslik sahifalarini ochib berdi. “Abdurahmon Jomiy qoldirgan yuksak ma'naviy xazina forsiyzabonlar o'rtasida nechog'lik qadrlanib asralgan va o'qilgan bo'lsa, turkiygo'ylarning ixlosu e'tiqodi ham undan kam bo'lgan emas”, - deb yozadi R.Vohidov “Ma'naviyatning porloq quyoshi” nomli kitobida.²⁶⁴

ASOSIY QISM. XV asr oxiri va XVI asr boshlaridan to XX asr boshlariga qadar bu ulug' allomaning arab tili grammatikasiga oid qo'llanmasi, she'riyati namunalari, dostonlari Buxoro, Qo'qon va Samarqand madrasalarida uzluksiz o'qitilgan, jomiyxonlar avlodi shakllanib, voyaga etgan. Alloma asarlari qilqalam xattot va rassomlar tomonidan kitobat qilingan, ularga miniatyuralar ishlangan. XIX asrning 90-yillaridan ulug' shoir asarlari tipografiya va litografiyalarda alohida kitoblar xolida nashr etilgan.

O'zbek adabiyotshunosligining jomiyshunoslik sahifalarida alloma asarlari tarjimalari katta mavqe' egallaydi. Shoir asarlaridan qilingan tarjimalar O'zbekistonda 1970, 1977, 1978, 1989, 1997, 2008 yillarda nashr etildi.²⁶⁵

Abdurahmon Jomiy ijodiyoti yuzasidan bajarilgan ilmiy tadqiqotlar, mubolag'asiz aytish mumkinki, jahon ilm-fanining bu sohadagi taraqqiyotiga munosib hissa qo'shdi. Zahmatkash o'zbek olimlari uzoq yillar davomida olib borgan tadqiqotlari natijasida bir qator qimmatli asarlarni yuzaga keltirdilar.²⁶⁶

Bu qimmatli tadqiqotlarda Hazrati Jomiy yashagan davr, uning hayoti, ijodiyoti, dunyoqarashining shakllanishi, g'oyaviy qarashlari, so'fiylik masalalari, muhabbat mavzui, insonparvarlik g'oyalari targ'iboti, etik va estetik talqin ko'rinishlari kabi masalalar o'z ifodasini topgan.

Ammo, ilm-fan taraqqiyotini ta'minlovchi, shuningdek, haqiqiy olim shaxsiga xos bo'lgan shunday bir xususiyat borki, u ham bo'lsa, bajarilgan ishdan qoniqmaslik, oxirgi nuqtani qo'yishdan andesha qilish, sermulohazalik, mubohasaga intilmoqlik hissi. Bu hissiyot qariyb barcha katta olimlar asarlarining yo boshida, yo nihoyasida olim tilidan o'z ifodasini topgan. Shu jihatdan

²⁶⁴ Вохидов Р. Маънавият оламининг порлоқ қуёши. – Бухоро: 2004. 42-бет.

²⁶⁵ Абдурахмон Жомий. Ғазаллар. Достонлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1970.; Жомий. Фарзандимга. – Тошкент: 1977.; Жомий. Искандар хирадномаси. – Тошкент: 1978.; Жомий. Юсуф ва Зулайхо. – Тошкент: 1983.; Жомий. Мақсуди дил. Сайланма. – Тошкент: 1989.; Жомий. Лайли ва Мажнун. Саломон ва Абсол. – Тошкент: 1989.; Жомий. Баҳористон. – Тошкент: 1997.; Жомий. Ғазаллар. – Тошкент: 2008.

²⁶⁶ “Абурахмон Жомий”. – Тошкент: 1997.; Абдурахмон Жомий ва Нақшбандия таълимоти. – Бухоро: 1995.; Абдурахмон Жомий. Мажмуаи мурсалот. – Тошкент: 1983.; XV асрнинг иккинчи ярми XVI аср бошларида ўзбек ва тожик шеърляти. – Тошкент: 1983.; Шарқнинг буюк алломаси. – Тошкент: 1989.; Маънавият оламининг порлоқ қуёши. – Бухоро: 2004.

jomiyshunoslikda o‘zbek, tojik va rus olimlari yaratgan tadqiqotlardagi ba'zi masalalar xususida fikr bildirmoqni ilmiy tadqiqotchilik etikasiga nisbatan madaniyatsizlik bo‘lmas, deb o‘yladik.

Avvalo, uzoq yillar bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan Hazrati Jomiyning o‘zbek tilida ijod qilgan yoki qilmaganligi masalasi. Bu sohada bahs 1941 yildan boshlanib (“Qizil O‘zbekiston” gazetasi o‘z sahifalarida shoirning uchta o‘zbekcha g‘azalini chop etadi²⁶⁷), 2002 yilgacha (“Sino” jurnali²⁶⁸) davom etadi.

Bu munozaraga qo‘shilgan R.Vohidov o‘zining mantiqli mulohazasi bilan bahsga nuqta qo‘ydi, deb o‘ylaymiz. Binobarin, u o‘z mulohazalarini shunday asoslaydi: “Jomiy she‘riyatida mulamma’ – shiru shakar san‘ati asosida bunyod qilingan she‘rlar uchrab turadi. Ammo ular forscha va arabcha so‘zlar ishtirokida dunyoga kelgan. Hodisa sifatida zullisonaynlik esa Abdurahmon Jomiy adabiy tajribasida deyarli kuzatilmaydi”.²⁶⁹ Olim fikrlarini quyidagicha dalillaydi: “Abdurahmon Jomiy turkcha-o‘zbekcha she‘rlar yozganda edi, Alisher Navoiyning “Koshki” radifli g‘azaliga forsiy javob bitmagan bo‘lur edi. Ikkinchidan, ...Alisher Navoiyning o‘ttiz yildan ziyodroq umri (1460 – 1492) Abdurahmon Jomiy bilan ibratli ijodiy hamkorlikda kechgan... Agar Abdurahmon Jomiy turkiy tilda she‘rlar ijod qilganda, ulug‘ o‘zbek shoiri uni alohida urg‘u bilan qayd qilardi”.²⁷⁰

Ushbu mantiqli mulohazalarni quvvatlovchi yana bir dalil borki, u ham bo‘lsa – shoirning uslubi xususiyatlari. Birinchidan, Jomiyga nisbat berilgan g‘azallarda vazn saktalıkları ko‘zga tashlanadi. Misol uchun:

*Jomii dilxastag‘a, ey dilbarim, rahm aylagil,
G‘ussa to‘kmakdin tugandi yurakidin yog‘lar.*
- V - - / - V - - / - V - - / - V -
- V - - / - V - - / - V - - / - V -

“Yurakidin” so‘zidagi “yu” va “a” harflari sun‘iy ravishda cho‘zib o‘qilishga mahkum bo‘lib qolgan. Quyida keltirilayotgan baytdagi “uchun” so‘zi ham vazn ravonligining buzilishiga sabab bo‘lgan.

Ma‘no buzilishlari bor:

*Bir siyah baxti qaro uchun (?) yuribman darbadar,
Xasta bulbul bor ekan, gulshanda naylar zog‘lar.*

Ta‘kid etilgan ibora balki “bir siyah baxti qarodurmenki”dir? Agar shu xildagi xatoliklarni kotiblar e‘tiborsizligi desak, bundan tashqari, she‘rda XV asr turkiy tilida qo‘llanilmagan so‘zlarning so‘zlarning borligi ham ularning Jomiyniki ekanligini shubha ostiga qoldiradi. Masalan, “mutlaqo” so‘zi. Bu so‘z Navoiy g‘azallarida ham biror marta qo‘llanilmagan. O‘ylaymizki, bu munozaraga uzil-kesil nuqta qo‘ymoq tuzuk. Hazrati Jomiy qomusiy alloma edilar, ammo turkiy tilda she‘r yozmaganlar.

²⁶⁷ Маълумот ушбу китобдан олинди: Е.Э.Бертельс. Жомий. – Самарқанд: СамДУ, 2010. 28-бет.

²⁶⁸ Қаюмов А. Зуллisonайн шоир // Сино, 2002 йил. № 7. 16 – 17-бетлар.

²⁶⁹ Воҳидов Р. Маънавийт оламининг порлоқ куёши. – Бухоро: 2004. 13-бет.

²⁷⁰ Shu kitob, 14-бет.

E'tirozimizga sabab bo'lgan ikkinchi mulohaza Hazrati Jomiy ijodi va g'oyaviy qarashlari xususida so'z borganda ulardan ziddiyat qidirish yoki ularni ziddiyatli, deb atashdir. Misollarga murojaat etaylik. Jomiy ijodi va u yashagan davr falsafiy tafakkuri haqida g'oyat qimmatli asar yaratgan tojik olimi M.Rajabov kitobining birinchi sahifasidayoq "Odnako, tvorchestvo Djami neodnorodno, ono soderejit vnutrennie predpolozheniya", deb yozadi.²⁷¹ Kitobning Jomiyning etik qarashlari mavzusidagi bobida ham shunga o'xshash fikr bayon etiladi:

"Джами верил в возможность и необходимость воспитания в людях благородных качеств, считая человека от природы чистым и непорочным. Однако, его взгляды о нравственном воспитании и самосовершенствовании во многом непоследовательны и противоречивы. Наряду с признанием роли воспитания, мыслитель высказывает сомнение в возможности перевоспитания людей, которые порочны по своей природе".²⁷²

Jomiy ijodida ishq talqini haqida fikr yuritar ekan, olim yana o'z fikrlarida sobit qoladi:

"...характерная для его творчества внутренняя противоречивость проявляется и в этом вопросе. Здес Джами не всегда выступает как суфий, видящий единственной объект любви в божестве. Наряду с призывом к богу, он не забывает о существовании живой земной человеческой любви".²⁷³

Shu tariqa, kitob mazmunidan ayon bo'lishicha, Jomiy ijodi va unga doir tadqiqotlarni chuqur o'rgangan, sharq falsafiy tafakkuri, sufizm, xususan, naqshbandiylik ta'limotini ancha mukammal bilgan va tushuntirib bergan nuqtadon olim o'z ilmiga zid fikrlarni o'zi bayon etadi. Binobarin, ziddiyat Jomiy ijodida emas, olim tadqiqotida aniq ko'zga tashlanadi. Agar bu holatni olim uslubidagi parokandalik deb baholasak, kitob mazmunidan yaqqol namoyon bo'lib turgan yuksak salohiyat bunga yo'l qo'ymaydi. Shu boisdan, biz shunday fikrga keldikki, XX asr o'rtalarida (1968 yil) nashr etilgan ushbu asarda o'sha davr hukmron g'oyaviy mafkurasi talablariga mos bo'lgan fikrlar aytilishi lozim edi. Shuning uchun muallif maxsusan marksizm targ'ibotchilari siyosati rad etmaydigan asar yaratishga harakat qilgan. Buni uning o'zi ham qayd etadi: "Свою работу автор

²⁷¹ Раджабов М. Абдурахмон Джами и таджикская философия XV века. – Душанбе: "Ирфон", 1968. С.3. Tarjiması: Vaholanki, Jomiy ijodi muqim bir mazmunga ega emas, u ichki qarama qarshiliklarga ega.

²⁷² Ko'rsatilgan kitob, 239-bet. Tarjiması: Jomiy insonni tabiatan pok va benuqson yaratilgan deb tushunar ekan, tarbiya vositasida unda yuksak fazilatlarini hosil qilish imkoniyati va zarurati mavjudligiga ishonadi. Vaholanki, uning ma'naviy kamolot xususidagi qarashlari ko'pincha izchillikdan yiroq va qarama-qarshiliklarga ega. Tarbiyaning ahamiyatini qayd etgan holda, mutafakkir tabiatan past, qusurli insonlarni qayta tarbiyalash mumkinligiga shubha bilan qaraydi.

²⁷³ Ko'rsatilgan kitob, 296-bet. Tarjiması: ...uning ijodiga xos bo'lgan ichki qarama-qarshilik bu masalada ham namoyon bo'ladi. Bu erda Jomiy faqat ilohiy ishqqa intilgan so'fiy sifatida ko'zga tashlanmaydi. Ilohiy ishqni targ'ib etar ekan, u dunyoviy insoniy muhabbat bor ekanligini ham esdan chiqarmaydi.

рассматривает как первую попытку исследования с марксистско-ленинских позиций идейного наследия Абдурахмана Джами...”²⁷⁴

Bu soʻzlardan kitob yaratilgan davrdagi haqiqiy holat ayon boʻladi. Oq bilan qora, kun bilan tun, suv bilan tuproq bir-biridan qanchalik uzoq boʻlsa, Jomiy va marksizm tushunchasi ham xuddi shunday mazmun kasb etadi.

Jomiyning mutlaqo marksizm yoʻnalishida tushunib boʻlmaydi. Buning isboti uchun birgina fikr keltiramiz. Hazrati Jomiyning shogirdi Abulvose' Nizomiy oʻz manoqibida shunday deb yozadi: “Agar Alloh taolo har bir davrda insonlarga bir rahnamo yuborsa, XV asr uchun shunday rahnamo aynan Jomiy edi”. Ammo muallif qayd etgan holatlarga munosabat bildirmaslik ham mumkin emas.

Jomiy ijodida ishq talqini haqida soʻzlar ekan, olim haqiqiy ishq va dunyoviy ishqni yonma-yon qoʻyadi va ularni alohida hodisa sifatida tushunadi. Vaholanki, Jomiy oʻz asarlarida, xususan, “Silsilat uz-zahab”da ishqning darajalari haqida mufassal maʼlumot beradi. Shoirning xulosalariga koʻra, shunday oshiqlar borki (ular insonlar orasida juda koʻp), ishqni faqat tashqi goʻzallik orqali his etadilar. Jomiy ishq hosil boʻlishi uchun tashqi goʻzallikning ahamiyatini mutlaqo rad etmaydi. Ammo, uningcha, goʻzallik sababli tugʻilgan ishq muqim emas, abadiy emas. Chunki, inson goʻzalligining oʻzi omonat.

Ikkinchi guruh oshiqlarni shoir “maʼno ahli” deb nomlaydi. Ularni maʼshuqaning tashqi koʻrinishigina qoniqtirmaydi. Ularning muhabbatlari chuqurroq, ichki dunyo, ichki mazmunga asoslangan.

Uchinchi xil oshiqlar esa ichki mohiyat va tashqi goʻzallikni uygʻun holatda koʻrishni istaydilar. Goʻzallik yoʻqolishi bilan ularning muhabbati ham tugaydi. Ular ishqni goʻzallik libosida koʻrishni istaydilar.

Insoniy, dunyoviy ishq, shoirning fikrlariga koʻra ishqning eng past, nomukammal darajasidir.

Ishq, Jomiyga koʻra, oshiq maʼshuqasi vaslidan ham voz kechib, ishq hissiga toʻla gʻarq boʻlsa, erib ketsa, mukammal darajaga etadi. Shu tariqa shoir ishq va oshiqlikning pogʻonalarini tushuntirib beradi.

Alisher Navoiy ham, maʼlumki, “Mahbub ul-qulub” asarida ishqning darajalarini koʻrsatib, avom, xavos va pok ishq haqida maʼlumot beradi. Navoiyning fikrlariga koʻra ham ishqning eng past darajasi avom ishqidir. Ammo, maʼlumki, narvonning paski zinasiga oyoq qoʻymay turib, eng yuqori zinasiga chiqib boʻlmaydi. Dunyoviy ishq haqiqiy ishqqa vosil boʻmoq uchun bir zinadir. Ammo, bu zinadin koʻtarilgan oshiq qaytib yana unga tusha olmaydi. Navoiy “Farhod va Shirin” dostonida aytganidek,

*Ne qushkim, boʻlsa himmatdin qanoti,
Emas past oshiyonga iltifoti.*

Yuqorida soʻz yuritilgan kitob muallifi maʼrifiy oʻsish, dinamikani nazarda tutmagan holda, xalq va Haq ishqini teng koʻradi va ular talqinida Jomiy ijodiyotida sunʼiy ravishda “ikki qarama-qarshilik” yaratadi.

²⁷⁴Koʻrsatilgan kitob, 4-5-betlar. Tarjimasi:Oʻzining ishini muallif Abdurahmonov Jomiy gʻoyaviy merosni markscha-lenincha nuqtai nazardan tadqiq etishning birinchi tajribasi sifatida taqdim etadi.

Ma'naviy tarbiya va inson kamoloti masalalarida ham shoirni "o'z-o'ziga qarama-qarshi chiqish"da ayblar ekan, muallif keltirayotgan misollarini asarning umumiy mazmunidan, mantdan (kontekstdan) uzib olib tahlil etadi. Masalan, shoirning "ixlossiz, malolat bilan, bironing taomiga ta'magirlik bilan ro'za tutgandan ko'ra, xushxulq, halim bo'lib, kishilarga ozor bermagan yaxshi. Agar ro'zadorlik dilozorlik tug'diradigan bo'lsa, unday ro'zadorlikdan ro'zaxo'rlik yaxshi", degan quyidagi fikrlarni mutloqo noto'g'ri sharhlaydi:

*Xuyi xudro zi ro'za tira makun,
K-az ham hilmu burdu bory beh,
Chun shavad ro'za moyai ozor,
Ro'zaxory zi ro'zadory beh.*²⁷⁵

Ya'ni, "Хотя суфии накшбанди и ставили своей задачей неуклонное следование предписаниям религии, заветам Корана и указаниям пророка Мухаммада, но в соблюдении религиозных обрядов они не были ригористами. Об этом свидетельствует хотя бы тот факт, что Абдурахман Джами отрицательно относился к такому религиозному обряду, как пост. Более того, Джами признавал вред поста, говоря, что он подрывает здоровье человека, а поэтому не соблюдают пост лучше, чем блюсти его".²⁷⁶

Bunday misollarni yana keltirish mumkin.

Xuddi shu yillarda (1965 yilda) nashr etilgan E.E.Bertelsning "Наваи и Джами" kitobida ham shoir tabiatidagi "ziddiyat" haqida fikr bor. Ammo, olim "bu ziddiyatmi?", deya o'z-o'ziga savol beradi va mantiqiy fikrlab, to'g'ri xulosani topadi. Jomiyning mansabdorlar eshiklari yonidagi insonlarga nisbatan bo'lgan bepisandlikdan ozor chekib, saroy xizmatiga bormaganligi haqida gapirar ekan, olim shunday yozadi: "Ulug'bekning o'g'li Abdullatif uni Sayyid Ali Hoshim o'rniga saroyga xizmatga tortmoqchi bo'ladi, lekin kech edi: Jomiy o'z ahdini buzishni istamaydi.

G'alati hodisa yuz beradi. Bu mag'rur odam dastlabki bosqichlarda, eng avvalo, itoat va o'z-o'zini kamsitishni, o'z xohish-irodasini pining qo'liga topshirishni talab qiladigan tasavvuf yo'liga kiradi. Bu ziddiyatni qanday jilovlash mumkin? Faqat o'z manfaatlari yo'lida elib-yuguradigan kishilar qarshisida o'zini erga urishni istamaydigan Jomiy bunda o'z e'tiqodiga zid harakatni ko'rmagan".²⁷⁷

Xullas, xolisona olib borilgan ilmiy tadqiqotgina bu masalaga shunday aniq xulosa berishi mumkin: Hazrati Jomiyning na tabiatida, na e'tiqodida, na ilmiy-ijodiy faoliyatida, na g'oyaviy-didaktik, na estetik qarashlarida mutloqo hech

²⁷⁵ Абдурахмони Чомй. Баҳористон. – Душанбе: "Адаб", 1987. С. 40.

²⁷⁶ Radjabov M. Ko'rsatilgan kitob, 159-bet. Tarjimasini: Naqshbandiy so'fiylar din ahkomlari, Qur'oni karim va payg'ambar Muhammad (a) ko'rsatmalariga amal qilishni o'zlarining vazifalari deb bilsalar-da, ularni bajarishda qattiqqo'llik ko'rsatmas edilar. Bunga birgina fakt guvohlik berishi mumkin, ya'ni Abdurahmon Jomiy shariat farzlaridan biri bo'lgan ro'zaga nisbatan salbiy fikrda bo'lgan. Buning ustiga, Jomiy ro'za inson sog'lig'i uchun zararli, uni tutgandan ko'ra, tutmagan yaxshi, degan fikrda bo'lgan.

²⁷⁷ Бертельс Е.Э. Жомий. – Самарқанд: СамДУ, 2010. 9-бет.

qanday ziddiyat bo‘lmagan. Bu benazir inson etuk shaxs sifatida to‘la shakllangan, o‘zining muqim va mustadom g‘oyaviy tamoyillariga ega bo‘lgan qomusiy alloma edi. Agar shunday bo‘lmaganda, u Xurosonday katta bir hududning eng shukuhli davrida yirik ma'naviy murshid, g‘oyaviy rahnamo deb tan olinmagan bo‘lur edi.

Haqiqatan, Jomiy davlat arbobi bo‘lmagani holda, hukumat xizmatiga bormagani holda xalq g‘ami bilan yashardi, xalq foydasiga ish ko‘rar edi, xalq hayoti farovonligini ta'minlashda jonbozlik ko‘rsatardi. Bu vazifani u ikki vosita orqali bag‘oyat katta mahorat bilan bajarar edi. Birinchisi – uning nuktasanj sohir qalami edi. Ikkinchisi esa uning sevimli shogirdi, do‘sti, hamdardi, hamfikri – Xuroson vaziri a'zami Alisher Navoiy edi. Jomiy davlat va xalq xizmatida turgan sevimli shogirdiga yozgan xatlarida doimo xalq manfaatini o‘z manfaatidan ustun qo‘yishni nasihat qiladi. Chunonchi, bir ruq'asida shunday yozadi:

*Çuz in kore mabodat gohu begoh,
Ki dar zilli zalili, davlati shoh.
Xati hazzi xud az dil bartaroshi,
Baroi haq panohi xalq boshi.*²⁷⁸

Inson sharafi, uning ko‘ngli nihoyatda muqaddas, deb ta'lim beradi alloma. Uni hatto shoh ham ranjitmagani ma'qul. Tabiatan yuksak salohiyat egalariga xos bo‘lgan xususiyat – hazil-mutoyibaga, kinoyaga moyil bo‘lgan Jomiy “Bahoriston”da shu mavzuda bir hikoyat keltiradi. Uning mazmuniga ko‘ra, adolati va boshqa ko‘p insoniy fazilatlar bilan tarixda yaxshi nom qoldirgan Anushervon yo Navro‘z yo Mehrjon bayramlaridan birida katta ziyofat hozirlab, mehmon chaqiradi. Bir payt mehmonlardan biri bir oltin qadahni qo‘yniga yashirganini shoh ko‘rib qoladi. Ammo, o‘zini ko‘rmaganga oladi. Ziyofat tugagach, sharbatdor bir oltin qadah yo‘qolganini, hammani tekshirib ko‘rmoqchi ekanligini e'lon qiladi. Shunda shoh aytadi: “Unday qilma, olgan kishi qaytarib berishni xohlamaydi. Ko‘rgan kishi esa birovni xijolat qilib aytmaydi, nammomlik (xabarkashlik) qilmaydi”.

Oradan bir necha kun o‘tgach, haligi shaxs shoh huzuriga kiradi: yangi kiyimlar va yangi etik kiygan edi. Anushervon uning yangi libosiga ishora qilib, “bu o‘shandanmi?”, deydi. Yasangan kishi to‘ni etagini ko‘tarib, “bu ham o‘shandan”, deydi.

Shoh kuladi va tushunadiki, mehmon ehtiyoj zaruratidan shu ishni qilgan va unga yuz misqol oltin berishga farmon beradi.²⁷⁹

Ana shu tariqa buyuk mutafakkir Jomiy inson qadr-qimmatini osmon qadar ko‘taradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Mutafakkir Jomiy ijodiyotini chuqurroq va kengroq o‘rganish zarurati o‘zbek adabiyotshunosligi uchun muhim bo‘lib qolaveradi.

²⁷⁸ Алишер Навоий. Ҳамсатул-мутаҳаййирин. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдик, 15-жилд. – Тошкент: “Фан”, 1999. 31-бет.

²⁷⁹ Абдурахмони Чомий. Баҳористон. – Душанбе: “Адаб”, 1987. С. 47 – 48-бетлар.

Adabiyotlar:

1. Абдурахмони Чомӣ. Баҳористон. – Душанбе: “Адаб”, 1987.
2. Абдурахмон Жомий. Ғазаллар. – Тошкент: “Фан”, 2008.
3. Алишер Навоӣ. Хамсатул-мутаҳаййирин. МАТ.20 жилдик, 15-жилд. – Тошкент: “Фан”, 1999.
4. Абдурахмон Жомий ва Алишер Навоӣ. – Тошкент: “Фан”, 1966.
5. Абдулғанӣ Мирзоев. Алишер Навоӣ ва Абдурахмони Чомӣ. – Душанбе: “Ирфон”, 1968.
6. Азиз Қаюмов. Назм ва тафаккур қуёши. – Тошкент: “Фан”, 1992.
7. Бертелс Е.Э. Жомий. – Самарқанд: СамДУ, 2010.
8. Воҳидов Р. Маънавият оламининг порлоқ қуёши. – Бухоро: 2004.
9. Раджабов М. Абдурахман Джами и таджикская философия XV века. – Душанбе: “Ирфон”, 1968.
10. Салоҳий Д. Мутафаккир ва мумтоз шеърят. – Самарқанд: Имом Бухорий халқаро илмий маркази, 2018.

HOFIZ XORAZMIY VA ALISHER NAVOIY IJODIDA AYRIM URF-ODATLARNING BADIY IFODASI

Mo‘minjon SULAYMONOV

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Gulnoza XOLDOROVA

farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Alisher Navoiy ijodi necha asrlardan buyon nafaqat, turkiy dunyo, balki umumjahon tadqiqotchilarining diqqat markazida turgan masalalardan biridir. Navoiyshunoslik fani yildan yilga yangi yutuqlarni qo‘lga kiritib, bu sohada keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Yangi tadqiqotlar natijasida Alisher Navoiy ijodining keng bir sarhad ekanligi, bu mo‘jizakor badiiy ummonda talqin etilishi shart bo‘lgan yangi qirralar ko‘p ekanligiga amin bo‘lamiz. Mazkur maqolada Navoiy ijodi umumturkiy adabiyot zaminidan oziqlangani, xususan, turkiy adabiyot namoyandalaridan biri Hofiz Xorazmiy ijodining Alisher Navoiy ijodiy tafakkuriga ta’siri masalalari, xususan, mavjud mavzuga munosabat o‘xshashligi to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Kalit so'zlar: navoiyshunoslik, Alisher Navoiy, Hofiz Xorazmiy, umumturkiy adabiyot, an'anaviy obraz, isiriq solish

Abstract. Alisher Navoi's work has been one of the issues that have been in the focus of not only the Turkic world, but also worldwide researchers for several centuries. The science of navigation science has been making new achievements every ear, and extensive work is being carried out in this field. As a result of new research, we are convinced that Alisher Navoi's work is a vast frontier, that there are many new aspects that must be interpreted in this wonderful artistic ocean. This article talks about the fact that Navoi's work was nourished by the national Turkish

literature, in particular, the influence of one of the representatives of Turkish literature, Hafiz Khorezmi, on Alisher Navoi's creative thinking.

Key words: Navoi studies, Alisher Navoi, Hafiz Khorezmi, all-Turkish literature, traditional image.

Ona tilimizning tarixiy takomili, adabiyotimiz rivoji, xalqimiz tarixi, madaniyatini o'rganishda mumtoz shoirlarimizning ijodiy merosi juda katta manbadir. Hofiz Xorazmiy ijodining ayrim xususiyatlarini tatqiq etganimizda ham bunga amin bo'lamiz. Tilga antroposentrik nazariyaning olib kirilishi tilni insonda, insonni tilda tadqiq etish mumkinligini ko'rsatdi. Insonning miyasida, ongida mavjud bo'lgan lison uning ma'naviyatini, shu bilan birga o'zi mansub bo'lgan millatga doir ma'naviy qadriyatlarni, milliy ruhni ham aks ettiradi. Shuning uchun ham tilning qay tarzda amal qilishini til egasi bo'lgan shaxs omili bilan birga ko'rib chiqish zaruratga aylandi.

Lingvokulturologiya tilshunoslik va madaniyatshunoslik kesishgan nuqtada shakllangan til tadqiqining yangi sohasidir.²⁸⁰ Har bir asar yaratilgan davrning til xususiyatlarini, shu bilan birga madaniyatini ham yaqqol aks ettiruvchi oynadir. Hofiz Xorazmiy g'azallarida ham bu jihatni sezish mumkin. Adib asarlarining til xususiyatlari u yashagan davrning ma'naviy qiyofasi haqida ham ma'lumot bera oladi. G'azallarni tadqiq etish orqali Hofiz Xorazmiy davridagi o'zbek tilining tarixiy takomilini, xususiyatlarini, o'ziga xosligini va naqadar boyligini ham ko'ramiz. Shu o'rinda yana bir muhim jihat ko'zga tashlanadi: g'azallarda o'z davri milliy odatlari ham namoyon bo'lganligini ham e'tirof etamiz.

Hofiz Xorazmiy Navoiygacha bo'lgan davrda eng mukammal devon tartib qilgan adiblardan biri bo'lsa-da, Alisher Navoiy bu adib haqida, ijodi to'g'risida hech qanday qaydlar qoldirmagan. Hofizi Xorazmiyning Xorazmda tug'ilib, Sherozda ijod qilganligi uning taqdir bitigi bo'lganidek, Devonining ham Hindistondan topilishi, garchi Atoyi, Gadoiy kabi adiblar bilan bir davrda yashagan bo'lsa-da, o'z davrining nodir manbalari – "Funun ul-balog'a", "Majolis-un-nafois", "Nasoyim ul-muhabbat" da qayd etilmasligi yana-da sirlidir. Bu sirlilik, albatta, yangi tadqiqotlar uchun manba bo'lishiga ishonamiz.

Hofiz Xorazmiy ijodini o'rganish muhim ilmiy-estetik va nazariy ahamiyatga ega, chunki uning adabiy merosi XIV asrning oxiri XV asrning boshlaridagi o'zbek adabiyoti darajasini, mavqeyini belgilashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Hofiz Xorazmiy lirikasini o'rganish katta amaliy ahamiyatga ham ega bo'lib, bularsiz o'sha davr adabiyotini to'la va yaxlit tasavvur qilish mumkin emas.

Asli Xorazm zamini farzandi bo'lsa-da, o'zini mashhur fors-tojik shoiri Hofiz Sheroziyning shogirdi deb hisoblagan va shu sababdan Hofiz taxallusini

²⁸⁰ Usmonova. Sh. Lingvokulturologiya . – Toshkent: "Universitet". 2014, 16-bet

tanlagan bu soʻz sanʼatkori hozirgacha bizga maʼlum boʻlgan va oʻzbek tilida Alisher Navoiyga qadar mukammal devon tartib qilgan shoirdirlardan biridir²⁸¹.

Hofiz Xorazmiy gʻazaliyotida turkiy adabiyotda mavjud va umumiy boʻlgan bir necha anʼanaviy obrazlarga shoirning shaxsiy dunyoqarashi bilan yondashilganligi, badiiy jihatdan boyitilganini ham koʻramiz. Hofiz devonida mavjud 1052 gʻazal shoirning naqadar kuchli badiiy did sohibi ekanligidan darak beradi. Bu esa Navoiyga qadar ham turkiy adabiyotning aslida gullab-yashnaganini, alohida badiiy-estetik hodisa ekanligini dalillovchi jihatdir. Alisher Navoiy ijodi fors adabiyotiga ergashib yoki taqlidan vujudga kelgan hodisa emas, balki Hofiz Xorazmiy kabi buyuk ijodkorlarning maʼnaviy chashmalari bilan aloqadorligi haqiqatga ancha yaqin²⁸². Bu ikki adib dunyoqarashidagi ayrim oʻxshashliklar, sheʼriy sanʼatlarni qoʻllashdagi umumiylik, obrazlarga yondashuvdagi oʻzaro aloqadorlik bizni shu xulosalarimiz sari etaklab borishi, shubhasiz.

Hofiz Xorazmiy va Alisher Navoiy ijodida aks etgan shunday milliy anʼanalar, odatlar tasviri mavjudki, bularni bir zaminda kamol etganlik, har ikki adib ijodining bir qozondan oziqlanganligi kabi omillar bilan izohlashimiz mumkin. Maqolada Alisher Navoiy va Hofiz sheʼriyatidagi ayrim urf-odat va anʼanalarga munosabat ifodalanishidagi oʻziga xosliklar masalasiga toʻxtalib oʻtamiz.

Hofiz Xorazmiy va Alisher Navoiy ijodida uchraydigan isiriq solish urf-odati bilan bogʻliq baytlar tahliliga kirishar ekanmiz, yana ikki adib qarashlarida qandaydir uzviylik borligini anglab etamiz. Garchi biror bir asarida Navoiy Hofiz nomini qayd etmagan boʻlsa-da, bir masalaga bir xil munosbat shakli ular orasidagi mazmuniy aloqadorlik kasb etuvchi oʻxshatishlar, badiiy topilmalar Navoiy Hofiz baytlaridan qaysidir shaklda boxabar boʻlganiga ishora qiladi. Bu borada ayrim taxminlarimiz bor: balki, Navoiy qoʻshiqlar yoki aytimlar orqali Hofiz qoʻllagan poetik tasvirlardan tasvirlangandir. Bu masalaga faqatgina tarix guvoh. Biz bu borada oʻz qarashlarimizni ayrim baytlar izohi bilan dalillashga urindik.

Isiriq solish – odamlar va turli narsalarga goʻyo koʻz tegishini va har xil ofatlarni qaytarish maqsadida isiriq oʻsimligining qurigan shox barglarini tutatish. Ilgari isiriq solish irim qatoridagi odat boʻlgan. Isiriq xokandoz yoki sopol tovoqda choʻgʻ ustiga qoʻyib tutatiladi, uy ichi, odamlar, isiriq solishga moʻljallangan narsalar tutun bilan dudlanadi. Avvallari isiriqda ilohiy bir quvvat bor, deb eʼtiqod

²⁸¹ Bu haqida qarang: Сулаймонов М. Ҳофиз Хоразмий ва ўзбек лирик шеърятининг ривожини: Филол. фан. ном.дисс... автореф. – Тошкент: 1996. – 26 б.

²⁸²Сулаймонов.М. Темурийлар даври Шерозда туркий шеърят (инглизча). НамДУ Илмий ахборотномаси, 2021, 3- сон, 337-341-бет. Яна: Сулаймонов.М.. Развитие доброй традиции. Звезда Востока. 2021.№ 1. Стр. 60-62. Яна: Сулаймонов.М. Ҳофиз Шерозий ва Ҳофиз Хоразмий: адабий алоқалар талқини.// Содружество языков – содружество культур. Международный сборник научных статей. Совместный проект Наманганского государственного университета и Российского государственного педагогического университета им. А.И. Герцина. Выпуск седмой. – Наманган: 2021. Стр. 251-256

qilishgan, isiriq tabarruk o‘simlik hisoblangan. Aslida esa isiriq tutunida har xil mikroba va viruslarni zararsizlantiradigan moddalar bor.²⁸³

Hofiz va Navoiy baytlarini o‘qir ekanmiz, bu odat XV asrda ham mavjud ekanligiga guvoh bo‘ldik. Hofiz Xorazmiy devonidagi ettita g‘azalda isiriq bilan bog‘liq qo‘llangan baytlarni uchratdik. Shoir isiriq so‘zining sipand, ispanid shakllarida ishlatgan. Ispanid, sipand, bu tojikcha so‘z bo‘lib, filologiya fanlari doktori Sultonmurod Olimning ta’kidlashicha, kelib chiqishi "hazor asp band", ya’ni ming otni (ot – ko‘chma, dev, nafs ma’nosida) bog‘laydi, shuning uchun o‘tga solinar ekan²⁸⁴. Vaqt o‘tib, "hazor asp band" birikmasi o‘zgarishga uchragan va hazor so‘zi tushib qolgan, asp band esa ispanid, sipand bo‘lib qolgan. Avvalo, bu maqolamizda isiriqning ko‘z tegishdan asrovchi vosita ekanligiga e’tibor qaratganmiz. Isiriqning ko‘chma ma’nodagi "nafsnig bog‘lashi" bilan bog‘liq ma’nosi tahlilga tortayotgan baytlarimizni tasavvufiy jihatdan ham tahlil qilish mumkinligini ko‘rsatdi. Bu haqida, albatta, keyingi maqolalarimizda to‘xtalib o‘tamiz.

Yoshlar orasida "xit" darajasiga ko‘tarilgan, ijtimoiy tarmoqlarni tom ma’nodagi "portlatib" yuborgan mashhur bir qo‘shiq matni Hofiz Xorazmiy qalamiga mansub bo‘lib, aynan sipand shaklini qo‘llanganini kuzatiladi.

*Yuzi ustindagi ul donayi xol,
Yonar o‘t uzra erur chun sipande.*²⁸⁵

Hofiz g‘azallarida spand alohida poetik tasvir sifatida qo‘llanganligini va darajama-daraja quyuqlashtirilib, badiiy joziba yaratganini ham alohida ta’kidlash o‘rinlidir.

*Ko‘z tegmasun ul oy bikin yuzina tey-u,
O‘t ustida xol sipahi bo‘ldi sipandi.*²⁸⁶

Ya’ni ul oy yuzlining yuziga ko‘z tegmasin deb, olov ustida xol lashkarlari isiriq soldi shaklidagi poetik tasvir chindan ham juda esda qolarli chiqqan.

*Yuzi ustindagi ul donayi xolin savadur,
Otashi ishqig bila kuygali jonnm chu sipand.*²⁸⁷

Mazkur baytlarda ham xol, otash, isiriq tasvirlari yonma-yon qo‘llanib badiiy joziba hosil qilgan.

*Tegmasun bir yomon ko‘zi yuzina tey-u, Hofizo,
Hasrat o‘ting‘a jon bila ko‘ngul o‘zin sipand etar.*²⁸⁸

Ko‘z tegmaslik uchun isiriq solish haqidagi tasvir mazkur baytda yana-da quyuqroq ifoda etilgan. Avvalgi baytlardagi ma’no tadrijan kuchaytirilgandek fikr tug‘diradi kitobxonda. Misol sifatida keltirilgan birinchi baytda xol sipahi spand bo‘lgan edi. Keyingi baytda esa ishq otashi bilan kuyish uchun jon spand sifatida

²⁸³ Wikipedia.uz

²⁸⁴ Bu ma’lumotni ustoz Sultonmurod Olimov biz bilan bo‘lgan suhbatda aytib bergan edilar.

²⁸⁵ Ҳофиз Хоразмий. Девон. 2-китоб. – Т.: ЎзКПМК, 1981. – 172 б.

²⁸⁶ Ҳофиз Хоразмий. Девон. 2-китоб. – Т.: ЎзКПМК, 1981. 243-б.

²⁸⁷ Ҳофиз Хоразмий. Девон. 1-китоб. – Т.: ЎзКПМК, 1981. 87-б.

²⁸⁸ Ҳофиз Хоразмий. Девон. 1-китоб. – Т.: ЎзКПМК, 1981. 145-б.

tasvirlandi. Uchinchi baytda esa ishq otashi tasviri yana-da kuchaytirilib, Hasrat o'ti uchun jon va ko'ngil o'zini spand etar tarzida ifodalanmoqda.

“Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati”da ispannd so'zi “Ispannd – isirig” deya izohlangan va misol tariqasida “Saddi Iskandariy” dostonidagi

“Ne soat ki yuzlansa, komu murod,

*Sochib o'tqa ispannd, o'qung “in yakod”*²⁸⁹ bayti keltirilgan.

Navoiy ijodining haqiqiy ixlosmandlaridan biri filologiya fanlari doktori professor Sul-tonmurod Olimning tabdilicha, “Biron murod-maq-sadingizga etsangiz, ko'z tegmasin uchun “in yakod” duosini o'qing”. In yakod – ko'z tegmasligi uchun o'qiladigan duoning boshlanishi.

Alisher Navoiyning yana bir mashhur g'azalida sipand so'zi bilan bog'liq tasvirni uchratamiz.

Ul oy o'tlug' yuzin ochsa, Navoiy tegmasun, deb ko'z

*Muhabbat tuxmidin o'zga ul o't uzra sipand etmas.*²⁹⁰

Aslida, bu baytda bir necha istioralarning ketma-ket qo'llanganini kuzatishimiz mumkin: “oy”, “muhabbat tuxmi”, “o't” so'zlari shu vazifani bajarib kelgan. Oy – yuzi oyga o'xshaydigan yor timsoli. Faqat o'xshatish qo'shimchalari bo'lmagani uchun u dabdurustdan tushunilmasligi mumkin. Ammo “oy”ning osmon jismi emas, balki insonni, alohida shaxsni anglatib kelayotgani sezilib turibdi. Shuning uchun adabiyotshunoslar istiorani qisqartirilgan o'xshatish deb ham aytishadi. “Muhabbat tuxmi” “muhabbat” degan abstrakt ot bilan “tuxum” (“urug' donasi”) konkret otining birikuvidan hosil bo'lgan. U insondagi nozik va qadrli bir tuyg'uni anglatib turibdi. Ammo shu holatida u “ishq” yoki “muhabbat” so'zlariga qaraganda yoqimliroq va go'zalroqdir. “O't” bu erda “olov” so'zi bilan sinonim tarzda qo'llanmoqda. Uning asosiy vazifasi ma'shuqa yuzidagi rangni ko'rsatishdan iborat. Bu “olov rangi”dir. Yuzdagi qizillikning mana shu tarzda ifodasi go'zallikning ham o'ziga xos ifodasi sifatida ko'zga tashlanadi

Mazkur baytda ham Hofiz Xorazmiy baytlari bilan mazmuniy aloqadorlik bor. Hofiz g'azalida ham oy yuzli go'zal tasviri mavjud, Navoiy esa uni yana-da takomillashtirib yuz timsoliga o'tlug' sifatini ham qo'shadiki, biz buni Hofiz baytlarida alohida-alohida g'azallar tarkibida uchratdik.

E'tiborlisi, Hofiz Xorazmiy ijodida ham, Alisher Navoiy ijodida ham xalq udumlariga bir xil munosabat aks etganligi va shu davr ijodkorlarining qarashlarida bu holatning aks etmaganligidadir.

Alisher Navoiygacha turkiy tilda ijod qilgan shoirlar: mavlono Atoyi, mavlono Gadoyi, mavlono Lutfiy va boshqa ijodkorlarning lirik merosida sipand yoki ispannd so'zining qo'llanganligi va isiriq solish bilan bog'liq odat haqidagi baytlarni, shuningdek, bunga ishoralarni ham uchratmadik. Aynan, mana shu holat, oldingi maqollarimizda ta'kidlaganimizdek, Navoiy hazratlari bivosita bo'lmasa

²⁸⁹ Алишер Навоий асарларининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Тошкент: Фан. 52-бет.

²⁹⁰ www.ziyouz.com kutubxonasi

ham bevosita Hofiz Xorazmiy ijodidan xabardor bo‘lganlar, degan taxminlarimizni tasdiqlovchi dalilday taassurot qoldirdi²⁹¹.

Yuqorida ko‘rib o‘tganlarimiz asnosida shunday xulosani aytish maqsadga muvofiqki, Hazrat Navoiy ham Hofiz Xorazmiy ham o‘z asarlarida tarbiyaviy ahamiyatni, ta’sirchanlikni va badiiylikni ta’minlash maqsadida xalq mulkidan mahorat bilan foydalangan va baytlarning badiiy barkamolligiga erishgan. Bu esa bu ikki adibning badiiy adabiyotni odob, ma’rifat ulashuvchi vosita deb tushunishlaridan, adabiyotga munosabatlari umumiyligidan, deb baholash o‘rinli. Chunki haqiqiy so‘z san’ati insoniyatga faqat ezgulik ulashishdan, muqaddas qadriyatlarni shakllantirishdan iboratdir.

Adabiyotlar:

1. Алишер Навоий асарларининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Тошкент: Фан. 52-бет.
2. Сулаймонов М. Ҳофиз Хоразмий ва ўзбек лирик шеърятининг ривожини: Филол. фан. ном.дисс... автореф. – Тошкент: 1996. – 26 бет
3. Сулаймонов.М. Алишер Навоий ва Ҳофиз Хоразмий. // Алишер Навоий ижодий меросининг умумбашарият маънавий-маърифий тараққиётидаги ўрни. Халқаро илмий конференция материаллари. Навоий. 2017. 117-120-бетлар.
4. Сулаймонов.М. Барҳаёт анъаналар ва издошлик. // Ўзбек тили ва адабиёти. Жур. 2017. 1-сон
5. Сулаймонов.М. Темурийлар даври Шерозда туркий шеърят (инглизча). НамДУ Илмий ахборотномаси, 2021, 3-сон, 337-341-бет.
6. Сулаймонов.М.. Развитие доброй традиции. Звезда Востока. 2021.№ 1. Стр. 60-62.
7. Сулаймонов.М. Ҳофиз Шерозий ва Ҳофиз Хоразмий: адабий алоқалар талқини.// Содружество языков – содружество культур. Международный сборник научных статей. Совместный проект Наманганского государственного университета и Российского государственного педагогического университета им. А.И. Герцина. Выпуск седмой. – Наманган: 2021. Стр. 251-256
8. Усмонова. Ш. Лингвокултурология . – Тошкент: “Университет”. 2014, 16-бет
9. Википедиа.уз
10. Ҳофиз Хоразмий. Девон. 2 томлик. 1-китоб. -Т.: ЎзКПМК, 1981. - 304 б.
11. Ҳофиз Хоразмий. Девон. 2 томлик. 2-китоб. -Т.: ЎзКПМК, 1981. - 312 б

²⁹¹Сулаймонов.М. Алишер Навоий ва Ҳофиз Хоразмий. // Алишер Навоий ижодий меросининг умумбашарият маънавий-маърифий тараққиётидаги ўрни. Халқаро илмий конференция материаллари. Навоий. 2017. 117-120-бетлар. Сулаймонов.М. Барҳаёт анъаналар ва издошлик. // Ўзбек тили ва адабиёти. Жур. 2017. 1-сон.

HAJVIY SHE'RIYATDA HAYVONLAR NOMI BILAN BOG'LIQ POETIK TURKUMLAR TALQINI

(Milliy uyg'onish davri Farg'ona vodiysi hajviy she'rlari misolida)

Ibodatxon RUSTAMOVA

*Farg'ona davlat universiteti filologiya fanlari doktori
adabiyotshunoslik kafedراسi professori*

Oybek BARZIYEV

*Farg'ona davlat universiteti dotsenti
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)*

Annotatsiyan. Maqolada milliy uyg'onish davri Farg'ona vodiysi shoirlari: Muntazir, Sulaymon Mirzamahmud o'g'li Oshiq, Mulla Yo'ldosh o'g'li qalamiga mansub bo'lgan ayrim hajviy she'rlar tahlilga tortilgan. Ularning she'riyatida asosiy obraz sifatida tasvirlangan ot va eshak haqidagi o'ziga xos poetik turkumlilik mavlono Muqimiy va Zavqiy ijodidan adabiy ta'sirlanish ekanligi xususida ilmiy mushohadalar yuritilgan. Davr muhitida hukumat tepasida turgan diniy ulamolarning xulq-atvori va faoliyatini yoritishda bu kabi hayvonlarning tutgan o'rni hamda ahamiyati haqida umumlashma fikrlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: hajv, hajviya janri, hajvgo'ylik, ot hajvi, ustoz va shogird munosabatlari, eshak obraziga yuklangan hajvlar, diniy ulamolar tanqidi, Mirzoabdulqodirboy obrazi, realistik qahramonlar laqablari, saylov jarayonidagi holatlar, qozilar obrazi.

Annotation. The article analyzes some humorous poems written by poets of the Fergana Valley during the period of national revival: Muntazir, the son of Suleiman Mirzamaxmud Ashik, the son of Mullah Yuldosh. Scientific observayions have been made that the unique poetic series about the horse and the donkey, which is the main image in their poetry, is the literary influence of the works of Maulana Mukimi and Zavki. General opinions about the role and significance of such animals in illuminating the behavior and activities of religious scientists who stood at the pinnacle of power in the environment of that period are outlined.

Key words: humor, humorous genre, humorism, horse humor, teacher-student relationships, donkey jokes, criticism of theologians, the image of Mizoabdulkadirboy, nicknames of realistic heroes, situations in the electoral process, the image of judges.

Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti Farg'ona vodiysi she'riyatida hajviya janrida ijod qilish an'anasi shoir va xattot mavlono Muqimiy hamda o'tkir hajvgo'y Zavqiy ijodida avj pallasiga ko'tarilgan bo'lsa, ulardan keyin bir qancha ijodkorlar ham ushbu janrda ulkan muvafaqqiyatlarga erishdi. Professor D.Quronov rahbarligida chop etilgan adabiyotshunoslikka oid lug'atda hajviya

soʻzining asos (oʻzagi) haqida hajv (ar. **حجو** – ustidan kulmoq) biror shaxsni tanqid qilish, ayovsiz qoralash, kamchiliklarini sanab, ayblash maqsadida yaratiluvchi asar adabiy janr. Avval arab sheʼriyatida keng tarqalgan H.larda raqibni qoralash, sharmanda qilish uchun yolgʻon uydirmalar toʻqish, ijtimoiy nuqsonlarni yuzga solish, hatto, uyatsiz soʻzlarni ishlatish ham odatiy boʻlib, baʼzan H.ning haqorat va tuhmatga aylanib ketish hollari uchragan. Mutaxassislar hajvning satiradan farqi sifatida konkret shaxsga qaratilganligini koʻrsatadilar, yaʼni hajvchining maqsadi ijtimoiy hayotdagi muayyan holatni badiiy umumlashtirib, gʻoyaviy inkor qilish emas. Biroq bu fikrni mutlaqlashtirish ham toʻgʻri boʻlmaydi²⁹² tarzidagi izohlari qayd etilgan. Olimning fikrlaridan kelib chiqib mazkur tadqiqotda davr sheʼriyatidagi hajviyalar muayyan diniy mansab egalarining hajv qilishga qaratilganligi, hatto, ularda uyatsiz va haqoratli soʻzlardan ham badiiy maqsad yoʻlida foydalanilganini alohida eslatish joiz.

Oʻtmishdan hajvchi ijodkorlarni hajvgoʻy shoir deb atash odat tusiga aylanib kelgan. “Hajvgoʻy” atamasi arabcha **حجو ارا** – “hajvoro” – “hajv qiluvchi, masxara qilish²⁹³” soʻzlaridan olingan.

Davr sheʼriyatida ham hajviy asarlarning asosiy obrazi sifatida uchrovchi oʻz davrida tijorat sohasida “pixini yorgan” Viktor (xalq orasida Bektur) va Laxtinlar bir qator diniy ulamolar: qozi, eshon, xalifa, imom kabilar, mahalliy amaldorlar: ellikboshi, yuzboshi, mingboshi, amin, qoʻrboshilar asosiy obraz sifatida uchrasa, hayvon yoki parranda, hasharot nomlari, shu bilan birga kichik-kichik detallar bu janrning oʻziga xos timsollari boʻlib kelgan.

Filologiya fanlari doktori D.Abdullaeva oʻz tadqiqotida “Kundalik hayotda uchrab turadigan kamchiliklar shoirlardan Muqimiy, Zavqiy, Kamiy, Sidqiy kabilarni toʻqinlantirgan va ular bir necha mavzularda yumorlar yaratganlar. Muqimiy ijodida “Ot”, “Bu otingiz”, “Hajvi Ot”, “Otim”, “Dar sifati asbi toji tilgrofchi, ba tariqi hajv Muqimiy guftaast”, “Uloqchilar” singari yumorlar mavjud boʻlib, ularda nafaqat hayvonning tasviri beriladi, balki oʻsha davr ijtimoiy hayotidagi nuqsonlar ham ishora qilinadi²⁹⁴ tarzidagi fikrlari tahlil uchun muayyan vazifalarni oʻtaydi.

Muqimiy va Zavqiy ijodlarida keng qoʻllangan hayvon va parranda nomlaridan foydalanish usuli keyingi davr vodiy shoirlari ijodida ham mantiqan davom etdi. Ularning hajviy asarlariga bir qator hayvon obrazlari: it, eshak, sigir, tuya hamda hashoratlar: pashsha, chivin, burga, bit kabi insoniyatga doim zarar keltiradigan obrazlar qoʻshildi. Natijada hajviya janrining imkoniyati va obrazlar soni hamda salmogʻi ortib bordi. Davr sheʼriyatining hajviy asarlarida Soʻfizoda, Pisandiy, Oraziy, Nodim Namongoniy, Gʻurbatiy, Xilvatiy, Oshiq, Xojajon Xoja Rojjiy, Muntazir kabilarning ijodida yangicha yoʻnalishda davom etdi. Masalan, Qoʻqon adabiy muhitining vakili Muntazir (1831-1903) Muqimiy ijodida koʻplab uchrovchi obraz ot bilan bogʻliq boʻlgan 18 bandli “Ot hajvi” nomli muxammas

²⁹² Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lugʻati. – Toshkent: Akademnashr, 2020.- B.389.

²⁹³ Navoiy asarlari uchun qisqacha lugʻat / Tuzuvchi: Hasanov B. – Toshkent: Fan, 1993. - B.352.

²⁹⁴ Abdullayeva D. Oʻzbek adabiyotida anʼanaviy poetik turkumlar (XIX asr II yarmi va XX asr boshlari) – Andijon: “Hayot” nashriyoti, 2012. - B.45.

yaratgan. O'ziga xos yumoristik mazmuni ifodalagan muxammasda otning bir qator sifatlari va u bilan bog'liq holda yuz bergan ko'ngilsiz voqeliklar bayon qilinadi:

*Yemu o't bersam, egay tufrog'iyu toshi bila,
Qorni to'ysa, suvga imo aylagay qoshi bila,
Yo'lga kirsam, suv ichib burni oqar yoshi bila,
Bir qadam qo'ysa agar, munkib ketar boshi bila,
Men ham andin yiqilib, beg'oyat o'lgay kulfatim*²⁹⁵.

Muxammasda ot hayvoni majoziy ma'noda qo'llangan bo'lib, u shoirning hayotida yuz bergan real voqelikni yodga soladi. Ya'ni Qo'qon xoni Xudoyorxon 1865-yili ikkinchi marta taxtni egallaganida o'z o'g'li Nasriddinbekni Andijon hokimi qilib tayinlaydi. Taxt egasi Nasriddinbek bir kun g'azal yozib uni ustozini Muntazirga ko'rsatganida, shoir tomonidan g'azalning kamchiliklari aytilib tanqid qilinganda hukmdor bundan qattiq ranjiydi va natijada o'z ustozini yomon ko'rib qoladi. Oraga sovuqchilik tushish munosabatini ifodalagan ushbu voqelikka asos bo'lgan muxammas aynan Nasriddinbekka atab yozilganligidan guvohlik beradi. Muxammasning oxirgi bandi esa shoir ruhiyatini va bo'lib o'tgan voqelikdan arz qilib yozilganligi haqidagi fikrimizga yanada oydinlik kiritadi:

*Muntazir, ummid qilg'il nur ulillohdin,
Ya'ni, ul shahzoda g'am qadri oliy johdin,
O'tkazur lutf aylabon boshingni avji mohdin,
Baski, aqlim qoldi rahbarlik ila bu rohdin,
Zohir o'ldi bu sifat, arz aylamak jur'atim.*

Muqimiy ijodida uchrovchi bir qator yumoristik asarlarda davr muammolariga murojaat qilish, ularga keskin tanqid ko'zi bilan qarash motivlari ustuvor sanaladi.

Adabiyotshunos olim A.Abdug'afurov satirik yo'nalishda bitilgan lirik asarlar xususida to'xtalib, birinchi satirik muxammas shoir Maxmur ijodida uchrashini ta'kidlaydi. U "Maxmur, Muqimiy, Zavqiy ijodida bir tema, bir satirik obyekt haqida satirik asarlar siklining yaratilishi ham o'zbek adabiyoti satirasi tarixida yangilik bo'ldi"²⁹⁶, deya bu yo'nalishga alohida urg'u beradi. Olim achchiq, zaharxanda kulgi etakchilik qiladigan satirik asarlardagi asosiy obrazlar haqida yozgan holda "Shoh, xon, hokim, beklar o'rnini Muqimiy, Zavqiy, Hamzalarning satirik asarlarida kapitalistlar va "maskovchi boylar", fabrikantlar va gumashtalar, firibgarlar, "bekturlar" va chor chinovniklar, medintsiskiylar egalladi", deb ta'rif beradi.

Hajviy asarlarda ot obrazidan tashqari eshak obraziga murojaat qilish an'anasi ham davr she'riyatida o'ziga xos ahamiyatga ega. Ma'lumki, mumtoz adabiyot tarixidan eshak kaltafahmlikda va farosatda noqis jonzot sifatida tanqid qilinib kelgan. Davr she'riyatida uni muayyan hukumat rahbarlariga qiyoslash,

²⁹⁵ Ko'hna sadolar (Manzur, Ojiz, Muntazir, Bimiy, Muhib, Pirimqori, Hofiz, Mushtoq, Mavjiy) / To'plab, nashrga tayyorlovchi: Madg'oziyev I, prof. Quronov Dning umumiy tahriri ostida.- Toshkent: Akademnashr, 2020.- B.70.

²⁹⁶ Abdug'afurov A. Navoiy ijodida satira. – Toshkent: Fan, 1972. - B.239.

ularning ko‘r-ko‘rona olib borgan siyosatlarini ochib berish orqali ushbu obrazdan unumli foydalanganlar.

Asli Qirg‘iziston respublikasining O‘sh shahridan bo‘lgan Sulaymon Mirzamahmud o‘g‘li Oshiq balog‘at yoshiga etgach, bilimni oshirish va badiiy ijodini kuchaytirish niyatida Qo‘qon adabiy muhitiga kelib qo‘shiladi. Shoir u erda Muqimiy, Furqat, Zavqiylar bilan yaqindan tanishib ular bilan adabiy aloqada bo‘ladi. Manbalarda qayd etilishicha, shoir Qo‘qondagi madrasani tamomlagach, O‘sh qozixonasida uzoq vaqtlar mobaynida qonunshunos vazifasida faoliyat yuritadi. U bu zimmasiga yuklangan vazifasida turli haqsizliklar, adolatsizliklarni o‘z ko‘zi bilan ko‘radi. Mahalliy amaldorlar va sudxo‘rlarni insofga chaqirishga bir necha marta harakat qiladi. Lekin bu harakatlaridan hech qanday naf yo‘qligini chuqur anglab etgach, “Qozilar” nomli hajviyasini yozadi. “Hajviyadan talvasaga tushgan amaldorlar Oshiqni aqldan ozgan tuhmatchi sifatida ayblab, uni qamashga ulgurдилar. U rosa 84 kun avoqtada yotgandan so‘ng tez-tez ko‘tarilib turgan xalq noroziligidan cho‘chigan mansabdorlar uni ozod qilishga majbur bo‘ldi²⁹⁷”.

Oshiqning 1914 yilda yozilgan “Eshagim” radifli hajviyasi ham undan avval ushbu obrazga murojaat qilgan Muqimiy, Zavqiy uslubini yodga soladi. Shoir hajviyasida bir qator o‘z davrining diniy ulamolarini qattiq tanqid ostiga oladi. Hajviyaning so‘nggi baytlarida bir qator realistik qahramonlarining nomlari laqablari bilan keltirilgani holda ularning olib borgan noma‘qul ishlari fosh etiladi. Shu bilan birga To‘lqinboy obrazini eshakka do‘st sifatida talqin etadi:

*Do‘sting To‘lqinboy kisabur, mufti Nurmat pildiroq,
Maskani emdi alarning dorilqazoda eshagim.*

*Eshagimning oti erdi Mirzaabdulqodiriy,
Mirzolik qilguvchi har daloda eshagim.*

Yuqoridagi baytlar haqida to‘xtalgan adabiyotshunos Nabi Qobulov Mirzoabdulqodirboy obraziga ta‘rif berib yozadi: “...qozixonada qozining o‘ng qo‘li bo‘lib, mirzolik, jarchilik, noiblik lavozimlarini bajaruvchi, xalqni talashda nom chiqargan Mirzoabdullo Qodir o‘g‘li fosh etilgan, qozigina emas, mingboshi, ellikboshi kabi bir qator zolimlarning ham sirlari ochib tashlangan. Abdulloning jarchilik qilib baqirishi eshakning ovozigina qiyos qilingan²⁹⁸”

Hajviyaning keyingi satrlarida yana bir qator tarixiy shaxslar nomi keltiriladi. Shu bilan birga marg‘ilonlik mashhur shoir va qozi Xo‘jajon nomi keltiriladiki, unga noib, ya‘ni o‘rinbosar bo‘lib olgan kishilarning g‘ino (ar. boylik va molparastlik) da tengi yo‘q kishilar sifatida tanqid qilinadi:

*Mulla Qudrat mingboshining padarxoni erdi u,
Shermat hoji, Mulla Nusratga tog‘ada eshagim.*

*Xo‘jajon qoziga noib surdi davron ul bilan,
El ichida misli yo‘q erdi g‘inoda eshagim.*

297 Qobulov N., Dolimov U. Erk va ma‘rifat kuychilari (filolog-studentlar uchun qo‘lanma)-Toshkent, 1979. - B.22.

298 Qobulov N. Andijonlik taraqqiyparvar shoirlar. – Toshkent: Fan, 1979.- B.24.

O‘z davrida hukumat vakillaridan bo‘lgan qozilarni tanqid qilishga qaratilgan yana bir hajviy asar muallifi namanganlik shoir Mulla Yo‘ldosh o‘g‘li Xilvatiy ijodida ham Oshiq murojaat qilgan mavzu etakchilik qiladi. Shoir hajviyasini saylov arafasi qozilarning qay ahvolga tushganligi, bu g‘amdan yoqalarini ushlab ahvollari tang holda qolganliklari haqidagi voqeliklar bilan boshlaydi:

*Keldi saylov, bo‘ldilar zoru parishon qozilar,
Ushbu g‘amdin chok qildilar giribon qozilar.*

*Qoldilar bechoralar ravnaqlaridin ayrilib,
Erdilar sohib tarovat chun guliston qozilar²⁹⁹.*

Shoir hajviyasida ham Muqimiy, Zavqiy, Muntazirlar ijodida qo‘llangan ot obrazi uchraydi. Hajviyada saylov munosabati bilan qozilarning qo‘llaridan davlat qushi uchub, ildam yurishlari ham susayib, endi Xudoning hukmiga hayron bo‘lganligini yoritiladi:

*Emdi ot ustida ohista o‘tarlar, ilgari,
Po‘shkada ildam o‘tardilar shitobon qozilar.*

*Qo‘llaridin bir nafasda uchdi davlat qushlari,
Bo‘ldilar hukmi Xudovandiga hayron qozilar.*

Xulosa qilib aytganda, milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotining hajviy she‘rlarida ayrim hayvonlar nomi bilan bog‘liq holda bitilgan hajviy she‘rlar orqali diniy ulamolar qattiq tanqid ostiga olindi. Ularning oddiy xalq ustidan yurgizayotgan ko‘r-ko‘rona siyosati va faoliyatidan bezigan aholining dardli nolalarini davr ijodkorlari ot va eshak nomi orqali ochib berishga harakat qildilar. Natijada bu davr hajviy asarlarida mazkur nom ostida birlashib turuvchi o‘ziga xos an’anaviy poetik turkumlilik vujudga keldi.

Adabiyotlar:

1. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2020.
2. Навоий асарлари учун қисқача луғат / Тузувчи: Ҳасанов Б. – Тошкент: Фан, 1993.
3. Абдуллаева Д. Ўзбек адабиётида анъанавий поетик туркумлар (XIX аср ИИ ярми ва XX аср бошлари) – Андижон: “Ҳаёт” нашриёти, 2012.
4. Кўҳна садолар (Манзур, Ожиз, Мунтазир, Бимий, Муҳиб, Пиримқори, Ҳофиз, Муштоқ, Мавжий) / Тўплаб, нашрга тайёрловчи: Мадғозийев И, проф. Куронов Днинг умумий таҳрири остида.- Тошкент: Академнашр, 2020.
5. Абдуғафуров А. Навоий ижодида сатира. – Тошкент: Фан, 1972.
6. Қобулов Н., Долимов У. Эрк ва маърифат куйчилари (филолог-студентлар учун қўланма)- Тошкент, 1979.

²⁹⁹Mulla Yo‘ldosh o‘g‘li Xilvatiy. Devon / Tadqiq qiluvchi, eski o‘zbek arab yozuvidan nashrga tayyorlovchi va izohlarni tuzuvchi: Ismatulloh Abdulloh. – Toshkent: Fan, 2001. - B.461.

7. Қобулов Н. Андижонлик тараққийпарвар шоирлар. – Тошкент: Фан, 1979.

8. Мулла Йўлдош ўғли Хилватий. Девон / Тадқиқ қилувчи, эски ўзбек араб ёзувидан нашрга тайёрловчи ва изоҳларни тузувчи: Исматуллоҳ Абдуллоҳ. – Тошкент: Фан, 2001.

“GULSHANUL –ASROR”DA HAZRAT ALI VA SULTON ISKANADAR MADHI

Jamoliddin JO‘RAYEV

*Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti,
filologiya fanlar nomzodi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIV asrning oxiri – XV asrning boshlarida yashab, Sherozda Iskandar Mizro hokimligi davrida ijod qilgan shoir Haydar Xorazmiyning madhlari haqida. Shoirning “Gulshan ul-asror” asarida yigirmadan ziyod turli mavzulardagi hikoyatlar mavjud. Shular bilan birga xalifa Aliga va sulton Iskandarga atalgan madhiyalari ham o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: sulton, madh, shoir, manba, ijtimoyi, iqtisodiy, temuriyzodalar, adabiy, muhit, ijodkor.

Annotatsion. This article is about the hymns of Haydar Khorazmi, a poet who lived in Shiraz at the end of the 14th - beginning of the 15th century and created during the reign of Iskandar Mizro. The poet's work "Gulshan ul-asrar" contains more than twenty stories on different topics. Along with these, there are hymns dedicated to Caliph Ali and Sultan Iskandar.

Key words: sultan, madh, poet, source, social, economic, Timurids, literary, environment, creator.

Haydar Xorazmiyning shaxsiyati, tug‘ilgan va vafoti sanasiga oid qaydlar manbalarda uchramaydi. Asarlaridan namuna va shaxsiyatiga oid berilgan ma’lumotlarda shoirning oti Mavlono Abdul Haydar Xorazmiy, Mavlono Haydar turkigo‘y, Mir Haydar va Haydar Xorazmiy shaklida qayd qilingan. Ijodiga oid qaydlarga ko‘ra, XIV asrning birinchi yarmi – XV asr boshlarida yashab ijod qilgan deyish mumkin. Undan bizgacha “Maxzan ul-asror” vaznidagi “Gulshan ul-asror”, “Xisrav va Shirin” vaznida bitilgan “Gul va Navro‘z”, payg‘ambarimizning me’rojga chiqqan voqeasi haqidagi “Me’rojnoma” va Mirzo Ulug‘bekka atab yozilgan bir qasidasi bizgacha etib kelgan.

Haydar Xorazmiy Amir Temurning nabirasi Sulton Iskandar mirzo ibn Umarshayx Forsning viloyatidagi hokimligi davrida Sherozda ijod bilan mashg‘ul bo‘lgan³⁰⁰. Ma’lumki, Amir Temur 1392-1393-yillarda o‘zining ikkinchi o‘g‘li Umarshayxga Fors o‘lkasini zabt etish ishiga mutasaddi qilib tayinlaydi.

³⁰⁰ Бартольд В. В. Сочинения. II томъ 2 часть. –Москва: Наука, 1964. – С.368.

Binobarin, u Istaxr, Farak, Shahriyor va shunga o'xshash bir necha qal'alarni zabt etadi. Umarshayx Mirzo Sherozda Hartomu deb nomlangan zabt etish uchun qal'ani yaqinroq tomosho qilaman deb bir tepalik ustiga chiqib, qal'a tomon nazar tashlaydi shu zahoti nogohoniy otilgan o'q unga tegadi va u vafot etadi.

1400-yilda sohibqiron Amir Temur Forsda hukmron bo'lib turgan nabirasi Pir Muhammad Mirzo (Umarshayx Mirzoning katta o'g'li) Sheroziy sohibqironning yurishlaridan birida o'zini kasallikka solib qatnashmagani sababli uni hokimlik mansabidan olinib, 1403 yilda qaytarib beradi.

1405-yilda Amir Temur Iskandar Mirzoni Hamadonga hokim etib tayinlaydi. 1410-yilda Pir Muhammad Mirzo Sheroziy vafotidan keyin 1410-yilda Iskandar Mirzo akasining vorisi sifatida uning o'rniga Fors viloyatining hokimi bo'ladi.

Iskandar Mirzo akasi Rustam Mirzo o'rtasida Isfahon uchun jang qiladilar. Aka ukalar o'rtasidagi kelishmovchiliklar natijasida 1414-yil Iskandar Mirzoni tutib Shohruh Mirzo huzuriga keltiradilar. Iskandar Mirzo Iroq va Fors hukmronligidan olinadi. Mazkur mamlakatlarni Rustam Mirzo ixtiyoriga topshiriladi. Rustam Mirzo fursatdan foydalanib ukasi Iskandar Mirzoning ko'ziga mil tortadi. 1415-yilda Rustam Mirzo Iskandar Mirzoni qatl qildiradi³⁰¹.

Iskandar Mirzo garchi oz muddat hokimlik qilgan bo'lsa-da, shu muddat ichida o'z atrofiga olim va shoirlarni to'play olgan edi. Bulardan Muyiniddin Natanziy, Haydar Xorazmiy kabilar³⁰². Ma'lumki, XV asarning birinchi yarmida Samarqand va Hirot o'zining adabiy muhiti va ilmiy markazlari bilan birga bosha joylarda, jumladan Forsda ham birmuncha adabiy madaniy kuchlar to'planib, tarix da ma'lum iz qoldirdi.

Ko'pchilik ijodkorlarga a'naviy usulda bo'lgan to'rt halifa (Chor yorlar) ga bag'ishlab masnaviylar bitilgan. Ammo Haydar Xorazmiy asarida to'rt halifa Abu Bakr, Umar, Usmonlardan biri bo'lgan halifa Ali roziollahu anhuga bag'ishlab hikoyat yozgan. Faqatgina hazrat Aliga bag'ishlab madh yozinganligini Benedek Peri tomonidan buni noto'g'ri talqin qilgan tomonlari ham bor. Jumladan, u shunday deydi:

“Maxzan ul-asror” (Gulshan ul-asror) adabiy tarixiy manbalardagi ma'lumotlarni boyitmaydi. Lekin, doston matnida dastlabki uchta xalifa haqida so'z yuritilmaganligi va faqat Alining madhi keltirilganligi Haydar Xorazmiyning shia mazhabiga moyilligini ko'rsatadi³⁰³, degan fikrlari noto'g'ri deb hisoblaymiz. Chunki, bir kishini maqtab, ikkinchisini qoldirish, bu birini ma'qul ko'rib, ikkinchisini tan olmaslik degani emas. Masalan, asarda faqat ikkita payg'ambarga atab hikoyat yozilganligini ham shunday tushinish kerak emas.

Haydar Xorazmiyning hazrat Aliga bag'ishlab yozilgan maqola To'ppopi kutubxonasida saqlanuvchi qo'lyozmada “Yettinchi maqola arbobi karam va fazoili va ular sarvari Sheri Yazdon va Shohi Mardon Ali” deb sarlavxa qo'yilgan

³⁰¹ Файзиев Т. Темурийлар шажараси. –Тошкент: Ёзувчи, 1995. –Б. 84-93.

³⁰² Бартольд В. В. Сочинения. 1-том. –Москва: Восточная литература, 1963. – С. 102-103.

³⁰³ Benedek Péri. Haydar Hvarizmī “Maḥzana l-asrār”. Library and Information Centre of the Hungarian Academy of Sciences, 2020. -S.29.

va shunday deb madh etadi. Hazrat Alining sahiylikda tengi yo‘q inson ekanligi, sahiylik qilayotganda hech ham ikkilanmay odamlarga yordam berishi. U barcha mazhablar uchun birdek do‘stidir, chunki u sahiylarning imomidir deyiladi baytlarda. Bu erda imom arab tilida “eng oldinda”, “birinchi” kabi ma’nolari bor.

*Ulki saxovattin urur bo‘lsa dam,
Ko‘rguzur erlikda sabit qadam.
Jumla mazhabda saxiydur vali,
Barcha saxiylarning imomi Ali.*³⁰⁴

Iskandar sultonni o‘z asarida madh etishi o‘sha davr an’anasi bilan izohlash mumkin. Chunki, o‘tmishda har qanday, ijodkor o‘z hokimi, o‘z sultonini yoki asar yozishga ruhlantirgan kishini qoidaga ko‘ra madh etmasdan, tilga olmasdan asar yozishi mumkin emas edi. Haydar Xorazmiy ham ana shu an’anaga ko‘ra ish tutgan. Zero, u ham boshqa ijodkorlar kabi bu an’anani bosib o‘ta olmas edi, o‘tishga haqi ham yo‘q edi. Sababi ijtimoiy-iqtisodiy tuzum, feodal sharoiti bunga erk bermas edi. Bunday holni Husayin Boqaro saroyida vazirlik lavozimida bo‘lgan Alisher Navoiy ijodida ham ko‘ramiz. Ularning ma’rifatparvar shohlar Iskandar sulton, Mirzo Ulug‘bek, sulton Husayn Boyqarolarning madh etishlarida ikkita asosiy maqsad bor edi. Birinchidan, sulton Iskandar ham, Mirzo Ulug‘bek ham, sulton Husayn Boyqaro ham ko‘pgina temuriyzodalarga nisbatan ilg‘or, hur fikrli kishilar bo‘lganligi uchun boshqa shohzodalarni ulardan o‘rnak olishga chaqirishi bo‘lsa, ikkinchidan, xalq boshiga balo urug‘ini sochayotgan urushlarni oldini olish kabi fikrlar singdirilgan.

Haydar Xorazmiy “Gulshan ul-asror”ni Iskandar Mirzoga bag‘ishlaganini aytgan bo‘lsa, Alisher Navoiy “Majolis un-nafois”da Iskandar Mirzoni hurmat bilan tilga olarkan “Mavlono Haydar turkiygo‘y aning modihi ekandur. Bu aning masnaviysidin durkim”, – deb shoirning mazkur asaridan quyidagi baytni havola qiladi:

*Himmat alidur yadi bayzo degan,
Er nafasidur dami Iso degan,*³⁰⁵

Haydar Xorazmiy madh etgan inson sarvdek to‘g‘ri, o‘riku olma kabi mevali yoxud yomg‘ir singari xalqqa naf’-foyda keltiruvchi kishilar bo‘lishi kerak edi. U kishilarni shunday bo‘lishga rag‘bat etadi. Shoir fikricha, haqiqiy mehnat evaziga topilgan boylik gulday toza, umrning yoshlik davridek musaffo, lazzatbaxshdir:

*Savrdek ozoda bo‘lu rostkor,
Yo o‘riku olma bikin mevador,
Naf‘i tekur barchag‘a yomg‘ir bikin.
Yo tengiz o‘rtasida jo‘mdir bikin.
Rost kerak odameg‘a e‘tiqod,
Egri kishi topmadi hargez murod.
Bo‘lma xaridorlar bila saxt ro‘y,*

³⁰⁴ Хайдар Хоразмий. Гулшан ул-асрор. Қўлёзма. Франция миллий кутубхонаси. Инв. №.978, 44б -варақ.

³⁰⁵ Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўн учинчи том. – Тошкент: Фан, 1996. –Б.170.

*Qilma zabunlarg'a qattiq go'fti-go'y.
Bo'lma ujuz olib og'ir sotquchi,
Unga kebak, sirkaga su qotquchi.
Kom bila topsang tag'i bozorni,
Bir yo'li kuydirma xaridorni.
Sud ko'rib qilma ziyoning unut,
Sudni savdoda ziyoni birla tut.³⁰⁶*

Xulosa shuki, Haydar Xorazmiyning "Gulshanul –asror" asarida ham an'aviy tarzda podshohlarni madh etishga oid masnaviy-lari bor. Jumladan sulton Iskandarni madh qilgan. Shoir bundan tashqari choryorlarning oxirgisi bo'lgan hazrat Ali roziollohu anhu ham madh etib bir masnaviy yozganligi ma'lum.

Adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўн учинчи том. – Тошкент: Фан, 1996. –Б.170.
2. Бартолд В. В. Сочинения. 1-том. –Москва: Восточная литература, 1963. – С. 102-103.
3. Бенедек Пэри. Ҳайдар Ҳвāризми "Маҳзана л-асрār ". Либрарй анд Информатион Сентре оф тхе Хунгариан Асадемай оф Сиенсес, 2020. -С.29.
4. Файзиев Т. Темурийлар шажараси. –Тошкент: Ёзувчи, 1995. –Б. 84-93.
5. Ҳайдар Хоразмий. Гулшан ул-асрор. Қўлэзма. Франция миллий кутубхонаси. Инв. №.978, 44б –варақ.

QAHRAMON SHOIRLAR NAVOIYNI O'RGANISH HAQIDA

Komiljon PAYZIYEV

Namangan davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

Abbosjon ROHATALIYEV

Namangan davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Qahramonlari, Xalq shoirlari Abdulla Oripov hamda Erkin Vohidovlarning mumtoz adabiyotni, xususan, Navoiy adabiy merosini targ'ib va tashviq qilishga qo'shgan hissalarini, shu mavzuda yozgan asarlari, bildirgan fikr-mulohazalari, takliflari va ularning bugungi kun uchun qanchalik dolzarbligi masalasi tahlil va tadqiq etilgan. Shu jumladan, ularning she'rlaridan namunalari keltirilib, tahlil qilingan.

³⁰⁶Ҳайдар Хоразмий. Гулшан ул-асрор. Қўлэзма. Франция миллий кутубхонаси. Инв. №.978, 26б-варақ.

Kalit soʻzlar: mumtoz adabiyot, gʻazal, maʼnaviyat, maʼrifat, qadriyat, milliylik, umuminsoniy, yoshlar tarbiyasi, eʼtiqod, ommaviy madaniyat, axborot xuruji, immunitet.

Аннотатсия. В данной статье рассмотрен вклад героев Узбекистана, народных поэтов Абдуллы Орипова и Эркина Вахидова в пропаганду и пропаганду классической литературы, в частности, литературного наследия Навои, произведения, написанные на эту тему, их мнения, предложения и их актуальные на сегодняшний день, анализируются и исследуются. Среди них были даны и проанализированы образцы их стихов.

Ключевые слова: классическая литература, газел, духовность, просвещение, сенност, натсионалност, всеобщност, образование молодежи, вера, массовая култура, информатсионная атака, иммунитет.

Annotation. This article examines the contribution of the heroes of Uzbekistan, national poets Abdulla Oripov and Erkin Vakhidov to the propaganda and promotion of classical literature, in particular the literary heritage of Navoi, works written on this topic, their opinions, proposals and their relevance today, are analyzed and researched. Among them, samples of their poems were given and analyzed.

Key words: classical literature, ghazal, spirituality, enlightenment, value, nationality, universality, youth education, faith, mass culture, information attack, immunity.

Mamlakatimizda Yangi Oʻzbekiston, Uchinchi Renessans poydevorini qurish yoʻlida tizimli ravishda islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Bu masala ayni kunlarda Davlat siyosati darajasiga koʻtarildi, desak, mubolagʻa emas. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoevning 2023-yil 22-dekabrda Respublika Maʼnaviyat va maʼrifat kengashining kengaytirilgan majlisida “Maʼnaviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak” mavzusida soʻzlagan nutqida bu yoʻnalishdagi ustuvor vazifalar belgilab berildi. Unda jumladan, shunday deyiladi: “Bugun jahon miqyosida taraqqiyot surʼatlari misli koʻrilmagan darajada shiddatli tus olmoqda. Ayni vaqtda azaliy qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy qarashlar tizimida chuqur transformatsiya jarayonlari yuz bermoqda. Ilgari oʻz maqsad va manfaatlarini, asosan, diplomatiya va siyosat bilan himoya qilib kelgan dunyodagi qudratli markazlar endi ochiqchasiga bosim oʻtkazish, qarama-qarshilik va toʻqnashuvlar yoʻliga oʻtganiga hammamiz guvohmiz. Afsuski, bunday keng koʻlamli va oʻta ziddiyatli jarayonlarning taʼsiri Markaziy Osiyo mintaqasi va uning tarkibiy qismi boʻlgan mamlakatimizni ham chetlab oʻtmayapti. Ana shunday gʻoyat murakkab va tahlikali vaziyatda Oʻzbekistonning milliy manfaatlariga javob beradigan toʻgʻri yoʻlni topish, albatta, oson boʻlmayapti. Tarixdan maʼlum: Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari – uygʻoq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, sanʼat namoyandalari, maʼnaviyat va maʼrifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar. Chindan ham mamlakatimiz oʻz taraqqiyotining yangi,

yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi G‘arb ilm-fani yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan etuk kadrlar suv bilan havodek zarur. Lekin ularni kim tarbiyalaydi? Albatta, o‘zimiz tarix saboqlari, zamon talablari asosida tarbiyalashimiz zarur”³⁰⁷.

Hozirgi o‘ta murakkab, shiddatli zamonda farzandlarimiz ongi va qalbini yot g‘oyalardan asrab-avaylashda buyuk ajdodlarimiz qoldirgan bebaho merosni, xususan, mumtoz adabiyot va san‘at durdonalarini yanada chuqurroq o‘rganishni davr o‘zi taqozo etmoqda. Bunda targ‘ibot-tashviqot ishlari ta’sirchanligini, samardorligini oshirish, ta’lim muassalarida ilg‘or pedagogik texnologiyalaridan, axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanish shu kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Mumtoz adabiyot deganda, birinchi navbatda, ko‘z o‘ngimizda ulug‘ shoir, buyuk mutafakkir hazrat Alisher Navoiy bobomiz siymosi gavdalanadi. Uning vatan va vatanparvarlik, ona tilimizga bo‘lgan cheksiz hurmat va sadoqat, olam va odam, komil inson, xalqlar do‘stligi, adolatli shoh, vafo va sadoqat kabi xalqchil g‘oyalari besh asrdiki, avloddan-avlodga o‘tib ma’naviyatimizni bezab kelmoqda.

Navoiyning hayoti va ijodiga bag‘ishlangan mingdan ortiq ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan, yuzlab g‘azallari san‘atkorlar tomonidan qo‘shiq qilib kuylangan, sahna asarlari, kino, hujjatli filmlar yaratilgan bo‘lsa-da, bu bebaho xazinaning ochilmagan qirralari, kashf etilmagan yangi-yangi jihatlari o‘z tadqiqotchilarini kutib turibdi. Ayniqsa, dunyo globallashgan bir sharoitda yoshlarning qalbiga, ongiga salbiy ta’sir etadigan axborot xurujlari, ommaviy madaniyat ta’siri yaqqol sezilayotgan bugungi murakkab davrda mumtoz adabiyotimizga, xususan, Navoiyga umuminsoniy g‘oyalarini o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj kundan-kunga ortib bormoqda.

Biz ushbu maqolamizda O‘zbekiston Qahramonlari, Xalq shoirlari, elimizning ardoqli farzanlari Abdulla Oripov hamda Erkin Vohidovlarning mumtoz adabiyot, xususan, ulug‘ mutafakkir shoir Alisher Navoiy adabiy merosining xalqimiz ma’naviy ongini yuksaltirish, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdagi o‘rni va ahamiyati haqidagi qarashlarini tahlil va tadqiq etishga harakat qildik.

Abdulla Oripovning Navoiy dahosiga bergan quyidagi she’riy satrlari barchamizga yaxshi tanish:

*Ko‘p jahongir ko‘rgan bu dunyo,
Hammasiga guvoh er osti.
Lekin do‘stlar she’r ahli aro
Jahongiri kam bo‘lar rosti.
Besh asrkim, nazmiy saroyini
Titratadi zanjirband bir sher.
Temur tig‘i etmagan joyni*

³⁰⁷ Мирзиёев Ш. Маънавият ҳаётимизда янги куч, янги ҳаракатга айланиши керак. // “Янги Ўзбекистон” газетаси. 2023 йил, 23 декабрь сони.

*Qalam bilan oldi Alisher*³⁰⁸.

Shoir bilan uyushtirilgan suhbatlardan birida unga “Mumtoz adabiyotdan nimalarni o‘rgandingiz, xususan, Navoiyga munosabatingiz?” degan savol beriladi va bunga adib shunday javob qiladi: “Men navoiyshunos degan terminga qarshiman. Chunki bu shunday katta bahr muhitki, uning dengizlari bor. Shuning uchun “Layli va Majnunshunos” yo “Farhod va Shirinshunos” bo‘lish mumkin. “Chor devon” bir umr o‘rganilsa, kam. Men Navoiydan masalaning mohiyatiga kirishni, she’rni sehrli tayoqchaday o‘ynatishni o‘rgandim. U kishi mazmun ifodasining ustasi, she’r aytish mumkin, lekin she’rni mazmun bilan faqat Navoiy aytgan”³⁰⁹.

Adibning ushbu fikrlaridan ikkita xulosa chiqarish mumkin: birinchisi, Navoiyning adabiy merosi shunchalik boy va rang-barangki, ularni qism-qismlarga, mavzularga ajratgan holda o‘rganish maqsadga muvofiq. Ikkinchisi, Navoiyning badiiy mahorati barcha ijodkorlar uchun beqiyos maktab vazifasini o‘tay oladi. Hassos shoir Maqsud Shayxzoda iborasi bilan aytganda, Navoiy “g‘azal mulkinin sultoni”dir³¹⁰.

Abdulla Oripov o‘zining adabiy-tanqidiy maqolalarida bu masalaga alohida e’tibor qaratgan. Masalan, adib “Ustozlar sabog‘i” deb nomlangan maqolasida yosh shoirlarning she’rlarini tahlil qilib, kamchiliklarini ko‘rsatib, ularni Navoiydan o‘rganishga da’vat etib shunday deydi: “Navoiy g‘azallarining har bir misrasidagi obraz butun bir she’riyatimizdagi xulosadan bir necha marotaba baland turadi. Albatta, Navoiy zo‘r mahorat sohibi bo‘lgan daho shoir. Uning darajasida bo‘lishni har kimdan talab qilaverish ham kulguli bo‘lur edi. Lekin gap bu erda oddiy shoirlik mahorati haqida ketayotirki, buni yoshlardan talab qilishga haqqimiz bor. Yoshlar Navoiy to‘g‘risida o‘zaro ko‘p gaplashadilar, uning haykali ostiga ehtirom bilan guldastalar qo‘yadilar, o‘zlarini uning shogirdi hisoblaydilar, o‘rni kelganda, Navoiyni dunyodagi barcha daholardan baland qo‘yib g‘ururlanadilar. Albatta, shunday bo‘lishi ham kerak. Lekin shogird o‘z ustozini hammadan baland qo‘ymoqchi ekan, u ustozining takrorlanmas fazilatlaridan xabardor bo‘lishi, hech bo‘lmaganda o‘z ijodida ustozning sal-pal ta’siri sezilishi lozim-ku?! Afsuski, bizlarning deyarli ko‘pchiligimiz Navoiy ijodining siru asroridan bexabarmiz. Navoiy g‘azallarida (umuman, Sharq mumtoz she’riyatida) nogahoniy obrazlar, muqoyasalar, fikr o‘yinlari, lutflar, hatto harf o‘yinlari shunchalik ko‘pki, bitta misraning o‘zidanoq ularning hammasini topish muki. Xullas, Navoiy misralarida shakl qanchalik maxsus bo‘lmasin, baribir, mazmun birinchiligiga putur etmaydi. Biz, yoshlar, Navoiyning ana shu ulug‘ maktabidan, albatta, saboq olib turishimiz shart”³¹¹.

³⁰⁸Oripov A. Ўйлар армони. Шеърлар тўплами. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984. – Б. 211.

³⁰⁹ Жабборов А. Шеър ва шеърят ҳақида. А.Орипов билан суҳбат. Танланган асарлар . – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. – Б. 62.

³¹⁰Мақсуд Шайхзода. Ғазал мулкининг султони. Асарлар. 6 томлик. 4-том. – Тошкент. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б. 356.

³¹¹ Орипов А. Устозлар. // Танланган асарлар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. – Б.16-17.

Abdulla Oripovning Navoiy haqidagi bu kabi fikr-mulohazalari uning “Ulusning navobaxshi”, “Taassurotlar”, ”Ehtiyoj farzandi” kabi publitsistik maqolalarida, ”Barhayot obida” nomli hujjatli film ssenariysida ham o‘z ifodasini topgan³¹².

Xarakterli jihati shundaki, hazrat Navoiyning otasi – padari buzrukvori, G‘iyosiddin kichkina Bahodirning kim ekanligib ismi ma’lum bo‘lgani holda, onasi – validai muhtaramasi, ya’ni Abu Said Changiy qizining ismi haqidagi ma’lumotlar tarixiy manbalarda uchramaydi. Abdulla Oripovni ham mazkur muammo ko‘p o‘ylatirganligi aniq. Shoir bu masalagi 1968 yilda yozgan “Alisherning onasi” she’rida quyidagicha javob beradi:

Bilmam, qanday ayol bo‘lgan

Alisherning onasi.

Balki uning aqliga ham

Lol bo‘lgan zamonasi.

Balki uning ko‘zlarida

Bo‘lgan og‘ir bir xayol.

Balki g‘amgin bir zotdir u,

Balki sho‘xchan bir ayol.

Balki buyuk farzandiga

Terib kelgan chechaklar.

Balki tunlar unga bedor

Aytib bergan ertaklar.

Mayliga, u kim bo‘lmasin,

Yolg‘iz bir so‘z ma‘nosi:

Alisherning onasi u,

Navoiyning onasi³¹³.

Bu she’r shoirning ijodiga bag‘ishlangan tadbirlarda tez-tez o‘qilishi katta tarbiyaviy ahamiyatga ega deb o‘ylaymiz.

Xalqimizning ardoqli shoiri Erkin Vohidovning ham Navoiy adabiy merosini o‘rganishga doir fikr-mulohazalari e‘tiborga loyiq. Hammamizga yod bo‘lib ketgan “O‘zbekim” qasidasida jumladan shunday misralar bor:

Menga Pushkin bir jahonu,

Menga Bayron bir jahon.

Lekin Navoiydek bobom bor,

Ko‘ksim osmon o‘zbekim³¹⁴.

Bu satrlarda xalqimizning hazrat Navoiy bobomizga bo‘lgan cheksiz mehru muhabbati, ulug‘ shoiri bilan faxrlanish tuyg‘ulari mujassam. Bundan tashqari Erkin Vohidov Navoiyni o‘zining ustozini sanab, uning bir necha g‘azallariga go‘zal muhammaslar bog‘laganligini ham o‘quvchilar yaxshi bilishadi. U Navoiy asarlarining jonkuyar targ‘ibotchisi hamdir. Jumladan, “Bahramandlik” deb

³¹² O‘sha manba. – B. 5,14.17.

³¹³ Орипов А. Хайрат. – Тошкент. Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – Б. 64.

³¹⁴ Вохидов Э. Ўзбегим. – Тошкент: Янги аср авлоди. 2019. – Б. 400.

nomlangan adabiy-tanqidiy maqolasida adib shunday deydi: “Kitobxonlar bilan bo‘lgan bir uchrashuvda menga g‘alati savol berishgan edi. Hurmatli shoir, Siz Gyotening “Faust”ini, Sergey Yesenin asarlarini, yana ko‘p shoirlarning kitoblarini o‘zbek tiliga tarjima qilgansiz, endi qachon bizga Alisher Navoiy she‘rlarini tarjima qilib berasiz? Qiziq, o‘zbekchadan tarjima qilishning nima hojati bor ekan? – deb o‘yladim va savolga javob berib o‘tirmadim. Keyinroq o‘ylasam, bu murojaatda jon bor ekan. Alisher Navoiy yashagan davr bilan bizning zamon o‘rtasida yarim ming yillik vaqt masofasigina emas, juda katta ijtimoiy ong masofasi, adabiy til, dunyoqarash, hayot tarzi masofalari bor. Mutasxassis bo‘lmagan o‘quvchiga Navoiyning asarlarini tushunib etish hozirda muammo. Demakki, Navoiy asarlarini sharhlash, tafsirlash, ya’ni o‘sha savol bergan kitobxonning so‘zi bilan aytganda – tarjima qilish zarurati bor”³¹⁵.

Shundan so‘ng Erkin Vohidov shu savol turtki bo‘lib televidenie orqali bir necha yil “G‘azal oqshomi” davra suhbatini tashkil etilgani, mazkur suhbatlarda mashhur adabiyotshunoslar: Hamid Sulaymon, Aziz Qayumov, Natan Mallaev, Alibek Rustamov, Abduqodir Hayitmetov singari etuk adabiyotshunoslar qatnashib, Navoiy va boshqa mumtoz adabiyot vakillari ijodini sharhu tahlili bilan bu savob ishga o‘z hissalarini qo‘shganliklarini ta’kidlaydi³¹⁶.

Bizningcha, ana shu an‘analarni bugun yana tiklash, “G‘azal oqshomi” davra suhbatlarini davom ettirish maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, XX asr o‘zbek g‘azaliyotining yorqin vakili Erkin Vohidov mumtoz adabiyotimizning, xususan, aruz vaznining jonkuyar, fidoyi targ‘ibotchilaridan biri edi. Uning “O‘zbek Navoiyni o‘qimay qo‘ysa” nomli she‘rida ham ushbu muammo o‘ziga xos badiiy ifodasini topgan, desak ayni haqiqatdir. She‘r quyidagi misralar bilan boshlanadi:

*O‘zbek Navoiyni o‘qimay qo‘ysa,
Oltin boshning kalla bo‘lgani shudir.
Bedil qolib Demyan Bedniyni suysa,
Qora sochning malla bo‘lgani shudir*³¹⁷.

Bu bandda Navoiyni o‘qimay qo‘yishning oqibati “Oltin boshning kallaga aylanishi” yoki Sharqning mumtoz shoiri Mirzo Bedil o‘rniga rus inqilobchi shoiri Demyan Bedniyni suyish “Qora sochning mallaga aylanishiga” o‘xshatiladi.

Keyingi bandda bu fikr yanada kuchaytirilib, Navoiyni o‘qimay qo‘yish butun bir millatning aldanganiga, ma’rifatdan yiroq bo‘lib o‘ynab-kulsa, buni aza chog‘i yalla aytishga tenglashtiriladi:

*O‘zbek Navoiyni o‘qimay qo‘ysa,
Aldangani, alla bo‘lgani shudir,
Ma’rifatdan ayro o‘ynasa, kulsa,
Aza chog‘i yalla bo‘lgani shudir*³¹⁸.

³¹⁵ Воҳидов Э. Баҳрамандлик. // Иброҳим Ҳаққулов. Занжирбанд шер қошида. – Тошкент: “Юлдузча” нашриёти, 1989. – Б.5.

³¹⁶ О‘sha manba. – В.6.

³¹⁷ Воҳидов Э. Умрим дарёси. Сайланма. Учинчи жилд. – Т.: Шарқ, 2001, – Б. 235.

³¹⁸ О‘sha manba.

She'rda Navoiyni o'qimay qo'yishning salbiy oqibatlarini obrazli tasvirlanib, ma'no bandma-band bo'rttirib boriladi. Nihoyat, she'r Navoiy merosini o'rganish xalqimizga ma'naviy g'urur va iftixor bag'ishlashi haqidagi quyidagi satrlar bilan yakunlanadi:

*O'zbek Navoiyni o'qisa bekam,
Uning barakalla bo'lgani shudir.
Olamga Navoiy nasliman degan
Ovozi baralla bo'lgani shudir*³¹⁹.

Xulosa shuki, mumtoz adabiyotni, xususan, Navoiy bobomizning boy adabiy merosini o'rganish, uni xalqimizga yanada yaqinlashtirish, sharhlar, lug'atlar tuzish, shoir hayoti va ijodiga bag'ishlangan badiiy, hujjatli filmlar yaratish, ilmiy tadqiqot ishlari ko'lamini yanada kengaytirish ziyolilar, yozuvchi, shoirlar, rejissyorlar va boshqa barcha ma'naviyat targ'ibotchilari zimmasidagi dolzarb vazifalardir. Zero, Erkin Vohidov ta'kidlaganidek, "Alisher Navoiyni anglash va his qilish o'zbek xalqining tarixini, madaniyatini, qalbi ehtiyojlarini, o'zligini anglash va his etish demakdir. Shunday ekan, Navoiyni, umuman, mumtoz adabiyotni bilish har bir o'zbek farzandi uchun ham qarz, ham farz"³²⁰.

Adabiotlar:

1. Воҳидов Э. Баҳрамандлик. // Иброҳим Ҳаққулов . Занжирбанд шер қошида. – Тошкент: “Юлдузча” нашриёти, 1989, – Б. 5-7.
2. Воҳидов Э. Ўзбегим. – Тошкент: Янги аср авлоди. 2019. – Б. 400
3. Воҳидов Э. Умрим дарёси. Сайланма. Учинчи жилд. – Т.: Шарқ, 2001. – Б. 235.
4. Жабборов А. Шеър ва шеърят ҳақида. А.Орипов билан суҳбат. Танланган асарлар – Тошкент : Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. – Б.62.
5. Орипов А. Йиллар армони. Шеърлар тўплами. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984. – Б.211.
6. Орипов А. Устозлар. // Танланган асарлар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. – Б.16-17.
7. Ҳаққулов Иброҳим. Занжирбанд шер қошида. – Тошкент: “Юлдузча” нашриёти, 1989. – Б.5.

³¹⁹ O'sha manba.

³²⁰ Воҳидов Э. Баҳрамандлик. // Иброҳим Ҳаққулов. Занжирбанд шер қошида. – Тошкент: “Юлдузча” нашриёти, 1989, – Б.7.

“BOBURNOMA”DA QOZOQ TARIXI BILAN BOG‘LIQ JIHATLAR XUSUSIDA

Rayxan BAZARBAYEVA

*Nizomiy nomidagi TDPU O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti,
Qozoq tili va adabiyoti kafedrasida o‘qituvchisi,*

Ayman MAMBETALIYEVA

Nizomiy nomidagi TDPU II kurs talabasi.

Annotatsiya. Tarixga nazar solsak, boy madaniyat va ilg‘or san‘at, badiiy tilga ega xalqimiz tarixi V-III asrlarda saq, xun, uysun qabilalaridan kelib chiqqan Turk dunyosini zabt etgan Tomaris va Zarina, Kultegin va Tonuko‘k qog‘onlar, Misrni boshqargan Sulton Beybaris bizning ruhiy dunyoyimizning taniqli shaxslaridan bo‘lib tarix zarvaraqlarida o‘chmas iz qoldirganlar. Ana shunday o‘chmas siymolarning biri 541 yilki xalqimiz tilidan, dilidan va ongidan chuqur o‘rin egallagan buyuk ajdodimiz Zahiriddin Muhammad Bobur ham ulardan biri edi.

Kalit so‘zlar: Boburnoma, boburiylar, turkiy, sulola, ensiklopedik asar, geografiya, xon, sulton, portret

Annotation. Looking back on history, the history of our people with a rich culture and advanced art, artistic language originated from the tribes of saq, xun, uysun in the 5th-3rd centuries, Tomaris and Zarina, Kultegin and Tonukok Kagans, Sultan Beybaris, who ruled Egypt, were prominent figures of our spiritual world who left indelible marks on the jewels of history. One such indelible siymo was one of them, Zahiriddin Muhammad Babur, our great ancestor who took a deep place in the language, language and mind of our people of 541. our children? Let's light up our little thoughts about these.

Keywords: Beaver, Beaver, Turkey, dynasty, encyclopedic work, geography, Khan, Sultan, portrait

Аннотация. История нашего народа с богатой культурой и передовым искусством, художественным языком Томарис и Зарина, Култегин и Тонукук, покоровшие тюркский мир в V-III веках племени Сак, Хун, уйсун, султан бейбарис, правивший Египтом, являются выдающимися личностями нашего духовного мира, оставившими неизгладимый след в истории зарванов. Одной из таких неизгладимых фигур был наш великий предок Захириддин Мухаммад Бабур, который в 541 году занял глубокое место в языке, душе и уме нашего народа.

Ключевые слова: Бабурнома, бабуриды, тюрки, династия, энциклопедический труд, география, хан, султан, портрет

Xalqimizning ma‘naviy boyliklaridan biri mumtoz adabiyotdir. Ushbu qadimiy adabiyotning markazida turgan shoh asar esa – “Boburnoma” nomli tarixiy-ensiklopedik asardir. Ushbu asar uch qismdan iborat bo‘lib, Bobur mirzo

hukmronlik qilgan Movaraunnahr, Afg'oniston, Hindiston davlatlaridagi tarixiy voqealar ochib beriladi. Bugunda yigirma beshdan ortiq tillarga tarjima qilingan asarning qozoq tilidagi tarjimasi esa birinchi marta 1990-yilda o'z o'quvchilariga taqdim etildi.

“Boburnoma” 1526-yildan beri turkiy xalqlar hayotida o'chmas iz qoldirgan buyuk asar bo'lib, Markaziy Osiyo xalqlari uchun umumiy qadriyat merosidir. YUNESKO ma'lumotlariga ko'ra, tarixiy yozuv tavalludining 460 yilligi 1990-yil oktyabr oyida Toshkentda nishonlanib, 1993-yilda ilmiy-nazariy simpozium bo'lib o'tgan. Boburnoma ilk bor qozoq tiliga tarjima qilinib, xalqqa taqdim etilganida boshqa turkiy xalqlar kabi qozoq xalqi uni “qozoqlarning tarixi yozilgan asar” deb tan oldilar. “Qozoq ziyolilari bu fikrni qo'llab-quvvatlashdi. Chunki Boburning bu asarida qozoqlar, o'zbeklar, turkmanlar kabi turkiy zabon xalqlarning qabilalari haqida hikoya qilingan edi.”³²¹ Asarda o'sha asrning bir qator qozoq xonlari, jamoat arboblari, qahramonlari va shoirlari haqida qimmatli ma'lumotlar yozilgan. Qadimgi qozoq zaminining tabiati bu asarda ko'z bilan ko'rib, qo'l bilan ushlagandek yorqin tasvirlangan.

Bundan tashqari, Boburnoma Temur sulolasi davrini tasvirlaydi. U XV-XVI asrlarda Farg'ona, Hindiston xalqlarining tarixi, xonlarning hokimiyat, yer va taxt uchun olib borgan urushlari haqida batafsil hikoya qiladi. U qurilish, arxitektura va yangi shaharlarning vayron bo'lishi haqida yozadi. Hindiston va Markaziy Osiyo xalqlari tarixi, urf-odatlar, etnografiyasi, madaniyatini to'liq qamrab olgan ushbu asar qozoq tarixining ham bir bo'lagi desak yanglishmaymiz. Boburnomada birinchi qozoq xonlari Janibek, Qosim, Hasan, Ali va tarixchi bo'las Haydar Mirzo kabi shoirlar haqida tarixiy ma'lumotlar mavjud. Bundan tashqari, qipchoq, dug'lat, jalair, arg'in urug'laridan chiqqan qo'mondonlarga, Ulug'bek kabi jamoat arboblari Bobur o'ziga xos ta'rif bergan. Biz bilamizki, u harbiy ishlar, ta'lim va tarbiya, musiqa, huquq bo'yicha juda ko'p asarlari bor. Biroq uning barcha asarlari hali qozoq tiliga tarjima qilinmagan. Hozircha esa Boburning noyob asari Boburnomadagina qozoq xalqi haqida mushohada yuruta olamiz. “Boburnoma” nafaqat tarixiy, ilmiy asar, balki turkiy (chig'atoy) tilining boy qobiliyatlaridan foydalangan holda katta mahorat bilan yozilgan badiiy asardir.

Yettisuv va Sirdaryo viloyati geografiyasi, qozoq xonlari haqidagi eng qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan bu asar turli davrlardagi ko'plab mutafakkirlarimizning asarlariga negiz bo'ldi desak adashmaymiz. Masalan, “Біраз сөз қазақтың түбі қайдан шыққаны туралы” degan tarixiy bilimlar sohasini aks ettiruvchi, asosan qozoq halqining kelib chiqishi to'g'risida ma'lumot beradigan tadqiqot asarida Abay Qunonboyev, Alasha Xon haqidagi ma'lumotlarni aynan “Boburnomadan” olganini hikoya qiladi³²². Boburning voqea, hodisa, joy tasviridagi qarashlari, badiiy obrazlarga izoh berish, ilmiy xulosalarga kelish, o'sha davrning murakkabligi. Boburning yuksak mahorati, asar personajlarining

³²¹Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” – T.: Sharq, 2016. 148b.

³²² Kelimbetov N. “Қазақ әдебиеті бастаулары” (Көркемдік дәстүр жалғастығы). – Olmaota: Ona tili, 1998. – 256b.

xarakterini qiyin davr shaxsi deb hisoblash mumkin. Shu sababli Husayn Boyqaro Shayboniyxon, Shohbegim, Xisravshoh, Muhammad Husayn Mirzo va boshqalarning xususiyatlarini har tomonlama aniqlashtirish maqsadida bir necha joylarda mavzu ehtiyojlariga muvofiq foydalanilgan tabiat tasvirlari, davlat boshqaruvi va hiyonat kabi mavzularni aniqlashtirish uchun xuddi shu usul qoʻllanilgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnomada” ushbu soʻzlarni keltirgan edi: “Ushbu soʻzni shikoyat qilish uchun ham, rahm-shafqat bildirish uchun ham, maqtanish uchun ham yozmadim, men haqiqatni, nima boʻlganini hech qanday boʻrttirishlarsiz oʻq holicha qogʻozga yozdim. Shuning uchun qarindoshlarim, aka-uka va opa-singillarimning yaxshi va yomon ishlari, olis-yaqin odamlarning kamchiliklari va fazilatlarini haqida ochiq oydin aytmoqdaman. Kitobxonim ham, kitobxonimni tinglayotgan tinglovchim ham kechiradi deb oʻylayman!” deb aytgan edi.

Sharqshunos olim, akademik V.V.Bartold: “Boburnoma”ning badiiy darajasini yuqori baholab, “turkiy tilda nasriy asarlarning eng yaxshi namunalaridan biridir”, – degan fikrni aytadi.

Xulosa oʻrnida shuni taʼkidlash joizki, bugun yoshlarimiz Zahiriddin Muhammad Bobur nomini faxr bilan tilga olib, uning xotirasiga hurmat bajo keltirmoqda. Zahiriddin Muhammad Bobur nomi Oʻzbekiston tarixida Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Mirzo Ulugʻbek, Alisher Navoiy kabi siyosiy arboblardan va harbiy rahbarlar bilan bir qatorda turadi. Amir Temurning bevosita avlodi boʻlgan Bobur Hindistonda Boburiylar imperiyasini yaratdi va oʻz mamlakatining sodiq oʻgʻli bolib, umrining oxirigacha uning farovonligi uchun kurashdi. Bu esa oʻz navbatida dunyoning barcha mamlakatlari sharqshunoslari ushbu taniqli oʻzbek qoʻmondoni, shoiri, mutafakkiri, tarixchisi va davlat arbobi faoliyatini oʻrganishga alohida eʼtibor qaratishi kerakligining yana bir isbotidir. Bobur merosi har tomonlama etuk, faol, koʻp qirrali, oʻziga va tarafdorlariga ishongan, ajdodlarning urf-odatlarini hurmat qiladigan, muzokaralarga tayyor, kelajakka ishonch bilan qaraydigan, bilimli avlodlarimizga omonatdir. Zero, oʻtmishni oʻrganish zamonaviy rahbarning portretini tasvirlashga imkon beradi.

Adabiyotlar:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” – T.: Sharq, 2016. 148b.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”/ rus tilidan tarjima qilgan: B.Qojabekov. – Olmaota, Jalin, 1990. 286b.
3. Zahiriddin Muhiddinov “Bobur haqida oʻylar” – T.: “Sharq”, 2006y. 145b.
4. Kelimbetov N. “Qazaq әдебиеті бастаулары” (Көркемдік дәстүр жалғастығы). – Olmaota: Ona tili, 1998. – 256b.

“DEVONI SHAVQIY”DAGI MUVASHSHAH- MUXAMMASLARDA SO‘FIYONA TALQINLAR

Sabxon JO‘RABOYEVA

Namangan davlat universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallif “Devoni Shavqiy”dagi muxammas janriga to‘xtalib, muvashshah-muxammas turini farqli jihatlariga e‘tibor qaratgan. Muvashshah-muxammasning birida ifodalangan ishq va dard tushunchalarini so‘fiyona talqinlarini sharhlagan. Tasavvufiy tushunchalarni dalillash orqali ularning haqiqiy va irfoniy mohiyatini misollar yordamida qiyoslagan.

Kalit so‘zlar: muxammas janri, sharhlar, ishq, oshiq, dard tushunchalari, majoziy ishq.

Annotation. In this article, author touched upon the genres of mukhammas genre “Devoni Shavkiy” and paid attention different aspects of muvashshah-mukhammas type. She commented on the Sufi interpretations of the concepts of love and pain expressed in on the of muvashshah- mukhammas. By proving mystical concepts, she compared their real and mystical essence with the help of examples.

Key words: mukhammas genre, analysis, concepts of love, pain. The use of metaphors, similes, parables and poetic arts in verses.

Tasavvuf ta’limotining ilohiy ishq va insoniy kamolotga yo‘llovchi g‘oyalari Sharq mumtoz so‘z san’atiga shunchalik kuchli ta’sir ko‘rsatganki, bevosita tariqat yo‘liga kirib, o‘ziga bir rahnamo tanlamagan, solik bo‘lmagan shoirlarning o‘zi yo‘q. Hatto mutasavvuf bo‘lmagan qalam ahllari ham mavjud an’analardan ilhomlanib, g‘azal yozmay qolmagan yoki ularning mazmunidan ta’sirlanmagan bo‘lsin. Xususan, Shavqiy Namangoniyning ham adabiy merosida tasavvuf g‘oyalarining g‘azal, muxammas, musaddas kabi janrlarda o‘z ifodasini topgani bejiz emas. Tasavvuf boshdan oxirigacha odob-axloq, ya’ni illatlardan voz kechib, yaxshi fazilatlar bilan ziynatlanmoqdir. Nafsga qarshi kurashmoq va har bir odamga yordam qo‘lini cho‘zmoq, birovga malol kelmaslikdir. Yaratgan bilan birlik hosil qilmoqdir, pokiza qalb sohibi bo‘lmoqdir. Nafsdan holi tarzda Haqqa etishmoqdir.³²³ Bu yo‘lga kirganlarni ahli suluk deb nomlanib, ular har bir zarrada Alloh jamoli tajalli qiladi, deb biladilar. Ular tavhidni (Yagonalik) aql orqali emas, balki vahiy, ilhom va sezgi quvvati bilan anglash mumkinligini e’tirof etadilar. Bu jihatni har bir oshiq o‘z qalbida turlicha his qiladi va o‘zining hoy-u havaslaridan voz kechib, Haq bilan birlik hosil qilishga harakat qiladi.

Shavqiy ijodidagi bu jihat nafaqat g‘azallarda, balki uning musammat guruhiga kirgan barcha asarlarida yaqqol ko‘rinadi. Zohid, fano, may, mayxona, obi hayvon, junun, jazba, bayt ul-hazan, sham va parvona, kufr va iymon, jannat-do‘zax, haj, xojar ul-asvad kabi tushunchalar va shoirlar murojaat etadigan

³²³ Uludog‘ S. Tasavvuf terimlari so‘zlugi. –Istanbul, 2005. – S. 512.

payg‘ambarlar, avliyolar, majoziy ma‘nodagi yuz, bel, qosh, zulf, hol, soch, qosh kabi an‘anaviy obrazlar qo‘llanilgani haqiqatan ham uning mutasavvuf insonligidan dalolat beradi. Nafaqat g‘azallarda muxammas janrida yozilgan asarlarda ham shoirning so‘fiyona talqindagi fikrlari xilma-xil tashbehtar, tamsillar shaklida dalillangan. Muxammaslar yozish an‘anasi dastlab arab adabiyotida paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, o‘zbek mumtoz adabiyotida ma‘lum shakl-u shamoyilga kirib takomillashdi. Avval g‘azallarga bog‘lab yozilgan muxammaslarda fikrlar o‘sha g‘azal mavzusi, vazni, ifoda yo‘sini bilan qat‘iy talablarga bo‘ysingan bo‘lsa, keyinchalik shoirlarning badiiy mahoratini belgilovchi vositaga aylandi. Shubhasiz, bunday tajriba va musobaqalar adabiy aloqalarning yo‘lga qo‘yilishida, an‘analar bag‘rida yangilikka intilish va uni xalq e‘tiboriga sazovor qilish uchun shoirlarning salohiyatlarini mukammalashuviga olib keldi. Har bir o‘ziga xoslik nazm durdonalarini takrorlanmas misralarda ifodalab, yangicha barkamollik kashf etishiga sabab bo‘ldi. Xususan, Shavqiy ijodida ta‘bi xud muxammaslar bilan bir qatorda, muvashshah–muxammaslarning yuzaga kelishi bu fikrni namunalar bilan talqinlaydi. Muvashshah-g‘azallarni tahlil qilganimizda, ularda ma‘lum bir voqea, kishi ismlari baytlar mazmuniga yashirilib, ishora so‘zlar, harflar vositasida topish mumkin ekanligini ko‘rgan edik. Muvashshahlar- muxammaslar ham Shavqiy ijodiy merosining alohida o‘ringa ega. Muxammaslar shoir ijodida bir nechta bo‘lib, ularning mazmuniga yashirilgan so‘zlarni aniqlashga harakat qilindi:

*Ey malohat koni, xush nutq shakkari guftorisan,
 Orazing guldek ochilg‘an turfa bir alvonisan,
 Kishvari husni jamol ichra ajab gulzorisan,
 Xo‘bro‘lar zubdasini xush maxliqo, dildorisan,
 Aqli-idrokning fuzuni har maslahatdin borsan.*

Shoir dastlabki bandda o‘z ma‘shuqasining so‘zlarini shakar misoli shirin ekanligini e‘tirof etgan holda, ma‘shuqa yuzini gulga tashbehtar, oraz tovlanishini qizil lolalar, deya ta‘riflaydi. Qon singari qizillikni ham oshiq qalbidagi dard va uning ko‘zidan oqayotgan yoshlar bilan bir xildaligiga ishora qiladi. Bu tasvir vositasi yordamida Haqiqiy oshiqlar ishq yo‘lida to‘kilgan qonli yoshlardan qo‘rqmasliklari, aksincha, bundan ular halovat topishlarini e‘tirof etadi. Ko‘ngil mazhari bo‘lgan ruxsor husni jamol mamlakati deb atalib, uning egasi ma‘shuqa mukammal fazilat egasi ekanligi, ya‘ni hamma go‘zal fazilatlarining zubdasi – qaymog‘i ekanligi ta‘kidlanadi. Nafaqat tashqi chiroy, balki ichki olami ham shunga monand, u har sohada mohir, maslahatgo‘y ekanligi ulug‘lanadi.

*Fayzi anvoring munavvar qildi bu xirgohni,
 Husn iqlimida kim ko‘rdi seningdek shohni,
 Mehri obod etdi mo‘min qalbi baytullohni,
 Ayladi ishqing hidoyat bir necha gumrohni,
 Bir ajib sohibfarosat loyiqi asrorsan.*

Shoir bu dayr-xirgohni ma‘shuqadan taralgan nur munavvar qildi, deb Ro‘zi Mahshar kunida butun umr toat-ibodat qilgan, ezgu amallari bilan hayot kechirgan insonlar o‘zlaridan taralgan nur va muattar bo‘y bilan ajralib turishini esga oladi. Keyingi misralarda Janobi Haqqa bo‘lgan mehr, payg‘ambarga bo‘lgan ishq

gumroh insonlarni ham ezgulik yo‘liga boshlashi haqida borib, Alloh barcha sirlarni yashiruvchi, lekin barchasini biluvchi zot ekanligini “**Bir ajib sohibfarosat loyiqi asrorsan**” jumlasini bilan ta’kidlaydi. Mo‘minning qalbi misoli baytullohdek muqaddas ekanligi go‘zal tashbeh o‘rnida keltirilib, shoir maqsadini yaqqolroq ochib berishga xizmat qilgan.

*Ayladi oshufta elg‘a chashmi xummoring sani,
Sharbati qand-u asal ta‘miya guftoring sani,
Doimo hur-u pari bo‘lmish xaridoring sani,
Joni dil birlan jahon ahli, talabgoring sani,
Hazrati Yusuf jamolidin nishon osorsan.*

Band mazmunida ma‘shuqaning ko‘zi hammani maxliyo aylagani, uning so‘zlari qand-u asaldek totli ekanligi va jannat hurlari-yu parilari unga ko‘ngil bog‘lashi, butun jahon uning vaslining xaridoriligi haqida fikr yuritiladi. Shu o‘rinda ma‘shuqa muxammasning oxirgi misrasidagi Hazrati Yusuf payg‘ambarning husnidan belgi beruvchi, undan-da qadimiyoq bo‘lgan husn egasi ekanligi ta‘riflanadi. Ko‘z ko‘ngil oinasi ekanligi, Alloh barcha ashyolarda tajalli etish bilan birga, barcha sir-asrordan voqif ekanligi ta‘kidlanadi. Uning nazaridan hech bir zarra ham chetda qolmasligi uqtiriladi:

*Qiblayi hojat ahli dil bu xam abro‘laring,
Fath etar dil kishvarini necha yaxshi xo‘blaring,
Dil mashomin zavqi nok etdi muattar bo‘ylaring,
Fitnalar soldi jahong‘a nargisi jodularing,
Hufu dil kuydirguchi ham suhbati ag‘yorsan.*

Shoir asosiy e‘tiborni visol lazzatini orzu qilgan oshiq kechinmalarini qalamga olishga harakat qiladi. Uning ta‘rificha, yor bilan birga bo‘lish onlari shu qadar zavqnokki, uning nozi-u karashmalardan lazzatlanish, muattar hidlaridan mast bolib, may ichib uning oyog‘i ostida xor kabi to‘kilib, suhbatlashish har havasdan ko‘ra qadrliroqdir, deb o‘ylaydi. **Ag‘yor** so‘zi dushman ma‘nosida emas, balki ayyora tarzida ifoda etilgan, ya‘ni suhbatni ustamonlik bilan boshqacha talqinlaydigan inson ma‘nosida qo‘llangan:

*Dahr ayvonin muzayyan qildi zebo qomating,
Har zamon bir o‘zga rang birla ko‘ringay holating,
Kimsani bir ko‘rsa shaydo qilmoq ermish odating,
Emdi taslim aylayin jon olmoq o‘lsa hojating,
Jon topar sandin halovat xush liqo dildorsan.*

Ma‘shuqa, ya‘ni Alloh insonlarning yashashlari uchun yil fasllarini turli ranglar bilan almashtira oldi. U o‘z go‘zalligini namoyon etishda davom etib, zamonlar oralig‘i ni paydo etdi. Ba‘zan insonlarni siylab, ba‘zan jazolasa-da, Alloh ishqidan jon halovat topadi. Ishqning uchquni yurakka tushsa, har qanday inson unga qul bo‘ladi. Agar u oshiq jonini olmoqchi bo‘lsa, oshiq bajonidil o‘z jonini topshiradi va shu bilan haqiqiy halovatini topadi. Shavqiy yordan uning buzilgan maskanini – hijronda azob chekayotgan ko‘nglini obod etishga, visol zavqi bilan to‘ldirishiga, hatto jonini olishiga ham rozi ekanligiga e‘tibor qaratadi. Shu bois,

muxammasda zolim, vafosiz yor emas, balki mehr-shafqatli mahbuba timsoli gavdalantiriladi:

*Doda kelganlarning arzin angla, ay sohib karam,
Sidq ayla, jo 'yandalarga orazing bayt ul- haram,
Sharmsori gul yuzing, dahr ichra jannat ul- eram,
Husn aro bir shohsan shohlar g'uloming be diram,
Fe'li mustahsan, shersuvrat malak atvorsan.*

Ey sohib karam, senga arz bilan kelganlarga rahm-shavqat qil, senga bog'lanib qolganlarga orazingni bir ko'rsat, chunki ma'shuqa ruxsori er yuzidagi jannatdir. Sen husn ichra bir shohsanki, shohlar seni oldingda dirami bo'lmagan gado misolidir. Shavqiy **orazing baytul haram, shersuvrat malak** tashbehlarini keltiradi va Yaratganga bo'lgan muhabbatini har tomonlama tahlil qilishga harakat qiladi:

*Hech mahvash san kabi dil shahrini olg'on emas,
Bo'lmag'on oshufta insondin sanga qolg'on emas,
Va'dayi vaslingga jon naqdin dedim yolg'on emas,
Shavqiy nazmidek g'azal sha'ningda aytilg'on emas,
Yoshurun sirlarni fahm aylarg'a bir hushyorsan.*

(256- bet)

Qalbm hijrondan zimiston bo'lganda, Alloh taoloning zotini mushohada qilishdek holat yuz berdi. Bu mushohada shu qadar tez ro'y berdiki, uning tezligidan menda g'ayb ilmlari hosil bo'ldi.³²⁴ Demak, shoir ushbu muxammasi orqali yagona jamol sohibi bo'lgan Yaratganga bo'lgan cheksiz muhabbatini ta'riflab qolmay, balki bandlarda yashirilgan fikr borligiga ishora qiladi. Muvashshah-muxammasdagi berkitilgan so'z "**OFOQ DODA**", ya'ni sen o'z dard-g'amingni yashirmay izhor et, uni **ufqlar-oyoqlar** Yaratganga aks-sado berib etkazsin, mazmunidagi fikr mavjuddir. Shavqiyning bunday mazmundagi muxammaslarida diniy- tasavvufiy jihat ustun bo'lsa-da, voqealar ta'rif-tavsifdan iborat bo'lib qolmay, balki shoir shaxsiyatini, ya'ni o'z gunohlariga tavba qiluvchi, axloqan pok bo'lgan inson sifatidagi fazilatlarini ochib beruvchi vosita bo'lib xizmat qilgan. Muxammaslardagi borliqning o'zgacha kashf etilishi muayyan tasvirning mohiyatini aniqlash maqsadida turli timsollarni tanlashga undaydi. Bu jihat Shavqiyning ijodiy merosini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi. Muxammaslardagi orifona g'oyalar **Ka'ba, Haj, uqbo, saqar** kabi diniy istilohlarda berilar ekan, ular tasavvufning o'ziga xos bo'lgan bosqichlarini Imom G'azzoliy va Mashrabning "Kimyo" asarlarida ifoda etilgan so'fiy talqinlar bilan bir xil ekanligini ko'rsatadi. Tasavvufiy tushunchalar alohida bir g'azal yoki muxammas bo'lib kelmagan, balki misralar mazmuniga singdirilgan. Aslida tasavvufga oid matnlar insonni jisman va ma'nan poklashga xizmat qiladi. Demak, ishq bir paytning o'zida ham oynayi jahonnamo, ham kimyoga tenglashtiriladi. Ishqning kimyoligi shundaki, kimyo misni oltinga aylantirgani kabi Xudo insonni tuproqdan yaratadi-yu, kimyo bilan uning yuzini, nainki yuzini, balki

³²⁴ Hasanxon Yaxyo Abdulmajid, Husanxon Yaxyo Abdulmajid. Alisher Navoiy. Alisher Navoiydan chu topqaylar navoye. – Toshkent .HILOL -NASHR, 2014. –B. 44.

butun vujudini oltinga aylantiradi. Inson yaralgandan boshlab Xudodan ayro tushib, hijron, ayriliq azobida qoladi. Biroq Yaratguvchiga intilish uni tuproq holatidan oltin darajasigacha kamolga etkizadi³²⁵. Biz bu xususiyatni Shavqiyning muvashshah- muxammaslari tahlilida kuzatdik.

Adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 232b.
2. Фаридуддин Аттор. Тазкират ул-авлиё. – Тошкент: Фафур Фулом, 2017. – 464 б.
3. Uludog‘ S. Tasavvuf terimlari so‘zlugi. – Istanbul, 2005. – S. 512.
4. Muynidnova A. O‘zbek milliy uyg‘onish adabiyotida muvashshahchilik: an‘ana va individuallik: Filol.fan.bo‘yicha fals.dok(PhD)diss. – Toshkent. 2023. – 31 b.
5. Абдуқодиров А. Тасаввуф истилоҳларининг қисқача изоҳли луғати. – Хўжанд: Хўжанд, 1997. – 95 б.
6. Hasanxon Yaxyo Abdulmajid, Husanxon Yaxyo Abdulmajid. Alisher Navoiy. Alisher Navoiydan chu topqaylar navoye. – Toshkent .HILOL -NASHR, 2014. – B. 44.
7. S.Olim. “Lison-ut tayr”: haqiqat va majoz sintezi // O‘zbek tili va adabiyoti, 2020, 3-son. – B.23.

TAZKIRA JANRINING XVII-XX ASRLARDAGI TADRIJIY TARAQQIYOTI

Lochinbek AHMADALIYEV

O‘zR FA Davlat adabiyoti muzeyi tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada tazkira janri va uning o‘ziga xos xususiyatlari, ayni janrning XVII-XX asrlardagi tadrijiy taraqqiyoti, hamda unga sabab bo‘lgan omillar borasida mulohaza yuritilib, davr tazkirachiligining spessifikasi borasida qarshlar bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: Tazkira, zikr, janr, tazkiranavis, an‘ana, nusxa, davr, yarix, tanqid.

Abstract. This article discusses the tazkira genre and its characteristics, the gradual development of this genre in the 17th-20th centuries, and the factors that caused it.

Key words: Tazkira, zikr, genre, tazkiranavis, tradition, copy, period, yarikh, criticism.

³²⁵ S.Olim. “Lison-ut tayr”: haqiqat va majoz sintezi // O‘zbek tili va adabiyoti, 2020, 3-son. – B.23.

Tazkira arabcha “zikr” soʻzidan olingan boʻlib, “eslatmoq”, “zikr etmoq”, “tilga olmoq”, “esdalik daftari” degan maʼnolarni anglatadi. Sharq mumtoz adabiyotida keng tarqalgan adabiy-tanqidiy janr. Sharq adabiyotida tazkira yozish anʼanasi uzoq tarixga ega. Ana shu davr ichida tazkira mazmun va shakl jihatidan kattagina oʻzgarishni boshdan kechirdi. Tazkira hayotning turli-tuman sohalarini qamrab olishiga koʻra uni keng va tor maʼnoda tushunish mumkin. Keng maʼnoda tazkira tarix, tasavvuf, falsafa, sanʼatning turli sohalariga bagʻishlangan boʻlishi mumkin. Fariduddin Attorning “Tazkirat ul-avliyo”, Gʻulom Muhammad Dehlaviyning “Tazkirai xushnavison”, Sadri Ziyoning “Tazkirai humafo” kabi asarlari ana shunday keng maʼnodagi tazkiralardir³²⁶. Tor maʼnodagi tazkira adabiy-tanqidiy qarashlarni ifoda etuvchi, adabiyot tarixi, maʼlum davr shoirlari hayoti va ijodi haqida maʼlumot, asarlaridan namunalar keltirib tuzilgan toʻplam. Adabiyotshunoslikda tor maʼnodagi tazkiralalar va ularning xususiyatlari tadqiq etiladi.

Sharq adabiyotshunosligida bizgacha yetib kelgan dastlabki tazkira Abu Mansur as-Saolibiyning “Yatimat ad-dahr fi mahosili ahdi asr” (“Zamona ahlining fazilatlarini haqida yagona durdona”) tazkirasidir³²⁷. Lekin, ungacha ham arab adabiyotida tazkiralalar yozilgan. Biroq, shunday boʻlsa-da, ular bizgacha saqlanib qolmagan yoki ayrim namunalarini saqlanib qolganlari ham toʻla tazkira koʻrinishida boʻlmay tazkira taqlid asarlardir.

Fors-tojik tilida bitilgan dastlabki tazkira Nuriddin Muhammad ibn Tohir ibn Usmon Muhammad Avfiy Buxoriyning (1171-1233) “Lubob ul-albob”³²⁸ asari boʻlib, XIII asrdan bizgacha yetib kelgan yagona tazkira hamdir. Buning birlamchi sababi moʻgʻullar bosqini va ularning madaniy hayotni izdan chiqarganligidadir. Tazkiranavis Aynal mulk Rahmiddin al-Husayniy nomiga bagʻishlab oʻzining 300 nafar shoir haqidagi tazkirasini yaratdi. Ushbu asar Oʻrta Osiyo va Eron madaniy tarixiga oid koʻp qimmatli bir maʼxazning keng ilmiy tadqiqot doirasiga kirishiga sabab boʻlgan.

Nizomiddin Mir Alisher Navoiy (1441-1501)ning mashhur tazkirasi – “Majolis un-nafois”³²⁹ (“Nafislar majlislari”) (1491-1492; 1498) turkiy (oʻzbek) tilida yozilgan, ilk tazkira boʻlib, sakkiz majlisda 459 shoir bayon etilgan³³⁰. “Majolis un-nafois” asari koʻpgina xususiyatlari bilan XVI-XIX asrlar davomida oʻzbek, fors-tojik va ozarbayjon tillarida yozilgan tazkiralarga namuna boʻldi³³¹. Sodiqbek Sodiqiyning “Majma ul-xavos”, Malehoning “Muzakkir ul-asʼhob”, Hasanxoʻja Nisoriyning “Muzakkir ul-ahbob”, Som Mirzoning “Tuhfai Somiy”,

³²⁶ Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2013. – Б. 303-304.

³²⁷ Болтабоев Ҳ. Тазкиралар зикри. – Т.: Mumtoz soʻz, 2015. – Б.3.

³²⁸ Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. –Т.: Ўзбекистон, 1993. –Б.91.

³²⁹ Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис (Нашрга тайёрл. С.Ғаниева) / МАТ. 13-жилд. –Т.: Ған, 1997. 518 б.

³³⁰ Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Т.: Ўзбекистон, 1993. –Б.95.; Болтабоев Ҳ. Тазкиралар зикри. –Т.: Мумтоз сўз, 2015. –Б.52.

³³¹ Қаюмов А. Дилкушо такрорлар ва рухафзо ашъорлар. –Т.: Шарқ, 2014. –Б.222-230.

Lutf Alibek Ozariyning “Otashkadai Ozariy”, Fazliyning “Majmuai shoiron”, Ahmad Tabibiyning “Majmuai payravi g‘azaliyoti Feruzshohiy” va “Majmuai muxammasoti Feruzshohiy”, Po‘latjon Qayyumiyning “Tazkirai Qayyumiy” asarlari shular jumlasidandir.

Shundan so‘ng davom etgan turkiy va fors-tojik tazkirachilik jarayonlarida, xususan, XVI-XVII asr tazkiranavisligini ham “Majolis un-nafois” uslubining davomi deb hisoblash mumkin. Muhammad Ali Sodiqbek Sodiqiy Afshar “Majma ul-xavos” (Istanbul universiteti kutubxonasi №4085, №4097/42; Nuri Usmoniya kutubxonasi №3201; Moskva Davlat kutubxonasi №ZV 17-13/49; Istanbul universiteti kutubxonasi №4085, №4097/42; Rossiya FA Sharq Qo‘lyozmalari instituti Sankt-Peterburg bo‘limi №1187)³³², Abdunabi Faxruzzamoni “Tazkirai mayxona”, Sherxon ibn Lo‘diy “Mir‘ot ul-xayol”, Husayn Alixon Azimobodiy ibn Oqo Alixon Shoh Jahonobodiy “Nishtari ishq” (O‘zR FA ShI. №4321), Mehmed Riyoziy bin Mustafo Birgivi “Riyoz ush-shuaro”, Abdulboqi Nahovandiy “Maosiri Rahimiy”, Sodiqiy Samarqandiy “Riyoz ush-shuaro” (Istanbul universiteti kutubxonasi №761, №3250, №4098, №6199)³³³, Kafzoda Foiziy “Zubdat ul-ash‘or”, Mutribiy Samarqandiy “Tazkirat ush-shuaro”³³⁴ va “Nusxayi zeboyi Jahongir”³³⁵, Nozim Tabriziy “Nazmi guzida”, Zahrimor Mehmed Bey o‘g‘li Rizo “Tazkira”, Ali Go‘ftiy “Tashrifot ush-shuaro”, Muhammadbade‘ Maleho Samarqandiy “Muzakkir ul-as‘hob”³³⁶ asarlari aynan shu davr tazkirachiligining yetuk namunalaridir.

Mutribiy Samarqandiy “Tazkirat ush-shuaro” asariga XVI asr ikkinchi yarmida Buxoro va Xiva xonliklari, Sharqiy Turkiston, Safaviylar davlati, Boburiylar va Usmonli turklar imperiyasida faoliyat olib borgan 350dan ortiq shoirlarni ichiga kiritgan bo‘lsa, “Nusxayi zeboyi Jahongir”da aynan shu davr vakillari sanalgan 240 nafar shoir borasidagi qarashlarni olishimiz mumkin³³⁷. Ushbu ikki asar zamonaviy tazkira tipida ekanligi bilan yanada ahamiyatlidir. Ularda muallif o‘zi bilan zamondosh bo‘lgan, bevosita va bilvosita to‘plagan ilmiy faktlarini kiritgan.

XVIII asrda Mustafo Mujib “Tazkirai Mujib”, Mustafo Safoiy “Nuhbat ul-osor min favoid ul-ash‘or”, Mehmed Amin Solim “Tazkirai shuaro”, Ismoil Balig‘ “Nuhbat ul-osor li zayli zubdat ul-ash‘or”³³⁸, Aliqulixon Vola Dog‘istoniy “Riyoz

³³² Fаниева С. Навоийнинг “Мажолис ун-нафоис” асари таъсирида ёзилган тазкира. // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. 1963. 6-сон. –Б.21-29.

³³³ Болтабоев Ҳ. Тазкиралар зикри. –Т.: Mumtoz so‘z, 2015. –Б.100-104.

³³⁴ Абдуллаев В., Валихўжаев Б. “Мажолис ун-нафоис” типидagi бир тазкира ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 1965. №5. –Б.9-14.

³³⁵ Абдуллаев В., Валихўжаев Б. Мутрибий ҳақида янги маълумотлар // Ўзбек тили ва адабиёти. 1978. №4. –Б.11-15.

³³⁶ Jumaхo‘ja N., Adizova I. O‘zbek adabiyoti tarixi (XVI-XIX asr I yarmi). –Т.: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – В.44.

³³⁷ Бекчанов И. Мутрибий тазкиралари муҳим адабий манба. –Т.: MUMTOZ SO‘Z, 2009. 247 б.

³³⁸ Болтабоев Ҳ. Тазкиралар зикри. –Т.: Mumtoz so‘z, 2015. –Б.130-140.

ush-shuaro”³³⁹, noma’lum muallifning “Tazkirai shoiron”, Muhammad Amin ibn Nurmuhammad Nasafiy “Mazhar ul-musannifin”³⁴⁰, G‘ulom Alixon Ozod “Xizonai omira”, Lutf Alibek Ozariy “Otashkadai Ozariy”³⁴¹, Is’hoqbey Uzri Beydili “Tazkirai Is’hoq”, Husayn Ramiz “Odobu zurafo”, Muhammad ibn Sulaymon Kafaviy “Tazkirat ul-ulamo”, Abu Tolibxon Tabriziy “Xulosat ul-afkor”, Muhammad Bahodirxon Safaviy “Tuhfat ush-shuaro”, Mehmed Asror Dada “Tazkirai shuaro mavlaviyya”³⁴² tazkiralari dunyoga keldi.

Lutf Alibekning ikki kitobdan iborat “Otashkadai Ozariy” asarida X–XVIII asrlarda Eron, Movarounnahr va Hindistonda faoliyat olib borgan 842 nafar ijodkor to’g’risida ma’lumot hamda ularning asarlaridan namunalari keltirilgan³⁴³. Lutf Alibek o’z asarini yozishda “Lubob ul-albob”ga asoslangan bo’lsa, Po’latjon Qayyumiy fors tilida ijod etgan turkiy shoirlar haqida ma’lumot beruvchi “Tazkirat ush-shuaro”, Sulton Muhammad Bahodirxon “Tuhfat ush-shuaro” asari uchun manbalardan biri sifatida “Otashkadai Ozariy”ni tanlagan. O’zbek adabiyoti tarixiga aloqador jihati Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan ijodkorlar ikkinchi axgar nomi ostida uch sharoraga tasniflangan.

XIX asrda Sayyid Abdulfattoh Shavkat “Tazkirat ush-shuaro”; Abdurazzoq Maftun Dunbuliy “Hadoyiq ul-udoba”, “Nigoristoni Dara”, “Tajrubat ul-ahror va tasliyat ul-abror”; Muhammad Fozilxon Go’rusiy Raviy “Anjumani xoqon”; Mahmud Mirzo Qajar “Gulshani Mahmud”, “Bayon ul-Mahmud”, “Nuqli majlis”³⁴⁴; Fazliy, Xotif, Behjat, Fikriylar “Majmuai shoiron”³⁴⁵; Ali Ibrohim Xalil “Xulosat ul-kalom”; Ali Akbar Bismil Sheroziy “Tazkirai Dilkusho”; Sayfuddavla Muhammad Tog’i “Bazmi xoqon”; Bahman Mirzo “Tazkirai Muhammadshohiy”; Asad Afandi “Bog’chai safoanduz”; Muhammad Solih Shamlu “Mahak ush-shuaro”; Orif Hikmat “Tazkirai shuaro”; Mahmud Qajar bin Fathalishoh

³³⁹ Валихўжаев Б. Алиқулихон Вола ва унинг Алиқулихон Вола тазкираси // Адабий мерос. –Т., 1987. –Б.13-19

³⁴⁰ Муҳаммад Носир. Насаф ва Кеш алломалари. –Т., 2001. 247 б.

³⁴¹ Мақсуд Шайхзода. Асарлар. (Олти томлик). Тўртинчи том. Ғазал мулкининг султони (Алишер Навоий ҳақидаги тадқиқот ва мақолалар мажмуаси) (нашрга тайёрловчи Маллаев Н.). –Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. –Б.295-346.

³⁴² Болтабоев Ҳ. Тазкиралар зикри. –Т.: Mumtoz so’z, 2015. –Б.146-150.

³⁴³ Мақсуд Шайхзода. Асарлар. Олти томлик (6 томлик). Тўртинчи том. Ғазал мулкининг султони (Алишер Навоий ҳақидаги тадқиқот ва мақолалар мажмуаси) (нашрга тайёрловчи Маллаев Н.). –Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. –Б.340.; Болтабоев Ҳ. Тазкиралар зикри. –Т.: Mumtoz so’z, 2015. –Б.144-146.

³⁴⁴ Болтабоев Ҳ. Тазкиралар зикри. –Т.: Mumtoz so’z, 2015. –Б.153-158.

³⁴⁵ Пўлатжон Қайюмий. Тазкираи Қайюмий (нашрга тайёрловчи Қаюмов А.). –Т.: ЎЗР ФА Қўлэмалар институти таҳририй нашриёт бўлими, 1998. 713 б.; Пўлатжон Қайюмий. Хўқанд тарихи ва унинг адабиёти (нашрга тайёрловчи Қаюмов А.). –Т.: Тамаддун, 2011. 377 б.; Қаюмов А. Қўқон адабий муҳити (XVIII-XIX асрлар). –Т.: ФАН, 1961. 360 б.; Қаюмов А. Асарлар 7-жилд (1-китоб). –Т.: Mumtoz so’z, 2010. 278 б.; Қаюмов А. Асарлар 7-жилд (2-китоб). –Т.: Mumtoz so’z, 2012. 250 б.; Тошболтаева Т. Фазлий Намангоний: “Мажмуаи шоирон”да анъанавийлик ва ўзига хослик // филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. –Фарғона, 2021. 58 б.; Тошболтаева Т. “Мажмуаи шоирон” ва унинг муаллифи. // Адабиёт кўзгуси, 2003. №7. –Б.25-32.

“Tazkirai salotin”; Huloku Mirzo Qajar “Xarobot”; Xudoyberdixon Qajar “Tazkirai madoyihi Elxoniyya”; Dovud Fatiyn “Xotimat ul-ash’or”; Hoji Mehmed Tavfiq “Majmuat ut-tarojim”, “Qofilai shuaro”; Muhammad Bag’irxon Qajar “Falak ul-Marrix”; Hoji Abdulazim Shar’iy “Tazkirat ush-shuaro”; Mirmuhammad Siddiqiy Hashmat “Tazkirat ush-shuaro”, “Tazkirat us-salotin”; Rahmatulloh ibn Ashurmuhammad VozeH “Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul-as’hob”; Sayyid Azim ShirvoniY “Tazkira”; Haydarquli Mirzo Fatalishoh Qajar o’g’li “Tazkirai Xovar”; Muhammad Kozim Asror Alishoh Tabriziy “Behjat ush-shuaro”; Mirzo Isa Xayoliy Ziyoiy “Tazkirai Ziyoiy”; Mir Muhsin Navvob “Tazkirai Navvob”³⁴⁶ kabi asarlar adabiyotshunoslik sohasiga kirib keldi. Ko’rinib turganidek, bu asr tazkirachiligida Ozarbayjon tazkiranavislik maktabi yetakchi o’rinda turgan.

Qo’qon adabiy muhitining asoschisi, homiysi, davlat arbobi – Amiriyning talabi va taklifi bilan Abdulkarim Fazliy NamangoniY boshchiligidagi Mushrif, Mirza Ayyub Behjat, Mirzo Qalandar Fikriylardan iborat ijodiy guruh tomonidan tuzilgan “Majmuai shoiron” tazkirasining eng qadimiy qo’lyozma nusxasi 1821-yilga oid bo’lsa, 1902-yilda Abdulmannof qori Abdulvahob kotib tomonidan ko’chirilgan nusxa asosida Toshkentdagi bosmaxonada litografiya yo’li bilan nashr qildirilgan.

Tazkira xattotlar tomonidan ko’plab nusxalarda ko’chirilgan bo’lib, ajablanarlisi ularda shoirlar soni xilma-xilligidir. Bunga kotiblarning nusxa ko’chirish jarayonida asli tazkirada bo’lmagan shoirlarni qo’shib ketganlari sabab bo’lgan. O’zR FA ShIda №7510 inv. raqami ostida saqlanayotgan qo’lyozma 1821-yilda ko’chirilgani, bizgacha yetib kelgan va ma’lum bo’lgan nusxalarning eng qadimiysi, qolaversa AmiriY tahriridan o’tgan bo’lishi ehtimoli bilan qolgan nusxalarga nisbatan tayanch manba vazifasini o’tay oladi. Ushbu qo’lyozmada shoirlar soni 64 nafar bo’lsa, O’zR FA ShI №9139da 63, 1823-yili ko’chirilgan O’zRFA ShI №9914da 74 nafar shoir berilgan. O’zRFA ShI №6745, №1153; №238, №5045, №358 nusxalarini ilmiy tahrirdan o’tkazgan adabiyotshunos olim, H.Boltaboyev: “Asarda XIX asrning birinchi choragi (1762-1827)da Qo’qon, Andijon, Marg’ilon, Xo’jand, Samarqand, Buxoro, Hirot, Balx, Qashg’arda yashab ijod etgan 100 ga yaqin shoirlar haqida ma’lumot berilgan”³⁴⁷, -degan yakdil xulosani bergan. Adabiyot tarixiga oid darsliklar va dissertatsiyalarda ham mazkur tazkiradagi shoirlar soni turlicha ko’rsatilgan. N.Jumaxo’ja “O’zbek adabiyoti tarixi” darsligida 93 nafar³⁴⁸ shoir mavjud deb bersa, aynan shu mavzuda ilmiy tadqiqot olib borgan T.Toshboltayeva ular sonini 88 nafar³⁴⁹ deb ko’rsatadi. Lekin har ikki adabiyotshunos o’z xulosasining manbasini ko’rsatmagan.

³⁴⁶ Болтабоев Х. Тазкиралар зикри. –Т.: Mumtoz so’z, 2015. –Б.188-205.

³⁴⁷ O’sha asar, 159-bet.

³⁴⁸ Jumaxo’ja N., Adizova I. O’zbek adabiyoti tarixi (XVI-XIX asr I yarmi). – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – B.43.

³⁴⁹ Тошболтаева Т. “Мажмуаи шоирон”да аъъанавийлик ва ўзига хослик //фил. фан. бўй. фал. д-ри (PhD) даражасини олиш учун ёзилган дисс. авт. Фаргона, 2021. – Б.11.

“Majmuai shoiron” Amiriy madhiga bag‘ishlangani hamda uning g‘azallariga payrav va muxammaslar ruhida bitilgani sababli unga nisbatan turlicha baho berilgan. Masalan, B.Valixo‘jayev³⁵⁰ uni maddohlik asari deb atagan bo‘lsa, N.Jumaxo‘ja³⁵¹ Abdurauf Fitrat³⁵² fikrlariga tayangan holda, bu uslub adabiyotshunoslik, xususan, tazkirachilikda yangicha yo‘nalish ekanligini aytib, bu keyinroq an‘ana tusini olgani, chunonchi, Feruz boshliq Xorazm adabiy muhitida davom ettirilgani ta‘kidlaydi. A.Erkinov³⁵³ o‘z tadqiqotlarida asar ayrim jihatlar bilan tazkira janriga javob bermasligi, balki bayozga yaqinligini aytgan. Tazkira haqida adabiyotshunos olimlar tomonidan bildirilgan fikrlar xilma-xilligiga qaramay, adabiyot tarixi, jumladan, Qo‘qon adabiy muhiti borasida eng qimmatli manbadir.

XX asr tazkiranavislik an‘anasining munosib davomchisi bo‘la oldi. Bu davr soha mutaxassisleri o‘z zamondoshlari haqida ma‘lumotlarni yozib qoldirish bilan bir qatorda o‘tmish adabiyot vakillari, xususan, ularning ijodiga o‘z davri nuqtai nazaridan turib yangicha baho, turli yangicha qarashlar bera oldilar. Chunonchi, bu davrdan bizga Abdumutallib Xoja Fahmiy “Tazkirai Fahmiy”³⁵⁴; Foiq Reshad “Aslof”; Afzal Pirmastiy “Afzal ut-tazkor”, “Tazkirai Afzaliy”³⁵⁵; Abdullaxo‘ja Abdiy “Tazkirat ush-shuaroii mutaaxxirini Buxoro”, “Tazkirai shuaroii Abdullohxoja Abdiy”; Mehmed Sirojiddin “Majmai shuaro va tazkirai udabo”; Hoji Ne‘matulloh Muhtaram “Tazkirat ush-shuaro”; Ahmad Tabibiy “Majmuat ush-shuaroii payravi Feruzshohiy”³⁵⁶, “Muxammasoti majmuat ush-shuaroii Feruzshohiy”³⁵⁷; Ali Amiriy “Tazkirai shuaroii Omid”; Og‘a Mahammad Mujtahidzoda “Riyoz ul-oshiqin”; Muhammad Sharif Sadr Ziyo “Tazkori ash‘or”, “Tazkirat ush-shuaroii mutaqaaddimin”, “Shuaroii mutaaxxirin”, “Fuzaloi mutaaxxirin va shuaroii maosirini roqimi adim ul-qadr Sadri Ziyo”, “Tazkirat ul-hukamo”, “Tazkirat ul-humaqo”, “Navodiri ziyoiya”; Mir A‘zam Davron

³⁵⁰ Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. –Т.: Ўзбекистон, 1993. –Б.18-20.

³⁵¹ Jumaxo‘ja N., Adizova I. O‘zbek adabiyoti tarixi (XVI–XIX asr I yarmi). –Т.: Noshir, 2019. –В.11-13.

³⁵² Фитрат А. XVI асрдан сўнгга ўзбек адабиётига умумий бир қараш // – Тошкент: Аланга. 1929. №8. –Б.7.

³⁵³ Erkinov A. “Majmuayii shoiron” tazkiramii yoki bayoz? // Adabiy meros. –Т. 2022. №1. – В.50-65.

³⁵⁴ Жуманазар А. Маълумотлар ва... таассурот // ЎзАС. 2013, 11 октябр.

³⁵⁵ Ahmadaliyev L. Po‘latjon Qayyumiy asarlarida Qo‘qon shoirlari // Qo‘qon adabiy muhiti va Uchinchi Renessans mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. – Farg‘ona, 2022. –В.137-148.

³⁵⁶ Ғанихўжаев Ф. Табибий. –Т.: Ўқитувчи, 1978. 241 б.; Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихидан. –Т.: Ўзбекистон, 1993. –Б.18-20.; Абдуллаев Х. Хоразм адиблари. Урганч: УрДУ, 1998. 287 б.; Маткаримова С. Табибий – тазкиранавис. –Т.: Мухаррир, 2011. 146 б.

³⁵⁷ Қобилова З. Амирий ва унинг адабий фаолияти: Филол. фан. ном. ...дис. автореф. – Тошкент, 2007. 26 б.; Бадиий ижодда таъсир ва издошлик масалалари (Амирий шеърини мисолида): Филол. фан. д–ри ... дис. –Фарғона, 2022. 260 б.; Маткаримова С. Табибий – тазкиранавис. –Т.: Мухаррир, 2011. 146 б.

Ibrohimbek o'g'li "Ash'ori nisvon"³⁵⁸ Ibrohim Tohir Musayev "Riyoz ul-orifin"; Hasan Alixon Qoradog'iy "Tazkirai Qoradog'iy"; Shamsiddinxon Haqqi Tabriziy "Anjuman ul-udabo"; Ibnulamin Mahmud Kamol Inal "So'ng asr turk shoirlari"; Noil Tuman "Tuhfai Noiliy"; Shamsiddinxon Haqqi Tabriziy "Anjuman ul-udabo"; Muhammadali Tarbiyat "Donishmandoni Ozarbayjon"; Muhammad Avaz ibn Sadridin Qoratoshiy "Majmat ul-ahkom"; Hasanmurod qori Laffasiy "Tazkirai shuaro"³⁵⁹; Muhammad Ali Tabriziy "Rayhonat ul-adab"; G'ulom Mammadli "Tazkira"; Sayyid Abdulhamid Xolxoliy "Tazkirai shuaro muosiri Eron"; Po'lotjon domulla Qayyumiy "Tazkirai Qayyumiy"³⁶⁰, "Xo'qand tarixi va uning adabiyoti", "Tazkirat ush-shuaro"; Bobojon Tarroh "Xorazm shoir va navozandalari"³⁶¹; Aziz Davlatobodiy "Suxanvaroni Ozarboyjon"; Ali Nazmiy "Devist suxanvor"; Oftobroy Lakhnaviy "Riyoz ul-orifin"; Yahyo Shaydo "Adabiyot o'chog'i", Mahammad Dayhim "Tazkirai shuaro Ozarboyjon"; Ali Ibrohim Xalilxon "Suhufi Ibrohim"; Abdulloh Kobuliy "Tazkirat ut-tavorix"; Sadridin Ayniy "Namunai adabiyoti tojik"³⁶², Majididdin Muhammad al-Husayniy "Ziynat ul-majolis"; Shohin Fozil "Tazkirai Shohin" asarlari yetib keldi.

³⁵⁸ Жалолов Т. Ўзбек шоирлари (2-нашри). –Т.: Мехнат, 1970. –Б.136-150; Пўлатжон Қайюмий. Хўқанд тарихи ва унинг адабиёти (Нашрга тайёрловчи Қаюмов А.). –Т.: Тамаддун, 2011. –Б.246-250.

³⁵⁹ Самандарова С. XX аср ўзбек тазкиралари // номзодлик диссертацияси автореферати. – Т., 1996. 26 б.

³⁶⁰ Po'latjon Qayyumiy. Tazkirai Qayyumiy qo'lyozmasi. –Т.: Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi №734.; Пўлатжон Қайюмий. Тазкирай Қайюмий (нашрга тайёрловчи Қаюмов А.). –Т.: ЎЗР ФА Қўлэзмалар институти тахририй нашриёт бўлими, 1998. 713 б.; Пўлатжон Қайюмий. Хўқанд тарихи ва унинг адабиёти (нашрга тайёрловчи Қаюмов А.). – Т.: Тамаддун, 2011. 377 б.; Қаюмов А. Қўқон адабий муҳити (XVIII-XIX асрлар). –Т.: ФАН, 1961. 360 б.; Қаюмов А. Асарлар 7-жилд (1-китоб). –Т.: Mumtoz so'z, 2010. 278 б.; Қаюмов А. Асарлар 7-жилд (2-китоб). – Т.:, 2012. 250 б.; Самандарова С. "Тазкирай Қайюмий" – қўлэзма манба. –Т., 1996. 136 б.; Ahmadaliyev L. "Tazkirai Qayyumiy" Amiriy fiqrasi (№40) dagi she'rlarning matniy-qiyosiy tadqiqi // Porso Shamsiyev tavalludining 125 yilligiga bag'ishlangan respublika ilmiy anjumani konferensiyasi. –Т., 2022-yil, 27-aprel. –В.89-94.; Ahmadaliyev L. Xo'qandi latif – "shoirlar shahri // Qo'qon adabiy muhiti va Uchinchi Renessans mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. –Farg'ona, 2022. – В.148-157.; Ahmadaliyev L. "Tazkirai Qayyumiy"ning adabiy manba sifatidagi ahamiyati // Qo'qon adabiy muhiti va Uchinchi Renessans mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. –F., 2022. –В.246-254.; Ahmadaliyev L. "Tazkirai Qayyumiy"dagi Nodira fiqrasining matniy-qiyosiy tadqiqi" // Ozarbayjon va Qozog'iston Respublikalari diplomatik munosabatlari 30 yilligiga bag'ishlangan 30-xalqaro simpozium. –Астана. Ылыми жаңалықтар. №5. 30.09.2022.

³⁶¹ Бобожон Тарроҳ. Хоразм навозандалари. –Т.: Гафур Гулом номидаги дав. Ад. наш., 1994. 316 б.; Отамуродова А., Абдурахимов О. Ситамгар гардуни дун. –Т.: Tafakkur qanoti, 2013. 124 б.

³⁶² Пўлатжон Қайюмий. Тазкирай Қайюмий (нашрга тайёрловчи Қаюмов А.). –Т.: ЎЗР ФА Қўлэзмалар институти тахририй нашриёт бўлими, 1998. 713 б.; Пўлатжон Қайюмий. Хўқанд тарихи ва унинг адабиёти (нашрга тайёрловчи Қаюмов А.). –Т.: Тамаддун, 2011. 377 б.; Қаюмов А. Қўқон адабий муҳити (XVIII-XIX асрлар). –Т.: ФАН, 1961. 360 б.; Каримов Ф. К. Ўзбек адабиёти тарихи (XIX асрнинг иккинчи ярмидан XX аср

Nozik va Muhtaram taxalluslari bilan qalam tebratgan Mulla Muhammad Ne'matulloh qozi Sharafiddin o'g'lining "Tazkirat ush-shuaro" asari Sadr Ziyi tomonidan erkin tarzda qaytadan ko'chirilgan bo'lib, kotib bu ishida tazkiradagi shoirlar sonini 59 nafardan 133 nafarga yetkazgan³⁶³. Tazkira tuzilishi jihatidan alifbo asosida tartib berilgan tazkiralari qatoridan joy oladi.

Qo'qonda "Majmuai shoiron" tuzilgach, Muhammad Rahimxon Soniy Feruz o'zining yuzta g'azalini ajratib beradi va 33 nafar shoirdan ularga payrav va taxmislar yozish talab etiladi. Ahmad Tabibiy ular asosida "Majmuat ush-shuaro" payravi Feruzshohiy va "Muxammasoti majmuat ush-shuaro" Feruzshohiy ushbu tazkiralari tuzadi³⁶⁴. Tazkira tuzilishi bo'yicha sulolaviy tazkiralari turiga kiradi. Mavzu va g'oya jihatidan "Majmuai shoiron" an'anasini davom ettirgan.

Mir A'zam Davron "Ash'ori nisvon" asari butkul ayol shoirlari ijodiga bag'ishlangan kam sonli, noyob manbalardan biri bo'lib, unda, asosan, muallifga zamondosh bo'lgan Xo'qandi latifdan yetishib chiqqan 23 o'zbek shoira ijodiga to'xtalangan. Muallif Po'latjon Qayyumiyga hamasr bo'lib, ushbu asardan Qayyumiy domla o'z tazkirasiga ayol shoirlari kiritishda foydalangan. №222 fiqra Davronga bag'ishlanib, u haqida "bu kishi Xo'qand shaharida xizmatchi kosib oilasida Xo'jand dahasiga tobe G'oziyog'liq mahallada otasining 4nchi bolasi bo'lub dunyoga kelmishdur. Nomi Mira'zamdur. Mulla Muhammad Ibrohim Mirzoning o'g'lidur"³⁶⁵, deyilsa, asariga shunday baho berilgan: "Madora ismida bir kioska do'kon ochdi. Bunda mahalliy gazetalar, ba'zi broshyuralari sotilar edi. Bunda 1nchi asari "Ash'or un-nisvon" chiqarildi. 65 sahifalik bu kitob bahosi 50 tiyin edi. Xo'qandda lito'grofiyada bosdirilmish edi. Xo'qand shoirlarining she'rlari ila barobar xotunlar og'zidan aytib o'zi tomonidan nadomatomez she'rlar bor edi"³⁶⁶.

Hasanmurod qori Laffasiyning "Tazkirai shuaro" asari o'z tarkibiga muallifdan tashqari Xorazm adabiy muhitining 50 nafar shoira kiritgan bo'lib³⁶⁷, tazkiraning spetsifik xususiyatlaridan biri shundaki, uning sistem-struktur jihati nihoyatda murakkab ishlangan. An'anaviy boshlanmasiz boshlangan tazkirada she'riy tanishtiruv, ijodkorlar ahvoli va ijodidan namunalar, she'riy parchalar aralash tarzda keladi. Shoirlari hayoti va ijodining she'riy tarzda berilishi jihatidan "Majmuai shoiron" va Ahmad Tabibiy tazkiralari yaqin turadi.

бошларига). –Т.: Ўқитувчи, 1975. –Б.104. Ahmadaliyev L. Po'latjon Qayyumiy fenomeni // AnDU. Ilmiy xabarlar. –Andijon, 2022-yil №5 (65). – В. 69-77.

³⁶³ Болтабоев Х. Тазкиралар зикри. –Т.: Mumtoz so'z, 2015. –Б.214.

³⁶⁴ Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. –Т.: Ўзбекистон, 1993. –Б.18-20.; Juma'ja N., Adizova I. O'zbek adabiyoti tarixi (XVI–XIX asr I yarmi). –Т.: Noshir, 2019. – В.11-13.; Фитрат А. XVI асрдан сўнгра ўзбек адабиётига умумий бир қараш // – Тошкент: Аланга. 1929. №8. –Б.7.; Erkinov A. "Majmuai shoiron" tazkiramini yoki bayoz? // Adabiyot meros. –Т. 2022. №1. –В.50-65.

³⁶⁵ Po'latjon Qayyumiy. Tazkirai Qayyumiy qo'lyozmasi. –Т. Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi №222, 461-sahifa.

³⁶⁶ O'sha asar, o'sha sahifa.

³⁶⁷ Самандарова С. XX аср ўзбек тазкиралари // номзодлик диссертацияси автореферати. – Т., 1996. –26 б.

Adabiyotlar:

1. Po‘latjon Qayyumiy. Tazkirai Qayyumiy (nashrga tayyorlovchi: Qayumov A.). – Toshkent: O‘z R FA Qo‘lyozmalar instituti tahririy nashriyot bo‘limi, 1998. – 713b.
2. Po‘latjon Qayyumiy. Xo‘qand tarixi va uning adabiyoti (nashrga tayyorlovchi: Qayumov A.). – Toshkent: Tamaddun, 2011. – 377 b.
3. Po‘latjon Qayyumiy. Tazkirat ush-shuaro. 1-2-kitob. – Toshkent: O‘z R FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi, 2006. – 376 b.
4. Qayumov A. Qo‘qon adabiy muhiti (XVIII-XIX asrlar). – Toshkent: Fan, 1961. – 360 b.
5. Qayumov A. Asarlar. 10 jildlik. 7-jild. 1-kitob. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010. – 278 b.
6. Abu Mansur as-Saolibiy. Tatimmat al-yatima (nashrga tayyorlovchi: Abdullayev I.). – Toshkent: Fan, 1990. – 204 b.

QO‘QON XONLIGI TARIXIGA OID MANBALARDA UMARXON VA NODIRA HAQIDA MA‘LUMOTLARNING KELISHI

Malikaxon NURUTDINOVA

O‘zR FA Davlat adabiyot muzeyi tadqiqotchisi

Annotatsiya. Olim Vohidov Shodmon Xuseynovichning “XIX-XX asr boshlarida Qo‘qon xonligida tarixnavislikning rivojlanishi” nomli dissertatsiyasidagi Qo‘qon xonligi davrida bo‘lgan voqea va xodisalar yuzasidan muhim ma‘lumotlar keltirgan. O‘sha davr o‘zbek adabiyoti tarixini taraqqiyot davrining dastlabki adabiy hayoti va uning namoyondalari ijodini o‘rganib, Qo‘qon muarrixlari asarlarini, ularning uslubiy taraflarini tahlili haqida so‘z boradi. Bu asarda Umarxon amirligi davri yirik shaharlaridagi ziyolilar, hunarmand shoirlar to‘g‘risida muhim ma‘lumotlarga ega bo‘lamiz. Amiriyning ijodiy pallasi to‘g‘risida ham talaygina fikrlar beriladi.

Kalit so‘zlar: meros, mumtoz, muarrix, matnshunos, manba, tadqiq qilish, nashr, P. Qayyumovning “Tazkirai Qayumiyy”, B.Valixo‘jaev, A.Hayitmetov, M.Qodirova, H.Muhammadxo‘jayev, R.Orzibekovning qarashlari, savodxonlik, matn.

Аннотация: В диссертации ученого Вахидова Шодмона Гусейновича на тему «Развитие историографии в Кокандском ханстве в начале XIX-XX веков» были даны важные сведения о событиях и явлениях в период Кокандского ханства. Анализируются история узбекской литературы того времени, ранняя литературная жизнь периода развития и творчество ее представителей, труды Кокандских историков и их методологические

аспекты. В этой работе мы получим важную информацию об интеллектуалах и поэтах-ремесленниках в больших городах периода Умар-хана. Много мыслей дается о творческой жизни Амири.

Ключевые слова: наследие, классик, историк, текстолог, источник, исследование, публикация, «Тазкирайи Каюмий» П. Каюмова, Б. Валиходжаева, А. Хаитметова, М. Кадировой, Х. Мухаммадходжаева, взгляды Р. Орзибекова, грамотность, текст.

Abstract: The dissertation of the scientist Vakhidov Shodmon Guseinovich on the topic “Development of historiography in the Kokand Khanate at the beginning of the 19th-20th centuries” provided important information about events and phenomena during the period of the Kokand Khanate. The history of Uzbek literature of that time, the early literary life of the period of development and the creativity of its representatives, the works of Kokand historians and their methodological aspects are analyzed. In this work we will gain important information about the intellectuals and poet-artisans in the big cities of Umar Khan's period. Many thoughts are given about Amiri's creative life.

Key words: heritage, classic, historian, textual critic, source, research, publication, “Tazkirayi Kayumiy” by P.Kayumov, B. Valikhojaev, A. Khaitmetov, M. Kadirova, Kh. Muhammadkhojaev, views of R. Orzibekov, literacy, text.

Vohidov Shodmon Xuseyinovichning “XIX-XX asr boshlarida Qo‘qon xonligida tarixnavislikning rivojlanishi” nomli dissertatsiyasida ham Qo‘qon xonligi davrida bo‘lgan voqea va xodisalar yuzasidan muhim ma‘lumotlar keltirgan. O‘sha davr o‘zbek adabiyoti tarixini taraqqiyot davrining dastlabki adabiy hayot va uning namoyondalari ijodini o‘rganib, Qo‘qon muarrixlari asarlarini, ularning uslubiy taraflarini tahlil etgan asardir. Bu asarda Umarxon amirligi davri yirik shaharlaridagi ziyolilar, hunarmand shoirlar to‘g‘risida muhim ma‘lumotlarga ega bo‘lamiz. Qo‘qon tarixchilari XIX asrning boshlarida yaratgan tarixiy asarlar Fazliy Farg‘oniyning “Umarnoma” asari, Mirzo Qalandar Mushrif Isfaragiyning “Shohnomayi nusratpayom” asari, Dilshod Barno “Tarixi muhojiron” kabi asarlar amir Umarxon va Mohlaroyim Nodira uning farzandlari haqida ma‘lumot bergan dastlabki asarlar sirasiga kiradi. XIX asr o‘rtalrida yozilgan tarixiy asarlarga Uvaysiyning “Voqeoti Muhammad Alixon” asari, Mutribning “Shohnomayi Mutrib”, Andalibning “Shohnomyi devona Andalib” tarixiy asari, Hakimxon To‘raning “Muntaxab ut-tavorix”, Abdulg‘afur Munshiy “Zafarnomayi Xudoyorxon”, Mullo Shamsiy “Jangnomayi Xudoyorxon”, tarixchi olim Avaz Muhammad Attor Xo‘qandiy va boshqa tarixchi olim asarlarida Qo‘qon xonligi davrini taraqqiy etgan davrida yashab ijod etgan shoir va adiblar, badiiy ijodga aloqador bo‘lgan shaxslar, ulaming faoliyatlari hamda yaratgan asarlari haqida ma‘lumot beruvchi asarlardir.

XX asrning birinchi choragi mustamlaka davrida ham bir qancha Qo‘qon xonligi davriga oid asarlar yaratilgan Mullo Xolbek ibn Mullo Muso Andijoniy “Ansob us-salotin va tavorix al-xavoqin” asari, Muhammad Solih “Tarixiy jadidayi Toshkand”, Muhammad Rizo Marg‘iloniy “Tarixi Aziziy”, Muhammad Fozilbek

“Mukammali tarixi Farg‘ona”, Mullo Olim Maxdumning “Tarixi Turkiston”, Ibratning “Tarixi farg‘ona”, Nasimiyning “Majma ul-havodis” kabi bir qancha asarlar yuzaga kelgan.

Uvaysiyning “Voqeoti Muhammad Alixon” manzumi shoir yashab, ijod etgan davrdagi voqea-hodisalarning nazmiy ifodasidan iborat asardir. Manzuma tugallanmay qolgan bo‘lishi mumkin, chunki atigi 308 misradangina iborat. Unda Qo‘qon xoni Umarxonning vafoti, uning o‘g‘li valiahd Muhammad Alixonning taxtga o‘tirishi, Qoshg‘arda ko‘tarilgan isyonni bostirish uchun qilgan harbiy yurishi, bu yurishda Uvaysiyning saroy xizmatida bo‘lgan o‘g‘li Muhammadning ham ishtiroki nazmga olinadi. Uvaysiyning Koshg‘ar safaridagi o‘g‘li Muhammad sog‘inchida aytilgan. Xuddi shu xil tasvir Uvaysiyning Nodira va Umarxon o‘rtasidagi go‘zal oilaviy munosabat, inoqlik, totuvlik xususidagi baytlarida ham keltiriladi:

*Er shohlar orasinda ur Umarxon,
Bir necha kuni surdi davron.
Mohpora edi oni zaiifi,
“Maknun”dur taqallubi latifi.
U Yusuf edi, budur Zulayho,
Ul Vomiq edi, u erdi Uaro.
Birisi edi Laylo, birisi Majnun,
Bir-birin muhabbatiga mamnun!*

(Uvaysiyning “Voqeoti Muhammad Alixon” asari)

XIX asr boshlarida maydonga kelgan “Majmua ush-shuaro” tazkira-majmuasi Qo‘qon xoni – Umarxon (shoir Amiriy) tashabbusi va topshirig‘i asosida maydonga keldi. Uning mualliflari Umarxonning ishonchini qozongan Fazliy, Mushrif va Xotif taxallusi bilan ijod qilgan shoirlar edi. Bu tazkira boshqa ko‘p tazkiralardan farq qilib, o‘zbek va tojik tillari aralash yozildi. Unda keltirilgan adabiy namunalarning ayrimlari o‘zbek tilida, ayrimlari tojik tilidadir. Majmuaga xos yana bir xususiyat shundaki, u she‘riy yolda – nazmda yozilgan. Unda XIX asrning I choragida amir Umarxon hukmronlik qilgan Qo‘qon adabiy muhitiga mansub 80 ga yaqin shoir haqida turli hajmda ma‘lumot beriladi, asarlari (she‘rlari)dan namunalar keltiriladi. Bu shoirlar turli ijtimoiy guruhlarning vakillari bo‘lib, ko‘pchiligi shoirlikni havas deb bilgan shaxslardir. Ular ichida o‘z iste‘dodlari va asarlari bilan o‘zbek va tojik mumtoz adabiyoti tarixidan munosib joy olgan shoir-u adiblar, masalan, Gulxaniy, Hoziq, Maxmur, Ma‘dan, Uvaysiy, Mahzuna, Shermuhammad Akmal, G‘oziy, Nodir Xo‘qandiy kabilar bor. Fazliy, Xotif, Mushrif, Ado, Vazir ham she‘riy ijodda katta nufuzga ega bo‘lganlar. Akademik B.Valixojaevning tazkiranavislikka oid tadqiqotlarida, jumladan, bu majmua-tazkiraning tuzilishi haqida quyidagilar ma‘lum qilinadi: kitob an‘anaviy hamd bilan boshlanib, so‘ng shu davrdagi shoirlarni qisqa-qisqa tavsiflovchi she‘riy debocha beriladi. Debochadan keyin Fazliy va Mushrifning Umarxonga bag‘ishlangan madhiyalari keltiriladi. So‘ng asarning asosiy qismi boshlanadi. Umarxonga bag‘ishlangan qasidalar, shundan keyin Umarxon g‘azali va unga

payrav tarzida boshqa shoirlar tomonidan yozilgan gʻazallar berib boriladi. Tazkirada har bir asardan oldin uning muallifi toʻgʻrisida masnaviy shaklida maʼlumot berilgan. Ular isteʼdodi va asarlarini baholashda tendensionlik, xonlik manfaatini, amir Umarxon shaxsi va shuhratini himoya qilish yaqqol koʻzga tashlanib qoladi. Biroq, bulardan qatʼi nazar, “Majmuat ush-shuaro” biz uchun XIX asming birinchi yarmida Fargʻona vodiysida davom etgan adabiy hayotni, uning ishtirokchilari ijodini oʻrganishda muhim adabiy manbadir.³⁶⁸

Said Umarbek – Umarxon, adabiy taxallusi Amir, Amiriy boʻlgan hukmdor, shoh va shoir oʻzbek mumtoz adabiyotining yorqin siymolaridan biri. U oʻzining ancha qisqa, atigi 35 yillik umri davomida madaniyat va adabiyot rivojiga katta havas bilan qarab, oʻz poytaxt shahri Qoʻqonda kuchli adabiy markaz tashkil etgan. Amiriy saltanat shukuhi va dabdabalari bilangina oʻralashib qolmagan. Diyonati, eʼtiqodi mustahkam, madaniyati yuksak shaxs sifatida mamlakat hamda el-u yurt tashvishlari bilan yashagan. Koʻp vaqtini mamlakat obodonchiligiga, bunyodkorlikka, adabiyot va sanʼat ravnaqiga sarf etgan. Amiriy qoldirgan sheʼriy devon olimi Mahbuba Qodirova tomonidan 1972-yili katta kirish soʻzi bilan chop etildi. Biroq oʻsha yillari Amiriyga oʻxshash shoh va shoirlarga munosabat yaxshi emas edi. Shu sabab uning devonini, undagi asarlarni chuqurroq oʻrganish, ommalashtirish ishlari rivoj topmay toʻxtab qoldi. To XX asrning 90-yillari, respublikamiz mustaqil boʻlgunga qadar Amiriy – Umarxon xususida soʻz yuritilmadi desak ham boʻladi. Chunki istiqlolgacha mumtoz abadiyotimiz shoʻrolar mafkurasi tazyiqi ostida “dunyoviy adabiyot”, “diniymistik adabiyot” tarzida uch guruhga ajratib yuborilgan edi. Mazkur yoʻnalishlardagi adabiyotlardan faqat dunyoviy adabiyot saralanib, u ijobiy hodisa sifatida tan olindi va oʻrganildi. Hatto shu dunyoviy adabiyot vakillarining asarlari ham ilohiy-irfoniy gʻoyalardan “tozalanib” tahlil va talqin qilindi. “Diniymistik” yoʻnalishdagi adabiyot-deb hisoblangan asarlar va ulaming mualliflariga oʻtmishni qoralash uchungina murojaat etib kelindi. Amiriy merosiga nisbatan ham shunday yoʻl tutildi. Shu bois istiqlol shabadalari esa boshlagach, Amiriy va unga oʻxshash shoh shoirlar faoliyatiga, merosiga munosabat oʻzgardi. Ular ijodiga ham oʻzlikni anglashga, milliy gʻururni tarbiyalashga koʻmaklashuvchi vositalardan biri sifatida qarash qaror topdi va topmoqda. Keyingi yillari Amiriy ijodini kengroq oʻrganishga qiziqish kuchaydi. A.Hayitmetov, M.Qodirova, H.Muhammadxoʻjayev, R.Orzibekovning Amiriy va uning ijodiga bagʻishlangan maqolalari, adabiy portretlari maydonga keldi. Saidumarbek – Umarxon – Amiriy shaxsiyati va ijodi haqidagi qaydlar shoirning oʻz devoniga yozgan debochada, tarixchilar tomonidan bitilgan asarlarda, “Majmuat ush-shuaro” tazkirasida, Amiriy hayoti va ijodiga doir boshqa manbalarda uchraydi. Umarbek ayrim manbalarda 1785-yili, ayrimlarida esa, 1787-yili tavallud topgan, deb koʻrsatiladi. Boiajak iqtidorli hukmdor va isteʼdodli shoir Umarxon puxta taʼlim-tarbiya oladi. Olimxonning pochchasi, diniy arboblardan biri sanalmish Masʼumxon toʻraning “Muntahab ut-tavorix” asarida keltirilishicha, shu shaxsning vositachiligida, Olimxonning taklifi

³⁶⁸Валихўжайев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. X-XIX асрлар.-Т.,”Ўзбекистон”, 1993, 178,184-бетлар.

bilan Umarbek 1808-yili amakisining (Rahmonqulibiyning) qizi Mohlaroyimga uylantiriladi. Amiriy yoshligidanoq husni malohatda, odob va axloqda, iste'dodda chinakamiga ismi jismiga monand bolgan Komila (Nodira)ning mashhur shoira, davlat arbobi, sifatida hurmat qozonishida ko'magi katta. Nodiraning she'riyatdagi bevosita ustoz Amiriy bolgan. Amiriy oilaviy hayotda o'ta samimiy, umr yoldoshga, g'amxo'r va mehribon ota bo'lgan. Biroq taassufki, bizga sho'rolar hukmronligi yillari Umarxonni Nodiradan ajratgan holda zulmkor hukmdor, saroy shoiri, shuhratparast shaxs sifatida tushuntirib kelindi. Ilmiy asarlarda uning shaxsi, asarlari qora bo'yoqlarda ko'rsatildi. Amalda esa, Umarxon – Amiriy ham saltanat egasihukmdor, ham iste'dodli ijodkor sifatida o'z o'tmishdoshlari, Husayn Boyqaro va Mirzo Bobur yo'lidan borib, mamlakat barqarorligi, obodonligi yo'lida, madaniyat va adabiyot rivojiga muhim hissa qo'shgan ulkan bir tarixiy shaxs edi. Umarxonning akasi Olimxon saroy amaldorlari fitnasi tufayli 1810-yili Toshkentdan Qo'qonga qaytishda ko'ndirilgach, 22-23 yoshli Saidumarbek xonlik taxtiga lozim ko'riladi. U 1810-yildan 1822-yilgacha hukmdor sifatida ulkan ishlarni amalga oshiradi, xonlik sarhadlarini kengaytiradi, yangi shaharlar, manzilgohlar, obod joylar barpo qildiradi.

Uning davrida Qo'qon xonligi madaniy va adabiy hayotida kuchli yangilanish paydo bo'lgan. U Qo'qon adabiy markazining asoschisi, tashkilotchisi va homiysi bo'ldi. Farg'ona, uning markazi Qo'qon shoir-u shuarolar qarorgohiga aylangan edi. Shu o'rinda Umarxonning hukmdor sifatidagi salbiy jihatlari ham bo'lganligini unutmashimiz lozim. Qo'qon xonligi tarixi va adabiyotining chuqur bilimdoni alloma Po'latjon Domulla Qayyumovning uch jildlik "Tazkirai Qayumiy" asarida yangi ma'lumotlar keltirilgan: "Amiriy. Bu kishi Xo'qand shaharidan bo'lub, nomi Umarbek, Shohruxiyulardan Norbo'tabiyning o'g'lidir. Melodiy 1787-yili tug'ilgan. She'rda taxallusi Amirdur. 1810-yili akasi bo'lmish Olimxonning vafotidan so'ngra Farg'ona amiri bo'lub taxtga chiqmishdur. 1822-yili vafot etmish. Ustoz Muhammad Ya'qubdan taxsili ilmi irfon olmish. Navoiyga ergashuvchi shoirlardan bo'lub, bir devonga egadur. Badiiy tomondan raso shoir ekani yozg'on ash'ori obdoridan ma'lumdur. Bu kishining xonligidan qati nazar, Xo'qandlik buyuk shoir sifatida hurmat etamiz... O'z davrida uning saroyi adabiyot ahli, ilm-ma'rifat kishilari uchun ochiq bo'lub panoh toptilar. O'sha vaqt Xo'qandga atrofdan adabiyot ahllari kela boshladilar va hurmat ko'rdilar, ma'rifat ahllari ziyodalashdi. Umarxonning amri bilan o'sha davr shoirlaridan Mushrif, Mirzo Qalandar va Mulla Abdulkarim Fazliylar tomonidan yaratilgan "Majmuat ush-shuaro" kitobining zamonamizgacha etib kelishi birmuncha klassik shoirlarimizni o'rganishga muyassar etdi...". Amiriy devonining eng yaxshi qo'lyozmasi asosida filologiya fanlari doktori Mahbuba Qodirova 1972-yili she'rlarini "Devon" nomi bilan chop ettirdi, unga ancha tafsiliy kirish so'z yozdi. Bungacha ham uning she'rlaridan namunalar 1945-yili nashr qilingan "O'zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi" hamda 1959-yili tuzilgan "O'zbek adabiyoti" majmuasida keltirilgan edi. Amiriy tomonidan devoniga yozilgan debocha adog'ida unga kiritilgan she'rlarning yozilish tarixi, tartib berilishi hamda "so'z gavharlarining sarroflari" va zufinunlar maslahatlari bilan devon tarzida kitobat

qilinishiga doir fikrlar keltirilgan. 1972-yili Toshkentda chop qilingan “Devon”dan 216 gʻazal, 6 mustaqil muxammas, 3 musaddas, 6 tuyuq, Navoiy, Lutfiy, Jomiy, Fuzuliy, Mirzo Bedil hamda Zaliliy, Kamol, Nobiy gʻazallariga bogʻlangan tazmin muxammaslar joy olgan. Muhimi shundaki, Amiriyning oʻzbek va fors tillaridagi gʻazallari oʻzining xalq tiliga yaqinligi, musiqiyliigi, fikriy-falsafiy teranligi, badiiy jihatdan goʻzalligi bilan kishi qalbini hayajonlantiradi. Ularni umumbashariy ahamiyatga molik goʻzal sheʼrlar deyishga haqlimiz. Shoiming oʻzi ham bundan faxrlangan va oʻzini oʻzi maqtashni oʻrinli deb bilgan: Tabʼ mavzun boʻlsa, soʻz ahligʻa moyildur Amir, Ul sababdindurki, bilmishmen suxanvar qadrini. Ayniqsa, uning “Qoshinggʻa teguzmagʻil qalamni”, “Junun daryosi tugʻyon aylamakni mandin oʻrgandi”, “Lab uyur takallumgʻa, zulfni parishon qil”, “Dedi, Yusuf koʻrub yorimni, jononingʻa sallamno”, “Xusnung kamola etti, ey mahliqo, muborak”, “Surma tortib qilma jodu koʻzni, ey dilbar, qaro”, “Jahon jono, jamolingga tasadduq”, “Menki ul ruxsori nur afzoya oshiq boʻlmisham”, “Qizortib chehra maydin oshiqi zoringni kuydurma” misralari bilan boshlanuvchi gʻazallari oʻzbek gʻazalchiligining nodir namunalaridir. Amiriyning ishq mavzuidagi gʻazal va muxammaslari majmuyidan ishq dostoni paydo boʻladi, deyish mumkin. Chunki ularda sevgi bilan bogʻliq boʻlgan barcha kechinmalar – visol, hijron, firoq, rashk, iztirob, umid, shodlik oʻz lirik ifodasini topgan. Amiriyning “Qoshinggʻa teguzmagʻil qalamni” misrasi bilan boshlanuvchi mashhur gʻazalining oʻziga xos yaratilish tarixi bor. Amiriy haqida soʻz yuritgan adabiyotshunoslar, shu gʻazalning faqat matlaʼsi borasida gapirganlar. Bu gʻazal qoʻshiq boʻlib, sevilib ijro etiladi. Qadimda boʻyoq aynimasligi uchun siyohdon ichiga ipak tashlangan. Bir gal, Umarxon sheʼr yozayotganida ilhom parisi —Nodira siyohdondan qalamni botirib berib turgan. Lekin qalam uchiga ipak ilashib chiqadi. Shoshganidan Nodira qalam uchidagi ipak patini qoshiga surtib, qalamni Umarxonga uzatadi. Umarxon qarasa, siyoh pati Nodiraning qoshiga surtilgan emishki, u oʻsha zahoti “Qoshingga teguzmagʻil qalamni” satri bilan boshlanuvchi sheʼrini bitadi. Mana oʻsha ajoyib gʻazal:

*Qoshinggʻa teguzmagʻil qalamni,
 Bu xat bila buzmagʻil raqamni.
 Butxonalar ichra hech tarso,
 Bir koʻrmadi sen kabi sanamni.
 Oshiqlaringga tarahhum etgil,
 Koʻp aylama javr ila sitamni.
 Naqshi qadaming muyassar oʻlsa,
 Naylay bu jahonda jomi Jamni.
 Koʻnglum qushi toyiri hariming,
 Sayd etma kabutari haramni.
 To bevatan oʻlmasun koʻngullar,
 Zulfungdin ayurma pechu xamni.
 Laʼling gʻamidin koʻzum toʻkar qon,
 Behuda kechurmagʻil bu damni.
 Yoʻlungda gʻubori roh boʻldum,*

*Boshimg'a eturmading qadamni.
Sen yordin o'zga kimga dermen,
Ko'nglumdagi dard ila alamni.
Bir kosa sharobi arg'uvonim,
Pomol qilur hujumi g'amni.
Iqlinti vafo Amiridursen,
Ey shah, bu gadog'a qil karamni.*

Hayotiy kechinma mahsuli bu-g'azal 11 baytdan iborat bo'lib, Amiriyning hajman xiyla uzun g'azallaridan sanaladi. E'tibor bering, she'ning matla' baytidayoq uning yaqin, dildor bir shaxsga qaratilganligiga ishora bor. Taassufki, biz uzoq yillar bu shoh bayt kimga ishora ekanligi, ikkinchi lirik qahramon kim bo'lishi mumkinligi bilan durustroq qiziqmadik. She'r Umarxon bilan Nodira oralarida kechgan ajoyib voqea mevasi ekanligini aniqlash xotirimizga kelmadi. Chunki Nodira she'riyati Amiriy she'riyatidan tamomila ajratilgan holda o'rganildi. G'azalning maqta' baytida ham Amiriy o'zi bilan sevikli mahbubasi Nodira oralaridagi olovli sevgi va hurmatga ishora qilib, antiteza tasvirlash usuli orqali shoh va gado mafhumlarini qo'llaydi. Nodirani vafo iqlimining amiriga, o'zini esa uning iltifotiga, shafqatiga muhtoj gadoga o'xshatadi. Hayratomuz badiiy lavha! Amiriyning "Lab uyur takallumg'a, zulfin parishon qil"- deb boshlanuvchi g'azali ham shoh asarlardan biridir. U engil vazni, sho'x ohangi, yorni samimiy erkalash ruhi bilan inson qalbini hayratlantiradi. Amiriyning boshqa ko'p g'azallaridagi kabi bu g'azalda ham hayotiy lavha va bo'yoqlar qo'llaniladi. Buni qarangki, ajdodlarimiz qoldirgan adabiy meroslarini birma-bir sahifalarini ochgan sarimiz ma'naviy buloq otilib chiqaveradi. Yoshlarimiz uchun tengsiz ilm manbaidur.

Adabiyotlar:

1. Ўзбек шеърляти антологияси Ўзадабийнашр, Тошкент-1961-йил.
2. Валихўжайев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. X-XIX асрлар.- Т., "Ўзбекистон", 1993, 178, 184-бетлар
3. Ж.Лапасов Мумтоз адабий асарлар ўқув луғати "Ўқитувчи" нашриёти 1994-йил.
4. Нодира-Комила ИИ-китоби Тошкент-2004-йил
5. Лазиз Қаюмов "Қўқон фозиллари" Қўқон 2006-йил 16-бет
6. Пўлатжон Қаюмов "Қўқанд тарихи ва унинг адабиёти" Тошкент 2011-йил 380-бет
7. Увайсий Девон ЎзССР Тошкент – 1963-йил 248-бет
8. Уммат Тўйчийев "Ўзбек адабиётида бадийлик" Тошкент – 2011-йил 508-бет
9. Амирий "Девон" ЎзССР Тошкент - 1972-йил 360-бет
10. Ўзбек шеърляти атологияси ЎзСС Тошкент 1961-йил 440-бет
11. Б.А.Абдуллаева Ўзбек адабиёти тарихи Тошкент – 1964-йил 384-бет

- 12.М.Қодирова “ Нодира” ЎзССР Тошкент – 1965-йил 101-бет
13.Маҳбуба ая Қодирова Нодира-Комила Тошкент - 2004-йил 208-бет
14.Ўзбек адабиёти тарихи 2-китоб. Т.”Ўқитувчи” нашриёти 1964-йил.

MAJZUB NAMANGONIY IJODI VA G‘AZAL JANRI

Oybek BOYATOV

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada mumtoz adabiyotda keng uchraydigan “G‘azal” janri va Majzub Namangoniy ijodida g‘azalning o‘rni haqida yozilgan. G‘azal poetikasi haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: G‘azal, iqtibos, aqd, qofiya, bayt, hijo.

Annotation. This article discusses the genre of "Ghazal," which is widely found in classical literature, and the role of ghazals in the works of Majzub Namangoniy. Information about the poetics of ghazal is provided.

Keywords: Ghazal, quotation, couplet, rhyme, verse, metaphor.

Аннотация: В данной статье рассматривается жанр "Газал", широко распространённый в классической литературе, и его место в творчестве Мажзуба Намангонского. Приведены сведения о поэтике газала.

Ключевые слова: Газал, цитата, акд, рифма, байт, хиджо.

Qo‘qon adabiy muhitning yuksak darajada ravnaq topishi va rivojlanishi uchun asosiy markazlardan biri deb e’tirof etiladi. Uzoq davr tarixiy va adabiy jarayonlarni shakllanishida she’riyat, madaniyat, boy adabiy manbalar mavjudligi vodiy adabiy muhitini vujudga kelishiga asos vazifasini bajaradi. Vodiy adabiy muhitini shakllanishining yuqori cho‘qqisi bu XVII – XVIII asrlar bo‘ldi. Bu davr Qo‘qon xoni Amir Umarxon nomi bilan bog‘liqdir. Umarxon o‘zi Amiriy taxallusi bilan ijod qilgan bo‘lsada, saroyda Qo‘qon adabiy muhitini shakllanishida bir qancha ijodkorlar: Jahon Otin Uvaysiy, Nodira, Gulxaniy, Maxmur, Majzub, Nodim keyinchalik Muqimiy, Zavqiy kabilarning xizmatlari beqiyos.

Majzub Namangoniy lirikasiga asosan g‘azal deya nomlab o‘tadi. Po‘latjon Domla Qayumiyning “Tazkirai Qayumiy” asarida shunday ta’rif beriladi: “Shoir Mazjub adabiyot qoidasiga rioya etmaydi. G‘azallari hamma vaqt qasida, poema shaklida bordur. Bu haqida o‘zi “O‘zgacha” radifli g‘azalida aytadur”³⁶⁹. Haqiqatan shoir barcha lirik asarlariga g‘azal deya murojaat etgan. Bundan ko‘rinadiki shoir adabiyot qoidalariga bo‘ysunmay emas, balki mumtoz adabiyotimizda lirik janrlarni bitta nom bilan ya’ni “G‘azal” nomi bilan aytgan deyish mumkin.

³⁶⁹ Po‘latjon Domla Qayumiy. Tazkirayi Qayumiy. –Toshkent;1999. 188b

Gʻazal mumtoz sheriyaatning eng asosiy janrlardan ekanligi maʼlum³⁷⁰ Nosiriddin Rabgʻuziyning “Qissasi Rabgʻuziy”ga kirgan gʻazallardan boshlab, Atoiy, Gadoiy, Lutfiy, Sakkokiy kabi shoirlar tomonidan rivojlantirilgan, Alisher Navoiy davrida yuksak choʻqqiga erishgan.

Lirik janrlarning, xususan, gʻazalning hajmi masalasi alohida eʼtibor qaratiladigan mavzular sirasiga kiradi. Shayx Ahmad Xudoydot Taroziyning “Fununu-l-balogʻa” asarida yozilishicha: “Gʻazalning aksari” yigirma bayt boʻlur. Va aqalli besh bayt. Andin oʻksuk boʻlmas. Magar qofiya tabilmasa, toʻrt bayt qilurlar. Ul ham zarurat hukmidin joizdir”³⁷¹.

Navoiyshunos Abduqodir Hayitmetov shoir lirikasiga bagʻishlangan tadqiqotida bu xususida shunday yozadi: “Navoiy lirik asarlarning hajmi masalasida tamoman anʼana taomilida ijodiy maqomda, sheʼrni sunʼiy ravishda qisqartirmaslik yoki choʻzmaslik nuqtai nazarida turgan va oʻzini qatʼiyan cheklamagan”³⁷²

Yozuvchi Maqsud Shayxzoda esa quyidagicha fikr bildiradi: “Albatta lirik sheʼr juda ham katta boʻlishi uning badiiy taʼsirini kamaytiradi, kitobxondagi emotsional hislarni oʻtmaslashtirib qoʻyadi. Navoiy gʻazallarining hajmi formasi 7 yoi 9 baytlik gʻazallardir. Ammo unda 8 va 10 baytli gʻazallarni ham uchratish mumkin. Bu fakr shoirda badiiy zavqni qatʼiy andozalarga ega boʻlganini, taʼsirotning haddu hududini yaxshi tasavvur qilganini koʻrsatadi. Chunki lirikaning ihota doirasida epik va dramatik asarlarga oʻxshab bepoyon boʻlmaydi”³⁷³ Mumtoz lirikamizda 10-11 baytli gʻazallar uchrasada, bu janr namunasi asosan, 7-8 baytdan tarkib topadi. Oʻzbek adabiyotida 3 baytli gʻazal namunasi ham mavjud. Buni Zavqiy ijodida kuzatish mumkin. Yana ayrim gʻazallar esa 23-27 baytli boʻlishini ham kuzatish mumkin. Bundan koʻrinadiki, “Fununu-l-balogʻa” asarida aytilgan taʼriflar ham nisbiydir. Agar gʻazal 20 baytdan oshsa, qasida janriga oʻtishini aytib oʻtilgan. Lekin qasida qoidalariga toʻgʻri kelmagan lirik asarlar gʻazal deyish mumkin. Mumtoz gʻazallar qofiyalanishi bilan qasidadan farqlanadi.

Mumtoz adabiyotda gʻazalda qoʻllangan qofiyaning xususiyatiga koʻra: 1) husni matlaʼ (a-a, a-a, b-a, c-a), 2) qitʼa gʻazal (b-a, c-a, d-a), 3) zebqofiya (a-a, a-a, a-a, a-a), zulqofiyatayn (a-a, b-b, d-d) kabi turlarga boʻlinishi maʼlum³⁷⁴. Majzub Namangoniy qalamiga mansub gʻazallarining asosiy qismi oddiy gʻazallar sirasiga kiradi. Bunday gʻazallar haqida adabiyotshunos Olim Oltinbek quyidagicha fikr bildiradi: “... quyidagilardan iborat: 1) matlaʼdan maqtagacha bir xil vaznda yozilishi; 2) matlaʼ misralari oʻzaro qofiyalangan va juft misralarning barchasi unga qofiyadosh boʻlishi; 3) belgilangan (3 baytdan 21 baytgacha) hajmda boʻlishi;

³⁷⁰ Орзибеков Р. Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусаммаат. –Тошкент: Фан, 1976

³⁷¹ Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунуну-л-балоға. Тошкент: Хазиана, 1996. –Б.38

³⁷² Ҳайитметов А. Навоий лирикаси (тўлдирилган ва тузатилган иккинчи нашр). – Тошкент: Oʻzbekiston, 2015. –Б. 54.

³⁷³ Шайхзода М. Ғазал мулкининг султони. /Асарлар. Олти томлик. Тўртинчи том. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 197. –Б.197.

³⁷⁴ Куронов Д. Адабиётшунослик луғати. –Тошкент: Akademnashr, 2010. –Б.386.

4) maqta'da shoir taxallusi qo'llanilishi lozim"³⁷⁵. Majzub Namangoniy ijodida ushbu g'azallar yetakchilik qilishini ta'kidlash zarur. Bunday g'azallar ijodkor lirik mahoratini ko'rsatishi bilan qimmatli hisoblanadi.

Mana, shunday g'azallardan biri:

Tolibo, boringcha diydorini ayla orzu,

Chehrai oni giriftorini ayla orzu.

G'ayri ishqiga ulanma, mehri toriga o'ral,

Xilvat et, sirringni asrorini ayla orzu.

Ushbu g'azal aruzning ramal (-v--, -v--, -v--, -v-) bahrida, ramali musammani maxzuf vaznida yozilgan. Qofiyalanishi ham oddiy g'azallar singari (a-a, b-a, c-a, d-a) shaklida, diydorini, giriftorini, asrorini, raftorini, yorini, bekorini, borini, iysorini kabi qofiyadosh so'zlar bilan ifodalangan. G'azalda Allohga bo'lgan muhabbat, savob va gunoh, ilohiy ishq kabi bo'yoqlar ta'riflangan. Go'yoki ilohiy ishq sirini o'rganishga kirishgan tolib Alloh diydoriga etishishni orzu aylaganligini, yor hajrida lirik qahramonning badiiy talqini – lirik kayfiyatning betakror ifodasi bo'lgan.

Shoirning yana bir g'azalida musiqiylik ohangi yaqqol seziladi:

Ishning boshi "Bismilloh", "La ilaha illalloh".

G'ofil bo'lma ey mo'min, doim bo'lg'aysan ogoh.

Iymon Islom o'rganib, yaxshi ishlarni qilib,

Aksar aytib yurgaysan, "La ilaha illalloh".

Ushbu g'azal ham oddiy g'azallar sirasiga kiradi. Ijodkor bu g'azalini Qur'oni Karimdan olingan suralar bilan bezaydi. Ya'ni musulmon olamida har bir ish "Bismilloh" bilan boshlanishi, Allohga iymon keltirilishi haqida fikr yuritilgan. "La ilaha illalloh" iborasi hadisda ham uchrashi, yozuvchi tasavvuf adabiyotida samarali ijod qilganligini ifodalaydi. Tariyqatning asosiy ruknlaridan biri zikr saboqlaridur, tariyqat esa bezikr bo'lmaydi deyiladi. Zikrlarning afzali esa "La ilaha illalloh" kalimasidir. Mo'min inson doimo shu kalimani aytib yursin. G'ofil – begunoh inson tilida doimo kalimasi bo'ladi. Iymon va Islom qoidalarini o'rganib, ogoh bo'lib yurish kerakligini bildirmoqda.

Xulosa qilib aytganda, shoir kalimalarni she'rda qo'llash mahoratidan unumli foydalanadi. Bu orqali iqtibos va aqd san'atlaridan unumli foydalanadi. Ijodkor g'azallarida, asosan, payg'ambarlar nomini keltirish, hadis va kalimalardan namunalari olishga qaratilgan.

Adabiyotlar:

1. Пўлатжон Домула Қаюмий. Тазкирайи Қаюний. –Тошкент;1999. 188б
2. Орзибеков Р. Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусаммат. –Тошкент: Фан, 1976
3. Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунуну-л-балоға. Тошкент: Хазина, 1996. –Б.38

³⁷⁵ Олтинбек О. Каримбек Камий ғ миллий уйғониш шоири. – Тошкент: Muharrir, 2018. – Б.83.

4. Ҳайитметов А. Навоий лирикаси (тўлдирилган ва тузатилган иккинчи нашр). –Тошкент: Ўзбекистон, 2015. –Б. 54.

5. Шайхзода М. Ғазал мулкининг султони. /Асарлар. Олти томлик. Тўртинчи том. –Тошкент: Адабиёт ва санъат,197. –Б.197.

6. Куронов Д. Адабиётшунослик луғати. –Тошкент: Академнашр, 2010. –Б.386.

7. Олтинбек О. Каримбек Камий миллий уйғониш шоири. – Тошкент: Мухаррир, 2018. –Б.83.

MUMTOZ ADABIYOTDA BULBUL VA ZOG‘ OBRAZINING QIYOSIY TAHLILI

Muxammadiyeva MOXICHEHRA

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada qarg‘a(zog‘) va bulbul obrazi o‘zaro qiyoslanib tahlil qilinadi. Ularning badiiy asarlardagi ramziy va majoziy ma’nolari izohlanadi. Qarg‘a obrazini kelib chiqishi, uning biologik xususiyatlari haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: *Ramz, zog‘(qarg‘a), bulbul, obraz, majoz*

Абстрактный. В данной статье сравниваются и анализируются образы вороны и соловуа. Объясняется их символическое и метафорическое значение в произведениях искусства. Приведены сведения о происхождении образа вороны и ее биологических особенностях.

Ключевые слова: Символ, ворона, соловей, образ, метафора.

Abstract This article compares and analyzes the image of a crow and a nightingale. Their symbolic and figurative meanings in works of art are explained. Information about the origin of the image of the crow and its biological characteristics is provided.

Key words: Symbol, crow, nightingale, image, metaphor

Qushlar olami jahon xalqlari mifologiyasidan tortib hozirgi adabiyot holatigacha katta ahamiyatga ega bo‘lib, voqealar jarayonida to‘satdan paydo bo‘luvchi, qahramonlarga yordam beruvchi va vaziyatni keskin o‘zgartiruvchi element sifatida talqin etiladi. Ular, asosan ilohiyot bilan insonlarning o‘rtasidagi ko‘prik sifatida, yuksaklik va osmon ramzi timsolida e’tirof etilgan. Adabiyotimizda har bir qush o‘z xususiyatidan kelib chiqib ham ramziy, ham majoziy ma’no tashish uchun xizmat qilgan. Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr”, Fariduddin Attorning “Mantiq ut-tayr”, Abu Ali ibn Sinoning “Tayr qissasi”, Shahobiddin Suhravardiyning “Risolayi musammo ba safari Semurg”, Abu Hamid Muhammad G‘azzoliyning “Risolat ut-tayr” asarlarida o‘zlariga adolatli va komil podshoh izlab yo‘lga chiqqan qushlar motivi majvud bo‘lsa, ko‘plab boshqa asarlarda ham qushlar obarazi ma’lum ma’no tashish uchun xizmat qiladi. Biz asarlarda birgalikda keluvchi bulbul va zog‘(qarg‘a)obrazini tahlil qilib

o'tmoqchimiz. Bu ikki qush asarlarda o'zaro qarama-qarshi obraz sifatida gavdalanadi. Adabiyotimizda bulbul obraziga juda ko'p murojaat qilingan. Qadim zamonlardan xalq og'zaki ijodida uning "chiroyli ovoz", "chiroyli kuy" sohibi ekanligiga urg'u beriladi va oshiqlar ramzi sifatida ifodalanadi. Allalarda bolani bulbulga o'xshatish, bulbuldek xushovoz bo'lishiga umid bog'lash etakchi o'rin tutadi. Ona arzandasini bulbul bola qiyofasida ko'rishni orzu qiladi. Bulbul mitti qush bo'lsada, ovozi bilan hammani maftun etadi, barchaga zavq ulashgani uchun ham doim e'zozda, u sayragan chaman mudom obod bo'ladi. O'limdan qo'rqmaydigan kishi yo'q, lekin "bulbul sayrasa, o'lim ham qochadi", – degan tushuncha xalq og'zaki ijodida "Bulbul" ertagi orqali bizgacha etib kelgan va ona allalarida ham ifodalangan:

*Bulbul uchar qo'limdan alla-yo alla
Har kim qo'rqar o'limdan, alla-yo alla
Shu bulbulim sayrasa, alla-yo alla
O'lim qochar yo'limdan alla-yo alla
Erkalayman yayratib, alla
Vatanimning bog'ida, alla
Bulbul qushdek sayratib, alla*³⁷⁶

Qarg'a ham qadimiy, sirli va murakkab obraz bo'lib, dunyo xalqlari folklor namunalarida er, erosti, osmon, quyosh, suv bilan bog'liq qarashlarda uchraydi. Afsonalarda aytilishicha, Nuh payg'ambar to'fonning 40 kuni kema darchasini ochib quruq er xabarini keltirish uchun avval qarg'ani, keyin kabutarni uchirib yuboradi. Qarg'aning mas'uliyatsizligi va xiyonatidan farqli holda kabutar ikkinchi marta uchurib yuborilganida quruq er xabarini zaytun navdasini keltirish orqali ma'lum qiladi³⁷⁷. Bu o'rinda qarg'a o'z nafsiga berilishi oqibatida shaytonga bo'ysunadi va shu voqeadan so'ng rangi qora tusga kiradi. Gulxaniyning "Zarbulmasal" asaridagi "Kabutar va Zog'" masalida ham qarg'aning o'z nafsiga engilishi uni halokatga boshlaydi³⁷⁸. Shuningdek, asarda Yapaloqqushning do'sti qarg'a obrazi ham kiritilgan bo'lib, u "o'z ishiga pishiq xaromzodan terror og'ri mishiq, harif ayyor, solor davlatmandlar asnofida mumsiki beor, har murda ustida tayyor, beshini mustahiqqa berib, o'n beshini qo'ynig'a urg'an" deb tasvirlanadi. "Devonu lug'atit turk" asarida ham qarg'a obrazi hayot tirikchiliklariga dosh bera olmaydigan, engil-yelpi hayot kechirgan, ochko'z, birovning haqiga ko'z olaytiradigan odamlarning obrazi sifatida tasvirlangan.

*Qarg'a qali bilsa, sunin ol buz soqar,
Avchi yashib tuzoq taba menga baqar.
Och ham tashna bo'lgan qarg'a muzni buzar
Parvo qilmay tuzoq sari tumshuq cho'zar.*³⁷⁹

³⁷⁶ O. Safarov .O'zbek bolalar folklori. – Toshkent :2007. B.31.

³⁷⁷ Shukurova Zilola. Mumtoz nasrda og'zaki ijod an'anasi (Qisasi Rabg'uziy" asari misolida). – Toshkent: Zukko kitobxon, 2020. – B. 72.

³⁷⁸ Гулханий. Зарбулмасал ва ғазаллар. – Тошкент: 1960. – Б. 23.

³⁷⁹ Махмуд Қошғарий. Девону луғотит турк. – Тошкент: 1984. – Б.401

Jumladan, “Qutadg‘u bilig” asarida xalqning xursandchiligi qushlar obrazi misolida umumlashtiriladi. Jumladan, asarda turli xil nomdagi va turli xil ko‘rinishdagi qushlar – g‘oz, o‘rdak, oqqush, qilquyruq, turna, kaklik, bulbul, qoraqarg‘a kabilar insonlarning xuq-atvorini ochib berish uchun qo‘llaniladi. Ya‘ni Bug‘roxonning shoh bo‘lib kelishini qushlar o‘zida yo‘q quvonch bilan kutib olishadi. Lekin bunday xursandchilik qoraqarg‘aga negadir yoqmaydi. U “tumshug‘ini ko‘pirtirib qag‘illaydi”, “uning ovozi yoqimsizroq”, “dod solib yig‘layotgan qizning ovozi” ga o‘xshaydi.

*Ular qush unin tuzdi undar eshin,
Siliq qiz oqir-teg konul bermishin
Unin utti kaklik kuldr qatg‘ura
Qizil ag‘zi qan-teg qashi qap-qara.
Qara chumg‘uq utti suta tumshuqi
Uni og‘bag‘u qiz uni-teg taqi.³⁸⁰*

Qur‘oni Karimning Moida surasida Qobil va Hobil qissasi keltirilgan. Ular ikkovlari qurbonlik qilishganda, Hobilning qurbonligi qabul qilinib, Qobilniki qabul qilinmaydi. Bundan g‘azablangan Qobil ukasi Hobilni o‘ldiradi. Shunday qilib, er yuzidagi ilk jinoyat insonni o‘ldirish, qotillik bo‘lib, Odam alayhissalomning shu ikki o‘g‘illari o‘rtasida sodir bo‘ldi. Bu jinoyatga Iblisning vasvasasi, hasad, gina, adovat sabab bo‘lgan edi. Keyin Qobil qilgan ishiga nadomat qilib, endi nima qilsam ekan deb o‘tirganda, Alloh taolo unga ukasini qanday dafn etishni o‘rgatishi uchun qarg‘ani yuboradi. Ushbu voqea ham “Qisasi Rabg‘uziy” asarida keltirilgan bo‘lib, quyidagicha ta‘riflanadi: “Qobil Hobilni o‘lturmishda yigirma yashar erdi, qush qurtlar Hobilni o‘g‘radi. Qobil Hobilni bir qopg‘a suqub orqasig‘a ko‘turub yurur erdilar. Anchada tengri farmoni birla ikki qarg‘a keldi, bir-biri bilan urushdilar, bir-birini o‘lturdi. Tirik qolgan qarg‘a tumshig‘i bilan erni qazdi, ul o‘luk qarg‘ani ko‘mdi. Qobil ani ko‘rdi, aytur: “Maning qarg‘achalik choqlig‘ aqlim yo‘q ermish”, teb o‘kindi”. Demak, qarg‘a o‘ziga xos aql-zakovatga ega qushdir. Bu haqida olimlar ham juda ko‘plab tadqiqotlar olib borishmoqda. Oksford universiteti olimlari bitta qarg‘a olib u ustida tekshiruvlarni amalga oshirishganda ular hayratda qolishdi. Kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, “Bety“ deb ataluvchi bu qarg‘a o‘zining qafasidagi ba‘zi simlarni olib qandaydir ilmoqli asbob yasagan. Garvard universitetidagi Dakota Makkoyning aytishicha, aql-zakovat bo‘yicha qarg‘alar insondan keying o‘rinda turishadi. Izlanishlar oqibatida qarg‘alar o‘zlariga kerak bo‘lgan o‘simlikni har qanday holatda ham topa olishadi, hattoki, ular boshqa o‘simlik barglari bilan yopilib qolgan bo‘lsa ham. Qarg‘alar turli xil narsalardan foydalanish qobiliyatini rivojlantirgan insondan keyingi o‘rinda turuvchi hayvondir. Qarg‘alar jamoasida har bir jinoyat uchun muayyan jazo belgilangan. Masalan, biror qarg‘aning yosh polaponi og‘zidagi luqmasini tortib olgan qarg‘aga sud tomonidan o‘sha qarg‘a to ucholmaydigan bo‘lib qolgunicha bitta qo‘ymay patlarini yulish jazosi tayinlanadi. Jabrlangan tomon jinoyatchi qarg‘aning patlarini shu qadar yulib tashlashadiki,

³⁸⁰ Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. – Toshkent: 2007. B.75.

natijada jinoyatchining o‘zi ham haligi polapon kabi ucholmaydigan, zaif bo‘lib qoladi.

Soha mutaxassislarining aytishicha, boshqa qushlardan farqli o‘laroq, qarg‘alar oilasida o‘ziga xos sud, mahkama jarayoni bor ekan. Bu mahkamada oila va jamoa nizomiga bo‘ysunmagan axloqsiz qarg‘a sud qilinadi. Qizig‘i shundaki, bu sud Allohning marhamati bilan adolat asosida olib boriladi. Qarg‘alar inini zolimlarcha egallab olgan yoki uni buzgan qarg‘aga adolatli sud tomonidan jabrlangan qarg‘a uchun yangi in qurib berish vazifasi yuklatiladi. Boshqa qarg‘aning urg‘ochisiga tajovuz qilgan, tegajog‘lik qilgan qarg‘a o‘limga mahkum etiladi. Urg‘ochi qarg‘aning qarindoshlari jinoyatchi qarg‘ani tumshuqlari bilan to u o‘lgunicha urib, cho‘qishadi. Qarg‘alar mahkamasi, odatda, birorta ekinzor dalada yoki kengroq maydonda olib boriladi. Avvaliga mahkama hay‘ati a‘zolari belgilangan joyga kelishadi va shundan keyin ayblanuvchi qarg‘a qo‘riqchilar hamrohligida va qattiq nazorat ostida maydonga keltiriladi. Sud boshlanganda aybdor qarg‘a boshini quyi solib, qanotlarini tushirib, aybini tan olgani uchun qag‘illamay jim turadi. Soha mutaxassislarining aytishicha, boshqa qushlardan farqli o‘laroq, qarg‘alar oilasida o‘ziga xos sud, mahkama jarayoni bor ekan. Bu mahkamada oila va jamoa nizomiga bo‘ysunmagan axloqsiz qarg‘a sud qilinadi. Qizig‘i shundaki, bu sud Allohning marhamati bilan adolat asosida olib boriladi. O‘rta asrlarda qarg‘a bosh qahramon bo‘lgan asarlar paydo bo‘la boshladi. Shoir va tarixchi olim, tarjimon va xattot, tibbiyot ilmining bilimdoni, qomusiy bilim egasi Muhammad Yusuf Bayoniy XIX asrning II yarmida xon va uning laganbardor, insofsiz amaldorlarining qilmishlarini o‘ziga xos uslubda kinoya va satirik yo‘nalishda keskin ochib beradi. Jumladan, «Qarg‘a» radifli g‘azalida quyidagicha misralar bor:

*Qushlardin o‘zni go‘yo aylar shumor qarg‘a,
Parvoz urar havoda aylab favor qarg‘a.
Andin kim o‘zga qushlar bosmoqg‘a or etarlar,
Zavqu surur ila ar benanggu or qarg‘a.
Devor aro xiromon bo‘lg‘usi to‘madin so‘ng,
Mastona na‘ra tortar devonavor qarg‘a.
Dehqonni mazraida diltang etar hamisha
Uchq‘usi bir kesakdin garchi hazor qarg‘a³⁸¹.*

Ko‘rinadiki, shoir ichidagi gaplarni, kesatiqni, kinoyali fikrlarni ko‘chma ma’noda qarg‘a tilida ifodalab bergan. Qarg‘a obrazi orqali surati odam, siyrati tubanlikka yo‘g‘rilgan kimsalarni qattiq qoralaydi. Rangining qoraligi, hamda o‘ta badnafs bo‘lganligi uchun qarg‘a qushini juda ko‘pchilik insonlar yoqtirishmaydi. Bayoniy hayotda uchraydigan qarg‘asifat kimsalarning surati va siyratini qush timsoli orqali chizib beradi. E’tibor qilinsa, boshqa qushlar yaqin bormaydigan, ta’bi tortmaydigan joylarda qarg‘a “viqor” bilan yuradi, boshqalar iste’mol qilmaydigan narsalarni ular “zavq” va “surur” bilan, beorlarcha eydi. Dehqonlar ekinlarini payhon qiluvchi, ishlariga zarar etkazuvchi ham qarg‘a.

³⁸¹<https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/o-zbek-mumtoz-adabiyoti/muhammad-yusuf-bayoniy-1858-1923>

*Olam elin anga bu atvori etdi dushman,
El toshig'a hadafdur shayton shior qarg'a.
Ey koshki yiroqlik sen birla o'rtamizda,
Sharq ila g'arb bo'lsa, ey beviqor qarg'a.
Qushlarni vasfig'a chun til ochti der Bayoniy,
Sarxush bo'lurg'a etmay bo'lg'ay xumor qarg'a.*

Uning shaytonga xos sifatlari xalqni unga dushman qildi. Shuning uchun ham muallif qarg'a bilan orasidagi masofa sharq va g'arb bo'lishini xohlaydi. Demak, qarg'alar hech kimga yoqmaydi. Shoir bu sifatlarni ro'yi-rost ifodalashi orqali o'z davrining tekinxo'r, o'g'risifat, badnafs kishilarini ayovsiz tanqid qilgan. Shoir ustalik bilan yozilgan bu kesatiq va kinoyalar kimga tegishli ekanini xalq bemalol bilib olgan. Shoirning so'z qo'llashidagi ustamonligi she'r ta'sirchanligini oshirgan. O'zining g'oyaviy maqsadini oshirishda shumor, favor, zavqu surur, benangu or, xiromon, hazar, beviqor, xumor, qofiyadosh so'zlarni qo'llash orqali aniq bir shaxsni, atrofdozlarining basharalarini oshkora ochib tashlaydi. Bu o'rinda qarg'a insofsiz amaldorlarning majoziy obrazidir. Shuningdek, "Xalq dushmani" tamg'asi bilan 25 yoshga to'lmagan Usmon ham Nosir Zlatousk, Vladivostok, Magadan, Mariinsk qamoqxonarida bo'lgan vaqtda quyidagi misralar orqali insofsiz amaldorlarni qarg'aga o'xshatadi:

*Bo'lmoq istab, she'riyat uzra darg'a,
Itardilar meni chuqur bir jarg'a.
Menga ayon, bulbulning oshiyonig'a,
Qo'nolmag'ay urinish bilan qarg'a*

XX asr o'rtalarida amerikalik shoir, psixologik tahlilga asoslangan ramziy she'riyat yaratuvchisi Edgar Allan Po 1844-1849-yillarda "Qarg'a" she'riy dostonini yozadi. Doston lirik qahramonining prototipi Edgar Poning rafiqasi Virjiniya Klemm edi. U hayotining eng go'zal chog'ida sil kasalligidan vafot etadi. U atigi 20 yoshda edi. Shoir juda qattiq qayg'uga botadi. Edgar Po ushbu dostonni rafiqasiga bag'ishlab yozadi. Butun asar dard va qayg'u bilan sug'orilganligi uning nomidan ham ma'lum. She'r o'n sakkiz baytdan iborat bo'lib, har bir bayt olti misradan iborat bo'lib, oxirgisi naqoratdir. Asardagi qarg'a obrazi qo'rquv, cheksiz qayg'u va o'lim ramzidir. Lirik qahramon uni bosib olgan baxtsizlikka dosh bermasligidan qo'rqadi va qo'rquv qora qarg'a sifatida gavdalanadi.

Adabiyotshunosligimizda qarama qarshi obrazlarni ifodalash uchun bulbul va zog'(qarg'a) obrazidan foydalanilgan. Sayfi Saroyining "Guliston" asariga kiritilgan "Shoirlar ta'rifida" degan masnaviysida IV shoirlarning ijodiga tanqidiy yondashadi. Ularning ayrimlarini shirinsuxan bulbulga, ayrimlarini esa badnafs qarg'aga qiyoslaydi:

*Jahon shoirlari, ey gulshani bog',
Kimi bulbuldurur so'zda, kimi zog'.
Kimi to'ti tegin chaynar shakarni,
Kimi lafzi bilan o'rtar durarni.
Kimining so'zlari mavzunu shirin,
Kimining loyiqi ta'rifi tahsin.*

*Kimi o'zganing ash'orin menim der,
Kimi hayvon kabi shalg'am cho'pin er*³⁸²

XIII asrda Huvaydo ham voqeani jonli tasvirlash, his-tuyg'u va kechinmalarni yorqin ifodalash uchun "Ibrohim Adham" qissasida shoh va gado orasidagi farqni, bulbul va zog' obrazi orqali ifodalaydi:

*Dedi alar: shoh erur, biz gadomiz,
Nechuk xizmatlar egabiz, ravomiz.
Nadur bo'lg'ay gado shohning qatida,
Borub turmaq alar ping suhbatida.
Gadog'a suhbati shoh nest loyiq,
Bo'lurmu zog' bilan bulbul muvofiq*³⁸³

Negaki, qarg'adan farqli bulbulning makoni chaman-u bog'larda, yuksaklikda.

Xulosa qilib aytganda, bulbul oshiqlar ramzi, u doim yorga intilib yashaydi. Qalbi ishqqa yo'g'rilgan. Qarg'a nafsga bo'ysunuvchi insonlarning majoziy obrazidir. U asarlarda qayg'u, alam, o'lim ramzi sifatida ifodalanadi. Har ikkala qush ham asarlarning yanada ta'sirchan bo'lishi, uning badiiy qiymati yanada oshishi uchun xizmat qilgan.

Adabiyotlar:

1. Хувайдо. Роҳати дил. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994. 60- б.
2. Саидбек Ҳасан. Хассос шоир ва дostonнавис Хўжаназар Хувайдо "Роҳати дил". –Т. Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994.
3. Носируддин Бурҳонуддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. – Т.: Ёзувчи. 1990. 54-б.
4. Шукурова Зилола. Мумтоз насрда оғзаки ижод анъанаси (Қисаси Рабғузий" асари мисолида). – Тошкент: Зукко китобхон, 2020. – Б. 72.
5. Гулханий. Зарбулмасал ва ғазаллар. – Тошкент: 1960. – Б. 23.
6. Маҳмуд Қошғарий. Девону луғатит турк. – Тошкент: 1984. – Б.401
7. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Тошкент: 2007. Б.75.
8. Саройи Сайфи. Ш ЕЪ РЛ А Р. ГУЛИСТОН. – Т., Ғафур Ғулом номидаги бадий адабиёт нашрнети, 1968. Б. 33

³⁸² Саройи Сайфи. Ш ЕЪ РЛ А Р. ГУЛИСТОН. – Т., Ғафур Ғулом номидаги бадий адабиёт нашрнети, 1968. В. 33.

³⁸³Хувайдо. Роҳати дил. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994. Б. 60

KOMIL XORAZMIY IJODIDA POETIK TASVIR: AN'ANA VA NOVATORLIK

Muhayyo YAMINOVA

NamDU, o'zbek adabiyotshunosligi ixtisosli magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Komil Xorazmiy ijodida aks etgan an'anaviy poetik tasvirlar tadriji tahlil etilgan. Mumtoz adabiyotga oid badiiy tasvir vositalarining Komil Xorazmiy ijodidagi o'ziga xosligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: axloq, she'r, ma'naviy-axloqiy tarbiya, millat, insonparvar shoir, lirik qahramon.

Аннотация. В данной статье анализируются традиционные поэтические образы, отраженные в творчестве Камиля Хорезми. Подчеркнуто своеобразие средств художественного изображения, связанных с классической литературой, в творчестве Камиля Хорезми.

Ключевые слова: нравственность, поэзия, духовно-нравственное воспитание, натсия, лирический герой.

Annotation. In this article, the traditional poetic images reflected in the works of Kamil Khorezmi are analyzed. The uniqueness of artistic image tools related to classical literature in Kamil Khorezmi's work is highlighted.

Key words: ethics, poetry, spiritual and moral education, nation, humanitarian poet, lyrical hero.

Komil Xorazmiy – ilmi bade' sirlarini chuqur egallagan, nazmda mahorat bilan qo'llay olgan salohiyatli ijodkor. Shoir lirikaning qaysi janrida yozmasin, xoh g'azal yo muxammas, xoh masnaviy yoki kichik she'riy janrlarda, teran falsafiy fikrni go'zal badiiy san'atlar bilan ziynatladi. Bu orqali o'zining poetik mahorati nechog'liq baland ekanini ko'rsatdi. Mumtoz she'riy an'analarni munosib davom ettirish barobarida unga yangicha ruh bag'ishladi. Ijodkor lirikasida badiiy tasvir vositalaridan mahorat bilan foydalanilgani ularni o'zaro aloqadorlikda mufassal o'rganishni taqozo etadi. Chunki "...g'azallarda obraz yaratish uchun shoir foydalangan badiiy tasvir vositalarining barchasini e'tiborga olmay turib, ularning murakkab tarzda birikishidan hosil bo'lgan fakturasini (o'ziga xos xususiyatlarini) vujudga keltirgan ma'nolar aloqadorligi va ularning tovlanish rishtalarining barchasini ajratib olish mumkin emas". Shoir lirikasida badiiy san'atlarning qo'llanish usulida ikki xil holat kuzatiladi:

1. She'rni boshdan-oxir bir san'at asosiga qurish.

2. Bir she'rda bir qancha badiiy san'atlardan mahorat bilan foydalanish. Tabiiyki, ushbu tasnif ma'lum darajada shartlidir. Chunki ijodkorning ayrim lirik she'rlari asosan bir badiiy san'at asosida yaratilgani ularda parallel ravishda boshqa ko'plab badiiy san'atlar qo'llanishini istisno etmaydi. Shoir lirikasida badiiy san'atlardan istifoda etilishi masalasining ushbu tasnifga tayanib o'rganilishi, shu ma'noda, shartli ekanini ta'kidlash kerak. Tadqiqotda tahliliy

fikrlarni ma'lum bir tizimga solish uchun ham shu asosda ish ko'rildi. Komil Xorazmiy devonida boshdan-oxir bir badiiy san'atga asoslangan g'azallar bir nechta ekani shoirning ushbu she'riy usuldan unumli va mahorat bilan foydalanganini ko'rsatadi. Jumladan, ijodkorning:

*Mango qilma, ey mohi olijanob,
Itobu itobu itobu itob [1;64].*

matla'li g'azali buning yorqin isbotidir. Ushbu g'azal boshdan-oxir takrir san'ati asosiga qurilgan. Atoullah Husayniy ta'biricha, bu san'atning "...ma'noning takriri, ya'ni ani muqarraru muhaqqaq qilmoq yangliq nukta uchun lafzni takrorlamoq" ekani e'tiborga olinsa, Komil Xorazmiy ham takrirdan ayni maqsadda foydalangani ayon bo'ladi. Jumladan, mazkur g'azalning keyingi baytida shoir mana bunday yozadi:

*Erur ishqing o'tig'a ko'nglum mudom,
Kabobu kabobu kabobu kabob [1;64].*

Ushbu baytda "kabob" so'zining to'rt marta takrorlanishi lirik qahramon ruhiyatini, uning iztirobli kechinmalarini ta'sirchan ifodalashga xizmat qilgan. Aslida, ushbu baytda boshqa badiiy san'atlar, masalan, istiora (ishq o'ti), kabi san'atlar imkoniyatidan ham ustalik bilan foydalanilgan.

Takrirning mazmuni kuchaytirish, ta'kidlash maqsadlariga xizmat qilishi, badiiy so'zning ta'sir kuchini oshirishi e'tiborga olinsa, Komilning ushbu san'atdan samarali istifoda etgani sabablari oydinlashadi. Mana bu baytda oshiq ruhiyati va mashuqaning beqarorligi tasvirlangan.

*Chu kelding, ketarmen deb on qilma ko'p
Shitobu shitobu shitobu shitob [1;64].*

Takrir san'ati Xorazm adabiyotida Ogahiy, Feruz, Avaz O'tar o'g'li ijodida ham keng qo'llangan. Bu san'at, birinchidan, shoir urg'u bermoqchi bo'lgan fikrni ta'kidlab ko'rsatishga xizmat qilsa, ikkinchidan, o'quvchining diqqat-e'tiborini muallif ko'zida tutgan asosiy mazmunga qaratadi. Uchinchidan, g'azalda o'ziga xos ohangdorlikni ta'minlaydi:

Oshiqning javr chekishi, ma'shuqaning zulm ko'rsatishi – mumtoz adabiyotda an'anaviy tarzda davom etib kelayotgan tasvir. Lekin Feruz takrir san'ati orqali ana shu an'anaviy mazmunga yangi ruh bag'ishlaydi. Keyingi baytda "xarob" so'zining to'rt marta takrorlanishi ana shu maqsadga xizmat qilgan:

*Ango ko'p ko'ngil qo'ymakim, bo'lg'ay – o'q
Xarobu xarobu xarobu xarob [1;64].*

G'azalning to'qqizinchi baytiga kelib yorga bo'lgan ishq qisman ijtimoiylashib toju taxtga bo'lgan ishqqa aylanadi. Komil Xorazmiy mol dunyo sen bilan tunu kun birga bo'lsa ko'p ham fahrlanma deb begona bayt kiritadi. Bayt tarkibidagi rikob so'zi shohlar bosh kiyimi ma'nosida tushuniladi.

*Sango bo'lsa ham oyu kun – qilma faxr
Rikobu rikobu rikobu rikob [1;64].*

Keyingi bayt avvalgisidagi mazmuni davom ettirishi barobarida o'quvchi ko'z o'ngida obrazli tasvirni jonlantirishi jihatidan ham qimmatlidir:

Erur jiyfa dunyo oning tolibi

Kilobu kilobu kilobu kilob [1;64].

Visol – oshiqning oliy maqsadi. Barcha dardu iztirob, jabru zulmga sabr qilish zamirida ana shu maqsad yotadi. Unga erishgandagina oshiq o'zini baxtiyor hisoblaydi. G'azalning maqta'ida ana shu fikr san'atkorona ifodalangan:

Labing hajrida ichmagay Komiling

Sharobu sharobu sharobu sharob [1;64].

Ta'kidlash kerakki, ushbu g'azaldagi takror o'quvchiga zarracha malol kelmaydi. Aksincha, she'ning ohangdorligini, musiqiyligini oshirib, misralar jozibasining o'quvchi qalbiga oqib kirishini ta'minlaydi. Bu hol, o'z navbatida, Xorazmiyning nechog'liq mahoratli shoir bo'lganini ko'rsatadi.

She'ni boshdan-oxir bir san'at yani takrir san'atiustiga qurish faqatgina bu g'azal tarkibida emas, boshqa lirik asarlari tarkibida ham uchraydi. Buning isboti uxhun takrir san'ati zamirida ijod qilingan mana bu g'azalni misol sifatida keltirishimiz mumkin.

Loladek ishqingda ko'nglum, ey nigor

Dog'doru dog'doru dog'dor.

Tig'I hajringdin erurman borho

Dilfigoru dilfigoru dilfigor.

Ko'zlarim oyinadek diydoringa,

Intizoru, intizoru intizor.

Berdi sirri ishqinga qonli yoshim,

Ishtihoru, ishtihoru ishtihor.

Mehru ruhsoringdin ayru jonu dil

Beqaroru beqaroru beqaror [1;82]

G'azaldagi baytlar mazmuniga diqqat qaratilsa, har brida takrorlanib kelgan so'zlar ifoda qilinayotgan fikrni yanada kuchaytishga uning ta'sir kuchini oshirishga qaratilgan. Ushbu so'zlar o'quvchiga zarracha malol kelmaydi, balki baytdan baytga o'tgan sari kishining zavqini oshiradi. Shu bilan birga Komil Xorazmiyning nechog'liq usta san'atkor ekanini namoyish qiladi. Yuqoridagi g'azal tarkibida takrirdan tashqari yana bir necha badiiy tasvir vositalaridan san'atkorona foydalanilganini ko'rishimiz mumkin. Xususan tashbeh (loladek ko'nglum, oyinadek diydor, qonli yosh, furqating qishi, vasling navbahori, abrdek chashmim, oy yuzung) tazod(furqating qishi, vasling navbahori) tashxis(sunbul va gul yuzing va zulfingni ko'rib sharmisor). Ushbu g'zal 11 baytdan tashkil topgan bo'lib arozning ramali musaddasi mahzuf vaznida bitilgan. Bu kabi yirik hajimli g'azallar komil Xorazmiy ijodida ko'plab topiladi.

Bunday takrirlarga asoslangan asarlar nafaqat Komil Xorazmiy g'azallarida balki uning muxammaslarida ham yuksak namunalari uchratish mumkin. Quyidagi muxammasga diqqat qaratadigan bo'lsak undagi har bir misrada takrir san'atiga guvoh bo'lamiz.

Necha, necha necha kundan beri jahon yaksar,

Qaro, qaro, qaro erdi ko'zimga shomu sahar.

Bukun, bukun, bukun olam munavvar bo'ldi magar,

Quyosh, quyosh, quyoshoso jamolin ul dilbar.

Ochib, ochib, ochib olamni ayladi anvar [1; 203].

Muxammasning har bir bayti ayni holdagi takrirlardan iborat. Va o‘z navbatida bu band mazmunini nihoyatda kuchaytirishga hizmat qilgan. Muxammasning ushbu bandi tarkibida takrirdan tashqari, tashxis va tazod she‘riy san’atlaridan foydalanib, muxammas ma‘nosi yanada go‘zallashtirilgan. Muxammasning keyingi baytlarida ham huddi shu kabi so‘z takrorini kuzatish mumkin.

Shoir ijodida so‘z takroriga asoslangan yana bir san’at, mukarrar san’ati ham etakchilik qiladi. Bu san’at “qayta-qayta”, “usti-usti” ma‘nolarini beradi. Baytdagi so‘zning muayyan o‘rinda takrorlanib, juftlanib kelishidir. Har bir baytda juft so‘zlarning qo‘llanishini mukarrarga xos xususiyatini shoirning quyidagi baytida ko‘ramiz.

*To gulshani jamoling ochar gul chaman-chaman
Zulfi muanbaring sochar anbar summan-suman [1; 135].*

Komilning yuqoridagi g‘azali matla’ dan maqta’gacha mukarrar san’ati ustiga qurilgan. Ushbu takrorlar bayt mazmunini yanada kuchaytirishga xizmat qilgan. Xususan, yuqoridagi baytda yor yuzining chaman-chaman gul ochishiyu, sochlaridan hushbo‘y atirlar sochilishi tashbeh qilingan.

*Har bir shikanga bandadur yuz shikasta dil,
To zulfi anbarin sang obo‘lmish shikan-shikan [1; 135]*

– Deb yor sochlarini kishanga o‘xshatib, uni o‘rab olganini ifodalamoqda. Bundan tashqari Komil Xorazmiy ijodida tajohi orif san’atining o‘rni ham katta. Xususan, shoirida boshdan oyoq shu san’atga qurilgan g‘azal ham mavjud. Ushbu g‘azal quyidagi matla’ bilan boshlanadi:

*Jon baxshi la‘ling ul xol hindularmudur,
Yo chashmai hayvon uza zag‘ sayah mo‘larmudur [1; 60].*

Ushbu baytda shoir yor labi ustidagi holni dastlab hinduga so‘ngra suv yuzidagi qora siyohga o‘xshatib o‘ziga xos tashbeh yaratadi. Bu kabi ajoyib tashbehlar g‘azalning keying baytlarida yana ham go‘zallashadi.

*Bog‘ jamoling sahnida o‘ynar ko‘zing mardumlari,
Yoxud Ho‘tan gulzorida sayr etgan ohularmudur? [1; 60].*

Yuqoridagi baytda shoir endi yor ko‘zlarining tavsifiga o‘tib uni Ho‘tan bog‘ida sayr etib yurgan ohularga o‘xshatadi. Mumtoz adabiyotimizda yor ko‘zining ohularga o‘xshatilishi ko‘plab uchraydi. Shoir yor ko‘zlarini tasvirlash bilan birga uning yuzini ham Ho‘tan bog‘idek go‘zal ekanini aytib o‘tmoqda.

*Sunbul erurmu sarvg‘a chirmoshib o‘sgan bog‘ aro,
Yohud cho‘lashgan haddingga shabrang gisularmudur [1; 60].*

Endi navbat yorning qaddi-yu sochlariga keldi. Yor qaddini an’anaviy tarzda sarv daraxtiga qiyos etadi. Sochlarini esa qora sunbullarga o‘xshatadi. Bu o‘xshatish ham mumtoz adabiyotimizda ko‘p qo‘llanuvchi an’anaviy badiiy tasvirlardandir.

*Shahlo ko‘zung atrofida kipriklarim, yo‘q esa,
Qo‘rg‘on kiyiklar saydiga sayyod mo‘ndularmudur? [1; 60].*

Yuqoridagi baytni tahlil qilar ekanmiz, yana bir betakror tashbehni ko‘ramiz. “Mo‘ndu” so‘zi Navoiy asarlar lug‘atida xandaq sanchig‘i, tuzoq kabi izohlar ko‘rsatilgan. Ko‘zni kiyiklarga o‘xshatish yuqoridagi baytda ham kuzatildi. Ushbu baytga kelib kipriklar kiyiklarni ovlash uchun qo‘yilgan sayyod (ovchi)lar tomonida qo‘yilgan tuzoqlarga o‘xshatilyapti. Shoir o‘quvchi ko‘z o‘ngida o‘zgacha manzarani namoyon qiladi.

Adabiyotlar:

1.Хайитметов.А., Мўминова В. Жаҳолатга ёв бўлиб. Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. – Тошкент, 1975

2.Юсупова Д. Аруз ва мумтоз поэтикага кириш. – Тошкент: Академнашр, 2020. – Б. 294.

ISO VA NUH PAYG‘AMBARLARNING BADIY ADABIYOTDAGI TALQINI

Madina RAVSHANOVA

University of Business and Science talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qur’onda keltirilgan Iso ova Nuh payg‘ambarlar nomlarini mumtoz adabiyotda ijodkorlar tomonidan ishlatilishi, payg‘ambarlarning hayoti va badiiy adabiyot haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Nuh, Iso, Qur’on, payg‘ambar, yusuf, Sulaymon, kalimai shahodat.

Annotation. This article discusses the usage of the names of the prophets Iso and Nuh as mentioned in the Qur’an within classical literature, providing information about the lives of the prophets and their representation in artistic literature.

Keywords: Nuh, Iso, Qur’an, prophet, Yusuf, Sulaymon, declaration of faith.

Payg‘ambarlar Allohning erdagi elchilaridir. Alloh taolo bandalar ichidan payg‘ambarlar tanlab, ular orqali bandalami imonga, hidoyatga chorlagan. 124000 payg‘ambar yuborilgan bo‘lib, ulardan 313 nafari rasul (kitob yoki sahifa tushgan), qolganlari nabiy — kitobsiz payg‘ambarlardir.

Qur’oni karimda 25 payg‘ambar nomi zikr etilgan. Ularning birinchisi Odam (alayhissalom) bo‘lsa, so‘nggisi Muhammad payg‘ambarimizdir (alayhissalom). Bu payg‘ambarlar ichida badiiy adabiyotda Nuh (alayhissalom), Ya‘qub (alayhissalom), Yusuf (alayhissalom), Sulaymon (alayhissalom). Iso (alayhissalom) timsollari ko‘p uchraydi.

Nuh (alayhissalom) zikri 43 oyatda kelgan. U haqdagi qissalar A’rof, Hud, Muminun, SHuaro, Qamar suralarida uchraydi. Qur’onning bir surasi “Nuh” nomini olgan. Nuh (alayhissalom) 480 yoshida payg‘ambar bo‘ladi. 120 yil qavmini dinga da’vat qilgan. 600 yoshida kemaga minadi, To‘fondan so‘ng 350 yil umr ko‘rib, 950

yil yashagan. Ankabut surasining 14-oyatida: “Nuh ulaming orasida ellik yili kam ming yil turdi”³⁸⁴, deyiladi.

Qur’oni karimda Nuh payg’ambar zikr etilgan oyatlarga tayanib, XIV asr adibi Rabg’o’ziy “Qissasi Rabg’o’ziy” kitobida Nuh payg’ambar timsolini yaratgan.

Odamlar butlarga, sanamlarga sig’inayotgan vaqtda Alloh ularni hidoyat yo’liga boshlash uchun, Nuhni (alayhissalom) payg’ambar qilib yuboradi. Nuh surasining 1-oyatida shunday deyilgan: “Biz Nuhni o’z qavmiga, qavmini ularga azob kelishidan avval ogohlantirgin, deb payg’ambar qilib yubordik”.

Nuh (alayhissalom) qavmini imonga, hidoyatga da’vat qiladi. Ammo ular bu da’vatlarga yurmaydilar, uni mazax qiladilar. Oqibat, Alloh amriga ko’ra, Nuh (alayhissalom) kema yasab, kemaga har jonzotdan bir juftdan olib, boshqa tomonga suzib ketadi. Hidoyatga yurmagan qavm esa to’fon balosiga uchrab, g’arq bo’ladi.

Bu voqealar Rabg’uziy qissasida ham aksini topgan. Ayrim misollarni ko’raylik. Hud surasining 38-oyatida kema yasayotgan Nuhga (alayhissalom) qavmidagi odamlar munosabati bunday tasvirlangan: “U kema yasamoqda. O’z qavmidan bo’lgan zodagonlar qachon oldidan o’tsalar, uni masxara qiladilar”.

Xuddi shu voqea Rabg’uziy qissasida bunday aks etgan: “Jabroil Nuhga ta’lim berdi. Yig’ochni yorg’u birla yordilar, suv uzra o’rdak yurgani ko’rguzu berdi. Anga o’xshash keti yo’na boshladilar. Kofirlar ani ko’rub kular erdilar”.

Qur’onda Nuh (alayhissalom) o’g’illarining ismlari berilmagan. Faqat bir o’g’li ota amriga yurmay, kemaga chiqmaydi va g’arq bo’ladi. Hud surasining 42,43-oyatlarida bunday ma’lumotlar bor: “Ey o’g’lim, biz bilan birga mingan, kofirlar bilan birga bolmagin”, dedi. U (o’g’il): “Toqqa joylashib olsam, meni suvdan saqlaydi”, dedi. U esa “Bugun Allohning amridan saqlovchi yo’qdir, Magar kimni rahm qilsagina (saklar). dedi, Shunda oralarini to’lqin to’sdi va u (o’g’il) g’arq bo’lganlardan bo’ldi”³⁸⁵

Rabg’uziy qissasida Nuh (alayhissalom) o’g’illarining nomlari berilgan bo’lib, yuqoridagi voqea quyidagicha aks etgan: Nuh o’g’li Som va Xom va Yofas va Kan’on o’g’li to’rt erdi. Nuh aydi: “Ey Kan’on, musulmon bo’l, kemaga kirgil, to’fon suvi halok qilmasin”, dedi. Kan’on aydi: “Man aziz tog’larga sig’ingaymen. Tog’ meni suvdin kuzazgay”, dedi. Nuh aydi: “Bu kun kimerseni azobdan saqlaguvchi yo’q Izidin o’zga”. Bu so’za erdilar suv keldi. Kan’onni halok qilg’utek bo’ldi ersa qochdi, tog’ tobasig’a oshdi. Suv keldi, oshuqing’a tegdi. O’g’li bor erdi, ani oyoq osting’a olib tebasiga oshdi. O’g’lon o’ldi, o’zi ema g’arq bo’ldi, imonsiz bordi”³⁸⁶.

Kema bitgach, Alloh kemaga kimlarni olish haqida amr etdi. Bu haqda Hud surasining 40-oyatida bunday deyilgan: “Toki Bizning amrimiz kelib, tannur favvora otganda: “U kemaga har narsadan bir juftdan va ahlingni ol, magar avval so’z ketganni (olma) va imon keltirganlarni ham ol”, dedik. U bilan birga imon keltirganlar juda oz edi”.

Rabg’o’ziy qissasida kemaga chiqqanlar sonini 80 kishi edi, deb yozgan: “Nuh ul sakson kishi mo’nin birla kemaga kirdi”.

³⁸⁴ Qur’oni karim Ankabut surasining 14 oyati

³⁸⁵ Qur’oni karim Hud surasining 42, 43 oyatlari

³⁸⁶ Рабғузий Б.Н. Қиссаси Рабғузий. 1 китоб. –Тошкент: Ёзувчи, 1990.

Shunday qilib, Rg‘buziy hali Qur‘onning tarjimalari, tafsirlari kam bo‘lgan bir zamonda o‘zbek kitobxonini Nuhga (alayhissalom) bog‘liq voqealar bilan, imonga, hidoyatga yurmagan insonlar kim bo‘lishidan qat‘i nazar, Alloh qahriga qanday duchor bo‘lishlarini ko‘rsatib, insonlarni imon-e‘tiqodga chaqiradi.

Nuh payg‘ambar va uning o‘g‘illari haqidagi fikrlar faqat badiiy asarlardagina emas, ilmiy asarlarda ham uchraydi. Navoiy “Muhokamatul lug‘atayn” nomli kitobida tillarning paydo bo‘lishini Nuh payg‘ambar va uning o‘g‘illariga bog‘lab tushuntiradi. “Nuh payg‘ambar uch o‘g‘ligakim, Yofas va Som va Xom etishur va bu mujmal tafsili budurki, Nuh to‘fon tashviridin najot va aning mahlakasidin hayot topti, olam ma‘murasida bashar jinsidin osor va inson nav‘idin namudor qolmaydur. Yofasniki, tavorix ahli Abut-turk biturlar. Xito mulkiga yibordi va Somniki, Abul-furs bitirlar, Eron va Turon mamolikining vasatida voliy qildi va Xomniki, Abul-hind debdurlar. Hindiston bilodiga uzatti”³⁸⁷.

Badiiy adabiyotda tasviri eng ko‘p uchraydigan payg‘ambarlardan biri Isodir (alayhissalom). Badiiy adabiyotdagi bu holat bevosita Qur‘oni karim bilan bog‘liqdir. Qur‘onda bu payg‘ambar nomi 24 marta zikr etilgan. Bu payg‘ambar haqida Baqara, Oli Imron, Niso, Moida, An‘om, Maryam, Ahzob, SHO‘ro, Zuxruf, Hadid va Saf suralarida oyatlar kelgan.

Qur‘oni karimda Isoning (alayhissalom) onasi Maryam Imron qizi ekani aytiladi.

Tahrim surasining 12-oyatida bunday bayon etilgan: “Va Maryam Imron qizini (misol keltirdi), u farjini pok saqlagan edi, Biz unga o‘z ruhimizdan pufladik va U Rabbisining so‘zlarini hamda kitoblarini tasdiq qildi va itoatkorlardan bo‘ldi”³⁸⁸.

Alloh uni payg‘ambar qilib tanladi. Bu haqda Oli Imron surasining 45-46-oyatlarida bunday deyilgan: “Farishtalar: “Ey Maryam, albatta, Alloh senga o‘zidan (muborak) so‘z bashoratini bermoqda, uning ismi Masih Iso ibn Maryam, bu dunyoyu oxiratda obro‘li va yaqin bandalardandir. U odamlarga beshikda ham, qarigan chog‘ida ham gapiradi va solihlardandir”, deganlarini esla”.

Isoga (alayhissalom) Alloh ulug‘ xislatlar berdi. Oli Imron surasining 49-oyatida bunday deyilgan: “Va Bani Isroilga payg‘ambar qildi. U: “Albatta, men sizga Rabbingizdan oyat-mo‘jiza keltirdim, men sizlarga loydan qushga o‘xshash suvrat yasayman, unga puflasam, Allohning izni bilan qush bo‘ladi. Alloh izni bilan tug‘ma ko‘r va |peslarni tuzataman va o‘likni tiriltiraman. Sizlarga nimani emoqdasizu, nimani uyingizdasaqlayapsiz-xabarini beraman. Agar mo‘min bo‘lsangiz, albatta, bunda bunda sizgaoyat-belgi border”³⁸⁹, deyd”.

Ko‘pchilik payg‘ambar so‘zi bilan imon yo‘liga kiradi.

Iso (alayhissalom) qavmni hidoyatga chaqiradi. Ammo yahudiylarga shuncha mo‘jizalarni ko‘rsatsada, unga ishonmaydilar. Yahudiylar Isoni (alayhissalom) o‘ldirmoqchi bo‘ladilar. Ammo Alloh aziz qilgan bandani banda badnom qila olmaydi. Yahudiylar uni o‘ldirdik, deb o‘ylaydilar. Aslida Iso (alayhissalom) tirikdir. Bu haqda Niso surasida oyat bor: “Biz Allohning Rasuli Masih Iso ibn Maryamni

³⁸⁷ Пайғамбарлар қиссаси. Шайх Зоҳиджон Қодир отахонҚодир ўғли. – Тошкент: Қомуслар бош тахририяти, 1993.

³⁸⁸ Qur‘oni karim. Tahrim surasi 12 oyati

³⁸⁹ Qur‘oni karim Oli Imron surasi 49- oyat

o‘ldirdik, deganlari uchun (ularni la‘natladik), Holbuki, uni o‘ldirmadilar ham, osmadilar ham, lekin ularga shunday tuyuldi. U haqda ixtilofga tushganlar uning o‘ligidan shab-shubhadadirlar, U to‘g‘risida ularning bilimlari yo‘q, magar gumonga ergasharlar. Uni o‘ldirnaganlari aniqdir”³⁹⁰.

Bu voqea juma kunidan shanba kuniga o‘tar kechasi sodir bo‘ladi. Yahudiylar ularni qamalga oladi. Shunda Iso (alayhissalom) sheriklariga: “Qaysingizga mening tusim o‘tsa, o‘sha odam jannatda men bilan birga bo‘ladi”, deydilar.

Bu ishga bir yosh yigit tayyorligini bildiradi. Uni xiyol yosh sanadilar, yuqoridagi gapni ikkinchi, uchinchi bor takrorladilar. Har safar faqat haligi yigit tayyorligini bildirdi. Iso (alayhissalom); “Sen o‘shasan!” dedilar. Alloh taolo u yigitni Iso (alayhissalom) tushiga kiritdi.

Tomning shiftidan bir tuynuk ochildi. Isoni (alayhissalom) mudroq oldi. SHu holda osmonga ko‘tarildilar. U zot ko‘tarilganidan keyin, sheriklari tashqariga chiqishdi. Yahudiylar qorong‘ida haligi yigitni Iso deb o‘ylab, ushlab, osdilar.

Iso (alayhissalom) qiyomat kunigacha hali erga tushadi. Odamlarni imon va hidoyatga yo‘llaydi. Dajjolni o‘ldiradi. Iso (alayhissalom) haqidagi xabarlarning muxtasar bayoni ana shulardan iborat.

Sayfi Saroiy Sa‘diyning “Guliston” asarini turkiy tilga erkin tarjima qilgan. Ayrim hikoyatlarni asarga kiritgan. Ulardan biri “Iso mo‘jizasi” hikoyatidir. Tarjimon Isoning (alayhissalom) o‘likka jon bag‘ishlashi mo‘jizasidan foydalanib, qo‘lingdan kelmagan ishga urinmagin, degan g‘oyani olg‘a surgan. Hikoyatda aytilishicha, bir odam Iso huzuriga kelib, o‘likni tiriltiruvchi duoni o‘rgatib qo‘yishini iltimos qilibdi. Iso bu taklifni rad etibdi. Ammo o‘jar inson Isoning hol-joniga qo‘ymay, o‘sha duoni o‘rgatishni so‘rayveribdi. Iso unga duoni o‘rgatibdi.

Duo o‘rgangan kishi xursand bo‘lib ketayotsa, yo‘lda bir uyum suyak yotgan ekan. U kishi duoni o‘qibdi. Bu suyaklar o‘lgan sherning suyaklari ekan. Och qolgan sher duogo‘y kishini eb qo‘yibdi.

O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida nomi she‘rlarda ko‘p uchraydigan payg‘ambarlardan biri Isodir (alayhissalom). Shoirlar bu payg‘ambarga aloqador mo‘jizalardan o‘likni tiriltirishi, ko‘kka chiqib ketganidan foydalanadilar. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida bubday payg‘ambarlarni ko‘p uchratishimiz mumkin.

Adabiyotlar:

1. Рабғузий Б.Н. Қиссаси Рабғузий. 1- китоб. –Тошкент: Ёзувчи, 1990
2. Рабғузий Б.Н. Қиссаси Рабғузий. 2- китоб. –Тошкент: Ёзувчи, 1990
3. Пайғамбарлар қиссаси. Шайх Зоҳиджон Қодир отахонҚодир ўғли.- Тошкент: Қомуслар бош тахририяти, 1993
4. Абдуллайев Б.А. Ўзбек адабиёти тарихи, 2-китоб. –Тошкент: Ўқитувчи, 1967
5. Исхоқов Й. Талмех. Ўзбек тили ва адабиёти журнали, 3-сон, 1970

³⁹⁰ Qur‘oni karim Niso surasi 7- oyat

MUMTOZ ADABIYOTNI MAKTAB VA OLIY TA'LIMDA O'QITISHNING MUAMMO VA VAZIFALARI

ASIRIDDIN AXSIKATIYNING HAYOTI VA IJODINI O'RGATISH USULLARI

Muyassar BOQIXONOVA

*Ibrat ijod maktabi oliy toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi,
"Shuhrat" medali sohibasi, erkin tadqiqotchi*

Annotatsiya. Ushbu maqola "Ijod maktablari"da Asiriddin Axsikatiy she'riyatini sodda va qulay tarzda o'zlashtirish uchun tavsiya etiladi. Axsikatiy ijodini o'rganishda birmuncha yengilliklar tug'diradi. To'qqiz asr narida yashab o'tgan hamyurt shoirimizni xalqimizga yaqinlashtiradi.

Kalit so'zlar: Axsikatiy, metod, maktab, an'ana, ash'or, g'azal.

Abstract. This article is recommended for learning the poetry of Asiriddin Axsikati in "Schools of Creativity" in a simple and convenient way. It makes it easier to study the work of Axsikati. A compatriot who lived nine centuries away brings our poet closer to our people.

Key words: Axsikati, method, school, tradition, poem, ghazal.

Namangan Afrosiyobi deb atalmish Axsikent 2500 yillik tarixga ega. Uning uchun o'rta asrlar chinakamiga gullab- yashnash davri sifatida ko'hna kitoblarda bitilib qoldi. Chunki u Farg'ona davlatining poytaxti edi. Mashhur shaharning olamga mashhur kishilari aslida ko'p. Lekin ular orasida ikki yorqin siymo alohida ajralib turadi. Biri Ahmad al- Farg'oniy (798-865), ikkinchisi Asiriddin Axsikatiy (1108-1198) bo'ladi.

Taniqli fors tilida ijod qilgan shoir, Axsikatiy she'rlarining zukko tarjimon Tohir Qahhor ta'kidlaganday: "Asiriddin Axsikatiy asarlarini to'laligicha o'zbek kitobxonlariga etkazish, ularni o'rganish va o'rgatish g'oyat mas'uliyatli, g'oyat sharaflı yumush. Agar biz shunga erishsak, ana o'shanda to'qqiz asr narida yashab o'tgan hamyurt

shoirimizni xalqimizga yaqinlashtiramiz".³⁹¹

Shu yo'lda biz ham harakatga tushdik. Axir bu ulug' zot targ'iboti bilan shug'ullanishni, avvalo, yurtdoshlik farzimiz, qolaversa adabiyotchi pedagog sifatidagi burchimiz, deb bilamiz. Hatto shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnomasida: "...Asiriddin shoirni Asiriddin Axsikatiy derlar"³⁹² deya faxr bilan eslagan.

³⁹¹ Sodiq Sayhun. Axsikent va Aysi. Toshkent: - "Navro'z", 2017, 126- bet.

³⁹² Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. Тошкент: - "Юлдузча". 1989. 13- бет.

Axsikatiy asarlarini anglash orqali xalqimizning ma'naviy yuksalishi, qadriyatlarga hurmati, yurtga sadoqati, inson va tabiatga mehri, komillikka intilish tuyg'ulari ortib boradi. Bugungi kun o'quvchisi mumtoz adabiyotni yaxshi anglamog'i uchun, avvalo, o'z zaminidan o'tgan buyuk siymolarni bilmog'i lozim. Ijod maktablarida mumtoz adabiyot chuqurlashtirib o'qitilishi sababli Axsikatiy va shu kabi shoirlarga etarlicha e'tibor ko'rsatilmoqda. Asiriddin Axsikatiy ijodi yangi innovatsion texnologiyalar asosida chuqur o'rgatilmoqda.

Ismidan anglashimizcha, uning otasi bilimdon va yuksak iymon- e'tiqodli shaxs bo'lgan. O'g'lini arabcha Asiriddin atashi bejiz emas. Bu ismning ma'nosi dinga sig'inuvchi, xudojo'y bo'lgani uchun bolasi shunday kamolot kasb etishini orzulagani ayon. Albatta, ko'nglidagi niyatga har bir odamni shunga yarasha harakatga solishi ham tabiiy. Asiriddinni dastlab madrasada o'qitishadi. U arabcha va forsha saboq chiqaradi. Axsikatdagi zukko-yu nozikta'b mudarrislarining peshqadam shogirdlari qatorida yuradi.

Asiriddin faqat diniy emas, balki dunyoviy ilm-fanlarni ham zo'r qiziqish bilan o'rgangan. Xususan, adabiyotga ixlosanligi sababli aruz ilmini chuqur o'rganadi. Qalb tug'yonlarini nazmga solib, qog'ozga muhrlashga ham mohirlashib boraveradi. Uning kelgusida taniqli shoir bo'lib etishishi uchun baland iqtidori borligini ustozlari barvaqt payqashadi. Unga "Siz dunyo kezing, ulug'larga talpinig, qalamingiz bag'oyat sehrli" deya rag'bat yog'dirishadi. So'ngra ustozlar o'g'lining parvozi uchun g'amxo'rlikka hamisha tayyor turgan otasiga ham maslahat solishadi, tavsiya berishadi. Katta ishonchga munosiblikka intilgan zukko yigit Axsikatdan Balx sari o'tlanadi. Ilm istab bir manzilga etgan Asiriddin yana madrasa eshigini qoqadi. Talabalikka qabul qilinadi. Boy kutubxonalaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgani uchun kimyo, tib, riyoziyot, nujum, hay'at, falsafa, mantiq, kalom ilmiga doir kitoblargacha mutolaa qiladi. Axsikatiy taxallusi bilan yozgan ash'orlarini madrasadagi ustoz-u ilmi toliblar o'rtasida ma'qul-u manzurligi she'riyatparastligini tobora kuchaytirib yubordi. Ayniqsa, Hirot va Marv shaharlarida yashaganida shoir sifatida nom qozondi.

Professor Hamidjon Homidiyning yozishicha: "... Lekin nima sababdandir, u Sulton Sanjar saroyidagi katta madaniy va adabiy harakat doirasiga kirmaydi va uning she'rlari orasida Sultonga bag'ishlangan qasida ham uchramaydi".³⁹³

Demak, hamyurtimiz xushomadgo'ylikni yoqtirmagan. Hukmdorlarning o'zlari saroyga chorlamasalar, u hech vaqt shohona hayot uchun g'ururidan voz kechmagan. Qachonki, keyinchalik shoir qadrini bilganlargagina yaqinlashishni o'ziga ep ko'rgan.

Asiriddin Axsikatiy tinchlikni juda-juda xohlagan. Afsuski, o'sha zamonda toj-taxt talashishlar avjida edi. 1256-yili Xurosonni saljuqiylar sulolasi egalladi. Sulton Sanjarni qo'lga oldi. G'aznaviylarning hukmronligi tugatildi. Ilm-fan, ijod ahlining qadr-qimmati qolmadi. Alal oqibat Axsikatiy nisbatan tinchroq bo'lgan

³⁹³ Хамиджон Ҳомидий. Кўхна шарқ дарғалари. Тошкент: - "Шарқ". 2004. 122- бет.

Iroq-u Ajamga bosh olib ketdi. Bu joy G‘arbiy Eron hisoblanadi. U Hamadon shahriga etgach, hukmdorlar nazariga tushdi. U o‘zining bilimiga ham,

ijodiy iqtidoriga ham qattiq ishonar edi. Qadrlashsa, xizmatiga yarasha adolatli ravishda siylashsa, aql-zakovati, so‘zlari sehri- yu, jo‘yali maslahatlari bilan foydasi tegishini yaxshi anglardi. Saljuqiy shohlardek dastavval Arslon ibn To‘g‘ral(1160-1179), so‘ng Qizil Arslon (1185-1191) xizmatida yuradi. Uning butun umri badiiy ijodga bag‘ishlanganini she‘riyatning turli janrlarida barakali qalam tebratgani yaqqol isbotlaydi. G‘azal, qasida, ruboiy, qit‘a, tarjiband va fardlari bilan zamondosh va davradosh shohlarning eng baland martabalari maqomiga erishgan.

Arslon shoh davrida shoir ijodi yuksak baholangan. Asiriddinga “Malik ush-shuaro” – “Shoirlar shohi” degan, “Amir ul-shuaro” – “Shoirlar amiri” degan sharaflil nomlar berishdi. Bunday unvonga o‘sha paytgacha biror o‘zbek shoiri musharraf emasdi. Ilk bora Axsikent farazandi munosiblikka loyiq topildi. Yuksak rutbaga yarasha ardoq va siylovlarning ravo ko‘rilishi o‘z-o‘zidan ma‘lum. Atrofidagilarning ayrimlariga esa bu xush yoqmasdi. Hasadchilar riyokorlikka berilishdi. Saroy ichida Axsikatiyga goh yashirin, goh oshkora tuhmat va bo‘htonlar yog‘dirishdi. Ray, Isfaxon, Tabriz, Shervon, Zangon, Ko‘histon, Ganja, Xolxol va Nishopur singari shaharlarda yashar ekan, baland shuhrati boshiga bot-bot balolar yog‘ilishiga olib kelaverdi. Lekin el ichida asarlar suyib o‘qildi, qo‘shiq qilib aytili. Muxlislari mehr-u muhabbati tobora ortaverdi. Xuddi shu narsa og‘ir damlarda ham unga ruhan tetiklik bag‘ishlayveradi. Ochig‘i, qullar, hatto hukmdorlar-u mashhur kishilar Axsikatiy suhbatiga mushtoqlik sezishgan. U bilan uchrashishni, diydorlashishni orzulashgan.

“Donish va fozil kishi ermish, – deb yozadi tazkiranavis Davlatshoh Samarqandiy. – So‘zamollikda oliy martabaga ega erdi. Xoqoniyning hamasrlaridan. Asli turkistonlik, ... Ammo Iroq-u Ajam va Ozarbayjon shaharlarida sokin erdi. Xolxol va Mo‘sul hokimi uni huzuriga taklif etdi va umrining oxirini o‘sha diyorda o‘tkazdi”.³⁹⁴ U Xolxol shahrida vafot etdi.

Asiriddin Axsikatiyning 1313-yilda Abdulmo‘min Ulviy Kotiy tomonidan ko‘chirilgan 8000 baytdan iborat she‘rlar devoni Londonda “Indiya Ofis” kutubxonasida saqlanmoqda. Ikkita qo‘lyozmasi Hindistonda, 2 tasi Germaniyadagi kutubxonalarda saqlanmoqda.

Devondagi she‘rlar 120 qasida, 220 g‘azal, 80 qit‘a, 80 ruboiy, 4 ta tarjiband, 24 farddan iborat.

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent Alixon Xalilbekov tahlil qilganiday: “Shoir g‘azallarida muhabbat, mehr-u vafo, odamiylik, do‘stlik, odillik, insoflilik, halollik, iymon-e‘tiqod va boshqa axloqiy sifatlarda ulug‘lanadi, tabiat tarovati tarannum etiladi. Asiriddin inson ruhiyatidagi turfa holatlarni, nozik kechinma va kayfiyatlarni ohang-u satrlarga to‘kadi. She‘r bilan o‘z ko‘nglini taskin toptiradi, she‘rxonlar ko‘nglini ham zabt etadi”.³⁹⁵

³⁹⁴ Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони. Тошкент: - “Фан”. 1981. 58- бет.

³⁹⁵ Алихон Халилбеков. Наманган адабий гулшани. Наманган: - “Наманган”. 2007. 24- бет.

Yuqoridagi fikrlarni tasdiqlovchi baytlarni tahlilga tortaylik. Ularni Tohir Qahhor tarjimasi bilan keltiramiz. Masalan, “Qolmadi” radifli g‘azali behad e’tiborga loyiq:

*Sirlashay kim birla, hamdam qolmadi,
O‘tdi jondan dard-u malham qolmadi.
Ko‘r madim bir yor-u hamdam suvratin,
Ko‘r, falak, umrimda birdam qolmadi.
Ko‘zlarimdan oqdi dunyo ko‘z yoshi,
Ko‘zlarinda dunyoning name qolmadi.
G‘am tig‘in qurboni bo‘ldim men, buloq,
Ey falak, iyd etmakim, g‘am qolmadi.
Shahrimizda qolmadi rasmi vafo,
Bunda odam, bunda olam qolmadi.
G‘amgusor mendan batar g‘amgin, nahot,
Bu jahonda shod-u xurram qolmadi.
Endi dastingda, Asir, sabr-u jahon,
Ketdi g‘am dastingdan ul ham qolmadi.*

Devondagi qolgan 219 ta g‘azali ham xuddi shunday zamon manzarasi, qalb qiyofasi haqqoniy chizilgan holda mukammal va ta’sirchan bitilgan.

Ruboiylari ham mazmundor, zavq-shavqqa tashna dil tuyg‘ulari-dan yaralgan. Visol qadri-yu, armonli diydor iztiroblari juda chiroyli ifodalangan:

*Uyqumda bo‘lib hamnafas, ul yorni suyibmen,
Ham har nafas ul yor ila asrorni tuyibmen,
Oh, shavqli yuzim yuziga qo‘ydim kuyibon voh –
Uyg‘ondim-u ko‘rdimki, yuzim erga qo‘yibmen!..*

Tabiatan haqgo‘y va mag‘rur shoir baribir o‘zidan o‘zi xijolat bo‘ladi oxir oqibat. Qasidalarida madhi avjdan ko‘nglida xiralik paydo bo‘ladi. Shoir xalqi uchun ko‘proq so‘z saralash, xalqi uchun qog‘oz qoralash zarurligini qalbdan his qiladi. Bu yonda kamsonli odamlar yaxshi yashasa-yu, bir yonda ko‘pchilik turmush og‘irchiliklaridan azob cheksa, nega u bunga befarq qarashi kerak. Insof-u diyonat odamlarni tark etgan joyda ko‘ngilni ranj qoplamay iloji yo‘q-ku. Shundan shoir bezovtalanadi. Qalbi qiynoq tuyadi, xalq dardiga malham izlab kuyadi. Nihoyat tazarruga yuzlanadi:

*Sen murid-u nafs senga peshvomi, ey ko‘rkam aql?
Chunki goh To‘g‘rul, gohi To‘g‘on qoshinda sen mudom,
Quv xayolingdan ta‘magirlik fe‘lini, Asir,
Ayla pok xulqingni madh aytmoq balosidan tamom,*

Qarang, yuksak unvonlar xushomadgo‘ylik qilishdan ham orlanyapti shoir. Shu bois Asiriddin Axxi g‘azal, ruboiy va masnaviylarni go‘zal Farg‘onaning, chunonchi, Axxikatning diltortar va maftunkor tabiat manzaralaridan ta’sirchanlik kasb etgan bo‘lsa, bora-bora xalq hayoti g‘am-u tashvishlarining haqqoniy ifodasidan boyigan.

Ulug‘ ijodkorning ustozlik martabasi ham boshqalarnikidan kam bo‘lmagan. Davlatshoh Samarqandiyning tazkirasida ham shu haqda ma’lumotlar bor. Unda

yozilishicha: Axsikatiy Javhariy singari ko'pgina shoirlarga ustozlik qilgan. Asli buxorolik bo'lgan bu yigitning katta talash sohibi ekanini o'z vaqtida payqab etgan Axsikatiy Isfaxonda uni uchratib, mehr qo'ygan edi. Javhariy malik ush-shuarodek ustozni ko'magida adabiyotning sehri olamiga butun umrini bag'ishladi. Tazkirachilar uni "she'riyatda benazir", "dostonchilikda nodir- u mohir" deya ta'riflashgan.

Shoirning yana bir shogirdi haqida Somibekning "Qomus ul-a'lom" nomli asarida quyidagilar bitilgan: "... Rukniddin Quboiy an-asl Movarounnahrda Qubo shahridan chiqib, Isfaxong'a sayohat etib, Badriddin Jojarmiy ilan mushoirada bo'lib, Asiriddinni shogirdidir... U o'z davrining mashhur shoirlaridan sanalgan. Uning suxaniga kelsak, u Badrning so'zlaridan afzalroqdir".^{396 6}

Xullas, Asiriddin Axsikatiy Haydar Xorazmiy, Atoiy, Lutfiy va Navoiylardan avval yashab ijod etgan "shoirlar shohi" maqomiga munosib- u musharraf ijodkor. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixida o'z o'rniga ega so'z san'atkori. Uning hayoti va ijodini, avvalo, iqtidorli o'quvchilarga namuna sifatida o'rgatish vaqti keldi. Biz hozirgi zamon talablariga ko'ra yosh avlodga Axsikent va Axsikatiy haqidagi qimmatli ma'lumotlarni berishimiz, shoirning she'rlarini tahlil va talqin qilishni o'rgatishimiz darkor. Noan'anaviy uslublardan foydalanamiz, ya'ni: VEN diagrammasi orqali Qo'qon adabiy muhitida yashab ijod etgan shoirlarni taqqoslab o'rganish ham maqsadga muvofiq, deb o'ylayman.

Yoki "Baliq skeleti", "O'yla, izla, top", "Bumerang" usullari orqali ham o'quvchilarni darslarga qiziqtirish mumkin.

Umuman olganda, iqtidorli o'quvchilarni o'z ustida ko'proq ishlashlariga ahamiyat qaratish lozim.

Adabiyotlar:

1. Sodiq Sayhun. Axsikent va Axsi. Toshkent: – "Navro'z". 2017.
2. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Ташкент: – "Юлдузча". 1989.
3. Ҳамиджон Ҳомидий. Кўҳна шарқ дарғалари. Тошкент: – "Шарқ". 2004.
4. Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони. Тошкент: – "Фан". 1981.
5. Алихон Халилбеков. Наманган адабий гулшани. Наманган: – "Наманган". 2007.
6. Мерос. Тошкент: – "Камалак". 1991.

³⁹⁶ Мерос. Тошкент: - "Камалак". 1991. 288- бет.

MAKTAB TA'LIMIDA LIRIK ASARLARNI O'RGATISHNING O'ZIGA XOSLIKLARI

ОСОБЕННОСТИ ИЗУЧЕНИЯ ЛИРИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ В ШКОЛЕ

Jamila DOSMATOVA

O'sh davlat universiteti industrial-pedagogika kolleji dotsenti

Aygul ABISHEVA

O'sh davlat universiteti industrial-pedagogika kolleji dotsenti

Аннотация. В данной статье предлагается один из вариантов изучения лирики в средних и старших классах русской школы, методы и приемы, этапы работы над лирическими произведениями в средней школе.

Ключевые слова: лирика, жанр, тема лирических произведений, рифма, ритм, стихосложение, структура урока.

Abstract. This article proposes one of the options for studying lyricism in middle and high school in Russian schools, methods and techniques, stages of work on lyrical works in high school.

Key words: lyrics, genre, theme of lyrical works, rhyme, rhythm, versification, lesson structure.

В основе изучения лирики как жанра художественной литературы лежат чтение лирического произведения (стихотворения) и его конкретный и всесторонний анализ. Однако эти две ступени в изучении лирического стихотворения значительно отличаются от соответствующих этапов изучения эпического произведения. Это различие проявляется в своеобразном использовании и сочетании методов и их разновидностей.

Из разновидностей чтения художественного текста при изучении лирики на первых порах целесообразно применять классное чтение. Только в дальнейшем следует рекомендовать домашнее чтение, причем текстуально изучаемые стихотворения по преимуществу читаются в классе. При изучении лирических произведений большое место занимают эмоциональное вступление к чтению текста, образцовый разбор текста стихотворения в целом, задания по активизации жизненного и эстетического опыта учащихся и т. д.

Жизненный и эстетический опыт школьников должен в какой-то мере соответствовать кругу чувств и мыслей изучаемого произведения. Естественно, речь идет не о полном их соответствии (литературное произведение непременно должно давать новые мысли и обогащать чувства — затем оно и изучается), а о той обязательной частице общего, которая

делает читателя и писателя «братьями по человечеству», по словам Белинского. Поэтому всегда надо учитывать читательские интересы и возможности школьников. Ряд произведений Маяковского находит непосредственный отклик в сердцах учащихся выпускных классов. Это такие стихи, как «Рассказ о Кузнецкстрое и людях Кузнецка», «Нашему юношеству», «Рассказ литейщика Ивана Козырева о вселении в новую квартиру» и др. При изучении произведений, по кругу идей, образов, настроений близких учащимся, учитель вправе непосредственно обратиться к чтению поэтического текста.

В лирике на первом плане – язык поэта. Скрытость выражения авторского бессознательного – одно из характерных свойств лирики; им значительной степени определяется тот интеллектуальный резонанс, который возникает в душе издателя при соприкосновении с поэзией. Душевные устремления и эмоциональные перепады человека передаются в лирике с определенной степенью размытости («лирической неустойчивостью»), которую удерживает в рамках доступности понимания для читателя присущий ей особый строй речи, а именно, стих. Важнейшей же особенностью стиха является ритм. Ритмичность, выразительность и многозначность слова в стихе, особая поэтическая интонация являются не просто элементами формы в лирике, но заменяют в ней содержание. Все они взаимодействуют, и нельзя вполне понять смысл стихотворения, не проникнув в его образную структуру. Содержательность формы, присущая любому роду литературы, единство переживания и речи особенно заметны и наглядны именно в лирике.

Важнейшая задача при изучении лирики – стремиться развить у школьников способность к сопереживанию. Если ученик привыкнет с доверием относиться к тем незнакомым душевным состояниям, которые открываются в лирических произведениях, то поэзия сначала расширит его эмоциональный личный опыт, а затем приобщит к миру высоких эстетических чувств. Все это будет способствовать выработке нравственных идеалов, развитию духовности. От учителя требуется терпение и душевный такт, чтобы сделать изучение лирики школьниками процессом деятельного, творческого, активного познания самой поэзии в жизни, отразившейся в ней.

Нередко восприятие поэзии подготавливается слушанием музыки (романсов, инструментальных произведений), создающей эмоциональный фон для текста или рассматриванием репродукций живописных произведений.

В статье предлагается из вариантов лекционного занятия студентов по специальности «Русский язык и литература в школе».

**Перспектив лекционнoгo зaнятия
пo мeтoдикe пpeпoдaвaния
литeрaтурнoгo чтeния в шкoлe**

Тeмa: Изучeниe лирики в шкoлe.

План лекции
Изучение лирики в школе составляет органическую часть воспитательного процесса.
Лирика – тот род литературы, который формирует душевный мир, тонко и глубоко влияя на человека.

В. П.Медведев

Продолжительность: 90 минут

Компетенции: ПК2, ПК6.

Цели \ функции: В течение лекции студенты смогут:

1. Познакомиться со спецификой лирики как литературного рода.
2. С задачами ее изучения в школе.
3. Основными этапами изучения лирических произведений в средних и старших классах школы.

РОТ: познакомятся со спецификой лирики как литературного рода, основными этапами изучения лирических произведений в средних и старших классах школы.

Ресурсы:

слайды по теме «Изучение лирики в школе», проектор, музыкальные произведения русских композиторов, выходная карточка, ватман, маркеры.

Процедура занятия:

1. Предварительная подготовка к восприятию темы.

Прием: Беседа.

Цель: повторить и выразительно прочесть любимые строчки лирических произведений русских поэтов.

Форма: лекция.

Время: 5 минут.

Организация: работа в группе.

– Преподаватель спрашивает студентов: «Кто сможет прочесть любые четыре строчки стихотворений русских или современных поэтов?».
(«Покопайтесь» в памяти).

– Студенты цитируют строчки любимых поэтов.

– Изучаются ли лирические произведения в школе? Назовите их.

– Студенты перечисляют знакомые стихотворения, изучаемые ими в школе.

2.Формирование новых знаний, умений, навыков..

Прием: аналитическая беседа.

Цель: познакомиться со спецификой лирики как литературного рода, жанрами и темами лирики.

Форма: лекция преподавателя.

Ресурсы: слайды на тему «Лирика»,

– Тема нашей лекции «Изучение лирики в школе».

– Обратите внимание на эпиграф лекции. Как вы понимаете высказывание известного методиста Вадима Петровича Медведева о лирике (в книге для учителей «Изучение лирики в школе):

«Изучение лирики в школе составляет органическую часть воспитательного процесса. Лирика – тот род литературы, который формирует душевный мир, тонко и глубоко влияя на человека».

– Например: лирика имеет огромное воспитательное значение, т.к. лирика – это школа чувств, которая раскрывает многообразие человеческих переживаний, душевных движений, воспитывает умение чувствовать и откликаться на чувства других, помогает понять себя и окружающий мир.

– Посмотрите на вопросы лекции. Прочитайте их.

– Запишите первый вопрос лекции: **специфика лирики как литературного рода.**

– **Лирика** – род литературы, отражающий жизнь при помощи изображения отдельных состояний, мыслей, чувств и переживаний человека.

Особенности лирики

1. В основе лирических произведений образ – переживание, чувства, раскрывающие духовный мир героя.

– Вспомним замечательные строчки Ф.И.Тютчева, посвящены они Амалии Лерхенфельд:

*Я встретил Вас – и все былое
В отжившем сердце ожило;
Я вспомнил время золотое –
И сердцу стало так тепло...*

Любовь для поэта – «блаженство», «и безнадежность», и напряженное чувство, несущее человеку страдание и счастье.

2. Характерной особенностью лирики является **лирический герой**, который зачастую выражает идеи автора, его эстетический идеал.

– Например, лирический герой поэзии А.С. Пушкина с его высоким и благородным строем чувств и мыслей является идеалом верности своим друзьям:

*Друзья мои, прекрасен наш союз!
Он, как душа, неразделим и вечен —
Неколебим, свободен и беспечен,
Срастался он под сенью дружных муз.
(“19 октября”, 1825 г.)*

3. Жанры лирики:

Слайд № 1.

Жанры лирики

Жанр – тип художественного произведения

Лирическое стихотворение

Произведение небольшое по объему, написанное стихами.

Универсальное обозначение жанра лирики.

Ода

Торжественное, патетическое, нравоучительское стихотворение.

В.В.Маяковский «Ода революции»:

Тебе,

освищенная,
осмеянная батареями,
тебе,
изъявленная злословием штыков,
восторженно возношу
над руганью реемой
оды торжественное
«О»!
О, звериная!
О, детская!
О, копеечная!
О, великая!

Послание

Стихотворное письмо. Обращение к конкретному адресату с просьбой, увещанием, мольбой, советом.

А.С. Пушкин «И. И. Пущину».

*Мой первый друг, мой друг бесценный!
И я судьбу благословил,
Когда мой двор уединенный,
Печальным снегом занесенный,
Твой колокольчик огласил.*

Элегия

Стихотворение, проникнутое светлой печалью, грустью, обращенное к глубоко личным темам, к раздумьям о любви, природе, философским проблемам.

Н.А. Некрасов «Элегия».

*... Я лиру посвятил народу своему.
Быть может, я умру неведомый ему,
Но я ему служил — и сердцем я спокоен...
Пушкой наносит вред врагу не каждый воин,
Но каждый в бой иди! А бой решит судьба...
Я видел красный день: в России нет раба!...*

– **Вспомним темы лирики**

Слайд №2

Тема лирического произведения	Краткая характеристика	Пример
Тема любви (любовная лирика)	Поэтические произведения о проблеме любви; о взаимоотношениях между мужчиной и женщиной, наличие образа лирической	А.С. Пушкин "Я помню чудное мгновенье..."

	героини.	
Тема природы (пейзажная лирика)	Поэтические произведения, описывающие картины природы, образы животных, чувства лирического героя, вызванные созерцанием природы	С. А. Есенин "Береза"
Тема назначения поэта и поэзии (гражданская лирика)	Лирические произведения, раскрывающие сущность поэтического творчества, роль поэзии, назначение поэта	М.Ю. Лермонтов "Смерть Поэта"
Тема поисков жизненного смысла (философская лирика)	Лирические произведения о смысле человеческого существования, о проблемах бытия, о жизни и смерти	Ф. И. Тютчев "Нам не дано предугадать..."
Тема свободы (вольнлюбивая лирика)	Поэтические произведения о воле, духовной свободе личности	А. Н. Радищев ода "Вольность"
Тема дружбы	Лирические произведения о дружбе, создание образа друга поэта; возможно прямое к нему обращение	А. С. Пушкин "К Чаадаеву"
Тема одиночества	Поэтические произведения об одиночестве лирического героя, разобщенности его с окружающим миром, непонимании другими людьми	М. Ю. Лермонтов "Парус"
Тема родины (патриотическая лирика)	Лирические произведения о Родине, ее судьбе, настоящем и прошлом, о защитниках отечества	А. А. Блок "Россия"

Слайд № 3

Характерной особенностью лирики являются изобразительно - выразительные средства языка.

- Назовите известные вам художественные тропы.
- Я прочитаю строчку, вы определите, какой вид тропа используется в ней?
- "Гонимы вешними лучами, с окрестных гор уже снега..."
(А. С. Пушкин) – метафора
- *Отговорила роща золотая берёзовым весёлым языком.* (С.А.Есенин)

Эпитет.

Название	Значение термина	Примеры
Метафора	Скрытое сравнение, в котором слово употреблено в переносном значении на основе сходства в каком-либо отношении двух предметов или явлений.	"Гонимы вешними лучами, с окрестных гор уже снега..." (А.С. Пушкин).
Эпитет	Образное, необычное определение, его смысл требует пояснения.	<i>Ночевала тучка золотая...</i> М.Ю.Лермонтов
Сравнение, сравнительный оборот	Оригинальное, необычное сопоставление двух предметов или явлений.	<i>Лёд неокрепший на речке студёной словно <u>как тающий сахар</u> лежит.</i> (Н.А. Некрасов).
Олицетворение	Изображение неодушевлённых предметов, наделяющихся свойствами живых существ .	<i>О чём ты воешь, ветер ночной, о чём так сетуешь безумно?</i> (Тютчев) <i>Здесь даже камни плачут. Цветы мне говорят: «Прощай!»</i> (Есенин) <i>Уж небо осенью дышало.</i> (Пушкин)

Вывод: По первому вопросу лекции мы узнали, что лирика – это субъективный род литературы, отражающая жизнь через чувства, переживания лирического героя. Характерными особенностями лирики являются: образ – переживание, лирический герой, зачастую сам автор, жанровое и тематическое своеобразие лирики, особая эмоционально-образная поэтическая речь, изобразитель-выразительные средства.

2.

Цель: Задачи изучения лирики в школе.

Навык: работа в группе, составление списка идей, чтение стихов.

Ресурсы: слайды на тему «Задачи изучения лирики в школе»,

Инструкции:

– Мы сейчас с вами вспомнили особенности лирики как рода литературы.

Шаг 1: Постановка проблемного вопроса: Зачем нам нужно изучать лирику в школе?

Шаг 2: Составьте список идей. Запишите в тетради (2-3 идеи).

Шаг 3: Обменяйтесь, поработайте в паре.

Шаг 4: Коллективная запись идей.

Выражения классного обихода:

– А теперь давайте посмотрим, как в методике определены задачи изучения лирики в школе.

– Запишите второй вопрос лекции: **Изучение лирики в школе.**

Слайд № 4.

Задачи изучения лирики в школе.

1. Например: послушайте стихотворение Константина Михайловича Симонова и скажите:

«О чем оно?»

*Жди меня, и я вернусь,
Всем смертям назло,
Кто не ждал меня, тот пусть
Скажет: - Повезло.
Не понять, не ждавшим им,
Как среди огня
Ожиданием своим,
Ты спасла меня.*

– Главная мысль стихотворения обозначена уже в первой строчке. «Жди меня» Симонова затрагивает самые нежные струны человеческой души. Это произведение о любви, верности. Хотя это слово ни разу там не упоминается, но каждый это понимает. И, как всякое прекрасное чувство оно делает человека лучше, чище и нравственно богаче. Учеников это произведение не оставляет равнодушными.

1. Раскрыть образ лирического героя, для того, чтобы понять особенности творчества каждого изучаемого поэта с нравственно эмоциональных позиций.

2. Знание жанра, тем лирики дает глубокое понимание о жанре изучаемого лирического текста, обогащает школьников жанровыми понятиями. Дает представление о темах лирического произведения.

3. Обогащает речь учащихся лучшими образцами русской классики

4. Умение анализировать поэтический текст.

5. Обогащает нравственный мир школьников, приобщить их к думам и чувствам поэта, миру высоких эстетических чувств.

Вывод:

Цель: Основные этапы изучения лирических произведений.

Время: 20 минут

Навык: чтение стихов,

Ресурсы: слайды на тему « »,

Инструкции:

Каждый творчески работающий учитель в зависимости от целей и задач урока сам готовит этапы работы по изучаемым лирическим произведением. Но в методике преподавания литературы существуют традиционные этапы работы, в частности в сборнике татей под редакцией Н.И. Кудряшева «Вопросы методики преподавания литературы в школе» предлагаются следующие этапы работы над лирическим текстом:

I. Предварительная подготовка к восприятию текста.

Цель: подготовить учеников к восприятию содержания текста,
Создать эмоциональный настрой, мотивацию у учащихся,
подготовить лексическую базу у школьников.

Слайд № 5.

Приемы работы:

1. История создания произведения.

Например, в послании «И.И. Пущину» ...

2. Определение жанра стихотворения.

Например: «И.И. Пущину» – это послание, т.к.

3. Основные темы творчества изучаемого поэта.

Например:

4. Основные темы в творчестве поэта (перечисляю).

5. Особенности раскрытия темы в творчестве поэта.

6. Лирическая минутка

7. Экскурс в биографию писателя.

8. Написание эссе на определенную тему.

Например: написать эссе о весне.

9. Экскурсия на природу (наблюдение за природой).

10. Работу по изомонтажу (когда целесообразно использовать этот прием).

11. Прослушивание музыкальных произведений перед изучением стихотворения «Весенние воды», которая создает эмоциональный фон. Пояснение ключевых слов.

II. Выразительное чтение наизусть.

На этом этапе можно использовать разные виды чтения: чтение в грамзаписи, чтение, подготовленным учеником, чтение учителем.

М. А. Рыбникова писала в: «Если учитель умеет читать, то он возьмет в плен душу ученика».

А. Перед чтением постановка задач для учащихся: 1) какие картины описываются в стихотворении?

2) Какие чувства он передал?

Б. Чтение текста.

Чтение может сопровождаться музыкальным произведением (мелодекламация).

В. Первичное восприятие текста (не требуя глубоких ответов).

III. Комментированное чтение текста.

– Комментированное чтение используется в том случае, если текст сложен по содержанию.

Например: стихотворение М.Ю. Лермонтова «Смерть поэта».

Можно провести словарную работу: кто такой «невольник чести»,

– Типы комментариев: Есенин, Некрасов, Ахматова.

У. Заключительный этап.

Подведение итогов:

1. Обобщающая беседа.

2. Целостный анализ стихотворения.

3. Конкурс чтецов. Цель: раскрыть понимание, собственная трактовка стихотворения.

4. Прослушивание грамзаписей текста в исполнении двух мастеров слова (мастера художественного слова и самого автора) – увидеть их различие.

5. Сочинений стихотворений.

6. Литературно-музыкальная композиция, как форма отчета о произведении.

7. Дискуссия с опорой на содержание стихотворения.

Например: Бывает ли любовь с первого взгляда?

Заключительная часть

Время: 2-4 минут.

Цель: сделать вывод всего занятия, опросив (раздав выходные карточки с вопросами), что полезного и ценного узнали на уроке, появились ли у них вопросы?

Ресурсы: Выходная карточка.

Обобщение по лекции:

– Давайте сделаем вывод.

– Лирика – это особый род литературы, самый трудный, но самый интересный... В конце лекции мне хочется сказать словами известного русского поэта А.Блока: «Я вас призываю к потрясению, к прозрению, к удивлению, с которого начинается поэзия.

Обратная связь со студентами.

– В начале лекции я каждому раздала выходную карточку, ответьте на два вопроса:

1. Что для вас было полезным и ценным сегодня?
2. Какие вопросы у вас появились?

Студентам и коллегам дается выходная карточка за оценивание лекции. Всего: 90 минут.

Литература

1. Лотман Ю.М. Анализ поэтического текста –Л.: Просвещение, 1972.– 187 с.
2. Медведев В. П. Изучение лирики в школе. –М.: Просвещение, 1985.– 208 с.
- 3.Методика преподавания литературы/ Под ред. З.Я. Рез. – М.: Просвещение, 1990. – С.190-230.
4. Приходько В.П. Постижение лирики. – М.: Детская литература, 1988. – 236с.
5. Зуев Н. Н. Уроки на трудную тему. Лирика в средних классах //Литература в школе, 1998, №5. – С.116.
6. Поэтика художественного текста на уроках литературы: Сб. статей/Отв. редактор О. Ю. Богданова. – М., 2001.
7. Ешенова Н.А. «И душа с душою говорит...». - РЯЛШК, 2007, №3, с. 71-75.
8. Илеева Л.Ф. Материалы к изучению в школе стихотворения М. Ю. Лермонтова «Парус». РЯЛШК, 2008, №1, с. 34-39.

O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTINI O‘QITISHDA JADIDLAR TAJRIBASIDAN FOYDALANISH

Mohigul HOSHIMOVA

SamDU tayanch doktoranti

Anotatsiya. Inson qalbiga ezgulikni jo aylash, oqil va fozil kishilarni tarbiyalash deyarli barcha jamiyatlar uchun dolzarb masala bo‘lib kelgan. Bu kabi qarashlarning asl manbai sharqona qadriyatlar, ajdodlar an‘analari va tajribalari, diniy-axloqiy mezonlar bo‘lib, ma‘rifatparlar o‘z ijodiy faoliyatida bu sarchashmalardan ilhom olgan, undan bor iste‘dodini ishga solib foydalangan. Ushbu maqolada bugungi kun yoshlariga mumtoz

adabiyotning jilvalarini ko'rsatishda lar tajribasidan unumli foydalanish mumkinligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: badiiy izdoshlik, mumtoz manbalar, ma'rifatparlik, sharqona an'analar, ijodiy novatorlik, ijtimoiy tarbiya.

Abstract. Cultivating goodness in the human heart, educating intelligent and virtuous people has been an urgent issue for almost all societies. The original source of such views are oriental values, traditions and experiences of ancestors, religious and moral criteria, and intellectuals took inspiration from these sources in their creative work and used them with all their talents. In this article, it is revealed that it is possible to effectively use the experience of lars in showing the nuances of classic literature to today's youth.

Key words: artistic followership, classical sources, enlightenment, eastern traditions, creative innovation, social education.

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha 2017-2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasida "...ta'lim tizimini takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish"³⁹⁷ga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu qonunning ijrosi sifatida maktab va oliy ta'lim tizimida mumtoz asarlarning o'рни va ahamiyatini oshirish borasida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

Jamiyat vakillarining ma'fatparlik, mehnatsevarlik, insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda mumtoz adabiyotning o'рни beqiyos. Shu jihatdan mumtoz asarlarni o'qish va o'qitish barcha zamonlarning asosiy mezonini bo'lgan. Mumtoz mavzular hech bir zamonda eskirib qolmagan. Badiiy san'atda inson bilan bog'liq mavzu asosiy o'rinni egallaydi. Tabiatning eng murakkab va shu bilan bir qatorda eng go'zal mahsuli bo'lgan inson, ayniqsa, uning ijtimoiy-siyosiy hayoti portretini tasvirlash eng murakkab jarayon bo'lishiga qaramasdan qadimdan uning go'zalligini tasvirlashga harakat qilganlar. Bu go'zallikning yuqori cho'qqisi uning etuk aqli va zakovati hisoblanadi. Jadidlar Mumtoz adabiyotning mana shunday oliy maqsadi inson idealini yuksaklikka ko'tarish maqsadida bir qancha sa'y-harakatlar qilganlarki, bu urinishlari bejizga ketmagan. XIX-XX asrlarda jamiyat hayotidagi o'zgarishlar, rivoj topgan davlatarga uyushtirilgan safarlar, ilm-fanni yuksaltirishga qaratilgan urinishlar o'z mevasini bermasdan qolmadi. Natijada, jamiyatda yuz berayotgan norasoliklarga tanqid ko'zi bilan qaraldi, ma'rifiy va xalq hayotiga ko'zgu tutadigan asarlar yaratila boshlandi. Bunday yangilanish tamoyillari, ayniqsa, Miriy, Furqat, Uvaysiy, Tabibiy, Xiromiyalar ijodida etakchilik qildi. Ular o'z dostonlari bilan dostonnavislik an'anasini davom ettirib qolmay, shu davrdagi echimini kutayotgan muammolarni ochib berdilar. Ular dostonlarida salaflari yaratgan dostonlarning ishq qamrovi kengaydi. Navoiy tili

³⁹⁷ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони

bilan aytganda: “Avom ishq”³⁹⁸ ma’rifat ishq bilan sug’orildi. Ishqiy-ta’limiy, ijtimoiy-siyosiy mavzudagi asarlar salmog’i oshdi. Mazkur dostonnavislar so’z xazinasining gavharlarini yangi shaklda, murakkab badiiy sahnalarda ishlata bilgan shoir Fuzuliy she’riyatda o’ziga xos maktab yaratdi.

Jadidlar ijodiy uslubining yana bir xususiyati ularning sharq shoirlari adabiy merosiga an’analariga bo’lgan munosabatida ko’rinadi. Bu ham bevosita ular ijodining g’oyaviy-badiiy qiyofasi, uslubini namoyon etadi. Adabiyotshunos olim A.Xayitmetov ta’kidlaganidek, Sharq klassiklari ijodida an’anaviy tasvir va talqinlar qancha ko’p bo’lmasin, ularning har biri o’z badiiy uslubi estetik pozitsiyalariga ega bo’lishgan. ”Chunki ijodiy ish hamma vaqt, hamma erda individual xarakterga ega bo’lib kelgan va bundan keyin ham doim shunday bo’lib qoladi. Haqiqiy san’atkor o’z ona tilidagi adabiyotni, jahon adabiyotini ma’lum bir tarixiy davrdagi ijtimoiy voqea va hodisalarga, ilg’or g’oya va intilishlariga, shu davr kishilarining his-tuyg’u va qarashlariga individual munosabatda bo’lib, uni o’z qarashi, o’z hayotiy tajribasi, o’z ovozi, o’z xarakteri orqali badiiy aks ettirish tufayligina boyitishi, uning taraqqiyotiga ulushini qo’shish mumkin. Shu jihatdan o’zbek adabiyoti tarixida Lutfiy, Sakkokiy, Atoiy, Navoiy, Bobur, Turdi, Mashrab, Ogahiy, Munis, Muqimiy qanday xususiyatlarga ega bo’lmasin, ularning har biri boshqasidan yaqqol ajralib turadi. Ularning ijodidagi bu farq esa, avvalo, ularning badiiy uslubida, so’z ishlatish san’atida ko’zga tashlanadi³⁹⁹.

Bugungi kunda yoshlarimiz orasida mumtoz adabiyoti namunalarini tushunishi, ularda aks etgan mazmun- mohiyatini ochishdagi qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu esa ularni mumtoz asarlardan zerikishga, chetlashishga olib kelmoqda. Barchamizga ma’lumki, jadid namoyondalari ko’z bilan ko’rib tushunish usulidan keng foydalanishgan, teatrlarda xalqning ongini oshirish maqsadida turli sahna asarlari namoyish etishgan. Bugunda ham biz mumtoz asarlarni oddiy o’qibgina qolmasdan, turli ko’rgazmali chiqishlar bilan yoshlarga ko’rsatib bersak, mumtoz asarlarga qiziqish tobora ortib boradi. Adabiyotshunos olim A. Jalolovning ma’lumot berishicha: “Peterburgda birinchi marta bo’lgan Komil Xorazmiy ham markazdagi madaniy yangiliklarni ko’rib zavqlanadimusiqachilarning qog’ozga, ya’ni notaga qarab kuylarni ijro etishlari hayratga solidi”⁴⁰⁰. Shu munosabat bilan Shoir Xorazmga qaytgandan so’ng “Xorazm notasi”ni ixtiro etadi. Furqat va boshqa ko’plab ma’rifatparlar o’zlarining musiqachilikdagi salohiyatlari asosida bir qancha nodir asarlar yaratildi. Mumtoz adabiyotning yuqori o’rinlarni egallovchi g’azal janri namunalarini bugungi kun yoshlarining aksariyati tahlil qila olmaydi, ulardagi mavzu va g’oyani ajrata bilishmayotganligi bugungi adabiyot oldida turgan achinarli muammolardan biri bo’lib qolmoqda. Ushbu masalaning mazmun-mohiyatidan kelib chiqib uning echimi sifatida mumtoz lirika asarlarni notaga solib ijro etishni ko’rsatishimiz

³⁹⁸ A. Navoiy “Mahbub ul-qulub” -Toshkent:2018

³⁹⁹ Xayitmetov A. Шарқ адабиётининг иждодий методи тарихидан. – Т.: Фан, 1970. - Б. 11

⁴⁰⁰ А.Жалолов. XIX аср охири XX аср бошларидаги Ўзбек адабиёти.-Тошкент: Фан, 1991.-Б151

mumkin. Bilamizki, musiqa har qanday insonning ingiga va qalbiga tez kirib boruvchi manbalardan biri sanaladi. Ana shu qudratli kuchni mumtoz asarlar bilan hamohanglikda mujassam ettirsa mumtoz asarlarning asl g'oyasi ochib beriladi. XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida Qo'qon, Xiva Buxoro adabiy muhiti vakillari ijodida mumtoz adabiyotda uchraydigan bir qancha unsurlarni o'z ijod namunalariga singdirgan, so'z san'atini puxta egallash maktablari shakllangan edi.

Iste'dodli klassik adabiyot namunalarini ijodkorlari bilan birgalikda portretlarini yaratish tanlovlarini keng miqyosida o'tkazish ham mumtoz o'zbek mumtoz asarlarini o'qish va o'qitishda yaxshi natijalarni beradi. Chunki, bunda kitobxon mumtoz adabiyot siymolarining hayotini chuqur o'rganibgina qolmasdan, ularning shoh san'at asarlarini to'liq xirgoyi qilib chiqishadi. Musiqa va adabiyot birlashsa katta kuchga aylanishini bilgan jadidlar ma'rifatparvarlik g'oyalarini o'z asarlariga singdirgan va buni amaliyotda ko'rsatib bergan, Jamiyat hayotida yuz berayotgan qoloqliklarni musiqa jo aylashgan.

XV asr adabiy muhitida muammo san'atiga qiziqish yuksak darajada bo'lgan bo'lsa, XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib muvashshah bitish an'anasi kuchaygan.

“Lirikada muvashshah janri o'zbek adabiyotida, ayniqsa, XIX asrning ikkinchi yarmida ko'p avj olib ketib, adabiyot ahli o'rtasida keng rasm bo'lib qolgan edi. Hatto shu darajadagi, shoirlik va nazmchilik hunari muvashshahchilik mahorati bilan ham o'lchanadigan bo'lib qoldi”

Yaqin Sharq O'rta Osiyo xalqlari, shu jumladan o'zbek adabiyoti siymolari: G'oziy, Hoziq, Ogahiy, Komil, Nodira, Furqat, Xiromiy, Miriy, Muqimiy va boshqa shoirlar Fuzuliy ijodini mukammal o'rgandilar va unga muxammaslar bitdilar”.⁴⁰¹

XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida ijod etgan ma'rifatparvar shoir va ziyolilari bilan bu davrgacha bo'lgan vaqtda ijod etgan ma'rifatparvarlarning bir-birlariga bog'laydigan asosiy va mushtarak tomonlari bor edi. Ularning bunday jipslashuvi jaholat va qorong'ulik uyqusida yotgan xalqni ma'rifatga undashda, bilimsizlik, nodonlikni, zulmni qoralashda ko'rinadi. Muxtasar qilib aytganda, bugungi globallashuv zamonida o'zbek mumtoz adabiyotini keng targ'ib etishda Jadidlar tajribasi mumtoz asarlarni o'qish va o'qitishda namuna bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони.

⁴⁰¹ Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Тошкент: Шарқ, 1999. – 240 б.

2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва форовон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
3. Ғ.Каримов “Ўзбек адабиёти тарихи” -Тошкент: “Ўқитувчи”1987, 320 б
4. Э.Иброҳимова. Увайсий дostonлари ҳақида.” Ўзбек тили ва адабиёти “ журнали 1960, 6-сон, 38-44-бетлар.
5. Б.Валихўжайев. “Ўзбек эпик поэзияси тарихидан”, - Тошкент:”Фан”1974.170 бет.
5. Хиромий.Чор дарвеш.-Тошкент:1960.840-бет.
6. Абдуллаев В.Ўзбек адабиёти тарихи.2-китоб.-Тошкент: Ўқитувчи, 1980.
7. Э.Иброҳимова. Увайсий дostonлари ҳақида.” Ўзбек тили ва адабиёти “ журнали 1960, 6-сон, 38-44-бетлар.
8. Валихўжайев Б. XIX-XX асрнинг 2-ярмидаги ўзбек поемачилигида Алишер Навоийнинг традициялари. Адабиёт ва ҳаёт.-Самарқанд,1969.13-20-б.
9. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Тошкент: Шарқ, 1999. – 240 б.
10. А.Жалолов. XIX аср охири XX аср бошларидаги Ўзбек адабиёти.- Тошкент: Фан, 1991.151 б
11. А. Navoiy “Mahbub ul-qulub” -Toshkent:2018
12. Ҳайитметов А. Шарқ адабиётининг ижодий методи тарихидан. – Т.: Фан, 1970. - Б.

KLASSIK LIRIKA NAMUNALARINI MAKTAB O‘QUVCHILARIGA O‘RGATISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

(Boborahim Mashrabning “Bu tani xokini-yu ruhi ravonni na qilay?!” g‘azali misolida)

Gulxayo ABDUG‘OFFOROVA
Namangan davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. Maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 11-sinfida Boborahim Mashrabning g‘azallarini o‘rgatish jarayonida interfaol metodlar va fanlararo integratsiyadan foydalanishning o‘rni va samarali usullari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Boborahim Mashrab, g‘azal, interfaol metod, fanlararo integratsiya, badiiy san’atlar.

Annotation. The article describes the role and effective methods of using interactive methods and interdisciplinary integration in the process of teaching Boborahim Mashrab's ghazals in the 11th grade of general secondary schools.

Key words: Boborahim Mashrab, ghazal, interactive method, interdisciplinary integration, artistic arts.

Boborahim Mulla Vali o'g'li Mashrab Namanganda bo'zchi kosib oilasida dunyoga kelgan. U "otashnafas shoir" sifatida shuhrat qozongan. Shoirning nomi xalq orasida juda keng tarqalgan va mashhur bo'lgan. Mashrab she'riyatning mulamma, mustazod, muxammas, musaddas, musabba' singari janrlarida ijod qilgan. Ammo uning shuhratini, ayniqsa, g'azal va murabba'lari oshirgan. Ular ning asosiy yo'nalishi ishq-muhabbat bo'lishiga qaramasdan, ijtimoiy ohanglar ham katta mavqe tutgan. Mashrab o'zbek tasavvuf adabiyotini yangi bosqichga olib chiqqan. Uning asarlari tilining sodda va jonliligi, o'zbekona so'zlarning tabiiy va samimiy jarangi, xalqona ifodalarga, ayniqsa, maqol va iboralarga boyligi bilan ajralib turadi. Ularning katta qismi sahli mumtane san'atining yorqin namunalari. Ularda tasavvufning eng qiyin va mushkul muammolari ham nisbatan oson va qulay shakllarda tasvirlab berilgan. Ayni mana shu xislatlar uning she'rlari xalq orasida ommalashib tez yodlanishi va hofizlar tomonidan kuyga solinib ijro etilishida bosh omil bo'lgan. Mashrab she'rlarining ijtimoiy-badiiy ahamiyati juda katta. Ular bugun ham bizning zamondoshlarimizni, ayniqsa, yosh avlodni yuksak insonparvarlik ruhida tarbiyalashda, ularning yuksak axloq egalari bo'lib kamol topishlarida, she'riyatning go'zal namunalari asosida shakllanadigan badiiy-estetik didlarining takomilida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Quyida Mashrabning "bu tani xokini-yu ruhi ravonni na qilay?!" g'azalini o'rganishda interfaol metodlardan foydalanish haqidagi fikrlarimizni bayon etmoqchimiz.

Barchamizga ma'lumki ushbu g'azal 11-sinf adabiyot darsligida berilgan va o'rganib tahlil qilish uchun bir soat ajratilgan. Mening fikrimcha g'azalni tushuntirib ,tahlil qilish va boshqa fanlarga bog'lash, g'azaldagi badiiy san'atlarni va badiiyligini o'qituvchi tomonidan ochib berish uchun bir soat kifoya qiladi. Ammo bu bir soat dars mobaynida faqat o'qituvchi tomonidan fikr beriladi ,o'quvchilar faqat tinglab tushunib o'tirishadi. Shu sababdan bu g'azalni o'rganish uchun ikki soat ajratilsa maqsadga movofiq bo'lar edi va bu ikki soatni quyidagicha taqsimlar edik.

1-soat

1. *O'qituvchi tomonidan g'azal qoidalarga mos ravishda ifodali qilib o'qiladi.*

2. *g'azal matni ustida ishlanadi va tahlil qilinadi*

3. *tushunilishi qiyin bo'lgan so'z va iboralar sharhlanadi.*

4. *o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga g'azalni yodlash va qaysi fanlar bilan aloqadorligi borligini aniqlash vazifa qilib beriladi.*

2-soat

1. *"Bu tani xokini-yu ruhi ravonni na qilay?!" g'azali o'quvchilar tomonidan yoddan aytib beriladi*

2. *o'quvchilar g'azalni qaysi fanlar bilan aloqadorligi borligini so'zlab berishadi.*

Bu ikki soatlik darsdan maqsadimiz shuki, darsda ham o'qituvchi ham o'quvchi o'z ustida ishlaydi va darsga tayyor bo'ladi. G'azal haqida barcha o'quvchilarda fikr paydo bo'ladi, mavzu narcha tomonidan o'zlashtiriladi. Xuddi universitet darslariga o'xshab. Birinchi soat o'qituvchi ma'ruza qilib beradi va keyingi soatda o'quvchilar o'z fikrlarini erkin bildirishadi.

Dars o'qituvchining g'azalning yaratilish tarixi haqidagi kirish so'z bilan boshlanadi. Tasavvufda tan va ruh muammosi ancha jiddiy ko'riladigan masala va muammolar sirasiga kiradi. Zero, tan insonga, ruh esa ilohiyotga daxldordir. Odatda, o'zini anglagan inson ruhida ilohiy sirlardan qisman xabardorlik mavjud bo'ladi. Jonon esa oshiq (solik) qalbida sodir bo'layotgan ilohiy ma'rifat darajasining ortib borishi bilan aloqador. Demak, bu baytda ilohiy ma'rifatga intilmasdan yashash umr mazmunini yo'qqa chiqaradi, degan haqiqat mujassamlashgan. Xuddi mana shu fikr keyingi baytda yana bir pog'ona balandroq pardalarda kuylanadi. Tasavvuf adabiyotida yor, jonon so'zlari ko'pincha ilohiy ma'rifatning oshiq qalbidagi jilolanishini anglatadi. Demak, Makka ziyoratiga borish uchun ham jiddiy tayyorgarlik talab etiladi. Bu talabning asosi ko'ngil pokizaligi, moddiy ehtiyoj va talablardan voz kecha olish, nafs qutqularidan forig' bo'lish, ko'ngil obodligi ustida qayg'urishdir. Bir qarashda jannat va do'zax tushunchalarini inkor etish dahriylik tushunchasi bilan bog'lanib ketganday bo'ladi. Aslida esa unday emas. Diqqat bilan qaralsa, Mashrab do'zax va jannatni boshimga uramanmi deganda yor vasli – ilohiy tajallini ko'rishni nazarda tutgan. Agar o'sha darajaga etmaydigan bo'lsa, yuqoridagi tushunchalarning ham mazmuni yo'qqa chiqadi. Ko'rinadiki, bu baytda ham yana ko'ngil ozodaligi nazarda tutilgan. Olamga boqqanda uning har bir bo'lagida, ya'ni insonni qurshab turgan moddiy jismlarning o'zida ham Yaratganning kuch va qudratini his etib turish kerak. Quyoshning paydoli uning zarralarida namoyon bo'ladi. Xuddi shunga o'xshab Yaratganning o'zi ham u yaratgan narsalar vositasida anglanadi. "nihon" insonga ma'rifiy bilimlar tufayli anglanishi mumkin bo'lgan haqiqatlardir. Mashrab bir solik (yo'lovchi) sifatida bu uzun yo'lning asosiy bosqichlarini bosib o'tgan solik tilidan aytmoqdaki, "bodani ichgan solik Arsh kungarasining ustiga ham oyoq qo'ya oladi". Mayning ilohiy ishq yoki ilohiy ishq mujassamlashgan ko'ngil ramzi ekanini yodda tutsak, qo'yilgan qadamning ham, lomakondan xabar olishning ham ma'nosi bir qadar oydinlashadi. Ya'ni ilohiy ma'rifat egasigina emas, lomakon – makonning yo'qligi, yo'qlik olamidan ham xabardor bo'ladi. U olam ilohiy olam, ilohiyot olamidir. Ana shundan keyin oliy haqiqatga etish mumkin bo'ladi. Buning uchun Yaratganning o'zidan boshqa hamma narsaning xato – g'alat ekanini anglab etish kerak. Boshqa narsalarga mahliyo bo'lib asl haqiqatdan chalg'imaslik kerakligi baytning asosiy mazmun va mantig'ini tashkil etadi. Bu murakkab umumlashmani anglatish uchun esa oddiy va sodda ikkita obraz qo'l keladi:

Bir Xudodin o'zgasi barcha g'alatdur, Mashrabo,

Gul agar bo'lsa qo'lumda, ul tikanni na qilay?!

O'z-o'zidan gul asosiy maqsad va mohiyatni, tikan esa ikkinchi darajali narsalarni anglatayotgani ma'lum bo'ladi. Ammo esdan chiqarmaslik lozimki,


ikkinchi darajali narsalardan ehtiyot qilinmasa, kishiga jarohat etishi, uning izzatlarini ortishi mumkin. Mashrab she'riy unsurlarni tanlayotganida ularning mazmun uchun qanday xizmat qilishi mumkinligini ham e'tiborga olgan. Butun she'r davomida so'roq ohangining saqlanishi undagi ma'no qatlamiga bo'lgan e'tiborni har doim tarang holda tutib turish imkonini beradi.

So'ngra o'qituvchi bu g'azal6 baytdan iborat ekanligini aytib ,uni ifodali o'qib beradi.

Bu ta-ni xo-/ki-ni-yu ru-hi/ra-von-ni-na/qi-lay/

Bo 'l-ma-sa qo-/shim-da-jo-non/bu ja-hon-ni-na qi-lay

G'azaldagi badiiy san'atlarni topishda va mohiyatini ochishda "KLASSTER USULI" va "XOTIRA MASHQI" metodidan foydalaniladi.



Barcha o'quvchilar yozib bo'lishgandan so'ng o'qituvchi fikrlarni to'ldirib, jamlaydi. Birinchi baytda bir uyada birlashadigan so'zlar miqdorining ko'pligi – tanosub she'riy san'ati bayt mazmunini to'la va yaxlit holda idrok qilishga ko'maklashadi. Tan va ruh esa mantiqiy tazodni yuzaga keltirgan:

Bu tani xokini-yu ruhi ravonni na qilay?!

Bo 'lmasa qoshimda jonon, bu jahonni na qilay?!

Keyingi baytda tashbih, istiora, ramz singari tasvir vositalaridan foydalanilgan. Bular she'rning ta'sirchanligini yanada kuchaytirgan. Bularning barchasi mazmuniga quvvat, shakliga chiroy ato etgan. Ular birlashib, kitobxon qalbida go'zal va yoqimli ta'sirni hosil qiladi.

O'quvchilar bilan birgalikda ushbu san'at turlari topilgach, "XOTIRA MASHQI" metodidan foydalaniladi. Ushbu metodda bir ustunga san'atlar nomi va ikkinchi ustunga ularga berilgan ta'rif yoziladi, o'quvchilar ularning orasidan to'grisini topishlari kerak bo'ladi.

1. Tanosub	a) baytda tarixiy nomlar, ismlar, joylar nomi tilga olinishi
2. Tashbeh	b) (Arabcha) bilib turib bilmaslikka olish
3. Istiora	d) (Arab. — ishora qilmoq) (badiiy adabiyotda) — Voqelikni badiiy aks ettirishning shartli usuli; badiiy shartlilik shakllaridan
4. Ramz	e) (Arab.) — qarzga olish
5. Talmeh	f) (Arabcha) – ishora qilish, biror narsa tomonga engil nazar tashlash
6. Tajohil-ul orif	g) (Arab). — o‘xshatish — she’riy san’atning biri

O‘quvchilar ushbu metod orqali badiiy san’atlar mavzusini qaytadan takrorlab olishadi .O‘quvchilar tomonidan g‘azal ifodali o‘qiladi.

Ushbu g‘azalni fanlararo integratsiya bilan ham bog‘lasa bo‘ladi. Buning uchun “AQL CHARXLASH” metodidan foydalaniladi. Bu metodda o‘qituvchi tomonidan barcha o‘quvchilar uchun o‘rtaga munozarali savol tashlanadi. O‘qituvchi o‘quvchilarga: “Bu g‘azalimizni qaysi fanlar bilan bog‘lasak bo‘ladi?,- degan savolni beradi , o‘ylash uchun bir daqiqa kifoya. O‘quvchilardan birin-ketin javoblar tinglanadi va so‘nggida o‘qituvchi umumlashtiradi.

Mashrabning “Bu tani xokini-yu ruhi ravonni na qilay?!” g‘azalini geografiya(g‘azalda joy nomlari keltirilishi:Yorsiz ham bodasiz MAKKAGA bormoq na kerak?!.)va musiqa(g‘azal kuyga solib aytilishi, bilamizki, Mashrabning ko‘plab g‘azallari san’atkorlar tomonidan kuylangan)fanlariga aloqador hisoblanadi.

Darsning yakunlovchi qismida g‘azalni yod olish va qiziqqan o‘quvchilarga uni kuy bilan ijro etishni mashq qilish uyga vazifa qilib topshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, darslarni turli xil interfaol metodlar va fanlararo integratsiya bilan bog‘lab o‘tilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi,metodlarsiz mavzuni tushunmagan o‘quvchilar ham turli xil o‘yinlar orqali mavzuni o‘zlashtirishadi. Bu innterfaol metodlar samaradorlikni oshirish uchun va mavzuni o‘quvchilarga oson usulda tushuntirish uchun xizmat qiladi desak yanglishmagan bo‘lamiz.

Adabiyotlar:

1. Abdullaev K.A. “Alisher Navoiy g‘azallarini o‘rgatishda musiqadan foydalanish” ilmiy maqola, 2024.

2. Б.Тўхлиев [ва бошқ.], Адабиёт [Матн]: дарслик-мажмуа (11-синф) / - Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2018.

3. Тўлабоев Қ. Китоб - маънавий бойликлар дурдонаси. - Т.: “Наврўз”, 2018.

5. Бобораҳим Машраб. Кимё. / Нашрга тайёрловчи Ҳожи Исматуллох

QARDOSH XALQLAR ADABIYOTINI O‘QITISH TAMOYILLARI

Go‘zal SEYILXONOVA

*Nizomiy nomidagi TDPU magistratura bo‘limi Qozoq tili va adabiyoti
ixtisosligi magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallif turkiy xalqlar adabiyotini o‘qitishning asosiy tamoyillarini ko‘rib chiqqan.

Kalit so‘zlar: adabiy-estetik, adabiy tahlil, qardosh xalqlar adabiyoti, metodik tizim.

Аннотация. В этой статье автор рассматривал основные принципы преподавания литературы тюркских народов.

Ключевые слова: литературно-эстетический, литературный анализ, литература братских народов, методическая система.

Abstract. In this article, the author refers the main principles of teaching the literature of Turkic nations.

Key words: literary-aesthetic, literary analysis, the literature of relative nations, methodological system.

Ta’lim o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq va turkman tillarida olib boriladigan o‘rta maktablarda qardosh xalqlar adabiyotini yuksak badiiy namunalari misolida o‘quvchilarni adabiy-estetik va baynalminal ruhda tarbiyalash adabiyot o‘qituvchisining bosh vazifasi hisoblanadi.

Milliy maktablarda qardosh xalqlar adabiyotini o‘qitish va o‘rganishning o‘ziga xos aloxida metodik tizimini yaratish taqozo etiladi.

Adabiyot o‘qitish buyicha turli tildagi qo‘llanmalar, tadqiqotlar mavjud bo‘lsa da, qardosh xalqlar adabiyotini o‘qitishning ilmiy asoslari yoritilgan ilmiy ishlar etarli emas. Adabiyot darslarida o‘zga tildagi badiiy matnlarni o‘rganishga doir asosiy yo‘nalishlarning ikki konstruktiv tasnifi mavjud. Birinchisi, akad. V.V. Golubkov tomonidan ishlanib, unda adabiy o‘qitishning quyidagicha uch asosiy yo‘nalishi ko‘rsatiladi: 1) ta’lim-tarbiyaviy; 2) badiiy-estetik; 3) mantiqiy-uslubiy.

Tasnifning boshqa sxemasini A.N.Vasileva rus badiiy matnini xorijiy auditoriyada o‘rganishning turli konstruksiyalariga nisbatan taklif qilgan. Muallif til o‘rgatish jarayonida badiiy asarga munosabatning quyidagicha to‘rt asosiy tipini farklaydi: 1) amaliy-nutkiy (yoki lisoniy), asl estetik yondashuvdan holi munosabat 2) ekstralingvistik – asl estetik yondashuvdan holi munosabat; 3) ekstralingvistik va shu doirada estetik (“adabiyotshunoslik”) munosabat; 4) lingvo-estetik – stilistik munosabat.

Bu tasnif qiziqarli va ko‘p jihatdan istiqbolli ko‘rinadi. Darhaqiqat, badiiy matnlarni o‘rganish maqsadi ularni o‘rganishning yo‘nalishini ko‘p jihatidan belgilab beradi. Biroq metodik tizim maqsadlar va ularni amalga oshirish vositalarining ma’lum birligini anglatadi. Ko‘rinadiki, A.N.Vasileva tasnifida,

masalan, badiiy matn ustida ishlashning tarbiyaviy jihati aks etmagan. Adabiyot o'qituvchisi o'zga millat adabiyot namunalarini faqat tarjimada o'qib o'rganish bilan cheklanmasdan, asliyatda o'qishga qiziqish uyg'otishni o'zining muhim vazifalaridan deb bilmog'i lozim. O'quvchilar uchun yangi adabiyotni asliyatda o'qish imkoni ikkinchi tilni o'zlashtirishda alohida jozibador va birinchi darajali ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega. Badiiy matnlarning o'quv tarjimasi mavjud professional tarjima bilan qiyoslanishi, korreksiyanishi qardosh xalqlar adabiyotini o'qitishda o'quvchilar faolligini oshirishi kerak. Badiiy matn ustidagi ishlarining muhim bosqichi – asliyat tilida yod olishdan boshlanadi. Uning natijasi bayon va insholar yozdirish bilan yakunlanadi.

V.G.Belinskiy o'zining ilmiy faoliyati davomida boshqa tildagi adabiyotni o'qib o'zlashtirishda adabiy-estetik va tarbiyaviy yondashuv asoslarini yaratdi. Unin konsepsiyasiga ko'ra, yangi adabiyotga oshno bo'lish matndagi badiiy g'oyalar bilan tanishtirib, ta'lim oluvchi o'quvchilar shaxsini shakllantirishga ko'maklashadi.

So'ngi yillarda adabiyot o'qitish metodikasi bo'yicha yaratilgan qator tadqiqotlarda ham aynan shu masalaga jiddiy e'tibor berilganini ko'rish mumkin.

M.Mirqosimovning "O'quvchilarning adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish" (2007), S. Matjonning "Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar" (1997), B. To'xlievning "Adabiyotni o'qitish metodikasi" (2007) nomli asarlari shular jumlasidandir. Ularda adabiy ta'lim jarayonida tuziladigan savollar qayta hikoyalash, personajlar xatti-harakatini baholash, hodisalarning o'zaro aloqadorligini tushuntirish bilan bog'liq masalalar diqqat markazida tutiladi. O'quvchilarni qardosh xalqlar adabiyoti namunalarini o'qishga ma'naviy-psixologik jihatidan tayorlashda badiiy matnning asosiy emotsional g'oyasi va asar mazmuni yuzasidan ishlangan rasm yoki rasmlar seriyasi, minatyuralar ham yaqindan yordam beradi. Shundagina o'zga tildagi asar ona tilidagi kitob kabi o'quvchinnig dunyoqarashini shakllantirishga ko'maklashadi, dunyo haqidagi tasavvurlarining yangi manbayi sifatida milliy ma'naviyatini boyitadi.

Har qanday fanni o'qitishda ta'lim maqsadini belgilash muxim o'rin tutadi. Qardosh xalqlar adabiyotini o'qitish maqsadlari haqidagi masala adabiyot o'qitish metodikastida eng mas'uliyatli va dolzarb masalalardan biridir.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida qardosh xalqlar adabiyotini o'qitish maqsadlarini belgilashda uning mazmuni va shakllari ham inobatga olinadi. Bizni qiziqtirgan kursning maqsadlari qardosh xalqlar adabiyoti vositasida o'quvchilarga baynalminal tarbiya berish, ularning o'zbekcha nutqini boyitish ekanligi o'z-o'zidan tushunarlidir.

O'tgan yillar mobaynida o'zga tildagi adabiyotni til tarkibida o'qitish masalasi ham kun tartibiga qo'yilgan edi. Ammo uning o'ziga xosligiga ko'pchilik tomonidan e'tibor qilinmayotir.

Ma'lumki, maqsadlar ko'lamiga ko'ra turlicha bo'ladi. Insonlar faoliyatida maqsadlar ierarxiyasi kabi ularning kelishuvi ham (yaqin va uzoq, istiqbolli va shu kabilar) turlicha bo'ladi hamda ular 1) realligi, ilmiy asoslanganligi; 2) sub'ekt

ehtiyojlariga mosligi (sub'ekt shaxs, gurux, jamiyat bo'lishi mumkin); 3) ijtimoiy ahamiyatiga ko'ra baholanadi.

O'zbekiston maktablarida ta'lim maqsadi – barkamol, erkin fikrlaydigan, har tomonlama yetuk shaxsni tarbiyalash bo'lib, har bir mustaqil o'quv fani doirasida bu maqsad xususiy tartibdagi maqsadlarga transformatsiyalanadi.

Qardosh xalqlar adabiyotini o'qitishda kompleks maqsad mazmunida adabiyot vositasida barkamol shaxsni tarbiyalash bilan bog'liq badiiy-tarbiyaviy komponent yetakchi o'rin tutadi. Muammo yuzasidan olib borgan izlanishlar davomida chindan ham xususiy metodika doirasida turli darajadagi metodik tamoyillar bo'lishi mumkin degan xulosaga keldik. Bular:

- Umumiy didaktik tamoyillar;
- Metodik tamoyillar;

Ilmiy ta'lim – bilim berish va o'zlashtirish faoliyatini o'z ichiga qamrab oladi. Ta'lim predmeti sifatida adabiyotga nisbatan bu atama ancha transformatsiyalanishi lozim. Ba'zi bir ziyolilar, jumladan, rus yozuvchisi Yu.M. Nagibin “Asosiy g'alizlik – adabiyotni maktabda o'qitishadi. Ha, boshqa barcha fanlar kabi o'qitishadi. Adabiyotni esa o'qib bo'lmaydi, bu tamoman boshqacha fan “o'zlashtirish” va “o'rganish” terminlari adabiyotga mos kelmaydi”, deydi. Bu keskin fikrga to'liq qo'shilib bo'lmaydi. Zero, maktab adabiyot kursida o'rganmaslik mumkin bo'lmagan ob'ektlar bor, ularni o'zlashtirmasdan turib adabiyot darslarida badiiy matnlarni idrok etish, ularning ma'no xususiyatlarini anglash mumkin emas. Bular tarixiy, milliy-madaniy, umumestetik tushunchalarni farqlashga ko'maklashadigan, poetik mazmuni minimal darajada tahlil qilish ko'nikmalaridir.

Biroq Yu.Nagibin va uning maslakdoshlari yondashuvida ham jon bor. Badiiy matn ustida tahliliy ish davomida badiiy asar bilan bevosita muloqot sermahsul bo'ladi. Badiiy hodisa bilan hamdardlik va ham fikrlikka doir muloqot jarayonini (o'quvchilar faoliyatini), bu muloqotni tashkil etish jarayoni (o'qituvchi faoliyati)ni ham ta'lim (o'qitish) deb shartli atash mumkin.

Adabiyot darslarida lisoniy-obrazli ta'sir o'ziga xos xususiyatga ega. Uning o'ziga xosligi ta'lim-tarbiya bilan belgilanadi. Lisoniy-obrazli ta'sir nutqiy ta'sirning samarali va mukammal ko'rinishi deyish mumkin.

Qardosh xalqlar adabiyotini o'rganishda ikki tilli kompleks lisoniy-obrazli ta'sir shaxsga yo'naltirilgan bo'lib, uning uchta jihatini farqlash kerak. Birinchidan, badiiy so'z – barkamol shaxs tarbiyasiga qaratiladi. Ikkinchidan, shaxsni tarbiyalovchi adabiyot kursining asosida inson obrazi turadi. Adabiyot insonshunoslik sifatida ta'riflanadi. Badiiy asar tahlilida personaj, lirik qahramon, muallif obrazi alohida ajralib turadi. Uchinchidan, qardosh xalqlar adabiyoti asari g'oyaviy-emotsional mazmuni uning aksiosemantikasi (yaxlit qadriyatli-mazmunan yo'nalganligi) o'quvchiga pedagog-interpretativ (talqin qiluvchi) o'qituvchi shaxsi, o'quv material muallifi shaxsi orqali yetkaziladi. K.D.Ushinskiy “Faqat shaxs shaxsning rivojlanishi va shakllanishiga ta'sir eta oladi, faqat karakter bilan karakter yaratish mumkin” (1) deganida aynan shuni nazarda tutadi.

O'qituvchi qardosh xalqlar adabiyotining favqulodda va muxtor vakili. Uning kitobxonlik madaniyati, kitobxonlik nuqtai nazari, kitobga munosabati o'quvchilar uchun namuna, jonli "kommutator" vazifasini o'taydi. Adabiy ta'liminig shaxs tarbiyasiga yo'naltirilganligi badiiy asar tahlili va talqinida sub'ektivizmga dalolat qilmaydi. o'qituvchi interpretator-tanqidchi adabiyotshunos, aktyor sifatida san'at fenomenini o'zicha tushunish malakasini shakllantirish bilan unning ichki mazmun aloqalarini optimal to'g'ri anglatishga intiladi. Zero, har qanday individual idrok asarning ichki mazmun aloqalariga mos kelmas ekan, demak u soxtadir.

Qardosh xalqlar adabiyotini o'qitishdagi muammolardan yana biri o'quv etnomadaniyatshunosligi bilan bog'liq.

Ta'lim etnomadaniyatshunosligi ikkinchi til o'qitish va uning adabiyot matnlarini o'rganishga o'lkashunoslik yondashuvining ko'rinishlaridan biri. Bu yondashuv ta'lim oluvchining o'rganayotgan tilda so'zlashuvchi xalq mamlakati va madaniyati bilan tanishuvini ko'zda tutadi.

Bioetnomadaniy integratsiya tamoyili milliy va ikkinchi qardosh adabiyot namunalari bo'yicha maktab va maktabdan tashqari ish, ta'lim-tarbiya jarayonini bir yo'nalishda birlashtirish, o'quvchilarda madaniy-etnik ikki tillilik yoki bioetnomadaniylikni tarbiyalash maqsadini ko'zlaydi. U ikki xalq badiiy madaniyatining adabiy ta'lim jarayonidagi pedagogik kelishuvini anglatadi. Milliy maktablarda qardosh xalqlar adabiyot o'qitishning tarbiyaviy maqsadiga yo'naltirilishi badiiy matnni o'qish-tushuntirish, tasviriy-grafik fragmentlarni tanlash, sarlavha va kichik sarlavhalar mohiyatini ochish, sharx va matn lug'atida leytmotiv leksikani ajratish, savol va topshiriqlarga javob tayorlashni taqozo etadiki, adabiyot o'qituvchisi buni unutmazligi lozim.

Adabiyotlar:

1. Мирқосимова М. Адабий таҳлил методикаси Т.: РЎММ, 1993. -146-б.
 2. Мусурманова О. Адабиёт дарсларини ташкил этишнинг самарали усуллари. – Т.: Ўқитувчи, 1993. -78-б.
 3. Ушинский К.Д. Три элемента школы. М.: 1974. -Т.2. -С. 87.
- Мирқосимова М. Адабий таҳлил методикаси Т.: РЎММ, 1993. -146-б.

RAHIMA SHARAFUTDINOVA
80 YOSHDA



“OTA UYIM, QADRDON GO'SHAM – CHARX-KAMOLON KO'CHASI, 34 UY...”

Ha, shu aziz va mo'tabar maskanda men tavallud topdim. Bolalik, yoshlik chog'larim shu dargohda o'tdi. O'sha damlarni esga olsam agar, go'yoki ertakka o'xshaydi...

Padari buzrukvorim Shamsiddin qori otamlar hamda validam Halimaxon onamlar meni eng aziz va mehribon, qadrli va g'amxo'r, qalbim to'ridan joy olgan insonlarimdir. Dunyoga keltirganlari uchun cheksiz minnatdorman.

Ota-onamga Oллоh taolo 13 ta farzand ato etgan bo'lsa-da shundan 6 nafarini tuproqqa qo'yishgan.

Oilada yetti farzand – uch o'g'il va to'rt qiz tarbiya topdik. O'g'illardan Fahridin, Sirojiddin akalarim hamda Nizomiddin ukam. Saidaxon, Umidaxon, Karimaxon opalarim bo'lsa, kenjasi men – Rahimaxon edik.

Otamni asli turar manzillari avval turar joylari, ya'ni ota xovlilari Qoshiqchi mahallasi, Labzak ko'chasida bo'lgan. Bobom va buvimlar ham serfarzand insonlardan bo'lishgan. Oilada o'nta farzand bo'lib, ulardan besh o'g'il – Muhiddin qori, Tojiddin qori, Sa'ddin qori, Shamsiddin qori va Nasriddin qori amakilarimdir. Beshta ammalar – Roziyaxon, Ruqiyaxon, Saidaxon, Shahodatxon va Sharofatxonlardan iborat edi. Men beshovlon amakilarimning barchalarini ko'rishga, ular bilan hamsuhbat bo'lishga muyassar bo'lganman.

Ikki kichik – Shahodatxon va Sharofatxon ammalarim bilan doimiy bordi-keldimiz bor edi. Afsus katta ammalar bilan diydorlashish nasib etmagan. Men dunyoga kelganimda ular bu olamda yo'q edilar (Oллоh rahmatiga olgan bo'lsin!).

Padari buzrukvorim Shamsiddin qori otamlar o'g'illarning to'rtinchisi edilar.

Validam Halimaxon onamlar ham uchta farzand bo'lishgan. Aka va ukalari bo'lgan. Onamning onalarining ismlari Ominaxon bo'lib, ularga biz “Kattaoyi” deb murojaat qilardik. Tog'alarim Ahmadjon va Mahmudjon, ularning oilalari va farzandlari bilan uzluksiz aloqada bo'lganmiz, hozirga qadar shu holatda qolgan.

Otamlarga Davlat tomonidan berilgan, ya'ni men tavallud topgan hovlimiz Beshyog'ochda, ilgari “Komsomol ko'li” deb nomlangan sayrbog'ning etak tomonida edi. Bog' bilan bizning ko'chani o'rtadagi kichik anhor ajratib turguchi edi. Anhor bo'yida bir mashina sig'adigan yo'l bo'lardiki, bu yo'l sayrbog'ni ikki yonidan ikki tomonga boshlar edi. Bir tomoni Beshyog'ochga, ikkinchisi “Birinchi most” deb ataladigan tomonga yetaklar edi. Har ikki tomondan ham baribir Beshyog'ochga chiqilar edi.

Ko'chamizning nomi ham qiziq edi, “Charx-Kamolon!” Bu ko'chaga kirgunga dovur “Mozor usti” deb nomlangan yalanglikdan o'tilar edi. Nega bunday nomlanadi, degan savol tug'iladi, albatta. Chunki u yerda qachonlardir Qabriston bo'lgan ekan. Keyinchalik mayit qo'yilmaydigan bo'lib, qabrlar cho'kkach, sayxon yerga aylangan ekan. Gohi-gohi qabrlarning do'ngalagi ko'rinib turar edi. Shu sayxonlik joylar bizning o'yingohimiz edi.

Bolaligim va yoshlik chog'larimni eslasam, xayajonlanib, to'liqlanib ketaman. Negaki, bu davrlarda qalbimizda hech qanday g'ubor yo'q, faqat bolalarcha sof tuyg'ular, hech qanday tashvishlar bizni o'ylantirmas, o'zimizni o'yinqaroqligimiz va sho'xliklarimiz bilan band edik.

Yillar o'tib, asta-sekin ulg'ayib, yoshimizga yosh qo'shilib maktab ostonasiga qadam qo'ydik. Men o'n yil davomida qadrdon 128-sonli o'rta maktabda o'quvchilik davrini o'tkazib, shu yerda ta'lim oldim. Maktab davri ham o'zgacha bir shirin taassurotlarga va zavqli onlarga to'la edi...

Shu yerda bir oz tin olib, ota hovlimizga nazar tashlab, u haqida so'z yuritishni ma'qul topdim.

Hovlimiz jannat bog'lariga qiyos qilgudek edi. Bu mening nazarimda, albatta. Hovlimiz yuqori va pastki hovlidan iborat bo'lib, bu jannatmakon, go'zal maskanni ta'riflash uchun so'z ojiz. To'g'ri, u paytlarda uy-joylar, ya'ni imoratlar dabdabali emas, oddiygina qurilgan edi. Shunisi bilan qadrli ediki, xonadonimiz tinch, turmushimiz osuda, boshpanamiz bor, rizqimiz butun, qozonimiz qaynab turardi.

Hovlimizdagi mevali daraxtlar haqida aytib, tasvirlab berishga so'z topolmayman. Olma daraxtining turli navlari bor ediki, sanog'i yo'q. "Zolotoy krem, hozirgi vaqtda "Besh yulduz" deb ataladigan qizil olma, "Samarqand" olmasi (yarmi och pushti, yarmi ko'kish yashil rangli), "Oq olma" (erta pishar, shirin), "Behi olma" (bu navida olma bo'lsa ham bir oz behiga o'xshash tuki bor edi), shirin-nordon sarg'ish bo'lib yetiladigan olma; xuddi shuning qizil tuslisi ham bor edi. Bu olmalar bari yirik-yirik bo'lib yetilar edi. Ayniqsa, "Zolotoy krem" navi pishib yetilganda haqiqatda ham oltin tusga kirib, uning yoqimli isi olamni tutar edi. Yana bir tup "jonoqi olma"miz bo'lguchi edi. Bu olma bir oz maydaroq bo'lsa-da, ta'mi shirin, to'q pushti rangda bo'lib, beixtiyor o'ziga tortar edi.

Yuqori hovlimizga ko'chadan kirishda chap tarafda qator uylarimiz (imoratlar) joylashgan edi. Uylarning ikki yonida yana ikki xil qizil olma daraxti (ikki xil ta'mli) ko'kka bo'y cho'zib, barq urib turar edi. Bu ikki olma oralig'ida uylarimizning old qismida tomga chiqarilgan so'rda "Sohibi" va "Husayni" uzumlari hosil berardi. Tepa hovlimizning etagida uzunligi yetti, eni besh metrlik supamiz bo'lguchi edi. Supaning bir burchagida nashvati (Dyushes) noki, ikkinchi burchagida bahaybat o'rik daraxti hosili bilan bizni to'ydirar edi. Supaning old tomonida uzum so'risi bor ediki, unda ham ikki-uch xil uzum navi pishib yetilar edi. Supaning pastki ikki yonboshidan suvga to'la ariq o'tar edi. Bu ariq hovlimizning u boshidan kirib, bu etagidan qo'shni tarafga chiqib ketardi. Hovlimiz anchagina (25 sotix) yerga ega edi. Hovlining pastki qismida uch qator har birining uzunligi 20, eni besh metrlik uzum ishkamlari bo'lib, bu yerda turli – Charos, Husayni, Hasayni, tog' uzum, buvaki navlarining hosili beqiyos edi.

Shu o'rinda bolalik xotiramda muhrlanib qolgan damlarni eslab, otam haqlarida ayrim voqealarni aytib o'tishni munosib topdim. Gap shundaki, Otam rahmatli har kuni ertalab uzumzor ishkam oralab, uch-to'rt bosh uzumdan uzib chiqar edilar. So'ng bu uzumlarni kichkinagina "pakki" pichoqlari bo'lguchi edi, shu bilan ezilgan, ari qo'ngan donalarini erinmay tozalab, suvda chayib,

nonushtaga dasturxonga qo'yar edilar. Pishiqchilikda har kuni shu ish takrorlanar edi.

Kuz kelib, qish yaqinlashganda hosil tugagach, (1960 yillarga dovur) tok zanglari yerga yotqizilib ko'milar edi. Tokzor har qancha maydonni egallamasin har yili shu ish davom etardi.

Bahor kelib, yosharish, yangilanish bo'lib, hammayoq ko'kalamzorga aylanganda Otam yana o'z mas'uliyatli vazifalarini bajarishni boshlar edilar. Mana, barcha daraxtlar uyg'ondi, shu jumladan, toklar ham. Otam avval tol novdasining po'stlog'ini shilib, 20-30 sm.lik ingichka chilvir yasar edilar, so'ng ustilariga to'nni tashlab, belga belbog'ni bog'lab, xaligi o'zlari yasagan "qo'lbola" chilvirni belbog'ga qistirib, asta-sekin tokning ustini ochib, yosh bolani avaylagandek, tok novdalarini so'rilarga, ishkomdagi yog'ochlarga bog'lab ishlarini yakunlar edilar. Bu ishlarning barchasi otajonimning zimmalarida edi.

Otaginamni yana bir ishlari bor ediki, bu xislat menda o'z aksini topgan. Yuqorida aytib o'tganimdek, hovlimizdan gir aylanib ariq o'tar edi, degandim. Ariqning ikki joyida kichikroq hovuzcha ham bor edi. Otamning har kuni ertalabki vazifalaridan yana biri shu ediki, 8-10 ta chelak (paqir)ni suvga to'ldirar edilar. Na faqat suvga to'ldirish, o'sha 50-yillardayoq Otaginam suvni tindirar (disterlar) edilar. Bo'sh chelaklarga suvli chelaklardagi suvni asta-sekin quyur edilar. Oxirida qolgan loyqasini to'kib, yana ariqdan boshqa suv bilan bo'sh chelaklarni suv bilan to'ldirar edilar. Shu ish jarayonida bo'sh chelakni chertib, astagina qaysidir kuyni xirgoyi qilar edilarki, bu holat mening murg'ak qalbimda bir umr saqlanib qolgan.

Otam rahmatli oilaga, farzandlariga o'ta mehribon, g'amxo'r inson edilar.. Hech qachon bizni qattiq qo'llik qilib urishib, qo'l ko'tarib, xafa qilmaganlar. Juda beozor, xokisor inson edilar, otaginam.

Hayotlari davomida boshlariga mushkul ishlar tushganda ham, hech qachon, hech kimga shikoyat, arz qilmaganlar, barchasiga shukr qilganlar.

Qachondir "Har qaro tun so'nggidan tong yetib, chiqqay oftob", deb umid qilganlar va shu kunlarga ham yetganlar. Shunday vaziyatlar ham bo'lganki, hech qaerda ishlamay, uyda qolib, g'am-tashvish ichida qolganlarida ham, otaginam ijod bilan mashg'ul bo'lib, o'zlarini chalg'itar edilar. Gohida ijod bilan mashg'ul paytlarida qalblariga ozor bergan nimadir sabab, otam boshlarini quyi eggancha astagina "uf" deb qo'yardilar va shu onning o'zida qog'oz ustiga ko'zlaridan yosh to'kilar edi. Bu holatni ko'p kuzatganman. Ammo negaligini tushunmasdim. Keyinchalik yoshim ulg'ayib, aqlimni tanib, asta-sekin sababini tagiga yetdim...

1959 yilning kuz oylarida otamlarni hozirgi Alisher Navoiy nomli Til va adabiyot institutiga ishga taklif etishdi. Bu maskanga akademik Yahyo G'ulomovning tavsiyalari va maslahatlari bilan o'sha kezlarda ushbu institutga rahbarlik qilayotgan Azizxon Po'latovich Qayumov domla otamlarni ishga chaqirdilar. Ustoz Aziz Po'latovich bilan bir suhbatda menga otamlar haqlarida so'zlab turib, ularning aytgan gaplarini eslatgan edilar. Otam institutga kelib, samarali va barakali mehnat qilganlar.

Xorazm shoiri Ogahiyning "Ta'viz ul oshiqin" devonini nashrga tayyorlaganlar, Hofiz g'azallarini fors-tojik tilidan o'zbek tiliga tarjima qildilar va

bu kitob dunyo yuzini ko'rdi. Munis Xorazmiy devonini arab yozuvidan (o'zbek) Kirill alifbosiga o'girib, transliteratsiya ishini bajarganlar. Shu o'rinda o'zlari bajargan ishlaridan mamnun bo'lganliklarini bildirib, "Meni ijod qilib ishlaydigan joyim asli shu yer ekan..." degan ekanlar. Albatta, bu so'zlar Til va adabiyot haqida aytilgan edi.

Darhaqiqat, otam bu dargohda bir yil davomida ko'b va mo'l ishni bajargan edilar...Otam 1960 yilning 13 sentyabrida bu dunyoni tark etdilar. (Oxiratlari obod bo'lsin!)

Otamning vafotlari menga qattiq ruhiy zarba bo'lgan. Men o'sha paytlarda ancha yosh edim, endigina maktabning 10 sinifida o'qishni boshlagan edim. Shu vaqtgacha bunday og'ir musibatni ko'rmaganim uchun bo'lsa kerak, qattiq betob bo'lib yotib qoldim. Ancha paytga dovur bu dard meni tark etishi qiyin kechdi. Lekin vaqt har bir dardga davo ekan. Kunlar o'tdi. Sog'lig'im ham ancha tiklandi, o'qishimni davom ettirib, 10 sinfni ham tugatdim. 1961 yili men va oilamiz uchun qadrlı inson, o'sha kezlarda Til va adabiyot institutining rahbari bo'lgan Azizxon Qayumovning maslahatlari bilan ToshDU (hozirgi Milliy universitet)ning filologiya fakul'tetining kechki bo'limiga o'qishga qirdim. Shu bilan birga Til va adabiyot institutida mehnat faoliyatimni boshladim.

Men ushbu institutda buyuk olimlar, yirik ilm-fan darg'alari bilan bir xonada yonma yon o'tirib, oz bo'lsada, qo'limdan kelgancha ilmga o'z ulushimni qo'shib keldim. Shunday insonlar bilan birga ishlash nasib etganidan behad xursandman. Bularning barchasi meni tole'imning, baxtimning kulganidan deb o'ylayman. 6 yil davomida ish va o'qishni birga olib bordim.

1966 yil hayot taqazosi bilan turmush qurdim. Yangi xonadon, yangi oilada yangicha turmush tarzi. Muammolarga tayyor turish kerak. Hayot turmushning achchiq-chuchuklariga sabr-bardoshli bo'lishni taqazo qiladi.

Vaqt o'tib, o'g'il-qiz farzandlarim dunyoga keldi. Farzandlarim Ollohning menga bergan aziz ne'matlaridir. Bu uchun Ulug' zotga shukronalar aytaman. Ikki qiz va bir o'g'ilga ega bo'ldim. Qizlarim Nilufarxon va Nargizaxon hamda o'g'lim Nu'monxo'jalar xonadonimni to'ldirishdi.

Yillarni yillar quvlab o'tib, farzandlarim o'sib ulg'ayishdi. Bog'cha tarbiyasini, maktabda 10 yillik ta'limini olishdi. So'ng oliy ma'lumotga ham ega bo'lishdi. Vaqti soati bilan qizlarim ham turmush qurib, o'z oilasiga ega bo'lishdi. Faqat bitta armonim xanuz yurak bag'rimni ezib keladi. U ham bo'lsa yagona o'g'lim Nu'monxo'janing orzu-havaslarini, to'yini ko'rolmadim. Umri qisqa ekan, yoshgina, navqiron jigarbandim bizni tark etdi. Orzularim ushalmadi. Men uchun bu katta judolik bo'ldi. Nachora, Ollohni buyurgani bo'lar ekan. Farzand dog'ini hech kimga ko'rsatmasin. Ko'rganlarga Ollox sabr bersin. O'zi rozi bo'lsin. Jigarbandimni Olloh rahmatiga olgan bo'lsin. Oxirati obod bo'lsin.

Hozirgi kunda qizlarim qator-qator farzandli bo'lishdi. Nevaralarim ham voyaga yetishib, o'z yo'llarini topishgan. Oliygozlarda o'qib, yaxshi ishlarda o'z mehnat faoliyatlarini yurgizib kelishmoqda. Barchasi oila qurishga tayyor. Men ularga ulkan baxt tilayman. Sog'-omon bo'lishsin. Hayotlari hamisha farovonlikda,

shirinlikda o'tsin. Yaxshi insonlarning xonadoniga kelin-kuyovlar bo'lishlarini nasib etsin. O'zidan ko'payishsin.

Hamma yaxshi tilaklarim ularga bo'lsin. Hamisha duodaman. Duolarimning ijobatini Oллоhdan so'rayman.

Mana, Men ham sakson yoshni qoralabman, Alloh menga xayrli, barokatli, fayzli, uzoq umr berib qo'yibdiki, bu uchun U Zotga hamdu sanolar aytaman. Unga shukronalarim bo'lsin.

Hozirgi kunda ham Oллоhning inoyati bilan sog'-salomatlikda ko'p yillardan beri mehnat qilib kelayotgan qardron maskanim Alisher Navoiy nomli Davlat adabiyot muzeyida hamon ish faoliyatimni yurgizib, qo'limdan kelgancha Davlatimizning ilm-faniga ozmi-ko'pmi hissamni qo'shib kelmoqdaman. Men bilan yonma-yon mehnat qilib kelayotgan hamkasblaringa, Rahbariyatga, qizlarimdek, singillarimdek, farzandlarimdek bo'lib qolgan barcha insonlarga, menga ixlos va havas bilan qaragan yaqinlarimga eng yaxshi tilaklarimni izhor qilaman. Barchalari, meni yoshimga beg'am-betashvish, sog'-salomat yetishsin. Mening yoshimdan o'tib, hamisha sog'lik, omonlikda xalq xizmatida bo'lishlarini nasib etsin. Mehr-oqibat, qadr-qimmat yo'qolmasin. Doim ahilchilikda, birdamlikda, o'tirgan o'rnimiz yo'qolmay birgalikda xizmatda bo'lishlikni nasib etsin!

Mana hurmatli va aziz insonlarim, qadrli hamkasblarim, farzandlarimdek bo'lib qolgan hamxonalarim, ko'ngli ko'nglimga yaqinlarim, istaklari samimiy do'st-yorlarim 80 yillik hayotim mobaynida ko'rganlarim, boshimdan o'tgan voqealar, esda qolgan xotiralarim shulardan iborat. Xotiramdan ko'tarilgan, yozolmaganlarim uchun sizlardan uzr so'rayman. Omon bo'lsak, hayot davom etaveradi. Xotiralar ham ko'payaveradi...

Sizlarga cheksiz hurmat bilan Rahima opangiz.

07.05.2024 yil

XAZINABON

– Assalomu alaykum hurmatli Rahima opa! Muborak tavallud kuningiz bilan samimiy qutlashga ijozat bergaysiz!

– Vaalaykum assalom, Baxtiyorjon! Salomat bo'ling! Samimiy, dildan qutlovingiz uchun minnatdorman. Sizga ham shu muborak 80 yoshga yetish nasib etsin.

– Ota-onangiz, bolalik va yoshlik yillarni eslasangiz. Ajdodlaringizning qaysi xislatlari Sizda jo bo'lgan?

– Padari buzrukvorim Shamsutdin Sharafutdinov Xurshid o'z davrining bilimli, ziyoli kishilaridan edilar. Volidai muhtaramamiz-Halimaxon onajonim uy bekasi bo'lib, uch o'g'il, to'rt qizni dunyoga keltirgan, o'ta soddadil, mehribon, ko'ngli bo'sh, yumshoq ayol edilar. Onajonimning ushbu xislatlarining ayrimlari menda ham aks etgan desam, nokamtarlikka yo'ymaysiz. Yuqorida aytganimdek,

ota-onamiz bag'rida 7 farzand voyaga yetdik. Xonadonimiz tinch, osuda, rizqimiz butun, hech qanday tashvishsiz, qiyinchiliksiz o'sib ulg'aydik. Bunday tinch hayotning tuzini yutishda Otajonimning mehnatlari, xizmatlari buyukdir. Chunki otam hayotning zarbalariga, og'ir kunlariga duch kelgan bo'lsalarda, bu qiyinchiliklarga bardosh berib, oilani, farzandlar kamolini, sog'lig'ini o'ylash fikru yodida edi. Otamning bu xislatlaridan, ya'ni oila va farzandlarni yedirib, kiydirib voyaga yetkazish mening ham asosiy maqsadim bo'lgan, va shu kungacha amalda qolgan.

– Qaysi o'rta ta'lim maktabida o'qigansiz, oliy o'quv dargohni tamomlagansiz? O'qituvchi, ustoz murabbiylaringizni yodga olsangiz.

– Mening bolalikdagi eng quvonchli kunlarimdan biri maktab o'quvchisi bo'lganim – birinchi sinfga qadam qo'yganim edi. Maktabimiz Chilonzor tumanidagi 128-sonli o'rta o'quv muassasi bo'lgan. Bu maskanda 10 yil davomida katta tajribaga ega o'qituvchilardan juda yaxshi ta'lim oldim. Ulardan cheksiz minnatdorman. Matematika fanidan E'tiborxon opa, ona tili va adabiyot darsidan Po'latoy opa, tarix fanidan Oyto'rxon opa, geografiyadan Murod aka, rus tili fanidan Inna Avanesovalar hamda ularning dars berish jarayonlari hamon yodimda kolgan.

– Mehnat faoliyatingizni qaerda boshlagansiz?

– Mening niyatim maktabni tugatgach ToshDu (hozirgi Milliy Universitet)ning Filologiya fakultetiga o'qishga kirib, taxsil olish edi. Orzuim amalga oshib, men 1961-yil ushbu oliygohning kechki bo'limi talabasi bo'ldim. Shu yili O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutiga laborant bo'lib ishga qabul qilindim. Bu albatta shu dargohda rahbarlik qilayotgan, qadrdon ustozim Azizxon Pulatovich Qayumov maslahatlari bilan amalga oshdi. Ulardan umrimni oxirigacha minnatdorman. Milliy universitetda qator ilm darg'alaridan tahsil oldim. Ulardan biri o'z kasbining yetuk bilimdoni, talabchan ustoz Subutoy Dolimov edilar. Keyingi safdoshlari Hasanxo'ja Muhammadxo'jaev, Umarali Normatov, Rahmatilla Inog'omov, Muxsin Olimovlar ham o'z bilimlarini bizga yetkazishda samarali xizmat qilgan ustozlarimdan deb bilaman. Bergan bilimlari uchun, ilmiy, xalq xizmatiga yaroqli bo'lib, mehnat qilishimda o'z xissalarini qo'shganlari uchun tashakkur izhor qilaman. Yuqorida qayd etganimdek ilk mehnat faoliyatimni Til va adabiyot institutining akademik Vohid Zohidov boshchilik qilgan mumtoz adabiyot sektorida ish boshladim. Ushbu ilmiy dargohda buyuk insonlar, ilm-fan darg'alari bilan bir xonada yonma-yon ishlash nasib etdi. 1976 yili Til va adabiyot institutiga buyuk inson, yetuk ilm egasi, olim, Ikkinchi jahon urushida jasorat ko'rsatgan, matonatli jangchi, snayper Matyoqub Qo'shjonov rahbarligida kotiba lavozimida ishladim. Domla bilan ota-boladek muomalada bo'lganmiz. Ustozimning insoniy fazilatlaridan men bilganlarim u kishi o'ta yumshoq fe'lli, ovozlari hech qachon baland chiqmas edi. Ish yuzasidan talabchan rahbar edilar. Til va adabiyot instituti Akademiklar shaharchasiga ko'chishi munosabati bilan masofa uzoqlashgach, men 1980 yil yanvar oyidan O'z FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyining O'zbekiston shoir va yozuvchilari arxivi bo'limiga kichik ilmiy xodim (arxivarius) lavozimiga ishga

qabul qilindim. Men bu dargohga kelganimda ustoz Azizxon Qayumov rahbarlik qilardilar. Biroz vaqtdan keyin domla bo'limga o'tdilar. Muzeysga rahbarlik f.f.d., professor Saidbek Rustamovich Hasanovga topshirildi. Saidbek Rustamovich ancha yosh, ammo bilimi yetarli, ilmi kuchli, mustaqil fikrli inson edi. Xodimlarga nisbatan juda ko'ngilchan rahbar sifatida topshirgan vazifalarini ham o'zlariga havola qilib erkin qo'yar edi. Fe'li o'ziga hos sokin va muloyim edi. Shaxsan menga hech qachon qattiq muomalada bo'lmagan, ranjitmagan. 2017 yil Adabiyot muzeyining direktori o'zgarib, rahbarlik lavozimiga yosh, yetuk olimlaridan biri Jabbor Solievich Eshonqulov ish yurita boshladi va hozirgi kungacha shu vazifasini davom ettirib kelmoqda. Jabbor Solievich haqida shuni aytishim kerakki, birinchi o'rinda uning o'zi g'ayratli, mehnatkash, yuqoridan topshirilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarish uning shiori. Xodimlardan ham shuni talab qiladi. Intizom masalasiga jiddiy qaraydi. Biroz qiziqqonligi bor. Bu albatta uning o'ziga xos fe'lidir.

– Adabiyot muzeyining Arxiv bo'limiga nechanchi yilda ishga o'tgansiz?

– O'zbekiston shoir va yozuvchilari arxiv bo'limiga 1980 yil iyul oyidan kichik ilmiy xodim (arxivarius) vazifasida ish boshlaganman. Hozirgi kungacha shu yerda “Muzeys ashyolari va fond kolleksiyalarini ro'yxatga olish” bo'limining mudiri vazifasida ish yuritib kelyapman.

– Arxiv fonlarida nechta shaxsiy arxiv hujjatlari bor va ularning soni?

– Adabiyot muzeyining arxivi 164 shoir, yozuvchi va adabiyotshunos olimlarning fondidan iborat. Ushbu arxiv hujjatlarning jami soni 60420 tadan iborat. Arxivimizga birinchi bo'lib Hamza Hakimzoda Niyoziy arxivi 1970-yil xadya sifatida olingan. Oxirgi 2023-yil 13-noyabrda kabul qilingan shaxsiy arxiv hujjatlari f.f.d., akademik Naim Karimovga tegishlidir.

– Jami nechta arxiv tavsiflangan va qanchasi katalog bo'lib nashrdan chiqqan?

– Arxivdagi 123 shaxsiy arxiv hujjatlariga tavsif berilgan bo'lib, bir qismini tavsiflash ishi davom etayapti. Arxivi tavsiflanib katalogi nashr etilgan H.H.Niyoziy, M.Shayxzoda, H.Olimjon, X.Sharafutdinov, H.G'ulom, H.Shams, Sh.Sulaymon, Said Ahmad, Asqad Muhtor, adabiyotshunos olimlardan Porso Shamsiev, Natan Mallaev, Muhammadjon Hakimov va boshqalar.

– Siz o'zingiz shaxsan qaysi ijodkorlarning arxiv hujjatlari tavsifini amalga oshirgansiz?

– Shaxsan o'zim 20 tadan ortiq ijodkorlar arxivini tavsiflash ishini amalga oshirganman. Jumladan. H.H.Niyoziy arxivi katalogini ikki jildligini nashrga tayyorlashda ishtirok etib ikki yarim mingdan oshiq hujjatning ko'rsatkichini tuzdim. Xurshid Sharafutdinov arxivining kengaytirilgan katalogini tuzib (500 ga yaqin hujjat) nashr qildirdim. Shoir Chustiy arxivi bir yarim mingta hujjatdan iborat. Mirtemir arxivida esa ikki yuzga yaqin hujjat mavjud. Maqsud Shayxzoda arxivi hujjatlariga ko'rsatkich tuzganman. U ham katalog bo'lib nashrdan chiqqan va boshqalar.

– Shamsiddin Sharafutdinov Xurshid arxivining katalogini yaratilishi haqida gapirib bersangiz. Uning boshqa kataloglardan farqi nimada?

– Otam Shamsiddin Sharafutdinov Xurshid arxivi katalogini yaratishda boshqa kataloglarni tayyorlashga nisbatan o'ziga xos uslub qo'llanilgan. Ya'ni, har bir hujjatga keng ma'noda tavsif berilgan. Masalan, asarning nomi, qog'ozi, hajmi qo'lyozma bo'lsa, siyoh yoki qalam rangi, tahrir qilingan yoki tuzatishlar yo'q, yozilgan sanasi hamda qancha varaq ekanligi ko'rsatilgan bo'lib asarning boshlanishi va oxiridan ikki-uch jumla keltirilib izoh berilgan.

– Arxiv fondidagi hujjatlardan kimlar foydalanadi?

– Arxiv hujjatlaridan bevosita muzey ilmiy xodimlari, boshqa ilmiy muassasalarning xodimlari hamda oliy o'quv yurtlari talabalari kelib, maxsus ruxsatnoma bilan foydalanib kerakli ma'lumotlar oladilar.

– Ma'lumki, Alabiyot muzeyining bu arxivi respublikamizda yagonadir. Unda tarixiy-badiiy manbalar, adabiy asarlarning noyob mualliflik qo'lyozma matnlari saqlanadi. Boshqa arxivlar bilan solishtirilganda bizning arxivimiz qay holatda?

– Arxivimiz ilm ahli uchun bir bebaho xazina desam mubolag'a bo'lmaydi. Unda tarixiy badiiy manbalar, adabiy asarlarning noyob qo'lyozma matnlari, hamda mashinkalangan, kompyuter variantlari saqlanadi. Arxiv O'zbekistonda yagona shoir, yozuvchi va adabiyotshunos olimlar arxivi hisoblanadi. Adabiyot muzeyi binosini tarixiy binolar qatoriga qo'shsak xato bo'lmaydi. Ancha mustahkam qurilgan. Arxivimiz shu binoning chap qanotida uchinchi qavatda joylashgan bo'lib, boshqa arxivlarga nisbatan hujjatlarning saqlanishi qoniqarli holatda. Hujjatlarning har biriga tavsif berilgach, qog'oz konvertlarga, keyin qalin karton qutilarga joylab javonlarga qo'yiladi. Eng asosiysi javonlar temirdan yasalgan, bexavotir. Arxiv xonasiga ob-havo namligi o'lchagichlari o'rnatilgan. Tozalikka ham e'tibor beriladi.

– Siz bosh arxivarius sifatida malakangizni oshirib kelgansiz. Arxiv faoliyatini yanada yaxshilash uchun nimalar qilmoq kerak?

– Xalqimizning madaniy yutuqlarini hozirgi va kelgusi avlodga yetkazishda arxivlarimizning roli katta. Arxiv hujjatlarini to'plash, yig'ish va ilmiy o'rganish bilan bir qatorda ularni saqlash ishi ham nihoyatda jiddiy ekanligi katta ahamiyatga egadir. Shunga ko'ra arxivdagi har bir hujjatga uning ilmiy qiymatini hisobga olgan holda yondashib, hozirgi zamon talablariga mos ravishda saqlash, arxiv hujjatlarini vaqti-vaqti bilan ko'zdan kechirib turish bizning asosiy vazifamizga kiradi. Chunki arxiv hujjatlari umrboqiy bo'lgandagina o'z vazifasini ado eta oladi. Arxiv hujjatlaridan foydalanib, ish olib boradigan ilmiy xodimlardan ham ularga nisbatan ehtiyotkorlik talab etiladi.

– Sizning fikringizcha arxiv hujjatlarini tavsif qilishda bir mahrajga, bir tavsif standartiga kelish vaqti kelmadimi?

– Arxiv hujjatlarini tavsif qilishda ilmiy xodimlarimiz bir xil yo'nalishda ish olib boradilar. Arxivda mavjud bo'lgan hujjatlarning har biriga alohida-alohida tavsif beriladi. Bu ishda quyidagi printsipga amal qilinadi: hujjatning tartib raqami (bu raqam hujjatning inventar raqamini ham bildiradi); asarga yozuvchi tomonidan qo'yilgan sarlavha qo'shtirnoq ichiga olinadi; hujjatning janri (roman, pьesa, qissa, she'rlar va hokazo); hujjatning mazmuni haqida qisqacha ma'lumot;

hujjatning yozuvi (kirill, lotin yoki arab yozuvida, o'zbek tilida); hujjatning yozilgan vaqti (sanasi); hujjatning soni va hajmi. Hujjatlar tavsifida xronologiyaga amal qilinib, yozilgan yili ko'rsatilmagan hujjatlarga "Yili yo'q" (Y.y.) yozib qo'yiladi. Arxivda saqlanayotgan har bir hujjat tavsifini berishda umumarxivshunoslik tamoyillariga rioya qilinadi.

– Arxivga o'quv amaliyotiga ko'p universitet va institutlardan talabalar keladi. Ular haqida fikringiz qanday?

– Arxivimizga arxiv hujjatlaridan foydalanish uchun oliygohlardan talabalar, ilmiy muassasalardan xodimlar kelishadi. Tashqaridan kelguvchilarga arxiv qonun-qoidalariga amal qilishlarini so'raymiz. Ilmiy xodimlar ish joylarida talabalar o'quv yurtlaridan arxiv materiallaridan foydalanishlari uchun rasmiy ruxsatnoma xati bilan kelishlari shart. Ularga kerakli materiallarni yetkazib berish uchun harakat qilamiz.

– Yozuvchi, shoir va adabiyotshunos olimlarning avlodlari ijodkor ajdodlarining arxivlarini Adabiyot muzeyi fondiga topshirsalar qanday holat vujudga keladi. Ularga nimalarni maslahat berar edingiz?

– Yozuvchi, shoir va olimlarning yaqinlari, avlodlari ijodkorning arxiv hujjatlarini Adabiyot muzeyiga topshirishda avval rahbariyatga murojaat qilishadi. So'ng xodimlarimiz borib, shoir yoki yozuvchining qarindoshlari, farzandlari bilan birgalikda hujjatlarni tartibga keltirib, ro'yxatini tuzib arxiv fondiga beriladi. Arxiv qabul qilishda komissiya tarkibida ro'yxatga asoslanib dalolatnoma tuziladi. Har ikki tomon roziligida tegishli hujjatlar, ya'ni qabul qilinib olish dalolatnomalari imzolanib arxiv qabul qilib olinadi. Ijodkorlarning avlodlariga farzandlaridan shuni iltimos qilar edimki, ijodkorning vafotidan so'ng uning necha yillar davomida qalam tebratib, yozgan asarlarini qadrlang, e'tiborsiz qoldirmang, sarishtalik bilan tartibga keltirib Adabiyot muzeyi fondiga topshirishlarini maslahat bergan bo'lar edim. Shunda bebaho arxiv hujjatlari davlat tasarrufiga o'tadi, tavsiflanib kataloglar sifatida nashr ettirilib ilm ahllariga yetkaziladi.

– Rahima opa, birinchi o'qigan badiiy asaringiz qaysi bo'lgan? Sizga qanday ta'sir etgan?

– Qiziqarli savol! To'g'ri, yoshligimdan ya'ni kitob mutolaa qilishga ko'zim o'ta boshlagandan badiiy kitob o'qishga qiziqqanman. Lekin shuncha yillar o'tib, birinchi o'qigan kitobimni eslab qolishga yoshim ulug'lik qiladida.

– Oilangiz haqida gapirib bering.

– 1966-yilning avgust oyida to'yimiz bo'ldi. Turmushga chiqdim. Hayotimiz el qatori kechdi. Oilamiz besh kishidan iborat edi. 1967-yil katta qizim Nilufarxon, 1968-yili o'g'lim No'monxo'ja, 1970-yili Nargizaxon qizim dunyoga kelishdi. Farzandlarim birin-ketin voyaga yetishdi. Maktab va kollejlarda ta'lim olishdi. Hayot taqazosi bilan qizlarim turmush qurishdi. O'g'il-qiz farzandlarga ega bo'lishdi. 7 ta nabiralarni buvijonisi bo'lishlik menga nasib etdi. Eng katta armonim va judolik shu bo'ldiki, o'g'lim No'monxo'jani baxtini, rohatni, orzu-xavaslarini, to'yini ko'rish nasib etmadi. 1998-yil o'g'lim bu dunyoni tark etdi. 2018-yil Mahmudxo'ja umr yo'ldoshim ham vafot etdilar.

– Vafoli yor, mehribon ona, suyukli buvijon sifatida yosh avlodga qanday pand-nasixatlaringiz bor?

– Hozirgi yosh avlodlarga faqat yaxshilik, salomatlik, baxt-omad, insof tilayman. Ota-onaga mehr-muhabbat, hurmat e'tiborda bo'lishlarini istayman. Yaxshi fazilatlarga ega bo'lgan farzandlar bor xonadonda xamisha tinchlik-xotirjamlik bo'ladi. Turmush qurish arafasida turgan yoshlar doim chuqur o'ylab fikr yuritishsin. Bu borada zinhor shoshilmaslik, tavakkal qilmaslik kerak. Qurmoqchi bo'lgan oilangizning poydevori mustahkam, baxtli bo'lsin. Barcha yaxshi orzu niyatlaringiz amalga oshsin. Bu kunlarni yaratish o'zingizga bog'liq.

– Rahima opa, Sizga katta rahmat! Yaratgandan sizga salomatlik, kuch va xotirjamlikni so'rab qolaman.

– Baxtiyorjon sizga ham rahmat! Barcha yaxshi istaklaringiz, e'tiboringiz uchun minnatdorchiligimni izhor qilaman.

Suhbatni Baxtiyor Tairov olib bordi.

OTASINING QIZI

Yusuf TURSUNOV

O'zRFA Davlat adabiyot muzeyi katta ilmiy xodimi, fil.f.nomzodi

Bu yil mehnat faoliyatimning ellik yettinchi, ilmiy faoliyatning esa ellik beshinchi bahorini qarshilamoqdaman. Ana shu o'tgan yillar davomida oliy hamda o'rta ta'lim o'quv maskanlarida ham o'rindoshlik yo'li bilan ishlab kelganimni hisobga olinsa, yuzlab odamlar bilan birga mehnat qilibman. Bugun o'sha yuzlab hamkorlardan biri bilan yuz ko'rishib qolgudek bo'lsam tug'ishganlarimdan birini uchratgandek his qilaman o'zimni. Xususan, O'zbekiston Fanlar akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi va keyinchalik uning bazasida tashkil etilgan Qo'lyozmalar ilmiy tadqiqot institutida ba'zi hamkorlar bilan ustozshogird maqomida ba'zilari bilan sohadosh sifatida, ba'zilari bilan esa tug'ishganlar misoli qalban yaqin bo'lib faoliyat kechirib kelganligim o'tgan umrimning go'zal va mazmunli sahifalari bo'lib qoldi.

Zotan, rahmatlik ustozim Muhammadjon Hakimov nashrdan chiqqan "Navoiy asarlari qo'lyozmalarining tavsifi" nomli kitoblaridan birini menga berar ekanlar, unga "Qiyomatli ukam Yu.Tursunovga ulkan ilmiy yutuqlar tilayman", deya dil izhorlarini bitgan edilar. Bir necha bor arxeografik ekspeditsiyalarda birga bo'lgan opaxonim Halimaxon Muxtorova Buxoroliklar shevasiga xos tarzda "ukajon" deya murojaat qilar edilar. O'ta kamtar va kamsuqum ustozimiz Solih Mutallibov domlaga nogironliklari tufayli uylarida ishlashlariga ruxsat berilgan bo'lib, ularinig ilmiy ishlariga daxldor yumushlar bo'yicha huzurlariga institutimiz rahbari Azizxon Qayumov ko'proq meni yuborar edilar. Domla institut ilmiy kengashi yig'ilishigami, oylik maoshlarini olish uchunmi Qo'lyozmalar institutiga kelgudek bo'lsalar, mumkin qadar yonlarida bo'lar va bekatga o'zim kuzatib qo'yardim. Shu yaqinligim tufayli bo'lsa kerak domla menga "o'g'lim" deb

murojaat qilardilar. Bu kabi marg'ub holatlar mening qalbimda go'zal xotirot bo'lib muhrlanib qolgan va bugun ularni qo'msab yashayman. Hayriyatki, hozirda ularning ba'zilari bilan hamon birga hamkor va hamnafasman. Ulardan biri... Yaxshisi gapni uzoqroqdan boshlay qolay.

Adabiyot muzeyi bazasida yuzaga kelgan Qo'lyozmalar instituti qisqa vaqt ichida o'z yo'lini topib olgan ilmiy tadqiqot muassasasi sifatida tanildi, og'izga tushdi. Tabiiyki, bu maskanda ishlash ishtiyoqida bo'lganlar ham ko'paya boshladi. Biroq bizda ishlash uchun istak – ishtiyoqining o'zi kifoya qilmas edi. Rahbarimiz Azizxon Qayumov ilmiy xodim bo'lib ishlash istagida kelganlarga bitta talab bilan murojaat qilardilar, u ham bo'lsa arabcha yozuvdagi matnlarni erkin o'qiy olish. Haqqoniy talab, albatta. Natija shunday bo'lardiki, keluvchilarning ayrimlarigina ishga olinar edi. Zotan, institutning qo'lyozmalar xazinasida saqlanayotgan kitoblargina emas, balki avvaldan Adabiyot muzeyi tarkibida bo'lgan "O'zbekiston yozuvchilari va shoirlari arxivi" fondidagi aksariyat adiblarning ijodiy merosi ham arab yozuvida edi.

1980-yilning yanvaridan navbatdagi yangi bir xodima paydo bo'ldi. Keyinroq bilsam, yosh jihatdan mendan unchalik katta bo'lmagan bu opaxonning ismlari Rahimaxon bo'lib, familiyalari Sharafuddinova ekan. Ko'p o'tmasdan esa ular haqida yanada muhim ma'lumotni eshitdim. Avvaldan muzeyning e'tiborli ilmiy xodimi, keyinchalik esa Qo'lyozmalar institutining ilmiy xodimigina emas, iqtidorli xattotiga ham aylangan, tabiatan hazil-mutoyibaga ruju qo'ygan, o'zining kinoyaviy gaplari va qochirimlari bilan hammamizni kuldirib yuradigan akamiz To'xtamurod Zufarov bilan suhbatlashish chog'ida ular "Xurshidning qizi" iborasini ishlatib qoldilar. Akamiz buni hazil yo'sinida aytgan bo'lsalar-da, men uning kimligini jiddiy ravishda so'radim. Shu narsa ma'lum bo'ldiki, ya'ni xodima o'zbek madaniyatining taniqli namoyondalaridan biri bo'lgan shoir, dramaturg va tarjimon, qolaversa ilm-fanda o'ziga xos iz qoldirgan siymo – Xurshidning qizi ekan. Shundan keyin menda yangi xodimaga boshqacha e'tibor bilan qarash paydo bo'ldi. Nafsil amrini aytganda bu odatiy hol – mashhur insonlarning yaqinlari, xususan, farzandlariga boshqacha bir qiziqish, alohida bir nigoh bilan qarash odatiy hol, albatta. Zohiran men opaning ko'zlarida Xurshidga xos vazminlikni ko'rgandek bo'ldim. Zotan, Adabiyot muzeyining ekspozitsiya bo'limida adibning rangli portreti qo'yilgan bo'lib, unda o'ychan boqish namoyon edi.

Vaqt o'tishi bilan ish yuzasidan Rahima opa bilan muloqotlarda bo'lishimga to'g'ri keldi. Men ilmiy faoliyatimning dastlabki yillaridayoq Xurshidga, aniqrog'i, uning ilk ijodiyotiga duch kelganman. XX asrning o'ninchi yillarida chop etilgan bayozlarda Toshkentlik Xoib degan shoirning g'azallarini, ayniqsa, zamondosh shoirlar bilan she'riy yozishmalarini qiziqib o'rganganman. Izlanishlarim davomida "Xoib" adabiyot maydoniga dadil kirib kelayotgan Shamsiddin Sharafiddin o'g'li – Xurshidning dastlabki taxallusi bo'lib chiqqan edi. Ilk muloqotlarimda ana shu ilmiy kuzatishlarim hosilasi bo'lgan ushbu ma'lumot haqida Rahima opaga gapirmoqchi bo'ldimu, biroq bu bilan o'zimni bilimdon qilib ko'rsatayotgan bo'lamanmi, deya istihola qildim.

Opa jamoamizga tez singishib ketdilar. Institut ishlariga doir xizmatlarda ham, vaqt-vaqti bilan bo‘lib turadigan ilmiy-amaliy tadbirlarda ham, ba’zi bayram va yaxshi kunlar munosabati bilan tashkillashtiriladigan yig‘inlarda ham xodimlarimiz bilan teng ravishda faollik ko‘rsatardilar. Asta sekin ularning o‘zlariga xos fazilatlari, ish yuritishdagi o‘ziga xos tutimlari namoyon bo‘la boshladi. Chunonchi, ular saranjom-sarishtalikka rioya qilgan holda ish tutardilar, ayniqsa, bu yozuv- chizuv ishlarida ko‘zga tashlanar edi, matnlari o‘ta tartibli, xatlari esa juda chiroyli edi. Aytish mumkinki, u professional gravyorlarning xatidan kam emas edi.

Rahima opaning suhbatlarimizdan birida aytishlaricha, 1960 yilda O‘zbekiston Fanlar akademiyasining o‘zbek tili va adabiyoti institutiga ishga kirganlar. Bu vaqtda mazkur institutga Azizxon Qayumov rahbarlik qilar edilar. Opa bu yerda yigirma yil ishlaganlar. Biroq mazkur institut “Akademiklar shaharchasi”ga ko‘chirilgan va u yerga qatnash ularga xiyla og‘irlik qilgan. Shunga ko‘ra shahar markazida joylashgan Qo‘lyozmalar institutiga ishga kirishga qaror qilganlar. Institut rahbari Azizxon Qayumov o‘zlari yaxshi biladigan bu xodimani hech ikkilanmasdan ishga olganlar.

To‘xtamurod aka Rahima opa tilga olingudek bo‘lsalar, hamon “Xurshidning qizi” deb yon-veridagilarni kuldirib yurardilar. Opa endi institutning asosiy xodimlaridan biriga aylangan edilar. Azizxon Qayumov ko‘pincha muhim ishlarni, ba’zida ma’muriy yumushlarni ham ularga topshirar edilar va har vaqt ularning ijrolaridan qoniqish hosil qilibgina qolmasdan minnatdorchilik bildirib ham qo‘yardilar. Keyinroq esa, ularni “O‘zbekiston yozuvchilar va shoirlari arxivi” fondiga mudir etib tayinladilar. Aslida fondagi mavjud holat shuni taqozo etardi...

Fondni epaqayga keltirish uchun ancha ter to‘kishga to‘g‘ri kelgan. Chunki, bu yerdagi hujjat yuritish ishlari o‘z holiga tashlab qo‘yilgan edi. Ularni tartibga keltirish, xodimlarning arxiv hujjatlaridan foydalanishlarini tartibga solish, ularning joylashish tartiblaridagi buzilishlarni tuzatish kerak edi. Shularning hammasini opaning bir o‘zlari amalga oshirganlar. Basharti, kimdir shu ishlarda yordam bermoqchi bo‘lganida ham bunga ko‘nmas edilar. Chunki ularning tabiatlaridagi punktuallik bunga monelik qilardi.

Ana shunday go‘zal hislatlari va halol mehnat egasi sifatida tilga olinganlarida ham To‘xtamurod aka uchun hanuz “Xurshidning qizi” edilar.

1998-yilda Qo‘lyozmalar instituti tugatilib, uning qo‘lyozmalar xazinasini O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik institutiga o‘tkazib yuborildi. Ilmiy xodimlarning bir qismi shu institutga, qolganlari turli ilmiy muassasa va oliy o‘quv yurtlariga ishga joylashtirildi. Men ham mazkur institutda bir muddat ishlagach, yana Adabiyot muzeyiga qayta ishga olindim. “O‘zbekiston yozuvchi va shoirlari arxivi” fondi azaldan Adabiyot muzeyi tarkibida bo‘lganligi va u bilan asosan adabiyotshunoslar shug‘ullanishlari hisobga olinib, shu muzeyda qoldirilgan edi. Mazkur fond bo‘yicha qilinadigan ishlar faol davom etdi. Jumladan, bir qator ijodkorlarning shaxsiy arxivlari qabul qilindi, taniqli adib va adabiyotshunoslarning arxiv hujjatlari kataloglari tayyorlanib, nashr ettirildi.

Jumladan men ham bu ishlarda ishtirok etib Porso Shamsiev, Asqad Muxtor va G'ayratilar shaxsiy arxivlarining ilmiy tavsiflarini tayyorlash bilan shug'ullandim. Shu sabab Rahima opa bilan muloqot va munosabatlarimiz yanada qalinlashdi va menga ularning yana ko'pgina qirralari namoyon bo'la boshladi.

Avvalo shuni aytish kerakki, ulardagi ishlariga bo'lgan ishtiyoq, ixlos, ehtimol, muhabbat deyilsa ham xato bo'lmas, yuksak darajada edi. Shu darajada berilib, sidqidildan zimmalaridagi ishlarini bajarar edilarki, uni men o'zgalar uchun ibrat oynasi degan bo'lardim. Bunday deyishda nechog'lik haq ekanimni isbotlash uchun bir dalil keltiraman: Rahima opa fond mudirligiga doir ishlarnigina bajarib yuraversalar, shuni o'zi ma'muriyatga kifoya. Biroq, ular fondagi saqlanayotgan ulug' va mo'tabar shaxslarning ma'naviy meroslaridan ilhomlanib, o'zlarining ixtiyorlari bilan ularning bir qanchalarining ilmiy tavsifini tayyorlaganlar. Buni muzey rahbari ba'zi xodimlar ishidan qoniqmagan paytlarida ularga ibrat qilib ko'rsatadi.

Ilmiy xodim sifatida Rahima opaga xos yana bir fazilat arxivda saqlanayotgan hujjatlarga nihoyatda bebaho ma'naviy meros sifatida qarab, ularni g'oyatda ardoqlagan holda ko'z qorachig'idek asrashlaridir. Bu ayniqsa, mazkur hujjatlarni foydalanish uchun so'rganlarga berayotgan chog'larida namoyon bo'lardi. Arxiv materiallariga beparvolik bilan qarovchilardan, hujjatlarni duch kelgan joyga qoldirib ketadigan xodimlardan qattiq ranjiydilar, xatto bunday nomaqbul ishlari uchun ularga dashnom bergan paytlari ham bo'lgan.

Rahima opa bilan yaqindan hamkorlik qilish jarayonida biz o'z-o'zidan opa-ukalardek bo'lib qoldik va men ularning ichki dunyolari, shaxsiy hayotlariga yanada chuqurroq kirib bordim. Yanada muhimi otalari haqida hech qaerda yozilmagan, aytilmagan ma'lumotlarga ega bo'ldim. Ishdan holi paytlarda qilgan suhbatlarimizda men otalari haqida gapirishlarini kutardim. Ularning faqat otalarigagina xos bo'lgan go'zal xislatlari, ijod bobida o'zlariga xos fazilatlarini, shaxs sifatidagi ish tutumlari haqida berilib gapirishlari ba'zida g'amginlikka, ko'z yoshiga aylanar edi. Zero, Xurshid domla qanchalar mehnatkash, mahoratli va sermahsul ijodkor bo'lsalar-da, hasad va kurolmaslikdek mudhish illatlarning jabrini tortgan ekanlar. Tabiatan vazmin inson bo'lganliklari, qalban pokiza zot ekanliklari bois, bunday nohaqliklarga sabot bilan bardosh berganliklarini aytib, bir kuni ularning iztirobga to'la bo'lgan

Shukriy, yiqilmoq istasa garduni falak,

Ohim sharorasidan unga aylangiz stun. (sharora – uchqun, alanga)

Baytlarini ko'z yoshi bilan tilga olgan va ushbu misralar bilan tugovchi g'azalga kuy ham bog'langanliklarini aytgan edilar.

Yana bir suhbatda esa qish kezlari sandal yonida ijod qilib o'tirar ekanlar, ba'zan g'amgin ko'rinishga tushib qolardilar va boshlarini kursiga qo'yanlaricha uzoq vaqt jimib qolardilar. Buni ko'rib biz o'sha hasratli kunlar eslariga tushib, shunday unsiz iztirob chekayotganliklarini bilardik va ularni bezovta qilmaslikka harakat qilardik, degan edilar mahzunlik bilan.

Rahima opa otalarining ko'pgina she'rlarini yoddan bilar va o'rni kelganda aytib ham yuradilar. Asarlari qo'lyozmalariniku juda-juda e'zozlagan holda

o‘rganib keldilar. Shuning bilan ularni tavsiflash ishlarini olib bordilar va 2014-yilda “Shamsiddin Sharofutdinov – Xurshid arxivining katalogi” nomi bilan nashr ettirdilar. O‘sha ishlari asnosida Xurshidning o‘z qo‘li bilan yozgan bir nechta she‘rlar matnini men ham qo‘limga olib ko‘rishimga to‘g‘ri kelgan. Meni hayratlantirgani adibning g‘oyatda husni xat egasi ekanligi edi. She‘rlar xoh qalamda yozilgan bo‘lsin, xoh siyohda chiroyli xat bilan bejirim tarzda bitilgan edi. Men o‘shanda Rahima opaga chiroyli va batartib tarzda xat insho etish otadan o‘tganligiga amin bo‘ldim. Opa tavsiflash jarayonida otalarining Xoib, Sharafzoda Shoshiy, Doiy, Sharafzoda Toshkandiy va Shukriy taxalluslari bilan ijod etganligini inobatga olib, shu asosda adib ijodiy merosini tasniflaganlar.

Yuqorida tilga olingan kitobning mas‘ul muharrirligini muzey ma‘muriyati menga yuklagan edi. Shunga ko‘ra menda endi Xurshid ijodiy laboratoriyasi bilan yetarlicha tanishish imkoni tug‘ildi. Men shu vaqtga qadar adibning bunchalar sermahsul ijodkor ekanligini bilmas ekanman. Menku mayli, dramaturgiya sohasi bo‘yicha mutaxassislikka da‘voyim yo‘q, yurtimizning manaman degan teatrshunoslarining hammasi ham Xurshidning dramaturgiya sohasida bunchalar ulkan xizmatlar qilganlarini bilarmikin. Ko‘plab yozilgan pesalargina emas, balki dramaturgiya va teatrga doir yana ko‘pgina ijodiy rejalar va badiiy yaratmalar saqlanardi bu xazinada. Tabiiyki, men ajablandim: Nahotki, shunday zahmatkash ijodkor, dramaturgiamiz fidoiysi bo‘lgan zot hayoti va faoliyatida qaysidir ichiqora kimsalar tomonidan haqsizlik jabrini tortishga loyiq ko‘rilgan bo‘lsa?! Nima, uning aybi kamtarin va kamsuqum inson bo‘lganligimi?! Yoki halol va haqqoniy ijodkor bo‘lganligimi?!

Ittifoqo, hujjatlar orasida bir g‘azalga ko‘zim tushdi.

Matlasi:

*Azaldan baxti badlar menga doim rahnamun o‘ldi,
Uningchun jomi umidim mudomo sarnigun o‘ldi.*

Maqtasi:

*Bas, elga ixtilotimdan dilim vayron erur, Shukriy,
Manga chunkum jahon ahlin ishi makru fusun o‘ldi.*

Mana endi tushungandek bo‘ldim Rahima opamlarning padari buzrukvorlarini ko‘z yoshisiz eslay olmasliklarini yoki so‘zlay olmasliklarini. Taassufki, ularning bu holatlarini orqavarotdan mazammat qilganlarni ham ko‘rganman. Eh, “Ko‘zi yoshluraring holin na bilsun mardumi g‘ofil”.

Bu kabi hasbi hol tarzidagi she‘rlar zaminida o‘sha ichi kir kimsalarning “makru fusun”larini eslatar ekan, ular ustida ishlayotgan Rahima opa qanchalar mahzun holatga tushgan, iztirob chekkanlariykin. Ehtimol, otalaridan qolgan ushbu o‘lmas ma‘naviy xazinani ilmiy jamoatchilik hamda san‘at va adabiyot muxlislari e‘tiboriga havola etish yo‘lida ish olib borishlari bezovta qalblariga qaysidir darajada taskin bergandir.

Darvoqe, opa mazkur xazinani ba‘zi materiallar hisobiga to‘ldirish amallarini ham qilganlar. Jumladan adabiyotshunos Sirojiddin Ahmedov yordamida “Turkiston viloyatining gazetasi” 1914-yil noyabr (№86.6) sonidagi Ismoil Gaspirinskiy vafotiga bag‘ishlangan marsiyaga tuzatish tarzidagi maqolasi

matnidan ko'chirma, Cho'lponning "Turkiston" gazetasining 1922-yil dekabr sonida bocsilgan Xurshid haqidagi maqolasidan ko'chirma hamda ozar dramaturgi Murshidning bir pardali "Haq mahkamasi" dramasi Xurshid tomonidan o'zbek tiliga qilingan tarjimai matnining ("Yosh Sharq", 1923-yil 11-iyul) ko'chirma nusxalari hisobiga arxivni yanada boyitganlar ham.

Shamsiddin Sharafiddinov o'tgan asrning o'ninchi yillari boshlarida, balki undan ham avvalroq yozgan she'rlarida "Shohidiy" taxallusini qo'llagan va 1912 yilda o'sha she'rlaridan "Devoni Shohidiy" nomi bilan devon tuzgan. Mazkur devon O'zbekiston Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti Sharq qo'lyozmalari xazinasida 3096 raqami ostida saqlanib keladi. Undan g'azal, muxammas, ruboiy, musaddas, murabba', tuyuq va soqiynoma kabi she'r turlari o'rin olgan bo'lib, ular o'zbek mumtoz adabiyotining o'ziga xos go'zal namunalari sifatida e'tiborga loyiqdir. Shunga ko'ra Rahima opa 2015-yilda ushbu devonni nashr ettirib, adabiyotshunos mutaxassislar va adabiyot muxlislariga tuhfa etdilar.

Ayni paytda otalarining ilmiy faoliyatlari mahsuli bo'lgan qimmatli yaratilmalarga ham jiddiy e'tibor va e'zoz bilan qaraganlar. Ma'lumki, o'zbek mumtoz adabiyotining, balki Sharq mumtoz adabiyotining yuksak bilimdoni bo'lgan Xurshid domlani O'zbekiston Fanlar akademiyasining Til va adabiyot instituti rahbariyati ishga taklif etgan. Shunga binoan bu ilmiy maskanda faoliyat boshlab, 1958-1960 yillar mobaynida ota Durbekning "Yusuf va Zulayho" dostoni va Ogahiyning "Ta'viz ul - oshiqin" devonining qo'lyozma nusxalarini sinchiklab o'rganib, ularni nashrga tayyorladilar va shu jarayonda har ikki asarning lug'atini tuzish bilan ham shug'ullanganlar. Ushbu lug'atlar qo'lyozma (avtograf) nusxa sifatida mazkur arxivda saqlanib kelmoqda (388 va 390 tavsiflar).

O'sha vaqtlarda, ya'ni o'tgan asrning 60-yillarida respublikamiz hamda sobiq ittifoqning Leningrad va Dushanbe shaharlaridagi qo'lyozmalar xazinalarida "Ta'viz ul - oshiqin"ning oltita qo'lyozma nusxalari saqlangan (Ogahiy asarlari tavsifi (Katalog). Tuzuvchi: Fatxulla G'anixo'jaev. Toshkent, 1986, 14-18 betlar). Ana shular ichidan O'zR FA Sharqshunoslik instituti xazinasida saqlanayotgan mukammal nusxa, ya'ni 1905 yilda xorazmlik kotib Muhammad Ya'qub devon ibn usta Qurbonniyoz tomonidan ko'chirilgan qo'lyozma (inv.raqami: 938) devon nashri uchun asos qilib olingan bo'lishi kerek. Zero, mazkur xazinadagi qo'lyozma (inv.raqami: 7443) nisbatan u darajada mukammal bo'lmagan.

Rahima opa O'z FA Qo'lyozmalar ilmiy tadqiqot institutida faoliyat olib borish asnosida "Ta'viz ul- oshiqin" devoni nashrini mazkur institut xazinasida saqlanayotgan devon qo'lyozma nusxalariga (inv.raqamlari: 289 va 727) qiyoslab o'rganadilar va buning natijasi o'laroq nashrda yo'l qo'yilgan bir qator texnik xatolarni hamda tafovutli o'rinlarni aniqlashga, hattoki, nashrga kirmay qolgan she'rlarni topishga muvaffaq bo'ladilar. Shundan so'ng ularda devonning ana shunday xatoliklardan holi va yangi aniqlangan she'rlar hisobiga to'ldirilgan, mukammal nashrini amalga oshirishga qaror qiladilar. Devonning bunday to'liq variantini sobiq Qo'lyozmalar instituti hali faoliyat ko'rsatayotgan yillarda tayyorlab ulgurgan bo'lsalar-da, turli sabablarga ko'ra uni nashr etishning imkoni bo'lmay kelgan. Mana bu yil xayrli boshlanib, opa avvalo, Sharq adabiyoti

bilimdoni, hassos shoir va dramaturg Xurshidning oqila farzandi, qolaversa uning ma'naviy vorisi, sadoqatli izdoshi va sinchkov tadqiqotchisi sifatida opa shunday sharafli ishni amalga oshirish arafasida turibdilar. Hademay nashr amalga oshadi. Kitob nashr etilish arafasida.

Ana shu yozayotganlarimdan kelib chiqib, mulohaza qilar ekanman, rahmatli To'xtamurod aka Zufarovning hazilsifat aytgan iboralariga "tahrir" kiritgim keldi. Ya'niki, Rahima opa haqida gap ketgudek bo'lsa, "Xurshidning qizi" emas "otasining qizi" iborasini ishlatgim keldi. Voqean, xassos adibning Rahima opadan tashqari, yana uchta qizi va uchta o'g'li bo'lgan. Ular ham sadoqatli farzand bo'lishgan. Biroq bizning Rahima opamiz ulardan farqli o'laroq otaning suyuqli farzandigina emas, uning munosib vorisi hamdir. Zero, uning tinimsiz izlanishlari va mehnatlari bilangina otaning zahmatlar chekib, nohaqliklarga uchrab yaratgan ilmiy hamda ijodiy merosining katta qismi yuzaga chiqdi. Opaning qutlug' sakson yoshga tetik va bardam yetib kelishlarida ana shu xayrli ishlari ma'naviy madad, ruhiy ko'mak bo'lgan bo'lsa, ajab emas.

Ularga ana shunday ibratli ishlarida bardavom bo'lishlarini yaratgandan tilab qolamiz.

MATONATLI OLIMA

Sirojiddin AHMAD

*O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi,
san'atshunoslik fanlari nomzodi*

Rahima Shamsiddinovna Sharafuddinovani o'zbek adabiyotshunoslari orasida tanimagan kishining o'zi yo'q desak mubolag'a bo'lmaydi. Sababi, Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyi fondidagi hujjatlarga ishi tushgan mutaxassis bevosita shu insonga murojaat qiladi va qalbi nurga to'lib xayrlashadi...

O'zbek ayollariga xos milliy fazilat va adabli, o'ta mehnatkash, kasbiga sadoqatli, kasbdoshlariga mehr-muruvvatli olimani ancha yillardan buyon bilaman. Tanibmanki, bekor o'tirganlarini sira ko'rmadim, doimo nimanidir o'qib-yozib o'tiradilar. Katta xonaning ikki tomoniga qo'yilgan qutilarda minglarcha ma'lumotlar to'plangan. Ularning barchasi Rahimaxonning "temir daftari"da qayd etilgan. Qachon bironta olim yoki asar haqida ma'lumot yoki hujjat kerak bo'lsa, darhol daftarga bir nazar tashlab olib, muhayyo qiladilar. Hamkasblari bo'ladimi, boshqalarmi darhol daftarga imzo qo'ydiradilar. Hujjatlarga gard yuqtirmaydilar...

Bir necha marta ishim tushdi... Har gal direktorning ruxsatisiz biron narsa ko'rsatmasliklarini mayingina tushintirar edilar. Rahmatli Saidbek Hasanov huzuriga kirib ruxsat olgachgina kerakli hujjatlar bilan tanishar edim. Bonu har bir hujjatning saqlangan joyidan topib ko'rsatar ekanlar, og'zaki, qo'shimcha ma'lumotlarni ham aytib qo'yardilar. Men esa bu insonning saranjomligi va bilimiga, quvvai hofizasiga qoyil qolardim.

Nihoyatda go‘zal muomala madaniyati sohibasi bo‘lmish bu insonning bilim manbasini bilish ishtiyoqi paydo bo‘ldi. Bir kuni do‘stim, olim va xattot, san’atshunos To‘xtamurod Zufarov bilan birga bir maqolani tekshirib o‘ltirardik. Rahimaxon tasodifan kirib kelib, salomlashgach bir hujjatni olib chiqib ketdilar.

- Taniysiz-a? – dedilar To‘xtamurod aka.
- Sizlarda ishlaydilar...
- Yo‘q, bilmadingiz, Bonu shoir Xurshidning qizlari, dedilar.

Shoir Xurshid haqida ko‘p eshitganman, dramaturg sifatida ham taniqli inson dedim. Uyimizda shoir Xurshidning nomlari ko‘p eslanar edi. Sababi o‘sha kezlarda shoir qalamiga mansub “Farhod va Shirin” musiqali dramasi radio orqali ko‘p eshittirilardi...

80-yillarda adabiyotshunos olim To‘xtasin Jalolov bilan kitob almashdik. Shunda u kishi menga Xurshid domlaning “Farhod va Shirin” dramasi bitmasini berdilar. Bu rejissyor nusxasi edi. Juda xursand bo‘lib ketdim, chunki bu asar dastlab 1926-yilda akademik drama teatrida milliy malakali teatr asoschisi Mannon Uyg‘ur tomonidan ertak sifatida sahnalashtirilgan. Sababi, sho‘rolar hukumati milliy mavzudagi asarlarni sahnaga olib chiqishga ochiqdan-ochiq qarshilik ko‘rsata olmasada, zimdan to‘sqinlik ko‘rsatardi. “Kultprosvet” degan qorovul bu ishlarga boshchi edi. Tomoshabin asarning yangi shakldagi talqinidan, artistlar ijrosidan xursand bo‘lsa-da, ammo spektakl muallifga uncha yoqmaganligi ayrim xotiralardan seziladi. Shu bois kunlardan biri jur‘at qilib Rahimaxonga yuzlandim. Xurshid domlaning arxivlarida saqlanayotgan ushbu asar nusxalari bilan tanishtirdilar. Asardagi o‘zgarishlar qo‘limdagi nusxadan farq qilmasdi. Xurshid domla o‘z asarlarini bir necha nusxada yozib, o‘zgarishlarni kiritib borishlarini sezdim. Bu ijod intizomi.

Ushbu holat – ota merosni avaylab saqlashdagina emas, uning umrini uzaytirishda ham ko‘rinadi. Ma’lumingizki, Xurshid domla she‘r va pyesa yozish bilan kifoyalanmay mumtoz asarlarni nashrga tayyorlash ishlarida faol bo‘lganlar. O‘tgan asrning 65-yilida shoir Muhammad Rizo Ogahiyning “Ta’vizul oshiqin” asarini nashrga tayyorlab e’lon qilgan edilar. O‘sha yillarda ushbu asar o‘zbek kitobxonlari tomonidan katta xursandchilik bilan kutib olingan. She’riyat muxlislari asarni xarislik bilan sotib olishar, uylarida tanish-bilishlariga “ko‘z-ko‘z” qilib, maqtanishganidan xabarim bor. Chunki o‘sha yillarda o‘zbek kitobxonlari mumtoz adabiyotga juda chanqoq edilar. Har bir yangi e’lon qilingan asar omma tomonidan katta quvonch bilan kutib olinar, davr voqeasiga aylanardi. Zamon shunday edi...

Oradan yillar o‘tib ushbu asarni Rahimaxon qayta nashrga tayyorladilar. Bir kuni kitobni bitma nusxasini ko‘rsatdilar. Nihoyatda katta ish amalga oshirilgan edi. Asardagi har bayt erinmasdan solishtirilgan, ayrim joylarga tuzatishlar kiritilgan... mashaqqatli ish. Matn ustida ishlash tonnalab toshni maydalab ichidan oltin zarralarini ajratib olish bilan barobar. Buni matn ustida ishlagan kishigina his eta oladi. Ana shunday ulug‘ ish qilingani bois bonuning ichki xursandligi ko‘zlarining nurida aks etardi. Omad tilab ketdim. Ammo... afsuslar bo‘lsinki... asar bir yulg‘ichning nomidan e’lon qilindi. Ana o‘sha mash‘um kunlarda

Rahimaxonning ichiga chiroq yoqsangiz yorishmasdi. Bu og'ir holatdan ota ijodiga bo'lgan mehr-muhabbatgina qutqardi. Ma'naviy jarohatga malham bo'ldi. Rahimaxon buyuk sabr bilan, o'tmishda o'tgan Malikai Dilso'zdek favorisalar kabi ishga kirishdi: ota merosni o'rganishdek xayrli ish boshladi. O'ziga xos sinchkovlik bilan har bir asar, hujjat tavsif qilindi. Natijada shoir Xurshidning "Shohidiy" taxallusi bilan yozgan "Devon"i (2015) dunyo yuzini ko'rdi...

Rahima Shamsiddinovna oradan ko'p vaqt o'tmay yana bir savobli ishni amalga oshirdilar. Adabiyotshunoslik, san'atshunoslik sohasi intizor bo'lgan hujjatlarni-shoir Xurshidning arxivida saqlanayotgan hujjatlarning tavsifini matonat, kuchli sabr, ota merosga mehr bilan nashrga tayyorlab, e'lon qildilar. Bu mening bilganlarim, xolos. Bilmaganlarim bir talay...

Ahli donish "kishining so'ziga boqilmas, uning kimligi qilgan ishida ko'rinur", deyishadi. Shu bois biz o'quvchilar e'tiborini ta'riflarga emas, balki qilingan ishlarga jalb etdik. Adabiyot muxlislarining ko'nglini ovlaydigan, adabiyotshunoslik sohasini har jihatdan to'ldiradigan asarlar yaratishda mavludamiz-matonatli olimaga uzoq umr, tan sihatlik, xotirjamlik, tolmas g'ayrat tilaymiz.

KAMTAR VA ZUKKO AYOL

Ma'mura RASHIDOVA

O'zR FA Davlat Adabiyot muzeyi katta ilmiy xodimi, fil.f.nomzodi

Dastlab kichik irmoqlardan boshlangan jilg'alar birlashib daryoga aylanadi. U ham doimo olg'a intilib manzili tomon shoshaveradi. Lekin yo'l-yo'lakay juda katta ishlarni amalga oshiradi. Undan suv ichgan qancha-qancha manzillarda ko'kalamzor, ekin-tikin, bog'-rog'lar paydo bo'ladi. Hayotning mazmuni ham shunday. Inson umri davomida bajargan ishlari, amallari, xizmatlari tufayli ulug'likka erishadi. Ana shunday ulug'vor, tom ma'noda buyuk qalb egasi Rahima Sharafutdinova umr so'qmoqlarida jadal odim tashlab, shu kunlarga shukronalik bilan yetib keldilar. Hozirda 80 yoshni qoralab borayotgan Rahima opa juda katta hayot tajribalariga ega, yillar davomida faqat mehnat va yana mehnat bilan faoliyat yuritib kelmoqdalar.

Rahima Sharafutdinova 1944-yil 24-iyulda ziyoli oilada dunyoga keldilar. Otalari buyuk adib va dramaturg Xurshidning katta oilasida tarbiya ko'rganlar. Oiladagi muhit, ilmga bo'lgan muhabbat bevosita Rahima opaning kamtar va zukko inson bo'lib yetishishlarida o'z ta'sirini ko'rsatgan. Ma'naviy barkamol bu insonning siymosi ham shunga monand. O'rtadan farq ochib taralgan mayin sochlarini chiroyli ro'mol yopib, yuzlaridan nur taralib turadi.

Rahima opa bilan mening tanishuvim 1980-yil boshlarida bo'lgan edi. Qo'lyozmalar institutiga ishga kirishlari bilan davramizning to'ridan joy oldilar. Har bir ishda maslahatchimiz, yo'l ko'rsatuvchimiz bo'ldilar.

Rahima opaning ishga nisbatan mas'uliyatlari juda jiddiy. Sababsiz ish qoldirmas, o'z vaqtida ishga kirishib kundalik rejadagi ishlarni amalga oshirmasdan uyga qaytmaydilar. Adabiyot muzeyidagi shoir va yozuvchilar arxivini asrab-avaylash, ro'yxatdan o'tkazish, tavsiflarini tuzish u kishining zimmasida bo'lib, ishga astoydil mehr bilan munosabatda bo'ladilar. Qachon so'rasangiz daftarlarida qaydlar qilingan, hujjatlarning saqlanish o'rni ko'rsatilgan ma'lumotlarni topasiz.

Arxiv hujjatlarini tavsif etib katalog shaklida nashrga tayyorlash ishlarida hamisha yo'l-yo'riqlarini berib, o'zlari namuna bo'ladigan kataloglarni tuzdilar. Ular juda ko'p, lekin ularning ichida padari buzrukvorlari ijodlari mahsullarini sharhlab yozgan tavsiflari alohida e'tiborga molik.

“Mumtoz so'z” nashriyotida 2014-yil chop etilgan “Shamsiddin Sharafutdinov Xurshid arxivining katalogi” Rahima Sharafutdinovaning juda katta mehnatlari samarasidir. Katalogga yozilgan so'zboshida O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyining o'zbek yozuvchi va shoirlari arxivida saqlanib turgan Xurshid – Shamsiddin Sharafutdinov haqida avtobiografik ma'lumotlarni keltiradi. U kishining ijodiy faoliyatlari haqida batafsil to'xtaladi. Bu maqolani dramaturg Xurshid ijodi va faoliyati haqidagi eng haqqoniy va qimmatli ilmiy ish deb baholasak bo'ladi.

Rahima Sharafutdinova har bir hujjatga ta'rif berar ekan, juda nozikta'blik bilan aniq va lo'nda qilib yozadilar, shu bilan birga o'ta sinchkovlik bilan har bir detaliga alohida e'tibor bilan tavsif qiladilar. Jummalarning qurilishi ravon. Shu o'rinda bir misol keltiraman: “161. “Jamila”. Ushbu hujjatning mazmuni haqida taniqli adabiyotshunos Xolid Rasulev asar va uning mazmuni haqida quyidagi ma'lumotni keltirgan: “Jamila” kichik p'esa. Parada, ko'rinishlar yo'q. Voqea atroflicha ochilmaydi. O'ldirilgan Qunduzxon to'g'risida so'z ketadi. Onasi Oysha. Qaynonasi Karamat, eri Zohid Qunduzni Xolmatni (so'zi) orqali o'ldirgani ma'lum bo'ladi. Oysha kirgach, Valixon qizini o'ldirilganidan xabar beradi. Onasi yig'laydi. Karamat qonga qon olaman, deydi.” Shu zaylda asar mazmuni bilan tanishtirgach, asarning qog'oz shakli haqida ma'lumotlar beradi.

“Layli va Majnun” dramasi haqida olim yozadi: “Bu hujjat dramaning variantlaridan biri bo'lib, 17x21 sm. Formatdagi o'quvchilarning bir chiziqli daftariga yozilgan. Daftar 18 varaqdan iborat. Asar havo rang kimyoviy qalamda yozilgan. Daftarning 29 betigacha yozib to'ldirilgan bo'lib, ba'zi varaqlarning ikkinchi sahifasiga ham yozilgan. Ba'zi joylari o'chirilgan va tuzatishlar kiritilgan. Ikki yoki undan ortiq qatordan qilib katak ichiga olingan. Daftarning birinchi va yigirma to'qqizinchi betlarida Alisher Navoiy nomli Adabiyot muzeyining muhri bor. Unda 868/32 raqami keltirilgan. Daftar muqovasi yo'q. Daftarga suv to'kilishi sababli yozuv orqa sahifalariga ham o'tib ketgan. Shunga qaramay, asarni o'qish qiyin emas., yozuv asl holda qolgan. Avtograf, y.y. Arab grafikasi asosidagi eski o'zbek yozuvida. 1 huj., 18 v.”

Bu ma'lumotlardan juda ko'p taassurotlar qoladi. Rahima opaning ish uslublari shunday. Adiblarimizning arxiv hujjatlarini kelgusi avlodlarga to'la-

to'kis saqlab yetkazishni o'z burchi deb bilgan opamizning ishlariga rivoj, tani sog'lik va uzoq umr tilayman.

MUZEYIMIZ FARISHTASI

Gulchehra ABDULLAEVA

O'zR FA Davlat adabiyot muzeyi ilmiy xodimi

Hayotda shunday muhtaram zotlar bo'ladiki, ular o'zining ichki dunyosining boyligi, go'zal suvrati, xatti harakatining mazmundorligi bilan o'z xalqiga husn bag'ishlaydi. Bundaylar bilan xalq iftixor qiladi. Minnatdor avlodlar ulardan ibrat oladilar.

Men Rahima opa Sharafuddinovani 1980-yildan beri bilaman. Rahima opa Qo'lyozmalar institutining nashriyot bo'limiga musaxxix bo'lib ishga kelgan edilar. Opa ishga kelgan vaqtlaridayoq biz yoshlar ularni go'zalliklari va shirin muomalalariga havas qilardik. Vaqt o'tishi bilan ularni o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashishlari, tartib-intizomlari, bizni u kishiga bo'lgan munosabatimizni yanada mustahkamladi.

Institut rahbariyati Rahima opani "O'zbekiston shoir va yozuvchilari arxivi" bo'limiga ilmiy xodim qilib tayinladi.

Mazkur bo'limda Rahima opa Saidbek Hasanov, To'xtamurod Zufarov, Temur To'raboev kabi bo'lim xodimlari bilan baravar mehnat qildilar.

Rahima opa bo'limga o'tgan davrlarida Hamza Hakimzoda Niyoziy arxivi katalogini chiqarish uchun harakat boshlangan edi. Rahima opa shu bo'limdagi olimlar bilan astoydil mehnat qildilar. Nihoyat 1989-90-yilda Hamza Hakimzoda Niyoziy shaxsiy arxivining 2 tomligi nashr bo'ldi.

Opa nafaqat bo'limdagilarga qarashardilar, balki o'zlari ham shoir va yozuvchilar arxivlarini tavsif qila boshladilar. 1980-yilda M.Shayxzoda arxivi katalogi nashr bo'ldi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Shamsiddin Sharafuddinov (Xurshid) shaxsiy arxivi katalogini tayyorladilar. Katalog 2014-yilda nashrdan chiqdi.

Rahima opa ushbu bo'limga o'tganlaridan so'ng bir qancha yozuvchi, shoirlar, adabiyotshunoslar arxivlarini qabul qilishda ishtirok etdilar. Ularning hujjatlarini rasmiylashtirish, qabul qilishdagi tashkiliy ishlarni o'zlari bajarar edilar.

Opa arxiv hujjatlarini o'rganib tavsif berishda quyidagi tartibga rioya qiladilar:

1. Arxiv hujjatlari janrlarga ajratiladi.
2. Yirik asarlar – roman, qissa, pyesa, dramalar.
3. Hikoyalar, novellalar
4. Maqolalar
5. Xotiralar
6. Shaxsiy hujjatlar

7. Rasmlar

Shundan so'ng hujjatlarni o'rganishni boshlaydilar:

1. Hujjatga raqam qo'yadilar.
2. Asar nomi
3. Hujjatning qisqacha mazmuni
4. Hujjat qog'ozining o'lchami
5. Avtograf bo'lsa qanday siyohda, qaysi yozuvda kirillmi, arab yozuvidami, lotin yozuvidami
6. Hujjat varaqlariga dog' tegmaganmi, dog' tekkan bo'lsa yozuvga putur yetmaganmi
7. Sana qo'yilganmi
8. Imzo qo'yilganmi
9. Nechta hujjatdan iborat.
10. Necha varaqdan iborat.

Tavsifda yuqoridagi barcha talablarga javoblar yozib boriladi. Shundan so'ng arxiv hujjatlari konvertga solinadi va 1 raqam konvert ustiga qo'yilib, hujjati o'rganilgan ijodkor ism familiyasi yoziladi.

Biz ham biror ijodkor shaxsiy arxivini o'rganib, tavsif beradigan bo'lsak, albatta tayinlaydilar: "Kelgan tadqiqotchi siz tavsif bergan ijodkor hujjatini qo'lga olgan zahoti konvert ichida qanday ma'lumot borligini bilsin!" deydi.

Rahima opa yillar davomida juda ko'plab shoir vayo'zuvchilar arxivlarini o'rganib tavsif berganlar. Bular: Sobir Abdulla, Habibiy, Chustiy, Xomil Yoqubov, Tohir Malik, Kamtar, Kamoliy, Ibrohim Donish, Otayor Naxanov, Ashurali Ahmedov, Rauf Parfi, G'ulom Zafariy, Jovdat Abdulla, Jonibek Suvonqulov. Shu kunlarda esa Aziz Abdurazzoq arxivini o'rganib tavsif bermoqdalar.

Rahima opani shu yillar davomida arxiv hujjatlarini o'rganishda o'z maktablarini yarata olgan arxivshunos olim, desak bo'ladi. Muzeyimizda saqlanayotgan har bir ijodkor arxivi hujjatiga jon kuydirayotgan, o'z vazifasini sidqidildan bajarayotgan opa har qanday kishini o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashish kerakligini uqtirayotgandek tuyuladi. Men bundan to'rt yil ilgari yil oxirida arxivdagi qaysi ijodkor arxivi hujjatini olib ishlash to'g'risida maslahat so'radim. Rahima opa: "Siz o'zimiz bilan ishlagan kamtarin inson, katta olim, navoiyshunos Muhammadjon Hakimov arxivlarini olib ishleng. Bir necha kishi domlanning arxiv hujjatlarini olib oxiriga yetkazmay tashlab ketishdi. Shuning uchun shu olimimiz arxivlarini ishleng, ham savob bo'ladi", – deb aytdilar. Men zahmatkash olim, kamtarin inson Muhammadjon Hakimov arxiv hujjatlarini olib ishlay boshladim. Ikki yil davomida arxiv hujjatlarini o'rganib, ishlash mobaynida bu olim ijodiy laboratoriyasiga kirib, bu olimning ilmiy salohiyati juda boy va keng ekanligiga guvoh bo'ldim. Arxiv hujjatlari noyob materiallar bilan limmo-lim ekanligi, olimning yozgan monografiyalari, kitoblari, maqolalari, taqrizlaridan ko'rinib turardi.

Olimimizning ruhlari shod bo'ldimi? Ish jarayoni tezlashib ketdi. Muhammadjon Hakimov arxivi katalogini 2023-yilda nashrga tayyorlab chiqardik. Muhammadjon Hakimov shaxsiy arxivi hujjatlari katalogi navoiyshunos olimlar,

tadqiqotchilar tomonidan yaxshi kutib olindi va e'tirof etilib gazetada taqriz ham chiqarildi.

Chunki Olim arxiv hujjatlari chindan ham noyob materiallarga boy edi. Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida bunday noyob hujjatlar juda ko'p. Rahima opaning bir necha o'n yillik orzularidan biri otalari Shamsiddin Sharafuddinov (Xurshid) tayyorlagan Ogahiyning "Ta'vizu-l-oshiqin" devonini o'zlari to'ldirgan holda nashr ettirish edi. Kitob matnshunos O. Jo'raboev sa'y-harakati bilan hademay nashrdan chiqish arafasida.

Shu kunlarda Rahima opa Sharafuddinova muborak 80 yoshga kiradilar. Muzeyimiz ilmiy jamoatchiligi, rahbariyat shunga tayyorgarlik ko'rmoqda. Biz butun jamoamiz bilan opamiz mehnat faoliyatlarini ko'rsatuvchi to'plam, devoriy gazeta tayyorlamoqdamiz.

Fursatdan foydalanib, Rahima opaga sihat salomatlik, uzoq umr, nevara va evaralarini ham to'ylarini ko'rib yurishlarini Ollohdan so'raymiz.

Rahima opa yana uzoq umr ko'radilar, chunki ulardagi shijoat, harakat, g'ayrat, yaxshi niyatlari olam-olam. Bunday inson o'z orzu niyatlariga yetish uchun doim harakatda bo'ladi. Aytadilarku, sendan harakat, mendan barakot. Rahima opaning umrlari yanada barakali o'zlaridek fayzli bo'lsin!

ONAMDEK MEHRIBON

Shafolat HASANOVA

O'zR FA Davlat adabiyot muzeyi katta ilmiy xodimi

Dastlab Rahima opaning faoliyatlariga to'xtalsak, Sharafutdinova Rahima Shamsutdinovna 1944-yil 24 iyulda Toshkent shahri, Charx-Kamolon ko'chasi, 34-uyda ziyoli oilasida dunyoga kelgan. Rahima opa o'zbek adabiyotining taniqli namoyandalaridan biri shoir, dramaturg va tarjimon Xurshid (Shamsiddin) Sharafutdinovning qizidir. Rahima opa 1961-1967-yillarda Toshkent Davlat Universitetining o'zbek filologiyasining kechki bo'limida tahsil olgan. 1961-1969-yillarda O'zRFA A.S.Pushkin nomidagi Til va adabiyot institutining mumtoz adabiyoti bo'limida laborant bo'lib ishlagan. 1972-1974-yillarda O'zbekiston Kinematografiya Davlat qo'mitasida metodist, 1974-76-yillar "O'zbekfilm" kinostudiyasi qoshidagi "O'zbek kino san'ati" muzeyida katta ilmiy xodim, 1977-79-yillarda yana Til va adabiyot institutida ishlagan.

1980-yildan boshlab bugungi kunga qadar O'zRFA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi O'zbekiston shoir va yozuvchilari arxivining mudiri vazifasida ishlab kelmoqda.

Adabiyot muzeyida o'zbek adiblarining arxiv hujjatlarini to'plash ishlari 1970- yildan boshlangan. Arxivda 160dan ziyod adabiyotimiz va madaniyatimiz ravnaqiga o'z ulushlarini qo'shgan shoir, yozuvchi va adabiyotshunos olimlarning arxiv materiallari saqlanadi. Shulardan 122 ta yozuvchi va shoir hamda adabiyotshunos olimlarning arxivi hujjatlari ilmiy tavsiflangan, tartibga keltirilgan.

Rahima opa fondagi barcha hujjatlarni juda tartib bilan saqlaydilar. Hujjatlarning raqamlari ketma-ketlikda joylashganligiga qattiq ahamiyat beradilar. Olingan hujjatlar qaytib joyiga qo'yilmaguncha xotirjam bo'la olmaydilar. Ishga juda mas'uliyat bilan jiddiy yondashadilar. 44 yil davomida shoir va yozuvchilar arxivi bir necha bor binoning boshqa xonalariga ko'chirilgan. Shunday paytlarda Rahima opaning har bir hujjatga mas'uliyat bilan qarashlariga guvoh bo'lganman.

Shoir va yozuvchilar arxivida adabiyotshunos olimlarning arxiv hujjatlari ilmiy xodimlar tomonidan ilmiy tavsiflanadi va kataloglari nashr ettiriladi. Rahima opa fond boshlig'i bo'lishiga qaramay shoir va yozuvchilarning arxiv hujjatlarini ilmiy tavsiflash ishlari bilan ham shug'ullanadilar.

1985-yilda Maqsud Shayxzoda arxivi hujjatlarining katalogi ustida ishlab, uni nashr ettirganlar. 1986-yilda Durbekning "Yusuf va Zulayxo" qissasini qayta nashrga tayyorlaganlar. Shamsiddin Sharafutdinov (Xurshid) arxivi katalogini 2014- yilda nashr ettirdilar. 2016-yil Xurshid qalamiga mansub "Devoni Shohidiy" Rahima opa tomonidan nashrga tayyorlandi va chop qilindi.

2023-yilda Ogahiyning "Ta'vizul oshiqiyn" devonini nashrga tayyorladilar. Shu yili yana Rauf Parfi, Tohir Malik arxivi materiallarini tavsif qildilar. Ko'p yillik mehnatlari davomida Rahima opa Sharafutdinova 20 dan ortiq shoir va yozuvchilar arxivi kataloglarini nashrga tayyorladilar.

Men 2003-yilda aspiranturaga o'qishga kelganimda, Rahima opa arxiv hujjatlari saqlanadigan xonada o'tirardilar. Men ham ular bilan o'sha xonada birga ishlab o'tirardim. Hozir ham bir xonada o'tirib ishlayapmiz, Alhamdulillah!

Rahima opa bilan bir xonada o'tirib ishlash, ayniqsa tushlik vaqtida u kishi bilan bir dasturxon atrofida o'tirish juda maroqli. Chunki Rahima opa arxiv hujjatlariga qanday mas'uliyat bilan yondashsalar, tushlik dasturxoniga ham shunday mas'uliyat bilan yondashadilar. Biz yoshlarni uyaltirib, o'zlari ovqatlarni isitib, choy damlab, rayhonlar solib achchiq-chuchuklarni tayyorlab, chiroyli dasturxon tuzab qo'yadilar. Chiroyli dasturxon tuzalganini ko'rib, Gulchehra opa doimo: "Bugun mening tug'ilgan kunim", – deb hazil qiladilar.

Xullas, tushlik vaqtida ahil jamoamiz bir oila a'zolaridek dasturxon atrofiga jam' bo'lib, Yusuf aka Tursunovning ta'riflari bo'yicha: "Rahima opamizning qo'llaridan choy ichish baxtiga muyassar bo'lamiz" va bu keksa avlod vakillarining ibratomuz va qiziqarli suhbatlaridan bahramand bo'lamiz.

Rahima opa ishlariga fidoyilik va mas'uliyat bilan yondashishlari bilan birga insoniylik hislatlari ham o'rnak olsa arzigulik darajada. Rahima opa muzeyimizdagi har bir xodimga o'z bolasiga qayg'urgandek qayg'uradilar. Meni doimo qo'llab-quvvatlab, maslahatlar berib, ilmiy ishlarimda ko'maklashdilar. Rahmatlik onamning o'rnilariga onalik qildilar. Hayotimdagi har bir quvonchli va qayg'uli kunlarimda ham yonimda dalda bo'ldilar. Farzandlarimga mehribon buvijon bo'ldilar. Buning uchun ulardan juda ham minnatdorman.

Rahima opa ismlariga monand juda ham rahmdil va mehribon insonlar. Muzeyga ishga kelgan xodimlar u kishining mehrlaridan bahramand bo'lib, jamoaning ahilligiga guvoh bo'lib, bu dargohdan umid uzib ketolmaydi.

Rahima opaning onamdek mehribonliklari, muzeyimiz jamoasining ahilligi meni shu dargohga ohangrabodek tortadi. Yaxshi insonlar doimo yaxshilik ulashadilar. Quyosh nur sochgan kabi atrofdagilarga mehr taratadilar. Shuning uchun ham ularning yaxshi niyatlari, duolari ijobat.

Rahima opani qutlug' yoshga kirganlari bilan chin yurakdan muborakbod etamiz! Umlari uzoq va sermazmun bo'lsin! Yana uzoq yillar shu dargohda shogirdlarga onadek mehribon, quyosh kabi ziyo sochuvchi inson bo'lib yursinlar!

EGASINI TOPGAN XAZINA

Feruzabonu ABDURAHMONOVA

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'zbekiston Fanlar akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyining "O'zbekiston yozuvchilari va shoirlari arxivi fondi"ning o'rni butun tashkilotda alohida ajralib turadi. Bu bo'linga Rahima opa Sharafutdinovanning kelishi ham taqdirning bir inoyati bo'lsa kerak. Aks holda bo'lim bunday xazinabondan bebahra qolar edi.

Rahima opa buvimdan ikki yoshga kattalar, ammo ularning g'ayrati, shijoati, o'z ishlariga bo'lgan sadoqati va muhabbati bugungi ba'zi yoshlarda ham topilmaydi. Muzeydagi faoliyatim davomida ulardan katta maktab darsini oldim. Buning uchun ulardan minnatdorman.

Rahima opa 1944-yil 24-iyulda Toshkent shahrida ziyolilar oilasida dunyoga kelgan. Bolaliklarini juda shirin xotiralar bilan eslaydilar. 1961-yilda ToshDu (hozirgi Milliy universitet)ning Filologiya fakultetiga o'qishga kirib, shu yilning o'zida O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutiga laborant bo'lib ishga qabul qilinadi. 1980-yil yanvar oyidan O'z FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyining O'zbekiston shoir va yozuvchilari arxivi bo'limiga kichik ilmiy xodim (arxivarius) lavozimiga ishga qabul qilinadi. Hozirgi kungacha shu yerda "Muzey ashyolari va fond kolleksiyalarini ro'yxatga olish" bo'limining mudiri vazifasida ish yuritib kelmoqda.

Chinakam ilm fidoyisi bo'lgan Rahima opa necha yillardan buyon bu arxiv materiallarini biror parchasiga zarar yetkazmasdan uni avaylab asrash barobarida hujjatlarni saralab, tasniflab, qancha mashaqqat va sabr bilan katalog holiga keltirib nashr ettirib kelmoqda. Buning uchun albatta bilim va saviya kerak. Ular ham rus tilini, ham arab tilini, eski lotin yozuvini yaxshi bilish bilan bir qatorda, tushunarsiz bo'lgan turli xatlarni yaxshi o'qiy olish qobiliyatini ham o'zlashtirganlar. Ular har qanday tushunarsiz bo'lgan husnixatni ham oson o'qiy oladilar.

Shu o'rinda, Rahima opa tirishqoqligi, sabri va matonati hamda olimlarga xos sokin va kamtar tabiati, cheksiz mehnatlari, arxiv xazinaboni sifatidagi ilmlari bilan bir olimalik maqomiga allaqachon loyiqdir.

“Arxivdagi har bir hujjatga uning ilmiy qimmatini hisobga olgan holda yondoshib, hozirgi zamon talablariga mos ravishda saqlash, arxiv hujjatlarini vaqti-vaqti bilan ko‘zdan kechirib turish bizning asosiy vazifamizga kiradi. Chunki arxiv hujjatlari umri boqiy bo‘lgandagina o‘z vazifasini ado eta oladi”, – deydilar Rahima opa. Ular arxivda 164 dan ziyod adabiyotimiz va madaniyatimiz ravnaqiga o‘z ulushlarini qo‘shgan shoir, yozuvchi va adabiyotshunos olimlarning arxiv materiallarini xuddi aytganlaridek avaylab saqlash barobarida ularni ilmiy tavsifini qilib, tadqiqotchilarga, shu sohada ilmiy ish bilan shug‘ullanayotgan olimlarga katta yordam berib kelmoqda.

Rahima opaning o‘zlari uchun belgilab qo‘ygan qat’iy qoidalar bor. Buni oilada ham, ish faoliyatlarida ham, xalqona aytganda “quloqlariga sirg‘a qilib osib olganlar”. Xonalarida shunday vazifalari yozilgan qog‘ozlari doim o‘zlari bilan bo‘ladi:

“O‘zRFA Alisher Navoiy nomli Davlat adabiyot muzeyi “O‘zbek yozuvchi va shoirlari arxivi” mudirining bajarishi kerak bo‘lgan vazifalari:

1. Arxiv qabul qilish;
2. Arxiv hujjatlaridan iste’foda qilish uchun (Oliy o‘quv yurtlaridan, ilmiy dargohlardan) keluvchi talaba hamda xodimlarga kerakli materiallar bilan ta’minlanlash;
3. Har bir muallifning arxiv hujjatlarini ilmiy tavsiflash va kataloglashtirish ishlarini olib borish;
4. Arxiv hujjatlari saqlanayotgan xona sharoitiga (tozaligiga, mo‘tadil havо bo‘lishiga) e’tibor berish.

Arxiv hujjatlarini qabul qilish tartibida avvalo mualliflar (hujjat egalari) yoki ularning a’zolari bilan kelishilgan holda, kerakli hujjatlar asosida ularning roziligi olinadi. Bu ish muassasa rahbariyati ruxsati bilan arxiv xazinaboni hamda arxiv topshiruvchining ishtiroki bilan bajariladi. Arxiv qabul qilingach, hujjatlar imzolanib, bir nusxasi arxiv egasiga, boshqa biri xazinada qoldiriladi. Arxiv hujjatlari temir stellajlarda saqlanadi. Ushbu hujjatlarga alohida tavsif berilgach, avval qog‘oz konvertlarga so‘ng karton qutilarga solinib, stellajlarga muallif ismi-sharifi yozilgan holda terib qo‘yiladi.

Arxiv hujjatlaridan foydalanuvchi, chetdan kelgan talaba va xodimlar oliygoh yoki muassasa blankasiga yozilgan xatlari orqali muzey rahbarining ruxsati bilan kerakli ma’lumotlar bilan ta’minlanadi. Xatda albatta qaysi arxiv hujjatlaridan foydalanishlari, arxiv egasining ismi-sharifi, ko‘rsatilishi kerak bo‘ladi.

Xazinabon arxiv xonasining tozaligiga, havosining mo‘tadilligiga e’tibor berish, hamda kamchiliklarni bartaraf etishda rahbariyatni xabardor qilishi shart.

Arxiv xonasida sharoit qanchalik yaxshi bo‘lsa, hujjatlar shuncha uzoq va sifatli tarzda kelgusi avlodga yetib borishi shubhasiz.

**O‘zbekiston yozuvchilari va shoirlari arxivi mudiri
R.Sharafutdinova**

Rahima opa tartibni juda yaxshi ko‘radilar. Shuning uchun arxiv hujjatlari mualliflari ro‘yxati, arxiv hujjatlarining jvonlarda joylashishi tartibi doim ular tomonidan nazoratda ushlab turiladi. Kingadur hujjat olib berayotganlarida hujjat baland joyda joylashgan bo‘lsa ham yaqin-yaqingacha yosh xodimlarni ham yordamidan voz kechib, hujjatlarni olib berish va qayta joylashni (narvonga chiqib tushadilar) bировga bermasdan, o‘zlari ularni osongina hal qiladilar. Nashrga tayyorlangan ishlarni javonlarda alohida ajratib, tavsif qilinmagan arxiv hujjatlarini ham alohida ajratib qo‘yadilar.

Ilmiy dargohlardan, oliygohlardan keluvchi ilmiy xodimlar, talabalarga arxiv materiallaridan foydalanishlari uchun kerakli hujjatlarni doim tezda topib beradilar. (Garchi, hujjatlar juda ko‘p bo‘lishiga qaramasdan)

Rahima opa o‘zlari tavsif qilgan har bir ijodkorning hujjatlarini shunchaki tavsif qilmaydi, shunchaki hujjat uchun katalogini tuzmaydi, balki unga ijodkorona, olimalik ilmlari bilan yondoshadilar. Bunga bir xonada ishlaganimizda Rauf Parfining arxivini tavsif qilayotganlarida guvoh bo‘lganman. Ular har bir hujjatni sinchkovlik bilan ko‘rib, eng muhim jihatlarini katalogda aks ettirishni, shoirning qo‘lyozmasidagi tuzatishlarni ham ko‘zdan qochirmay, o‘zlarining shaxsiy fikrlarini ham berib ketishni kanda qilmaydilar. Bu orada ijodkorning injiq fe‘li hujjatlarni tavsif qilayotganlarida ham sezilib turishini aytardilar. Ular buni o‘zlari ham ijodkorkona ruhda bo‘lgani uchun sezar edilar, nazarimda.

Rahima opa tavsif qilishdan tashqari bir ijodkorning ishini tugatgach, albatta u ijodkorning hayoti, faoliyati va ijodi haqida kattagina hajmda maqola ham yozib qo‘yadilar. Bu esa, tadqiqotchilar va arxivni o‘rganaman deb kelganlar uchun **yo‘l xaritasi** bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, ularning ba‘zilaridan namunalar keltirib o‘tamiz:

“Sharqshunos olim – ko‘hna ilm tarjimoni Abdufattoh Rasulovning hayoti va ilmiy faoliyati” haqida shunday boshlaydilar:

1-hujjat. “Ko‘plab qadimiy kitoblarning necha ming sahifalarini varaqlab, behisob qo‘lyozmalar tadqiqotga guvoh bo‘lgan, qomusiy olim – arab, fors, turkiy tillarining bilimdoni, tarjimon Abdufattoh Rasulovning bu borada olib borgan samarali mehnatlari beqiyosdir”.

2-hujjat. **“Kamtar Otaboyev ijodiga mansub hujjatlar** Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyining o‘zbek yozuvchi va shoirlari arxivida saqlanadi. Arxiv materiallari 1985-yilning 14-avgustida muzeyga topshirilgan. Shoir arxivi 2009-yil tavsif qilindi. Arxiv materiallari 453 saqlanish raqamidagi hujjatlardan iboratdir. Tavsifda shoirning 1965-1983 yillarda yaratgan ijod mahsuli o‘z aksini topgan.

Kamtar Otaboyev arxivini tavsif etishda asarlar janriga qarab quyidagicha o‘rganildi:

1. Dramalar
2. Muxammaslar
3. She‘rlar.

Shoir Kamtar Ahmadjon Otaboyev 1911-yilda Andijon shahrida dunyoga keldi. (Shoirning yoshlik va o'smirlik yillari haqidagi ma'lumotga ega emasmiz)".

3-hujjat. **Nosirjon Mirzo Abdullo o'g'li Javdat (Javdatiy)** 1905-yilda Qo'qon shahrining sobiy Sarmazor daha Changkentli mahallasida xizmatchi oilasida dunyoga kelgan.

Shoir aslida temiryo'lichilardan bo'lib, shu sohaning yaxshi bilimdoni sifatida yuqori o'rinlarda xizmat qilgan.

Javdat Abdullo 1925-yillardan boshlab ijod qila boshlagan.

Shoir ijodiga mansub arxiv materiallari 1977-yilning aprel oyida o'zbek shoirlari va yozuvchilari arxiviga qabul qilib olindi. Javdat Abdullo arxivi hujjatlari 2010 -yil rejasiga asosan quyidagi tartibda tavsiflandi:

1. "Devoni Javdatiy".
2. Muxammaslar.
3. She'rlar.
4. Shoir arxividagi boshqa ijodkorlar asarlari.
5. Fotolar.

Arxiv materiallari 142 saqlanish raqamidagi hujjatlarni tashkil etadi.

4-hujjat. **Kamoliddin xo'ja Lutfiddin xo'ja o'g'li (Kamoliy)** O'zbekiston FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyining o'zbek shoirlari va yozuvchilari arxivida Kamoliy ijodiga mansub hujjatlar ham o'z o'rnini topgan.

Shoir Kamoliy arxivi 1981-yili qabul qilib olingan. Arxiv hujjatlariga 2010-yilda tavsif berildi. Kamoliy arxivi materiallari 233 ta saqlanish raqamidagi hujjatlardan iborat.

1. She'rlar.
2. Maktublar.
3. Taklifnomalar.
4. Ma'ruza matnlari".

Rahima opa har bir hujjatni qabul qilar ekan, albatta hujjatlar qabul qilib olingan kuniyoq, qoidasiga ko'ra uning dalolatnomasini rasmiylashtiradi. Hamda qilgan ishlarini hisobotini ham qilib boradi. Masalan:

1. O'zbekiston xalq shoiri Sobir Abdullo arxividan ja'mi 537 ta hujjatga tavsif berildi. Tavsif yakunlandi. Ko'rsatkichlar tuzilib, kompyuterga berildi. Tavsif ishi qo'lyozmada 100 varaqdan iborat.

2. Arxiv xodimlari kerakli arxiv xujjatlari bilan ta'minlanayapti.

3. Ilmiy dargohlardan, oliygohlardan kelgan ilmiy xodimlar, talabalar, arxifda saqlanayotgan zarur arxiv hujjatlaridan foydalanishlari uchun yordam berilyapti.

4. "Teatr" adabiy-badiiy, axborot-reklama jurnalida. "Xurshid-tarjimon" sarlavhasida kichik maqola e'lon qilindi. Toshkent, 2007-yil 3-4 soni.

2021-yil

1. O'zbekiston xalq yozuvchisi Tohir Malik arxividan 240 saqlanish raqamida hujjat tavsifini bajardim.

2. Arxiv hujjatlaridan foydalanishda oliygohlardan, ilmiy dargohlardan kelgan xodimlar va talabalarga zarur va kerakli yordam ko'rsatildi. Bulardan Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti doktoranti Pardayeva Nigora: "Anbar Otin asarlarida muallif ijodiy niyati va badiiy-estetik idealining poetik ifodasi" mavzusidagi tadqiqot ishi uchun fil.f. doktori M.Qodirova arxividan foydalandi.

3. Arxivga filologiya fanlari doktori Mavjuda Hamidovanning 27 papkadan iborat shaxsiy arxivida saqlanayotgan hujjatlarini qabul qilib oldim. 127 ta kitobi kutubxonaga topshirildi.

2022-yil

1. Tohir Malik arxivi tavsifining davomi yakunlandi va iyun oyida yirik va xassos shoir Maqsud Shayhzoda arxivi hujjatlarini tavsifi (ikkinchi qismi)ni boshladim.

2. Andijon davlat universitetidan doktorant Sherg'ozieva Gulnoza: "Mo'minjon Toshqin (Muhammadjonov) va uning adabiy merosi" mavzusiga oid hujjatlar; Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti Qarshieva Feruza: adabiyotshunos olim Muhammadjon Hakimov arxividan tadqiqot uchun foydalandi. O'zFA Tarix instituti doktoranti Madina Abdurahmonova arxiv hujjatlaridan iste'foda qildi. Alisher Navoiy nomidan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti Rasulova Shahnoza "Xislat va uning adabiy merosi" mavzusidagi tadqiqot ishi uchun arxiv materiallaridan foydalandi. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti 1-kurs talabalari Alisher Navoiy nomli Davlat adabiyot muzeyi shoir va yozuvchilari arxividagi hujjatlardan (2022-yil 16-iyundan 30-iyungacha qadar folklor amaliyotini o'tkazishda amaliy yordam berib, rahbarlik qildim.) Mansur Afzalov, Muzayyana Alaviya, Oxunjon Sobirov arxivi hujjatlaridan istifoda etishdi.

3. Shoir Omon Muxtorning 64 papkadan iborat arxiv hujjatlarini qabul qilib oldim. 128 ta kitobi kutubxonaga topshirildi.

4. Muzey ilmiy xodimi G.Abdullayeva tayyorlagan adabiyotshunos olim M.Hakimov arxivi katalogini (770 saqlanish raqamidagi hujjatdan iborat) tahrir ishini bajardim.

O'zbek shoir va yozuvchilari arxivi mudiri R.Sharafutdinova

Rahima opa Sharafutdinova xazinaga loyiq xazina inson. Ulardek mehnatkash, kamtarin, bag'rikeng, samimiy inson muzeyda barchaga o'z xislatlaridan yuqtirib uzoq yillardan buyon faoliyat yuritib kelmoqda. Bu yana uzoq yillar davom etsin. Rahima opani qutlug' yoshga kirganlari bilan chin yurakdan muborakbod etamiz!

MUNDARIJA

TURKIY YOZMA YODGORLIKLARNI O'RGANISH MASALALARI	
NAVOIY KONSEPTUAL TIZIMIDA MA'RIFAT TUSHUNCHASINING O'RNI.....	3
Rashid ZOHID	3
“MUBAYYIN” ASARINING BADIY VA MA'RIFIY AHAMIYATI	8
Otabek JO'RABOYEV	8
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI DAVLAT ADABIYOT MUZEYIDA SAQLANAYOTGAN TURKIY QO'LYOZMA MANBALAR XUSUSIDA	16
Dr. Çetin YILDIZ	16
TURKIY TAFSIRDA QORISHIQ TIL MASALASI.....	21
Saidbek BOLTABAYEV.....	21
OLTIN O'RDA YOZMA MEROSLARI: “MUG‘IN AL-MURID” ASARINING XX ASR BOSHLARI QOZOQ YOZMA ADABIYOTIGA TA'SIRI.....	28
АЛТЫН ОРДА ЖАЗБА МҰРАЛАРЫ: «МУҒИН ӘЛ-МУРИД» ШЫҒАРМАСЫНЫҢ 20-ҒАСЫР БАСЫНДАҒЫ ҚАЗАҚ ЖАЗБА ӘДЕБИЕТИНЕ ӘСЕПИ	28
Hamidulla TADJIYEV	28
DAVLAT ADABIYOT MUZEYI XAZINASIDA SAQLANAYOTGAN AYRIM TOSHBOSMA NUSXALAR HAQIDA	33
Shafoat HASANOVA.....	33
QADIMGI YOZMA YODGORLIKLARNI O'RGANISH MASALALARI	38
Muqaddas Allamberganova	38
“AR-RASAIL” ASARINING GERMANIYA FONDLARIDA SAQLANAYOTGAN QO'LYOZMALARI XUSUSIDA	41
Hulkar SULAYMONOVA	41
“BOBURNOMA”NING ILMIIY-TANQIDIY MATNI YARATILISHI.....	48
Sadokat YUSUPOVA.....	48
BAHROMBEK DAVLATSHOYEVNING “MILLIY ASH'ORI TARJIMON” MAJMUASI HAQIDA.....	53
Xilola GIYOSOVA.....	53
ALISHER NAVOIY HIKMATLARINING NASHRLARI HAQIDA	59
E'tiborxon G'OYIBBOYEVA.....	59
MUMTOZ ADABIYOTGA OID QO'LYOZMA MANBALARNING TURLARI VA TASNIFLARI	
“DEVONI ASAD”NING MANBALARI VA MATNIY TADQIQI.....	65
Sohiba UMAROVA.....	65
“HADOYIQ U-S-SEHR FI DAQOYIQ U-SH-SHE'R” ASARI QO'LYOZMALARI MATNINING QIYOSIY TAHLILI	68
Zuhra QODIROVA.....	68
OGAHIYNING “GULSHANI DAVLA” ASARI HAMD QISMNING QO'LYOZMA VA NASHRIDAGI TAFOVUTLARI	73
Muslimabonu TURSUNALIYEVA	73

“ZARBULMASALI SIDQIY” ASARI QO’LYOZMALARI	77
Gulshan MUSULMONOVA	77
“ROHATI DIL” DOSTONINING QO’LYOZMA VA TOSHBOSMA NUSXALARI TAVSIFI VA QIYOSIY TAHLILI.....	83
Komilxon Bokiev.....	83
SALOHIIY QALAMIGA MANSUB “GUL VA BULBUL” DOSTONI BIR QO’LYOZMA NUSXASINING MANBAVIY TADQIQI.....	87
Bilolxon ABDULLAYEV	87
MUMTOZ ADABIYOTNI O’RGANISHDA NAZARIY YONDASHUV VA METODLAR	
QO’QON ADABIY MUHITI NAMOYONDALARI IJODIDA MUMTOZ AN’ANALAR (XIX asr oxiri – XX asr boshlari)	93
Qo’ldosh PARDAYEV	93
XUSRAV DEHLAVIYNING “TUHFAT US-SIG’AR” ASARI DEBOCHASI XUSUSIDA	99
Farida KARIMOVA	99
ALISHER NAVOIYNING “MAJOLIS UN-NAFOIS” TAZKIRASIDAGI AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR TO’G’RISIDAGI MA’LUMOTLAR.....	106
Abdumajid MADRAIMOV	106
MANBASHUNOS OLIM MUHAMMADJON HAKIMOVNING NAVOIY ASARLARI QO’LYOZMA NUSXALARINI O’RGANISHDA TADQIQ METODI VA TAMOYILLARI (“Majolisun-nafois” asari nusxalari asosida)	115
Feruza QARSHIYEVA	115
HOFIZ XORAZMIYNING IJODIY MEROSINING MA’RIFIY-DIDAKTIK AHAMIYATI	120
Shukurjon KURBANOVA	120
ARAB TILIDAGI MUROJAAT YUKLAMALARI VA ULARNING O’ZBEK MUMTOZ SHE’RIYATIDA QO’LLANILISHI.....	124
Sultonbek BOLTABOYEV	124
QIYOSIY TAHLIL: “BOBURIYNOMA”DAGI “BOBURNOMA” MATNLARI	131
Sitora TOJIDDINOVA	131
“ARMUG’ONI XISLAT” ADABIY MANBA SIFATIDA	138
Shahnoza RASULOVA	138
ALISHER FONIY – NAVOIYNING “DEVONI FONIY”SI	143
Mabruk DJURAYEV.....	143
NAVOIY “XAMSA”SINING NASHRLARI.....	150
Shokirova Hilola	150
NAVOIY ASLIYATI TABDILLARIDA FONETIK XUSUSIYATLAR TAHLILI	154
Sayyora OTANAZAROVA.....	154
ALISHER NAVOIY DUNYO ADABIYOTI GAVHARI	157
Abdirosul TASHPULATOV	157
“GUL VA BULBUL” DOSTONINING SHARQ ADABIYOTIDAGI O’RNI...	167

Turakulova GULCHEXRAXON.....	167
TURKIY XALQ DOSTONLARIDA MOTIVLAR O‘XSHASHLIGI	172
Aziza ESKULOVA.....	172
MUMTOZ ADABIY MANBALAR TAHLILI VA TALQINIDAGI TURFALIKLAR	
ABDURAHMON JOMIY IJODINING O‘RGANILISHI.....	175
Dilorom SALOHIY	175
HOFIZ XORAZMIY VA ALISHER NAVOIY IJODIDA AYRIM URF- ODATLARNING BADIY IFODASI.....	183
Mo‘minjon SULAYMONOV, Gulnoza XOLDOROVA.....	183
HAJVIY SHE‘RIYATDA HAYVONLAR NOMI BILAN BOG‘LIQ POETIK TURKUMLAR TALQINI (Milliy uyg‘onish davri Farg‘ona vodiysi hajviy she‘rlari misolida)	189
Ibodatxon RUSTAMOVA, Oybek BARZIYEV	189
“GULSHANUL –ASROR”DA HAZRAT ALI VA SULTON ISKANADAR MADHI	194
Jamoliddin JO‘RAYEV	194
QAHRAMON SHOIRLAR NAVOIYNI O‘RGANISH HAQIDA.....	197
Komiljon PAYZIYEV, Abbosjon ROHATALIYEV	197
“BOBURNOMA”DA QOZOQ TARIXI BILAN BOG‘LIQ JIHATLAR XUSUSIDA	204
Rayxan BAZARBAYEVA, Ayman MAMBETALIYEVA.....	204
“DEVONI SHAVQIY”DAGI MUVASHSHAH-MUXAMMASLARDA SO‘FIYONA TALQINLAR.....	207
Saboxon JO‘RABOYEVA.....	207
TAZKIRA JANRINING XVII-XX ASRLARDAGI TADRIJIY TARAQQIYOTI	211
Lochinbek AHMADALIYEV	211
QO‘QON XONLIGI TARIXIGA OID MANBALARDA UMARXON VA NODIRA HAQIDA MA‘LUMOTLARNING KELISHI	219
Malikaxon NURUTDINOVA.....	219
MAJZUB NAMANGONIY IJODI VA G‘AZAL JANRI	226
Oybek BOYATOV	226
MUMTOZ ADABIYOTDA BULBUL VA ZOG‘ OBRAZINING QIYOSIY TAHLILI.....	229
Muxammadiyeva MOXICHEHRA	229
KOMIL XORAZMIY IJODIDA POETIK TASVIR: AN‘ANA VA NOVATORLIK	235
Muhayyo YAMINOVA	235
ISO VA NUH PAYG‘AMBARLARNING BADIY ADABIYOTDAGI TALQINI	239
Ravshanova Madina Zafarjon qizi	239

**MUMTOZ ADABIYOTNI MAKTAB VA OLIY TA'LIMDA
O'QITISHNING MUAMMO VA VAZIFALARI**

ASIRIDDIN AXSIKATIYNING HAYOTI VA IJODINI O'RGATISH USULLARI.....	243
Muyassar BOQIXONOVA.....	243
MAKTAB TA'LIMIDA LIRIK ASARLARNI O'RGATISHNING O'ZIGA XOSLIKLARI	248
ОСОБЕННОСТИ ИЗУЧЕНИЯ ЛИРИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ В ШКОЛЕ	248
Jamila DOSMATOVA	248
Aygul ABISHEVA	248
O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTINI O'QITISHDA JADIDLAR TAJIRIBASIDAN FOYDALANISH	258
Mohigul HOSHIMOVA	258
KLASSIK LIRIKA NAMUNALARINI MAKTAB O'QUVCHILARIGA O'RGATISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH (Boborahim Mashrabning "Bu tani xokini-yu ruhi ravonni na qilay?!" g'azali misolida.....	262
Gulxayo ABDUG'OFFOROVA	262
QARDOSH XALQLAR ADABIYOTINI O'QITISH TAMOYILLARI	267
Go'zal SEYILXONOVA.....	267

RAHIMA SHARAFUTDINOVA 80 YOSHDA

"OTA UYIM, QADRDON GO'SHAM – CHARX-KAMOLON KO'CHASI, 34 UY..."	272
XAZINABON.....	276
OTASINING QIZI.....	281
Yusuf TURSUNOV	281
MATONATLI OLIMA	287
Sirojiddin AHMAD	287
KAMTAR VA ZUKKO AYOL	289
Ma'mura RASHIDOVA	289
MUZEYIMIZ FARISHTASI	291
Gulchehra ABDULLAEVA	291
ONAMDEK MEHRIBON.....	293
Shafolat HASANOVA.....	293
EGASINI TOPGAN XAZINA	295
Feruzabonu ABDURAHMONOVA.....	295

O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTINI O‘RGANISHNING NAZARIY VA MANBAVIY ASOSLARI

**Mavzusidagi xalqaro II ilmiy-amaliy konferensiya
materiallari**

(30-oktabr, 2024-yil)

Bosishga ruhsat etildi: 17.10.2024-yil
Bichimi 60x84^{1/16}. «Times New Roman»
garniturada raqamli bosma usulda chop etildi.
Shartli bosma tabog‘i 7,5. Adadi 50. Buyurtma № 22-03

«IMPRESS MEDIA» MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shaxri, Qushbegi ko‘chasi, 6-uy.